Kokand University

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

JADIDLARNING MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO‘PLAMI



- Jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari va pedagogik merosi
- Jadidlar g‘oyalarining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati va dolzarbligi
- Milliy pedagogika rivojida tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi

Qo‘qon – 2026

“JADIDLARNING MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI”
MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Qo‘qon - 2026

Qo‘qon universiteti direktori

G.E.Zaxidov tahriri ostida

Tahrir kengashi:

Xolboy Ibraimov – pedagogika fanlari doktori, akademik

Risbay Djurayev – pedagogika fanlari doktori, akademik

Zeboxon Qobilova – filologiya fanlari doktori, professor

R.G. Safarova – pedagogika fanlari doktori, professor

Xilolaxon Tojiboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor

Dilshod Temirov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Zarif Begimqulov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ozod Abdug‘aniyev – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Saidbek Boltabayev – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Konferensiya materiallarini nashrga tayyorlaganlar: T.Umarov, N.Javharova, S.Shamsiddinova

JADIDLAR MEROSI — ZAMONAVIY TA’LIM RIVOJINING MUHIM OMILI

Zaxidov G‘afurjon Erkinovich,
Qo‘qon universiteti rektori.

Bugungi globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvi hamda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan yangi talablar milliy pedagogik merosni chuqur o‘rganish va uni zamonaviy ta’lim paradigmasi bilan uyg‘unlashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda. Ayniqsa, jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan yaratilgan pedagogik g‘oyalar, ma’rifiy qarashlar va ta’limga oid innovatsion yondashuvlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

“Jadidlarning milliy pedagogika rivojiga qo‘shgan hissasi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ana shu muhim ehtiyojdan kelib chiqib tashkil etildi. Ushbu to‘plamda jamlangan ilmiy maqolalar jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlarini tahlil qilish, ularning milliy pedagogika rivojiga qo‘shgan hissasini ilmiy asosda yoritish hamda zamonaviy ta’lim tizimida ularni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Jadidlar o‘z davrida nafaqat ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan, balki ta’lim mazmuni va metodikasini tubdan yangilashga intilgan ilg‘or pedagoglar sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Ularning maktab islohoti, ona tilida ta’lim berish, dunyoviy bilimlarni keng joriy etish, yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatish borasidagi qarashlari bugungi kun ta’lim siyosati bilan hamohangdir. Shu jihatdan jadidlar merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki zamonaviy pedagogik tafakkurni boyituvchi muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur to‘plamda taqdim etilgan ilmiy ishlarda jadid pedagogikasining nazariy asoslari, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, shuningdek, hozirgi ta’lim tizimida qo‘llanish istiqbollari keng qamrovda yoritilgan. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar pedagogika fanining dolzarb muammolariga yangi yondashuvlar olib kiradi, ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Konferensiya materiallari to‘plami ilmiy jamoatchilik, pedagog olimlar, doktorantlar, magistrantlar hamda ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nashr orqali jadidlar merosini chuqurroq anglash, uni zamonaviy ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish yo‘lida yangi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratiladi, degan umiddamiz.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya ishiga o‘z hissasini qo‘shgan barcha mualliflarga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Ularning ilmiy izlanishlari milliy pedagogika rivojiga xizmat qiladi, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi!

YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDCHILIK FAOLIYATINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Risbay DJURAYEV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri,
pedagogika fanlari doktori, akademik

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari, ularning yosh avlodni ma’rifatli, vatanparvar va axloqan yetuk qilib tarbiyalashdagi faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, jadid namoyandalarining ta’lim, adabiyot, matbuot va madaniyat sohalaridagi xizmatlari asosida bugungi kun yoshlar tarbiyasiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Jadidchilik, tarbiya, ta’lim, ma’rifat, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, milliy uyg‘onish, pedagogik qarashlar.

Annotation. This article highlights the role and significance of the Jadid movement in youth education. The views of Jadid thinkers on education and upbringing, their activities in educating the younger generation to be enlightened, patriotic and morally mature are analyzed. Also, the impact of Jadid representatives on today's youth education based on their services in the fields of education, literature, press and culture is revealed.

Keywords. Jadidism, upbringing, education, enlightenment, youth education, patriotism, moral education, national awakening, pedagogical views

Jaholatga qarshi kurashish, millat sha’nini himoya qilish orqali mustamlaka bo‘lgan Turkistonni taraqqiy etgan davlatlar qatorida ko‘rishni orzu qilgan ajdodlarimiz bugun o‘z maqsadlariga erishdilar. Endilikda esa bu vazifalar bugungi avlod zimmasiga yuklangan bo‘lib, yoshlarni milliy o‘zlik ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir.

Jadidlar ta’lim orqali yoshlarning aqliy salohiyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratganlar. Xususan, Abdulla Avloniy yosh avlodni bilimli va ma’naviyatli qilib tarbiyalash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, millat taraqqiyotining asosi – ma’rifatdir [1. 14–15].

Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yosh avlodni axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash masalalarini keng yoritadi [1. 22–25].

Jadidlar yoshlarni faqat bilimli qilib tarbiyalash bilan cheklanmay, balki ularda halollik, adolat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga ham katta e’tibor berganlar [2. 45–47].

Shuningdek, ular yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni muhim vazifa deb bilganlar. Milliy o‘zlikni anglash va millat ravnaqi uchun xizmat qilish g‘oyalari jadidlar faoliyatining asosini tashkil etadi [3. 30–32].

Abdurauf Fitrat asarlarida ham millat taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasi masalalari muhim o‘rin egallaydi [3. 55–57].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, yangi usul maktablarini tashkil etish orqali ta’limni isloh qilishga katta hissa qo‘shgan. Uning “Padarkush” dramasi milliy teatr rivojiga xizmat qilgan [4. 18–20].

Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda jadidchilik harakatini rivojlantirib, zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishga harakat qilgan [5. 12–14].

Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Shakuriy, Hoji Muin, Ashurali Zohiriy kabi jadidlar ham ta’lim va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shganlar [6. 40–44].

Jadidlar yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega insonlar qilib tarbiyalashni maqsad qilganlar. Ular ilm-fan, matbuot va madaniyat orqali jamiyatni uyg‘otishga xizmat qilganlar [2. 60–62].

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ma’naviy va madaniy uyg‘onishida muhim o‘rin tutgan. Jadidlar yosh avlodni bilimli, vatanparvar va axloqan yetuk qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning ta’lim-tarbiya borasidagi ilg‘or g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu bois jadidlar merosi yoshlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Djurayev R. Tarbiya nazariyasi. – Toshkent, 2010.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent, 1999.
5. Munavvarqori A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2003.
6. Ibrat I., Shakuriy A. va boshqalar. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent, 2005.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING MA’RIFIY-PEDAGOGIK QARASHLARI

Zeboxon QOBILOVA,
Qo‘qon Universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.
Sug‘diyona ERGASHEVA,
tayanch doktorant.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogika sohasida amalga oshirgan ishlari, ochgan maktablari, maktab dasturlari uchun yozgan o‘quv darsliklari va ularning o‘z davri va hozirgi kundagi dolzarbligi haqida fikrlar bildirilgan. Mulohazalar serqirra ma’rifatparvarning faoliyati va ijodidan misollar bilan asoslangan, natijada Hamzaning pedagogik merosida aks etgan ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Hamza, davr, pedagog, ilm, darslik, ma’rifatparvar, ijodkor, roman, jadid, drama, dastur, ma’rifat, maktab

Abstract. This article presents opinions on the work of Hamza Hakimzoda Niyazi in the field of pedagogy, the schools he opened, the textbooks he wrote for school programs, and their relevance in his time and today. The comments are based on examples from the activities and work of the versatile enlightener, as a result, the importance of Hamza's views on education reflected in his pedagogical heritage is revealed.

Keywords: Hamza, era, pedagogue, science, textbook, enlightener, creator, novel, novel, drama, program, enlightenment, school

Yo, millat deb ko‘yida o‘l Nihoniy,
Yo dunyo deb millatdan uz vafoni,
Bir qinga ikki pichoq sig‘moq foni…
(Hamza)

Ma’rifatparvarlik davrining yalovbardorlaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, ijodi va pedagogik faoliyatiga nazar tashlansa, inson ko‘z oldida Hamza timsoli umuman o‘zgacha ko‘rinishda gavdalanadi. Hamza o‘z millati uchun yonib-kuygan jonkuyar jadid: “Hamza – ulug‘ dramaturg, Hamza – an’ana va novatorlikni birlashtirgan shoir, Hamza – boshlovchi nosir, Hamza – o‘tkir publitsist, Hamza – mohir pedagog, Hamza – bastakor, Hamza – otashin notiq, Hamza – rejissiyor, Hamza – teatr arbobi…”[2, 82].

Yurtdoshlari uchun molini va jonini bera oladigan otashin ma’rifatparvarning jadidchilik yo‘lida tarbiya, maorif, adabiyot, ma’rifat, umuman, ta’lim sohasida amalga oshirgan ishlari ham salmoqli. Olim Nurboy Jabborov Hamzaning jadidchilik faoliyatiga baho berar ekan 4 jihatni keltirib, ulardan birinchisi sifatida

jadidchilikning tamal toshi deya e’tirof etilgan yangi maktab va maorifni zamon talablari darajasiga ko‘tarishni keltiradi. Darhaqiqat, Hamza bu yo‘nalishda o‘z o‘rniga ega. Negaki, u maktablar ochadi, dunyo kezib eng so‘nggi ta’lim jarayonlari bilan tanishib, maktablari uchun darsliklar yaratadi, hech harakatdan to‘xtamaydi. Dastlab, Toshkent shahrining Qashqar mahallasida, oradan bir yil o‘tib Qo‘qon shahrida “usuli jadid” maktablarini ochadi. Maktablar hukumat ta’qibi bilan yopilaveradi, lekin Hamza o‘z yo‘lini yo‘qotmay, bir muddat o‘tib, yana Marg‘ilonda, so‘ngra Qo‘qonda jadid maktablarini tashkil etaveradi. Ilm maskanlarining yopilib borishini o‘z “Tarjimai holi”da shunday eslaydi: “…1914-yilning oxirlarida Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oyga bormay, Andreyev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi. Undan yana Xo‘qand kelib, yo‘qsil bolalar uchun pulsiz o‘qish maktabi ochdim…o‘zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachalnigi Medinskiy tomonidan tintuv bo‘lib yopildi…”[4, 294]. Tabiiyki, bir maktab o‘z faoliyatini boshlashi, zarur o‘quv-qurollar bilan ta’minlanishi, ta’lim beruvchi muallimlar va o‘quv adabiyotlar bilan to‘la qamrab olinishi anchagina mablag‘ – ma’rifatparvar molini, berkitilayotgan vaqtdagi tintuv jarayonlari va tekshiruvlar – ma’rifatparvar jonini talab etadi. Hamza mazkur faoliyati davomida moli va jonini ayamay, xalqini savodli ko‘rishni istadi, o‘z manfaatlaridan kechib, yurt qayg‘usi bilan yashadi. Yangi usul maktablari uchun pedagogik risolalar – “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi zaruriy ta’lim-tarbiya elementlarini qamrab olgan darsliklar yaratdi. Chunki, “…necha asrlardan buyon maktablarda qo‘llanib kelinayotgan kitoblar yangi davr yoshlarini tarbiyalashga, keng ko‘lamda fikrlovchi, millat, Vatan jarohatlariga malham bo‘luvchi, XX asr ilm-fan, texnikasidan xabardor yoshlarni kurash maydoniga olib chiqishga qodir emasligini hatto “usuli qadim” tarafdorlari ham tushuna boshlagan edilar. Buning uchun yoshlarni yaramas odatlardan, axloqiy tubanlikka, fojeaviy natijalarga olib boruvchi turli-tuman ko‘ngil xushi o‘yinlardan muhofaza qilish, shu bilan birga, axloqiy poklikka yetaklash kerak edi. Hamzaning darsliklari mana shu ehtiyoj natijasi o‘laroq vujudga keldi. [1, 329]. “Yengil adabiyot” darsligi 45 darsni, “O‘qish kitobi” 10 darsni, “Qiroat kitobi” esa ilm, axloq, rahm, sadoqat kabi 15 xislatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuksak ilm va tajribaga ega pedagog Hamza “Yengil adabiyot” darsligini tushunarli qilib, 1-sinf o‘quvchilari uchun maxsus tayyorlagan. Har bir dars 1-sinf o‘quvchilarining tushunish darajasini, qabul qilish saviyasini, o‘qish savodxonligini, yod olish ko‘nikmasini hisobga olib sodda ko‘rinishda berilgan. Oddiylik qatidagi mazmundorlik, ta’lim va tarbiyaning bir maromda yetkazilishi darslikning o‘ziga xosligini belgilaydi. Birinchi darsga e’tibor qarataylik:

Xudo birdur, besherik,
O‘lmas hech, doim tirik,
Bizdek badan, joni yo‘q,

Bir sifat birla tirik.

Xudoning yo‘q otosi,
Qarindosh ham onosi,
Ham oning yo‘q xotuni,
Ham eru qiz bolosi.

Xudo ko‘ruvchi o‘zi,
Ammo bizdekmas ko‘zi,
Birdek katta-kichikni,
Ko‘rar ham tun-kunduzi.

Xudoning yo‘q makoni,
Oldi ham orqa yoni,
Oftob ravshani kabi,
Nuri barobar oni. [5, 606]

Hamza ushbu dastlabki ta’limni “Tavhid darsi” deb nomlagan. Pedagog Fuzuliy, Bedil, Xoja Hofiz yoki Hazrat Navoiylar talqinidagi tavhidni bolalarga tushuntirishdan ko‘ra, dastlabki yengil tushuntirib olish uchun o‘quvchi sajiyasidagi yo‘lni topa bilgan. Shu yo‘sinda uch dars Allohning sifatlari va qudratiga bag‘ishlangan, navbatdagi 4-5-darslarda Payg‘ambarimiz haqlarida so‘z borsa, keyingi darslar bevosita maktab (6-14-darslar), ilm va jahl (15-24-darslar), ilmga targ‘ib (25-30-darslar) to‘g‘risidadir. Masalan, maktabga borgan bolaning savodi haqida, maktabning bola kelajagidagi ahamiyati haqida chiroyli ifodalar o‘qiguvchini o‘ziga tortmay qolmaydi, qolaversa, o‘qimishli va savodli bo‘libgina oilani faqirlikdan qutqarib, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish mumkinligi, maktabsiz millat qullikka mahkumligi tolibga g‘oyaviy malham bo‘ladi:

Maktab — millat saroyi,
Ilmu adabni soyi,
Dunyoda eng saodat
Oxtarganlarni joyi.

Maktab — millatni guli,
Millat aning bulbuli,
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanni quli. [5, 610]

Darslikning 31-darsidan ta’lim birozgina og‘irlashadi. Endi o‘quvchiga she’riy tizimda hikoyatlar keltiriladi, hayot davomida kerakli nasihat va o‘gitlar beriladi. Parchalar keng iste’moldagi hazaj, ramal vaznlarida, savolu javob, tamsil, go‘zal tashbehlar qurshovida taqdim etiladi.

Keyingi pedagogik risola – “O‘qish kitobi”da axloqiy hikoyalar beriladi. Ayni zamonasi uchun eng dolzarb mavzular zamonaviy yo‘sinda o‘qish uchun manba vazifasini o‘taydi. Har bir darslardagi parchalar o‘qish texnikasiga to‘la javob berishi, ta’lim bilan hamohang tarzda tarbiya mazmunini o‘z ichiga singdirganligi, zarur o‘rinda tez o‘qish ko‘nikmasini rivojlantira olishi, “bir o‘qigan maktab bolasi tilidan aytilgani” uchun o‘quvchilarda tushunganlarini gapirib bera olish malakasini shakllantirishi bilan ahamiyatli. Hamza o‘z darsliklarida bolalarni aldab yupatishni, ular ko‘ziga olamni yorqin bo‘yoqlarda ko‘rsatishni istamaydi. O‘quvchilarga yaqin bir suhbatdoshday munosabatda bo‘ladi. Ta’limni tarbiyadan ajratib qo‘ymaydi. Yoshlarda eng ezgu insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun adabiyot juda ta’sirchan vosita ekanligini yaxshi biladi. Shu bois, tuzgan darsliklariga oliyjanob axloqiy fazilatlarni singdirishga xizmat qiluvchi ko‘plab badiiy parchalarni kiritadi. Masalan, quyidagi to‘rtinchi dars – “Ul aqllik bolaning mushfiqa onasi uchun-da qilgan tashakkurlari”dan olingan parchada onaning inson hayotidagi o‘rni, farzandlik burch va vazifalari, to‘lab bo‘lmas qarzlar, uni rozi qilib Jannatga kirish va Yaratgan roziligini olish sodda, tushunarli, aniq tarzda ifodalangan:

Parcha go‘sht erdik tug‘ilgan vaqtimiz
Onamizning bag‘ri o‘ldi taxtimiz.

Og‘risa bir joyimiz yig‘lab yurub,
Har eshikni kezdi doru oxtarub.

Kim ato ham onoga xizmat qilur,
O‘lmasidan joyini jannat qilur.

Ham Xudo, ham Mustafo bo‘lg‘ay rizo
Bizni onlar shod o‘lub, qilsa duo [3, 346]

So‘nggi risola “Qiroat kitobi” – ikkinchi sinf toliblari uchun yaratilgan. Bu pedagogik asar ham shakliy va mazmuniy jihatdan o‘ziga xos. Ya’ni birinchi ma’lum bir tushuncha yoki xislatga to‘liq sharh va izoh beriladi, ikkinchi, mos bayt keltiriladi, uchinchi, uyg‘un hikoya rivoyat qilinib, xulosa chiqariladi. Barcha 15 dars shu tartibda shakllantirilgan. Ba’zi o‘rinlarda birinchi va ikkinchi o‘rinlari almashgan holatlar ham ko‘zga tashlanadi. Lekin, bu qiroatga ta’sir etmay, sharh va izohlarga bo‘lgan estetik kutuvni oshirgan, ta’kidni kuchaytirgan. Tanlangan matn va manbalar o‘quvchi darajasiga monand tanlangan: tushuncha izohiga tushunish oson, baytlar tarkibida alohida lug‘at talab etuvchi so‘zlar kam (o‘qituvchi qiynalmay tushuntira oladi), hikoyalar ertaklardek silliq o‘qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, yuksak mahoratli pedagog Hamza tarafidan tuzilgan o‘quv darsliklar zamonaviy dasturlar asosida yaratilganligi bilan birga, qadim an’analarni mujassamlashtirgani, o‘sha davrning dolzarb mavzu va muammolarini ko‘tarib,

ularga yechim ayta olgani, darsliklarga bo‘lgan talabni qondirishda yordamchi bo‘lgani, qolaversa, millatni ilmga chorlagani bilan o‘z davri va hozirda qadrini, ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Ya’ni Hamza darsliklarida qamrab olingan toliblarni har taraflama o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish orqali shakliy va mazmuniy jihatdan o‘stirish, hozirda eng zamonaviy ta’lim texnikasi sifatida yangi nashr darsliklarimizda alohida e’tibor markazida bo‘lmoqda. Aslida, ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish davrlarida bu jarayonga alohida diqqat qaratilib, butun jadidlar, xususan Hamza tomonidan qadimchilar dasturi rad etilib, yangicha o‘qitish tizimi joriy etib bo‘lingandi. Hozirda tinmay uqtirilayotgan najot faqatgina ilmda ekanligi bir asr oldin jadidlar tomonidan ochiq aytilgandi. Ular baralla aytishga ta’qiq qo‘yilganda, sahna asarlari orqali ko‘rsatib, matbuotda targ‘ib qilib, nasr va nazm qa’tida yangi janrlarda ijod qilib to‘xtamaganlar. Jonlarini xatarga qoyib bo‘lsa-da, bu yo‘ldan millatni savodli va hur ko‘rish orzusidan qaytmaganlar.

Serqirra ijodkor Hamza bu faoliyatda o‘zi faol qatnashib fidoyilik ko‘rsatish bilan birga, o‘z asarlariga ham millat ziyolilarini, davr pedagoglarini jonkuyar qahramon qilib tanlagan. Jumladan, dramaturgning “Zaharli hayot yoki ishq qurbonlari” dramasini ko‘ramizmi, yoki o‘zbek nasrida yangi janrni sinovdan o‘tkazgan nosirning “Yangi saodat” milliy romanini o‘qiymizmi ilmga da’vat va obrazlarda jadiddona ruh yaqqol sezilib turadi. Jamiyatdagi fojiaviy tanazzul: mutaassiblik, jaholat, razolat, qoloqlikdan taraqqiyot fidoyilari, ilm-ma’rifat egalari o‘z muhitini savodli qilib qutqarib qolishi mumkin.

Janri “Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi” deb ko‘rsatilgan “Zaharli hayot yoki ishq qurbonlari” dramasida Maryamxon va Mahmudxon o‘z oldilariga mana shundan ulug‘ maqsadlarni qo‘ygan edilar. Lekin jamiyat buni istamadi. Maktablar ochib, xalqni ma’rifatli qilib, Haq roziligiga yetishishni niyat qilgan ziyolilar jaholat, mutaassiblik, ma’rifatsizlik qurboni bo‘ldilar.

O‘zbek romanchiligida ijodiy ekprement bo‘lgan “Yangi saodat” milliy romanida “saodat” – ilmda ekanligi bayon etilgan. Nima uchun aynan, “yangi saodat”? Bu davrda xalq “saodat”ni nimada ko‘rgan? Hamza “yangi saodat”ni jamiyatga qay yo‘sinda tushuntirmoqchi bo‘lgan, “saodat”dan “yangi saodat”ning ahamiyatli ekanligini, “umri uzoq” bo‘lishini anglatmoqchi bo‘lgan. Olimjonning otasi Abdulqahhorga otasi G‘oziboydan katta boylik qoldi. Natijada ilmsiz, johil Abdulqahhorning oilasi to‘q. Bu jamiyat nazdida – “saodat”. Lekin vaqt o‘tishi bilan bu “saodatli yillar” tugaydi, ilmsizlik, ma’naviy tanazzul boshlanadi. Oqila Maryamxon tarbiyasini olgan, saxovatpesha muallimdan ta’lim ko‘rgan, oliyhimmat savdogar Abdulrahmonboy nazariga tushgan Olimjon qiyinchiliklarda, mashaqqat bilan ilm o‘rganib, oilani keyingi saodatga yetkazadi. Aslida ham “Yangi saodat” mana shunday – ilm ortidan quvib, tinmay o‘rganish va izlanishda. Insonning moddiy va ma’naviy boyishi, saodati faqatgina ilm-u urfon bilan amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy pedagogikamiz oldida yigirmanchi yuz yillik avvalida yaratilgan pedagogik asarlarni qayta baholash, tadqiq qilish masalasi turibdi. O‘ylaymizki, bu jarayonlar tez sur’atlarda soha olimlari va tadqiqotchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. – T.: Noshir, 2012.
2. Hamdamov U. Hamza va yangi o‘zbek adabiyoti. // Hamza va XX asr o‘zbek adabiyoti. – Farg‘ona – 2019.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tarjimai hol. // To‘la asarlar to‘plami. Ikkinchi tom. – T.: Fan, 1989.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tarjimai hol. // To‘la asarlar to‘plami. To‘rtinchi tom. – T.: Fan, 1989.
5. Turkiy adabiyot durdonalari. // Muqimiy, Furqat, Hamza 11-tom. – T.: O‘zbekiston, 2022.

YOSHLAR TARBIYASIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI: JADID MA’RIFATPARVARLARI MEROSI ASOSIDA

R.G. SAFAROVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
“Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudiri, p.f.d., prof.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlarining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Unda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon va Munavvarqori Abdurashidxonovning ilm-ma’rifat, milliy ong, axloqiy tarbiya va Vatanga sadoqat haqidagi fikrlari yoritilgan. Shuningdek, jadidlar merosida yoshlar tarbiyasi, milliy uyg‘onish va vatanparvarlik g‘oyalarining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Maqolada jadid ma’rifatparvarlari qarashlarining bugungi ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, jadid ma’rifatparvarlari, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy uyg‘onish, pedagogik qarashlar, ilm-ma’rifat, milliy ong, axloqiy tarbiya, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Cho‘lpon, Munavvarqori.

Annotation: This article analyzes the pedagogical views of Jadid enlighteners on educating youth in the spirit of patriotism. It highlights the ideas of Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Cholpon, and Munavvarqori Abdurashidkhanov regarding education, national consciousness, moral upbringing, and devotion to the Motherland. The article also reveals the interconnection between youth education, national awakening, and patriotic ideas

in the legacy of the Jadids. Furthermore, it substantiates the importance of the Jadid enlighteners’ views in the modern educational process.

Keywords: Jadidism, Jadid enlighteners, patriotism, youth education, national awakening, pedagogical views, education, national consciousness, moral upbringing, Behbudi, Fitrat, Avloni, Cholpon, Munavvarqori.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy uyg‘onish harakatining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ana shu tarixiy jarayonda jadid ma’rifatparvarlari xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, milliy ongni uyg‘otish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash masalasini kun tartibiga olib chiqdilar. Jadidchilik harakati faqatgina yangi usul maktablarini ochish yoki o‘quv qo‘llanmalarini yaratish bilangina cheklanib qolmadi. U, avvalo, millat taqdiri, Vatan istiqboli va xalq ozodligi uchun mas’ul bo‘lgan ma’rifiy, ijtimoiy va pedagogik harakat edi.

Jadidlar qarashlarida yosh avlod tarbiyasi markaziy o‘rin egallaydi. Ular yoshlarni ilm-ma’rifatli, axloqan pok, milliy o‘zligini anglagan, Vatan taqdiriga daxldor shaxslar etib voyaga yetkazishni eng muhim vazifa deb bildilar. Bu ma’noda jadid ma’rifatparvarlari ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi har qanday davrda millatning barqaror taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi va ijtimoiy uyg‘onishining muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarning asarlari hamda pedagogik faoliyatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash g‘oyasi alohida ustuvorlik kasb etadi. Ularning har biri o‘zining ilmiy, adabiy va pedagogik merosi orqali yoshlarni millat va Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishga, ilm egallashga, axloqiy komillikka va milliy g‘ururga da’vat etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yirik vakili sifatida yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. U o‘z davrining ma’rifatchisi, pedagogi, jurnalisti, dramaturgi va ijtimoiy arbobi sifatida millat ravnaqi avvalo bilimli, ongli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash bilan bog‘liq ekanini chuqur anglagan. Behbudiy nazarida ilm va ma’rifatsiz millat kelajaksizdir. Shu sababli u yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishni tarbiyaning asosiy yo‘nalishi deb bilgan.

Behbudiy uchun vatanparvarlik tarbiyaning poydevori edi. U yoshlarni nafaqat diniy bilimlarga, balki tarix, geografiya, tabiiy fanlar kabi dunyoviy ilmlarga ham keng jalb etish zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvar inson - bu o‘z xalqining o‘tmishini biladigan, bugunini anglaydigan va kelajagi uchun xizmat qila oladigan bilimli shaxsdir. Shu bois u maktab va

madrasalarda yangi usul asosida ta’lim berishni, o‘quvchilarni milliy ong va zamonaviy tafakkur ruhida tarbiyalashni yoqlagan[6].

Behbudiyning “Padarkush” dramasida ham vatanparvarlik tarbiyasining muhim jihatlari yorqin ifodalangan. Asarda jaholat, nodonlik va tarbiyasizlikning ayanchli oqibatlari ochib beriladi. Muallif yoshlarni ilmga, ma’rifatga, ongli hayotga va xalq manfaatiga xizmat qilishga undaydi. Mazkur drama o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sifatida nafaqat badiiy, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Behbudiyning qarashlarida ilm-ma’rifat vatanparvarlikning tayanchi sifatida talqin etiladi. Uning “Maktab - millatning qal’asi”, “Ilm - Vatan uchun xizmat vositasi” kabi g‘oyalari shuni ko‘rsatadiki, u ma’rifatni milliy ozodlik va taraqqiyotning asosiy omili deb bilgan. Shu sababli Behbudiy merosi bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi[7].

Abdurauf Fitrat jadid ma’rifatparvarlari orasida milliy uyg‘onish, ozodlik va vatanparvarlik g‘oyalarini eng teran yoritgan siymolardan biridir. U adib, pedagog, publitsist va siyosiy arbob sifatida yoshlar tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi maktublari”, “Rahbari najot”, “O‘zbek yoshlariga” kabi asarlarida yoshlarni ilmga, milliy o‘zlikni anglashga va Vatan ravnaqi uchun fidoyilikka chorlovchi g‘oyalar ustuvor o‘rin egallaydi.

Fitrat nazarida vatanparvarlik shunchaki hissiy tuyg‘u emas, balki ma’rifat bilan mustahkamlanadigan ijtimoiy va axloqiy hodisadir. U yoshlarni uyg‘onishga, o‘z millati kelajagi uchun mas’uliyatni his etishga chaqiradi. Uning asarlarida mustamlakachilik zulmi ostida qolgan xalqni qutqarishning asosiy yo‘li sifatida ilm-ma’rifat va milliy ongni rivojlantirish g‘oyasi ilgari suriladi. Fitratning fikricha, xalq jaholatda qolsa, u mustaqillik va taraqqiyot yo‘lini topa olmaydi[5].

Fitrat yoshlarni zamonaviy ilm egallashga, dunyo tajribasini o‘rganishga va o‘z bilimini millat taraqqiyoti yo‘lida safarbar etishga undagan. U vatanparvarlikni ozodlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etadi. Shu bois uning qarashlarida ilmli va axloqli yoshlar millat najotining asosiy kuchi sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa Fitrat pedagogik merosining bugungi kun uchun ham nihoyatda muhim ekanini anglatadi[4].

Fitrat axloqiy tarbiyani ham vatanparvarlikning ajralmas qismi deb biladi. Uning nazarida axloqsiz ilm, ma’rifatsiz g‘urur yoki mas’uliyatsiz ozodlik haqiqiy vatanparvarlikni shakllantira olmaydi. Demak, Fitrat yoshlar tarbiyasida bilim, axloq va milliy mas’uliyatning birligini ilgari surgan mutafakkirdir.

Abdulla Avloniy jadid adabiyoti va pedagogik tafakkurining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab

gulistoni” kabi asarlarida tarbiya, axloq, ilm-ma’rifat va milliy g‘urur masalalarini chuqur yoritgan. Avloniy tarbiyani “hayot va mamot masalasi” deb baholaydi. Bu qarash uning pedagogik konsepsiyasida tarbiya, jumladan vatanparvarlik tarbiyasi naqadar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi[1].

Avloniy nazarida Vatan ravnaqi avvalo yoshlarning ilmli va axloqli bo‘lishiga bog‘liq. U jaholatda qolgan millat hech qachon o‘z Vatanini himoya qila olmasligini ta’kidlaydi. Demak, u ilm-ma’rifatni vatanparvarlikning eng muhim asosi deb bilgan. Avloniy asarlarida o‘quvchi-yoshlarni bilim egallashga, ma’naviy kamolotga erishishga va millat kelajagi uchun xizmat qilishga da’vat qiluvchi g‘oyalar muntazam uchraydi.

Avloniy qarashlarida axloqiy tarbiya alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, axloq - millat hayotining ko‘zgusidir. Ma’naviy-axloqiy poklik, halollik, fidoyilik, mas’uliyat kabi fazilatlar yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shu bois Avloniy nafaqat bilimli, balki yuksak axloqqa ega shaxsni komil inson sifatida talqin etadi[2].

U yoshlarni milliy g‘urur, milliy manfaat va Vatan taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Avloniy uchun yoshlar - millatning kelajagi, Vatan tayanchi va taraqqiyotning bosh kuchidir. Bu jihatdan uning pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan hamohangdir.

Cho‘lpon jadid adabiyotining yirik namoyandasi sifatida adabiyot orqali yoshlar qalbida vatanparvarlik, milliy uyg‘onish va ozodlik tuyg‘ularini shakllantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning she’riyati, publitsistikasi va ijtimoiy qarashlarida “Vatan”, “millat”, “ozodlik”, “uyg‘onish” tushunchalari markaziy o‘rinda turadi. Cho‘lpon nazarida Vatan ozodligi shaxs baxti va millat istiqbolining eng muhim shartidir.

Cho‘lpon asarlarida yoshlar millat uyg‘onishining asosiy kuchi sifatida ko‘rsatiladi. U ilm-ma’rifatsiz millat taraqqiy eta olmasligini, mustamlakachilikka qarshi kurashning asosiy quroli esa bilim va milliy ong ekanini ta’kidlaydi. Shu ma’noda, Cho‘lpon yoshlarni ilm olishga, xalq dardi bilan yashashga, Vatan istiqboli uchun kurashishga da’vat etadi.

Cho‘lpon adabiyotga ham katta tarbiyaviy kuch sifatida qaraydi. Uning nazarida she’r va publitsistika xalq qalbini uyg‘otuvchi, milliy g‘ururni shakllantiruvchi va ozodlikka chorlovchi vositadir. Demak, u adabiyotni vatanparvarlik tarbiyasining samarali quroli sifatida talqin qiladi. Bu qarash bugungi kunda ham yoshlarning ma’naviy tarbiyasida badiiy adabiyotning tutgan o‘rnini yoritishda muhimdir[3].

Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining asoschilaridan biri sifatida yoshlarni ilmli, ongli va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta e’tibor qaratgan. U o‘zining darsliklari, publitsistik maqolalari va maktabchilik faoliyati

orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Uning “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi darsliklari va matbuotdagi chiqishlari yoshlarni ma’rifatga, milliy o‘zlikni anglashga va Vatan taqdiriga mas’uliyat bilan qarashga undagan.

Munavvarqori ilm-ma’rifatni xalq ozodligining asosiy omili deb bilgan. U jaholatni mustamlakachilikning quroli sifatida baholab, yoshlarni yangi usuldagi maktablarda bilim olishga da’vat qilgan. Uning qarashlariga ko‘ra, ilmli yosh - millatning tayanchi va Vatan kelajagining asosiy kafolatidir. Shu bois u maktab, o‘qituvchi va matbuotning tarbiyaviy roliga katta ahamiyat bergan.

Munavvarqori yoshlar tarbiyasida milliy ong va Vatanga muhabbatni markaziy masala deb biladi. Uning nazarida yoshlar o‘z tilini, tarixini, madaniyatini bilgan, milliy g‘ururga ega va xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo‘ya oladigan shaxslar bo‘lib shakllanishi kerak. Bu jihatdan uning qarashlari bugungi zamonaviy tarbiya konsepsiyasida ham dolzarb ahamiyatga ega.

Jadid ma’rifatparvarlarining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqidagi qarashlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi bir necha umumiy g‘oyada birlashadi. Birinchidan, ular ilm-ma’rifatni Vatan ravnaqi va millat ozodligining asosi deb bilganlar. Ikkinchidan, yoshlarni tarbiyalashda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va tarixiy xotirani mustahkamlashga alohida e’tibor berganlar. Uchinchidan, axloqiy tarbiya, halollik, fidoyilik va mas’uliyat kabi sifatlar vatanparvarlikning ajralmas qismi sifatida talqin etilgan. To‘rtinchidan, adabiyot, matbuot, maktab va pedagogik faoliyat yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy vositalar sifatida baholangan.

Bu qarashlarning zamonaviy pedagogika uchun ahamiyati nihoyatda katta. Chunki, bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida ham yoshlarni Vatanga sadoqatli, ilmli, ma’naviy barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Jadidlar merosi bu borada nafaqat tarixiy, balki nazariy va amaliy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Shunday qilib, jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik va ma’rifiy qarashlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi markaziy o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-ma’rifat va milliy ongni, Abdurauf Fitrat ozodlik va ma’rifiy uyg‘onishni, Abdulla Avloniy axloqiy tarbiya va milliy g‘ururni, Cho‘lpon adabiyot va ruhiy uyg‘onishni, Munavvarqori esa maktab, matbuot va ma’rifatni vatanparvarlikning asosiy tayanchi sifatida talqin etgan.

Ularning barchasi bir fikrda yakdil: yoshlar millatning kelajagi, Vatan istiqbolining bosh kuchidir. Shu bois yosh avlodni ilmli, axloqli, milliy o‘zligini anglagan va Vatan taqdiriga daxldor shaxs sifatida tarbiyalash har qanday jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Jadidlar qoldirgan boy ma’rifiy-pedagogik meros bugungi ta’lim-tarbiya tizimida ham katta ahamiyatga ega. Ularning asarlari va qarashlari yoshlarni

vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’naviy poklik va fidoyilik ruhida tarbiyalashda nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda, jadid ma’rifatparvarlari merosi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda bebaho ma’naviy xazina hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. Www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik, 1-jild / - Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2009.
3. Abdulhamid Cho‘lpon. Binafsha / - T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2021.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar // I jild. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar / - T.: “Ma’naviyat”, 2000. – 256 b.
5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar // II jild. Ilmiy asarlar / - T.: “Ma’naviyat”, 2000. – 208 b.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar // T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2009.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar // I jild. – T.: “Akademnashr”, 2021. - 512 b.
8. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar // - T.: “Ma’naviyat”, 2003. – 304 b.

JADID MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING TUTGAN O‘RNI

Temirov Dilshod SHERALIYEVICH,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada jamoatchilik nazoratining jadidlar talqinidagi asosiy ko‘rinishlari: maktab faoliyati ustidan ma’naviy nazorat, muallim shaxsi va kasbiy mas’uliyatiga jamoat bahosi, ota-ona va jamiyatning ta’lim sifatini ta’minlashdagi ishtiroki, ta’lim mazmunining millat manfaatiga mosligi kabi jihatlar ochib berilgan. Shuningdek, mazkur qarashlarning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati va fuqarolik jamiyati institutlari bilan uyg‘unligi yuzasidan xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid mutafakkirlari, jamoatchilik nazorati, ta’lim-tarbiya, milliy pedagogika, maktab, muallim, ota-ona, mahalla, ijtimoiy mas’uliyat.

Abstract. The article explores the main forms of public oversight as interpreted by the Jadids, including moral supervision over school activities, public evaluation of the teacher’s personality and professional responsibility, the role of parents and society in ensuring the quality of education, and the alignment of educational content with national interests. It also presents conclusions on the relevance of these views in the modern education system and their compatibility with civil society institutions.

Keywords: Jadidism, Jadid thinkers, public oversight, education and upbringing, national pedagogy, school, teacher, parents, mahalla, social responsibility.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan ma’rifiy uyg‘onish jarayoni jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jadid mutafakkirlari millat taraqqiyotini ta’lim va tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilib, maktabni jamiyatni isloh qilishning eng muhim vositasi sifatida ko‘rdilar. Ular ta’lim-tarbiya masalasini faqat dars berish yoki savod chiqarish doirasida emas, balki millatning kelajagini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy omil sifatida angladilar.

Jadidlar qarashlarida ta’lim sifatini ta’minlash, uning mazmunan to‘g‘ri yo‘naltirilishi va tarbiyaviy samaradorligini oshirishda jamoatchilikning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Garchi ular “jamoatchilik nazorati” atamasini hozirgi huquqiy-ma’muriy mazmunda qo‘llamagan bo‘lsalar-da, maktabning xalq oldidagi mas’uliyati, muallimning axloqiy javobgarligi, ota-onalar va mahallaning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, millat manfaati nuqtai nazaridan ta’lim mazmuniga baho berish kabi g‘oyalari aynan jamoatchilik nazoratining mazmuniga yaqin turadi.

Mazkur masala ayniqsa bugungi kunda dolzarbdir. Zero, zamonaviy ta’lim tizimida ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik, ijtimoiy sheriklik va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki muhim omil sifatida baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan jadid mutafakkirlari merosini qayta o‘rganish nafaqat tarixiy-pedagogik, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Maqolada tarixiy-pedagogik tahlil, mantiqiy-tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va mazmun tahlili usullaridan foydalanildi.

Tarixiy-pedagogik tahlil orqali jadidchilik harakati namoyandalarining ta’lim-tarbiya, maktab islohoti, muallim shaxsi, ota-ona mas’uliyati va jamiyatning ma’rifiy vazifasiga doir qarashlari o‘rganildi.

Mazmun tahlili usuli yordamida Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlarning asarlari va maqolalarida ifodalangan pedagogik g‘oyalar sistemalashtirildi.

Qiyosiy tahlil asosida jadidlar ilgari surgan jamoatchilik ishtirokiga oid qarashlar hozirgi ta’lim tizimidagi jamoatchilik boshqaruvi, ijtimoiy sheriklik, ota-onalar ishtiroki va ta’lim sifatini jamoat baholash tamoyillari bilan solishtirildi.

Tizimli yondashuv esa jadidlar qarashlarida jamoatchilik nazoratini alohida bir fikr emas, balki ta’lim-tarbiya tizimining tarkibiy komponenti sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur qarashlarda jamoatchilik nazoratining ifodalanish shakllari va pedagogik mazmunidan iborat bo‘ldi.

1) Maktabni jamiyat oldidagi ma’naviy mas’uliyat instituti sifatida talqin etish. Jadidlar maktabni faqat ta’lim beruvchi muassasa sifatida emas, balki millat kelajagini tayyorlaydigan ijtimoiy institut sifatida baholaganlar. Bu esa maktab faoliyati ustidan jamoatchilikning tabiiy manfaatdorligini keltirib chiqargan. Ularning qarashlarida maktabda nimalar o‘qitilayotgani, qanday muallim dars berayotgani, tarbiya yo‘nalishi qanday ekani butun jamiyatni qiziqtirishi lozim bo‘lgan masala sifatida talqin etilgan.

Jadidlar nazdida ta’limdagi har qanday orqada qolish millatning orqada qolishiga olib keladi. Shuning uchun ular maktablarning faoliyatiga befarq qaramaslik, ularni qo‘llab-quvvatlash va ayni paytda ular faoliyatiga baho berib borish zarurligini ilgari surganlar. Bu holat jamoatchilik nazoratining ilk ma’naviy-pedagogik ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin.

2) Muallim shaxsi va faoliyatiga jamoat bahosi. Jadid mutafakkirlari muallim shaxsiga juda katta ahamiyat berganlar. Ular muallimni oddiy kasb egasi emas, balki millat ma’naviy yuksalishining yetakchi sub’ekti deb hisoblaganlar. Shu sababli muallimning bilimi, axloqi, dunyoqarashi, muomalasi va jamoat oldidagi nufuzi ta’lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘rilgan. Bu qarashlardan kelib chiqib, jadidlar muallim faoliyatiga jamiyat tomonidan baho berilishi, uning mas’uliyati faqat ma’muriy emas, balki axloqiy va ijtimoiy mazmunga ham ega bo‘lishi kerakligini anglatganlar. Demak, muallimga nisbatan jamoat bahosi jadidlar qarashlarida ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

3) Ota-ona va oilaning ta’lim jarayonidagi ishtirokini zarur shart sifatida ko‘rish. Jadidlar ta’lim-tarbiya samaradorligini oiladan ajralgan holda tasavvur qilmaganlar. Ular bola tarbiyasida maktab va oilaning hamkorligini muhim deb bilganlar. Ota-onalarning farzand ta’limiga befarqligi, jadidlar fikricha, jamiyat ma’rifatsizligining asosiy sabablaridan biri hisoblangan. Shu nuqtai nazardan, jadid mutafakkirlari ota-onalarning bola ta’limiga qiziqishi, maktab bilan hamkorlik qilishi, muallim mehnatini qadrlashi va bolaning tarbiyasiga daxldor qarorlarda faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaganlar. Bu qarashlar bugungi kundagi ota-

onalar kengashi, maktab-oila hamkorligi, ta’lim sifatini baholashda jamoatchilik ishtiroki kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashadi.

4) Mahalla va millatning ta’lim jarayoni uchun javobgarligi. Jadidlar ta’lim-tarbiyani individual yoki xususiy emas, balki umummilliy vazifa sifatida tushuntirganlar. Ular mahalla, ziyolilar, boylar, savdogarlar va umuman jamiyatning faol qatlamlari maktab ishlariga yordam berishi, uning rivojiga hissa qo‘shishi kerak, deb hisoblaganlar. Ayrim jadidlar maktab ochish, darslik nashr qilish, muallim tayyorlash, bolalarni o‘qishga jalb etish kabi ishlarga keng jamoatchilikni safarbar etishga harakat qilganlar. Bu yerda jamoatchilik nazorati faqat tekshirish yoki tanqid qilish emas, balki qo‘llab-quvvatlash, homiylik qilish, mas’uliyatni bo‘lishish va ta’limni jamiyat ishiga aylantirish tarzida namoyon bo‘ladi.

5) Ta’lim mazmunining millat manfaatiga mosligini talab qilish. Jadidlar ta’lim mazmuniga ham jamoatchilik nuqtai nazaridan yondashganlar. Ular bolalarga beriladigan bilim millat ehtiyojiga, hayot talabiga va zamon rivojiga mos bo‘lishi shartligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, hayotdan uzoq, faqat yodlashga asoslangan ta’lim xalqni taraqqiy ettirmaydi. Shu ma’noda jadidlar ta’lim mazmunini jamoatchilik manfaati nuqtai nazaridan baholash g‘oyasini ilgari surganlar. Ya’ni nimani o‘qitish, qanday tarbiya berish, qaysi qadriyatlarni singdirish masalasi tor doiradagi emas, balki umummilliy muhokama mavzui bo‘lishi lozim.

Jadidlar qarashlarida jamoatchilik nazoratining asosiy subyektlari

Subyekt	Asosiy vazifa	Pedagogik mazmun
Maktab	Ta’lim va tarbiyani tashkil etish	Millat kelajagiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut
Muallim	Bilim berish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish	Axloqiy va kasbiy mas’uliyat sohibi
Ota-ona	Bolaning ta’limga munosabatini qo‘llab-quvvatlash	Maktab-oila hamkorligining asosiy bo‘g‘ini
Mahalla va jamiyat	Qo‘llab-quvvatlash va baholash	Ijtimoiy sheriklik va ma’naviy nazorat manbai
Millat manfaati	Ta’lim mazmuniga mezon bo‘lish	Qadriyat va maqsadlar muvofiqligini belgilaydi

Olingan natijalar jadid mutafakkirlari qarashlarida jamoatchilik nazorati masalasi aniq huquqiy mexanizm sifatida emas, balki ijtimoiy mas’uliyat, ma’naviy nazorat va milliy manfaatga tayangan pedagogik tamoyil sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Bu jihat uni zamonaviy tushunchadagi jamoatchilik

nazoratidan muayyan darajada farq qildiradi. Biroq mazmunan ular orasida yaqinlik juda kuchli.

Zamonaviy ta’lim tizimida jamoatchilik nazorati deganda, odatda, ta’lim muassasalari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi, ota-onalar, mahalla, nodavlat tashkilotlar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini tushunamiz. Jadidlar esa bu jarayonning ma’naviy va milliy asoslarini ancha oldin ilgari surganlar. Ular ta’lim sifatini oshirishda jamiyat befarq bo‘lmasligi kerakligini, maktab millat ishi ekanini, muallimning xalq oldida javobgarligini ta’kidlaganlar.

Shu bilan birga, jadidlar qarashlarida jamoatchilik nazoratining konstruktiv xususiyati ustuvordir. Ular nazoratni jazolash yoki fosh qilish vositasi sifatida emas, balki ta’limni yaxshilash, maktabni qo‘llab-quvvatlash, bola tarbiyasi uchun umumiy mas’uliyatni shakllantirish omili sifatida ko‘rganlar. Bu jihat bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ta’lim tizimida jamoatchilik ishtiroki faqat tanqid bilan emas, balki hamkorlik, sheriklik va qo‘llab-quvvatlash bilan samara beradi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, jadidlar qarashlari asosida zamonaviy ta’lim uchun bir qator metodologik xulosalar chiqarish mumkin. Xususan, ta’lim muassasasining jamiyat oldidagi ochiqligini kuchaytirish, ota-onalar bilan hamkorlikni mazmunan boyitish, mahalla va keng jamoatchilikning tarbiyaviy jarayondagi ishtirokini faollashtirish, muallim nufuzi va javobgarligini jamoat bahosi orqali mustahkamlash shular jumlasidandir.

Jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarida jamoatchilik nazorati masalasi mustaqil termin sifatida emas, ammo maktab, muallim, ota-ona va jamiyatning o‘zaro mas’uliyati shaklida aniq ifodalangan. Jadidlar maktabni millat kelajagini belgilaydigan ijtimoiy institut sifatida baholaganlari uchun uning faoliyati ustidan jamoatchilik manfaatdorligini tabiiy hol deb tushunganlar. Muallim shaxsiga yuqori axloqiy va kasbiy talab qo‘yilishi, ota-ona va mahallaning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, ta’lim mazmunining xalq manfaatiga mos bo‘lishi kabi g‘oyalar jamoatchilik nazoratining asosiy mazmuniy yo‘nalishlarini tashkil qiladi. Jadidlar talqinida jamoatchilik nazorati tekshiruv yoki ma’muriy bosim emas, balki hamkorlik, ma’naviy baho, qo‘llab-quvvatlash va umumiy javobgarlik mexanizmi hisoblanadi. Ushbu qarashlar zamonaviy ta’lim tizimidagi ochiqlik, shaffoflik, ijtimoiy sheriklik va fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki kabi tamoyillarning milliy-tarixiy asoslarini belgilashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent.

3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. - Toshkent.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar va maqolalar. - Toshkent.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Toshkent.
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. - Toshkent.
7. Milliy pedagogika va ma’rifatparvarlik masalalariga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar.

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING “YER YUZI” DARSLIGINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Dilmurod ASQAROV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Tillar kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Munavvarqori Abdurashidxonovning jadid ta’lim tizimidagi o‘rni hamda uning “Yer yuzi” darsligining ilmiy-pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Darslikda qit’alar, mamlakatlar, tabiiy geografik obyektlar hamda Turkiston o‘lkasiga oid ma’lumotlarning berilishi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish va global tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: geografiya ta’limi, darsliklar tarixi, ma’rifatparvarlik, pedagogik meros, milliy tarbiya, ilmiy dunyoqarash.

Abstract This article analyzes the role of Munavvarqori Abdurashidkhanov in the modern education system and the scientific, pedagogical and educational significance of his textbook “Yer yuzi”. The textbook shows the role of providing information about continents, countries, natural geographical objects and the Turkestan region in forming a scientific worldview in students, strengthening the spirit of patriotism and developing global thinking.

Keywords: geography education, history of textbooks, enlightenment, pedagogical heritage, national education, scientific worldview.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan jadidchilik harakati milliy ma’rifat taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu harakatning yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul maktablarini tashkil etish, o‘quv dasturlari va darsliklar yaratish orqali xalq maorifi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning faoliyati nafaqat ta’lim tizimini yangilash, balki

yosh avlodni ilm-fan, ma’naviyat va dunyoqarash jihatidan tarbiyalashga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Munavvarqori jadid maktablari uchun bir qator darsliklar yaratgan bo‘lib, ular orasida “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Usuli hisob”, “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya”, “Sabzavor”, “O‘zbekcha til saboqligi” kabi asarlar alohida o‘rin tutadi. [1.] Ushbu darsliklar o‘sha davr Turkiston maktablarida keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan dasturlar orqali diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘un holda o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa jadid ta’limining asosiy tamoyili – zamonaviy bilimlarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ifodalaydi.

Munavvarqorining geografiyaga oid muhim asarlaridan biri “Yer yuzi” darsligidir. Mazkur darslik 1917-yilda nashr etilgan bo‘lib, ibtidoiy maktablarning 3–4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Asar geografiya faniga oid turli manbalardan tanlab olingan materiallar asosida Turkiston turkiy tilida tartiblangan bo‘lib, 88 banddan iborat. [1. 97-135] Darslikning yaratilishi jadid maktablarida tabiiy fanlarni ilmiy asosda o‘qitish zaruriyatidan kelib chiqqan. Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan yaratilgan “Yer yuzi” darsligi jadid pedagogikasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu darslik nafaqat geografiya faniga oid bilimlarni o‘rgatish, balki yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va ma’naviy tarbiyasini shakllantirishga xizmat qilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Jadid maktablarida ta’lim jarayonini yangilash, fanlarni zamonaviy usullar asosida o‘qitish, o‘quvchilarda ilmiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida yaratilgan bu darslik o‘z davrining ilg‘or pedagogik g‘oyalarini aks ettiradi. [5. 154]

Darslikning kirish qismida muallif maktablarda geografiya fanini o‘qitishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. *“Bir kishig‘a o‘z uyi va mahallasining ahvolini bilib turmak qanday lozim bo‘lsa, umrlik vatan aslisi bo‘lg‘on yerning ahvolini bilmak ondan ortug‘roqlozimdur. Lekin bir kishining umri har qancha uzun bo‘lsa ham, yer yuzini tamom aylanib, ko‘rub bilolmas. Yer yuzidag‘i insonlarni, hayvonlarni, hukumatlarni, shaharlarni, tog‘larni, cho‘llarni, dengizlarni, nahrlarni va shularg‘a o‘xshash kerakli narsalarning barchasini ko‘rib, bilmak bir kishi uchun mumqin emasdur.*

Ammo jo‘g‘rofiya ilmini o‘qug‘on kishilar bu narsalarning har birini osonlik ila bilurlar, shul sababli hozirda bolalarg‘a jo‘g‘rofiya kiritmak, ibtidoiydan boshlab o‘rta va oliy maktablarg‘acha dars jadvalig‘a jo‘g‘rofiya kiritmak, butun dunyodag‘i madaniy millatlar tarafidan qabul o‘linmishdir”. [1.97]

U globus, xarita va turli tasviriy vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘sha davr ta’lim tizimi uchun yangilik bo‘lib, o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan. Muallif Yer shakli, uning harakati va

tabiat hodisalarini sodda va tushunarli tarzda izohlab, qadimiy tasavvurlarni ilmiy dalillar bilan inkor qiladi. Natijada o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

“Yer tarbuz yoki apelsing‘a o‘xshash yumaloqdir. Yer hech narsaning ustida turmas, balki Allohi ta’oliyning qudrati ila otilg‘an to‘p zambarakig‘a o‘xshash havo orasida yurub turodir. Yerning ikki xil harakati bor: biri — yumalanish, ikkinchisi — aylanish. Yumalag‘anda arobaning g‘ildirag‘ig‘a o‘xshab o‘z o‘qining atrofida yumalanur. Va bu harakatni har bir 24 soatda bir marotaba tamom qilur. Bundan bir kecha-kunduz hosil bo‘lur. Shul sababli bu harakatni harakati yumiya (kunlik harakat) va harakati mehvariya (o‘q atrofida harakat) derlar. [1.98]

Quyidagi izoh asosida muallimning darsni tushuntirishida mahorat kerakligi, o‘quvchilarga o‘rganayotgan ilmiga qiziqish uyg‘ota olishini keltiradi. Bu orqali o‘qitishda yangi metod va usullarni toppish o‘qituvchining vazifasi ekanligini ham eslatib ketadi:

“Olmag‘a o‘xshash bir narsani yerdan yumalatib hamda dumidan ip bog‘lab, boshdan aylantirib ko‘rsatmak va ul narsani chiroqga o‘xshash bir narsag‘a ul bir tarafini, so‘ngra aylantirib ikkinchi nimarsani tutib, kecha va kunduz husulini to‘shuntirmak muallim afandilarning vazifalaridur”. [1.97]

“Yer yuzi” darsligida Yerning tuzilishi, qit’alar, okeanlar, daryolar, tog‘lar va boshqa geografik obyektlar haqida keng ma’lumot berilgan. Muallif qit’alarni eski dunyo va yangi dunyo sifatida tasniflab, ularning tabiiy sharoiti, aholisi, davlat tuzilishi hamda madaniy hayoti haqida izohlar beradi. [4. 156] Shuningdek, davlatlarning poytaxtlari, yirik shaharlari, aholining diniy mansubligi va tili haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu esa darslikning nafaqat geografik, balki tarixiy-madaniy manba sifatida ham muhimligini ko‘rsatadi. Mazkur darslikning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga alohida e’tibor berilgan. Jadid pedagoglari yoshlarni faqat diniy bilimlar bilan cheklab qo‘ymasdan, ularga dunyoning turli hududlari, xalqlari, davlatlari va ularning turmush tarzi haqida ma’lumot berishni zarur deb hisoblaganlar. Shu sababli “Yer yuzi” darsligida turli qit’alar, mamlakatlar, ularning geografik o‘rni, aholisi, siyosiy tuzilishi va madaniy hayoti haqida keng ma’lumotlar keltirilgan. Bu esa o‘quvchilarda global tafakkur, boshqa xalqlarga hurmat bilan qarash, dunyo taraqqiyoti haqida tasavvur hosil qilish kabi muhim sifatlarning shakllanishiga yordam bergan.

Asarda Turkiston o‘lkasiga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif Turkistonning geografik o‘rni, aholisi, milliy tarkibi va xo‘jalik faoliyati haqida ma’lumot berib, o‘quvchilarda o‘z yurtiga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg‘usini shakllantirishni maqsad qilgan. Bu jihat darslikning muhim tarbiyaviy xususiyatlaridan biri

hisoblanadi. Chunki o‘quvchilar o‘z yurtining tabiati, xalqlari va iqtisodiy hayoti haqida bilimga ega bo‘lish orqali milliy o‘zlikni anglay boshlaydilar.

“Turkistonning hududi: shimoldan Sibiriyo, sharqdan Chin, g‘arbdan Kaspiy dengizi, janubdan Afg‘oniston va Eroniston mamlakatlari ila mahduddur. (Buxoro va Xeva xonliklari qo‘shilmag‘an holda.) ... Turkistondag‘i turk-o‘zbek, toronchi va pirsiyonlarning ko‘plari savdogarliq va bir ozi dehqonchilik va mardikorliq ila tirikchilik qilurlar...” [1.113]

Darslikda davlatlarning mustamlaka holati, siyosiy boshqaruv tizimlari ham yoritilgan. Muallif ayrim mamlakatlarning taraqqiyot darajasini tahlil qilib, ilm-fan va ma’rifatning jamiyat rivojidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, taraqqiyot sabablarini anglashga undaydi. Shu bilan birga, ilm-fan taraqqiy etgan jamiyatlar misolida bilim olishning ahamiyati yoritiladi.

“Yer yuzi” darsligining tarbiyaviy ahamiyati bir necha jihatlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, asar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Ikkinchidan, u yoshlarni dunyo xalqlari hayoti, madaniyati va geografiyasi bilan tanishtirish orqali bag‘rikenglik va global tafakkurni rivojlantiradi. Uchinchidan, darslik o‘z yurtiga muhabbat, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. [3.195]

Darslikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda geografiya fanini o‘qitish metodikasiga oid muhim g‘oyalar ham ilgari surilgan. Xususan, muallif geografiya darslarida globus, xarita va tasviriy vositalardan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. Bu esa o‘sha davr uchun yangi pedagogik yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning mavzuni ko‘rgazmali vositalar orqali osonroq o‘zlashtirishiga imkon yaratgan. Bunday metodlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tasavvurini boyitish va bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

“Yer yuzi” darsligi bugungi ta’lim jarayoni uchun ham muayyan ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki unda fanlarni o‘qitishda milliy til, sodda bayon usuli va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish kabi metodik tamoyillar ilgari surilgan bo‘lib, ular hozirgi zamonaviy pedagogika talablariga ham mos keladi. Bu esa jadid pedagoglarining ta’lim sohasidagi qarashlari o‘z davridan ancha ilgarilab ketganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Yer yuzi” darsligi nafaqat geografiya fanini o‘qitish uchun yaratilgan o‘quv qo‘llanma, balki yosh avlodni ma’rifatli, keng dunyoqarashli va vatanparvar ruhda tarbiyalashga xizmat qilgan muhim pedagogik asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар (Таҳрир ҳайъати: О. Шарафиддинов, Н. Аминов, Н. Каримов вабошқ.: Масъул муҳаррир: Н. Каримов. – Т.: «Маънавият», 2003. – 304 б,

2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b.

3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 535 b.

4. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). – Toshkent: Universitet, 2002. – 288 b.

5. O‘zbekiston tarixi: yangi davr (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. – 512 b.

ASHURALI ZOHIRIYNING PEDOGOGIK QARASHLARI

M.SAIDAKBAROVA,
Qo‘qon DU, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent.
F. QURBONOVA,
Qo‘qon DU, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd).

Annotatsiya. Qo‘qonning asl farzandi, o‘zining butun ilmiy-ma’naviy imkoniyatlarini Vatan kelajagi va uning ijtimoiy-siyosiy va ta’limiy tadriji uchun bag‘ishlagan ma’rifatparvar adabiyotshunos, tilshunos, lug‘atshunos olim, jadidchilik harakatining ilg‘or vakillaridan biri Ashurali Zohiriy shaxsi, olib borgan faoliyati bu kungacha keng jamoatchilikka u qadar ma’lum emas edi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar, Uchinchi Rennesans poydevorini qurish borasidagi chora va tadbirlar jadidchilik harakati vakillari shaxsi va faoliyatini qaytadan baholash vazifasini ham zimmasiga olgan. Shular qatorida Ashurali Zohiriy faoliyatini, uning o‘zidan qoldirgan ma’naviy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Abstract: The true son of Kokand, the enlightened literary critic, linguist, lexicographer, and one of the leading representatives of the Jadid movement, Ashurali Zohiri, who devoted all his scientific and spiritual capabilities to the future of the Motherland and its socio-political and educational progress, the personality and activities of which were not so well known to the general public until now. The socio-political reforms underway in our country, the measures and events aimed at building the foundation of the Third Renaissance have also taken on the task of re-evaluating the personality and activities of the representatives of the Jadid movement. Among these, the study of the activities of Ashurali Zohiri and the spiritual legacy he left behind is one of the urgent issues of today.

Kalit so‘zlar: Ashurali Zohiriy, jadidchilik harakati, ilk jadidlar, yangi usul maktablari, bola tarbiyasi va parvarishi, yevropa adabiyoti tarjimalari.

Keywords: Ashurali Zohiri, Jadid movement, early Jadids, new method schools, child education and care, translations of European literature.

Qo‘qonning asl farzandi, o‘zining butun ilmiy-ma’naviy imkoniyatlarini Vatan kelajagi va uning ijtimoiy-siyosiy va ta’limiy tadriji uchun bag‘ishlagan ma’rifatparvar adabiyotshunos, tilshunos, lug‘atshunos olim, jadidchilik harakatining ilg‘or vakillaridan biri Ashurali Zohiriy shaxsi, olib borgan faoliyati bu kungacha keng jamoatchilikka u qadar ma’lum emas edi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar, Uchinchi Rennesans poydevorini qurish borasidagi chora va tadbirlar jadidchilik harakati vakillari shaxsi va faoliyatini qaytadan baholash vazifasini ham zimmasiga olgan. Shular qatorida Ashurali Zohiriy faoliyatini, uning o‘zidan qoldirgan ma’naviy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Muhtaraam Prezident Sh.M.Mirziyoev Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumanida saylovchilar bilan saylovoldi uchrashuvlariga tashriflari chog‘ida aynan shu masalaga alohida e’tibor qaratib o‘tdilar. “Yurtimizda ilk bor “O‘zbek tili” darsligini yaratgan atoqli olim, jurnalist va tarjimon, jamoat arbobi Ashurali Zohiriy bo‘lganini sizlar yaxshi bilasizlar. Butun umrini el-yurtni, millatimizni ma’rifatli va madaniyatli qilishga bag‘ishlagan, 1937 yili “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qurboni bo‘lgan bu betakror insonning xotirasini munosib qadrlash, nomini abadiylashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsak, o‘ylaymanki, tarixiy adolat qaror topadi.”

Ma’lumki, Ashurali Zohiriy Farg‘ona vodiysida dastlabki pedagog kadrlar yetishtirish va yosh avlodga ta’lim berish sohasida salmoqli ishlar olib borgan. Maktab o‘quvchilari uchun “Turkiy xrestomatiya va yohud terma kitob”, “Imlo” kitoblarini tuzgan. Qo‘qon shahar “Allomalar muzeyi” fondida № 6723 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Turkiy xrestomatiya va yohud terma kitob”i va Ashurali Zohiriy she’rlari, publitsistik maqolalari jamlangan to‘plam-kitob arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvida toshbosma nusxada chop etilgan. Kitobga she’lar va maqolalar majmui bilan birga o‘quvchilar uchun turli fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan o‘quv materiallari alohida nomlar bilan alohida fasllarda kiritilgan. Kitobning 154-181 sahifalaridan o‘rin olgan “Bola tarbiyasi haqida” faslining tabdil ishlari boshlab yuborildi. Ushbu bo‘lim 31 sahifa, 39 mavzudagi bola tarbiyasiga bog‘liq ko‘rsatma-ilmlardan iboratdir.



Turkiston ijtimoiy sho‘rolari jumhuriyati
Birlashingiz butun dunyo proletarlari!
Muallif: Bolalar duqturi F.Vidol
Bola tarbiyasi haqinda
Hurmatli onolarg‘a yosh bolalarini tarbiya qilmoq to‘g‘risinda foydalik kengashlar
Uxod za rebyonkom
(na uzbekskom yazыke)
№ 189
Turkiston jumhuriyatining hukumat nashriyoti
Tashkent
Turkestanskoe gosudarstvennoe izdatelstvo
1920 g.
G.Fergana. Tipografiya Turk. Respubliki Rossiyskoy Federatsii

Ko‘rinib turibdiki, majmuaga kiritilgan “Bola tarbiyasi haqida” faslining muallifi doktor F.Vidol (Fernan Vidol. 1862-1929. Fransuz doktori. Mashhur nemis adabiyotshunosi Sharl Ogyustinning jiyani. Yuqumli kasalliklar bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va ilmiy asarlar yaratgan) bo‘lib, ushbu qo‘llanma o‘quv darsligi tarkibiga Ashurali Zohiriy tomonidan kiritilgan. Mahalliy madrasalar va rus-tuzem maktabida ta’lim olgan Zohiriy ta’lim berish sistemasida asosan nimalarga e’tibor qaratilishi lozimligini aniq bilgan. Sifatli ta’lim tarbiyasiz amalga oshmaslik masalasi 20-asr boshida maktablar va pedagog kadrlar tayyorlashdagi ta’lim me’yorlariga “Bola tarbiyasi haqida”gi fanning kiritilgani bilan yorqin dalillanadi. Ashurali Zohiriyning o‘ziga xosligi yevropa olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarni tarjima qilib, Turkiston ta’lim tizimiga olib kirganligi bilan yuksak e’tiborga loyiqdir. Ushbu qo‘llanmada asosan, bola tarbiyasidagi gigiena va tibbiyot masalari haqida 39 ta bobda batafsil ma’lumot beradi. Mavzular bayonida ma’lumotlarni yanada aniq va tartibli bo‘lishi uchun 5 ta jadvallar ham kiritilgan.

Jadvallardan na’munalar.

1-jadval. “Necha oy ichida har haftada ortmog‘i”.

2-jadval. “Bolaning tishlari chiqish tartiblari”.

3-jadval. “Er bolarning ortmog‘i”. “Qiz bolalarning ortmog‘i”.



Qo‘llanma o‘zi alohida Rossiya Federatsiyasi Turkiston Respublikasi Farg‘ona shahrida joylashgan “Turkiston jumhuriyatining hukumat nashriyoti”da 1920 yilda chop etilgan. № 6723 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Turkiy xrestomatiya va yohud terma kitob”i va Ashurali Zohiriy she’rlari, publitsistik maqolalari jamlangan to‘plam-kitob to‘liq ko‘rinishda Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasi sharqshunos, matnshunos va manbashunos professor –o‘qituvchilari tomonidan lotin yozuviga tabdil qilinmoqda. Tez orada bu bebaho ma’naviy me’ros nashr ettirilib, ilm ahli e’tiboriga havola etiladi.

Qizg‘in boshlangan va olib borilayotgan ishlar millatning ziyoli, vatanparvar, zahmatkash va dovyurak fidoyilarini tanish va tanitishdagi dolzarb tadqiqotlarning ibtidosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O‘zbekiston. 28.09.2021.

2. “Turkiy xrestomatiya va yohud terma kitob”, № 6723 inventar raqamli. Toshbosma nusxa.

3. “Yurt” jurnali birinchi son. 1917 yil 1iyun. Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi.

4. Jalolov A. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – Toshkent: Fan, 1993.

5. Qosimov B. Izlay izlay topganlarim. – Toshkent, 1993.

6. Lichnosti.persons-info.com

CHO‘LPONNING “DO‘XTUR MUHAMMADIYOR” HIKOYASIDA ZIYOLI OBRAZI HAMDA MA’RIFAT VA JAHOLAT QARAMA-QARSHILIGI

Akramjon XUDAYBERDIYEV,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali katta o‘qituvchisi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Musharrafxon O‘LMASBEKOVA,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasida ziyoli obrazi talqini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ziyoli fenomeni individual xarakter sifatida emas, balki milliy uyg‘onish jarayonining markaziy subyekti sifatida yoritiladi. Hikoyadagi asosiy konflikt — ma’rifat va jaholat qarama-qarshiligi — qahramonning ichki ruhiy evolyutsiyasi bilan bog‘liq holda ochib beriladi. Tadqiqot natijasida “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasi o‘zbek adabiy modernizmidagi ziyoli arxetipining mukammal badiiy timsoli sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: ziyoli obrazi, ma’rifat, jaholat, Cho‘lpon, “Do‘xtur Muhammadiyor”, jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, badiiy arxetip.

Abstract. This article analyzes the interpretation of the intellectual figure in Abdulhamid Cho‘lpon’s short story Do‘xtur Muhammadiyor based on conceptual approaches of modern literary studies. The study examines the phenomenon of the intellectual not merely as an individual character, but as a central subject of the national awakening process. The main conflict of the story—the opposition between enlightenment and ignorance—is revealed through the internal psychological evolution of the protagonist. As a result of the research, the story “Do‘xtur Muhammadiyor” is evaluated as a perfect artistic representation of the intellectual archetype in Uzbek literary modernism.

Keywords: intellectual image, enlightenment, ignorance, Cho‘lpon, “Do‘xtur Muhammadiyor”, Jadid literature, national awakening, artistic archetype.

O‘zbek adabiy modernizmi tarixida jadidchilik harakati alohida bosqich sifatida shakllangan bo‘lib, bu davrda adabiyot nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy-ma’rifiy islohotlarning asosiy mafkuraviy maydoniga aylangan. Jadid adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon millatning uyg‘onish jarayonida ziyolilarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, uning 1914-yilda yozilgan “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasi [2,9] jadidchilik mafkurasining badiiy timsoli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hikoyada Cho‘lpon “ziyoli” fenomenini nafaqat individual xarakter, balki milliy uyg‘onishning markaziy aktori sifatida talqin etadi. Asarda ma’rifatning millat taraqqiyotidagi o‘rni, jaholatning ijtimoiy ildizlari, mustamlaka sharoitida milliy ziyolining vazifasi hamda uning ichki ruhiy kechinmalari keng badiiy qamrovda tasvirlanadi.

Cho‘lpon o‘zining publitsistikasi, she’riyati va nasrida “yangi odam” — ma’rifatli, milliy ongi shakllangan, mas’uliyatli shaxs obrazini yaratishga intilgan. Uning fikricha, mustamlaka sharoitida yashayotgan xalqni zulm va qoloqlikdan chiqarish uchun, avvalo, “yangicha fikrlaydigan ziyoli avlod” zarur edi.

“Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasi Cho‘lponning bu qarashlarini badiiy shaklda mujassamlashtiradi. Hikoya mazmuni, syujeti, kompozitsiyasi va ramziy qatlamlari ziyoli shaxsining shakllanish bosqichlarini (ma’rifatga intilish, milliy fojia orqali uyg‘onish, “g‘urbat”da o‘qish va kamolotga yetishish, vatanga qaytib xizmat qilish, millatning kelajak istiqbolini ko‘ra olish) to‘liq qamrab olgan. Bu bosqichlar Cho‘lponning ziyoli haqidagi badiiy konsepsiyasini tizimli shaklga keltiradi.

Hikoya syujeti Muhammadiyor obrazining ichki va tashqi kamolotini bosqichma-bosqich ochishga yo‘naltirilgan.

Asarning boshlanishida Hoji Ahmad zamonaviy fikrlaydigan, sayohatlar orqali ko‘pni ko‘rgan, til biladigan, o‘g‘lini ilmga berishni hayotiy maqsadga aylantirgan ota qiyofasida tasvirlanadi. Ammo uning jaholat qurboniga aylanishi — hikoyadagi eng muhim burilish nuqtasi. Bu epizodni ikki ma’noda talqin qilish mumkin: a) individual fojia — farzandning otasidan ayrilishi; b) milliy fojia — jamiyatning jaholatga botgan holati. Otaning o‘limi Muhammadiyor ruhiyatida “ichki inqilob” yaratadi. U: *“otamni o‘ldirgan odamlar emas — jaholat edi”* degan xulosaga keladi. Bu xulosa — uni ma’rifat qurolini qo‘lga olishga undagan birinchi ruhiy bosqichdir.

Hikoyaning o‘rta qismida Muhammadiyorning Boku, Petrograd, Shveytsariya kabi modern jamiyatlardagi hayoti tasvirlanadi. Bu bosqich ilmiy intilish, ijtimoiy mas’uliyatni anglash, yot jamiyat tajribasidan saboq olish, milliy o‘zlikni qayta kashf etish jarayonlari orqali amalga oshadi. Muhammadiyorning ilmiy iqtidor bilan ajralib turishi, romanu teatrlarga qiziqishi, chet tillarini egallashi, turli jamiyatlar faoliyatida ishtirok etishi — Cho‘lpon ta’rifidagi ***zamonaviy ziyoli***ning yetakchi belgilaridir.

Ziyoli obrazining cho‘qqisi — qahramonning o‘z vataniga qaytib, jamiyatni ma’rifatga yetaklashga bel bog‘lagan bosqichidir. Muhammadiyor shifoxona ochadi, gazetalar nashr etadi, jamiyatlar tuzadi, muallimlar tayyorlash kursini tashkil qiladi. Bu faoliyat milliy uyg‘onishning amaliy ko‘rinishidir. Ziyoli nafaqat bilimli, balki jamiyatni isloh etishga qodir ijtimoiy subyekt hamdir.

Cho‘lpon ziyolining faqat tashqi faoliyatini emas, balki uning ruhiy kechinmalarini ham chuqur tasvirlaydi. Muhammadiyorning vatanga muhabbati, millat holiga kuyinish, jaholat manzaralaridan larzaga kelishi, “men nima qila olaman?” degan savol atrofida qiynalishi — uning ruhiy portretini shakllantiradi. Ziyolining eng muhim fazilati Cho‘lpon talqinida — “dardmandlik”, ya’ni millat dardini o‘z dardi deb bilishdir.

Poyezdning oynasidan tog‘larga, vatan tuprog‘iga qarab o‘ylagan so‘zlari — badiiy jihatdan hikoyaning eng yuksak qismidir. Tog‘lar bilan “suhbat” — bu ruhiy monolog “postkolonial subyekt”ning o‘zlik bilan to‘qnashuv nuqtasidir [1,1063]. Bu o‘rinda, aytish mumkinki, Vatan bilan ruhiy muloqot kechadi. Bu monologda tarixiy xotira, milliy g‘ururning so‘nishi, jaholatning ildizlari, uyg‘onish zarurati kabi o‘ylar aks etadi.

“Do‘xtur Muhammadiyor”da konflikt asosini *jaholat* tashkil etadi. Ziyoli esa shu jaholatga qarshi kurashuvchi yonuvchi chiroq sifatida gavdalanadi.

Cho‘lpon jaholatni bir necha qatlamlarda ko‘rsatadi: isrofgarchilik, ichkilikbozlik, to‘ylarga ko‘p pul sarflash, savodsizlik, shaxsiy manfaatparastlik, ilmning qadrlanmasligi, milliy birdamlikning yo‘qligi. Muhammadiyor o‘zining hayotiy maqsadini mana shu illatlarga qarshi kurashish deb biladi.

Asarda qayta-qayta takrorlanadigan “o‘quv, o‘quv, o‘quv” so‘zlari ramziy ahamiyatga ega. Bu — Cho‘lpon konsepsiyasida ziyolining asosiy qurolini anglatuvchi badiiy kod, signaldir.

Hikoya ramziy qatlam bilan boyitilgan bo‘lib, ular ziyoli obrazining mazmunini yanada teranlashtiradi. Masalan, hikoyada poyezd — zamonaviylik va taraqqiyot ramzi. Poyezd vatan va g‘urbat oralig‘idagi masofani, ilm sari yo‘lni, ziyolining ruhiy safarini ramziy ifodalaydi. Undagi tartibsizliklar esa jamiyatning ichki qoloqligini ko‘rsatadi. Tog‘lar — milliy xotira. Ular ajdodlar shon-shuhratini, tarixiy qudratni, xalqning yo‘qotilgan o‘zligini ifodalaydi. Muhammadiyor tog‘lar bilan “suhbat” qurganida, aslida o‘z millati bilan ruhi orqali muloqot qiladi. Sil kasali — jamiyatning ichki tanazzuli. Muhammadiyorning silga yo‘liqqani, lekin uni yengganini shunday talqin qilish mumkin: kasallik — jamiyatni ezayotgan jaholat, davolanish esa ma’rifatning jamiyatni sog‘lomlashtirish qudrati.

Hikoya mustamlaka holdagi Turkistonning ijtimoiy ahvolini ham badiiy aks ettiradi. Cho‘lpon tasvirida Turkiston ikki tabaqali, iqtisodiy jihatdan zaif, madaniy jihatdan qoloq, rus madaniyati bilan keskin kontrastda bo‘lgan hudud sifatida aks etadi. Bu vaziyatda ziyoli jamiyatni uyg‘otish, ijtimoiy islohotlarni boshlash, millatning ichki kuchini tiklash kabi vazifalarni o‘z zimmasiga oladi [3,14].

Muhammadiyor Boku, Petrograd, Shveytsariya kabi davlatlarda zamonaviy hayot bilan tanishadi, ammo vatanga qaytgach, uning oldida asosiy savol tug‘iladi:

“Men bu yuksak madaniyatni o‘z xalqimga qanday olib kelaman?”. Bu postkolonial intellektualning asosiy “tragik savoli”dir [1,1064].

“Do‘xtur Muhammadiyor” nafaqat adabiy asar, balki milliy uyg‘onish dasturi, ma’rifiy manifest, jadid ziyolilarining ideal modeli, modern o‘zbek nasrining muhim tamal toshi sifatida ham baholanadi.

Cho‘lpon ziyoli obrazini bir inson portreti sifatida emas, balki millat kelajagini belgilovchi shaxs, jamiyatni uyg‘otuvchi kuch, xalqning milliy o‘zligini anglatuvchisi, modern o‘zbek intellektualining arxetipi sifatida yaratadi.

Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyasi — o‘zbek adabiy modernizmining ziyoli konsepsiyasini badiiy jihatdan mukammal ifodalagan asarlardan biridir. Hikoyada ma’rifat va jaholat qarama-qarshiligi, ziyolining ichki kamoloti, modernlik va milliy o‘zlikning uyg‘unlashuvi teran badiiy falsafa bilan yoritilgan. Muhammadiyor obrazi ma’rifatga tashna yosh, milliy uyg‘onishning faol subyekti, modern dunyo bilan muloqot qiluvchi intellektual, jamiyatni o‘zgartirishga bel bog‘lagan fidoyi ziyoli, jadidchilik mafkurasining ideallashtirilgan modeli sifatida gavdalanadi.

Asar mazmuni orqali Cho‘lpon “xalqning kelajagi — ziyolilar qo‘lida, ziyolining quroli esa ilm va ma’rifatdir” degan fikrni ilgari suradi. Shu sababli “Do‘xtur Muhammadiyor” obrazi — o‘zbek adabiyoti tarixida yetuk va ta’sirchan ziyoli timsollaridan biri bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan badiiy arxetip sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sidiknazarova Z. Postkolonial nazariya nuqtai nazaridan o‘zbek adabiyotining xorijdagi tahlili. URL: https://zenodo.org/records/15567969
2. O‘zbek nasri onlayn antalogiyasi: Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938). URL: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulhamid-cholpon/ (murojaat etilgan sana: 04.12.2025)
3. Madg‘oziyev, I., Islomova, S. (2022). Abdulhamid Cho‘lpon: Jadid adabiyoti namoyandalari. URL: https://hilolnashr.uz/abdulhamid-cholpon-jadid-adabiyoti-namoyandalari

FARG‘ONA JADIDLARNING MA’NAVIY OTASI - ZOKIRJON FURQAT

Usmonova Sofiyaxon ALIMOVNA,
QDU dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan berilgan yuksak e’tirof sohibi “Farg‘ona jadidlarining ma’naviy otasi – Zokirjon Furqat” ijodidagi ma’rifiy qarashlar, xususan, zamondosh ijodkorlardan farqli holda yetuk publisist sifatidagi iqtidori, gazeta xabari va siyosiy mavzulardagi publitsistik maqolalar, memuar xarakterdagi turli nomlarda yuritiladigan xotiralari - “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘zi yozg‘oni”, “Tirik tarix” turkum hujjatli “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda” filmining yaratilishi asnosida bugungacha tarixning eng chirkun kunlari boshqacha baholanib, ruslarning ma’rifati, madaniyatiga kuchli ehtiromda bo‘lgan xalq shoiri sifatida gavdalantirib kelingan ulig‘ xalqparvar, millatparvar ajdodimiz, “Qudratli to‘da” vakillaridan biri – Furqat taqdirida yuz bergan tarixiy hujjatlartga asoslangan achchiq haqiqatlar haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Furqat, ma’rifatparvar, publisist, shoir, muxbir, tabib, tarjimon, millatparvar.

Annotation. This article discusses the enlightening views in the works of “The spiritual father of Fergana Jadids – Zakirjon Furqat,” who was highly praised by our President Sh.M. Mirziyoyev. In particular, it addresses his talent as a mature publicist, distinct from contemporary writers, his newspaper reports and journalistic articles on political topics, and his memoirs recorded under various titles -“The Condition of the Khokand Poet Zakirjon Furqat, What He Himself Wrote,” “Living History”- as well as the creation of the documentary film series “Even in Exile, Furqat Exists.” The article examines these works in the context of the historical events they depict, highlighting how history’s darkest days have been re-evaluated to the present, portraying him as a national poet with deep respect for Russian enlightenment and culture. It addresses the bitter truths based on historical documents concerning the fate of our great, patriotic, and nationally-minded ancestor, one of the representatives of the “Powerful Crowd” – Furqat.

Keywords: Furqat, enlightener, publicist, poet, correspondent, doctor, translator, patriot.

2017-yil 3-fevral kuni Prezident Shavkat Miriyoyev Milliy bog‘da Adiblar xiyoboni barpo etilishi bo‘yicha taklif bergan. Ushbu taklif bo‘yicha 2017-yil 18-aprel kuni PQ-2894 sonli qarori qabul qilingan. 2020-yil 20-mayda 25 nafar yozuvchi va shoir haykali o‘rnatilgan xiyobon Shavkat Mirziyoyev ishtirokida rasman ochilgan. Bu yozuvchi, shoirlar orasida Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining borligi quvonarlidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi arafasida Xiyobondagi haykallar 2019-yilgi Vairlar Mahkamasining 846-sonli qarori bilan arxitektura

yodgorligi sifatida “Moddiu madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari ro‘yxati”ga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 28-sentyabr kuni Farg‘onadagi saylovoldi uchrashuvda Farg‘ona jadidlarining ma’naviy otasi – Zokirjon Furqat ijodini keng ommalashtirish va haykalini o‘rnatish taklifini bergandi.

Furqatning “Ilm hosiyati”, “Gimnaziya”, “Vistavka xususida”, “Toshkent shahrida bo‘lg‘on nag‘ma bami xususida” kabi bir qator masnaviy va manum asarlari, madrasa va maktablarda maosh olmay dars berganliklari bois yurtboshimiz tomonidan “Farg‘ona jadidlarining ma’naviy otasi – Zokirjon Furqat” deyilishiga sabab bo‘ldimikan degan andeshani qilgandik. “Tirik tarix” turkum hujjatli filmlarning yaratilishi bugungacha boshqacha fikrda bo‘lgan ijodkor-ajdodlarimiz haqida tarixiy faktlatga asoslangan achchiq haqiqatlarning ochilishiga zamin yaratdi. “Tirik tarix” turkum hujjatli “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda” filmining yaratilishi asnosida bugungacha tarixning eng chirkun kunlari boshqacha baholanib, xizmatlari xaspo‘shlangan, yurtidan majburiy quvg‘in qilingan ma’rifatparvar, millatparvar, go‘zal qalb va kuchli iqtidor sohibi Harati Furqat haqida biroz mulohaza yuritishga jazm etdik.

Hujjatli filmdan olingan ma’lumotga ko‘ra, o‘z davrining obro‘li kishilaridan bo‘lgan mullo Xolmuhammad xonadonida uzoq kutilgan farzand – favqulodda iste’dod sohibi Zokirjonning tug‘ilishi, uning tengqurlaridan ilm va mushohada bobida 10 yullar oldinlab ketganligi kabi hayratlanarli faktlar u zotga nisbatan muhabbatimizni kuchaytirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, o‘zbek adabiy tili va uslubi rivojiga ulkan hissa ma’rifatparvar shoirlardan bir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ko‘pchilik nigohida faqat shoir sifatida namoyon bo‘lsa-da, lekin u zamondosh ijodkorlardan farqli holda yetuk publisist sifatida ham o‘z iqtidorini namoyish qila olgan.

I.Haqqul ta’kidlaganidek, “Tuyg‘u va taassurot imkoni unda (Furqat) qancha kengaysa, ijodida yangilanish ham o‘shancha ortadi. Buni Furqatning safar va sayohat mavzuidagi she’rlari ham to‘la tasdiqlaydi. Dunyo kezish, ayniqsa, Turkiya, Yunoniston, Bulg‘oriya, Misr, Arabiston va Hindiston mamlakatlaridagi sayohatlar shoirning dunyoqarashi, hayotning oqu qorasi, balandu pastini farqlashiga alohida ta’sir o‘tkazgan” [1].

A.Abdug‘ofurov “Furqat salmoqdor prozaik meros qoldirdi. Oddiy gazeta xabari va siyosiy mavzudagi publitsistik maqolalar, memuar xarakterdagi xotiralar va ilmiy-etnografik mavzudagi risolalar bu merosning asosini tashkil etadi”, degandi. [5.179].

Furqat dastlab, Yangi Marg‘ilonga borgan chog‘lari xalq ichida yurgan, g‘ayridinlarga unchalik rag‘bati bo‘lmagan, ular barpo etgan shaharga tog‘asining xohishi bilan borib, rus madaniyati, rus adabiyotidagi nasriy janrlar, gazeta, gramafon kabi yangiliklar bilan tanishadi. Uning ijodiy salohiyati o‘sib borayotganini ko‘rgan tog‘asi Rahmatullo, jiyaniing ilm olishiga qiziqishini rag‘batlantirib boradi.

1889-yil Yangi Marg‘ilonda yashayotgan paytida Furqat qattiq betob bo‘lganini eshitgan Muqimiy do‘stini ko‘rgani borib, ahvol jiddiyligini sezgach, Toshkentlik tabib Xoja A’zamning yoniga yuborish taklifini beradi. Furqat Toshkentga kelib, Eski shaharga joylashadi. Bu orada tabibning yonida qarashib yurib, bu sohaga ham qiziqishi ortadi, tabiblikni o‘rganadi.

Furqatning Ostroumov bilan tanishishi, uning jurnalist sifatida faoliyatiga keng yo‘l ochadi, u “Turkiston viloyatining gazeti” faollaridan biriga aylanadi. Z.Qobilova bu boradagi faoliyati haqida: “Furqat jurnalist sifatida ham faoliyat yuritgan. Dastlab xabarlar, taqrizlar, sharhlar, publisistik maqolalari bilan gazetada faoliyat olib borgan. Matbuotning o‘qishli bo‘lishida ham ximatlari bor”-, deydi [4].

Furqatning tarjimon Sattorxon Abdug‘ogurov bilan tanishuvi uning rus tilini o‘rganishiga sabab bo‘ladi. Xalqning ma’rifatli bo‘lishiga ishtiyoqi ortganligi bois, maktab va madrasalarda tekinga darslar o‘tadi, uning xalq orasida obro‘si kundan kunga oshib boradi. Furqat xattotlik, tabiblik, tarjimonlik, muxbirlik kabi sohalar bilan shug‘ullanadi,

Siyosiy kuchlar o‘zlarining manfaatlari yo‘lida Furqatdan unumli foydalanadi. Furqat erksizlikdan g‘alayon qilgan xalq orasiga chiqar, erkka ma’rifat bilan erishish kerakligiga undar edi. Uning xalq orasidagi obro‘si va kuchli ta’siri ayrim chor amaldorlarini cho‘chitadi. Furqat Toshkentdagi ma’rifatparvarlar bilan tanishgan, yiginlarda birga bo‘lgan, yig‘inga “Qudratli to‘da” deb nom berilgan. Chor amaldorlari ularni to‘xtatish choralarini ko‘rgan.

Chor amaldorlari xalq orasida katta hurmatga ega Furqatni “Qudratli to‘da” dan ajratish harakatiga tushadi. Xususan, Ostroumov do‘sti Sa’dulla hofizning vafotidan foydalanib, tushkun holda yurgan Furqatning xorijga chiqib dam olishi lozimligi, qolaversa, gazeta uchun material to‘plashni undan boshqaga ishonmasligini aytib, uni safarga ko‘ndiradi. Bu paytda Rossiya imperiyasi hududida (1891-yil 14-may) pasport berish to‘xtatilgan payt bo‘lib, Ostroumov pasportini orqasidan yuborishini va’da qilib bu bilan Furqatning pasportsiz yurtiga qaytolmasligini ta’minlaydi. Tarixiy hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, pasport berilmayotgan paytda Furqatning Bishkentdan xiyla bialn chiqarilganligi siyosiy o‘yin bo‘lgan. Toshkentdagi “Toshotar qo‘zg‘oloni” da Furqatning hammaslaklari

yo‘q qilinadi, u shunda o‘zining aldanganini tushunib yetadi. Ostroumovga pasport yuborishini iltimos qilib yozgan bir necha xatlari javobsiz qolaveradi.

O.Jo‘raboyev Furqat taqdiridagi o‘zgarishlarga to‘xtalib: “O‘choqdagi yog‘dan o‘t chiqib, yosh kelin yonib ketadi. Birinchidan bu holat Zokirjonning hayot yo‘lini o‘zgartirgan. Ikkinchidan Marg‘ilonga ayolidan so‘ng ketgan, undan Xo‘jand orqali Toshkentga ketgan”, deb Furqatning vatandan ketish masalasini izohlaydi [4].

Furqatshunos N.Jabborov shoir taxallusiga to‘xtalib: “U Xo‘qandalik davrida Furqat – ayriliq taxallusini olgan, bu haq taolo visolidan ayriliq ma’nosida ekanligini vatandan chiqib ketishiga yozgan hajvlari sabab degan farazlar bor, lekin uning do‘stlariga yozgan maktublari yurtidan qochib ketmaganligini ko‘rsatadi”-, deya ta’kidlaydi [4].

Furqatning jurnalistik faoliyati 1890-yildan “Turkiston viloyatining gazeti”da xotira, maqola va xabarlari tez-tez chop etilib turgan. Uning 1891-yil yanvar-iyun oylarida “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘zi yozg‘oni” sarlavhasi ostida chop etilgan maqolalari ahamiyatga molikdir. Furqatshunos olimlar bu maqolalarga yaxlit bir asar sifatida qarab “Xotiralar”, “Esdaliklar”, “Avtobiografiya”, “Furqatnoma” kabi sarlavhalar bilan yuritadilar. Furqat bu asarida o‘zi, oilasi, yoshlik yillari, maktab va madrasalardagi o‘qishlari, ustozlari, o‘sha davrda yuz bergan ijtimoiy-tarixiy voqealarni tadrijiy holda berib boradi. Ayniqsa, asarda o‘yinqaroq bolaligidan ko‘ngil uzolmay, otasining qistovi bilan bazo‘r maktabga borgan bolaning, keyinchalik, o‘qish va yozishga zo‘r ishtiyoq hamda iqtidori “ertadin qiyomg‘acha kitob o‘qub, andin namozi asrg‘a tegru mashqi xat” [7.134] bilan shug‘ullangani taxsinga loyiq. 8 yoshda “Mantuqut-tayr”ga oshno bo‘lgani, Hofiz, Navoiy, Bedil asarlariga “dil bergani” va boshqa ko‘plab fikrlar shoir hayoti va uning ijod olamiga kirib kelishi haqida o‘quvchiga qoniqarli ma’lumot olish imkonini beradi.

“Furqatnoma” da shoir ijodiy faoliyati ko‘lami va mavzuiy rang-barangligini ko‘rsatuvchi ishonchli dalilllar ham ko‘plab uchraydi. Chunonchi, “Hammomi xayol” risolasini nazm silkina chektim va “Chor darvesh” hikoyatikim fors lisonida erdi, ani zebo iboratlar birla turk zabonig‘a ta’bir berdim va bir fazilatpanoh do‘stum iltimosi bois bo‘lub “No‘h manzar” nom bir kitobni turkiy manzuma ayladim” [7. 139].

Ushbu asarda 1891-yil may oyida Samarqandga borgani, Amir Temur dahmasini ziyorat qilib, 3-4 qadimiy madrasalarni ko‘rib hayratlangani haqida yozadi. Shaharning bozor va rastalarini aylanib “ko‘p obod va mardumlari badavlat viloyat” [6.77] ekanligi, bu yerda qadimiy imoratlar va katta tepalar ham ko‘pligi haqida xabar beradi.

Furqat boshqa mamlakatlarda bo‘lishiga qaramay “Turkiston viloyatining gazeti”ga xalqaro voqealar va ijtimoiy-siyosiy ahvolni aks ettiruvchi xabarlarni jo‘natib turishga muvaffaq bo‘lgan. Bular sirasiga “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning Istambuldin yozg‘on maktubi”, “Zokirjon Furqat shoirni(ng) gazet muallifig‘a yuborg‘an maktubi”, Yorkent va Hindistondan yozgan xabarlari shular jumlasidandir. Bu xabarlarda Furqat o‘zi shohid bo‘lgan voqea-hodisalarni qalamga oladi va bu holatlarga sharhlovchi singari munosat bildirishni ham unutmaydi.

“Muddati bir yil Yorkand shahrida turadurman. Bul shaharning obi-havosi va mardumlari yaxshilig‘idin ketmoqni ixtiyor qilmadim. Yorkand odamlari nihoyatda yaxshi va to‘g‘ri odamdurlar va obod va arzonchiliq yerdur” [7.155].

Hijriy 1311-yili Yorkent shahrida vobo tarqalgani va ko‘rilgan chora-tadbirlar sabab xalq omon qolgaligi bayon etiladi. “... bu hodisada bemor bo‘lg‘on kishilar o‘lmay va uzoq yotmay – besh-o‘n kunda sihat toptilar” [7.156] degan ma’lumoti Yorkent xabari gazetaning 1894-yil 7-sentyabr 26-sonida bosilgan.

Hindistondan yozilgan xabar quyidagicha boshlanadi: “ “Paysai axbor” nom Hinduston gazetida yozubdurki, shu kunlarda inglis birlan ko‘histoniy afg‘onlarning arolarida bo‘lib turgan muhoriba nihoyatda qattig‘dur” [7. 157]. Furqat inglizlar va afg‘onlar o‘rtasidagi urushlar, ular qaysi mavze’larda bo‘layotgani, kim qancha askar yo‘qotayotgani, kimga qayerdan qancha yordamchi kuch kelib turgani haqida to‘liq ma’lumot beradi. Bundan tashqari, musulmonlar va hindular orasidagi munosabat buzilib, musulmon bolalarining nogoh kasal bo‘lib o‘lishi ko‘payadi, bu holga Furqatning o‘zi guvoh bo‘ladi hamda o‘z munosabatini bildiriadi: “...hindu xalqi halvoning ichig‘a zahar solib, ko‘chalarda sotib yurar ekan. Ul halvodin olib yegon yosh bolalar kasal bo‘lub o‘lar ekan. Hatto uch-to‘rt nafar ul badbaxt hindulardin dastgir o‘lunub, maxbus bo‘lubdur. Inglis tarafidin ul voqi’aning tajassis qilmoslig‘i ajabdur” [7. 157]. Bundan tashqari Kalkutta viloyatidagi musulmonlarning qadimiy masjidiga hindular da’vo qilib, masjidni vayron qilganda ham inglizlar bu mojoroni hindular tarafiga hal qilishi Furqatni ajablantirganligini bayon qiladi. Hindiston xabari gazetaning 1897-yil 28- noyabr 45-sonida bosilgan.

Xulosa qilib aytganda, Zokirjon Furqat tom ma’noda jadidlarning ma’naviy otasi sifatidagi e’tirofga loyiqdir. Uning “Yangi Marg‘ilon” va Toshkendagi faoliyati, xalq orasida topgan obro‘si, chor amaldorlarini qo‘rquvga solgani – jadidchilikning dastlabki kurtaklari sifatida qaralishiga, jadidchilik nuqtai nazaridan chuqur o‘rganilishga loyiqligini ko‘rsatadi. Furqat nasriy bayonning keng imkoniyatga ega ekanligini, unda davrning eng muhim va dolzarb masalalarini ko‘tarish mumkinligini, o‘quvchilarni g‘oyaviy hamda ma’naviy

tarbiyalashdagi o‘rnini maqola va xabarlari orqali isbotladi. N.Jabbor ta’biri bilan aytganda, “Furqat -milliy uyg‘onish poydevori qo‘rg‘onlaridan biridir” [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqul I. Furqat - armon va ayriliq shoiri. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-furqat-armon-va-ayriliq-shoiri.html.
2. https://www.bing.com/search?EID=MBHSC&form=BGGCMF&pc=W258&DPC=BG00&q=2019-yilgi+Vairlar+Mahkamasining+846-sonli+qarori&PC=U316&FORM=CHROMN
3. Jabbor N. “Zokirjon Furqat va milliy uyg‘onish” mavzusidagi videodars.
4. Yakubov B. “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda” hujjatli filmi.
5. Абдуғофуров А. Зокиржон Фурқат. “Фан”. 1977..
6. Усмонова С. Шоир Фурқат ижодида публицистиканинг ўрни. “Нутқ маданити ва тилшуносликнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари Фарғона. 2016
7. Фурқат. II томлик. Танланган асарлар. II том., Т.- 1959.

HOJI MUIN SHUKRULLONING PEDAGOGIK QARASHLARI VA JADID TA’LIM TIZIMIDAGI O ‘RNI

Imomaliyeva Musharrafxon,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsenti (PhD)
Abduqaxxorov Nodirbek Umidjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) yo‘nalishi talabasi
nodirbekabduqahhorov6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshidagi Samarqand adabiy va ijtimoiy muhitining faol vakili Hoji Muin Shukrulloning hayot yo‘li va ko‘p qirrali faoliyati tahlil qilinadi. Muallif adibning pedagogik qarashlari, yangi usul maktablari uchun yaratgan darsliklari, shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan ma’naviy hamkorligiga to‘xtalib o‘tadi. Maqolada Hoji Muinning dramaturgiya va publitsistikadagi o‘rni, xotin-qizlar ta’limi masalasidagi qat’iy pozitsiyasi hamda sho‘ro davridagi fojiali taqdiri arxiv ma’lumotlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Hoji Muin, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Samarqand adabiy muhiti, yangi usul maktabi, dramaturgiya, publitsistika, “Mazluma xotin”, milliy uyg‘onish.

Abstract. This article analyzes the life path and multifaceted activities of Hoji Muin Shukrullo, an active representative of the literary and social environment of Samarkand in the early 20th century. The author examines the enlightener's pedagogical views, the textbooks he created for “usul-i jadid” (new method) schools, and his spiritual partnership with Mahmudxo‘ja Behbudiy. Based on archival data, the article highlights Hoji Muin’s role in dramaturgy and journalism, his firm stance on women's education, and his tragic fate during the Soviet period.

Keywords: Hoji Muin, Jadidism, enlightenment, Samarkand literary environment, new method school, dramaturgy, journalism, “Mazluma khotin” (Oppressed Woman), national renaissance.

XX asr boshlaridagi Turkiston madaniy muhiti o‘zining serqirra ijodkorlari bilan ajralib turadi. Ana shunday shaxslardan biri — milliy uyg‘onish davri Samarqand adabiy muhitining faol vakili Hoji Muin ibn Shukrullo (Mehriy) edi. U nafaqat iste’dodli yozuvchi va dramaturg, balki xalqni ma’rifatli qilish yo‘lida o‘z maktabini ochgan, darsliklar yaratgan va matbuot nashrlariga asos solgan chinakam fidoyi inson sifatida tarixda qoldi. Adibning taqdiri o‘ta murakkab va ziddiyatli kechgan. U Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidchilik harakati yetakchilarining eng yaqin maslakdoshi va yordamchisi bo‘lgan [1,1].

Turkistonda ahvol shu darajaga yetgandiki, puldor boylar o‘z boyliglarini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida turli xil bazm va ziyofatlar uyishtirayotgani va bunday bazmlarni bir necha kun cho‘zilayotgani, butun O‘rta Osiyodan oqib kelayotgan yuzlab mehmonlarni aroq-vinolardan no‘sh qilib, albattaki raqqos bachchalar davrasida bearmon yayarab-yashnashardi. Bu so‘zlarning tasdig‘i sifatida 1911 andijonlik miliontr Mirkomilboy naq 25 kun davom etgan to‘y qildi. Mazkur to‘yga butun Turkistondan mehmonlar yopirilib keldi, beva-bechoralar-u musofirlarga ehsonlar qilinib ularga har kuni tansiq taomlar tarqatildi. Hatto din peshvolari ham eskidan qolgan an’analarimiz deya O‘rta osiyohayotining uzviy qismi bo‘lgan hashamdor sunnat va nikoh to‘ylarida yoki aza marosimlarida deya buni yoqlashar asr boshlariga kelib esa bu odat yangi davlatimiz uchun ijtimoiy mavqeyini tasdiqlatib olish vositasiga aylandi Bu to‘y butun turkistonga ovoza bo‘ladi hattoki “Turkiston viloyatining gazeti” da elon qilingan hisobotga ko‘ra, bu to‘yga (“hech bir zamonda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan shohona ziyofat” ga) ketgan chiqimlarning umumiy miqdori 25 000 rublni tashkil etgan. Ayniqsa 1913-yilgi iqtisodiy inqiroz ketidan boshlanib ketgan kasotgarchilik to‘lqini manzarasida elko‘rsinga qilinayotgan va turgan bitgani isrofgarchilkdan iborat bunday to‘y-hashamlar o‘tkazilishini jadidlar tanazzuliga eltuvchi illat bilib, mutlaqo yoqlashmasdi. Gazetalarda chop qilinib maktab darsliklariga kiritilgan asarda jadid yozuvchilari mavjud ahvolni keskin qoralab, behuda havoga sovurilayotgan

harajatlarni jamiyat manfatlari yo‘lida sarflashga davat qilishardi. Ushbu havotirlar Behbudiyning shogirdlari – Hoji Muin va Nusratilla Qudratulla tomonidan 1914-yilda sahnalashtiligan “To‘y” pyesasida ham o‘z aksini topgan [2,225].

Pyesada nodonlik va isrofgarchilikning og‘ir oqibatla-ri tasvirlanadi. Badavlat bir savdogar o‘g‘liga xatna to‘yi o‘tkazishni niyat qiladi. "Shariatda man qilingan" isrof-garchilik va boshqa yomon odatlarga yo‘l qo‘ymaslik ha-qidagi nasihatlarni qulog‘iga olmay, manmanlik va xud-binligi sababidan dovrug‘i yetti iqlimga yetgulik bazmi jamshid uyushtirishga ("To‘y qilsang, kimligingni butun olam bilsin") ahd qiladi. Bu to‘yga faqat boylar taklif qi-linib, yupqaqo‘l kambag‘allar yaqin ham yo‘latilmaydi. Aroqxo‘rlik va bachchabozlik bilan “ziynatlangan” toy boy istaganiday serhasham tarzda o‘tkaziladi, ammo ke-yin xarajatlarni hisoblab ko‘rishsa, rejadagi 15000 rublga ustama yana naq 4000 rubl sarflanibdi. Bularning barchasini to‘lab bo‘lgach esa boyning hisobida atigi 130 rubl va 23 kopeyekdan boshqa hemiri ham qolmagani oshkor bo‘ladi. Bir kelsa baxtsizlik yopirilib keladi emas-mi, Moskva bankidan olgan 5000 rubl qarzni qaytarish muddati ham xuddi shu payt bitib, hech bir chorasiz qo-ladi. Oqibatda boyning do‘konlari xatlanib, musodara qilinadi. Asar so‘ngidagi quyidagi xitob bosh qahramon tilidan butun millatga qarata yangraydi:[2,226]

Ah! Voy! Biz Turkiston musulmonlari bu nodonlik balosidan qachon qutular ekanmiz? Bizlarni ilmsizlik sharobxo‘r qildi, javonboz qildi, ahmaq va isrofkor qildi, mana, oxir beobro‘y va xonavayron qildi. Boshqa millat-lar topgan pullarini ilm va maorif, din va millat yo‘liga sarf qilib kundan kun taraqqiy topsalar, bizlar jaholat va nodonligimiz sababidan topgan molimizni, hatto bog‘ va hovlilarimizni sotib, to‘y va azo, bazm va ko‘bkari yo‘-liga xarajot qilib, o‘zgalarning bir parcha noniga muhtoj va xor-u zor bo‘lmakdamiz. Agar biz musulmonlar ush-bu fursatlarni g‘animat qilib, to‘y va azoda urf va rasm bo‘lgan asroflarga barham bermasak, ozgina vaqtda ho-zirki mulk-molimizdan ham ayrilib, o‘zimiz darbadar bo‘lurmiz. Alloh taola jumla musulmon birodarlarimiz-ga ibrat ko‘zi bersun[2,227].

Ma’naviy tanazzul va axloqiy buzuqlik sababi jaholat va nodonlik bo‘lsa, yaxshi amallar va diyonat sari eltuvchi yagona yo‘l ma’rifat yo‘li edi. “Maktab bizning foydamiz musulmonlarning ibodat qilmak uchun bino qilingan eng hurmatli uyidir. Agar dunyoda maktab bo‘lmasa edi, masjidga kimlar kirub, ibodatni kimlar qilur edi?”

Ma’naviy buzuqlik va turli gunohlarning urchib ketga-ni tufayli ro‘y bergan tanazzul jadidlar islohotining bosh makoni bo‘lgan jamiyat oldidagi burchlarni ado etish ma-salasini ham xatarga qo‘ydi. “Shuhrat” gazetasining muxbiri yaqinda nishonlangan Qurbon hayiti davomida Toshkent musulmonlari ichkilikbozlik va fohishabozlikka 100000 rubl sarf qilishganini hisoblab chiqadi. “Taraqqiyot

deganlari shu bo‘lmay, nima axir?! - deya zaharxandalik bilan savol tashlaydi maqola muallifi. - Ammo bu pullar qaydan keldi? Millionta bolaga ta'lim berib, ularni yov-voyilikdan odam siyoqiga keltirish uchun, minglab mil-lat xodimini tarbiya etmak uchun zalolatga sovurilgan shu pullar kifoya qilmasmidi?” Hoji Muinning pyesasida mazax qilingan ko‘knorixo‘rlar islom qonunlariga ko‘ra ta’qiqlangan ishga qo‘l urgani uchungina emas, balki o‘lchab berilgan vaqtini, moli-yu jonini behuda isrof qilishayotgani tufayli ham axloqsizdirlar[2,228].

Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan tanishuvi uning hayotida ulkan o‘zgarish yasadi. Hoji Muinda juda ham katta taassurot qoldirgan “Muhtosari jug‘rofiyai umumiy” nomli Behbudiyni go‘zal bir asari haqida shunday yozadi “Ba’zi eski xurofat va isroiliyat so‘zlari bizning tafsir kitoblarimizga kirib ketgan ushbu jumlalar manin fikrimda ulkan o‘zgarish yasadi deydi. Ushal kundan Behbudiyni asarlarini diqqat bilan dimiy o‘qib boradigan bo‘ldim” deydi. Shu yo‘sinda Muin o‘zini Behbudiyga shogird deb aytardi va agar qayerda Behbudiyni muhokama qiladigan bo‘lsa, uning sha’nini doimo mudofaa qilib kelardi. Jadidning pedagogik faoiliyatini 1903-yilda o‘zining Ho‘ja Nisabdor mahallasida birinchi usuli jadid maktabini ochadi. Shu tariqa o‘z zamondoshlari orasida usuli jadid maktabining muallimi sifatida tanildi. Muin zamondoshlari Behbudiy, Shakuriy va Ajziylar kabi o‘z hisobidan maktab ochgan. Bunday jumlalarga guvoh sifatida Rahim Muqimov shunday yozadi: “Hoji muin maktabda bolalarni savodxon qilish uchun sarflanadigan mablag‘ni yig‘maga, balki o‘zining devoli ko‘ndalang qishlog‘idagi bog‘chasida yetishtirgan shirin-shakar mevalarni bozorga chiqarib sotish evaziga to‘plangan. Maktabdorlikdan daromad olishni sira o‘ylamagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlarimiz maktabni o‘z hisobidan ochishdan ko‘zlangan maqsad xalqni ustidan pul ishlash emas, ulardan foydalanish emas, balki millatni ilmli qilib ziyo yo‘liga otlanish uchun uyg‘otish edi. 1903-yilda yangi usul maktabiga o‘z alifbosini nashr ettiradi, shu bilan birga 1908-yilda fors tilida Muin “Rahnamoi savod”, I.Rahmatullazoda bilan hamkorlikda o‘zbek tilida “O‘qituvchi” nomli alifbo kitoblarini yozadi. 1926-yili chop etilgan “Forscha alifbolar tarixi” maqolasida Hoji Muin “Rahnomoi Savod” haqida shunday ma’lumot beradi: “Munin yozguvchisi Hoji Muin va noshiri muallim Abduqodir Shakkuriydur. 1908- yilda toshbosmada faqat bir qatla ikki ming besh yuz dona bosildi. Yuzi 36 sahifalikdur. Bu alifboning boshida harflar tadjiriy suratda ko‘rsatilib, so‘z va jumlalar mad usuliga (cho‘zg‘i) bilan yozilg‘on. Munda eng avval forscha harflar tadjiriy yo‘l bilan ko‘rsatilgani boyis o‘sha vaqtda usuli jadid dushmanlari “Jadidlar o‘z kitoblaridan arabcha hariflarni chiqarib tashlabdilar” deb xalq orasida ig‘vo tarqatqon edilar deb yozadi[1,2].

Hoji Muin o‘quvchilar uchun sodda va tushunarli tilda yozilgan darsliklar muallifidir. Uning “O‘qituvchi” asari o‘z davrida pedagogik mahorat va dars berish

usullari bo‘yicha qo‘llanma vazifasini o‘tagan. U dars berishda bolaning ruhiyatini hisobga olish, darsni o‘yinlar va qiziqarli hikoyalar orqali o‘tish lozimligini uqtirgan.

Hoji Muinning ma’rifatparvarlik faoliyati nafaqat yangi usul maktablari va darsliklar yaratish, balki boy adabiy meros qoldirish bilan ham ahamiyatlidir. Uning ijodiy izlanishlari natijasi o‘laroq yuzaga kelgan “Guldastai adabiyot” to‘plami muallif tomonidan tuzilgan yagona she’riy majmua hisoblanadi. To‘plamdan joy olgan “Xitob va go‘daki beilm”, “Nasihat”, “Muxammas”, “Ittifoq”, “Shikoyat” va “E’tirof” kabi she’rlar bevosita Hoji Muin qalamiga mansubdir. To‘plamdagi qolgan she’rlar esa bolalar tarbiyasiga yo‘naltirilgan tarjima asarlardan iborat. Hoji Muinning ijod olamiga kirib kelishi juda erta boshlangan. U bolaligidanoq Ahmad Yassaviy va Boborahim Mashrab kabi buyuk mutafakkirlarning g‘azallarini sevib mutolaa qilgan. Bunday ma’naviy muhit ta’sirida u hali o‘n bir yoshidayoq ilk she’rlarini mashq qila boshlagan. Biroq, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning shiddati va millat taqdiri bilan bog‘liq qizg‘in pallalar Hoji Muinning ijodiy yo‘nalishini belgilab berdi. Zamon undan faqat shoir bo‘lishni emas, balki jamiyatning og‘riqli nuqtalarini ko‘rsatib beruvchi mohir dramaturg va xalq fikrini uyg‘otuvchi qalami o‘tkir publitsist bo‘lib yetishishni talab qildi. Natijada, Hoji Muin o‘z faoliyatini millat ma’rifati uchun xizmat qiladigan eng zarur va ta’sirchan janrlarga bag‘ishladi[1,3].

Hoji Muin Shukrullo yangi usuli jadid maktablari dasturiga geografiya, matematika, tabiiyot, tarix kabi fanlarni kiritish kerakligi haqida o‘z maqolalarida yozgan. Bu fikrlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri birgina kitobda emas, balki uning publitsistik maqolalari va jadid matbuoti haqidagi tadqiqotlarda uchraydi. 1913-yildan boshlab Hoji Muin Behbudiyning “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida mas’ul vazifalarda ishladi. U o‘z davrining o‘tkir qalamli jurnalisti sifatida “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Ovozi tojik” gazetalarida faoliyat yuritdi, shuningdek, “Tayoq” va “Mashrab” kabi hajviy jurnallarga asos soldi. Dramaturgiya sohasida ham u sermahsul ijod qildi. Uning “To‘y”, “Eski maktab — yangi maktab”, “Mazluma xotin” va “Ko‘knori” kabi asarlari jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi kuchli qurolga aylandi. E’tiborlisi shundaki, uning “Mazluma xotin” asari taniqli rus sharqshunosi Vyatkin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan[3,1].

Teatr — tarbiya vositasi:

Jadidlar teatrni “ibratxona” deb ataganlar. Hoji Muin o‘zining “Eski maktab — yangi maktab” (1916) dramasida o‘sha davrdagi mudroq ta’lim tizimini achchiq hajv ostiga oladi. Asarda eski maktabdagi qoloqlik va “yangi maktab”ning yutuqlari qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu orqali u xalqqa farzandlarini zamonaviy ilmga berish zarurligini badiiy yo‘l bilan tushuntirgan. Hoji Muinni ilmli dono kishi bo‘lganliga yana bir dalil guvoh jamiyatdagi muammolarni satira va kulgi

orqali ochib berish maqsadida tashkil etilgan. Bu jurnallar orqali jadid ziyolilari, jumladan Hoji Muin Shukrullo, jaholat, savodsizlik, eski ta’lim tizimi va ijtimoiy kamchiliklarni tanqid qilib, xalqni ilm-ma’rifatga, zamonaviy fikrlashga va yangi jadid maktablarini qo‘llab-quvvatlashga chaqirgan. Shunday qilib, hajviy jurnallar kulgi vositasida jamiyatni uyg‘otish va ijtimoiy islohot g‘oyalarini targ‘ib qilishga xizmat qilgan.

Jadid Hoji Muin Shukrulloning “Turkistonning fig‘oni” ushbu maqola “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 10-noyabrdagi nashrida muallif Turkiston tarixida ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lgan Samarqand misolida xalqning ilgari qanday rivojlanganini eslaydi. U o‘z avlodlarining ilm va ma’rifatdan uzoqlashgani, otalaridan meros qolgan bilim va qadriyatlarni tashlab, jaholat va nizolarga berilganini qayg‘uli ohangda tasvirlaydi. Maqolada Muin millatni uyg‘onishga, jaholat uyqusidan chiqishga, ilm-ma’rifatga intilishga va birlikda harakat qilishga chaqiradi. Muallif bu eslatmalar orqali milliy uyg‘onish, ta’limga e’tibor va jamiyatni ma’rifat yo‘liga yo‘naltirish g‘oyalarini ilgari suradi.

Shuningdek, maqola ma’rifat va tarbiya tarafdori bo‘lgan jadidlarimiz umumiy maqsadi – xalqni ilm-fanga yo‘naltirish millat taraqqiyotini ta’minlash ekanini namoyon qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki jadidlarni maqsadi bir bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan, maqola nafaqat tarixiy va ayanchli manba, balki milliy uyg‘onish va ijtimoiy islohotga chaqiruv sifatida ham ahamiyatlidir.

Hoji Muin xalqning birlikni yo‘qotishi, ichki nizolar sababli zaiflashgani va chet ellar tomonidan osongina bosib olinayotganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u boshqa xalqlarni ko‘rib, ularning ilm-fan orqali taraqqiy etayotganini solishtiradi va bu hol Turkiston xalqining hozirgi ahvolini yanada qayg‘uli qiladi[3,2].

U o‘zining maqolalarida o‘qituvchining jamiyatdagi nufuzini oshirish, xotin-qizlar ta’limini yo‘lga qo‘yish va milliy matbuot orqali xalqning dunyoqarashini kengaytirish masalalarini tinimsiz ko‘tarib chiqdi. Bunga dalil qilib quydagi maqola isbot bo‘ladi. Hoji Muin Shukrulloning “Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi” maqolasida Turkistonda yangi maktablar ochilgan bo‘lsa-da, qizlar uchun maktablar tashkil etilmaganini keskin tanqid qiladi. Muallifning fikricha, qizlarni o‘qitmaslik jamiyatdagi noto‘g‘ri qarashlar va ayollar huquqlarining poymol qilinishi bilan bog‘liq. U islom dini erkaklar bilan birga ayollarga ham ilm olishni farz qilganini eslatib, musulmonlar bu talabga amal qilmayotganini aytadi. Hoji Muin qizlarni ta’limdan chetda qoldirish millat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilishini ta’kidlab, Turkiston ziyolilari va yoshlarini qizlar tarbiyasi, ularning huquqlarini himoya qilish va maxsus qizlar maktablarini ochishga chaqiradi[3,3].

Hoji Muin hayoti davomida ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. 1916-yilda mardikorlikka olinib, Minsk guberniyasida og‘ir mehnatda bo‘ldi. 1926-yilda esa “Ovozi tojik” gazetasidagi faoliyati davomida yo‘l qo‘yilgan kichik bir texnik

xato siyosiy tus oldi. Uni aksilsho‘raviy faoliyatda ayblab, Sibirning uzoq o‘lkalariga surgun qilishdi. Hoji Muin Shukrullo 1932-yilda surgundan vatanga qaytib, yana matbuot sohasida ishlashni davom ettiradi. 1934–1937-yillarda u “Qizil yulduz” tahririyatida faoliyat ko‘rsatadi. Ammo uning korrektorlik faoliyati yana baxtsiz hodisaga sabab bo‘ladi: gazetada “otishga hukm etilgan xalq dushmani Muralov” degan ism xato bilan o‘sha davrning mashhur siyosiy arbobi Vyacheslav Molotov nomi bilan almashib ketadi. Bu holat siyosiy tus olib, Hoji Muinni buni ataylab qilganlikda ayblashadi. Natijada u “aksilsho‘raviy targ‘ibot”, “josuslik va buzg‘unchilik faoliyati”, hamda “ingliz razvedkasiga xizmat qilganlik” kabi og‘ir ayblovlar bilan 10 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. U 1942-yilda Solikamskda vafot etadi. Oradan yillar o‘tib, 1963-yilda uning nomi rasman oqlanadi[3,5].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Hoji Muin ibn Shukrullo nafaqat jadidchilik harakatining faol vakili, balki millatning ma’naviy uyg‘onishi uchun o‘z hayotini fido qilgan buyuk siymodir. Uning faoliyati quyidagi muhim jihatlari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Hoji Muinning fojiali taqdiri — uzoq yillik surgunlar va tuhmatlar ostidagi o‘limi — o‘sha davrdagi millat ziyolilarining umumiy fojeasini aks ettiradi. Bugungi kunda uning nomi oqlangani va merosi o‘rganilayotgani, jadidlar orzu qilgan erk va ma’rifat g‘oyalari yashayotganining tasdig‘idir. Uning boy adabiy va pedagogik merosi milliy o‘zligimizni anglashda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayni hozirgi davr Marifatchi jadidlarimiz kutgan davr keldi ammo ular yoq lekin ularning davomchilar hamon millat ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Hoji Muin Tanlangan asarlar (Nashrga tayorlovchilar N.Namozova, Boybota Do‘stqorayev) “Ma’naviyat” nashriyoti 2005;
2. Adib Xolid Turkistonda Jadidchilik (“AKADEMNASH” nashriyorida tayorlandi) “O‘zbekiston” nashrioti 2025;

Internet manbalari:

1. https://Kh-davron.uz Hoji Muin. Yetti maqola & Begali Qosimov. Hoji Muin qismati (Turkistonning fig‘oni)
2. https://Kh-davron.uz Hoji Muin. Yetti maqola & Begali Qosimov. Hoji Muin qismati (Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi)
3. https://ziyouz.uz Begali Qosimov. Hoji Muin qismati

FAZLULLOH ALMAIY IJODI VA JADID PEDAGOGIK G‘OYALARINING TALQINI

Imomaliyeva Musharrafxon,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsenti, (PhD)
Tuxtaboyeva Sabrina Jaxongir qizi,
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti namoyandalaridan biri bo‘lgan Fazlulloh Almaiy hayoti va ijodi tahlil qilinadi. Unda adibning yashagan davri, ijodiy faoliyati, adabiy merosi hamda asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, ijodida aks etgan ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy qarashlar tahlil etiladi. Maqola orqali Fazlulloh Almaiy ijodining ahamiyati va adabiy jarayonga qo‘shgan hissasi haqida umumiy xulosalar beriladi**.**

Kalit so‘zlar: Fazlulloh Almaiy, ziyrak, Kalila va Dimna, muxammas, fazilat koni, hayot, ruboiy, zullisonayn, poeziya, aruz, arab va fors.

Annotation. This article analyzes the life and work of Fazlulloh Almaiy, one of the representatives of Uzbek literature. It highlights the period in which the writer lived, his creative activity, literary heritage, and the ideological and artistic features of his works. The article also examines his place in Uzbek literature, as well as the social, spiritual, and moral views reflected in his творчество (creative work). Through this study, general conclusions are drawn about the significance of Fazlulloh Almaiy’s творчество and his contribution to the literary process.

Keywords: Fazlulloh Almaiy, perceptive, *Kalila and Dimna*, mukhammas, source of virtue, life, rubai, bilingual (zullisonayn), poetry, aruz, Arabic and Persian.

Jadid adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she’riyat (poeziya) asosiy o‘rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo‘ldi. G‘azal, ruboiy, tuyuq, ta’rix, muammo, muxammas, musaddas, musamman va ayniqsa, masnaviydan keng foydalanildi. Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janri maydonga keldi. Ishq mavzui bu davrda she’riyatning markaziy mavzui bo‘ldi. Ikki tillilik (Zullisonayn) an’ana davom etdi. Madrasa ko‘rganlarning deyarli hammasi arab va fors tillaridan xabardor edilar. Shoirlarning ko‘pchiligi o‘zbek tili bilan bir qatorda tojik tilida ham ijod eta olardi. Shoir ijodida aruz bilan bir qatorda barmoq, sarbast she’rlar yuzaga keldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat adabiy-madaniy, balki pedagogik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Jadid mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifat va zamonaviy ta’limni ko‘rdilar. Ular eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablar – “usuli jadid” maktablarini tashkil etdilar. Bu maktablarda bolalarga ona tilida savod chiqarish, tabiiy fanlar, geografiya, tarix kabi zamonaviy fanlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Fazlulloh Almaiy (1851-1891) X1X asr o‘zbek adabiyotini Toshkentda yetishtirgan taniqli shoir, olim va tarjimondir. El orasida “Qori Fazlulloh” nomi bilan mashhur bo‘lgan. U Toshkent shahrining Qo‘shtut mahallasida tug‘ilgan. Zamondoshlarning aybini Fazlulloh tikso‘z, taptortmas, kishini yuzini ko‘ziga demay aybini ochiq aytuvchi kishi bo‘lgan. Shu sababli u amaldorlarga yoqmagan. Fazlulloh xat yozishda “nastaliq”, “xatti noxuniy” (tirnoq bilan yozish) san’atlarini egallagan xattot edi. X1X asrning so‘ngida Toshkentda tan olingan 7 bedilxonni biri ana shu qori Fazlulloh edi. Almaiy qator hajviyalar yozdi. “Muyi muborak” madrasasida o‘qib yurgan paytida o‘sha atrofda o‘tin terib yurgan ko‘knorini hajv qilib she’r yozadi:

Boshiga kichik latta chulg‘ab,
O‘lguncha xor-zor ko‘knori.
Aslidin garchi har ish kelmas,
Cho‘p terarga yarar ko‘knori [1,412].

Shoir el orasida Almaiy taxallusi bilan tanilgan. **“**Almaiy” arabcha “sinchkov, ziyrak” degan ma’noni anglatgan. Arab tili grammatikasiga oid “Azonul jumu” (“Ko‘plik vaznlari”) nomli kitob yozdi. Mashhur hind yodgorligi “Kalila va Dimna”ni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Almaiy 39 yoshida vafot etdi. Hotif degan shoir uning o‘limiga bag‘ishlab marsiya yozdi. Uni “Ma’danikoni” (fazilat koni, ilmu donishga makon) deb atadi.

Ma’dani fazlu hunar erdi ul Almaiy,
Ketdi dunyodin, qolib motam ichra ahli donish [2,146].

“Kalila va Dimna” tarjimasidan parchalarni nashrga tayyorladi. Fazlulloh Almaiy uch tilda birdek ijod eta olgan shoir edi. U she’rlarini to‘plab devon tuzgan. Biroq bu devonni taqdiri noma’lum [3.20]. Masalan, uning “**Hayot**” radifli she’ri o‘z davrida mashhur bo‘ldi. Unga Muqimiy muxammas bag‘ishlagan.

Ayru sandin suvdin ayrilgan kabi bolig hayot,
Bo‘ldi dardidin judolig‘ chehrasi sorig hayot.
Bo‘lmadi g‘amdin yo‘lingda bir nafas forig‘ hayot,

Ey, xayoli jonim ichra, tanda jon yanglig‘ hayot,
Kelki, sensiz, talx bo‘ldi jonima totlig‘ hayot [4]

Hayotga mehr g‘oyasi baytma-bayt, satrma-satr kuchayib boradi. Chunonchi, ikkinchi baytda, tomir (“rag”)larimda oqayotgan “qon” emas, sening xayoling (“fikrating”)dir, vujudimdagi “otash” sening “ishqing”dandir, deydi shoir. Fikr kuchayib, gap umrning mazmuniga ko‘chadi:

Umr gar xush o‘tsa, umri No‘h ham kamdur vale, Ko‘p uzundur ko‘z yumub ochquncha kulfatlig‘ hayot.

Nuh, rivoyatga ko‘ra 1600 yil umr ko‘rgan payg‘ambardir. Umr xush (yaxshi) o‘tsa, mana shu uzun umr ham kamdir. Agar kulfatlik bo‘lsachi? Ko‘z yumib ochguncha fursatligi ham ko‘p uzundir. Shoir talmeh (o‘tmishdagi biror voqea yoki shaxsga ishora), tazoddan unumli foydalanmoqda.

So‘nggi bayt — maqta’da gap shoirning o‘z taqdiriga ko‘chadi. Muallif dam-badam qon yuttirayotgan baxtdan, o‘lim zahrini shakarga qo‘shib tutayotgan hayotdan zorlanadi.

Kalila va Dimna – adabiy yodgorlik. „Panchatantra“ va “Xitopadesha” kabi qadimgi hind og‘zaki ijodi zaminida vujudga kelgan. Uning aniq yozilgan vaqti ma’lum emas. Asar shahzodalarga ta’lim-tarbiya berishga mo‘ljallangan bo‘lib, nasihat ruhida yozilgan. Unda ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va maishiy masalalar, asosan, majoziy yo‘l bilan 2 shag‘ol (chiyabo‘ri) – Kalila va Dimna (sanskritcha Kartak va Damnako, paxlaviyda Kalilak va Dimna) munozarasi shaklida bayon etiladi. Eron shohi Xusrav Anushirvon (531-579) buyrug‘iga binoan, uning shaxsiy tabibi Barzuya tomonidan Hindistondan keltirilgan va paxlaviy tiliga tarjima qilingan. VIII asrda mashhur adib Abdulloh ibn al-Muqaffa (721-757) pahlaviydan arab tiliga, undan Rudakiy fors tiliga tarjima qilgan. Asarning fors tiliga o‘girilgan nusxasi 16-asr oxirida qayta ishlangan. Uni eski o‘zbek tiliga Muhammad Mulla Niyoz (1837), Fazlulloh qori Almaiy tarjima qilishgan. Almaiy tarjimasi 3 marta nashr etilgan (1910-1913) [5].

Parcha

Tulki bilan nog‘ora masala

Deydilarki, bir tulki o‘rmon oralab ketayotib, bir daraxtning tagida nog‘ora yotganini ko‘rib qolibdi. Shamol esgan sari daraxt butoqlari nog‘oraga tegar va nog‘oradan dahshatli ovozlar chiqar edi. Tulki nog‘oraning ovozi yo‘g‘onligi va jussasining kattaligiga qarab, nog‘oraning yog‘i bilan go‘shti ham ovozi va jussasiga yarasha bo‘lsa kerak deb og‘zining suvi keldi. Ko‘p urinib, nog‘orani yorishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin qurigan teridan bo‘lak hech narsa topmagach: „Gavdasi yo‘g‘on va ovozi baland narsaning ichi bo‘sh bo‘lar ekan“, – dedi [6].

Hikoya orqali shuni anglash mumkinki, ba’zan tashqi ko‘rinishi katta, shovqini baland bo‘lgan narsalar aslida ichidan bo‘sh bo‘lishi mumkin. Ya’ni odam ham yoki biror narsa ham faqat tashqi ko‘rinishiga qarab baholanmasligi kerak. Asarning g‘oyasi – shovqin-suron yoki tashqi ko‘rinishga aldanmaslik, har bir narsaning asl mohiyatini bilishga harakat qilish kerakligidir. Bu hikoya insonlarni o‘ylab ish qilishga va yuzaki xulosaga shoshilmaslikka chaqiradi.

Fazlulloh Almaiyning she’riy uslubi va badiiy mahorati o‘zbek mumtoz adabiyotining an’anaviy poetik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan holda, hayotiy kuzatishlar va falsafiy mushohadalar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. Shoirning g‘azal va ruboiylarida insoniy tuyg‘ular, hayot mazmuni, sadoqat, ishq va ma’naviy kamolot kabi g‘oyalar yetakchi o‘rin egallaydi. Uning she’riy merosida aruz vazni, badiiy tasvir vositalari hamda mumtoz she’riyatga xos obrazlar tizimi mahorat bilan qo‘llanilgan.

Almaiy she’riyatida falsafiy fikrlar ham muhim o‘rin tutadi. Uning ayrim baytlarida inson umrining o‘tkinchiligi va hayotning murakkabligi haqida chuqur mushohadalar ham mavjuddir. Masalan, quyidagi misralar orqali shoir umrning mazmuni haqida fikr yuritadi:

Umr gar xush o‘tsa, umri Nuh ham kamdir vale,
Ko‘p uzundur ko‘z yumub ochquncha kulfatlig‘ hayot.

Ushbu baytda shoir talmeh san`atidan foydalanib, Nuh payg‘ambar umriga ishora qiladi [7,38-39]. Rivoyatlarga ko‘ra, Nuh juda uzoq umr ko‘rgan payg‘ambar sifatida tilga olinadi. Shoir bu obraz orqali shuni ta’kidlaydiki, agar inson hayoti baxtli va mazmunli o‘tsa, eng uzun umr ham qisqa tuyiladi, ammo kulfat va mashaqqat bilan kechgan hayot esa hatto qisqa bo‘lsa ham juda uzoqdek tuyiladi. Bu fikr shoirning hayot falsafasiga oid qarashlarini yaqqol aks ettiradi.

Almaiy ilmiy faoliyati ham e’tiborga loyiqdir. Uning arab tiliga oid “Avzon ul-jumu” asari arab tilining grammatik xususiyatlari va she’riy vaznlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu risola shoirning chuqur ilmiy salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Fazlulloh Almaiy yosh avlodni ma’naviy yetuk, bilimli va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashni asosiy maqsad deb bildi. Ularning fikricha, jamiyat taraqqiyoti uchun avvalo inson tafakkuri va dunyoqarashini o‘zgartirish zarur edi. Shu sababli jadidlar ta’lim jarayonida aqliy, axloqiy va estetik tarbiyani birgalikda olib borish g‘oyasini ilgari surdi.

Umuman olganda, Almaiy o‘zining serqirra ijodi orqali o‘zbek mumtoz adabiyotining rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Shoir asarlarida ilgari surilgan ma’rifiy va axloqiy g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu jihatdan qaraganda, shoir ijodiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Begali Qosimov. XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
3. Jadid adabiyoti tarixi.Guliston-2020.
4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/fazlulloh-almaiy-1852-1891
5. O‘zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalila_va_Dimna
7. O‘zbek Milliy ensiklopedyasi. 1-jild. -Toshkent: “O‘zbek Milliy ensiklopedyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

ABDULLA AVLONIY QARASHLARIDA AXLOQIY TARBIYA VA MA’NAVIY KAMOLOT MASALALARI

Qurbonova Feruza A‘zamovna,
Qo‘qon davlat universiteti.
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Nomozaliyeva Hilolaxon,
Qo‘qon davlat universiteti. Gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi.

Annatatsiya. Maqolada insonning ma’naviyatini yuksaltirish va ezgu fazilatli qilib tarbiyalashda XX asr ma'rifatchiligining ko‘zga ko‘ringan vakili Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari o‘rganildi. Adibning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim” hamda “Ikkinchi muallim” darsliklari orqali yoshlarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalash muhimligi ochib berildi. Shuningdek, Avloniyning asarlarida axloqiy barkamollik, ma’naviy poklik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish g‘oyalari pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: komil inson, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, pedagogik meros, ma’naviyat, ma’rifatparvarlik, jadidchilik.

Abstract: This research study examines the pedagogical works of Abdulla Avloni, a prominent representative of the 20th century Enlightenment, in raising human spirituality and educating him to be virtuous. The importance of educating young people as mature individuals was revealed through the writer's textbooks “Turkish Rose or Morality”, “First Teacher” and “Second Teacher”. Also, the ideas of forming moral perfection, spiritual purity, and social responsibility in Avloni’s works were examined from a pedagogical point of view.

Keywords: perfect person, youth education, national values, pedagogical heritage, spirituality, enlightenment, Jadidism.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, yosh avlodning ma’naviy kamoloti va axloqiy tarbiyasidagi masalalar har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va axloqiy tarbiya uyg‘unligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar yoshlarimiz uchun ibrat namunasi sifatida tanlab olindi. . Bu borada yurtimiz rahbari tomonidan bildirilgan quyidagi fikr mavzuning naqadar muhim ekanini yaqqol ko‘rsatadi: “Jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir”. [1] Mazkur fikr ta’lim-tarbiya jarayonida nafaqat zamonaviy bilimlarni egallagan, balki yuksak axloqiy fazilatlar va mustahkam ma’naviyatga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, jadidlar mustamlaka zulmi, jaholat va qora qarashlar hukm surgan bir sharoitda millatni uyg‘otish mas’uliyatini o‘z yelkalariga oldilar. Ular yaxshi bilardilar: xalqni qutqarishning yagona yo‘li — maktab, matbuot va ma’rifatdir.

Abdulla Avloniy ham ana shu haqiqatni ilk anglagan zotlardan bo‘lib, “har bir millatning taraqqiyoti yoki tanazzuli maktab masalasiga bog‘liq” ekanini ta’kidlagan.

Abdulla Avloniy milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va teatr sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir.

Abdulla Avloniyning axloqiy tarbiya va ma’naviy kamolot haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Avloniy inson kamolotini ta’minlashda axloq, ilm, tarbiya va milliy qadriyatlar uyg‘unligini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,
Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.
Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,
Gar desam bo‘lmas xato jannat makoni tarbiyat.
Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
G‘ayrat aylang o‘tmasun vaqt-zamoni tarbiyat.
Moyai zilli xumodur tarbiyatning soyasi,
Bizda anqo tuxmidek yo‘q oshyoni tarbiyat.[2]

Abdulla Avloniy ushbu she’ri orqali tarbiyaning hayotimizda tutgan o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. Insonga bu dunyoda ham, oxiratda ham foyda beruvchi amallaridan biri bu – yaxshi tarbiya olish va chiroyli xulq-la uni farzandlariga yetkazish hisoblanadi. Ushbu she’rda ham shoir otalarni bola tarbiyasiga katta e’tibor qaratishga undaydi. Zero, bolalar olgan chiroyli tarbiyasi va xulqi bilan o‘z ota-onalariga rahmat keltiradilar. Bu xususda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Ota-ona o‘z farzandiga chiroyli xulqdan ko‘ra afzalroq narsani berolmaydi,” deganlar.[3] Biroq, insonlarga tarbiyaning o‘zigina yetarli emas, uni bir butun qilish uchun ilm olish zarur. Chunki inson ilmi bilan oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadi, dunyoni taniydi, dunyoga taniladi. Jadid bu haqida shunday yozadi:

Ilm deb o‘qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm — dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, yor-do‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun, o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qilolmas. Ilmning foydasi u qadar ko‘pdurki, ta’rif qilg‘on birla ado qilmak mumkin emasdur [4]. Ilm haqida o‘qir ekanmiz, u nafaqat o‘qish-yozish, balki insonning butun bir hayotini yorituvchi mayoq hisoblanadi. Ilmga ta’rif berishda ikki o‘xshatishda tasvirlaydi: oyina hamda qilich. Birinchisida inson o‘zining xatolarini, yutuqlarini ko‘ra oladi. o‘zligini anglaydi, boshqalarga ham ko‘zgu bo‘ladi. Ikkinchisida esa ilm aqliy qobiliyatni charxlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. O‘tkir zehnli inson murakkab muammolarni oson hal qiladi va haqiqatni yolg‘ondan ajratadi.

Shuningdek, ma’rifatparvar jadidimiz yosh avlodni ilm olishga bo‘lgan muhabbatini oshirish, najot ilmda ekanligi uqtirish maqsadida ko‘plab she’rlar, hikoyalar va ibratli voqealar yozgan. Shular jumlasidan, “Maktabga chorlov” she’riga e’tibor qaratsak:

Boqdi quyash panjaradan bizlara,
Yotma! Deyur barcha o‘g‘il-qizlara.
Nolai faryod qilib barcha qush:
— Maktabingiz vaqti, deyur sizlara.
Boshladi har kim o‘z ishin ishlara,
Siz-da, turing maktabingiz izlara.
Uchdi ari bog‘chalara bol uchun,
Buzov turur uyda cho‘kub tizlara.
Siz-da, kitoblarni(ng) oling shavq ila,
Tez yuguring ilm yo‘lin gezlara.
Dangasani suyma-yur Olloh hech,
Ketsun oqub dangasa dengizlara.[5]

Jadidimiz ushbu she'ri orqali ilm olishga, maktabga borishga, vaqtni behuda sarflamaslikka da’vat etgan. U boshqa shoirlar kabi o‘zi emas, balki tabiatdagi jonzotlarning nutqi, harakatlaridan foydalangan. Masalan, qushlarning “nolai faryod”i biz o‘z burchimizni, vazifamizni bajaryapmiz, sizning vazifangiz esa – o‘qish! - degandek. Qolaversa, ari tasviridan ham ko‘p ma’noni ifodalaydi.

“Uchdi ari bog‘chalarda bol uchun”

Bu yerda bol (asal) ilmning samarasidir. Asalari gullardan asal yig‘gani kabi, o‘quvchi ham kitoblardan “bol” yig‘ishi kerak. Asal shirin, ammo uni yig‘ish uchun arilar ancha mashaqqat chekishadi, o‘quvchi ham, talaba ham ilm olishda turli xil qiyinchiliklarga duch keladi, biroq sabr bilan davom ettirsa, bu dunyoda ham oxiratda ham bolga ega bo‘ladi. Buzovning “tiz cho‘kishi” esa ilm olishga sha’ylik, xizmatga tayyorlik ma’nolarida qo‘llanilgan.

Ilm olish bir ibodatdir. Undagi har bir qiyinchilikka sabr qilgan inson savob oladi, bu xususda hadisi sharifda marhamat qilinadi: “Sabr uch (turli)dir. Musibatlarga sabr, toatda sabr, gunoh qilmaslikka sabr. Kim balo o‘zidan ko‘tarilgunicha chiroyli sabr qilsa, Alloh taolo unga uch yuz daraja yozadi. Kim toatda sabrli bo‘lsa, Alloh taolo unga olti yuz daraja yozadi. Kim ma’siyatga qarshi sabr qilsa, Alloh taolo unga to‘qqiz yuz daraja yozadi”.[6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abdullo Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi xaqidagi quyidagi so‘zlari e’tiborga molikdir. Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go‘zallantirmoq, zexnimizni ravshanlantirmoq lozim . Tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat-yoo falokat masalasidir” [7] degan so‘zlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ularning ilmiy-ma’naviy merosi shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy bilim faqat nazariy ma’lumot sifatida qolib ketmasdan, balki insonning xulq-atvori, dunyoqarashi va hayotiy faoliyatiga singib ketishi bilan qadrlidir.

Shu bois yosh avlodni ilm-fan sari yo‘naltirish, ularda bilim olishga bo‘lgan qiziqish va intilishni shakllantirish ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabirigi. 11.12.2023.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. — Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2006. — 37-bet.
3. https://bukhari.uz/?p=24175&lang=oz
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. — Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2006. — 48-bet.
5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. — Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2006.
6. https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/42315-sabr-tushunchasi-va-turlari.html
7. Абдулла Авлоний. Жадидлар тўплами китоби “Ёшлар нашриёти уйи, 2022 84-85-бетлар.

ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK MEROSIDA IRODANI RIVOJLANTIRISH VA XARAKTER TARBIYASI

Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna,
Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi.
guljahoneshonqulova@gmail.com
ORCID 0000-0002-8284-544X
Sobirjonova Dilshunosxon O‘ktamjon qizi,
Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi
dilshunos5118@gmail.com

“Tarbiya - saodat yo‘lidir”
Abdulla Avloniy.

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli jadid ma’rifatparvari va pedagogi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari zamonaviy psixologiya fanining fundamental tamoyillari prizmasi orqali chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi asarda ilgari surilgan axloqiy tushunchalarni shaxs psixologiyasi, xususan, irodaviy sifatlar va xarakterologiya masalalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda yoritib berishdan iborat. Maqolada asardagi nafs, aql, g‘azab va g‘ayrat kabi tayanch tushunchalar inson ruhiyatining tarkibiy qismlari sifatida o‘rganiladi. Maqolada Avloniy tomonidan tavsiya etilgan o‘gitlar bugungi kunning

eng dolzarb psixologik konsepsiyalari, jumladan, emotsional intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish va muvaffaqiyat motivatsiyasi nazariyalari bilan ilmiy jihatdan qiyoslanadi. Shuningdek, jadidlar tomonidan taklif etilgan ruhiy tarbiya metodlarining zamonaviy kognitiv-bixevioral yondashuvlar bilan mushtarak jihatlari dalillar asosida ochib berilgan. Izlanishlar davomida A. Avloniyning irodani chiniqtirish va nafsni jilovlash borasidagi qarashlari shaxsning ruhiy barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuvi uchun muhim poydevor ekanligi tahlil qilinadi. Olingan ilmiy natijalar va xulosalar jadidlar pedagogik merosining nafaqat boy tarixiy xazina, balki bugungi zamonaviy ta’lim tizimida yoshlar xulq-atvorini psixologik korreksiya qilish, ularda mustahkam irodani shakllantirish va komil inson shaxsini tarbiyalashda o‘ta muhim amaliy-metodik manba bo‘lib xizmat qilishini to‘liq asoslab beradi. Mazkur tadqiqot psixologiya va pedagogika yo‘nalishidagi mutaxassislar uchun milliy merosimizni zamonaviy fan yutuqlari bilan integratsiya qilishda yangi istiqbollarni ochadi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, Abdulla Avloniy, shaxs psixologiyasi, iroda tarbiyasi, xarakterologiya, nafs, g‘azab, motivatsiya, emotsional intellekt, ijtimoiy muhit.

Abstract. This article presents a scientific analysis of the work *“Turkiy Guliston yoxud axloq”* by the prominent Jadid enlightener and educator Abdulla Avloniy through the perspective of modern psychological theory. The main aim of the study is to examine the moral concepts expressed in the work in relation to personality psychology, particularly the development of willpower and the formation of character. The study analyzes key concepts such as nafs (self-desire), intellect, anger, and zeal as important components of the human psyche. Avloniy’s moral teachings are compared with contemporary psychological theories, including emotional intelligence, self-regulation, and achievement motivation. In addition, the research highlights the similarities between the spiritual and moral educational methods proposed by the Jadid thinkers and modern cognitive-behavioral approaches. Special attention is given to Avloniy’s views on strengthening willpower and controlling human desires, which are interpreted as an important foundation for psychological stability and social adaptation. The findings of the study demonstrate that the pedagogical heritage of the Jadid movement represents not only a valuable historical legacy but also an important methodological resource for the modern education system. The results of the research may contribute to the psychological correction of youth behavior, the development of strong willpower, and the formation of a morally mature personality

Keywords: Jadidism, Abdulla Avloniy, personality psychology, willpower development, character formation, nafs (self-control of desires), anger management, motivation, emotional intelligence, social environment.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz uchinchi Renessans poydevorini qurishda Jadidlar merosiga tayanamiz, chunki ularning g‘oyalari milliy o‘zlikni anglash va yangi jamiyat qurishda ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi” [1, 48-b]. Bugungi kunda milliy yuksalish g‘oyasini amalga oshirish jarayonida yoshlar tarbiyasi va ularning ruhiy olamini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada jadid ma’rifatparvarlarining, xususan, Abdulla Avloniyning pedagogik va psixologik merosini o‘rganish beqiyos ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bilan XX asr boshlaridayoq shaxsning ruhiy olami va xarakterologiyasi masalasini milliy pedagogikaning markaziga olib chiqdi. Mazkur asar shunchaki man’anaviy axloqiy o‘gitlar to‘plami emas, balki shaxs irodasini chiniqtirish, emotsional intellektni boshqarish va xarakterni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini yoritib beruvchi ilmiy-didaktik manbadir. A. Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy psixologiyadagi shaxs rivojlanishi qonuniyatlari, motivatsiya nazariyalari va kognitiv jarayonlar tahlili bilan hayratlanarli darajada hamohanglik kasb etadi. U shaxsni biologik mavjudot darajasidan ijtimoiy-axloqiy komillik darajasiga ko‘tarishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan ilk o‘zbek mutafakkirlaridan biri hisoblanadi.

“Nafs” va “Aql” azaldan shaxs ichki konfliktlarining psixologik determinatsiyasi bo‘lib kelgan. Abdulla Avloniy ko‘plab asarlarida inson ruhiyatini doimiy kurash maydoni sifatida tasvirlaydi. U nafsni shunday ta’riflaydi: “Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o‘lub, o‘lmaydig‘ini vijdonimiz ila o‘lchab ko‘rmakni aytilur. Nafs o‘lchovi haqiqiy bir o‘lchovdurki, insonning o‘z nafsiga loyiq ko‘rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg‘a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o‘lchovidan tashqari harakat qilmas” [2, 14-b]. Psixologik nuqtai nazardan, A. Avloniyning bu yondashuvi klassik psixoanalizdagi Zigmund Freydning “Id” (instinktiv istaklar) va “Ego” (ongli nazorat) o‘rtasidagi konflikt nazariyasiga juda yaqin turadi. Avloniy irodani aynan nafs ustidan hukmronlik qilish, ya’ni ongsiz impulslarni ongli ravishda jilovlash sifatida baholaydi. U o‘z asarida “Donishmand” obrazini keltirar ekan, uning o‘z nafsini aql roli bilan boshqara olishini aytadi, bu esa psixologiya ta’limidagi ideal shaxs, ya’ni “Super-Ego” modeli sifatida ko‘rsatadi. Abdulla Avloniy bu masalada “Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan keladurgan zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson janobi Haq tarafidan berilmish aql va idroki soyasida o‘ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidur” deydi [2. 7-b]. Ya’ni ongli, aqlli inson o‘z ehtiyojlarini

ijtimoiy qoliplarga va ma’naviy qadriyatlarga muvofiqlashtira oladigan shaxsdir. Irodasiz kishini esa u “Johil” obrazi bilan bog‘lab, uni o‘z instinktlarining quliga aylangan, ruhiy jihatdan barqaror bo‘lmagan va kognitiv rivojlanishi to‘xtab qolgan subyekt sifatida tasvirlaydi. Bu tahlil bugungi kunda shaxs psixologiyasidagi o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati bilan to‘la mos keladi.

G‘azab boshqaruvi va emotsional intellektni rivojlantirish asarning eng dolzarb masalalaridan biridir. Asarning pedagogik va psixologik mohiyati esa g‘azab va uning shaxsiyatga ta’siri haqidagi qarashlarda aks etadi. G‘azab haqida jadid bobomiz shunday deydi: “G‘azab insonga maxsus bir quvvayi murofiadurki, tabiatda mavjud o‘lan g‘azab tuyg‘usi ila boshqalar tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o‘z nafsini faqat shu soyada saqlar. Lekin g‘azabning jabr va zulm tariqi-la ishlatmakdan nihoyatda ehtiyot bo‘lmak lozimdur. Nafsning g‘ururidan paydo bo‘lgan g‘azab insonni alamlik azoblarga giriftor qiladur. Chunki bu shiddat va haroratning ta’siri vujuddagi qonni buzub, harakat qildurub, dimog‘iga hujum qilub, aqlni parishon qilurda kishining ixtiyorini qo‘lidan olur va bu soyada o‘zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur. G‘azablik kishilar qancha aql va idrok sohibi bo‘lsa ham, g‘azab qoni qo‘zg‘algan zamonida o‘zini to‘xtatolmas, aql va idrokidan ayrilub, bir yomon ishni qilub qo‘yar-da, so‘ng‘idan pushaymon bo‘lur” [2. 26]. Ya’ni g‘azab kelgan vaqtda aql qochadi, kishi o‘zini tutolmay, devona kabi harakatlar qiladi deya tavsiflaydi. Bu yerda muallif zamonaviy psixologiyada “affekt holati” deb ataladigan jarayonni, ya’ni kuchli emotsiya ta’sirida kognitiv funksiyalarning bloklanishini mahorat bilan tasvirlab bergan. A. Avloniy g‘azabni tiyishni irodaning eng oliy cho‘qqisi deb biladi. U g‘azablangan kishiga sukut saqlash, joyni o‘zgartirish kabi amaliy tavsiyalarni beradi. Ushbu metodlar o‘z kuchini amalda isbotlagani bois hozirgi kunda ommalashgan.

Mazkur qarashlar emotsional intellekt konsepsiyasining asosiy komponentlaridan biri bo‘lgan “g‘azabni boshqarish” texnikalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. A. Avloniy o‘z asarida insonning hissiy olami uning xatti-harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish orqali emotsional barqarorlikning shaxs muvaffaqiyatidagi ahamiyatini o‘sha davrdayoq ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shunday emotsional xususiyatlardan yana biri bu g‘ayratdir. G‘ayrat va shijoat muvaffaqiyat motivatsiyasining harakatlantiruvchi kuchidir. A. Avloniy “G‘ayrat” bo‘limida shaxsning faolligini muhim psixologik determinant sifatida tahlil qiladi: “G‘ayrat vujudimizga quvvati mas’ud va baxtiyor bo‘lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa’y qilub, o‘z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo‘lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo‘lmay rohatda yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog‘lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga

yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lub xorlikda qolurlar. [2, 9-b]. Ya’ni sodda qilib aytganda g‘ayrat bir ishni amalga oshirishda qalbning va tananing butun quvvatini sarf etishidir. Zamonaviy psixologiya tilida g‘ayrat - bu shaxsning ichki motivatsiyasi va o‘z-o‘zini realizatsiya qilish ehtiyojidir [5. 112]. A. Avloniy g‘ayratli kishini doimo harakatdagi, jamiyat uchun foydali va ruhiy jihatdan sog‘lom shaxs sifatida tasvirlaydi. G‘ayratsiz (dangasa) kishini esa u “tirik murda”ga qiyoslaydi, bu esa motivatsiyasiz shaxsning ijtimoiy o‘limi va ruhiy degradatsiyasini anglatadi. Bu yondashuv Abraham Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasidagi yuqori bosqich, ya’ni shaxsning o‘z potentsialini namoyon etishi haqidagi qarashlariga hamohang sanaladi. Bu masalada Avloniy g‘ayratni shunchaki jismoniy harakat emas, balki kognitiv iroda kuchi sifatida talqin qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xarakter shakllanishida ijtimoiy muhit va taqlid mexanizmlari haqida ham A Avloniyning bir nechta qarashlari psixologiya nazariyalari bilan bog‘lanadi. Xususan, bolaning xarakteri shakllanishida “Yomon ulfat” (noto‘g‘ri ijtimoiy guruh) ta’sirini konkret hayotiy epizodlar orqali ko‘rsatadi. Uning fikricha, bolaning tabiati “oq qog‘oz” kabi pokdir va unga atrof-muhit qanday ta’sir ko‘rsatsa, shaxs xarakteri shunga muvofiq shakllanadi. Buni zamonaviy ijtimoiy psixologiyadagi Albert Banduraning “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi” bilan bog‘lash mumkin. Yoki Dj.Lockning “tabula rasa” (bo‘sh taxta yoki oq qog‘oz) tushunchalari bilan hamohang ekanligini ko‘rishimiz mumkin. A. Avloniy kattalarning, ayniqsa ota-ona va muallimlarning xulqi bolaga “imitatsiya”, ya’ni taqlid orqali o‘tishini alohida uqtiradi. U tarbiyani shunchaki quruq nasihat emas, balki shaxsiy namuna deb biladi. Agar tarbiyachi o‘zi irodasiz yoki axloqsiz bo‘lsa, uning o‘giti hech qachon kutilgan natijani bermasligini ta’kidlaydi. Bu esa pedagogik psixologiyaning oltin qoidasi hisoblanadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson ruhiyatini doimiy ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar maydoni sifatida tasvirlaydi. Psixologik nuqtai nazardan Avloniyning bu yondashuvi XX asr psixologiyasining buyuk kashfiyoti - klassik psixoanaliz asoschisi Zigmund Freydning shaxs strukturasi haqidagi ta’limotiga, xususan, “Id” (instinktiv istaklar, ongsiz impulslar va lazzat tamoyili) konsepsiyasiga juda yaqin turadi. Avloniy irodani aynan nafs ustidan ongli hukmronlik qilish, ya’ni impulsiv ehtiyojlarni ijtimoiy va axloqiy qoliplarga muvofiq jilovlash deb baholaydi. Ma’rifatparvar olim asarda “Donishmand” va “Johil” antitezisi orqali ikki xil shaxs tipologiyasini yaratadi. “Donishmand” - bu o‘z nafsini “aql roli” bilan boshqara oladigan, emotsional barqaror va irodaviy sifatlari shakllangan ideal shaxs modelidir. Zamonaviy psixologiyada bu holat o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining yuqori darajasi sifatida talqin etiladi. “Johil” obrazi esa, aksincha, o‘z instinktlarining quliga aylangan, irodasi zaif va ruhiy

jihatdan regressiyaga uchragan, hayvoniy instinktlar darajasiga tushib qolgan subyektni ifodalaydi. Avloniy ta’kidlaydiki, agar aql nafsni jilovlay olmasa, inson o‘zining insoniy mohiyatini yo‘qotadi. Bu tahlil shaxsning ruhiy yetukligi uning o‘z irodasini qanchalik ongli boshqara olishi bilan bevosita bog‘liqligini isbotlaydi. Ma’rifatparvar olim nafsni jilovlash va aqlning ustuvorligini ta’minlashni inson kamolotining muhim sharti sifatida talqin qiladi. Bu talqin bugungi kunda psixologik maslahat jarayonlarida shaxsning ichki nazorat lokusini kuchaytirishda qo‘llaniladigan eng samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Asarning psixologik jihatdan eng boy qismlaridan biri g‘azab va uning shaxsiyatga halokatli ta’siri haqidagi bo‘limdir. Avloniy g‘azabni tiyishni irodaning eng yuksak cho‘qqisi va “nafsning jilovi” deb biladi. U g‘azablangan kishiga bergan amaliy tavsiyalari, masalan, “sukut saqlash”, “vaziyatni o‘zgartirish” (muhitni tark etish) yoki “sovuq suv bilan tahorat olish” kabi usullar hozirgi kunda jahon psixologiyasida ommalashgan g‘azabni boshqarish treninglarining amaliy asosi hisoblanadi. Uning “To‘xta va o‘yla” tamoyili insonning impulsiv reaksiyasi va ongli harakati o‘rtasida vaqtinchalik “pauza” yaratishga qaratilgan. Bu esa shaxsning emotsional intellektini oshirishdagi eng samarali metoddir. Bundan tashqari, A. Avloniy g‘azabni nazorat qilmaslik nafaqat shaxsning o‘ziga, balki uning ijtimoiy munosabatlariga, oilaviy muhitiga ham tuzatib bo‘lmas zarar yetkazishini uqtiradi. Psixologiyada buni “emotsional infeksiya” deb atashadi, ya’ni bir kishining salbiy emotsiyasi butun jamoaning ruhiy iqlimini buzadi. [3. 92] Avloniyning tavsiyalari o‘quvchilarda “tolerentlik” va “empatik muloqot” ko‘nikmalarini shakllantirishda bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan.

A. Avloniy “G‘ayrat” bo‘limida shaxsning ichki faolligini eng muhim psixologik determinant sifatida tahlil qiladi. Psixologiya ta’limida g‘ayrat - bu shaxsning ichki motivatsiyasi (intrinsic motivation) va muvaffaqiyatga intilish ehtiyojidir (achievement motivation). Olim g‘ayratni shunchaki jismoniy harakat emas, balki qalb va aqldan chiquvchi irodaviy energiya deb hisoblaydi. Muallif g‘ayratli kishini doimo dinamik harakatdagi, jamiyat uchun foyda keltiruvchi va o‘z-o‘zini realizatsiya qilishga intiluvchi barkamol shaxs sifatida tasvirlaydi. Aksincha, g‘ayratsiz va dangasa kishini u “tirik murda”ga qiyoslaydi. Bu qiyoslov psixologik nuqtai nazardan insonning ijtimoiy va ruhiy hayotdan uzilishi, ijtimoiy passivlik, apatiya va anhedoniya (hayotdan zavq olish qobiliyatining pasayishi yoki yo‘qolishi) holatlarini ifodalaydi. Avloniyning fikricha, g‘ayrat insonning barcha ijobiy xislatlarini harakatga keltiruvchi “motor” vazifasini o‘taydi. Ya’ni, shaxs o‘zining ichki imkoniyatlarini faqat tinimsiz intilish, g‘ayrat va mehnat orqali yuzaga chiqara oladi. G‘ayrat bo‘lmasa, hatto eng iqtidorli inson ham jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydi. A. Avloniy yoshlarni “vaqt qadriga yetish”ga

va “dangasalik illati” dan qutilishga chaqirar ekan, bugungi kunning “Taym-menejment” va “Samaradorlik psixologiyasi” qoidalarini bir asr oldin ilmiy asoslab berganligini guvohi bo‘lamiz.

A. Avloniy xarakter shakllanishining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu masladagi qarashlarini esa Albert Banduraning “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi” bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lash mumkin. A. Bandura isbotlaganidek, bolalar kattalarning xulq-atvorini kuzatish va unga taqlid qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. A. Avloniy ham aynan shu “imitatsiya” (taqlid) mexanizmini tarbiyaning o‘zagi deb biladi. “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” degan hayqiriq zamirida shaxsning taqdiri uning bolalikda olgan psixologik dasturlariga bog‘liqligi yotadi. Olim ta’kidlaydiki, tarbiya jarayoni uzluksiz bo‘lishi va unda shaxsiy namuna (modeling) asosiy rol o‘ynashi kerak. Agar jamiyatdagi namunali shaxslar (ustozlar, ota-onalar) o‘z xulqi bilan bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmasa, hech qanday quruq nasihat xarakterni ijobiy tomonga o‘zgartira olmaydi. Bu esa bugungi kunda deviant xulq-atvor profilaktikasida va voyaga yetmaganlar psixologiyasida eng muhim fundamental tamoyil hisoblanadi.

A. Avloniy qarashlarining asosiy va yakuniy nuqtasi bu “Komil inson” psixotipini yaratishdir. Uning asarida keltirilgan “Adab”, “Iffat”, “Hayo”, “Shijoat”, “Sadoqat” kabi tushunchalar shunchaki quruq axloqiy terminlar emas, balki shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlovchi himoya mexanizmlaridir. Masalan, “Hayo”ni Abdulla Avloniy nafsning yomon ishdan uyalib chekinishi deb ta’riflab: “Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma’siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdur” deydi. Bu esa zamonaviy psixologiyadagi “Ijtimoiy vijdon” va “Insonning ichki nazorat lokusi”ga mos keladi. A. Avloniy har bir sifatni psixologik portret darajasida tasvirlaydi. Uning talqinicha, haqiqiy irodali shaxs bu nafaqat o‘zini boshqara oladigan, balki o‘zgalarga ham ruhiy madad bera oladigan, jamiyatning ma’naviy yetakchisidir. U shaxsni “fikriy tarbiya” (kognitiv rivojlanish) orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Zero, mustaqil fikrga ega bo‘lmagan inson boshqalarning manipulyatsiyasiga tez uchraydi, irodasi esa begona ta’sirlar ostida oson sinadi. Bu esa bugungi kunda ta’lim psixologiyasida juda dolzarb bo‘lgan “tanqidiy tafakkur” va “kognitiv moslashuvchanlik” qobiliyatlarini shakllantirish bilan to‘laqonli hamohangdir. Avloniy merosi shuni isbotlaydiki, jadidlar nafaqat ta’lim islohotchilari, balki inson ruhiyatining muhandislari va shaxsiyat psixologiyasining bilimdonlari bo‘lishgan. Ular yaratgan tarbiya tizimi insonni ham ruhan, ham jismonan, ham aqlan sog‘lom bo‘lishini nazarda tutgan.

A. Avloniy o‘z asarlarida “Intizom” va “Tartib” tushunchalariga alohida urg‘u beradi. Psixologik nuqtai nazardan, intizom - bu irodaning kundalik hayotdagi amaliy ifodasidir. Irodali inson o‘z vaqtini, resurslarini va energiyasini to‘g‘ri taqsimlay oladi. Avloniy ta’kidlaydiki, intizomsiz bilim va iqtidor o‘z samarasini bermaydi. Bu zamonaviy ijro etuvchi funksiyalar nazariyasiga mos keladi, ya’ni shaxs o‘z maqsadlarini rejalashtirish, diqqatni jamlash va ishni yakuniga yetkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. U yoshlarni vaqtni isrof qilmaslikka chaqirar ekan, bu isrofchilik nafaqat moddiy, balki ruhiy isrof ekanligini ham bildiradi. Inson o‘z umrini bekorchi ko‘ngilochar ishlarga sarflasa, uning ruhiyati “zanglaydi”, irodasi esa bo‘shashadi. Ma’rifatparvar olim taklif etgan intizom modeli qattiqqo‘llik emas, balki “ongli zaruriyat”dir. Bunda shaxs o‘z taraqqiyoti uchun nima muhim ekanligini anglagan holda o‘zini tartibga soladi. Bu esa o‘z-o‘zini tarbiyalashning eng yuksak shaklidir. Olim “Sadoqat”, “Muhabbat”, “Haqgo‘ylik” kabi fazilatlarni shaxsning ijtimoiy psixologik portreti sifatida moxirona ifodalab beradi. Unga ko‘ra inson faqat o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun yashashi kerak degan g‘oya hozirgi zamon psixologiyasidagi ijtimoiy javobgarlik psixologiyasi bilan hamohangdir.

A. Avloniy juda ko‘p o‘rinlarda insonning boshqalarga bo‘lgan munosabati uning ichki dunyosining ko‘zgusi ekanligini aytadi [4. 14-b]. Agarda inson ichidan, ya’ni ichki dunyosidan sog‘lom bo‘lsa, u atrofdagilar bilan ham sog‘lom muloqotga kirishadi. Nizolarni bartaraf etish, o‘zgalarning haqqini hurmat qilish kabi fazilatlarning barchasi shaxsning ruhiy yetuklik darajasini belgilaydi [5. 9]. Bu yondashuv bugungi kunda “Konfliktologiya” va “Muloqot psixologiyasi” fanlarining asosiy g‘oyalari bilan birlashadi.

Shunday qilib, Avloniy taklif etgan axloqiy tizim shunchaki quruq nasihatlar emas, balki shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlovchi universal psixologik texnologiya ekanligi, ushbu izlanishlarning asosiy yangiligi deyishimiz mumkin. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari jadidchilik davri ma’rifatparvarlik harakatining cho‘qqisi bo‘lish bilan birga, bugungi kun psixologlari va pedagoglari uchun beqiyos amaliy-metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Avloniy merosi shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki shaxs rivojlanishining fundamental qonuniyatlarini o‘zida mujassam etgan zamonaviy konseptual manbadir. Chunki,

- birinchidan, “Nafs”ni jilovlash orqali irodani chiniqtirish masalasi. Avloniy insonning ichki instinktlari (nafs) va ongli irodasi (aql) o‘rtasidagi muvozanatni shaxs kamolotining asosi deb hisoblaydi. Bu g‘oya zamonaviy psixologiyada keng o‘rganilayotgan “O‘z-o‘zini regulyatsiya qilish” va kognitiv nazorat nazariyalari bilan to‘liq hamohangdir. Avloniy ta’riflaganidek, nafsni jilovlash, insonning o‘z impulsiv istaklari ustidan hukmronlik qilishi, uzoq muddatli oliy maqsadlar yo‘lida

vaqtinchalik lazzatlardan voz kecha olish qobiliyatidir. Bugungi kunda yoshlarda ushbu sifatni shakllantirish ularning turli zararli odatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari va psixologik qaramliklarga qarshi “immunitet”ini hosil qilishda juda muhim hisoblanadi. Irodaviy chiniqish esa shaxsning kognitiv barqarorligi va hayotiy qiyinchiliklarga qarshi tura olish qobiliyatini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi.

- ikkinchidan, “G‘azab”ni boshqarish orqali emotsional barqarorlikka erishish mumkinligini ko‘rdik. A. Avloniy g‘azabni inson aqlini va mantiqiy tafakkurini falaj qiluvchi kuch sifatida tavsiflaydi. Uning g‘azabni tiyish borasidagi “sukut saqlash” va “ichki xotirjamlikni saqlash” haqidagi tavsiyalari bugungi kunda ommalashgan Emotsional intellekt (EQ) nazariyasining amaliy asoslaridir. Zamonaviy dunyoda stressli vaziyatlar va agressiv axborot oqimi ko‘paygan bir davrda, Avloniy metodikasi yoshlarga o‘z emotsiyalarini anglash va ularni ijobiy tomonga yo‘naltirish imkonini beradi. Emotsional barqarorlik nafaqat shaxsning ruhiy salomatligini saqlaydi, balki ijtimoiy munosabatlarda nizo va konfliktlarning oldini olishda ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Olim qarashlariga ko‘ra, g‘azab ustidan g‘alaba qozonish, asl qahramonlik va ruhiy yetuklik belgisidir.

- uchinchidan, “G‘ayrat” orqali hayotiy motivatsiyani shakllantirish masalasi. Mutafakkir g‘ayratni inson hayotining “harakatlantiruvchi dvigateli” deb biladi. G‘ayratsiz kishini “tirik murda”ga qiyoslashi zamirida juda chuqur psixologik ma’no yotadi. Bu bugungi kunda psixologiyada “muvaffaqiyat motivatsiyasi” va “o‘z-o‘zini kamol toptirish” deb ataladigan jarayondir. Avloniy ta’limotiga ko‘ra, g‘ayrat shunchaki jismoniy mehnat emas, balki qalbning butun kuchini oliy maqsadlar yo‘lida birlashtirishdir. Yoshlarda mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va doimiy izlanish sifatlarini tarbiyalashda Avloniyning “g‘ayrat” kontseptsiyasi eng samarali metodologik manba bo‘lib qolaveradi.

- to‘rtinchidan, irodaviy chidamlilik va ijobiy xarakter sifatlarini keltirishimiz lozim. Bu borada olimning har bir fikri zamonaviy kognitiv-bixevioral yondashuvlar bilan hamohangligini guvohi bo‘ldik.

Tadqiqotimiz davomida tahlil qilingan Abdulla Avloniyning pedagogik-psixologik qarashlari shuni tasdiqlaydiki, Jadidlar merosi shunchaki tarixiy dogma (qat’iy va o‘zgarmas e’tiqod yoki qoidalar to‘plami) emas, balki shaxs rivojlanishining dinamik modeli hisoblanadi. Bizning ilmiy yondashuvimizga ko‘ra, Avloniy tizimi quyidagi konseptual xulosalarga asos bo‘ladi. Kognitiv va axloqiy uyg‘unlik, ya’ni A. Avloniy asarlarida aks etgan “Adab” va “Iffat” kategoriyalari zamonaviy psixologiyadagi “O‘z-o‘zini determinatsiya qilish” nazariyasi bilan hamohangdir. Bu jarayonda talaba tashqi bosimlarga emas, balki ichki axloqiy motivatsiyaga tayanadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarda axborot makonidagi destruktiv ta’sirlarga qarshi “psixologik immunitet” filtrini hosil

qiladi. Maqolada ko‘rib chiqilgan “Shijoat” tushunchasi bugungi kunda global ta’lim tizimida ustuvor bo‘lgan “Resilience” (ruhiy chidamlilik) ko‘nikmasining milliy prototipidir. Bizning empirik qarashimizga ko‘ra, Avloniy metodologiyasi asosida tarbiyalangan shaxsda stressli vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslik va muammolarni kreativ hal qilish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Jadidlar ilgari surgan “milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi” bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan Uchinchi Renessansning ma’naviy arxitekturasini tashkil etadi. Ma’rifatparvar olimning pedagogik qarashlarini zamonaviy kognitiv treninglar va psixologik metodikalar bilan integratsiya qilish natijasida ta’lim sifatini shunchaki bilim berishdan, “shaxsni loyihalashtirish” darajasiga ko‘tarish imkonini beradi. Abdulla Avloniyning pedagogik-axloqiy tamoyillarini zamonaviy kognitiv va psixologik metodikalar bilan integratsiya qilish ta’limni shunchaki bilim berishdan, shaxsni ongli ravishda shakllantirish darajasiga ko‘taradi. Natijada, uning merosi yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli, irodali va komil shaxs sifatida tarbiyalashning strategik resursiga aylanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq asari. Toshkent: Ma’rifat. 1913
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: “Universitet”, 2002.
4. Yo‘ldoshev Q. Jadidlar pedagogikasi. - Toshkent: “Fan”, 2006.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012.

JADID MUTAFAKKIRLARNING OILA MUSTAHKAMLIGI BORASIDAGI QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Xursanov Omadbek Ulug‘bek o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi.
Omadbekxursanov36@gmail.uz

Annotatsiya Maqolada XX asr boshlarida O‘zbekiston ma’rifatparvarlik harakati -Jadidchilik vakillarining oila instituti, oilaviy munosabatlar va oila mustahkamligi borasidagi qarashlari tahlil qilingan. Abdullah Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlarning asarlarida oila

jamiyatning asosiy tayanchi sifatida ko‘rsatilganligi, uning mustahkamligi esa farzandlar tarbiyasi va mamlakat kelajagi bilan bevosita bog‘liq ekani ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Tadqiqotda jadidların oilaviy axloq, ota-ona farzandlik burchi, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ayollarning ma’rifatlanishi masalalariga oid g‘oyalari zamonaviy pedagogika va psixologiya talablari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Maqola yakunida jadid merosining bugungi kunda oila institutini mustahkamlashdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, oila mustahkamligi, ma’rifat, axloqiy tarbiya, Abdullah Avloniy, Abdurauf Fitrat, oilaviy munosabatlar, pedagogika, psixologiya.

Annotation. The article analyzes the views of the representatives of the Jadidism enlightenment movement in Uzbekistan at the beginning of the 20th century on the institution of family, family relationships, and family stability. From a scientific-pedagogical point of view, it is studied that in the works of such thinkers as Abdullah Avloni, Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, the family is considered as the main support of society, and its strengthening is directly related to the upbringing of children and the future of the country. The study conducts a comparative analysis of the Jadids’ ideas on family ethics, parental duty, mutual respect between spouses, and women’s enlightenment with the requirements of modern pedagogy and psychology. In conclusion, the article presents conclusions on the role and significance of the Jadid heritage in strengthening the institution of family today.

Keywords: jadidism, family stability, enlightenment, moral education, Abdullah Avloni, Abdurauf Fitrat, family relationships, pedagogy, psychology.

Oila – bu jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘inidir. Insoniyat tarixida oila instituti har doim jamiyatning barqarorligi, ma’naviyati va kelajagi bilan bog‘liq holda ko‘rib kelingan. Bugungi globallashuv davrida, axborot texnologiyalari rivojlanishi va turmush tarzining o‘zgarishi oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, ajralishlarning oldini olish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Oila – jamiyatning asosi, uning mustahkamligi – davlatimiz mustahkamligidir” [1, 45].

Ushbu jarayonda o‘tmish tajribasiga, xususan, XX asr boshlarida o‘zbek ziyolilari – jadid mutafakkirlarining oila va tarbiya borasidagi qarashlariga murojaat qilish katta ahamiyatga ega. Jadidchilik harakati nafaqat siyosiy yoki diniy islohot, balki chuqur ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar harakati edi. Ular

jamiyatni isloh qilishni avvalo oiladan, oilani isloh qilishni esa ma’rifat va axloqdan boshlash kerakligini tushungan edilar.

Qo‘qon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasi tadqiqotchisi sifatida, ushbu maqolada jadid mutafakkirlarning oila mustahkamligi borasidagi g‘oyalarini zamonaviy pedagogik va psixologik talablar nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsad qilingan. Bu esa nafaqat tarixiy merosni o‘rganish, balki bugungi yosh oilalarni mustahkamlashda amaliy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi.

Jadid mutafakkirlari uchun oila shunchaki er va xotinning birlashuvi emas, balki millatning kelajagi, vatanning tayanchi edi. Ular oilani “kichik Vatan” deb ataganlar. Mahmudxo‘ja Behbudi o‘zining “Oila” nomli maqolasida shunday yozgan edi: “Millatning kuchli bo‘lishi oilaning kuchli bo‘lishiga bog‘liq. Agar oilada tartib, muhabbat va ma’rifat bo‘lmasa, undan chiqadigan farzandlar ham nomukammal bo‘ladi” [2, 210].

Jadidlar oila mustahkamligini uchta asosiy omilga bog‘laganlar:

1. Ma’rifat va ilm: Savodsizlik oiladagi nizo va noto‘g‘ri tarbiyaning asosiy sababi deb hisoblangan.
2. Axloqiy poklik: Er-xotin o‘rtasidagi sadoqat, ota-onaga hurmat va farzandlarga mehribonlik.
3. Iqtisodiy mustaqillik: Oilaning moddiy ta’minoti va mehnatsevarlik.

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida oilaviy munosabatlar batafsil tahlil qilingan. U oilani jamiyatning “poydevori” deb atab, uning mustahkamligi uchun har bir a’zo o‘z burchini bilishi kerakligini ta’kidlagan. Avloniy fikricha, oiladagi nizolarning ko‘p qismi nodonlik va axloqsizlikdan kelib chiqadi. Shu sababli, u yoshlarni oila qurishga tayyorlashda ularga nafaqat kasb, balki oilaviy axloqni ham o‘rgatishni zarur deb hisoblagan [3, 280].

Jadid mutafakkirlari er-xotin munosabatlarida tenglik va o‘zaro hurmat prinsiplarini ilgari surganlar. Garchi o‘sha davrda patriarchal tuzum ustunlik qilsa-da, jadidlar ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularning ta’lim olishiga ruxsat berish orqali oiladagi muvozanatni saqlash mumkinligini ta’kidlaganlar.

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida ayolning oiladagi o‘rni haqida gapirar ekan, uni “uy bekasi”gina emas, balki “farzandlarning birinchi ustozı” deb ta’riflagan. Agar ona ma’rifatli bo‘lmasa, farzandlar ham nogiron ruhiy va ma’naviy jihatdan o‘sishi mumkin. Fitratning quyidagi fikri diqqatga sazovor: “Ona – milatning qalbı. Agar qalb kasal bo‘lsa, badan sog‘lom bo‘lmaydi” [4, 195].

Psixologik nuqtai nazardan, bu qarashlar zamonaviy «hamkorlikdagi oila» (partnership family) modeli bilan mos keladi. Jadidlar er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarda zo‘ravonlikni, haqoratni qat’iyan man etganlar. Ularning fikricha,

oilaviy tinchlik – bu davlat tinchligining garovidir. Oila ichidagi psixologik iqlim farzandlarning kelajakdagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi. Bugungi kunda psixologlar ham oiladagi ijobiy muhit bolaning emosional intellekti rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Jadidlar uchun oila mustahkamligining asosiy mezonlaridan biri bu – farzandlarning kamol topishi edi. Ular tarbiyani uch bosqichga bo‘lganlar:

-Jismoniy tarbiya: Bolaning sog‘lom o‘sishi.

-Aqliy tarbiya: Ilm-o‘rganish, hunar egallash.

-Ma’naviy tarbiya: Vatanparvarlik, insoniylik, halollik.

Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zining “Adibi avval” darsligida yoshlarga oilaviy odob-axloq qoidalarini o‘rgatgan. U yerda ota-onaga gap qaytarmaslik, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish, mehnatsevar bo‘lish kabi fazilatlar targ‘ib qilingan. Jadidlar fikricha, agar farzandlar yaxshi tarbiya olmasa, oila parchalanish xavfi ostida qoladi. Chunki farzandlar oilaning davomiyligi va keksalikdagi tayanchidir [5, 150].

Zamonaviy pedagogikada ham oilaviy tarbiyaning uzluksizligi ta’kidlanadi. Jadidlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tarbiya faqat maktabda emas, avvalo oilada boshlanishi kerak. Ota-onaning o‘zaro munosabati bola uchun eng katta maktabdir. Agar ota-ona o‘rtasida hurmat bo‘lmasa, bola ham jamiyatda hurmatni o‘rgana olmaydi.

Jadidchilik harakatining eng muhim yutuqlaridan biri bu – ayollar ta’limi masalasini ko‘tarish edi. Behbudi, Fitrat, Avloniy kabi ziyolilar qiz bolalarning maktabga borishiga qarshi chiqqan konservativ kuchlarga qarshi kurashdilar. Ular isbotladilarki, ma’rifatli ona – ma’rifatli avlod degani.

Oila mustahkamligi nuqtai nazaridan, ayolning savodli bo‘lishi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

-Sog‘lom farzandlar: Tibbiy va gigienik bilimlarga ega ona bolalarni sog‘lom tarbiyalaydi.

-Iqtisodiy yordam: Savodli ayol oila byudjetini boshqarishda va daromad topishda yordam bera oladi.

-Psixologik qo‘llab-quvvatlash: Ma’rifatli ayol oiladagi nizolarni donolik bilan hal qila oladi.

-Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi o‘rni oshirilmoqda. Bu jarayonda jadidlarning “Ayol – oila ko‘rki” degan g‘oyalari yangicha mazmun kasb etmoqda. Ayol nafaqat uy bekasi, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida ham oila mustahkamligiga hissa qo‘shadi [6, 175].

Jadid mutafakkirlarining oila haqidagi g‘oyalari bugungi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Quyida ularning qarashlari bilan zamonaviy ilmiy yondashuvlar taqqoslangan:

Jadidlar qarashi	**Zamonaviy pedagogika va psixologiya**
Oila – jamiyat poydevori	Oila – ijtimoiylashuvning birinchi instituti
Ma’rifat – oila mustahkamligi kaliti	Psixologik savodxonlik – oilaviy nizolarni kamaytiradi
Ota-ona – farzand uchun namuna	Modeling (o‘rnak olish) – tarbiyaning asosiy usuli
Ayol ta’limi – millat kelajagi	Gender tengligi – oilaviy farovonlik omili
Axloq – oila qonuni	Qadriyatlar tizimi – oilaviy identifikatsiya

Ushbu taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, jadidlar g‘oyalari vaqt sinovidan o‘tgan va ular bugungi kunda ham dolzarbdir. Masalan, zamonaviy oilaviy psixologiyada «emosional bog‘lanish» nazariyasi mavjud. Jadidlar buni “muhabbat va sadoqat” deb ataganlar. Ikki holatda ham asosiy maqsad – oila a’zolari o‘rtasida ishonch va yaqinlikni ta’minlashdir.

Jadid mutafakkirlarining merosidan foydalanib, bugungi kunda oila mustahkamligini ta’minlash uchun quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq:

1. Ta’lim dasturlariga kiritish: Maktab va oliygohlarda “Oila psixologiyasi” va “Oilaviy axloq” fanlarini o‘qitishda jadidlar asarlaridan parchalarni kiritish.
2. Yoshlar uchun treninglar: Nikohdan oldin yoshlar uchun “Oilaviy hayotga tayyorgarlik” kurslarini tashkil etish, unda jadidlarining vasiyatlaridan foydalanish.
3. Ommaviy axborot vositalari: Televidenie va internetda jadidlarining oila haqidagi hikmatlarini targ‘ib qiluvchi ko‘rsatuvlar tayyorlash.
4. Kitobxonlikni rag‘batlantirish: “Turkiy Guliston” kabi asarlarni zamonaviy talqinda nashr etish va yosh oilalarga tavsiya qilish.
5. Mahalla instituti bilan hamkorlik: Mahallalarda oilaviy nizolarni hal qilishda jadidlarining axloqiy me’yorlaridan vosita sifatida foydalanish.

Qo‘qon universiteti bazasida tashkil etilgan pedagogik va psixologik xizmatlar markazi ushbu yo‘nalishda tajriba almashish maydonchasi bo‘lishi mumkin. Talabalar va yosh oilalar uchun ochiq darslar tashkil etish orqali jadid merosini amaliyotda qo‘llash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid mutafakkirlarning oila mustahkamligi borasidagi qarashlari nafaqat tarixiy qimmatga ega, balki bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga molikdir. Ular oilani jamiyatning asosiy tayanchi deb bilganlar va uning mustahkamligini ma’rifat, axloq va o‘zaro hurmatda ko‘rganlar.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi allomalar oilaviy munosabatlarda tenglik, ayollarning ma’rifatlanishi va farzandlarning har

tomonlama tarbiyasi g‘oyalarini ilgari surganlar. Bu g‘oyalar zamonaviy pedagogika va psixologiya talablari bilan to‘liq mos keladi.

Bugungi kunda oila institutini mustahkamlash, ajralishlarning oldini olish va yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalashda jadid merosidan foydalanish – bu o‘tmishga qaytish emas, balki milliy qadriyatlar asosida kelajakni qurish demakdir. Pedagogika va psixologiya sohasi vakillari sifatida bizning burchimiz – ushbu boy merosni o‘rganish, tahlil qilish va zamonaviy yoshlarga yetkazishdir. Oilasi mustahkam millatning kelajagi ham mustahkam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Oila – jamiyatning asosi, uning mustahkamligi – davlatimiz mustahkamligidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 45 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2015. – 210 b.
3. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Sharq, 2019. – 280 b.
4. Fitrat A. Munozara va boshqa asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 195 b.
5. Abdurashidxonov M. Adibi avval. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 150 b.
6. Qodirov N. Jadidchilik va ma’naviyat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 175 b.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Oila” to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2022. – 32 b.
8. Xursanov O.U. Zamonaviy oila psixologiyasi va milliy qadriyatlar. // Pedagogika xabarlari. – 2023. – №2. – B. 45-50.

JADID MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARINING TA’LIM-TARBIYADAGI O‘RNI

Anvarov Furqatjon Rovshanjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Pedagogika va
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.
anvarovfurqatjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarining ta’lim jarayoni boshqaruvi va zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.Ushbu bebaho asarlarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi sabablari haqida ham to‘xtalib o‘tiladi.Shuningdek maqolada jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari va pedagogik merosi Abdulla Avloniy faoliyati misolida yoritiladi.Avloniyning ta’limni milliy

uyg‘onishning asosiy omili sifatida baholashi, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan qarashlari hamda zamonaviy bilimlarni egallash zarurligi haqidagi fikrlari tahlil qilinadi.Andulla Avloniyning juda ko‘p fikirlari va g‘oyalari bugungi kunda pedagogikada qo‘llanilmoqda, bu jihat albatta yosh avlodni milliy madaniy va estetik ruhda tarbiyalashda katta ahamiyatda ega.Jadidlarning pedagogika faniga qo‘shga hissasi juda muhum ahamyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, ta’lim, ta’lim boshqaruvi, zamonaviy pedagog, kadrlar tayyorlash.

Abstract. This article discusses the significance of the works of Abdulla Avloniy in the management of the educational process and in the training of modern pedagogical personnel. It also highlights the reasons why these invaluable works have not lost their relevance even today. Furthermore, the article examines the views of Jadid thinkers on education and upbringing, as well as their pedagogical legacy, through the example of Avloniy’s activities. Special attention is given to Avloniy’s assessment of education as a key factor in national awakening, his ideas on the moral and ethical upbringing of the younger generation, and the necessity of acquiring modern knowledge. Many of Avloniy’s ideas and concepts are still applied in contemporary pedagogy, playing an important role in educating the younger generation in the spirit of national culture and aesthetics. The contribution of the Jadids to the science of pedagogy is of great importance.

Keywords: Abdulla Avloniy, education, educational management, modern pedagogue, teacher training.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur va yirik vakillaridan biri, ma’rifatparvar shoir, jurnalist, olim, dramaturg, davlat va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniydir. U o‘qish va o‘qitish usuliga yangilik kiritib, yangi maktablar tashkil etgan va maktab o‘quvchilarini savodini chiqarishning yangicha usullarini, o‘zi ochgan maktablarda joriy etgan. U Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish kabi muhim ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni bajarib, o‘zbek millati tarixida o‘chmas iz qoldirgan yetuk pedagogdir. O‘zbek pedagogikasining “otasi” va yurtimizda birinchilardan bo‘lib professor unvoniga sazovor bo‘lgan. Abdulla Avloniy va u kabi millat fidoyilari merosini o‘rganish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim masalalardan biridir. Zotan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishida qayd etilganidek, “Dunyoda global xavf xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o‘zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har

qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda”[1].

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola axloqiga, tarbiyasiga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofdagi kishilar katta ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o‘zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi va ularning mehr-muruvatli, sofdil va maqbul bo‘lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi. Abdulla Avloniy – shoir, dramaturg, publitsist. Shu bilan bir qatorda, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifa hisoblanadi. U faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab umrining oxirigacha o‘qituvchilik qildi, maktablar uchun darsliklar yaratdi, pedagogika fanining amaliy va nazariy masalalari bilan shug‘ullandi. Shuni aytish joizki, u musulmon Sharq pedagogikasining ulug‘bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschisi, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi faniga tamal toshi qo‘ygan mutafakkirdir.U faoliyati davomida zamonaviy pedagog va metodistlarni yetishtirdi. Bizga ma’lumki, adabiy o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish hisoblanadi. Pedagogik usul vazifasini bajaruvchi ifodali o‘qish natijasida asar voqealari, mazmuni, g‘oyasi o‘quvchilar ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Abdulla Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e’tibor bergan bo‘lsa, asarni tushunib o‘qish, ifodali o‘qish, badiiy asarni his qilishga ko‘p diqqat qaratdi. U ifodali o‘qishning bir necha turini ishlab chiqqan. O‘quvchilarning xor bo‘lib o‘qishlarini muallim Abdulla Avloniy drijyordek (Pedagogika fanlari doktori U. Dolimovning ma’lumot berishicha, Abdulla Avloniy drijyorlikdan xabardor bo‘lgan) boshqargan[5].

Ozod va hur fikrlari bilan maydonga chiqqan pedagog o‘z darslarida ifodali o‘qishning boshlang‘ich shakllari bilan cheklanmasdan uning zamonaviy shakllarini ham yaratdi. Uning badiiy asarlarni o‘qitishdagi bunday faoliyati Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Avloniy ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. U insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta’rif beradi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Qur’oni karim oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini

keltiradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o‘z munosabatini bildirgach, o‘sha fikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo biror maqol-hikmat ilova qiladi. Avloniy “axloq ulamosi”ning qarashlari asosida insonlarning axloqini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga matonat, nazokat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarni kiritsa, g‘azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi. Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini kuylagan dastlabki she’rlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining hamisha bebaho mulki bo‘lib qoladi. U bu turkumga mansub she’rlarida o‘zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she’r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, vatanga muhabbat uyg‘otishni maqsad qilib qo‘ygan [10, 240-242].

Uning ko‘pgina she’rlari zamirida vatanni sevish g‘oyasi yotadi. Shoir bu she’rlarida vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o‘sha 10-yillarning o‘rtalaridagina emas, balki bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin. Darhaqiqat, shoir vatan ta’rifini boshlab, “Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar, Havosi o‘ta yoqumlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik, Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur”, deya bolalarda ona diyorga katta mehr uyg‘otishga erishadi. Ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she’riyatida markaziy o‘rin egallaydi. Shoir ilm fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi tushunchalar shoir she’rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, “jaholat” va “nodonlik” esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Tarbiya – “Pedagogika”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur”, - deydi Avloniy. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur [8, 102]. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davoqilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur [6, 217]. Zeroki, «Hassinu axloqiko‘m» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur. Axloqimizning binosini go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur,ba’zilar «tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shundayo‘sarlar, tabiat o‘zgarmas», –demishlar. Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta, ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», manabu so‘z to‘g‘ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram

sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», – demishlar. Bu hadisi sharifning ma’nosi bizlarga dalildur. O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy ilk bor pedagogikaga “Pedagogika”, ya’ni “bola tarbiyasining fanidir” deya ta’rif bergan. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Avloniy “Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur” deb ta’riflaydi Avloniy. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudu biriga boylangan jon ila tan kabidur”- deydi [12, 229-232].

Abdulla Avloniyning shaxsning ma’naviy axloqiy rivojlanganlik darajasini aniqlash borasidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovordir. Adib: “… so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar…”, -deb ta’kidlaydi. Abdulla Avloniy ko‘plab ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘z asarlarida ta’riflaydi. Jumladan, “haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar[9]. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning akasi haqqoniyatdur…”. “Hayo deb ishda, so‘zda odobni rioya qilmakka aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdir. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamoq g‘iybat, hajv, masxara, safsata, so‘puv kabi odamlarning nafsiga, iffatiga tegadurgan odobsiz so‘zlarni so‘zlamak zo‘r odobsizlikdir[3]. Iffatning pardasi, vijdonning niqobili, hayodir”. U 1933- yilda o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun “Adabiyot xristomatiyasi” tuzib, nashr ettirdi. Abdulla Avloniy “Hijron”, “Nabil”, “Indamas”, “Shuhrat”, “Tangriquli”, “Surayyo”, “Shapaloq”, “Chol”, “Chig‘aboy”, “Abdulhaq” taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she’r yozgan Abdulla Avloniy 1927-yilda “Mehnat qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda esa “O‘zbekiston xalq maorifi zarbdori” faxriy unvoni berildi. Hozirda mustaqil O‘zbekistonimizda Abdulla Avloniy nomida bir qator maktablar mavjud. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo‘yicha uning nomida mukofot ta’sis ettirgan. Toshkent ko‘chalaridan biri, Respublika o‘qituvchilar

malakasini oshirish markazi va mahallalardan biriga uning nomi berilgan. Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish markazida Abdulla Avloniy muzeyi tashkil qilingan. Abdulla Avloniy atoqli pedagog, o‘qituvchi sifatida butun umrini ma’rifatga bag‘ishladi. Uning pedagogik qarashlarida Vatanga bo‘lgan muhabbat, odob-axloq, tarbiya , ma’rifat, inson kamoli jamiyat rivoji uchun xizmat qilish yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari juda katta ahamiyatga molikdir[2]. Ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan noyob bu asar har tomonlama yetuk, sog‘lom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mutafakkir vatanparvarlik, onatiliga muhabbat, do‘stlik, vijdoniylik, aql, jaholat, g‘azab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Ushbu asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qo‘llanmalar yaratilishiga asos bo‘ldi [11, 225].

Uning pedagogika, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Yoshlarga ma’naviyatning ma’no-mazmunini, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushintirishga, ruhiy-ma’naviy oziq berish, dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktablarda ham o‘quvchilarning tarbiyasini yaxshilashga, ularni namunali xulqqa, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahsmunozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, ma’naviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo‘llanma va tavsiyalar, adabiyotlar, o‘quv uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash kerak [7, 90-92].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni yuqorida ko‘rsatilgan usullar yordamida ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida /O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 08.10.2020 yildagi F-5598-

son// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 08/20/5598/1377-son.

2. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

3. Abdulla Avloniy(Jadid adabiyoti namoyondalari) - yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar. – Toshkent: “Zabarjad media”, 2023.

4. Zunnunov, A. Pedagogika tarixi. – Toshkent, 2004.

5. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. – T.: NOSHIR, 2012.

6. Mukhammadiyev, J. Mamanazarov, S. The issue of spiritual and moral education in the works of Abdullah Avlani and its role in youth education Galaxy international interdisciplinary research journal January, 2024. 117-121-p.

7. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 90-92-b.

8. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Ta’lim jarayonida shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 102-104-b.

9. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Uzluksiz ta’lim tizimidagi shaxs ma’naviyatining shakllanganlik darajasi maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18-son 237-239-b.

10. Muxammadiyev.J, Mamanazarov.S, Shaxs ma’naviyatini tarbiyalashda ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligi yo‘nalishlari maqolasi ERUS jurnali 31-dekabr 2023-yil 18 son 240-242-b

11. Muxammadiyev.J.I Abdulla Avloniy ijodidda ma’naviy-ma’rifiy pedagogik tarbiya masalalari ERUS jurnali 2023-yil 17-maxsus son 225-228-b.

12. Mamanazarov.S.Sh Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash mexanizmlari, uslublari, shakl va vositalari ERUS jurnali 2023-yil 17-maxsus son 229-232-b.

HAMZA LIRIKASIDA TA’LIM-TARBIYA MASALASINING YORITILISHI

Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining serqirra ijodkorlaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifatga oshnolik kabi masalalarning badiiy ifodalanishi shoir lirikasi orqali

ochib berilgan. Ta’lim masalasida loyaqdlikka yo‘l ochish, dunyo bo‘ylab ilm-fan rivojlanayotgan bir vaqtda eski bid’atlarni mahkam ushlagan va zamona taraqqiysi uchun eshiklarini yopgan millat o‘z kelajagining dushmaniga aylanib qolishini yaxshi tushungan holda she’rlarida faqat diniy bilim bilan cheklanib qolmasdan, dunyoviy bilimlarni ham o‘rganish lozimligini ta’kidlagan Hamzaning “Devoni Nihoniy” hamda to‘la asarlar to‘plamining ikkinchi tomiga kiritilgan she’riy asarlari tahlilga tortilgan. Xotin-qizlar ta’limiga e’tiborni yuksaltirish orqali jamiyatni rivojlantirish Hamza ijodining yetakchi g‘oyalaridan biri ekanligini misollar yordamida dalillangan. Jadid ziyolilari uchun umumiy bo‘lgan g‘oyalarning Hamza lirikasida o‘ziga xos usul va poetik tasvir orqali namoyon bo‘lishi tahlillarda aks etgan.

Kalit so‘zlar: Hamza, ta’lim-tarbiya, “Devoni Nihoniy”, dunyoviy bilim, ilm-fan, ma’rifat, jamiyat, taraqqiyot, ayollar ta’limi.

Abstract: This article analyzes the artistic expression of issues such as education and upbringing, knowledge and enlightenment in the work of Hamza Hakimzoda Niyozi, one of the most prominent creators of 20th-century Uzbek literature, through the poet's lyrics. Understanding that a nation that clings to old heresies and closes its doors to modern progress will become the enemy of its future, while paving the way for excellence in education, while science is developing around the world, Hamza's poems, which emphasize the need to study secular knowledge as well as secular knowledge, are not limited to religious knowledge alone. Hamza's "Divoni Nihoniy" and the second volume of his complete works are analyzed. It is proved with the help of examples that developing society by increasing attention to women's education is one of the leading ideas of Hamza's work. The analysis reflects the expression of ideas common to the Jadid intellectuals in Hamza's lyrics through a unique method and poetic imagery.

Keywords: Hamza, education, "Divoni Nihani", secular knowledge, science, enlightenment, society, development, women's education.

XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib jahon jamoatchiligini o‘ziga qaratgan jadidchilik adabiyoti hamisha e’tiborga loyiqdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. [1; 50]

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo‘nalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining O‘rta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta bo‘ldi. Jumladan, jadid-ma’rifatchilari o‘z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo‘lida to‘siq bo‘lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o‘quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy e’tibor qaratib, yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg‘urish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o‘zgartirish maqsadida turli ijtimoiy islohotlar yo‘lini qidirish singari muammolarni o‘rtaga tashladilar.

“Jadidlar o‘rta asr o‘qitish usuliga asoslangan ta’limga qarshi chiqib, yangi usulda o‘qitishni, qator dunyoviy fanlarni o‘quv jarayoniga kiritishni talab qildilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr va matbuotni yuksaltirishga harakat qildilar. Bu ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy jarayonlar esa bevosita adabiyotga ta’sir o‘tkazdi. Xususan, bu davr she’riyati shu jarayonlarning aks-sadosi sifatida maydonga keldi”. [5; 29]

Furqat, Muqimiy ijodida ko‘zga tashlangan an’anaviy she’riyat tilidan chekinib jonli tilga yaqinlashish tendensiyasi jadidchilik davriga kelib kuchaydi, jadid she’riyati uchun anglangan ijodiy prinsip bo‘lib qoldi. Negaki, “millatni uyg‘otish” maqsadi imkon qadar keng ommaga murojaat etishni, bu esa tilning xalqchillashuvini taqozo etadi.

Hamzaning dastlabki asarlarida jaholatga qarshi ilm-ma’rifatni ulug‘lash va uni targ‘ib-tashviq etish asosiy o‘rinda turadi. Zotan, bu asarlardan ma’lum bo‘ladiki, Hamza she’riyati jadid adabiyotining yorqin namunasidir. Shoirning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasiga kirgan “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul”, “Atirgul” deb nomlangan she’riy to‘plamlari shundan dalolat beradi. Hamza atrofdagi voqelikka loqayd qarab tura olmasdi, shu bois shoir o‘z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladi. Bu ma’noda Hamzaning 1915-1917-yillarda yaratgan “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” nomli majmuasi alohida e’tiborga loyiq. Shoir xalq baxtsizligiga faqatgina ma’rifat va millat birligi barham bera olishiga ishongan. Hamza ijodining ushbu bosqichida ma’rifatga chorlov ustunlik qiladi.

Inson va jamiyat tushunchalari xuddi bir daraxtning tanasi va ildiziga o‘xshaydi. Jadid she’riyati bilan yaqindan tanishar ekansiz, jamiyat insonning bilim olishi, ilm-fanning yangi cho‘qqilarini zabt etishi uchun yo madad berishini,

yoki o‘sha insonning uchmoqqa shaylangan qanotlarini qirqishini tushunib yetgan yurt farzandlari ko‘z oldingizda gavdalanadi. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning lirik asarlarida ham jamiyat rivoji insonlar dunyoqarashlarining o‘sishiga paralell ravishda aks ettirilgan. Shoirning to‘la asarlar to‘plami ikkinchi jildining “Ko‘zni oching, qardoshlar” she’ri bilan boshlanishi ham fikrimizning isboti bo‘la oladi. Mazkur she’rning 5-bandida shunday misralar mavjud:

“Jamiyatlar yasaylik ittifoq aylab,
Xayriyatni istaylik ittihod aylab,
Ulug‘-kichik birlashub fikrlashaylik,
Kamchiliklar yo‘lini zikrlashaylik.
Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik,
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashayluk”. [4;11]

Bu misralardan anglashilib turganidek, Hamza millat va jamiyatda birlik bo‘lishini, xalq orasid savodli qatlamning ko‘payishini va ular gazeta, jurnallar o‘qib dunyodan xabardor bo‘lishlarini, maktablar ochilib yoshlarning ilm-fan cho‘qqilarini zabt etishlarini chindan istagan edi. Hamzaning bu satrlaridagi dardni “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston” she’rida ham uchratish mumkin. Shoir yo millat ozodligi yo‘lida harakat qilmaydigan, yoki dinini nafsidan ustun qo‘yolmaydigan Turkiston tasvirlaydi va bu hol ila ne bo‘lishini shunday ta’rif etadi:

“*Bu hol ila Turkiston nechuk taraqqiy olsun,*
Ma’rifatdan asar yo‘q, jahlu vahshat yo‘qolsun,
Fisqu nifoq ishimiz, millat qanday yasholsun,
Shundoq qolsa Turkiston, Torikiston atolsun!
Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz.
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz”. [4; 17]

Hamza ijodida ilm-ma’rifat, ta’lim masalasi haqida gap ketganda “Erlar va qizlar lapari” dagi satrlarni tahlilga tortmaslikning iloji yo‘q:

Erlar:

“*O‘quv nadir, maktab nadir besamardirlar,*
Maorifning chashmasindan xushsardirlar,
Tug‘mish bizni eng muqaddas onamiz, ammo
O‘zlari onaliq sharafindan bexabardirlar.

Qizlar:

O‘quv farzdir, maktab yo‘qdir, na o‘qur qizlar,

Maktab ochub berdingizmi, kirmadik bizlar?
Onaliqni qdrin bilmoq ilm ila erkan,
Na deb o‘qituv chorasini qilmadingizlar?” [4; 31]

Hamza yoshligidan juda sinchkov va kuzatuvchan, adolat uchun kurashuvchan inson edi. Hamza yuqorida keltirilgan she’rlarida maktab ochish haqida ko‘p gapirdi. Lekin Hamza eski o‘qitish usulidagi maktablardan hech qachon mamnun bo‘lmaganini ham unutmaslik lozim. Hamzani yoshligida mahallasidagi otin oyining maktabiga beradilar. Lekin bu maktab yosh Hamzaga ma’qul emas edi. “Hamzani otin oyi maktabidagi ta’lim qoniqtirmaydi. Qo‘qonda ochilgan no‘g‘ay maktabida o‘qigan bolalar bir yilda o‘quv-yozuvni o‘rganishib olganlariga qarshi otin oyi maktabida norozilik boshlanadi. Bu norozilik harakatininig boshlovchilaridan biri Hamza edi”. [2; 10]

Ana shu faktdayoq bo‘lg‘usi jamoat arbobining ajoyib bir xususiyati – mavjud biqiq tartib-u usullarga dadilqarshi chiqish va yangilikka intilish aniq ko‘zga tashlanadi. Hamza xarakteridagi bu qirra butun hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida yetakchi, bosh xususiyat bo‘lib qoldi.

“Hamzaning qiziqishlari allaqachon madrasa devorlaridan tashqarida edi. O‘zi aytganidek, madrasaning qorong‘u hujralarida odamlardan yashirinib gazetalar o‘qib, olamning tuzilish tartibi, adolatsizlik haqida soatlab o‘yga botar edi.

Hamzaning ilk she’riy mashqlari ham XIX asrning oxirgi yillariga to‘g‘ri keladi. O‘zi aytganidek, “musiqaviy lahn (ya’ni ashula tuyg‘usi), she’r yozishga dardlanish tag‘in eskiroqdir. 1899-1890-yillarda yozilgan she’rlarim saqlanib keladur”, – deb ma’lumot beradi. Lekin afsuski, bu she’rlar bizgacha yetib kelmagan va hozircha mazmunidan bexabarmiz.

Ammo, shunisi faktki, shoirni o‘ragan muhit uning ijodiga mavzu bergan… Yosh shoir mehnatkash xalq ommasining nihoyat og‘ir ahvolini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi hamda ularga chin yurakdan achindi. Ana shu taassurotlar natijasi o‘laroq u ijtimoiy hodisalar hamda ularning sirlari bilan jiddiy qiziqadi”. [2; 12]

Hamza bu davrda ijtimoiy hayot hamda uning kelajagi haqida gapirganda doimo yoshlarni ajratib ko‘rsatib, ularni ozodlik qahramoni sifatida ta’kidlab o‘tadi. Yoshlar, deganda, u ilg‘or fikrli, ijtimoiy taraqqiyot tarafdori bo‘lgan kishilarni ko‘zda tutadi.

“Hamza Hakimzoda “Turkiston” she’rida:

Turg‘il, darddan jismingni sag‘la, Turkiston,
Danish o‘tiga bag‘ring chog‘la, Turkiston,
Belga himmat kamarin bog‘la. Turkiston,
Ma’rifatga yetmoqni chog‘la, Turkiston, —

deya jaholatga qarshi ilm-ma’rifatni targ‘ib etgan”. [5; 61]

Begali Qosimov Hamza ijodiga quyidagicha yondashib badiiy tahlil qilgani ham yuqoridagi fikrlarimizning dalili bo‘la oladi.

“*Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa molu jon,*
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur’onda farmon,
Ma’rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytilmas komil musulmon.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Xorazm xalq kuylari ohangida bitilgan “yaxshi holin yo‘qotgan, oqibatsiz Turkiston” misrasi bilan boshlanuvchi she’rida shoir mustamlaka o‘lkaning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy tutqun ahvolini buyuk bir dard bilan qalamga olgan. Har bir millatning istiqboli – ilm-ma’rifatda. Shoirni qiynayotgan, uning faryod chekishiga sabab bo‘layotgan narsa millatning ilmsizligi, bu ilmsizlik oqibatida o‘ziga “O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan”i”. [3; 388]

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini ma’rifat, mustaqillik, erk g‘oyalarining tarannumisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zotan, Hamza ijodi bu kabi mavzularni bayroq qilib olgan ediki, bu esa davr taqozosi edi. Millat erki, Vatan mustaqilligi, ertangi ozod va buyuk kelajagi uchun erk, ilm-fan, ma’rifat va keng dunyoqarash kerak edi. Shoir millat yoshlarining kelajagi deb kuyib-yondi. Oilada ayollarning o‘rni katta ekanligini anglab ayollarning ilm olishi kerakligini she’rlarida ifodaladi. Millatning kelajagi buyuk va bardavom bo‘lishi uchun yoshlarga ma’rifat qanchalik zarur ekanligini anglagan Hamza she’rlarining ildizini aynan, erk, hurriyat, istiqlol, istiqbol, ilm, ma’rifat, madaniyat, ma’naviyat g‘oyalari bilan sug‘ordi. Hamza ijodini kuzatib, shoir sevgisining majnunlik darajasiga yetishi uchun faqat bir suluv qiz bo‘lishi kerak emasligini, ya’ni Vatanni, millatni ham junun bo‘lib sevish mumkinligining guvohiga aylanish mumkin. Hamisha yangilikka intiluvchi Hamza ijodida yangi obrazlar, yangi poetik timsollar, yangi shior va chaqiriqlar zamirida yangi milliy she’riyat maydonga keldi. Jadid she’riyatidagi yangilanish jarayoni she’rlarning janr va vazn xususiyatlarida, badiiy obraz, ramz va timsollarda, shuningdek, yangicha ijtimoiy-siyosiy masalalar, din, ilm, ma’rifat, maorif, ayollar masalasi kabi mavzularda o‘z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: Tasvir, 2020. – B. 50.
2. Qayumov L. Hamza:esse. –T.: Yosh gvardiya, 1989. – 336 b.
3. Begali Qosimov va boshqalar.Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.T Ma’naviyat , 2004. – 464 b.
4. Hamza.To‘la asarlar to‘plami. 2-tom. T.: Fan, 1988. – 546 b.
5. Arzikulova S. Jadid she’riyatida ijtimoiy mavzular. T.: 2024. – 80 b.
6. Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida). –T.: 1992. 178 b.
7. Amonov Sh. Hamza she’riyatining manbalari, matniy tadqiqi. –T.: 2010. 132 b. 41. Jabborova D. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida Cho‘lpon ijodi talqinlari. Samarqand, 2018. – 48 b.
8. Xoliqova N. O‘zbek jadid she’riyatida ozodlik harakatining badiiy talqini. –T.; “Navro‘z”, 2020 –148 b.

MIRZO XAYRULLO XO‘QANDIY VA UNING JADIDCHILIK FAOLIYATI

Umarjon MELIKUZIYEV,
Qo‘qon universiteti tadqiqodchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitining iste’dodli vakili Mirzo Xayrullo Xo‘qandiy hayoti va ijodinining o‘rganilish tarixi, adabiy faoliyatining ayrim qirralariga e’tibor qaratiladi, jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissasi haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: ma'rifatparvar, jadid, hattot, tarjimon, hunarmand, matnshunos, bayoz, maqola, dissertatsiya

Abstract. This article focuses on the history of the study of the life and work of Mirzo Khayrullo Khoqandi, a talented representative of the Kokan literary environment, some aspects of his literary activity, and comments on his contribution to the Jadidism movement.

Key words: enlightener, modernist, translator, craftsman, textologist, scholar, article, dissertation.

Turkiy xalqlar adabiyoti o‘rta ildizining shakllanishida Hirot va Qo‘qon adabiy muhitlarining o‘rni beqiyosdir. Adabiyotshunoslikda Hazrat Alisher Navoiy va temuriyzoda Husayin Boyqarolar homiyligi ostida rivojlangan Xirot adabiy muhitidan keyin ikkinchi o‘ringa Qo‘qon adabiy muhitining qo‘yilishi ham bejiz emas. Chunki “bu adabiy muhit temuriylar davri madaniyati, adabiyoti

an’analarining ushbu davrda qayta jonlanishi bilan ajralib turadi. Bu hol: a) Navoiiy she’riyatiga izdoshlikda; b) Jomiy, Kamol, Lutfiy, Navoiiy, Fuzuliy, Bedil g‘azallariga tatabbu’ bitish an’anasining keng yoyilishida; v) “Xamsa” dostonlariga javobiya tarzida epik asarlar yozilishida; g) Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlarining ko‘plab nusxalarda ko‘chirilib tarqatilishida namoyon bo‘ladi” [1.17]

Umarxon boshchiligida tashkil topgan adabiy muhit keyinchalik ham ko‘plab iste’dod egalarini yetishtirdi. Ulardan biri Mirzo Hayrulloxon Xo‘qandiy hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda mazkur ijodkor adabiy merosi haqida maqolalar, bitta dissertatsiya yozilgan. Demak, ijodkorga to‘liq baho berilmagan. Oldimizda shoir ijodiga yangicha yondashuv, birinchi navbatda asarlarining matniy jihatdan o‘rganish va tabdil qilish, xalqimizga butunicha yetakzish vazifalari turibdi.

Mirzo Xayrulloxon Said Nosirxon o‘g‘li (Mirzo, Mirzoi Ho‘qandiy) mashhur o‘zbek shoiri va ko‘zga ko‘ringan ma’rifatparvarlaridan biridir. Bo‘lajak shoir 1880 yilda Qo‘qon shahrining Saidquli qo‘shbegi mahallasida (hozirgi “Yangi hayot” ko‘chasi) hunarmand-kosib oilasida tug‘ildi. Dastlab eski usul maktabida, so‘ng “Madrasai Buzrukxo‘ja”da o‘qidi. Yoshligidan adabiyotga, turli hunarlarga qiziqqan Mirzo Xayrulloxon ustozlari mavlono Rojiy, Nayyiriy Ho‘qandiylardan she’riyat qonun-qoidalarini, xattotlik san’ati sirlarini o‘rgandi, xususiy mutolaa yo‘li bilan ko‘p bilim hosil Mirzo Xayrullo Xo‘qandiy. Yigirma hikmat qildi. [3.3]

Mirzo Xo‘qandiy haqidagi dastlabki ma’lumotlar Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarida uchraydi: “Xo‘qand shaharidan bo‘lub, Sarmozor dahasida Sayyid Qushbegi nomli mahallada mayda savdogar oilasinda kelmishdur” [2.376] Muallif tazkirada shoirning tug‘ilishi, hayot yo‘li, ustozlari, asarlari, tarjimalari va vafoti haqida qimmatli ma'lumotlar bilan birga Mirzoning 14 baytdan iborat “Bir kelib ket” radifli g‘azalini ham beradi.

Filologiya fanlari nomzodi zahmatkash matnshunos olim Ahmadjon Madaminov 1992-yilda Mirzoning “Tuhfat ul atvol” (Bolalarga sovg‘a) nomli asarini kirill alifbosiga tabdil qilib “Yigirma hikmat” nomi bilan kitobcha holida nashr ettirdi [3.2] . Kitobchaga olimning o‘zi so‘zboshi yozgan bo‘lib, unda Mirzo haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Mirzoning “Quyosh nuri” badiiy buyumlar artelesini tashkil qilganligi, “Mazluma qiz” pesasini yozganligi, Toshkentdagi “Yalang‘och” mahbuslar lagerida vafot etganligi, 1958-yil 29-dekabrda oqlanganligi, Qo‘qon shahridagi 33-maktabga Mirzo Ho‘qandiy nomi berilganligi haqidagi ma'lumotlarni boshqa manbalarda uchramaganligi Ahmadjon Madaminov so‘zboshisining qimmatini oshiradi.

1994-yilda O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi rahbari Saidbek Hasanov Mirzoning “Ahloqi zamima” asarini joriy alifboga tabdil qilib nashr qildirdi [4.1] Kitobchaga adabiyotshunos olim Alibek Rustamov so‘zboshi

yozgan. Unda Mirzoning avtobiografiyasiga oid umumiy ma'lumotlar berilib, tarjimalari va asarlari haqida gapirib o‘tilgan.

O‘zbek sovet ensiklopediyasida ham shoir haqida ma'lumotlar bo‘lib, unda o‘qigan madrasasi, maktab va kutubxona tashkil qilganligi, tarjimalari va ba'zi asarlari haqida so‘z yuritilgan [5.605,606]

Mirzo Hayrulla Ho‘qandiy hayoti va ijodi bo‘yicha Rahmat Holiqov 1973-yilda Samarqand davlat universitetida “Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy va uning adabiy me'rosi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [6.5] Dissertatsiya sovet sotsialistik tuzumi mafkurasi tasirida yozilgan bo‘lib, okityabr inqilobi, Lenin, sovet hukumati haqidagi she'rlari tahlil qilingan o‘rinlarni ko‘ramiz. Lekin buning uchun dissertantni ayblamoqchi emasmiz, dissertant qaysi davr mafkurasi ta'sirida yozgan bo‘lmasin, ma'rifatparvar shoirning hayoti va ijodini o‘rganib, xalqqa tanishtirdi. Yangi usul maktabi ochganligi haqidagi ma'lumotlar ham o‘rin olganligi dissertatsiyaning bir yoqlama yozilmaganligini ko‘rsatadi.

XX-asrning 2-yarmida qatag‘on siyosati tinib, jadidlar hayoti va ijodini o‘rganishda erkin harakatlar boshlanganligini ko‘ramiz. Fotima Husanova Mirzo Ho‘qandiy hayoti va ijodini birmuncha o‘rgangan bo‘lib, 1967-yilning o‘zida Mirzo haqida 3 ta maqola elon qildi. 17-oktabrda “O‘zbekiston ma'daniyati” gazetasida “Ma'rifatparvar shoir” nomli, 22-dekabrda “Toshkent oqshomi” gazetasida “Mirzo Ho‘qandiy” nomli, 24-dekabr kuni “Mehnat bayrog‘i” gazetasida “Otashin ma'rifatparvar” nomli maqolalari shular jumlasidandir [7.2] 1971-yil “Fan” nashriyotida chop etilgan A. Murodovning “O‘rta Osiyo hattotlik san'ati tarixidan” nomli kitobida [8.135,136], 1961-yil D. Rahmatovaning “Muqimiy izdoshlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida Mirzo Ho‘qandiy haqida ma'lumotlar bor [9.123].

Mirzoning hayoti va ijodi haqidagi manbalarni ko‘zdan kechirganimizda tadqiqodchilarning bergan ma'lumotlari orasida farqlar kuzatiladi. Masalan “Tazkirai Qayyumiy” asarida “Vafoti vaqti ellik yoshinda edi” [2,377] deb yoziladi. Bunga ko‘ra shoirni 1930-yilda vafot etgan degan xulosaga kelamiz. Lekin boshqa manbalarda, xususan, O‘zbek sovet ensiklopediyasida [5.605,606], “Axloqi zamima” [4.1], “Tuhfatul atvol” [3.2] asarlari so‘z boshisida 1943-yil vafot etganligi aytilgan. Shoirning ijtimoiy kelib chiqishi haqida “Tazkirai Qayyumiy” da “Mayda savdogar oilasinda kelmishdur”[2,376] deb yozilgan bo‘lsa, boshqa manbalarda (yuqorida keltirilgan manbalar) hunarmand-kosib oilasida dunyoga kelganligi yozilgan. Mirzoning ustozlari haqidagi ma'lumotlarda ham har-xillik kuzatiladi. “Tazkirai Qayyumiy” da shoir Mahmud qorini ustozi deya e'tirof etib Nairiy, Rojiy, Zoriy, Charxiy kabilar bilan yaqin adabiy aloqada bo‘lganligi qayd etilsa, “Tuhfat ul atvol” so‘z boshisida Rojiy va Nayyiriylarni ustozi deya e'tirof etiladi. Mirzo “Bayoz”idagi baytlar soni Rahmat Holiqov

dissertatsiyasida 3500 ga yaqin deb berilgan. Ahmadjon Madaminov “Tuhfat ul atvol” asari so‘z boshisida 15000 misradan ortiq she'rlari borligini aytgan.

Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy 63 yillik umri davomida o‘zidan boy adabiy me'ros qoldirdi. Zamona kulfatidan hayoti tahlikad o‘tgan bo‘lsada, xalqni ma'rifatli qilish yo‘lida to‘xtamadi. 1910-yilda o‘zi o‘qigan Buzrukho‘ja madrasasi qoshida yangi usuldagi maktab ochib, o‘qituvchilik qildi. 1912-yilda mazkur maktab qoshida yangi usuldagi “Ma'rifat” nomli kutubxona, va nashriyot tashkil qildi. Mirzoning tarjimonlik faoliyati ko‘lami ham oz emas. “Turki avvali ilm”, “Rahbari tadris”, “Rahbari alifbo” darsliklarini tarjima qilib nashr ettirdi. “Gurba va mush” masalini, “Ihtiyoroti kamar”, “Hikmatnoma”, “Madhali finni nujum”, “Umdat ul islom”, “Lazzat un niso”, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning “Risolai muammo” asarlarini fors tilidan mohirona tarjima qildi.

Mirzo Xo‘qandiy “Gulshani Mirzo” darsligi, “Gulshani hayol” darsligi, “Jumboq majmuasi”, “Tuhfat ul atvol” asari, “Ahloqi zamima” asari, “Bayoz” she'rlar to‘plami, “Mazluma qiz” pesasi kabi asarlarning muallifidir.

Mirzo “hattot sifatida ko‘p asarlarni, jumladan ustodi shoir Rojiyning “Zarbulmasal”ini, shogirdi Hamza Hakimzodaning “Yangi saodat”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Sariq gul”, “Pushti gul”, “Safsar gul”, “Atr gul” asarlarini, shoir asos solgan va muharrirlik qilgan “Kengash”, “Hurriyat” jurnallarini, do‘sti Muhammadjon Holiqiyning “Rahbari tadris” darsligini husnixat bilan ko‘chirib chiqdi”[3,2]

Mirzo mohir shoir, tarjimon, hattot bo‘libgina qolmay ko‘pgina hunarlar sohibi ham edi. Oynak (ko‘zgu) yasash, turli buyumlarga husnixatlar yozish, badiiy qo‘lyozmalar tayyorlash, shior va reklamalar tayyorlash, turli bo‘yoqlar tayyorlash, abri bahor qog‘ozi tayyorlash (erta bahorda kimyoviy yo‘l ila turli shaklda va bo‘yoqda qog‘ozga tushgan muattar hidli naqsh) kabi turli hunar va san'atlarni puxta bilgan va shogirdlarga erinmay o‘rgatib kelgan. Abri bahor qog‘ozi tayyorlash san'ati haqida Po‘latjon Qayyumiy “Buni Ho‘qand bilguchilaridan Mirzo qolmish”[2,377] deya e'tirof etgan. Mirzo Ho‘qandiy 1927-yilda qo‘qonlik bir guruh shoir, hattot, musavvir, hunarmandlarni atrofiga yig‘ib “Quyosh nuri” badiiy buyumlar artelesini tashkil etgan.

Qo‘qon zaminidan yetishib chiqqan ma'rifatparvarlar qatoriga bugun bemalol Mirzo Ho‘qandiy nomini ham kirita olamiz. Mirzoning jadidchilik yo‘lidagi harakatlari va adabiy merosi yosh avlod tilidan qo‘ymaydigan jadid bobolarimizning ishlaridan kam emas. Maqsadimiz xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan, boqsinchi hukumat tish-tirnog‘i bilan qarshi tursada a'rifatparvarlik yo‘lidan qaytmagan, so‘ngida manashu “qilmish”i uchun qamoqqa olinib, mahbuslar lagerida vafot etgan Mirzo Hayrullo Xo‘qandiy shaxsini, asarlarini, va

faoliyatini adabiyotshunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan chuqur o‘rganishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қобилова З. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик. Фил.ф.док. дис. авт. - Фарғона, 2021.

2. Пўлатжон Қайюмий. Тазкираи Қайюмий -Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998.

3. Мирзо Хўқандий. Йигирма ҳикмат. “Туҳфат ул атвол” (Болалар совғаси) –Тошкент:Ёзувчи, 1992.

4. Мирзо Хайрулло Хўқандий. Ахлоқи замима. –Тошкент:Ёзувчи, 1994.

5. Ўзбек совет энциклопедияси.

6. Холиқов Р. Мирзо Хайрулло Хўқандий ва унинг адабий адабий мероси. -Самарқанд 1973.

Филол.фан.номз.дис.авт.

8. Ҳусанова Ф. Маърифатпарвар шоир. “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1967 й, 17 октябр; Шу муаллиф.

9. Мирзо Хўқандий. “Тошкент оқшоми” газетаси, 1967 й, 22-декабр; Шу муаллиф. “Оташин маърифатпарвар.

10. “Меҳнат байроғи” газетаси, 1967 й, 24-декабр.

11. Муродов А. Ўрта Осиё ҳаттотлик санъати тарихидан.-Тошкент: Фан,1971.

12. Раҳматова Д. Муқимий издошлари. Фил.ф.ном. дис. Авт.-Тошкент, 1961

TURKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY ISLOHOTLAR STRATEGIYASI: MUXTOR BAKIRNING KONSEPTUAL QARASHLARI TAHLILI

Rahmatov Muhriddin AZIMOVICH,
tayanch doktorant, Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshida Turkistonda faoliyat yuritgan tatar ma’rifatparvari Muxtor Bakirning o‘lka hayotidagi o‘rni yoritilgan. Uning nafaqat ta’lim, balki milliy iqtisodiyotni oyoqqa turg‘izish va matbuot sohasidagi xizmatlari tahlil qilingan. Xususan, Turkiston o‘lkasida yangi usul maktablarining tashkil etilishi va o‘lka nashriyot sohasining rivojlanishida bevosita ishtirok etgan tatar o‘qituvchi va ziyolilari faoliyatida o‘z aksini topgan.

Turkistonda yangi usul maktablar tizimi paydo bo‘lishida Qozondan kelgan tatar o‘qituvchilarning ham amaliy, ham ma’naviy ko‘maklari beqiyos bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Muxtor Bakir, jadidlar, milliy bank, matbuot, Ulug‘ Turkiston, ta’lim.

Abstract. The role of Mukhtar Bakir, a Tatar enlightener who was active in Turkistan at the beginning of the 20th century is described in this article, in which also analyzed his contributions to education as well as to the revitalization of the national economy and the field of journalism. Specifically, his impact is reflected in the activities of Tatar teachers and intellectuals who directly participated in establishing “New Method” (Usul-i Jadid) schools and developing the publishing industry in the Turkistan region.

The practical and spiritual support of Tatar teachers from Kazan was incomparable in the emergence of the “New Method” school system in Turkistan.

Keywords: Turkistan, Mukhtar Bakir, Jadids, national bank, press, Ulug‘ Turkiston, education.

Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasi hududidagi mustamlakachilik siyosati o‘lkaning an’anaviy tuzilmasini o‘zgartirib, uni metropoliya ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan edi. Biroq, bu jarayon salbiy oqibatga olib kelib mahalliy va qardosh xalqlar ziyolilarining birlashuvini keltirib chiqardi. Tatar ma’rifatparvarlari, xususan, Muxtor Bakir faoliyati bu borada o‘ziga xos fenomen hisoblanadi. U mustamlaka ma’muriyati tomonidan maorifni ruslashtirish vositasi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, amalda Turkistonning iqtisodiy va siyosiy suvereniteti g‘oyasini ilgari surdi. Tadqiqotning dolzarbligi – milliy davlatchilikni shakllantirishda iqtisodiy omilning o‘rni Muxtor Bakir qarashlari orqali tahlil qilinishida namoyon bo‘ladi.

Maqolani tayyorlashda XX asr boshidagi “Ulug‘ Turkiston”, “Xalq dorulfununi” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan Muxtor Bakirning maqolalari o‘rganildi. Tarixiy ma’lumotlar bugungi kun nuqtai nazaridan umumlashtirildi. Shu bilan bir qatorda, tarix fanining zamonaviy kontseptual-metodologik yondashuvlari hisoblangan mavzuga doir xotira kitoblari va ilmiy ishlarda keltirilgan ma’lumotlarning qiyosiy tahlilida, tarixiylik, qiyosiy tarixiy tahlil uslublaridan foydalanilgan.

Muxtor Bakir o‘sha davrda Turkiston savdogarlari va xalqi chet ellik sarmoyadorlarga qaram bo‘lib qolayotganini qattiq tanqid qilgan. Uning asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat edi: milliy bank zarurati – muallif agar Turkistonning o‘z banki bo‘lmasa, milliy boyliklar ajnabiylar qo‘liga o‘tib ketishini aytgan. “Hunarli va boy millat hech qachon xor bo‘lmaydi”, degan shiorni ilgari surgan [1, 37].

Muxtor Bakirning sanoatni rivojlantirishda to‘siq bo‘lib turgan omilni quyidagicha ta’riflaydi: o‘zimizda xomashyo bo‘la turib, tayyor mahsulotni qimmatga chetdan sotib olishni iqtisodiy xato deb hisoblashini ta’kidlagan edi.

Muxtor Bakir Turkistonning turli shaharlarida, jumladan Xivada ham o‘qituvchilik qilgan. Uning ta’lim sohasidagi xizmatlari: 1912-yilda yangi usul maktablari uchun alifbo kitobini yaratishda qatnashgan[2]. Bu kitob o‘sha davrda chiqarilgan alifbo kitoblaridan tilining sodda va tushunarligi hamda mahalliy aholining an’analaridan kelib chiqib yozilganligi bilan ajralib turgan. «Xalq dorilfununi» jurnali 1918-yil 31-maydan boshlab Toshkentda Muxtor Bakir (Bakirov) muharrirligida, Turkiston Xalq Universiteti nashri sifatida chiqarilgan. “Xalq dorilfununi” (Hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti asosiy) nashri bo‘lib, ilm-fanni oddiy xalq orasiga yoyish vositasi rolini bajargan gazeta edi[3]. “Ulug‘ Turkiston” gazetasi orqali xalqning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirgan. «Ulug‘ Turkiston» gazetasi, Kabir Bakirov va S. Abduxattorov muharrirligida 1917-yil 25-apreldan 1918-yil 30-noyabrgacha Toshkentda tatar tilida chop etilgan. Gazeta Turkistondagi tatarlar markaziy nashri hisoblanib Toshkentdagi tatarlar ittifoqining nashri bo‘lgan [4, 125].

Fevral inqilobidan keyingi davr Muxtor Bakir faoliyatida siyosiy faollikni kuzatish mumkin. U “Ulug‘ Turkiston” gazetasining haftalik sonlarida Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy inqirozni tahlil qilar ekan, o‘lkani yagona davlatga birlashtirish g‘oyasini ilgari suradi. Shuningdek, muallifning “Bulutlar quyiladur”, “Turkiston muassasoni (El qurultoyi)” va “Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar” kabi maqolalari Turkiston Muxtoriyati hukumatining mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qilgan. Muxtor Bakir 1917-yil 28-noyabrda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatini nafaqat siyosiy e’lon, balki xalqning orzu-umidlari ro‘yobi sifatida baholagan. Ammo, bolsheviklarning 1918-yil fevraldagi tajovuzi natijasida milliy hukumatning ag‘darilishi muallifning qarashlarida yangi – ma’rifiy-mudofaa bosqichini boshlab berdi. U muxtoriyatning qisqa davrini tahlil qilganda siyosiy erkinlikni saqlab qolish uchun intellektual salohiyat yetishmaganligini asosiy sabab sifatida ko‘rsatgan. Muxtor Bakirning strategik qarashlarida ta’lim milliy davlatchilikning asosi sifatida e’tirof etilgan. Uning 1917-yildagi “Xastaliklarimiz” maqolasi jamiyatning ma’naviy-intellektual ahvoliga qo‘yilgan tashxisdir. Muallif siyosiy jarayonlar ta’sirida ilm va maorifning chetga surilib qolganidan qayg‘urib shunday degan edi:“Xalqimiz siyosat sarosimligi bilan o‘quv va o‘qituv ishlarini e’tibordan tushirdi... Hammasidan avval xalqimizning savodini chiqarurga, uni o‘qurga o‘rgaturga va uning ko‘zini ochurga kerakdur”[5].

Muxtor Bakir taklif etgan ta’lim islohoti quyidagi tizimli elementlarni o‘z ichiga olgan:

a. Eski va xarob bo‘lgan maktablarni qayta qurish hamda yangi zamonaviy o‘quv yurtlarini ochish.

b. Muallimlar uchun qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

c. Qiroatxonalar, kutubxonalar va milliy muzeylar tarmog‘ini kengaytirish.

Ushbu g‘oyalarining amaliy isboti sifatida, 1918-yilda Turkiston xalq dorilfununi tashkil etilishida faol ishtirok etdi. Universitet rahbariyatida sarkotib bo‘lib ishlash bilan bir qatorda, haftalik “Xalq Dorilfununi” gazetasiga muharrirlik qildi. Bu nashr orqali u oliy ta’limni xalqning ijtimoiy jihatidan qat’i nazar hamma uchun ochiq bo‘lishini targ‘ib etuvchi platforma yaratdi.

Maqolada Muxtor Bakirning iqtisodiy determinizmga asoslangan qarashlari alohida o‘rin egallaydi. U o‘sha davrdagi jahon iqtisodiy tartibini “kapital zamoni” deb atagan va Turkistonning bu tizimda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan. Uning iqtisodiy konsepsiyasi “Turkistonda milliy bank ochmoq kerak” maqolasida fundamental tarzda bayon etilgan. Muallif kapitalizmni mafkuraviy emas, balki mavjud fakt sifatida qabul qiladi[6]. Uning iqtisodiy g‘oyalarini quyidagicha xulosalash mumkin:

A. Yer yuzidagi barcha millatlar kapitalga tayanayotgan bir vaqtda, Turkiston xalqi o‘z milliy bankiga ega bo‘lmasligi iqtisodiy asoratga olib keladi.

B. Muxtor Bakir milliy bankni shunchaki pul saqlash joyi emas, balki millatning siyosiy irodasini iqtisodiy jihatdan himoya qiluvchi muassasa deb bilgan.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Muxtor Bakir va uning safdoshlari Munavvar Qori, Kabir Bakir va boshqalar uchun ma’rifatparvarlik shunchaki nazariya emas, balki turmush tarziga aylangan. 1917-yilda “Umid” matbaa shirkatidan olingan 20 ming so‘mlik sof foydaning mualliflar R.Tuminov, M.Urazayev, M.Bakirlar tomonidan shaxsiy ehtiyojlar uchun olinmasdan, o‘qituvchilar tayyorlash maktabiga o‘tkazilishi o‘sha davr ziyolilarining yuksak ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatiga guvohlik beradi. Bu – ularning millat kelajagi uchun shaxsiy manfaatdan kechganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tatar ma’rifatparvarlari Turkiston xalqining uyg‘onishida, o‘z haq-huquqini tanishida va zamonaviy davlat qurish g‘oyalarini shakllantirishda beqiyos xizmat ko‘rsatdilar. Muxtor Bakir kabi ziyolilar Turkistonning kelajagini faqat kitob o‘qishda emas, balki iqtisodiy qudrat va harbiy kuchda deb bilishgan. Uning bank tizimi va milliy sarmoya haqidagi fikrlari bugungi kun iqtisodiyoti uchun ham juda ahamiyatli. Shunday qilib, Muxtor Bakirning g‘oyalari – siyosiy muxtoriyat – ma’rifiy uyg‘onish – iqtisodiy qudrat zanjirini o‘z ichiga olgan. Uning qarashlari Turkistonni mustamlaka o‘lkasidan zamonaviy, suveren va iqtisodiy jihatdan barqaror davlatga aylantirishga

yo‘naltirilgan edi. Uning noshirlik faoliyati va “Xalq Dorilfununi”dagi xizmatlari Turkistonning intellektual salohiyatini saqlab qolishda muhim poydevor bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Р.Н.Турсунов. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга жадидларнинг қарашлари: Монография. – Тошкент: “Firdavs-Shoh nashriyori”. 2024. – 37 б.
2. Muxtor Bakir. “Savod” matbuot// Ulug‘ Turkiston. 1917-yil 18-iyul. 16-son.
3. Muxtor Bakir. Xalq dorilfununi// Ulug‘ Turkiston. 1918-yil 3-may. 90-son.
4. А.Расулов, А.Исоқбоев, Д.Насретдинова. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар: монография. – Тошкент: “TURON – IQBOL”, 2019. – 125 б.
5. Muxtor Bakir. Xastaliklarimiz // Ulug‘ Turkiston. 1918-yil 28-mart. 75-son
6. Muxtor Bakir. Turkistonda milliy bank ochmoq kerak // Ulug‘ Turkiston 1918-yil. 19-yanvar, 53-son

JADIDCHILIK HARAKATI MUHIM PEDAGOGIK INQILOB SIFATIDA

Javharova Nilfar ODILJON QIZI,
Qo‘qon univeriteti o‘qituvchisi.
Mirzaaliyeva Gulchiroy ALIMARDON QIZI
Qo‘qon univeriteti talabasi.
998918832907

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablari, uning ma’rifiy va pedagogik ahamiyati hamda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Jadid ma’rifatchilari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari, yaratilgan darsliklar va ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Tadqiqot natijalari jadidchilik harakati Markaziy Osiyo hududida ta’lim tizimini yangilash va xalq ma’naviy hayotini yuksaltirishda muhim pedagogik inqilob bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, pedagogik islohot, milliy ta’lim, ma’naviy uyg‘onish.

Abstract. This article analyzes the causes of the emergence of the Jadidism movement, its educational and pedagogical significance, and its role in the modernization of the education system. The new-method schools established by Jadid enlighteners, the textbooks they created, and the pedagogical ideas they advanced played an important role in the development of society. The research findings show that the Jadid movement was a significant pedagogical revolution in Central Asia, contributing to the renewal of the education system and the elevation of the spiritual life of the people.

Keywords: Jadidism, enlightenment, new-method schools, pedagogical reform, national education, spiritual awakening.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati ijtimoiy, madaniy va pedagogik hayotda muhim o‘zgarishlarni boshlab bergan tarixiy jarayon hisoblanadi. Bu davrda jamiyatda mavjud bo‘lgan eski ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermas edi. Maktab va madrasalarda asosan diniy fanlar o‘qitilib, dunyoviy bilimlarga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Natijada jamiyat taraqqiyoti sekinlashgan va ilm-fan rivojlanishi ortda qolgan.

Shunday sharoitda jadid ma’rifatchilari ta’lim tizimini tubdan isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Ular yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy fanlarni o‘qitish va pedagogik metodlarni yangilash orqali jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qildilar. Jadidchilik harakati shu jihatdan pedagogik inqilob sifatida baholanishi mumkin.

Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishiga bir qator tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar sabab bo‘lgan. XIX asr oxiriga kelib Turkiston hududida ta’lim tizimi ancha qoloq holatda edi. O‘quv jarayonida asosan diniy matnlarni yodlashga asoslangan eski metodlar qo‘llanilgan. Bu usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z qarashlarini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilgan. Natijada, o‘quvchilar dunyoqarashida cheklanish va zamonaviy fanlardan bexabar bo‘lish holatlari yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston hududi Yevropa ilm-fani, texnologiya va madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu jarayon mahalliy ziyolilarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatdi va ularni ilg‘or pedagogik g‘oyalarni o‘rganishga undadi. Ziyolilar o‘z davrining murakkab sharoitini tushunib yetib, jamiyat taraqqiyoti ilm-fan va ta’lim bilan chambarchas bog‘liq ekanligini angladilar [1].

Shuningdek, musulmon dunyosining boshqa hududlarida yuz berayotgan ma’rifiy islohotlar ham jadidchilik harakatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Qrim tatar ma’rifatchisi Ismoil G‘aspiralining “usuli jadid” deb

nomlangan yangi ta’lim usuli Turkiston ziyolilari uchun katta ilhom manbai bo‘ldi. Unga ko‘ra, ta’lim jarayoni fonetik metod asosida olib borilishi, o‘quvchilar tushunib o‘qishga o‘rgatilishi, shuningdek dunyoviy fanlar – matematika, geografiya, tarix va tabiatshunoslik o‘qitilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilardi. Bundan tashqari, Turkiy va boshqa musulmon jamiyatlaridagi matbuot va adabiyot rivoji ham jadidchilikning shakllanishiga yordam berdi. Jadidlar gazetalar, jurnallar va risolalar orqali xalqni ilm-ma’rifatga chorladilar va yangi pedagogik g‘oyalarni targ‘ib qildilar. Shu orqali o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi, jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar uchun poydevor yaratildi. Shu tarzda, xalqni zamonaviy dunyoqarashga o‘rgatish, ta’lim tizimini isloh qilish va ilm-fanni rivojlantirish orqali jadidchilik harakati Turkiston hududida tub pedagogik va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Jadidchilik harakatining eng muhim natijalaridan biri yangi usul maktablarining tashkil etilishi bo‘ldi. Bu maktablar “usuli jadid” deb atalgan yangi pedagogik metod asosida faoliyat yuritgan. Yangi usul maktablarida o‘quvchilarni tez va samarali savod chiqarishga o‘rgatish maqsad qilingan [2, 7].

Yangi usul maktablarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

-fonetik usul orqali savod chiqarish;

-dunyoviy fanlarni o‘qitish;

-ko‘rgazmali qurollardan foydalanish;

-o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Bu maktablarda matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlar o‘qitilgan. Natijada o‘quvchilar nafaqat savodli bo‘lib yetishgan, balki keng dunyoqarashga ham ega bo‘lganlar.

Jadidchilik harakati ko‘plab mashhur ma’rifatparvarlarni yetishtirib chiqardi. Ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar alohida o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, u yangi usul maktablarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Abdulla Avloniy esa pedagog sifatida yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan asarlar yozgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘z davrining muhim pedagogik manbalaridan biri hisoblanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov ham jadidchilik harakatining faol vakillaridan biri bo‘lib, yangi usul maktablarini tashkil etish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Jadidchilik harakati ta’lim tizimining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar tomonidan ochilgan maktablar xalq orasida savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, jadidlar milliy matbuot va teatr san’atining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdilar. Jadidchilik harakati natijasida jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayoni kuchaydi. Jadid ma’rifatchilari xalqni ilm-ma’rifatga chorlab, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga boshladilar. Jadidchilik harakati nafaqat ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga, balki jamiyatning ma’naviy, madaniy va siyosiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari nafaqat o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qildi, balki ularning dunyoqarashi, fikrlash uslubi va madaniyatga munosabatini ham tubdan o‘zgartirdi [3, 34].

Yangi usul maktablarida o‘quvchilarga geografiya, tarix, matematika, tabiatshunoslik va boshqa dunyoviy fanlar o‘qitilishi orqali yosh avlod ilm-fan bilan yaqindan tanishdi va o‘z jamiyatini anglash qobiliyatini rivojlantirdi. Bundan tashqari, jadidlar milliy matbuot va teatr san’atini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Gazeta va jurnallar orqali ular xalqni ma’rifatga chaqirib, yangi pedagogik g‘oyalarni targ‘ib qildilar.Misol uchun, 1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907-yilda o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshlaydi [4, 45-60].

Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan dushmanlari ko‘paygan. Natijada 10-soni chiqib yopilgan, redaksiya asbob-ashyolari, qog‘ozlar va materiallar hammasi musodara qilingan. Shundan keyin Avloniy A.Bektemirov nomiga ruxsat olib “Osiyo” gazetasini chiqara boshladi. Nashriyot Avloniyning uyida (Sapyornaya, 26) joylashgan edi. 1914–1915-yillarda advokat Ubaydulla Xo‘jayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi she’r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Lekin gazeta uzoq davom etmadi. 66-soni chiqib, moddiy ahvolning tangligidan yopilgan. Umuman, Avloniy 1904–1905-yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizg‘in shug‘ullandi. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahalliy xalq bolalarining o‘qib bilim olishi uchun pul yig‘ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi “Vaqt” gazetasi yozib chiqdi. 1913-yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlarning tashabbusi bilan “Turon” jamiyati maydonga keldi. Uning ta’sischilaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush” dramasi bo‘ldi. “Turon” o‘z faoliyatini shunday boshlagan. Truppa ishida qardoshlar ham ishtirok etdilar. Jumladan, Avloniy taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy, mashhur ozarboyjon san’atkori Sidqiy Ruhillo bilan hamkorlik qildi. Masalan, truppaning spektakllarini Zaki Boyazidskiy sahnaga qo‘ygan edi. Sidqiy Ruhillo esa 1916-yilda Avloniyning taklifi bilan Toshkentga keladi va shoirning uyida truppa ko‘magida “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yadi. Majnun rolini Sidqiy Ruhilloning o‘zi o‘ynaydi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan teatrlarda esa jamiyatdagi muammolar sahnaga

chiqarilib, o‘quvchi va tomoshabinlarni ma’rifatli va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish maqsad qilingan edi. Misol uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining “Havaskorlar” teatrini 1916-yilda Qo‘qon shahrida tuzadi. O‘zbek teatrini yuksalishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan Hamzaning “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari” pyesasi bo‘lgan. Bu teatrda ushbu asar ilk bor 1917-yilda sahnalashtirilgan. Shu orqali madaniy uyg‘onish jarayoni tezlashdi, xalqning estetik didi va san’atga qiziqishi oshdi. Jadidchilik harakati natijasida jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayoni ham kuchaydi. Jadid ma’rifatchilari milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishni targ‘ib qilganlar. Ular o‘z asarlarida va maktablarda yosh avlodga milliy tarixni, tilni va madaniyatni chuqur anglashni o‘rgatdilar. Shu tarzda, jadidlar xalqni ilm-ma’rifatga chorlab, ularni zamonaviy taraqqiyot sari boshladilar va jamiyatning ijtimoiy ongini yangilashga xizmat qildilar.

Shuningdek, jadidchilik harakati jamiyatning siyosiy tafakkuriga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ilm-fan va ta’lim orqali shakllangan yangi avlod mustaqil fikrlashga o‘rgandi, jamiyatdagi adolatsizlik va qoloqlikka qarshi tanqidiy munosabatni rivojlantirdi. Bu esa keyinchalik milliy uyg‘onish va ijtimoiy islohotlar uchun asos bo‘ldi. Shu bilan birga, jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar madaniy uyg‘onish, ta’lim sifatini oshirish va jamiyatdagi tengsizlikka qarshi kurashish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratdi.

Natijada, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatida nafaqat savodxonlik va ta’limni rivojlantirishga, balki milliy o‘zlikni anglash, madaniyatni boyitish va siyosiy tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Bu harakatning merosi bugungi kunda ham ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalarida o‘z aksini topmoqda, zamonaviy pedagogik g‘oyalarni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidlar chin ma’noda el jonkuyarlari, xalq fidoyilari, millat farzandlari edilar. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida nafaqat ijtimoiy va madaniy uyg‘onish jarayoni, balki ta’lim tizimida tub burilish yasagan muhim pedagogik inqilob sifatida baholanishi mumkin. Jadid ma’rifatchilari o‘z davrining murakkab sharoitlariga qaramay, xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning eng samarali yo‘li sifatida ilm-ma’rifat va ta’limni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdilar. Ular tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hamda dunyoviy bilimlarni keng yoyishga xizmat qildi.

Jadid pedagoglari tomonidan yaratilgan darsliklar, o‘qitish metodlari va tarbiyaviy qarashlar o‘sha davr ta’lim tizimining yangilanishida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa fonetik usul orqali savod chiqarish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish hamda turli dunyoviy fanlarni o‘qitish kabi yangiliklar ta’lim sifatining

oshishiga katta hissa qo‘shdi. Bu esa jamiyatda yangi dunyoqarashga ega, ilm-fan yutuqlarini anglay oladigan yosh avlodning shakllanishiga imkon yaratdi.

Shuningdek, jadidchilik harakati faqat pedagogik soha bilan cheklanib qolmay, jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar milliy matbuot, teatr va adabiyot rivojiga hissa qo‘shib, xalq ongini uyg‘otishga va milliy o‘zlikni anglash jarayonining kuchayishiga sabab bo‘ldilar. Natijada Turkiston jamiyatida ma’naviy uyg‘onish jarayoni yuzaga kelib, yangi taraqqiyot bosqichi shakllana boshladi.

Bugungi kunda ham jadid ma’rifatchilarining pedagogik merosi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning ilm-ma’rifatga asoslangan g‘oyalari, ta’limni modernizatsiya qilish haqidagi qarashlari zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli jadid pedagogikasini o‘rganish va undan zamonaviy ta’lim jarayonida foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston tarixi. Markaziy Osiyo ta’lim va madaniyat tarixi.54-bet, Toshkent: Akademnashr, 2002.

2. “Turkiy guliston yoxud axloq” Abdulla Avloniy Toshkent: 7-bet, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1991.

3. Jadid ma’rifatchilarining ta’lim tizimidagi yangiliklari. Karimov, Sh. 34-bet Toshkent: Ma’rifat, 2015.

4.“Jadid pedagogikasi va yangi usul maktablari]. O‘zbekiston Tarixi va Madaniyati Jurnali, 2010, №3, b. 45–60.

5. Pedagogik qarashlar va ta’lim tizimini isloh qilish. Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.

6. Tanlangan asarlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: Sharq, 1990.

7. Usuli jadid va maktab islohotlari. Ismoil G‘aspirali Qrim: Istanbul, 1903.

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARIDA TARBIYA MASALASI (“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI MISOLIDA)

Shamsiddinova Sadoqatxon G‘OPPORJON QIZI,
Qo‘qon universtiteti tayanch doktoranti
email: shamsiddinovasadoqat@gmail.com (O‘zbekiston).
tel: +998 93 315 60 85

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, xususan tarbiya masalasi “Turkiy guliston yoxud axloq” asari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Avloniy pedagogikasining nazariy va amaliy asoslari yoritilib, uning ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Maqolada Avloniy asaridagi tarbiya tamoyillari shaxsning ma’naviy rivojlanishi, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va jamiyatga foydali inson etib shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi Shu bilan birga, boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar asosida Avloniy pedagogik merosi kengaytiriladi, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi amaliy ahamiyati baholanadi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Avloniy tarbiyani nafaqat maktab jarayoni bilan, balki oila, jamiyat va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘radi. U tarbiyani shaxsning ichki dunyosi, axloqiy va ma’naviy rivojlanishi, intellektual va hissiy fazilatlarini shakllantirish vositasi deb biladi [6, 101–105]. Shu nuqtai nazardan, maqolada Avloniy asaridagi axloqiy va pedagogik g‘oyalar, shuningdek uning metodologik yondashuvlari chuqur tahlil qilinadi va bugungi kunda ularni maktab va oliy ta’lim muassasalarida amaliy qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi

Maqola ilmiy jamoatchilik va pedagoglar uchun Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarini yaxshiroq tushunish, milliy ta’lim tizimida tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish bo‘yicha foydali manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, axloq, ma’naviy tarbiya, milliy tarbiya, pedagogika, shaxsning ma’naviy rivoji, milliy madaniyat, maktab tarbiyasi, ilmiy-pedagogik yondashuv.

Abstract. This article analyzes the pedagogical views of Abdulla Avloni, in particular the issue of education, using the example of his work “Turkish Rose or Morality”. The study highlights the theoretical and practical foundations of Avloni’s pedagogy and examines its role in spiritual and educational education and the formation of moral values.

The article analyzes the principles of education in Avloni’s work in connection with the process of spiritual development of a person, the development of moral qualities and the formation of a person useful to society. At the same time, Avloni’s pedagogical heritage is expanded on the basis of scientific research, articles and monographs conducted by other scientists, and its practical significance in the modern education system is assessed.

The analysis shows that Avloni sees education as a process that is inextricably linked not only with the school process, but also with the family, society and national culture. He considers education as a means of forming the inner world, moral and spiritual development, intellectual and emotional qualities of a person. From this perspective, the article deeply analyzes the moral and pedagogical ideas in Avloni's works, as well as his methodological approaches, and considers the possibilities of their practical application in schools and higher education institutions today.

The article serves as a useful resource for the scientific community and educators to better understand the pedagogical views of Abdulla Avloni, improve the educational process in the national education system, and develop the spirituality of youth.

Keywords: Education, morality, spiritual education, national education, pedagogy, spiritual development of the individual, national culture, school education, scientific and pedagogical approach.

Abdulla Avloniy pedagogik tafakkurida tarbiya shaxsni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishning mustahkam nazariy asosidir. U tarbiyani ma’naviy-ma’rifiy jarayon sifatida qaraydi va uni jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb biladi. Avloniy pedagogik merosida ma’rifatparvarlik, ilmga intilish va axloqiy qadriyatlar tarbiyasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir

Tadqiqotchilarning fikricha, Avloniy tarbiya masalasini jamiyatning ma’naviy yangilanishi bilan uzviy bog‘lab, tarbiyani milliy ong va ma’naviyatni rivojlantirish vositasi deb hisoblagan. Bu esa uning pedagogik qarashlarini faqat XIX–XX asr chegarasini bilmasdan, zamonaviy pedagogika talablari bilan ham uyg‘unlashtiradi.

Avloniy pedagogikasida ta’lim va tarbiya jarayonlari birlashtirilgan tizim sifatida ko‘riladi: u o‘rganilayotgan fan bilimini axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, milliy pedagogika va milliy tarbiya kontseptsiyalari uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari Avloniy pedagogik qarashlarining amaliy ifodasi bo‘lib, unda tarbiya jarayoni bo‘yicha aniq yo‘riqnomalar berilgan. Asar yosh avlodni axloqiy fazilatlar: halollik, odob-axloq, sabr-toqat,

mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi jihatlar orqali shakllantirish g‘oyasi bilan boyitilgan. Bu tamoyillar Avloniy ta’lim-tarbiya tizimidan ajralmas qism sifatida ko‘riladi [2,45–50].

Tadqiqotchilar mazkur asarni faqat axloq kitobi sifatida emas, balki tarbiya fanining metodologik qo‘llanmasi deb ham talqin qiladilar. U yoshlarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish va ilm-fanga intilish tamoyillarini keltirib chiqaruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi [3,78–82].

Tarbiya – pedagogikaning asosiy qismi bo‘lib, bola tarbiyasini o‘rganadigan fan hisoblanadi. U bolani yaxshi xulqqa o‘rgatish, yomon odatlardan saqlash, tanini pok saqlash va yoshligidan ma’naviy rivojlanishini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Tarbiyachi bolaga tabib kabi yondashadi: xulqdagi “kasallik”ni davolash uchun yaxshi odat va poklikni singdiradi.

Islomiy manbalarda tarbiyaning ahamiyati ta’kidlangan. “Hassinu axloqiko‘m” amri sharifi orqali xulqni yaxshilashga chaqiriladi. Tarbiya axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, “sut bilan kirgan, jon bilan chiqar” [1,35–40]. maqoli bilan ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Hukamolardan biri: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohatli hayoti yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” degan.

Tarbiyaning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati shundan iboratki, u insonning dunyodagi va oxiratdagi baxtiga, jamiyatdagi tinchlik va farovonlikka bevosita ta’sir qiladi. Shu bois ota-onalar va jamiyat bolalarning tarbiyasini ustuvor vazifa sifatida ko‘rishi zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asar ma’naviy ijod namunalaridan foydalangan holda yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va ularni odamparvarlik, halollik, adolatga intilish g‘oyalariga yo‘naltiradi [4,101–105].

Mazkur asar nafaqat axloqiy, balki psixologik-pedagogik yondashuvlar uchun ham ahamiyatga ega. Masalan, boshlang‘ich ta’limda “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan foydalanish og‘zaki va yozma nutq hamda fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatildi. Bu yondashuvda hikmatli so‘zlar, maqollar va real hayotiy misollar nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi [2, 53–57].

Bundan tashqari, Avloniy asarlarida pedagogik psixologiya elementlari mavjud bo‘lib, u o‘quvchining ichki dunyosini, hissiy va intellektual fazilatlarini birdek rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarni ilgari suradi. Bu pedagogik yondashuv bugungi maktab pedagogikasi talablari bilan mos keladi [2, 53–57].

Abdulla Avloniy pedagogikasida tarbiya milliy ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning qarashlarida tarbiya jarayoni millatning tarixiy qadriyatlarini

saqlash, milliy o‘zlikni anglash va uni kelajak avlodga yetkazish yo‘nalishida amalga oshiriladi. Bu nuqtai nazar Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, unda milliy va universal qadriyatlar uyg‘unligi asosiy ahamiyat kasb etadi [5, 33–36].

Bu yondashuvdan kelib chiqadiki, tarbiya jarayoni nafaqat axloqiy, balki milliy ruhni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun Avloniy pedagogik merosi bugungi ta’lim tizimida milliy tarbiya konsepsiyasini mustahkamlash uchun asosiy ilmiy manba bo‘lib qolmoqda.

Bugungi pedagogik ilm-fan va ta’lim siyosatida Avloniy pedagogik merosi juda katta ahamiyatga ega. U tarbiya jarayonida: axloqiy qadriyatlarni hayot bilan bog‘lash, milliy ma’naviyatni mustahkamlash, ilm-fan va amaliyot integratsiyasi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tamoyillarini ko‘zda tutadi.

Avloniyning bu asarida matnda muhabbat haqida ta’kidlangan bo‘lib unda insonning harakatlari, mehnati va ilm o‘rganishidagi muvaffaqiyati muhabbat bilan bog‘liq. Shogirdning ilm va muallimga muhabbati bilim olishdagi ishtiyoqini oshiradi. Vatan va millatga bo‘lgan muhabbat esa insonlarni tinchlik va fidoyilik ruhiga yo‘naltiradi. Zamonaviy ahamiyati esa bugungi kunda pedagogik jarayonda talabaga nisbatan mehr va hurmatni ko‘rsatish ularning motivatsiyasini oshiradi.

O‘quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki hissiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlash, ularni bilimga muhabbat bilan jalb qilish Avloniyning fikri bilan uyg‘un keladi.

Oliyhimmat (Maqsadga sodiqlik va ijtimoiy foyda) xususida bo‘lsa,

Ibrat ko‘zingizni ochingiz, «Yo, ulal-absor»,

Himmat-la tikilmish shu go‘zal masjidi dildor.

Jur'at-la muzayyan o‘lur olam, yashar inson,

Himmatli quling suygusi har yerda xaridor. [1, 30–32].

Himmatli inson olijanob fazilatga ega, jamiyatga foydali ishlarni jon va moli bilan qilishi lozim. Himmat insonning vijdonini namoyon qiladi va ularni madaniyat, taraqqiyot va bilim rivoji uchun harakat qilishga undaydi.

Bugungi kunda yoshlarni faqat shaxsiy manfaatlari emas, balki jamiyat va millat foydasi uchun ishlashga o‘rgatish pedagogikaning muhim jihati.

Liderlik, jamoaviy ishlash, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish pedagogik jarayonda oliyhimmat tushunchasi bilan uyg‘un keladi. Afv (Kechirish) va ijtimoiy tarbiya Afv qilish – insoniylik va yaxshi xulq belgisi.

Kechirish orqali insonlar o‘rtasidagi nizolar bartaraf etiladi, ruhiy holat yaxshilanadi. Zamonaviy ta’limda ijtimoiy va emosional ko‘nikmalar muhim:

kechirish va konfliktlarni hal qilish qobiliyatlari – jamiyatda sog‘lom muhit yaratadi. Ustozlar va ota-onalar shogirdlarga afv qobiliyatini o‘rgatish orqali ularni empatiya va hamjihatlik ruhida tarbiyalaydi. Avloniyning pedagogik qarashlarida mohiyati hissiyot, axloq va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan tarbiyaga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham shaxsning bilimga muhabbati, oliyhimmat va afv qobiliyati muhim rol o‘ynaydi.

Bu qadriyatlar nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyat barqarorligi va madaniyatning rivojiga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida tarbiya shaxsni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishning markaziy elementi sifatida ko‘riladi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari pedagogik va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Avloniy tarbiyani shaxsning ichki dunyosi, aqliy va hissiy fazilatlarini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘radi. U tarbiyani boshlang‘ich yoshdan boshlab uyda ona va ota orqali, keyinchalik maktab va madrasa orqali davom ettirish lozimligini ta’kidlaydi:

“Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur” [1. 150].

Shuningdek, u tarbiyaning axloqiy ta’siriga urg‘u beradi:

“Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta'siri bordur, ba'zilar “tarbiyaning axloqqa ta'siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar” demishlar. Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta, ta'siri bo‘ladur” [1, 151].

Avloniy shuningdek, tarbiyani ilm va ma’naviyat bilan bog‘lashni maslahat beradi:

“Beshikdan to mozorga borguncha ilm o‘rgan” (Hadis, Avloniy ta’limiy sharhi, s. 152).

Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta'siri bordur, ba'zilar <tarbiyaning axloqqa ta'siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas», demishlar.

Yomon xo‘ tuzalmaydi darmon ila,

Ipak o‘lmas ip, rangi alvon ila.

Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,

Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.

Bilur har kishi aslini rangidan,

Va yokim ulangandagi zangidan». [1, 22–25].

Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta, ta'siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so‘z to‘g‘ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o‘rgan», demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur.

Bu Abdulla Avloniy pedagogik g‘oyalari asosida, yoshlarni axloqiy, ma’naviy va intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Avloniy pedagogik merosi bugungi maktab va oliy ta’lim tizimida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish, pedagogik metodlarni takomillashtirish va o‘quvchilarni ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda asosiy manba sifatida foydalanilishi mumkin .Natija sifatida, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. U yosh avlodni axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashning samarali nazariy va amaliy manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Hamroyeva, O. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari: nazariy va amaliy tadqiqot. – Toshkent: BOOkPRINT, 2022.
3. Karimov, T. Jadid pedagogikasi va ma’naviy tarbiya. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
4. Qodirov, S. O‘zbekiston maktab tarbiyasi tarixida Avloniy merosi. – Samarqand: Fan, 2021.
5. Rasulov, N. Milliy pedagogika va Abdulla Avloniy. – Toshkent: Pedagogika, 2018.
6. Tursunov, J. Ma’naviy tarbiya va Jadid maktablari. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq: tahlil va sharhlar / T. Hamroyeva. – Toshkent: BOOkPRINT, 2023.
8. Zokirov, M. Avloniy pedagogik qarashlari va ularning zamonaviy ahamiyati. – Toshkent: Pedagogika va Psixologiya, 2021.

XORAZMDA JADIDCHILIK

Tamara XAITBOYEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Urganch filiali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
thayitboyeva@gmail.com

Annotatsiya . Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida Xorazm jadidchilik harakati va uning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Xiva xonligida amalga oshirilgan islohotlar, yangi usul maktablarining tashkil etilishi hamda jadidlarning ma’rifiy faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazm jadidlarining yetuk namoyandalaridan biri Komil Devoniy hayoti va ijodi misolida milliy uyg‘onish, ma’naviy jasorat va adabiy meros masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Jadidchilik, Xorazm jadidlari, ta’lim islohoti, yangi usul maktablari, Komil Devoniy, milliy uyg‘onish, ma’rifat, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

Abstract. This article analyzes the Jadid movement in Khorezm and its distinctive features within the complex socio-political conditions of the early 20th century. It highlights the reforms implemented in the Khiva Khanate, the establishment of new-method schools, and the educational activities of the Jadids. In addition, the life and work of Komil Devoniy are examined as an example of national awakening, spiritual courage, and literary heritage. The study emphasizes the importance of preserving and researching the legacy of Khorezm Jadids in modern times.

Keywords. Jadidism, Khorezm Jadids, educational reform, new-method schools, Komil Devoniy, national awakening, enlightenment, literature, socio-political processes.

XX asr o‘zbek xalqi uchun anchayin qiyin, murakkab ijtimoiy va siyosiy to‘qnashuvlar davri bo‘ldi. Bu davrda xalq uchun azob manbai bo‘lgan tarqoq xonliklar, ruslar bosqini, bolsheviklar balosi bor ediki, ular xalqni iqtisodiy-siyosiy jihatdangina emas, adabiyot, san’at va ma’rifat jihatidan ham siquvga ola boshladi. Ayniqsa, Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi mustamlakaga aylantirilib, Rusiya imperiyasi yerlarimizni bosib olish asnosida xalqimizning milliy-madaniy merosini talon-taroj qildi. Bunday toptashlar keyinchalik “qizil”lar atalmish bolsheviklar bilan avj oldi. Din, til, millat, xalq, madaniyat, urf-odat, tarixiy xotira va ona zaminimiz ayovsiz ravishda haqorat qilindi. Savodsizlik ildiz otib, mafkuraviy g‘oyalar keng targ‘ib qilindi. Mana shunday ziddiyatli davrda xalq uchun, Vatan uchun, millat uchun kurashganlar – jadidlar maydonga chiqdi.

Jadidlar omma orasida erk, adolat, ma’rifat, ilm, millat va asosiysi, Vatan tushunchasining asl mohiyatini yoyishga, jaholat pardasini yorib chiqishga chorlay boshladi. Turkiston o‘lkasidan yetishib chiqqan Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi buyuk jadidlarimiz borki, barchamizga tanish. Ammo Xorazm o‘lkasidan yetishib chiqqan jadidlar haqida bilamizmi?

Bugungi Xorazm 1512-1920-yillarda Xiva xonligi, 1920-1925-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi sifatida faoliyat yuritgan. Turkiston o‘lkasida adabiyotshunos, tilshunos, tarixchi, siyosatshunos kabi ilm nuri bilan ko‘zi ochilgan ziyolilar harakatga kelgan, xalqni uyg‘otish uchun kurashayotgan pallada, Xorazm diyorida ham bunday yangilanish harakatlari kuzatila boshladi. Xiva xonligidagi jadidchilik harakati Turkiston jadidchiligidan farqli ravishda yuqori tabaqa vakillari tomonidan, ya’ni xon va uning vaziri Sayyid Islomxo‘ja boshchiligida amalga oshiriladi. Xorazm jadidlarining Turkiston jadidlaridan yana bir alohida xususiyati shundaki, ularning katta qismi qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya sohasining yetuk namoyondalari tashkil qilgan. Aynan mana shu sohalarni chet ellarga borib, o‘qib o‘rganib qaytishgan edi. Xiva xoni Asfandiyorxon va ham qaynotasi, ham bosh vaziri bo‘lgan Sayyid Islomxo‘ja Xiva xonligi markaziga va boshqa tumanlarga bir qancha yangiliklar kiritishgan. Jumladan, diniy va dunyoviy bilimlarni berish maqsadida yangi usuldagi maktablar qurdirishgan. Bu maktablarda tatar o‘qituvchilari ta’lim berishgan. Yangi usul maktablari Gurlan, Shovot, Yangi Urganch, Qo‘shko‘pir, Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoq kabi muhim hududlarda ham ochilgan. Xivadagi maktab tamomila zamonaviy ko‘rinishda bunyod etilgan. Keyinchalik ushbu maktablarda yaxshi o‘qigan yoshlar Orenburg, Toshkent, Peterburg, hatto Turkiya, Fransiyaga ta’lim olish maqsadida yuborilgan. Shuningdek, yosh xon va uning maslakdoshi tomonidan yo‘llar qurilishi, ta’limni rivojlantirish, adabiyot, san’at sohalarini qo‘llab-quvvatlash, arxitektura sohasi uchun mablag‘lar ajratilgan. Bunday ishlarni sanasak salmog‘i ko‘p. Islomxo‘ja “Taraqqiy”, “Najot”, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Vaqt”, “Tarjimon”, “Ma’lumot” kabi qator nashrlar bilan muntazam tanishib borgan. Biroq Xiva xonligida birorta nashriyot tomonidan chiqarilgan gazeta va jurnallar haqida ilmiy tadqiqotlar qilinmagan, bunday gazetalar bor-yo‘qligi haqida aniq manbalarni uchratmaymiz. Xorazm jadidlarining bir qancha qurultoylarda, chet mamlakatlaridagi anjumanlarda qatnashganligi haqida ma’lumotlar bor. Shunday ekan, ularda gazetchilik sohasiga alohida e’tibor berilgan bo‘lishi kerak. Biroq bu fikrimiz hali o‘z tasdig‘ini topmagan. Afsuski, Islomxo‘ja dushmanlar tomonidan o‘ldirildi, XX asrning 30-yillarida avj olgan qatag‘onlik siyosati Xorazm jadidlarini ham o‘z domiga tortdi. Mulla Safo Oxun, Ortiq oqsoqol, Rahmat Majidiy, Maryam Sultonmurodova, Mulla Bekjon Rahmon, Ismoilov Avazmat,

Otajonov Bobojon, Abdullaboy Isoyev, Xudoybergan Devonov, Matyoqub Devonov, Vois Rahimiy, Qurbon Ollobergan o‘g‘li, Olimjon Qodiriy, Komil Devoniy va yana bir qancha Xorazm hududidan yetishib chiqqan, turli sohalarda faoliyat yuritgan jadidlarimiz bo‘lib, ularning ro‘yxatini yana ancha davom ettirishimiz mumkin. Bular orasidan Maryam Sultonmurodova va Olimjon Qodiriy Buxoro jadidlari boshchiligida Germaniyaga tahsil olish maqsadida yuborilgan yoshlar ichida bo‘lishgan. Bizning eng diqqatimizni tortgan jadidlarimizdan biri Komil Devoniy bo‘lib, o‘z davrida o‘tli nafasga ega bo‘lgan, she’rlari bilan xalqni o‘ziga rom qilgan ijodkordir.

“Muhammad Komil mullo Ismoil o‘g‘li 1887-yili Xivaning Sangar qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoir, musiqashunos, mohir ijrochi, musiqiy sozlar yasaydigan usta, shuningdek yetuk naqqosh, zargar, qurolsoz sifatida elga tanilgan” [1. 128] Komil Devoniy o‘zining yorqin iste’dodi bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz nazariga tushgan. Bir qancha yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Ijodkor 1937-yilda bolsheviklar tomonidan ko‘plab xorazmliklarga qo‘yilgan ayb - “eskilik tarafdori” sifatida qamoqqa olinadi. Eslab o‘tishimiz lozimki, Turkistonlik jadidlarga, asosan, “millatchi”,-deya ayblov qo‘yishgan. Xorazm jadidlariga nisbatan esa, ko‘proq “eskilik tarafdori” tamg‘asi bosilgan. Komil Devoniy 1938-yil 10-fevralda turli qiynoqlar, so‘roqlardan keyin o‘lim jazosiga hukm qilingan. Ammo hukm bajarilmasidan oldin ijodkor yurak xurujidan vafot etgan.

Komil Devoniyning she’rlari saroyda ham, xalq orasida ham mashhur bo‘lib, 18 yoshiga yetganda xonning ijozati bilan “Devoni Devoniy” nomli she’rlar to‘plami toshbosmada nashr etilgan. Bizgacha ijodiy merosi tarqoq holda yetib kelgan. Qo‘lyozma shaklidagi va saqlanib qolgan she’rlari hozirda Urganch shahrida joylashgan “Qatag‘on qurbonlari xotira muzeyi” xodimlari tomonidan to‘planib, yaxlit kitob holiga keltirish harakatidalar. Komil Devoniyga zamondosh ijodkorlar uni “ikkinchi Navoiy” deya ulug‘lashgan. Komil Devoniyning she’rlari hajviy hamda ishqiy ohanglarga yo‘g‘rilgan, ijtmoiy xarakterga ega misralardan tashkil topgan.

Gar minib aeroplan, nodon ila uchsak havo,

Ikkimizdan birimizni yerga urgan yaxshidur. [3. 21] Ushbu baytning o‘ziyoq Komil Devoniyning ma’naviy olami, ruhiyati Pahlavon Mahmud ijodiy merosidan sug‘orilganligini ko‘rsatadi. Komil Devoniy nodon bilan birga bo‘lishdan, u bilan suhbat qurishdan ko‘ra yerga urilib, chilparchin bo‘lishni afzal ko‘rsa, Pahlavon Mahmud bir asr zindonda yotish yaxshiroqligini aytadi.

Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq,

Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq. [2. 21]

Komil Devoniy ijodi va uning badiiyati hali to‘liq o‘rganilmagan. Uning ijodi adabiyotshunoslar tomonidan chuqur tahlil qilinsa, Komil Devoniy ma’naviy ozuqa olgan ijodkorlar, ular bilan o‘zaro mushtarak jihatlari va farqli tomonlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Misralarga jo qilgan keskir va achchiq so‘zlari badiiy mahorat yopinchig‘ida qay darajada aks etganini kuzatish mumkin.

Komil Devoniyning farzandlari otasi haqida aytar ekan, quyidagi fikrlarning o‘ziyoq Komil Devoniy shaxsiyati va ijodini ochib beradi: “Otamning esa turmada yozgan “Urunglar! O‘ldiringlar! Bu pajmurda itlarni, Urub nobud qildi necha mard yigitlarni!”,-degan bayti mahbuslar orasida juda mashhur bo‘lib ketgan ekan…” [3. 21] O‘zi turli qiynoqlar va so‘roqlar ostida bo‘la turib, o‘lim xavfi yopirilib kelayotgan bir pallada Komil Devoniy zindonlar ichra yana haqiqatni ayta olgani uning jasoratidan dalolatdir. Bosqinchilar qo‘lida bo‘la turib, ulardan cho‘chimagan inson, bolsheviklar uchun ozodlikka chiqishi mumkin emasdi. Hech bir aybni bo‘yniga olmagan shoir ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shoir xalq or-nomusi haqida ayta turib, haqsizlik oldida bo‘yin egmaslikka chaqirgan.

Ajab davriki, johillar bo‘libdur hukmron afsus,
Xaloyiq tortadurlar qamchidin oh-u fig‘on afsus,
Olurlar elning mol-u jonini zulmi siyosatdin,
Iloji yig‘lamoqdin o‘zga yo‘q har notavon afsus.

Shoirning bizgacha yetib kelgan she’rlari ichida bunday misralarni yana topishimiz mumkin, albatta. Kelgusida shoir ijodini chuqur tadqiq qilish, ma’no qirralarini sharhlash va badiiyat mezonlari asosida tekshirish muhim vazifa hisoblanadi. Zero, Xorazm jadidchilik harakati va namoyondalari xotirasini tiklash, ularni xalqqa tanitish, millat uchun jonini bergan insonlar nomini abadiylashtirish bugungi globallashuv davrida muhim o‘rin kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda Xorazm jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, ma’rifatli jamiyat barpo etish, ta’lim tizimini yangilash va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish yo‘lida katta sa’y-harakatlar olib bordilar.

Xiva xonligida amalga oshirilgan islohotlar, yangi usul maktablarining tashkil etilishi va yoshlarni xorijda o‘qitish tashabbuslari jadidlarning keng qamrovli faoliyatidan dalolat beradi. Xorazm jadidlarining o‘ziga xos jihati ularning davlat boshqaruvi vakillari bilan hamkorlikda faoliyat yuritganligida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Komil Devoniy kabi ijodkorlarning hayoti va ijodi jadidlarning ma’naviy jasorati, millat taqdiri uchun fidoyiligi va haqiqat yo‘lidagi kurashini yaqqol ifodalaydi. Ularning adabiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, yosh avlodni vatanparvarlik, adolat va haqiqat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, Xorazm jadidchilik harakati va uning namoyandalarini chuqur o‘rganish, ularning boy ilmiy va adabiy merosini keng targ‘ib etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Irzayev B., Rahmanova Y. Xorazm viloyati xotira kitobi. – T.: “Akademnashr”, 2019.
2. Komil Avaz. Komil Devoniy. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
3. T.Jalolov. Pahlavon Mahmud – puryoyvaliy. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/pahlavon-mahmud-ruboiylar-toxtasin-jalolov-puryoyvali.html

G‘AYRATIY IJODINING MA’NAVIY-MA’RIFIY MOHIYATI VA YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

Abdumalikova Dildoraxon ABDUMUHAMMAD QIZI,
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar adib G‘ayratiy (Abdurahim Abdullayev) ijodi jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish g‘oyalari tadqiq etiladi. Bunda adibning jadid maktablaridagi tahsili, Munavvar qori va Abdulla Avloniy kabi jadid bobolarimiz asos solgan ma’rifatparvarlik an’analarini davom ettirishi tahlil qilingan. Ayniqsa, G‘ayratiyning bolalar adabiyoti sohasidagi faoliyati, uning asarlarida ilgari surilgan ilm-fan, yuksak axloq va vatanparvarlik g‘oyalari bugungi yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada adibning “Mening yoshligim” qissasi misolida jadidona ta’lim tizimining badiiy ifodasi va uning shogirdlari, xususan, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar faoliyatidagi vorislik an’analari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘ayratiy, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, “Namuna” maktabi, bolalar adabiyoti, milliy tarbiya, “Mening yoshligim”, badiiy mahorat, vorislik, ijtimoiy muhit.

Annotation. This article examines the creative heritage of the prominent 20th-century Uzbek writer Gayrati (Abdurahim Abdullayev) in the context of the

Jadid movement and national awakening. The research analyzes his education in Jadid schools and his continuation of the enlightenment traditions founded by such reformers as Munavvar Qori and Abdulla Avloni. Particular attention is paid to Gayrati’s contribution to children's literature, where the ideas of science, morality, and patriotism are considered as a basis for the spiritual development of the modern generation. Through the example of the story “My Youth”, the artistic embodiment of the Jadid education system and the continuity in the work of his students are revealed.

Keywords: Enthusiasm, innovation, enlightenment, “Namuna” school, children's literature, national education, “My youth”, artistic skill, succession, social environment.

XX asr boshidagi Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotini jadidchilik harakatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu davr millatning o‘zligini anglash va jaholat uyqusidan uyg‘onish davri sifatida tarixga kirdi. Jadid bobolarimiz Munavvar qori, Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan “najot — ilmda” degan g‘oya butun bir avlodning dunyoqarashini belgilab berdi. Ushbu ma’rifatparvarlik harakatining munosib davomchisi, jadidona ta’lim tizimining mahsuli bo‘lgan ijodkorlardan biri G‘ayratiy (Abdurahim Abdullayev) hisoblanadi. U 1902-yilda Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida dunyoga keldi. Otasi o‘qimishli, adabiyotga qiziqqan kishi bo‘lgan. Onasidan erta judo bo‘lgan Abdurahim mahalladagi Oyimxon aya qo‘lida tarbiya topadi. Uning adabiyotga qiziqishida ham aya aytgan ertaklar muayyan rol o‘ynaydi. 1912–1915-yillarda u eski maktabda, so‘ng madrasalarda tahsil oladi. Shu yillarda Navoiy, Muqimiy, Furqat asarlari bilan tanishadi. Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Toshkentdagi “Namuna” maktabi qoshidagi o‘qituvchilar tayyorlash kursini tugatib, xalq maorifi sohasida ishlaydi. Bo‘lg‘usi adibning ilk she’ri 1921-yilda “Bolalar haftasi” nomi bilan “Qizil bayroq” gazetasida bosilib chiqadi.1926 yilda G‘ayratiy Ozarbayjonga borib, Bokudagi bilim yurtida o‘qiydi. Bokudan qaytgach, Toshkentdagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh vazifasida xizmat qiladi. 1929–1931 yillarda O‘zbekiston Davlat nashriyotida muharrir, bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. Uning birinchi she’riy to‘plami 1927-yilda “Erk tovushi” nomi bilan nashr etiladi. 1928 -yilda “Yashash taronalari” she’riy to‘plami, “Qutulish” nomli hikoyalar to‘plami chop etiladi. Shundan so‘ng adibning “Hashar” (1929), “Qora yuraklar” (1931), “Oshiq hukmi” (1932), “Onamga xat” (1933), “Tanlangan asarlar” (1934), “Shikasta” (1935), “Mahkam” (1935), “Sevgi” (1939), “Oltin yoshlik” (1940), “Hikoyalar” (1957), “Tanlangan asarlar” (1958) kabi qator to‘plam va dostonlari nashrdan chiqdi. G‘ayratiy Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Furqat va Hamza kabi ustozlari haqidagi “G‘urbatda Furqat”, “Shoir”, “O‘lmas qo‘shiq” kabi kitoblarini chop etdi. Shuningdek, “Tepalik mozor” (1959),

“Hilola”, “Sababi – tiriklik” (1958), “Maxsum qochdi” (1960) kabi hajviy hikoyalar ham yaratdi. “Dovdirash” nomli hajviy hikoyalar to‘plamini nashr ettirdi. 1973-yilda esa ikki jildlik tanlangan asarlari bosildi. Ayniqsa, “Rustamning sarguzashtlari” qissasi yoshlar va o‘smirlarning sevimli kitobi bo‘lib qoldi. G‘ayratiy ayni chog‘da E. Vohidov, Sayyor, Yu. Shomansur, X. Saloh, To‘lqin, A. Eshonov kabi iste’dodli shoirlarga murabbiylik qildi. 1972-yilda G‘ayratiyga “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berilgan. G‘ayratiy ijodi jadidchilik harakati va zamonaviy o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik bo‘lib, u yaratgan asarlar bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [10] .

G‘ayratiy hayoti va boy ijodiy merosini o‘rganish jarayonida o‘zbek adabiyotshunosligining ko‘plab taniqli namoyandalari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Jadidchilik harakatining mohiyatini tushunishda Begali Qosimovning “Milliy uyg‘onish” kitobi muhim ahamiyatga ega. Olim G‘ayratiyning 1920-yillardagi ilk she’riy qadamlarini jadidchilik an’analarining bevosita davomi sifatida baholagan [3]. B.Qosimov tadqiqotlarida G‘ayratiyning aynan “Namuna” maktabida, Munavvar qori kabi buyuk ma’rifatparvarlar qo‘lida tarbiya topgani uning butun ijodiy taqdirini belgilab berganligi isbotlangan. Bundan shoirning “Erk tovushi” kabi ilk to‘plamlarida nima uchun ilm olish va millatni uyg‘otish chaqiriqlari shunchalik kuchli ekanligi ma’lum bo‘ladi. Begali Qosimov G‘ayratiyni jadidlar va yangi davr adabiyoti o‘rtasidagi “ko‘prik” deb ataydi.

Akademik Naim Karimovning biografik tadqiqotlari va arxiv ma’lumotlari. G‘ayratiy hayotining eng og‘ir va murakkab damlarini tushunishda akademik Naim Karimovning biografik tadqiqotlari, arxiv ma’lumotlari beqiyos manba bo‘ldi. Olim shoirning faqat yutuqlarini emas, balki Ikkinchi jahon urushi yillarida “millatchilik” va “eskilik sarqiti” kabi nohaq ayblar bilan ta’qibga olinganini ham ochib bergan.[4] Ma’lum bo‘ladiki, G‘ayratiyning Yozuvchilar uyushmasidan chiqarib yuborilishi uning keyingi ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Naim Karimovning tahlillari orqali shoirning keyinchalik nima uchun Furqat, Zavqiy va Hamza kabi ustozlariga bag‘ishlab dostonlar yozgani oydinlashadi. Bu asarlar shunchaki biografik dostonlar emas, balki adibning o‘z g‘oyaviy pokligini va ustozlar an’anasiga sadoqatini isbotlashga bo‘lgan urinishlari sifatida talqin etiladi.

G‘ayratiy o‘zbek bolalar adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lgan. Safar Barnoyev “Mening yoshligim” qissasini o‘zbek adabiyotidagi eng yetuk avtobiografik asarlardan biri deb ko‘rsatadi [8]. Olimlarning tahlillariga ko‘ra, G‘ayratiy bolalar dunyosini juda yaxshi tushungan va ularga jadidona ruhni, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini sodda va tushunarli tilda yetkazgan. Mazkur adabiyotlar orqali shoirning “Omon”, “O‘rmon mushugi” kabi asarlaridagi tarbiyaviy jihatlar, jadidlar orzu qilgan “komil inson” g‘oyalari o‘rganildi.

Aziza Ahrorovaning Saodat Shamsiyeva hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maqolasi G‘ayratiy shaxsini yanada o‘zgacha ochib berdi. Saodatxon ayaning xotiralarida G‘ayratiyning Cho‘lpon, Elbek va Botu kabi millat fidoyilari bilan bo‘lgan yaqin munosabatlari, ularning xonadonlaridagi ilmiy va adabiy suhbatlar haqidagi juda qimmatli ma’lumotlari G‘ayratiyning nafaqat shoir, jadidona ma’rifat muhitining faol vakili bo‘lganini ko‘rsatadi [9].

Atoqli olim Ozod Sharafiddinov o‘zining o‘zbek adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan maqolalarida G‘ayratiyni “so‘zning mas’uliyatini his qiladigan, har bir satrga jadidona jo‘shqinlik bag‘ishlay olgan ijodkor” deb ta’riflagan. Ayniqsa, shoirning “Onamga xat” dostoni tahlil qilinganda O. Sharafiddinov undagi insoniy iztirob va milliy g‘urur uyg‘unligini yuqori baholagan [6].

Professor Umarali Normatov G‘ayratiyning nasriy asarlari, jumladan, “Mening yoshligim” va “Unutilmas kunlar” qissalarini o‘rganib chiqdi. Professorning fikricha, adib o‘z qissalarida jadidlar davri ijtimoiy manzarasini, odamlarning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni hayotiy chiza olgan, asarlardagi oddiy detallar ham o‘sha davrning qiyinchiliklari va ma’rifatga intilish jarayonlari ko‘rsatgan [7].

G‘ayratiy 1926-yilda Bokudagi o‘qituvchilar seminariyasida tahsil olgan. Ozarboyjon va o‘zbek tadqiqotchilari G‘ayratiyning Boku shahrida M. Mushfiq (to‘liq ismi Mikayil Abdulgadir o‘g‘li Ismayilzoda) va S. Rustam kabi adiblar bilan o‘zaro tajriba almashganini ko‘rsatishadi. Tadqiqotlarda G‘ayratiyning Boku safaridan so‘ng yozilgan she’rlarida yangicha vazn va shakl izlanishlari borligi isbotlab berilgan.

Hozirda umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida G‘ayratiy ijodi “Jadidchilikning davomiyligi” tamoyili asosida berilmoqda. Darslik mualliflari Q. Yo‘ldoshev va S. Ahmedovlarning ilmiy-maqolalarida G‘ayratiy merosining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni keng yoritilgan. Ularning fikricha, adib asarlaridagi vatanparvarlik va mehnatsevarlik g‘oyalari bugungi kunning ma’naviy talablariga to‘la mos keladi.

Yuqoridagi ma’lumotlar G‘ayratiy ijodini har tomonlama — ham jadid shoiri, ham bolalar yozuvchisi, ham murakkab tarixiy sharoitda o‘z e’tiqodini saqlab qolgan ijodkor sifatida tushunishga xizmat qiladi.

G‘ayratiy shunchaki iste’dodli shoir bo‘lib qolmasdan, balki jadidlar tarbiyasini olgan, ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan shakllangan jadidchilik namoyandasi edi. Uning dunyoqarashi shakllanishida Toshkentdagi "Namuna" maktabi katta rol o‘ynadi. Bu maktab o‘sha davrdagi eski usul maktablaridan butunlay farq qilar edi. Bu yerda darslar shunchaki yod olishga emas, balki mantiqiy fikrlashga, dunyoviy bilimlarni egallashga qaratilgan edi. Munavvar qori Abdurashidxonov kabi jadidlar asos solgan ushbu maktabda G‘ayratiy ona tili,

tarix va geografiya fanlari bilan birga, milliy g‘oyalar haqida darslarni ham o‘rgandi. Maktab muhiti o‘quvchilarda o‘zgacha fikr yuritishni uyg‘otardi. G‘ayratiyning ilk she’rlarida ko‘zga tashlanadigan “millatni uyg‘otish” maqsadi aynan shu maktabda shakllangan. U o‘zini jadidlarga xos faoliyatning bir bo‘lagi deb his qilardi va bu tuyg‘u uning butun ijodi davomida ko‘zga tashlanadi.

Adibning “Mening yoshligim” qissasi jadidchilik g‘oyalarini bolalar tiliga singdirgan eng sara asarlardan biridir. [2] Qissada muallif o‘z bolaligi misolida ikki xil ta’lim tizimini, ya’ni eski maktab va yangi usul maktabini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Eski maktabdagi tushunarsiz matnlarni yodlash, bolalarning shaxsiyatini kamsitish kabi holatlar G‘ayratiy ijodida juda hayotiy va biroz kinoya bilan tasvirlangan.

Yangi maktabda esa ozodalik, o‘qituvchilarning bolalarga “siz” deb murojaat qilishi va eng muhimi, ilmning hayotga foydasi borligi ko‘rsatib beriladi. G‘ayratiy bu asari orqali yosh avlodga “Bilim — jaholatdan qutulishning yagona yo‘li” ekanligini sodda tilda tushuntirdi.

Yuqorida aytib o‘tilgan G‘ayratiyning 1926-yildagi Boku safaridan so‘ng tajribalarini Toshkentga qaytib, o‘z ijodiga tatbiq etdi.G‘ayratiyning ma’rifatparvarlik faoliyati faqat uning kitoblari bilan cheklanmadi. U o‘zidan keyingi avlodga jadidona ruhni yetkazib beruvchi haqiqiy ustoz bo‘ldi. Buning eng yorqin misoli — O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovdir. Erkin Vohidov o‘zining ko‘plab xotiralarida G‘ayratiyni "birinchi ustozim" deb e’zoz bilan tilga oladi [5].

G‘ayratiy yosh Erkin Vohidovning iste’dodini erta payqagan va unga she’riyat sirlarini o‘rgatish bilan birga, milliy adabiyotga sadoqat ruhini ham singdirgan. Erkin Vohidov she’riyatidagi teran falsafa va milliy g‘urur ildizlari G‘ayratiy bergan tarbiyaga borib taqaladi. Bu esa jadidchilik g‘oyalari qatag‘on yillarida ham yo‘qolib ketmaganini, balki G‘ayratiy kabi ustozlar orqali “vorislik an’anasi” asosida keyingi buyuk ijodkorlarga o‘tganini ko‘rsatadi.G‘ayratiy ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari faqat uning hayoti bilan cheklanib qolmay, bevosita asarlaridagi obrazlar va badiiy detallarda ham namoyon bo‘ladi. Adibning “Mening yoshligim” qissasiga qaytadigan bo‘lsak, undagi Abdurahim obrazi — ilmga intilayotgan yangi avlodning ramzidir. Qissada jadid maktabidagi o‘qitish usuli shunchaki maqtov emas, balki aniq detallar orqali ko‘rsatiladi. Masalan, bolalarning geografiya darsida dunyo xaritasini ko‘rib hayratlanishi, “yetti iqlim” haqida bilim olishi — bu jadidlar orzu qilgan dunyoviy tafakkurning yaqqol namunasidir. Adib bu orqali bolani jaholatdan yorug‘ dunyoga olib chiqishni maqsad qilgan.

Shoirning she’riyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning “Erk tovushi” to‘plamidagi she’rlarida jo‘shqinlik va kurashchanlik ruhi yetakchi.[1] G‘ayratiy o‘z she’rlarida shunday xitob qiladi:

"Bilim olmoq kerak har dam, ko‘zingni och, millatdosh,
Qorong‘u kechadan qutul, chiqsin endi nurli quyosh..."

Bu kabi satrlar uning jadidona e’tiqodidan dalolat beradi. Shoirning nazarida ilm — bu shunchaki kitob o‘qish emas, balki o‘zlikni anglash, milliy erkinlikka erishishning yagona shartidir. Shuningdek, G‘ayratiyning “G‘urbatda Furqat” dostoni ham ma’rifatparvarlik an’analarining davomi sifatida tahlil qilinishi lozim. Doston markazida turgan Furqat obrazi orqali muallif o‘zining ham ichki iztiroblarini, millatga bo‘lgan sog‘inchini ifodalaydi. Furqatning o‘zga ellarda ilm va ma’rifat qidirishi, lekin qalbi doimo vatan bilan birga bo‘lishi — bu jadidona vatanparvarlikning eng yuksak namunasidir. G‘ayratiy Furqat taqdiri orqali ma’rifatparvar ziyolilarning qismati naqadar murakkab bo‘lishini, lekin ularning g‘oyalari o‘lmasligini isbotlab bergan. Adibning bolalar uchun yozgan “Omon” pyesasi va “O‘rmon mushugi” kabi dostonlari ham milliy tarbiyaga yo‘g‘rilgan. Bu asarlar yosh avlodni tabiatni sevishga, mehnatsevarlikka va eng muhimi, yuksak axloq egasi bo‘lishga o‘rgatadi. Jadidlar ilgari surgan “Komil inson” g‘oyasi G‘ayratiyning mana shu mitti qahramonlari tili va amallari orqali yosh kitobxonlar qalbiga yetib boradi.

G‘ayratiy ijodiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixida jadidchilik an’analari va zamonaviy badiiy tafakkur tutashgan muhim nuqtadir. Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, adib “Namuna” maktabida olgan ma’rifatparvarlik tarbiyasini nafaqat o‘z dunyoqarashiga singdirdi, balki uni millatni uyg‘otishga qaratilgan amaliy g‘oyaga aylantira oldi. Ayniqsa, “Mening yoshligim” qissasida eski va yangi ta’lim tizimining mahorat bilan qiyoslanishi shoirning ma’naviy islohotlar tarafdori ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, G‘ayratiy asos solgan murabbiylik maktabi Erkin Vohidov kabi ulkan iste’dodlarning kamol topishiga poydevor bo‘lib, jadidona ruhning avlodlarga ham o‘tishini ta’minladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, adib asarlaridagi ilm-fan tarannumi va yuksak axloq g‘oyalari bugungi yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ayratiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.
2. G‘ayratiy. Mening yoshligim (Qissa). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1965.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
4. Karimov N. Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar. – Toshkent: Sharq, 2001.

5. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
6. Sharafiddinov O. Dovandagi o‘ylar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
7. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
8. Barnoyev S. Bolalar adabiyoti va zamon. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
9. Ahrorova A. Saodatxon Shamsiyeva xotiralari – Toshkent, 2018.
10. https://www.savol-javob.com/g%CA% G‘ayratiy-1902-1976/

2-SHO‘BA. JADIDLAR G‘OYALARINING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

BUGUNGI KUN MILLIY TA’LIM VA TARBIYASINING TARG‘IBOTCHISI SIFATIDA JADIDLAR FAOLIYATI VA AHAMIYATI

L.M.QARAXONOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti bo‘lim mudiri, p.f.d(DSc). Katta ilmiy xodim.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlarining bugungi kun milliy ta’lim va tarbiya tizimidagi o‘rni, ularning ma’naviy-ma’rifiy merosining dolzarbligi hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-analitik jihatdan yoritiladi. Xususan, jadidlarning milliy uyg‘onish jarayonidagi faoliyati, ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy etish, yosh avlodni ilm-fan, ma’naviyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarining pedagogik, adabiy va ijtimoiy faoliyati misolida ularning milliy ta’lim taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Tadqiqot natijasida jadidlar merosi bugungi ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi, yosh avlodni milliy g‘urur, mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy ta’lim, tarbiya, milliy uyg‘onish, pedagogik meros, vatanparvarlik, ma’naviyat, ta’lim islohoti, jadidlar faoliyati, yoshlar tarbiyasi.

Annotation. This article provides a scientific and analytical overview of the role of Jadid enlighteners in today’s national education and upbringing system, highlighting the relevance of their spiritual and educational heritage and its significance for societal development. In particular, it analyzes the activities of the Jadids during the national awakening period, their efforts to reform the education system, introduce new-method schools, and educate the younger generation in the spirit of science, morality, and patriotism. Furthermore, the contributions of prominent Jadid figures such as Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, and Munavvarqori Abdurashidxonov are examined through their pedagogical, literary, and social activities, demonstrating their contribution to the development of national education.

The study concludes that the legacy of the Jadids serves as an important methodological foundation for the development of modern education and plays a significant role in fostering national pride, independent thinking, social activity, and high moral values among the younger generation.

Keywords: Jadidism, enlightenment, national education, upbringing, national awakening, pedagogical heritage, patriotism, spirituality, educational reform, Jadid activities, youth education.

Mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xalqimizning noyob adabiy-badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma’naviy kuch beradi. Hozirgi kundagi keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida jadidlar merosini chuqur o‘rganish haqida: *“... Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”* – deya ta’kidladi.

Jadidchilik – O‘zbekiston hududida XIX asrning oxirida tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ma’rifatparvar harakat hisoblanadi. Uning namoyondalari, jadidlar diniy fanlar qatorida dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan yangi usuldagi maktablarni ochishgan. Jadidlarning o‘zlari o‘quv qo‘llanmalar yozgan, shuningdek o‘zbek tili va she’riyati rivojiga xizmat qilgan, o‘zbek teatri va dramasi asoslarini yaratgan.

Ular orasida Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqalar bo‘lgan. Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi hisoblanadi. Ushbu progressistlar mamlakat siyosiy maydonida o‘chmas iz qoldirgan.

Tarixiy 1917 yilda ular Qo‘qon avtonomiyasini tuzgan, biroq avtonomiya 1918 yilda sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilgan. 1920 yillarda ayrim jadidlar rahbar lavozimlarda faoliyat olib borgan. Shu orqali ular o‘zbek intelligensiyasining rivojlanishida ishtirok etishgan. Jadidlar tarixi fojiali yakun topadi. Ular 1920 – 1930 yillar oxirida amir va sovet hokimiyati tomonidan ta’qib etilgan.ar bir davrda va millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan,

Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo‘lishini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg‘oq farzandlari bo‘lmish jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi.

Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o‘rganganimiz sari ular barhayot bo‘laveradi, yuraklarimizni bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalanadi. Ko‘z o‘ngimizda turgan haqiqat go‘yoki ularni qaytarib olish mumkindek katta umidlar beradi. Ruhan tirik jadid ajdodlarimizning alamli dardlari, avlodlarimiz tomirlarida oqayotgan ma’rifatparvarlarning qonli vasiyatlari, tillarda qotib qolgan Vatan hasratlari xayollardan tasvirlarga, o‘ylardan kitoblarga, odamlardan olamlarga ko‘chaveradi, ko‘chaveradi. 100-yillar o‘tsa hamki milliy o‘zlik tarixi, mustaqil millat, mustaqil yurt, mustaqil mafkura haqiqati yolqinlanaveradi.

To‘g‘ri, ularning quchib yig‘laydigan qabrlari yo‘q – yo‘qotilgan, izlari yo‘q – o‘chirilgan. Lekin jadidlar yashaydigan qalblar bor — so‘nmaydigan, ma’rifatga tashna jadidchi izdoshlar bor — ahdidan qaytmaydigan, jadidona adabiyot xazinasi bor — to‘lg‘onib, talpinib o‘qiladigan, demakki, ular o‘lmagan — ular biz o‘qigan sahifalarda qayta yaralmoqda.

Jaholatdan olib chiquvchi yo‘lni ta’limda, maktablarda, teatr va kutubxonalarda ko‘ra oldilar. Eng og‘ir tuzum tebranishlarida yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yuborish, ma’rifat ulashish maqsadida yondilar. Jadidlarning g‘oyalari milliy uyg‘onish, milliy mafkurani tiklash yo‘lida qudratli kuchga aylanib, jamiyatni to‘lqinlantirib yubordi. Ular o‘zandan toshgan va ters oqqan daryo, kishanga toqatsiz tulporlar, millatning ko‘pirgan qoni, ma’rifatning jaholatdan halqumga kelgan jonidir.

Jadidlar – vatan mohiyatidan izlangan savollarning “yangi” sadosi, bag‘ri nidoga to‘lgan Ona Turkistonning qarog‘i ortiga oqqan ko‘z yoshlari, shu yurtning o‘zligi, Yangi O‘zbekistonning ildiz tomirlaridir. Hayot deb atalmish ne’mat qimmati, inson sha’ni va uning hurmati, millat va Vatanga munosiblik ne ekanini anglatish uchun dunyoga kelgan ibratlar ular. Jadidlar biz kirib borayotgan uchinchi renessansning ilk bunyodkorlari, mustaqillik milliy mafkurasi asoschilari, qatag‘onlar qayirgan kuchlar, bir asr oldin panjaralar ortiga berkitilgan taraqqiyotdir.

Taraqqiyotdan ortda qolgan mamlakatni, ta’lim va maorifni isloh qilish, yangilash uchun bel bog‘lagan, “ehtiyoji millat” dardida “bu ketishning oxiri yamondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdir...” deya iztirob chekkan jadidlar bizning bugunimizdan qatlga qadar umid uzmadi.

Milliy maktab yaratish, yangi avlodni voyaga yetkazish ishtiyoqida mardonavor qadam tashlagan, otashin nutqlari bilan xalqning g‘ururini uyg‘otgan, mohir pedagog eng tahlikali davrda ham o‘z so‘zini ayta olgan, odamlar qalbida

kelajak shamini yoqishi hamon ilm ahli yuragini o‘rtab yuboradi. Bundanda ulug‘, bundanda buyuk bir ish bormi millat uchun? Ne sharafki, jadidlar quyosh kabi shunday yaralgan edi, jismu jonlarida shunday fidoiylik sobit edi. Shu davrning yana bir yoniq yulduzi, o‘zbek xalqining qomusiy olimi, shoir, nosir, o‘tkir publitsist va dramaturg Abdurauf Fitrat ham yurt qayg‘usini o‘z dardi deb bildi. U milliy taraqqiyotning “o‘zbekcha” modeli uchun izchil kurash olib borgan va davlat tuzumini sahna orqali fosh eta olgan mardonavor jadiddir.

Aytish joizki, mamlakatda yangilanishlar to‘lqinini yaratgan, Yangi Renessans davrining elparvar jadidi bo‘la olgan – ma’rifatparvar ajdodlarimizning yetuk davomchisi — Davlatimiz rahbari bugun xalqimiz yuragida qolgan jadidiy alamlarga malham bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda bu hurriyat elchilari xotirasini abadiylashtirish, jadidlar faoliyati va merosini o‘rganish, o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda har yili 31-avgust sanasi “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlanayotgani esa yosh avlod uchun munosib yodnoma bo‘ldi. Shuningdek, jadidlar tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar nashr etilayotgani, badiiy va hujjatli filmlar yaratilayotgani, dunyo hamjamiyati ishtirokida xalqaro konferensiyalar o‘tkazilayotgani esa milliy ta’lim targ‘ibotchilari xotirasini qayta-qayta jonlantirmoqda.

Jaholatga qarshi kurashish, millat sha’nini himoya qilish orqali mustamlaka bo‘lgan Turkistonni dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari safida ko‘rishni orzulagan ajdodlarimiz bugun o‘z maqsadlariga erishdilar. Endilikda bizning — bugungi kun egalarining zimmasida ajdodlarimiz asriy orzularini ro‘yobga chiqarish, tinchlik hukmron bo‘lgan zaminni asray olish, o‘z intilishlari, islohotlardagi ishtiroki, tashabbuslari orqali yoshlarga kimlarning avlodi ekanligini anglatishday kuchli vazifa borligini unutmasligimiz darkor!

Zero, Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.”Jadidlar:milliy o‘zlik ,istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”. Xalqaro konfi rensiyadagi tabrik matni. 11.12.2023.
2. Nazarova E.”Jadidlarning ilmiy ma’naviyat rivojiga qo‘shgan hissalari”. Toshkent. 2020.
3. Ikramova A. The place of poetic drama in the works of the english writer tomas eliot //sentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

ДЖАДИДИЗМ И ИСЛАМ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ФИЛОСОФИИ НОВОГО СОЗНАНИЯ

Ахмедов Исмаил Ризаевич,
Доктор педагогических наук, профессор кафедры “Языков”
“Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национальный исследовательский университет
Кошназарова Малохат Алимовна,
Преподаватель кафедры “Языков” “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национальный исследовательский университет

Аннотация. Джадидизм не есть субстанция, противоречащая и даже противодействующая исламу, а наоборот, она есть составная часть ислама, модернизирующая нашу веру на основе высказывания нашего пророка Мухаммада (мир ему): «Илм ибодатдан афзалдир». Ему вторят великие узбеки, Богоутдин Накшбанд: «Сердце богу, руки работе» и Абдурауф Фитрат: «Мы – мусульмане и до конца дней своих останемся ими. Однако если бы не усвоим все достижения мировой цивилизации, мы будем отсталой нацией»

Ключевые слова: философия нового сознания, священнослужители, исламская вера, атеистическое учение, заявлять во всеуслышание, воспитание души и совести человека, созидание ума и эрудиции для будущего творчества и продвижения нации вперед.

Abstract. Jadidism is not a substance that contradicts and even opposes Islam, but on the contrary, it is an integral part of Islam that modernizes our faith based on the statement of our prophet Muhammad (peace be upon him): “Ilm ibodatdan afzaldir." He is echoed by the great Uzbeks, Bogoutdin Naqshband: “Heart to God, hands to work” and Abdurauf Fitrat: “We are Muslims and will remain them until the end of our days. However, if we did not learn all the achievements of world civilization, we would be a backward nation”

Key words: philosophy of the new consciousness, clergy, Islamic faith, atheistic teaching, declaring for all to hear, education of the soul and conscience of man, creation of the mind and erudition for future creativity and the advancement of the nation.

Джадидизм есть философия нового сознания. Священнослужители, глубоко ненавидя их, словно траурный вопль и топот безумных ног, кричали вослед, что джадиды создают безбожные школы, чуждые нашей исламской

вере, а большевики кричат, будто объелись несуществующих хлопот, что джадиды – обратное их атеистическому учению, говорят о физике и химии об анатомии и биологии человека с божественных начал. Обе стороны в корне ошибались, потому что джадиды - узбеки, глубоко почитавшие ислам, но они же новые узбеки, считавшие, что верой нашей не ограничивается деятельность человека: для того, чтобы, допустим, получить хороший урожай с земли, надо знать и исполнять аграрную науку, а не предаваться лишь молитвам после сева.

Джадиды были вынуждены считаться с большевиками, потому что те были тогда – властью, отделившей государство от религии и религии от школы. Но они, умышленно умалчивая свою связь с исламом, заявляли во всеуслышание: мы не против изучения Корана в школах, мы только за, но вместе с другими учебными предметами, открывающими молодым людям свет на все явления и события в пространстве и времени, дающие реальное понимание о мире и обществе людей. То есть мы в исламе и Коране видим воспитание души и совести человека, а в науках - созидание ума и эрудиции для будущего творчества и продвижения нации вперед.[4,22]

Это значит, что джадидизм не есть субстанция, противоречащая и даже противодействующая исламу, а наоборот, она есть составная часть ислама, модернизирующая нашу веру на основе высказывания нашего пророка Мухаммада (мир ему): «Илм ибодатдан афзалдир». Ему вторят великие узбеки, Богоутдин Накшбанд: «Сердце богу, руки работе» и Абдурауф Фитрат: «Мы – мусульмане и до конца дней своих останемся ими. Однако если бы не усвоим все достижения мировой цивилизации, мы будем отсталой нацией»

Если рассматривать историю создания джадидского течения, то сразу можно указать, что джадидизм возник внутри ислама в части его религиозного образования и воспитания духа и привлек к исламу новое, модернистское понимание в части развития ума и практических способностей человека посредством наук. И если мы обратимся к мировоззрению всех активных джадидов и известных наших лидеров, то с уверенностью скажем, что ни один из них не является безбожником, это глубоко верующие люди, зная, что исламская вера в отличие от религии несет свет, любовь и справедливость.[1,18]

Большевики считают, что джадиды раньше были заодно с ними и вместе сражались против эмира в бухарской революции 1920 года. Это верно: на помощь слабеющим джадидам пришла Красная армия и создала решающий перелом, подвергнув огню, к великому несчастью для бухарцев, всю столицу. Но цели обеих сторон были изначально разные: джадиды имели

ввиду свергнуть эмира и установить буржуазную парламентскую республику на базе ислама, большевики хотели совсем другое – насаждение советской власти на базе социализма, планового хозяйства и новой ленинско – сталинской веры, которую назвали новым материалистическим и атеистическим мышлением.

Джадиды опять же в пику им заявляли во всеуслышание: Мы не смиримся с их диктатом, мы хотим провести буржуазные реформы, внедрить истинную, а не рабскую исламскую культуру в наше общество, подвергнуть молодежь росту национального самосознания, реформировать систему образования и просвещения, бороться против экономической отсталости, для чего включить в народное хозяйство рыночные механизмы и частную собственность, только так можно вытащить наш народ из болота нищеты, безграмотности и отсталости духа, от бездуховности и унижения.

За нами вся наша интеллигенция, все узбекские интеллектуалы, прогрессивная часть духовенства и лидеры местной буржуазии. Мы будем и дальше строить наши школы, готовить учителей по всем наукам, издавать книги и газеты, создавать библиотеки и театры. Но не это главное. Главное – взять власть в свои руки и реформировать экономику и общественных дух. Мы уже кое-чего добились и добиваемся: стали привлекать женщин к учебе и публичной работе, готовим кадры за рубежом, развиваем предпринимательство, банковское дело и торговлю, увеличиваем программную нагрузку на учащихся школ. Среди нас есть сильная группа мусульман – реформаторов, считающих своим долгом работать на благо прогресса узбекского общества, воспитывать и просвещать на основе просвещенного ислама, отвечающего нуждам современной цивилизации. Ислам не противоречит парламентаризму, в основе идеи лежит Шуро Джамаат – совет мусульманской общины. Однако нужно искать новые формы и модели социального устройства на базе ислама. [17,200]

Таким образом, ислам следует реформировать не только в культурной, но и в политической сфере. А это значит, например, развитие местного самоуправления, всеобщее избирательное право, свобода совести и свобода слова.

Когда же всё узбекское исламское общество пойдет за нами. Тогда только, когда с нашей помощью станет просвещенным и политически грамотным, когда будет понимать, что и как делать, сможет отстаивать свои интересы.

А грамотным и просвещенным можно стать только в наших джадилских школах, у нас за один год учащийся усваивает грамоту, чтение, письмо и четыре арифметических действия, такого нет в старых мактабах. А затем

учащийся начнет читать наши газеты, они научат его правильно мыслить и рассуждать, он станет правильно анализировать происходящее в мире и своем обществе, а дадбше он постарается изучить иностранные языки, их знание введет егов мировую цивилизацию. Мы уже издаем свои газеты, у нас есть свои типографии, выпускающие наши учебники и другие книги.

В проекте модернизации ислама важную роль будет играть наша пресса. Мы будем давать точные и объективные, проверенные факты и комментарии к ним. И тогда читающие люди станут нашими единомышленниками, станут создавать сообщества по интересам, партии и движения. Мы и создали – то прессу для того, чтобы донести до масс свои прогрессивные идеи, это еще и нужно потому, чтобы нас не оболгали. Конечно газета должна быть платной, покупай и читай, а не можешь купить, иди в наши библиотеки, там наши газеты бесплатны.

Мы, джадиды, и внешне отличаемся стрижкой волос, усов и бород, европейским костюмом и очками. Мы всегда дружелюбны и способны прийти на помощь, не боимся беседовать с чужими женщинами в публичных местах, если они без паранджи, дарить им цветы и подарки. Но ни перед кем не встаем на колени и не лебезим, имеем чувство достоинства и чести. В нашей речи нет плохих слов, а тем более скверных ругательств. Мы в мечети ходим только на джума – намаз, мы считаем это достаточным, чтобы почтить Аллаха и испросить у него отпущение грехов. А в остальные дни мы молимся дома или на работе в перерывах на обед. Но мы соблюдаем все главные обязанности муслима, ведь это нужно нам, чтобы удерживать в себе самом чистый ангельский дух.[12,12]

Из-за наших новшеств на нас набрасываются все духовники и отставшие, грозя нам шариатским судом. Но не мы, а они должны бояться праведного божьего и народного гнева, потому что они, а не мы, - стяжатели, мздоимцы, лицемеры, воры и лжецы. Нужно, чтобы и художественная литература активно влияла на умы. Ее пока мало, но уже есть великие произведения Бехбуди, Дониша, Фитрата, Айни. Они создают реальные образы, беря их из реальной жизни. У них в художественной форме обсуждаются социальные проблемы. Мы теперь думаем о театральных постановках, о драматургии, они, как и романы, рассказы и повести, формируют общественное сознание. Создаются театральные труппы Хамзы и Мухитдина Кори Екубова, мы приближаемся к европейскому пониманию действительности

Джадидизм должен был проникнуть во все поры ислама, а ислам должен был политизироваться. Исламское мировоззрение в узбекском обществе должно было осуществляться на основе джадидской философии. Другого

пути нет, считали джадиды – иначе ислам погрязнет в нравоучениях и назиданиях бесчестной религии, не развиваясь творчески.

Вот так только джадидизм мог послужить исламу, как верный и сильный сын поможет встать с места старому немощному отцу. Вот тогда ислам стал бы научным, с одной стороны, и гуманистическим, с другой стороны, мировоззрением.

Но тут наступила главная опасность для джадидов и их сторонников и последователей – это широкое наступление советской власти на ислам и на его составную часть – джадидизм. В качестве альтернативы узбекскому народу предлагался атеизм, позиция, которой прикрывалась марксистско – ленинская идеология. Атеизм и марксизм – ленинизм по мысли большевиков должны были проникнуть во все поры узбекской народной души. Коммунисты хотели перехватить инициативу у джадидов, узбекское общество подвергалось мощному воздействию советской модели жизни. Джадиды должны были с этим бороться, иного пути у них нет, считали они, если мы хотим видеть счастливое будущее узбекского народа. Для этого, повторим, надо было исламизировать наше общество на базе джадидской философии и политизировать ислам.

Жизнь джадидов – уже великая и уже трагическая, они чувствовали, что их уничтожат, а последующие поколения их оболгут. Но они родились не для себя, они поняли свое значение и величие, когда стали работать для просвещения своего народа, это было главное на начальном этапе их пути. Они всегда с уважением и почтением относились к традициям и обычаям узбекского народа за его философскую, идеологическую и культурную константу. Но в их глазах замерзали слезы, когда они видели, как большевики убивают народную память и все эти константы, чтобы ничего не оставить от прежнего, разрушить всё и на прежних обломках построить новый разум человечества.

Мы сейчас живем в состоянии надрыва сердца и разрыва связок, но мы всё равно когда-нибудь возродимся в душе нации, когда она станет свободной и независимой, и многое надо будет пересмотреть и передумать.

Вот каковы примерно были размышления Файзуллы Ходжаева , он не излагал их на бумаге, хоть и считал манифестом джадидской партии, чекисты бумагу могли выкрасть и доставить куда следует, хоть держи в сейфе или любом потайном месте. Но и так было понятно, почему он стал неугоден Сталину. Но велел не трогать узбекского лидера, он ему был нужен, потому что был пока незаменим. Придет время – сочтемся, думал вождь. Время пришло, когда почувствовалось дыхание будущей большой войны, Сталин решил обезопасить себя от внутренних врагов (он их считал пятой колонной,

кто, как придет военное лихолетье, повернет оружие против него) и объединить весь советский народ страхом перед ним, когда смерть слаще жизни, Вот почему началось уничтожение старых военных кадров и всех гражданских лиц, хоть как-то думающих иначе, чем он, в том числе лидеров местных компартий. Пришел 1938 год.

СПИСОК ИЗУЧЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Басыров А. Х. Джадидизм. Уфа, 2009. — автореферат диссертации.

2. Батыев С. Г. Татарский джадидзм и его эволюция // История СССР. — 1964, № 4

3. Брагинский И. С. О природе среднеазиатского джадидизма в свете литературной деятельности джадидов // История СССР,-1965.-№ 6.-С.26-38.

4. Валиханова В. С. Джадидизм: возникновение и сущность // История национальных политических партий России. — М., 1997.

5. Вахабов М. Г. О социальной природе среднеазиатского джадидизма и его эволюции в период великой октябрьской революции// История СССР.-1963.-№ 2.-С.35-56.

6. Гафаров Н. У. Культурно-просветительская деятельность джадидов в Бухарском эмирате, начало XX века. Душанбе, 1999. (автореферат)

7. Гафаров Н. У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. — начале XX в. Душанбе, 2014. (автореферат)

8. Косимов Б., Миллий уйгониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент: Маънавият, 2002

9. Исхаков Д. М. Феномен татарского джадидизма: введение к социокультурному осмыслению.-Казань: Иман, 1997.-80с.

10. Маликов А. М. Самаркандские реформаторы начала XX века: Исаходжа Ширинходжаев // XXX международный конгресс по источниковедению и историографии стран Азии и Африки: к 150-летию академика В. В. Бартольда (1869—1930). Материалы конгресса. т.1. Спб.: Студия «НП-Принт», 2019. — с.473-475.

11. Махмудова Г. Т. Джадидское движение в Туркестане и его влияние на развитие нравственно-эстетической мысли: Автореферат дисс. канд.филос.наук.-Ташкенг, 1996.-26с.

12. Мирза-Ахмедова П. М., Рашидова Д. А. К изучению джадидского движения // Общественные науки в Узбекистане.- 1990.-№ 7.-С.30-40

13. Туркестанский Г. Кто такие были джадиды.-Ташкент,1926.-22с.

14. Хакимов Р. С. Джадидизм (реформированный ислам). — Казань: Институт истории АН РТ, 2010. — 208 с. ISBN 978-5-94981-153-5

15. Ходжаев Ф. Джадиды // Очерки революционного движения в Средней Азии,- М.,1926. -С.6-12

16. Худайкулов А. М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX вв.): Дисс.канд.ист.наук.-Ташкент, 1995,-148л.

17. Эргашев Б. Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология младобухарцев: Дисс.д-ра филос.наук.-Бухара, 1993.-316с.

JADIDLAR PEDAGOGIK G‘OYALARINING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Begimqulov Zarif AXMADOVICH,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Email: zarifbegimqulov77@gmail.com
Telefon:+99890-503-62-77

Annotatsiya. Jadidlar XIX oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan, jamiyatning eng ilg‘or fikrli qatlamlari, ya’ni ona Vatanni mustaqil, ozod holda ko‘rishni o‘zlarining bosh maqsadlari deb hisoblagan yangilanish harakati namoyandalaridir.

Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ma’rifatparvarlik, ijtimoiy-siyosiy harakat vakillari - jadidlarning asosiy dasturiy maqsad va vazifalari, O‘rta Osiyo taraqqiyparvarlarining mamlakatda ta’limni rivojlantirish yuzasidan olib borgan izlanishlari haqida so‘z boradi.

Maqolada shuningdek, Turkiston ma’rifatparvarlarining pedagogik g‘oyalarining bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimiga ijobiy ta’siri, jadidlar g‘oyalari asosida ta’lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida shakllantirish, ta’lim tizimini milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashtirish, yurtimizda ta’lim tizimini rivojlantirish hamda uning sifatini oshirishdagi muhim ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: harakat, ma’rifatparvarlar, sivilizatsiya, meros, g‘oya, ta’lim, maktab, o‘qituvchi, o‘zlik.

Abstract. The Jadids were representatives of a reformist movement that emerged in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries under the influence of socio-political processes. They constituted the most progressive segment of society and regarded the vision of their homeland as independent and free as their principal objective.

This article discusses the main programmatic goals and tasks of the Jadids—representatives of the educational and socio-political movement that developed in

Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It also examines the initiatives and scholarly efforts of Central Asian progressives aimed at the development of the national education system.

The article further analyzes the positive impact of the pedagogical ideas of Turkestan enlighteners on the contemporary education system of our country. Particular attention is paid to shaping the content of education based on Jadid ideas through the harmonious integration of national and universal values, as well as to combining national traditions with modern knowledge within the education system. These factors play an important role in the development of the national education system and in improving the quality of education.

Keywords: movement, enlighteners, civilization, heritage, idea, education, school, teacher, identity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerakligi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi: “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi.

Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur” [1]. Ushbu so‘zlar Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, Vatan ozodligi va ilm-fan yo‘lidagi fidoyiligini o‘rganish va targ‘ib qilish zarurligini anglatadi. Davlatimiz rahbari jadidlarning g‘oyalari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan hamohang ekanligi, ularning ma’rifatparvarlik merosi bugungi demokratik davlat qurishda asosiy poydevor bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlagan. Mamlakatimiz Prezidenti jadidlar merosini o‘rganish va ularni xotirlashga katta e’tibor qaratmoqdalar.

Xo‘sh, jadidlar kimlar? Aslida “jadid” so‘zining ma’nosi “yangi” demakdir. Lekin u shunchaki “yangi”, “yangilik tarafdori” degani emas, balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan. Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib

qo‘ygan hamda aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan g‘oyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o‘ynagan Turkistondek bir tarixiy o‘lkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda uni G‘arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlagan.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qilishdi, shu yo‘lda fidoyilarcha kurashishdi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko‘tarilish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, qoloqlikka qarshi ma’rifat bilan kurashish, ana shu asosda hurriyatga erishish, Vatanning buyuk sha’nu shavkatini tiklash jadid ta’limotining o‘zak g‘oyasi hisoblanadi [3].

Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma’naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikka, Chor Rossiyasining mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi [7]. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida Turkistonda mavjud ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, o‘lkada yangi usul maktablarini ochish hamda ma’rifatparvarlik orqali yurtni milliy mustaqillikka erishishini maqsad qilgan edi.

Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo‘llari haqidagi turli qarashlarning to‘qnashuv maydoni ham bo‘ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab yo‘lda shakllanib yetildi.

Jadidlar tafakkurining mohiyati o‘sha davr tarixiy vaziyatlari bilan bog‘liq ekanligi nazarda tutilsa, tasodifan, bir soniyada paydo bo‘lib qolmaganligiga amin bo‘lish mumkin. Jadidchilik dunyoqarashi ham shu davrda sodir bo‘layotgan muhim hodisalar bilan bog‘liq ravishda vujudga keldi. Ular dunyoqarashining negizi inqilob bilan emas, balki islohot yo‘lidan borib, ilm-ma’rifatni, iloji boricha keng ko‘lamda yuksaltirish orqali taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Buning sababi, Turkiston o‘zining, hatto, eng ilgarigi taraqqiyotidan ham ancha orqada qolib ketgan, rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy sohada vujudga kelgan va kelayotgan raqobatlarga dosh bera olmay, chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanayotganligida edi. Millatparvar va taraqqiyparvar jadidlar bunday vaziyatni teran anglaganliklari uchun Turkistonni jahon sivilizatsiyasi

tizimidagi rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning birdan-bir yo‘li fan va texnikani taraqqiy ettirish, deb bilar edilar [4].

Jadidlarning pedagogik g‘oyalari O‘zbekistonda milliy ta’limni isloh qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. XX asr boshidan jadidchilik harakati sezilarli madaniy-ijtimoiy hodisaga aylandi, uning tarafdorlari yangi ta’lim standartlari va tizimlarini joriy etishga intildilar. Bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri an’anaviy madrasalar bilan birga faoliyat ko‘rsatgan jadid maktablarining ochilishi bo‘ldi. Bu maktablar o‘quvchilarga fan asoslari va zamonaviy fanlarni o‘rgatish bilan birga, ongli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ham xizmat qildi.

Madrasalardan farqli ravishda jadid maktablari yangi ta’lim tizimi doirasida faoliyat yuritib, dunyoviy ta’limga, o‘rganiladigan fanlarga tanqidiy yondashishga urg‘u bergan. Bu maktablarda ta’lim o‘zbek tilida olib borilgani til va madaniyatning ommalashishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, jadidlar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun bosma nashrlardan faol foydalanganlar. O‘zbek tilida jurnal va gazetalarning paydo bo‘lishi yangi intellektual muhitni vujudga keltirdi va keng ommaga zamonaviy bilimlardan foydalanish imkonini berdi.

Jadidlarning pedagogik qarashlarining yana bir muhim tarkibiy qismi bu tabaqalashtirilgan ta’lim edi. Dastlab shuni ta’kidlash kerakki, jadidlar an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilish tarafdori bo‘lib, u asosan bilimlarni yetkazishning og‘zaki usullariga asoslangan va tez o‘zgaruvchan jamiyat ehtiyojlarini qondirishga mos kelmaydi. Ular an’anaviy ta’lim modeli o‘quvchilarning individual xususiyatlarini va ularning ehtiyojlarini hisobga olmaydi, deb hisoblashgan. Shu nuqtai nazardan jadidlar tabaqalashtirilgan ta’lim g‘oyalarini ilgari surdilar, ta’lim jarayonlarini o‘quvchilar tayyorlashning turli darajalariga moslashtirish zarurligini ta’kidladilar.

Jadidlarning tabaqalashtirilgan o‘qitishning asosiy argumenti har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi, o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish uslubi borligidan iborat edi. Ularning ta’kidlashicha, yagona uslub va yondashuvlarga asoslangan ta’lim tizimlari hamma uchun sifatli ta’lim bera olmaydi [6;44].

Turkiston ma’rifatparvarlarining pedagogik g‘oyalarining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati va dolzarbligini qaysi jabhalarda ko‘ramiz?

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida Turkiston jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganish yosh avlodga yurt mustaqilligi, ozodlikni qadriga yetishda, ilm-ma’rifat jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini anglab olishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlariga kiritilgan Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining o‘lmas g‘oyalari o‘quvchi-talaba shaxsini mukammal kamol toptirishda, ularning dunyoqarashini

shakllantirishda, yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, o‘zlashtirilgan bilimlarini yanada rivojlantirishda, ilmli, o‘qimishli, ma’rifatli bo‘lib voyaga yetkazishda, faollashtirishda, zamonaviy fanlarni chuqur egallashda, sog‘lom va baquvvat farzandlarni tarbiyalashda, kundalik hayotdan ogoh bo‘lishda dolzarblik kasb etmoqda [5].

Jadidlarning pedagogik qarashlari va sa’y-harakatlari hozirgi zamon jamiyati bilan hamohang bo‘lib, zamonaviy dunyo murakkabliklarini yo‘lga qo‘yishda ilhom va yo‘l-yo‘riq manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tamoyillarini qabul qilish va ularni hozirgi sharoitlarga moslashtirish orqali biz ularning merosini qo‘llab-quvvatlashda va ta’lim va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida davom etishimiz mumkin. Yangi ta’lim dasturlari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda jadidlarning pedagogik qarashlari va metodikasini qo‘llash zarur. O‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy me’rosini o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga qo‘llashga yo‘naltirilgan dasturlarni tatbiq etish, jadidlarning didaktik yondashuvlarini hisobga olgan holda yangi o‘quv materiallari va didaktik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Jadidlar tomonidan qo‘llanilgan interfaol va innovatsion ta’lim usullarini bugungi ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhim. Yuqoridagi misollar jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy merosi va pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimiga joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi. Bu yondashuv, shuningdek, ta’lim tizimining didaktik asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Jadid mutafakkirlarining ilmiy merosini o‘rganish imkoniyatlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda ularning jamiyatdagi ta’siri va nufuzi asta-sekin ortib bormoqda. Shuning bilar birga, bu ularning hissalarining ahamiyatini yoki pedagogik tushunchalarining dolzarbligini kamaytirmasligi kerak [9].

Siyosiy tahlilchi K.Rabbimov “Jadidlarni nega o‘rganishimiz kerak?” mavzusidagi maqolasida jumladan shunday deydi: “Globallashgan dunyoda, o‘zliklar va tafakkurlar raqobati, to‘qnashuvi, oldingidek chegaraviy emas, global bo‘ladi. Tarixni bilish – milliy o‘zlikni o‘yg‘otish, milliy ishonchni parvarishlash vositasi hisoblanadi. Tarix nafaqat yutuqlar haqida, balki xatolar va fojialar haqida ham so‘zlaydi.

Bu bilan, tarix, “kim do‘st?”, “kim dushman?”, “kim bosqinchi?”, “kim mustaqilligimizdan manfaatdor?” degan savollarga eng xolis javob bera oladi. Bu savollarning javobi esa, bugungi propagandalar, geosiyosiy kurashlar, tafakkur manipulyatsiyalari davrida, juda zarur ma’naviy ozuqa bo‘ladi.

Jadidlar – juda qiziq fenomen. Ular, meni nazarimda, ikki o‘t orasida qolishgan edi. Bir tomondan asrlar davomida shakllangan va har qanday

modernizmga qarshi bo‘lgan konservatizm. Ikkinchi tomondan, imperialistik, kolonial modernizm edi.

Jadidlar, o‘zliklarimizni so‘ndirmasdan, uning asosida mo‘tadil va ma’rifatparvar modernizmga erishmoqchi bo‘lishdi. Lekin, kolonializm ularning kuchli g‘oyasini naqadar jozibador ekanini anglab, ularni to‘liq qatag‘on qilishdi...

Bu davrni bilish – yaqin o‘tmishdagi eng katta jinoyatlar, fojialarni bilish, mustaqilligimiz naqadar ulug‘ va qimmatli ne’mat ekanini anglatadi...” [8].

Tarbiya har doim ham muhim masala bo‘lib kelgan. Ta’limdan maqsad aslida tarbiyadir. Jadidchilik harakati faollaridan bo‘lgan Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb aytganida yuz karra haq edi. Avloniyning bu so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zero, bugungi ilmi fan va ta’lim izchil rivojlanib borayorgan bir davrda hech shak - shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va sohalarning zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar. Jumladan, yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni xorijiy davlatlarga o‘qishga yuborish, xalqning ijtimoiy - siyosiy ongini yuksaltirish, xalqni ma’rifatli qilish, ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va boshqalar.

Jadidlarning milliy ong va mafkurani shakllanishidagi xizmatlari ham beqiyosdir. Chunki bugungi kunimizda kuchli mafkuraviy immunitetga ega, o‘z tarixi, dini, tili va ma’naviyatini chuqur bilgan yosh avlod hech qachon o‘zgalarga qaram bo‘lmasligini davrning o‘zi taqoza qilmoqda. Globallashuv, ma’lumotlar oqimi tezlashgan bugungi kunda Turkiston ma’rifatparvarlarining pedagogik g‘oyalari yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning fundamental asosi hisoblanadi. Ularning “ona tili, milliy o‘zlik, fan va ma’rifat” tamoyillari yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, mustaqil fikrlash va milliy qadriyatlarni asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik O‘zbekiston ta’lim-tarbiya tarixida muhim bosqich bo‘lib, ta’lim-tarbiyaga yangicha qarashlarni taklif etib, butun avlodni tanqidiy fikrlash va o‘zlikni anglashga o‘rgatdi. Jadidlarning pedagogik islohotlari mamlakatda milliy ta’lim makonining shakllanishiga doimiy ta’sir ko‘rsatdi, yanada chuqur ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘l ochib berdi. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ta’lim taraqqiyot vositasi va fuqarolik mas’uliyati muhimligini eslatib turadi. Hozirgi zamon sharoitida jadidlar tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bugungi kundagi ta’lim islohotlari, milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish borasidagi sa’y-harakatlarda hamon qanday aks sado berayotganini ko‘rishimiz mumkin [6;45].

Turkiston ma’rifatparvarlari, ya’ni jadidlar ilgari surgan ta’lim tizimi mazmun va mohiyati bilan nafaqat tarixiy hodisa, balki hozirgi va kelajak ta’lim tizimi uchun uzviy, ma’naviy va uslubiy asos bo‘la oladi. Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganlaridek: “Jadidchilik pedagogikasi o‘zining mohiyatiga ko‘ra ilm-fan taraqqiyotiga tayanadi. Jadidlar ta’lim jarayonini yangilashda ilg‘or g‘oyalarni, Yevropa va Osiyo ta’lim tajribalarini chuqur o‘rganib, ularni milliy maktab tizimiga moslashtirishga harakat qilganlar. Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar” [2]. Mazkur yondashuv bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida integratsiyalashgan o‘qitish modellariga asos ham bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim tizimida jadid pedagogikasidan foydalanish yosh avlodni milliy ruhda, har tomonlama yetuk, mustaqil fikrli, zamonaviy bilimlarga ega, milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllantirishda ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2020-yil 29-dekabr.

2. Mirziyoyev Sh. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023-yil, 11-dekabr.

3. Alimov N. Jadidlar merosini o‘rganish, anglash – ildizi baquvvat daraxtga aylanish imkonidir. https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir

4. Амридинова Д.Т. Самарқанд жадидчилик мактаби. Монография. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти ДУК. - 2017, Б.18-19.

5. Begimqulov Z. Zamonaviy ta’limda jadidchilik harakatini o‘qitishning ahamiyati. “Raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportning sohalar bilan integratsiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami – Samarqand-2026, B.400-404.

6. Djuraev R.X. Jadidchilarning milliy ta’lim-tarbiya borasidagi zamonaviy qarashlari. Republican scientific and practical conference “Theories of education of thinkers and reformist enlighteners and mechanisms for their use”, May 20-21, 2025, B.44-45. https://zenodo.org/records/15553387

7. Manzarov Yu.X. Jadidchilik harakatining millat ma’naviyati va ma’rifatini ko‘tarishdagi o‘rni / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11. 2022. P. 395.

8. Rabbimov K. Jadidlarni nega o‘rganishimiz kerak? https://kun.uz/61979872

9. Temirova M.M., Mirzaliyeva Z.J. Jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 11(2024), 80-b. https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.962

TARBIYANING MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLIGI

Umaraliyeva Muhayyo ABDUGAPAROVNA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti bo‘lim mudiri,
p.f.f.d, katta ilmiy xodim.

Annotatsiya. Maqolada barkamol avlodni **t**arbiyalash, ularga milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish va milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unligi masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, uyg‘unlikning pedagogik ahamiyati va yosh avlodning ma’naviy barkamolligi uni millat va insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan barkamol shaxs sifatida shakllantirishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Insoniyat, barkamol shaxs, qadriyat, uyg‘unlik, milliy tarbiya, ma’naviyat, jamiyat, tendensiya.

Abstract. This article is devoted to the issues of educating a well-rounded generation, fostering in them the preservation of national values and respect for universal human values, as well as the harmony between national and universal values. It also substantiates the pedagogical significance of this harmony and explains how the spiritual maturity of the younger generation contributes to their formation as well-rounded individuals who serve the interests of both the nation and humanity.

Keywords: humanity, well-rounded individual, value, harmony, national education, spirituality, society, tendency.

Biz bilamizki, tarbiya – shaxsning ma’naviy, axloqiy va intellektual kamolotiga qaratilgan murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Uning samaradorligi, avvalo, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalarni uyg‘un tarzda tatbiq etilishiga bog‘liq. Zero, tarbiya jamiyatning ma’naviy asoslarini saqlab qolish bilan birga, global taraqqiyot tendensiyalariga ham moslashishi zarur.

O‘zbek pedagogikasida tarbiya milliy meros va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllantiriladi. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ma’rifatparvarlar inson tarbiyasini millat kelajagining asosiy omili sifatida ko‘rsatganlar. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: *«Axloqsiz millat yo‘qolishga mahkumdir»*

deya ta’kidlaydi. Zamonaviy olimlar ham milliy qadriyatlarning tarbiyadagi o‘rniga e’tibor qaratadilar. Masalan, N. To‘xliev fikricha, milliy urf-odatlar, ma’naviy meros va an’analar tarbiya jarayonida yoshlarda vatanparvarlik, insof, mehr-shafqat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Tarbiyaning nazariy asoslarida umuminsoniy qadriyatlar – erkinlik, tenglik, adolat, insonparvarlik va demokratik tamoyillar markaziy o‘rin tutadi. J. Dyui ta’lim va tarbiyaning vazifasi sifatida yosh avlodda jamiyatga moslashish va erkin fikrlay olish qobiliyatini ko‘rsatgan. E. Dyurkgeym esa tarbiyani “jamiyatning o‘z ma’naviy qadriyatlarini yangi avlod ongiga singdirish jarayoni” sifatida ta’riflaydi. Bu esa tarbiyaning umuminsoniy mohiyatini namoyon qiladi. SNG olimlari ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Yoshlar tarbiyasida milliy merosni asrab-avaylash bilan birga, insoniyat uchun umumiy bo‘lgan ezgu g‘oyalarni ham singdirish zarurligini ta’kidlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida tarbiya tizimida milliy qadriyatlarni saqlash va umuminsoniy g‘oyalarni o‘zlashtirish o‘zaro uyg‘un jarayon sifatida qaraladi. Milliy qadriyatlar shaxsning madaniy-ma’naviy o‘zligini saqlab qolsa, umuminsoniy g‘oyalar uni jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashga yo‘naltiradi.

Demak, tarbiya milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali samarali natija beradi. Uyg‘unlikning pedagogik ahamiyati shundaki, u yosh avlodning ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi, uni millat va insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy yo‘nalish o‘zining ustuvor ahamiyati bilan ajralib turadi. Zero, ma’naviy-axloqiy barkamollik shaxsning jamiyatda munosib o‘rin topishi, ijtimoiy munosabatlarda adolat, insof va mas’uliyat kabi qadriyatlarni namoyon etishi uchun asos hisoblanadi. Ma’naviy tarbiyaning maqsad va vazifalarini belgilash pedagogika nazariyasi va amaliyotida muhim masalalardan biri sanaladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy me’yorlarga amal qilish, ezgulik va adolatga intilish, vatanparvarlik, insonparvarlik va ma’naviy barkamollik fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

O‘zbek olimlari, xususan A. Abdullaev ta’kidlaganidek, ma’naviy tarbiyaning bosh maqsadi – shaxs ongiga ma’naviy xavfsizlikni ta’minlaydigan qadriyatlarni singdirishdir. G‘arb pedagogikasi va falsafasida esa ma’naviy tarbiyaning maqsadi ko‘proq shaxsning individual etikasi va ijtimoiy mas’uliyatini uyg‘unlashtirish bilan izohlanadi. Masalan, I. Kant axloqning maqsadini insonda “ijtimoiy burch va

ichki vijdon uyg‘unligi”da ko‘radi. V.A. Suxomlinskiy esa tarbiya maqsadini “yoshlarning qalbiga ezgulik va insoniylik ruhini joylash” sifatida talqin qiladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– axloqiy ongni shakllantirish – yoshlarda ezgulik, adolat, insof va vijdon kabi tushunchalarning ma’naviy qiymatini anglatish;

– milliy qadriyatlarni singdirish – xalq ma’naviy merosi, urf-odat va an’analarini tarbiya jarayonida samarali qo‘llash;

– umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatish – tinchlik, insonparvarlik, tenglik, erkinlik va demokratik tamoyillarga sodiqlikni shakllantirish;

– ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish – jamiyat va davlat oldidagi burch, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda mas’uliyatli bo‘lishni tarbiyalash;

– ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish – yoshlar hayotida halollik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, sog‘lom turmush tarzini amalga oshirish;

– ma’naviy immunitetni shakllantirish – yot g‘oyalar, ma’naviy tahdid va turli illatlarga qarshi bardoshlilikni ta’minlash;

– hamkorlik va bag‘rikenglik ruhini kuchaytirish – turli millat va din vakillari bilan muloqotda hamjihatlik va hurmat ko‘rsata olish qobiliyatini tarbiyalash.

Shunday qilib, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsning ma’naviy yuksalishini ta’minlash bo‘lsa, uning vazifalari yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un singdirish, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy madaniyatni kuchaytirishdan iboratdir. Mazkur maqsad va vazifalar amalga oshirilgandagina jamiyat ma’naviy barqarorlikka erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Turon, 1913. – 154 b. – B. 27.

2. To‘xliev N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 210 b. – B. 102.

3. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 430 p. – P. 84.

4. Durkheim, E. Education and Sociology. – New York: The Free Press, 1956. – 192 p. – P. 73.

Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Радянська школа, 1981. – 380 с. – С. 112.

5. Abdullaev A. Tarbiya va ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 120 b. – B. 59.

6. Kant, I. Grundlegung zur Metaphysik der Sitten. – Riga: Johann Friedrich Hartknoch, 1785. – 112 p. – P. 44.

MA’RIFATPARVAR PEDAGOG ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARIDA YOSH AVLOD TA’LIM-TARBIYASINING ASOSIY JIHATLARI

Abdug‘aniyev Ozod TURSUNBOY O‘G‘LI,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti Ilmiy kotibi p.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari asosida yosh avlod ta’lim-tarbiyasining asosiy jihatlari tahlil qilingan. Unda mutafakkirning inson kamoloti, axloqiy tarbiya, ilm-ma’rifat, vatanparvarlik, milliy ong va ma’naviy poklikka oid g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi asarlarida ifodalangan ta’limiy va tarbiyaviy g‘oyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maqolada Avloniy merosining bugungi ta’lim tizimida yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash, ma’naviy barkamollik va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijasida uning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim-tarbiya mazmunini boyituvchi muhim manba ekani haqida xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, ma’rifatparvarlik, pedagogik qarashlar, yosh avlod, maktab, o‘qituvchi, oila tarbiyasi, ijtimoiy muhit, didaktik g‘oyalar, milliy uyg‘onish, tarbiya tizimi, pedagogik meros.

Abstract. This article analyzes the key aspects of educating the younger generation based on the pedagogical views of Abdulla Avloniy. It highlights the thinker’s ideas on human development, moral education, enlightenment, patriotism, national consciousness, and spiritual purity. In addition, the essence and content of the educational and moral concepts expressed in his works such as *“Turkiy Guliston yoxud axloq”* (Turkic Gulistan or Ethics), *“Birinchi muallim”* (The First Teacher), and *“Ikkinchi muallim”* (The Second Teacher) are раскрыты. The article also substantiates the importance of Avloniy’s legacy in today’s education system in fostering respect for national values, independent thinking, spiritual maturity, and moral responsibility among young people. As a result of the study, it is concluded that his pedagogical views represent an important source for enriching the content of modern education and upbringing.

Keywords: Abdulla Avloniy, enlightenment, pedagogical views, younger generation, school, teacher, family upbringing, social environment, didactic ideas, national awakening, educational system, pedagogical heritage.

Jahonda globallashuv jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi, turli g‘oyaviy ta’sirlar va ma’naviy tahdidlar avj olayotgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonini nafaqat bilim berish mexanizmi, balki shaxsni ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan kamol toptiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shunday sharoitda o‘zbek milliy pedagogikasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan ma’rifatparvar allomalar merosini o‘rganish, ayniqsa, ularning yoshlar tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday buyuk siymolardan biri Abdulla Avloniydir. U nafaqat shoir, adib, dramaturg va jamoat arbobi, balki o‘z davrining yetuk pedagog-mutafakkiri sifatida ham milliy ta’lim taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Avloniyning pedagogik faoliyati va nazariy qarashlari Turkistonda yangi usul maktablarining shakllanishi, milliy uyg‘onish g‘oyalarining kengayishi, xalqni ilm-ma’rifatga chorlash va jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish bilan uzviy bog‘liqdir. U ta’lim va tarbiyani millat hayoti, xalq kelajagi va Vatan taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida baholagan. Abdulla Avloniy ijodida ta’lim-tarbiya masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Uning asarlarida insonning ma’naviy qiyofasi, axloqiy fazilatlari, ilmga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va burchi, Vatan oldidagi mas’uliyati kabi masalalar chuqur yoritilgan. Muallif ta’limni aqliy rivojlanish vositasi, tarbiyani esa shaxsning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin etadi. Bu qarash orqali mutafakkir tarbiyani shaxsiy masala darajasidan olib chiqib, uni ijtimoiy, milliy va umuminsoniy taraqqiyotning hal qiluvchi mezoni sifatida ko‘radi. Demak, Avloniy nazariyasida yosh avlod tarbiyasi – bu oddiy pedagogik faoliyat emas, balki millat kelajagini belgilaydigan strategik vazifadir.

Abdulla Avloniy yosh avlod tarbiyasida, avvalo, axloqiy poklik, odob, halollik, mehnatsevarlik, vijdon, insof, sabr-toqat, ilmga intilish, Vatanga muhabbat, millatga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishni muhim deb hisoblaydi. U bola shaxsini shakllantirishda oila muhiti, maktab tarbiyasi, o‘qituvchi mahorati va ijtimoiy muhit ta’sirini bir butun holatda ko‘radi. Uning fikricha, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, millat taraqqiy etadi; agar unga yetarli e’tibor berilmasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi. Shu nuqtai nazardan, Avloniyning pedagogik merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Hozirgi

kunda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, axloqiy barqarorlikni ta’minlash, bilim va kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirish kabi vazifalar ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor masalalardandir. Bu jarayonda milliy pedagogik meros, xususan, Abdulla Avloniyning ta’limiy-tarbiyaviy qarashlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, mutafakkirning g‘oyalarida zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, milliy o‘zlikni anglash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kabi zamonaviy pedagogikaning ko‘plab muhim jihatlari ildiz holatida mujassam. Shu bilan birga, Abdulla Avloniyning o‘qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. U muallimni shunchaki dars beruvchi emas, balki jamiyatni ma’rifatga yetaklovchi, yosh qalblarga ezgulik, ilm va odob urug‘ini qadaydigan ma’naviy rahnamo sifatida tasavvur qiladi. Bu qarash bugungi kunda pedagog kasbining ijtimoiy maqomi va ma’naviy mas’uliyatini anglashda ham muhim metodologik asos bo‘la oladi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida yosh avlod ta’lim-tarbiyasining asosiy jihatlarini tahlil qilish, uning ta’limiy-tarbiyaviy g‘oyalarining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimi uchun ahamiyatini asoslashdan iborat. Shu maqsadda Avloniy asarlarida ilgari surilgan axloqiy, ma’naviy, didaktik va ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar o‘rganilib, ularning bugungi pedagogik amaliyot bilan uyg‘un jihatlari yoritiladi. Maqolaning dolzarbligi, bir tomondan, milliy pedagogik merosni qayta anglash va ilmiy muomalaga chuqurroq kiritish zarurati bilan, ikkinchi tomondan, yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda tarixiy tajribadan samarali foydalanish ehtiyoji bilan belgilanadi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari ana shu jihatdan milliy ta’lim taraqqiyotining ilmiy-nazariy poydevorlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyoti, millat kelajagi va davlat barqarorligi, eng avvalo, barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ma’nan yetuk va intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yosh avlod tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: *“Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”*. Ushbu fikrlar yoshlar tarbiyasi masalasi bugungi

kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’lim-tarbiya masalasini eng dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etib, Sharq donishmandlarining quyidagi hikmatini keltiradi: *“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.”* Bu fikrlarda ilm va tarbiyaning inson hayotidagi o‘rni, jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi ahamiyati chuqur ifodalangan.

Davlat rahbarining o‘z ma’ruza va nutqlarida buyuk jadid ma’rifatparvar, muallim, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy siymosiga alohida to‘xtalib o‘tishi ham bejiz emas. Ayniqsa, Avloniyning *“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”* degan mashhur fikri bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini aslo yo‘qotmagan. Mazkur hikmat tarbiyani shaxsiy emas, balki milliy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida talqin etadi. Shu ma’noda, Abdulla Avloniyning hayoti, ijodi va amaliy faoliyatini o‘rganish bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Abdulla Avloniy o‘zbek milliy madaniyati va ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyondalaridan biri sifatida 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrida to‘quvchi oilasida tavallud topgan. U boshlang‘ich ta’limni an’anaviy diniy maktab va madrasada olgan bo‘lsa-da, erta yoshdan ilm-fanga, adabiyotga va ma’rifatga kuchli qiziqish bildirgan. O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini mehr bilan o‘rgangan Avloniy 14 yoshidan she’r yozishga kirishadi. Uning dastlabki she’riy mashqlari o‘sha davr matbuotida e’lon qilinib, uning ijodiy iqtidori shakllana boshlaganini ko‘rsatadi.

Abdulla Avloniy faqat ijodkor emas, balki xalqni ilm-ma’rifatga chorlashni o‘zining hayotiy burchi deb bilgan fidoyi pedagog ham edi. U Turkiston xalqlari ongida ilmga muhabbat, ma’rifatga intilish, taraqqiyotga ishonch tuyg‘usini qaror toptirishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadiga aylantirdi. Shu maqsadda u 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usuldagi maktab ochadi. Bu maktab nafaqat ta’lim berish, balki tarbiya va ma’rifat tarqatish markazi sifatida ham ahamiyat kasb etgan.

Avloniy tashkil etgan maktab o‘z davri uchun yangi tipdagi ta’lim muassasasi sifatida ajralib turgan. U o‘quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yozuv taxtasi, parta va boshqa o‘quv jihozlarini shaxsan o‘zi tayyorlashga va takomillashtirishga harakat qilgan. Bu esa uning pedagogik faoliyatga shunchaki nazariy emas, balki amaliy yondashganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maktab o‘quvchilarining aksariyati kam ta’minlangan oilalar farzandlari bo‘lgani uchun,

Avloniy ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida saxovatpesha insonlar ko‘magida **“Jamiyati xayriya”** tashkilotini tuzadi. Ushbu jamiyat orqali o‘quvchilarni bepul kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar va qalam bilan ta’minlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu holat ma’rifatparvar pedagogning faqat ta’lim emas, balki ijtimoiy himoya va insoniy g‘amxo‘rlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratganini anglatadi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida yosh avlod tarbiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. U ta’limni inson aqliy kamoloti vositasi, tarbiyani esa shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida baholaydi. Uning asarlarida ilmga muhabbat, odob-axloq, Vatanga sadoqat, millatga xizmat, mehnatsevarlik, insof, vijdon, sabr, matonat va insonparvarlik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasining muhim mezonlari sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan qaralganda, Avloniyning pedagogik merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kunda ham katta tarbiyaviy va metodologik qiymatga egadir. Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida yosh avlod ta’lim-tarbiyasining asosiy jihatlari tahlil qilinib, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, axloqiy-tarbiyaviy qarashlari hamda bugungi ta’lim tizimi uchun ahamiyati yoritiladi.



Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” (“Alifbe”) va “Ikkinchi muallim” (“O‘qish”) kitoblari bolalar ta’lim-tarbiyasida muhim o‘rin tutgan asarlar hisoblanadi. Ushbu darsliklar orqali mutafakkir o‘zbek pedagogik tafakkurida yangi bosqichni boshlab berdi, milliy ta’lim mazmuniga ma’rifiy, axloqiy va amaliy yo‘nalish olib kirdi. Mazkur kitoblarda Avloniy milliy adabiyotimiz va pedagogik merosimizning eng yaxshi an’analarini davom ettirgan holda ilm va ma’rifatning ahamiyatini zamon talablari asosida yangicha talqin qildi. “Birinchi muallim” asari, avvalo, bolalarni savod chiqarishga o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, unda arab alifbosidagi 32 harfning yolg‘iz shakllari alifbo tartibida berilgan. Shu bilan birga, harflarning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida kelishiga qarab yozilish shakllari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif harflarni alohida tanishtirish bilan cheklanib qolmay, ularni bir-biriga qo‘shish orqali bo‘g‘inlar va so‘zlar hosil qilish usulidan foydalanadi. Bu esa bolalarning savod o‘rganish jarayonini yengillashtirish, ularning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich

shakllantirishga xizmat qilgan. Demak, “Birinchi muallim” nafaqat alifbeni o‘rgatuvchi kitob, balki bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dastlabki didaktik qo‘llanma sifatida ham ahamiyatlidir.

Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari esa bolalarning nafaqat o‘qish malakasini mustahkamlash, balki ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Asarda odob-axloq, halollik, poklik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, insonparvarlik kabi tushunchalarga doir she’rlar, hikoyalar, masallar va ertaklar jamlangan. Muallif o‘quvchilar qiziqishini oshirish maqsadida turli badiiy va allegorik obrazlardan mahorat bilan foydalangan. Bu esa asarning nafaqat tarbiyaviy, balki badiiy-estetik qimmatini ham belgilaydi.

Asarning “Maktab” she’ri bilan boshlanishi ham bejiz emas. Chunki muallif maktabni inson kamoloti, ma’rifat va saodat manbai sifatida talqin etadi. She’rda shunday misralar keltirilgan:

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!
Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,
Maktab g‘ami vayron qilur,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Ushbu she’r mazmunidan anglashiladiki, Avloniy maktabni shunchaki bilim beradigan muassasa emas, balki insonni jaholatdan qutqaruvchi, uni komillikka yetaklovchi ma’naviy maskan sifatida baholaydi. Uning qarashicha, maktabda olingan bilim insonning kelajagiga yo‘l ochadi, uni jamiyatda munosib o‘rin egallashga, ezgu va xayrli ishlarga qodir shaxs bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. Shu jihatdan, “Maktab” she’rida nafaqat ta’lim ahamiyati, balki uning chuqur tarbiyaviy mohiyati ham yorqin ifoda etilgan.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari esa uning ijtimoiy va axloqiy qarashlarini mujassam etgan eng muhim asarlardan biridir. Mutafakkir mazkur asarni maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari, shuningdek, axloq va adabiyot ixlosmandlari uchun taqdim etganini ta’kidlaydi. Asarning so‘zboshisida keltirilgan she’riy parchalar muallifning millat taqdiri, jamiyat ahvoli va yoshlar tarbiyasi uchun qalban iztirob chekkanini ko‘rsatadi:

Har kun o‘luram shomg‘acha men g‘amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,
Men xastayamu millatim o‘lmish nega bemor.

Ushbu misralarda Avloniyning shaxsiy dardi emas, balki millatning ma’naviy holati, uning jaholat, ilmsizlik va orqada qolishdan aziyat chekayotganiga nisbatan chuqur iztirobi aks etgan. Shu boisdan ham muallif asarda har bir bo‘limni ta’lim-tarbiyaning muayyan bir muhim masalasiga bag‘ishlaydi. Bo‘limlar mazmunan bir-birini to‘ldirib boradi, ularda ibratli hikoyalar, hayotiy misollar, she’riy parchalar va hikmatli so‘zlar orqali o‘quvchi ongiga tarbiyaviy g‘oyalar singdiriladi. Bu esa asarning tuzilishida izchillik va didaktik maqsad aniq ko‘zlanganini ko‘rsatadi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keng foydalanilgani ham diqqatga sazovor. Zero, xalq hikmati, maqollar, ibratli rivoyat va qissalar axloqiy tarbiyaning ta’sirchan vositasi sifatida xizmat qilgan. Bu orqali Avloniy milliy ruh, milliy tafakkur va xalq pedagogikasi an’analarini yangi ma’rifiy mazmun bilan boyitgan. Asarda ilm tushunchasiga berilgan ta’rif ham alohida ahamiyatga ega. Avloniy ilmni faqat o‘qish va yozishni bilish bilan cheklamaydi, balki inson uchun zarur bo‘lgan barcha kerakli narsalarni o‘rganish, hayot haqiqatlarini anglash, o‘zini va olamni idrok etish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofati, inson uchun eng oliy va muqaddas fazilatdir. Ilm insonga o‘z ahvolini anglatadi, fikrini o‘tkirlashtiradi, yaxshini yomondan, halolni haromdan, tozani nopokdan ajratishga yordam beradi. Shu ma’noda ilm insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi va uning dunyo hamda oxirat saodatiga xizmat qiladi.

Avloniy ilmsiz insonni mevasiz daraxtga qiyoslaydi. Bu qiyos orqali u ilmsizlikning shaxs va jamiyat hayotida qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini ta’sirchan tarzda ifoda etadi. Uning ta’kidlashicha, ilmsiz kishi nafaqat jamiyatga, balki ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, do‘st-yorlariga, dini va millatiga ham manfaat yetkaza olmaydi. Hatto o‘z zimmasidagi oddiy burch va vazifalarni ham munosib darajada bajara olmaydi. Shu boisdan, ilm inson hayotining barcha sohalari - salomatlik, saodat, sarvat, maishat, g‘ayrat, himmat va kamolot bilan chambarchas bog‘liq deb talqin etiladi.

Abdulla Avloniy ilmning insonni jaholat qorong‘ulig‘idan qutqarib, madaniyat, insoniyat va ma’rifat olamiga olib chiqishini alohida urg‘u bilan ta’kidlaydi. Shuningdek, ilm insonni yomon xulq va nopok ishlardan qaytarib, yaxshi odob va yuksak axloq sohibi etishini qayd etadi. Demak, mutafakkir qarashida ilm va axloq bir-biriga zid emas, aksincha, o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Bu esa uning pedagogik qarashlarida ta’lim va tarbiyaning uzviy birligiga tayanilganini ko‘rsatadi. Abdulla Avloniy yoshlarni ilm-ma’rifatga chorlashda diniy-ma’rifiy manbalarga ham murojaat qiladi. Jumladan, u Payg‘ambarimiz hadislaridan iqtibos keltirib, ilmga amal qilish, uni hayotda tatbiq etish zarurligini uqtiradi. Bu orqali yosh avlodni faqat nazariy bilim

olishga emas, balki uni ezgu amal bilan boyitishga chaqirgan. Mutafakkirning bu fikrlari bugungi kunda ham o‘ta dolzarb bo‘lib, ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy fazilatlar uyg‘unligini ta’minlash zarurligini anglatadi.

Abdulla Avloniyning millat, til va ma’naviyat haqidagi qarashlari ham uning ma’rifatparvarlik faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham Avloniyning bu boradagi fikrlariga alohida urg‘u berib, quyidagi hikmatni keltirgan edi: *“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur.”* Mazkur fikrdan ko‘rinib turibdiki, Avloniy millat taqdirini uning tili, adabiyoti, ma’naviyati va ma’rifati bilan uzviy bog‘liq holda tushungan. Shu boisdan ham u nafaqat muallim va adib, balki millat istiqboli uchun kurashgan fidoyi ma’rifatparvar sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” va “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlari yosh avlod ta’lim-tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarini belgilab bergan muhim manbalardir. Ularda savod o‘rgatish, axloqiy tarbiya, ilmga muhabbat, maktabning o‘rni, millat va til qadri, inson kamoloti kabi masalalar yaxlit pedagogik tizim sifatida ifodalangan. Shu jihatdan, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi bugungi kunda ham milliy ta’lim tizimini ma’naviy-axloqiy mazmunda boyitishga xizmat qiluvchi muhim manba bo‘lib qolmoqda.

Buyuk ma’rifatparvar pedagog, jamoat arbobi va shoir Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya, ayniqsa, bolalar tarbiyasi sohasiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Uning pedagogik merosi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham yosh avlodni ma’nan yetuk, axloqan barkamol, bilimli va vatanparvar inson etib tarbiyalashda muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Zero, har qanday davrda ham yosh avlod tarbiyasi millatning ertangi kuni, jamiyat taraqqiyoti va mamlakat istiqbolini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy o‘z asarlarida bolalarning xulqi, odobi, so‘zlashuv madaniyati, intizomi, ma’naviy dunyosi va axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. U inson kamolotida axloq va tarbiyani eng muhim mezon sifatida baholab, ularni shaxsga sharaf, yuksak maqom va ma’naviy qadr bag‘ishlovchi omillar sifatida talqin etgan. Mutafakkirning mazkur qarashlari uning ilmiy-pedagogik asarlari orqali yoshlar ongiga chuqur singdirilgan. Shu jihatdan, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi yosh avlodning ichki ruhiy olamini boyitish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloq, ilmga intilish va komil inson fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, mutafakkirning ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan holda, zamonaviy ta’lim tizimini mazmunan boyitishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq so‘zi.:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 25 yanvar №-19 son
2. Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.T.: O‘zbekiston-2016. 16-b
3. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.:Ma’naviyat 2008-y. 52-bet
4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud ahloq”.T.1917. to‘ldirilgan nashr. 2 bet
5. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud ahloq”.T.1917. to‘ldirilgan nashr. 11 bet

JADID PEDAGOGIKASI VA BUGUNGI TA’LIM: MILLIY QADRIYATLAR VA INNOVATSIYALAR KO‘PRIGI

Sattarov Akmaljon IBROXIMOVICH,,
Qo‘qon universiteti pedagogika va
psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent.
asattarov79@gmail.com

Annotatsiya. Jadidlar yaratgan milliy pedagogik maktab bugungi kunda biz intilayotgan “Uchinchi Renessans”ning asosi hisoblanadi. Jahon sivilizatsiyasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ta’lim tizimi va uning sifati muhim o‘rin tutishini ko‘ramiz. Ayniqsa, milliy uyg‘onish davrlarida ta’lim islohotlari jamiyatni yangilashning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Yigirmanchi asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqiroz sharoitida jadidchilik harakati ana shunday tarixiy zarurat mahsuli sifatida maydonga chiqdi. Jadidchilik faqat ma’rifiy harakat emas, balki kompleks ijtimoiy-modernizatsiya loyihasi bo‘lib, uning markazida inson kapitalini rivojlantirish g‘oyasi turardi. Eski maktab va madrasalardagi sxolastik ta’lim tizimi zamonaviy ehtiyojlarga javob bermay qolgan bir paytda, jadidlar yangi pedagogik yondashuvni ilgari surdilar. Bu yondashuvning bosh maqsadi - savodli, tafakkurli, dunyoqarashi keng va milliy o‘zligini anglagan shaxsni tarbiyalash edi. In this process, Jadid pedagogy occupies a special place. The views of the founders of Jadid pedagogy provided a strong impetus for the renewal of the education system throughout the Turkestan region.

Kalit so‘zlar: jadid pedagogikasi, ma’rifatparvar, zamonaviy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, talaba shaxsi, milliy qadriyatlar, pedagogik meros.

Abstract. The national pedagogical school created by the Jadids is considered today as a foundation of the “Third Renaissance” that we aspire to achieve.

Analyzing the history of world civilization, it becomes evident that the education system and its quality play a crucial role in the development of any society. Particularly during periods of national awakening, educational reforms have served as a primary instrument for societal transformation. In the early twentieth century, under conditions of socio-political and cultural crisis in the Turkestan region, the Jadid movement emerged as a response to historical necessity. Jadidism was not merely an enlightenment movement but a comprehensive socio-modernization project centered on the development of human capital. At a time when the scholastic education system in traditional maktabs and madrasas failed to meet modern demands, the Jadids introduced a new pedagogical approach. The primary goal of this approach was to educate individuals who are literate, intellectually capable, broad-minded, and conscious of their national identity. In this process, Ismail Gasprinsky played a pivotal role. His pedagogical ideas significantly contributed to the transformation of the education system not only in Crimea but across the entire Turkestan region.

Keywords: Jadid pedagogy, enlightenment movement, modern education, spiritual and moral education, student personality development, national values, pedagogical heritage.

Ta’lim tizimi har bir jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tarix davomida turli xalqlar o‘zining madaniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta’limning turli modellarini shakllantirib kelgan. Markaziy Osiyo hududida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati ana shunday muhim pedagogik va ma’rifiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Barchamizga ayonki, **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar” degan fikrlarida to‘g‘ri ta’kidlagan [1].

Jadid mutafakkirlaridan Ismoil Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy ta’lim sohasida muhim g‘oyalarni ilgari surganlar. Ularning pedagogik qarashlarida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, milliy ongni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari muhim o‘rin egallaydi [2].

Ta’lim tizimi har qanday jamiyat taraqqiyotining strategik omili hisoblanadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy yangilanish va modernizatsiya jarayonlari, avvalo, ta’lim sohasidagi tub o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. XIX

asr oxiriga kelib Turkiston hududida mavjud ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolgan edi. An’anaviy maktab va madrasalarda asosan diniy bilimlarga urg‘u berilib, mantiqiy fikrlash, tabiiy fanlar va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan edi. Ana shunday sharoitda jadidchilik harakati tarix sahnasiga chiqdi. Jadidlar jamiyatni isloh qilishning eng muhim yo‘li sifatida ta’limni modernizatsiya qilishni tanladilar. Bu harakatning nazariy asoslari va amaliy dasturi ko‘p jihatdan Ismoil Gaspirali faoliyati bilan bog‘liqdir. Uning pedagogik qarashlari milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni egallash zarurligini asoslab berdi. Jadidchilikni faqat pedagogik hodisa sifatida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-madaniy uyg‘onish jarayoni sifatida baholash lozim. Bu harakat milliy ong, madaniyat, til va tafakkurning yangilanishiga xizmat qildi.

Jadid pedagogikasining yana bir muhim jihati-ta’lim jarayonida faol metodlardan foydalanishdir. Jadidlar an’anaviy yodlashga asoslangan ta’lim tizimidan voz kechib, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga intilganlar. Ular ko‘rgazmali ta’lim vositalari, yangi darsliklar va qo‘llanmalar yaratish, teatr va sahnalashtirish elementlarini ta’lim jarayoniga kiritish orqali interaktiv o‘qitish usullarini joriy etganlar.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Sun’iy intellektning rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi hamda ijtimoiy jarayonlarning tezlashuvi yosh avlodni yangi sharoitlarga moslashuvchan qilib tarbiyalashni talab etmoqda. Shu bilan birga, milliy o‘zlikni saqlab qolish, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish va yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish ham muhim vazifalardan biridir.

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Qizig‘i shundaki, ushbu yondashuvlarning aksariyati jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda zamonaviy pedagogika nazariyalarida qayta namoyon bo‘layotganini ko‘rish mumkin.

Masalan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi o‘quvchining individual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, jadid pedagogikasida ham o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy kamolotiga katta e’tibor berilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv talabalarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu g‘oya jadid mutafakkirlarining ta’limga bo‘lgan qarashlari bilan hamohangdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham milliy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy

kompetensiyasini oshirish, talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi vazifalar jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jadid pedagogikasi nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim metodologik asos bo‘la oladi. Uning asosiy g‘oyalari - ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy mas’uliyat - bugungi ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jadid pedagogikasining asosiy g‘oyalari Ismoil Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi mutafakkirlarning asarlarida keng yoritilgan. Xususan, Ismoil Gaspiralining ta’lim tizimini yangilash g‘oyasini ilgari surib, yangi usul maktablarini tashkil etish orqali ta’lim jarayoniga fonetik o‘qitish metodini joriy etgan. Uning “Usul-i jadid” deb nomlangan pedagogik konsepsiyasi o‘sha davr ta’lim tizimi uchun katta yangilik bo‘lgan [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining pedagogik faoliyatida ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan. U maktablarni modernizatsiya qilish, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish hamda o‘qituvchilarni tayyorlash masalalariga katta e’tibor qaratgan. Behbudiy ta’lim orqali millatni uyg‘otish, ijtimoiy ongni rivojlantirish va milliy taraqqiyotga erishish mumkinligini ta’kidlagan.

Abdulla Avloniy jadid pedagogikasining eng muhim nazariy asoslarini ishlab chiqqan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek pedagogik tafakkurining muhim manbalaridan biridir. Ushbu asarda axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ta’limning ma’naviy ahamiyati haqida chuqur fikrlar bayon qilingan [4, 10]. Avloniy ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy namunasi, o‘quvchining mustaqil fikrlashi hamda ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligini alohida ta’kidlagan [5, 11].

Munavvarqori Abdurashidxonov ham jadid pedagogikasining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. U yangi maktablar tashkil etish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish hamda yosh avlodni ma’rifatli qilib tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning pedagogik qarashlarida ta’limning milliy ruhda olib borilishi, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish hamda ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi.

Zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida ham jadid pedagogikasining dolzarbligi qayd etilmoqda. Ko‘plab olimlar jadid pedagogikasini zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan qiyoslab o‘rganishmoqda. Masalan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlardan foydalanish kabi zamonaviy pedagogik tamoyillar jadid pedagogikasining asosiy g‘oyalari bilan uyg‘un ekanligi ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanmoqda.

Pedagogika sohasidagi zamonaviy ilmiy ishlarda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Bu borada R. Mavlonova, N. Xoldorov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, ta’lim jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda ijodiy yondashuvni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir [6].

Shuningdek, xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlarda ham ta’lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanmoqda. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim strategiyalarida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish hamda madaniy merosni saqlash masalalari muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bu jihatdan qaraganda, jadid pedagogikasi zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi. Jadid mutafakkirlarining pedagogik merosi milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda talabalarning asosiy qismi jadid mutafakkirlari haqida umumiy ma’lumotga ega ekanligini ma’lum. Demak, biz jadid mutafakkirlari haqida umumiy ma’lumot berishdan qochib, ularning har biri to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etishimiz zarur bo‘ladi. Jadid pedagogikasi haqida talabalarga berilayotgan ma’lumotlarni pedagogika va ijtimoiy fanlar darslarida kengroq yoritishimiz lozim bo‘ladi. Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari zamonaviy ta’lim metodlari bilan ko‘plab umumiy jihatlarga ega. Masalan, jadid pedagogikasida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda amaliy bilimlarga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Jumladan: interfaol ta’lim metodlari; muammoli o‘qitish; loyiha asosida o‘qitish; kompetensiyaviy yondashuv.

Agar dars mashg‘ulotlarda talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini tahlil qilib, har bir guruh ma’lum bir mutafakkirning pedagogik g‘oyalarini o‘rganib, taqdimot tayyorlab, taqdim etsa, talabalarda jadid mutafakkirlari haqida bilimlar yanada oshadi, ya’ni quyidagicha: talabalar o‘rtasida muhokama madaniyati rivojlandi; mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi; tarixiy manbalarga qiziqish ortdi.

Bundan tashqari, sahnalashtirish usuli orqali jadid maktablaridagi ta’lim jarayoni tasvirlanib, taqdim etilsa ham talabalarga tarixiy pedagogik tajribani chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi jadid mutafakkirlari ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamasdan, shaxsni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rganlar. Milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jadid pedagogikasida milliy madaniyat va an’analarni saqlash muhim o‘rin egallaydi.

Ilm-fan va zamonaviy bilimlarga intilish Jadid mutafakkirlari yosh avlodni zamonaviy fan yutuqlarini o‘rganishga undaganlar. O‘qituvchining shaxsiy namunasi Jadid pedagogikasida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ma’naviy yetakchi sifatida qaraladi. Mazkur jihatlar zamonaviy ta’lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimi bilan ko‘plab umumiy jihatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa jadid pedagogik merosidan bugungi ta’lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Avvalo, jadid mutafakkirlarining ta’limga bo‘lgan yondashuvi zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlashadi. Masalan, jadid pedagogikasida o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Jadvalda taqqoslab ko‘rilgan holati:

Jadid pedagogikasi	Zamonaviy ta’lim
Mustaqil fikrlashni rivojlantirish	Tanqidiy fikrlashni shakllantirish
Axloqiy tarbiya	Qadriyatlarga asoslangan ta’lim
Amaliy bilim berish	Kompetensiyaga asoslangan ta’lim
Milliy qadriyatlarga tayanish	Madaniy ta’lim va madaniyatlararo yondashuv

Jadid pedagogikasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli jadid pedagogikasining ma’naviy tarbiyaga oid g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Jadid pedagogikasida ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan. Jadid maktablarida yangi o‘qitish metodlari qo‘llanilgan bo‘lib, bu o‘sha davr uchun katta yangilik hisoblangan. Zamonaviy ta’lim tizimida ham innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin egallaydi[8].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari jadid pedagogikasini zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etishda ayrim muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, talabalarning jadid mutafakkirlari haqidagi bilim darajasi yetarli emasligi kuzatildi. Bu esa mazkur mavzuni ta’lim dasturlarida kengroq yoritish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda jadid pedagogikasi bugungu milliy pedagogikamizning muhim poydevori bo‘lishi asos bo‘la oladi. Jadid mutafakkirlari ta’limni jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida baholaganlar. Ularning fikricha, xalqni taraqqiyotga olib chiqishning asosiy yo‘li - bu zamonaviy ilm-fanni o‘rganish, yosh avlodni ma’rifatli qilib tarbiyalash va ta’lim tizimini isloh qilishdan iboratdir. Jadid pedagogikasining asosiy g‘oyasi ham aynan shu tamoyillarga asoslanadi.

Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Masalan, jadid pedagogikasida o‘quvchining faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda amaliy bilimlarga e’tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimida ham aynan shu tamoyillar ustuvor hisoblanadi.

Jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashga qaratilgan. Ular ta’lim jarayonini nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash jarayoni sifatida ko‘rganlar. Bu jihat bugungi globallashuv davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy jamiyatda yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash zarur.

Shuningdek, jadid pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish, tarixiy-pedagogik merosni o‘quv jarayoniga tatbiq etish hamda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda jadid pedagogikasining g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023-yil, 11-dekabr.

2. Abdullayev Ro‘zimuxammad Akramjon o‘g‘li. Jadidchilik pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati. http://www.ferganamethod.uz/ , 42-47 bet.

3. Gaspirali I. Rus-Turk maktablari to‘g‘risida. Qrim: Simferopol nashriyoti, 1993.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. . Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2006.

5. Qosimov B. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti & Xurshid Davron. Adabiyot – oinayi millatdur.

6. Abdurashidxonov M. Maorif haqida. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1999.

7. Xoldorov N. Jadid pedagogikasi va zamonaviy ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviylik // Ta’lim va taraqqiyot ilmiy jurnali, 2017. – №3. – B.27-33.

8. Qurbonovich, M.U., Akramjon o‘g‘li A.R. (2023, June). Jadid pedagogikasi vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari // In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 129-135).

9. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2002.

10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2008.

11. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2018.

12. Abdullayev Ro‘zimuxammad Akramjon o‘g‘li. Jadid ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy asarlarining ma‘naviy-axloqiy tarbiyaviy ahamiyati // Pedagogs, 48(2), P.185-18

JADID PEDAGOGIKASIDA IS’HAQXON TO‘RA IBRATNING O‘RNI

Tursunova Namunaxon XAYDARALI QIZI,
Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrasi dotsent v.b
Mansurxo‘jayeva Gulchexraxon SAYDULLOXO‘JA QIZI,
Qo‘qon unversiteti FTO‘ 1-kurs talabasi

Anotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan qomusiy olim, pedagog, publitsist, tilshunos va ma’rifatparvar Is’haqxon to‘ra Ibratning jadid pedagogikasiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga doir qarashlari, yangi usul maktablari haqidagi fikrlari hamda pedagogik merosining ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, jadid pedagogikasi, Is’haqxon Ibrat, Is’haqxon Ibrat asarlari, yangi usul maktabi, ma’rifat, milliy uyg‘onish.

Abstract. This article analyzes the contribution of the encyclopedic scholar, educator, publicist, linguist, and enlightener Is’haqxon To‘ra Ibrat, who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries, to Jadid pedagogy. It also scientifically examines his views on reforming the education and upbringing system, his ideas about new-method schools, and the significance of his pedagogical heritage.

Keywords: Jadid pedagogy, Is’haqxon Ibrat, works of Is’haqxon Ibrat, new-method school.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat tarix sahnasiga ma’rifatparvar shaxslar – jadidlarni olib chiqdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulloxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Is’haqxon Ibrat kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o‘z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo‘lida sarflashga intildi, o‘rni kelganda mablag‘ni ham ayamadi. Ular orasida jadidchilik harakati vakili Is’haqxon Junaydullaxon o‘g‘li Ibratning alohida o‘rni bor. “Is’hoqxon to‘ra millatga manfaat yetishi mumkin bo‘lgan barcha ilmlarni pucta egalladi, ushbu sohalar bilan muntazam shug‘ullandi. Ma’rifatni targ‘ib qiluvchi she’rlar, zamonasining o‘tkir muammolariga doir publitsistik maqolalar yozdi”[1.5]

Ibrat 1907-yili “Turkiston viloyatining gazeti”da eski maktablar tarofdori Mulla Hasanxo‘ja eshon bilan keskin munozaraga oid maqolalari bilan chiqdi. Mulla Hasanxo‘ja domla eski maktablarni yengil-yelpi isloh qilish shiori bilan chiqadi, Ibrat esa maktablarni tubdan o‘zgartirish, ular o‘rnida zamon talablariga javob beradigan yangi maktablar ochish kerakligi tarafdori bo‘ladi. Shu munosabat bilan Ibrat 1907-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov taklifiga binoan Toshkentga keladi, uning maktabidagi bitirish imtihonlarida qatnashadi va olgan taassurotlarini maqolada bayon qiladi. Shu bilan bir qatorda Ibrat eski maktablarda bolalarni vaqti ketayotganini qamchi va shovqin solib bir qancha muddat harf o‘rgatganni isloh qilib to‘g‘irlash kerak ammo o‘qiladigan kitoblar va eski domlalar ustida qancha muddat isloh qilinmasin, bu bekor ekanligini ta’kidlaydi. “…...o‘qilajak kitoblar—mazkur eski kitoblar, o‘qulajak domlalari-da –eski domlalari, maktablari-da eski hashorat uyalari bo‘lduqinda bu masalalar ming marotaba isloh etilsa-da bekor, behudadur.” [1. 163] Ibrat o‘zi ochgan yangi maktablar haqida ham gapirib o‘tadi. Bu maktab haqida o‘ziga qarashli o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktablarda ko‘ngli to‘lmayotganligiga achingani va Qozon tarafdan bitta muallim jalb qilib maktab ochib berganligini va u yerdagi bolalar qisqa muddat ichida kitob o‘qishgacha borganliklarni sinab o‘tganligi, tajribada o‘tganligi sababli yangi maktab usulida bolalarga tahsil berish zarurligi aytadi. Ibrat hattoki, bolalar Rossiya ilmini o‘rganishi majbur bo‘ladigan bo‘lsa, rus tilidan tahsil beradigan ustozlarni qoldirib bolalarga nafi tegadigan maktablar ochish kerakligini ta’kidlaydi. Ibratning bu maqolasi jadidchilik harakatining eng muhim publitsistik asarlarida biri bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Maqola shunchaki tanqid emas, balki xalqni uyg‘onishga chaqiriqdir. Ibrat vijdon va insof bilan mulohaza yuritib, eskirgan tizimdan voz kechishga undaydi.

Shuningdek, Is’haqxon Ibratning “Oyna” gazetasida 1994-yil 12-sonining 274-275-betlarida berilgan “Millatni kim isloh etar” maqolasida payg‘ambarlarning vorisi bo‘lgan olimlarning burchlari va vazifalari haqida so‘z yuritadi. Jumladan, ularning omma tarbiyasiga mas’ul ekanliklari, ma’rifat

targ‘ibiga e’tibor ko‘rsatishlari zarurligi ta’kidlanadi. “Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur” [1.164]

Ibrat millatni isloh qilish masalasi shunchaki orzu emas, balki hayot-mamot masalasi qilib qo‘yadi. U millatni botqoqdan olib chiquvchi jamiyatda ikki asosiy qatlami – Ulamolar (din peshvolari) va Boylar (sarmoyadorlar) mas’ul ekanligini ta’kidlaydi. Ibratning fikricha jamiyatni ma’naviy va moddiy ustunlari birlashmas ekan hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi. Ibrat ulamolarni eskirgan xurofatga aylangan qarashlardan voz kechib, islom dinining asl mohiyatini- ilm va tarqqiyotga intilishini xalqqa tushuntirishi kerkakligini boylarning vazifasi esa shunchaki boylik to‘plash emas, balki o‘sha boylikni millat manfaati uchun – maktablar ochishga, gazetalarni qo‘llab-quvvatlashga va iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishga sarflashga chaqiradi. Maqolada jaholat va ilmsizlik millatni qaramlikka, qashshoqlikka va ma’naviy qashshoqlikka olib kelganini achchiq haqiqat sifatida bayoqn qiladi. Ibrat bu maqolasi bilan “O‘z-o‘zini isloh qilish” g‘oyasi ilgari surgan. Ya’ni bizni birov kelib qutqarmaydi, o‘zimizni o‘zimiz ilm va ittifoq bilan qutqarishimiz kerak degan xulosaga keladi. Bu g‘oya hozirgi kunda “Uchinchi renessans” poydevorini qurishda ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. “Millatni kim isloh etar?” maqolasi- bu chorlovdir. Ibrat millatni uyg‘otish uchun avvalo uning rahbarlari (ma’naviy va moddiy jihatdan) uyg‘onish kerakligi chiroyli misollar orqali maqolasida isbotlab qo‘ygan.

Is’haqxon Ibratning jadidchilik pedagogikasiga qo‘shgan hissasi faqatgina maktab ochish, tanqid qilish bilan cheklanib qolmagan. U matbaatchilik va amaliy qo‘llanmalar, darsliklar yaratish orqali ta’limni isloh qilgan. Ibratning pedagogik merosidagi eng asosiy asari “Lug‘ati sitta-alsina” ya’ni olti tillik lug‘ati bo‘lib, bu asar Ibratning pedagogik yutug‘idir. O‘sha davr uchun tillarni tizimli o‘rganuvchi birinchi darsliklardan bo‘lgan. Ibrat yoshlarni faqat diniy emas, balki dunyoviy bilimlarni egallash uchun xorijiy tillarni egallashga undagan kitobdir. Bu kitob usuli jadid maktablarida asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Bu olti tilda yozilgan asarida Ibrat Sharq va G‘arb mamlakatlarning madaniyatini bir sahifada jamlash orqali murasasozlik va limning chegarasizligini ko‘rsatgan. Bu asar orqali talaba bir vaqtning o‘zida bitta tushunchaning olti tildagi variantini ko‘radi. Bu xotirani kuchaytiradi va tillararo bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi. Eski maktablarda faqat diniy bilimlar berilgan bo‘lsa Ibrat bu lug‘atga kundalik hayotda, savdo-sotiqda va ilm-fanda kerak bo‘ladigan hayotiy so‘zlarni kiritgan. Ibratning bu kitobi orqali millatni savodli qilish bilan birga, uning dunyoqarashini geografik va siyosiy jihatdan kengaytirishga ximat qilgan. Ibratning bu mehnati bugungi kunda yoshlarimiz intilayotgan “Polygtlot” tushunchasining 120 yil oldin yaratilgan mukammal poydevoridir.

Is’haqxon Ibrat o‘z xalqini buyuk kelajak kutayotganligini, ozod hayot kechirishiga va savodsizlikdan chiqa olishiga kuchli umid bilan qaraydi. Ibrat “Tarixi madaniyat” asarida vatanining kelajakdagi ilm-fanni rivojlangan cho‘qqisini alohida rangli bo‘yoqdorlikka asoslangan holda tasvirlaydi. Ibrat to‘raning barcha ilmiy-tarixiy asarlari vataniumizning tarixini chuqur o‘rgana olishimizga juda katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ibrat bir qator she’rlari orqali ham o‘zining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini bayon qilgan. Jumladan, “Islohi millat” she’ri Is’haqxon Ibratning ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va ijtimoiy islohotga da’vat ruhidagi qarashlarini mujassam etadi. Unda jadidchilik harakatining asosiy tamoyillari — ilm-ma’rifatga intilish, jamiyatni isloh qilish, millat va davlat ravnaqi yo‘lida xizmat qilish g‘oyalari badiiy ifoda topgan.

“Bobi kanzi ilm masdud erdi yiroq necha vaqt,
Yo‘q ajab isloh miftohi ila vo aylasa.”[1.36]

Ushbu baytda shoir uzoq vaqt davomida ilm xazinasi eshiklari yopiq bo‘lganini ramziy tarzda ifodalaydi. “Bobi kanz-i ilm” (ilm xazinasi eshigi) metaforasi orqali jamiyatdagi jaholat, savodsizlik va ilmga beparvolik holati tasvirlanadi.

Ibrat “isloh miftohi” (islohot kaliti) tushunchasi orqali mazkur muammoning yechimini ko‘rsatadi. Ya’ni, u jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim tizimini isloh qilish va ilm-fanga yuzlanishni ilgari suradi. Bu fikr jadidchilik pedagogikasining markaziy g‘oyasi bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

“Maslakin ko‘rdum taraqqiy va taolada ekan,
Xizmati ummatni shoyad yaxshi barjo aylasa.” [1.36]

Mazkur misralarda Ibrat o‘zining hayotiy va ma’rifiy yo‘lini aniqlab olganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, haqiqiy yo‘l — bu taraqqiyot yo‘lidir.

Shoir “xizmati ummat” tushunchasi orqali shaxsiy manfaatlardan voz kechib, jamiyat manfaatlari yo‘lida xizmat qilish zarurligini ilgari suradi. Jadidlar uchun xos bo‘lgan ushbu g‘oya — ijtimoiy mas’uliyat va fidoyilik tamoyilining ifodasidir.

“Millat-u davlatga xizmat qilsa bu kirdor ila,
Maslakidin ajramay xalqqa madora aylasa.”[1.36]

Bu baytda Ibrat shaxs faoliyatining asosiy mezonini belgilaydi: u millat va davlat manfaatlariga xizmat qilishi kerak. “Kirdor” (amal, faoliyat) tushunchasi orqali insonning amaliy harakatlari nazarda tutiladi.

Shoir “maslakidin ajramay” iborasi bilan inson o‘z e’tiqodi va ma’rifiy yo‘lidan chetga chiqmasligi lozimligini ta’kidlaydi. “Xalqqa madora aylasa” (xalq dardiga darmon bo‘lsa) ifodasi esa jadidlarning asosiy maqsadi — jamiyat muammolarini hal etish, xalq hayotini yaxshilash ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur she’riy parcha Is’haqxon Ibratning jadidchilik g‘oyalari targ‘ibotchisi sifatidagi qarashlarini yorqin aks ettiradi. Ibratning ushbu she’ri nafaqat badiiy asar, balki jadidchilik mafkurasining poetik manifesti sifatida ham muhim ilmiy-ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Is’haqxon to‘ra Ibrat nafaqat tilshunos, tarixchi, matbaatchi, pedagog, diniy ulamo balki davlat arbobi ya’ni qozi vatanining ravnaqi uchun butun hayoti davomida izlanishlar olib borgan qomusiy olimdir. Tarixiy shaxs Ibrat xalqini savodsizlikdan qutqarish, milliy uyg‘onish va o‘zligini anglash, ilm-fan, ta’lim-tarbiya va inson hayotini teran tafakkur asosida qurishi kerakligini targ‘ib qilgan. U “Ilm xazinasi – tildir” [2.46] degan g‘oyani ilgari surgan hamda millatning taraqqiypti ko‘p tillarni bilish va fan-texnikani egallashda ekanligini pedagogik nuqtai nazardan isbotlab bergan. Is’haqxon Ibratning qarashlari shunchaki ta’lim berish emas, balki millatni g‘aflatdan uyg‘otish va uni dunyo madaniyatiga integratsiya qilishga qaratilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is’haqxon to‘ra Ibrat “Tanlangan asarlar” (2020-yil nashri)
2. Is’haqxon Ibrat “Yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar” nomli tanlangan asarlari (2022-yil nashri)
3. Shohida Nusratillayeva Mirahmedova Is’haqxon Ibrat asarlarida ma’naviy-axloqiy qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari // Academic research in educational sciences 2021. 5-son
4. Is’haqov R.Nizomova J.lar bilan o‘tkazilgan suhbat matni 1994. Mart-aprel B.Nizomov bilan o‘tkazilgan suhbat matni 1994. Mart; R.Nazarov bilan o‘tkazilgan suhbat. 1994. Mart. Syhbatni K.A.vohidova uyushtirgan

JADID MA’RIFATPARVARLARI G‘OYALARI – YOSHLAR ONGINI MARGINAL MADANIYAT TA’SIRIDAN HIMOYALASH OMILI SIFATIDA

Namozova Madina TOYIR QIZI,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining ma’rifiy va ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari yoshlar ongini marginal madaniyat ta’siridan himoyalashning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining ta’lim, axloq,

milliy o‘zlik va madaniy yangilanish haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni begona va zararli g‘oyalar ta’siridan asrashda dolzarb ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifat, marginal madaniyat, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlik, globallashuv, axloqiy qadriyatlar.

Annotation. This article analyzes the educational and socio-philosophical ideas of the Jadid movement, which emerged in the late 19th and early 20th centuries, as an important factor in protecting the consciousness of youth from the influence of marginal culture. The views of Jadid representatives such as Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdurauf Fitrat on education, morality, national identity, and cultural renewal are scientifically examined in terms of their relevance in safeguarding young people from alien and harmful ideas in the context of globalization.

Keywords: Jadidism, enlightenment, marginal culture, youth education, national identity, globalization, moral values.

XXI asr globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivoji, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat mahsulotlarining cheksiz oqimi yoshlar ongiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ma’naviy mezonlarni nisbiylashtiruvchi, zo‘ravonlikni romantizatsiya qiluvchi, individualizmni mutlaq qadriyat darajasiga ko‘targan submadaniyatlar yoshlar tafakkurida ma’naviy bo‘shliq hosil qilishi mumkin.

Marginal madaniyatning xavfi shundaki, u ko‘pincha erkinlik, mustaqillik yoki zamonaviylik niqobi ostida namoyon bo‘ladi. Natijada yoshlar ongida milliy o‘zlikdan begonalashish, tarixiy xotiradan uzilish, ma’naviy qadriyatlarga befarqlik kuchayadi. Bu jarayon, ayniqsa, o‘z hayotiy pozitsiyasi va identifikatsiyasini izlayotgan o‘smir va yoshlar uchun sezilarli darajada ta’sirchan bo‘ladi. Shu bois bugungi sharoitda yoshlarni himoyalashning eng samarali yo‘li - ularning ongida mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirishdir. Bunday immunitet esa sun’iy cheklovlar yoki taqiqlar orqali emas, balki ongli ma’rifat, tanqidiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglash orqali vujudga keladi. Aynan shu jihat jadid ma’rifatparvarlari merosini bugungi kun uchun dolzarb qiladi.

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuzaga kelgan chuqur ma’rifiy uyg‘onish harakati bo‘lib, u millatni tanazzuldan chiqarish, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish va mustahkam ma’naviy asos yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Jadidlar nazarida jamiyat inqirozining asosiy sababi siyosiy qaramlikdan ham ko‘ra ko‘proq ma’rifatsizlik, jaholat va eskicha tafakkur edi. Shu bois ular islohotni avvalo ongni

yangilashdan boshlash zarur deb bildilar. Jadidchilikning asosiy g‘oyasi — “usuli jadid” (yangi usul) ta’lim tizimini joriy etish orqali yosh avlodni zamonaviy fanlar, texnika, dunyoviy bilimlar va milliy qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalash edi. Ushbu yondashuv nafaqat maktab pedagogikasi sohasida, balki jamiyatning ijtimoiy va falsafiy hayotida ham chuqur ahamiyat kasb etdi. Jadidlar ta’limni yangilash orqali inson ongini rivojlantirish, tafakkurni kengaytirish va yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish zarurligini ta’kidlashdi. “Usuli jadid” ta’limi nafaqat ilmiy va texnikaviy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash, milliy o‘zlikni mustahkamlashga ham xizmat qilardi. Shu bilan birga, bu yondashuv yoshlarni zamonaviy dunyoqarash, demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat va huquqiy ong bilan tanishtirishni maqsad qilgan edi. Ta’lim jarayonida eski uslubdagi qattiq va formal metodlar o‘rniga interaktiv, mantiqiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar joriy etildi. Jadidchilik nafaqat pedagogik islohot, balki milliy o‘zlikni saqlagan holda modernizatsiya qilish konsepsiyasini ilgari surdi. Ular fikricha, jamiyatning taraqqiyoti va millatning kuchi faqat ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat uyg‘unlashgan holda amalga oshishi mumkin. Shu sababli jadid maktablari faqat kitob o‘qitish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarni jamiyatdagi muammolarni anglashga, ularni hal qilishga va faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga o‘rgatdi. Shu tariqa, jadidchilik harakati o‘zbek jamiyatida nafaqat ta’lim tizimini yangilash, balki yoshlar ongini shakllantirish, ularni zamonaviy dunyoga moslashtirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali taraqqiyotga tayyorlashda muhim pedagogik va ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi markaz bo‘ldi[1].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining nazariy va amaliy yetakchilaridan biri sifatida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish zarurligini asoslab berdi. Uning fikricha, maktablar faqat diniy saboqlar bilan cheklanib qolmasligi, balki geografiya, tarix, matematika, tabiiyot kabi fanlarni ham o‘qitishi lozim edi. Behbudiy millat ravnaqi uchun dunyo tajribasini o‘rganish muhimligini ta’kidlar ekan, “zamona ilmini bilmagan millat boshqa millatlar soyasida qolib ketadi”, degan mazmunda fikr yuritadi. U yangi maktablarni ochish, darsliklar yaratish va matbuotni rivojlantirish orqali jamiyatni uyg‘otishga harakat qildi. Bu yondashuv yoshlar ongini keng fikrlashga, voqelikni tahlil qilishga va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishni ko‘zlagan edi.

Abdulla Avloniy esa jadidchilikni axloqiy-ma’naviy jihatdan boyitdi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yoshlar tarbiyasi masalasini ilmiy-pedagogik asosda yoritgan muhim manbadir. Avloniy tarbiyani millat taqdiri bilan bog‘lab, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidur” deya, bu jarayonning strategik ahamiyatini ochib beradi. U komil insonni tarbiyalashda uch asosiy omilni ko‘rsatadi: ilm, axloq va vatanparvarlik. Avloniy nazarida axloqiy yetuklik

bo‘lmasa, bilim ham, taraqqiyot ham samara bermaydi. Demak, jadidchilik faqat intellektual emas, balki ma’naviy islohot harakati ham edi[7].

Abdurauf Fitrat jadidchilikning falsafiy asoslarini yanada chuqurlashtirdi. U milliy o‘zlikni anglashni taraqqiyotning muhim sharti sifatida ko‘radi. Fitratning qarashlarida millatni uyg‘otish – bu avvalo tarixiy xotirani tiklash, milliy til va madaniyatni rivojlantirish, mustaqil tafakkurni shakllantirishdir. Uning asarlarida yoshlarni fikriy qullikdan ozod qilish, ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkur egasiga aylantirish g‘oyasi ustuvor o‘rin tutadi. Fitrat uchun ma’rifat – bu shunchaki savod emas, balki ongni uyg‘otish vositasidir.

Jadidchilik harakati shuningdek matbuot, teatr va adabiyot orqali ham keng ommani ma’rifatga chorladi. Dramaturgiya va publitsistika orqali jamiyatdagi illatlar tanqid qilindi, yoshlar ongiga yangicha dunyoqarash singdirildi. Bu jihat jadidchilikni kompleks ma’naviy-ma’rifiy harakat sifatida namoyon etadi.

Umuman olganda, jadidchilikning ma’rifiy mohiyati quyidagi tamoyillarda mujassam:

ilm va ta’limni millat taraqqiyotining bosh omili deb bilish;

zamonaviy fan yutuqlarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish;

yoshlarni axloqiy barkamollik ruhida tarbiyalash;

milliy o‘zlik va tarixiy xotirani mustahkamlash;

jamiyatni isloh qilishni ongni isloh qilishdan boshlash.

Shu ma’noda, jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan ma’rifiy-falsafiy konsepsiyadir. Uning mohiyatida ma’naviy yangilanish, intellektual taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalari mujassam bo‘lib, ular yoshlar ongini turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalashda mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Marginal madaniyat – jamiyatning ustuvor qadriyatlari va axloqiy me’yorlaridan chetga chiqadigan, ko‘pincha ma’naviy bo‘shliq, ijtimoiy adolatsizlik yoki identitet inqirozi natijasida shakllanadigan madaniy hodisadir. Bugungi globallashuv sharoitida internet va global media vositalari orqali turli ekstremistik, radikal, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi yoki axloqiy bo‘lmagan g‘oyalar tez sur’atlarda tarqalmoqda. Yoshlar esa psixologik jihatdan o‘zini anglash, jamiyatdagi o‘rnini topish va mustaqil pozitsiya shakllantirish bosqichida bo‘lganligi sababli bunday oqimlarga nisbatan sezgir qatlam hisoblanadi. Agar ularda mustahkam ma’naviy tayanch va milliy identitet shakllanmagan bo‘lsa, marginal submadaniyatlar o‘ziga jalb etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, muammoni taqiqlash yoki keskin rad etish orqali emas, balki ongli ma’rifat asosida hal etish zarur. Aynan shu yerda jadid ma’rifatparvarlarining konsepsiyasi samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidlar g‘oyasi asosida marginal madaniyatga qarshi kurash yo‘llari quyidagilar hisoblanadi. Jumladan:

1. Ma’rifat orqali ongni mustahkamlash:

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiyotining asosini ilm va zamonaviy tafakkurda ko‘rgan[2]. Uning fikricha, jaholat – har qanday tanazzulning ildizi. Marginal madaniyat ko‘pincha bilim yetishmasligi va tanqidiy tafakkur sustligi natijasida kuchayadi.

Shuning uchun jadidona yondashuvda kurashning birinchi bosqichi – ta’lim sifatini oshirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Tanqidiy tafakkurga ega yosh har qanday zararli g‘oyani tahlil qila oladi, uning asl mohiyatini anglaydi va ongli ravishda rad etadi.

2. Axloqiy tarbiya orqali ichki barqarorlikni ta’minlash:

Abdulla Avloniy tarbiyani millat hayoti bilan tenglashtirgan. Uning ta’kidlashicha, axloqiy poydevor mustahkam bo‘lmasa, tashqi ta’sirlar yosh ongini oson egallaydi[7]. Marginal madaniyat ko‘pincha axloqiy relativizm – “hamma narsa mumkin” degan qarashni singdiradi. Jadidona konsepsiya esa aniq axloqiy mezonlarga, vijdon va mas’uliyat tuyg‘usiga tayanadi. Demak, yoshlar bilan ishlashda faqat bilim berish emas, balki axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda shakllantirish muhimdir.

3. Milliy identitetni mustahkamlash:

Abdurauf Fitrat milliy o‘zlikni anglashni taraqqiyotning asosiy sharti deb bilgan[3]. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘z tarixini, tilini va madaniyatini bilmagan avlod begona g‘oyalarga tez beriladi. Marginal submadaniyatlar ko‘pincha yoshlarni o‘z ildizlaridan uzoqlashtirish orqali ta’sir doirasiga oladi. Shuning uchun jadidlar taklif etgan yo‘l – tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni chuqur o‘rganish va unga nisbatan g‘urur tuyg‘usini shakllantirishdir. Bu yoshda ichki tayanchni kuchaytiradi.

4. Zamonaviylikni inkor etmasdan, uni boshqarish:

Jadidlar G‘arb ilm-fanini o‘rganishni targ‘ib qilgan, biroq ma’naviy qadriyatlarni saqlagan holda. Ular modernizatsiyani ma’naviyatsizlik bilan tenglashtirmagan. Bugungi kunda ham marginal madaniyatga qarshi kurashish zamonaviylikni inkor etish orqali emas, balki uni ongli ravishda qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Internet, media va global madaniyatdan butunlay voz kechish mumkin emas; muhim jihat - ularni tanqidiy va maqsadli iste’mol qilish madaniyatini shakllantirishdir[4].

5. Ijtimoiy faollik va mas’uliyatni oshirish:

Jadidlar yoshlarni jamiyat hayotida faol bo‘lishga, islohotlarda ishtirok etishga chaqirganlar. Ijtimoiy faolligi yuqori bo‘lgan yosh destruktiv oqimlarga kamroq beriladi, chunki u o‘z energiyasini ijobiy maqsadlarga yo‘naltiradi.

Demak, jadidona yondashuvda kurashning muhim omili – yoshlarni ijtimoiy loyihalar, ilmiy izlanishlar va madaniy tashabbuslarga jalb etishdir.

Jadid ma’rifatparvarlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy muammolarni zo‘ravonlik yoki keskin cheklovlar orqali hal etib bo‘lmaydi. Ular jamiyatni isloh qilishni ongni isloh qilishdan boshlaganlar. Shu bois marginal madaniyatga qarshi kurashda ham asosiy yo‘l – yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirishdir. Bu immunitet quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi lozim:

tanqidiy tafakkur;

mustahkam axloqiy mezon;

milliy identitet;

ijtimoiy mas’uliyat;

zamonaviy bilim va ko‘nikmalar.

Xulosa qilib aytganda, marginal madaniyat yoshlar ongiga tashqi tahdid sifatida namoyon bo‘lishiga qaramay, unga qarshi kurashishda eng samarali vosita – ichki barqarorlikni mustahkamlashdir. Bu barqarorlik nafaqat shaxsiy axloqiy va ma’naviy mustahkamlikni, balki jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar tizimini ham qamrab oladi. Jadid ma’rifatparvarlari ilgari surgan ma’rifiy-axloqiy konsepsiya aynan shunday ichki barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u yoshlarni ongli, tafakkurli va ijtimoiy mas’uliyatga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilgan. Jadidona yondashuvning markazida ilm-fan, axloqiy qadriyatlar, milliy o‘zlik va zamonaviy tafakkur uyg‘unligi turadi. Ushbu uyg‘unlik yoshlar ongini nafaqat zararli g‘oyalardan, ekstremistik va marginal submadaniyatlar ta’siridan himoya qiladi, balki ularni tanqidiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va jamiyat rivojiga faol hissa qo‘shishga tayyorlaydi. Shuningdek, ichki barqarorlikni shakllantirish orqali yoshlar o‘z madaniy va milliy ildizlarini anglab, globalizatsiya sharoitida ham o‘z qadriyatlarini saqlab qolish imkoniga ega bo‘ladi. Bugungi kunda ham jadidona pedagogik va ma’naviy yondashuvlar yoshlar tarbiyasida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat ma’rifiy va axloqiy tarbiya, balki jamiyatdagi ijtimoiy birlashuv, hamjihatlik va madaniy uyg‘unlikni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Shu tariqa, marginal madaniyatga qarshi samarali kurash yoshlarning ongini mustahkamlash, ularni ma’naviy jihatdan barkamol va zamonaviy dunyoqarashga ega shaxslar qilib tarbiyalash orqali amalga oshiriladi, bu esa milliy taraqqiyot va jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003.

5. B.Qosimov. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Fan, 2004.

6. S.Olimov. Jadidchilik: islohot, yangilanish va taraqqiyot. – Toshkent: Akademnashr, 2011.

7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.

JADIDLAR PEDAGOGIKASI: YOSH AVLOD TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR

Rustamov Nazir CHORIYEVICH,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar pedagogikasining yosh avlod tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan asosiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Jadidlar harakatining ta’limni isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy etish, ona tilida savod chiqarish, dunyoviy fanlarni o‘qitish, axloqiy tarbiya va milliy ongni shakllantirishga doir qarashlari tafakkur tarbiyasi nuqtai nazaridan yoritiladi. Maqolada Ismoil G‘aspirinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy pedagogik merosi asosida yoshlarning fikrlash madaniyati, mustaqil mushohada yuritish, ijtimoiy faollik va ma’naviy-intellektual kamolotini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar umumlashtiriladi. Jadidlar pedagogikasining bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarbligi ham asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jadid pedagogikasi, usuli jadid, tafakkur tarbiyasi, yangi usul maktabi, milliy ta’lim, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Ismoil G‘aspirali.

Annotation. This article analyzes the main approaches of Jadid pedagogy aimed at developing the thinking of the younger generation. From the perspective of the cultivation of thinking, it highlights the views of the Jadid movement on reforming education, introducing new-method schools, promoting literacy in the native language, teaching secular subjects, providing moral education, and shaping national consciousness. Based on the pedagogical legacy of Ismail Gasprinsky, Mahmudkhoja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdulla Avloni, the article generalizes ideas directed toward fostering young people’s culture of

thinking, independent reasoning, social activity, and spiritual-intellectual development. The relevance of Jadid pedagogy for today’s education system is also substantiated.

Keywords: Jadid pedagogy, usuli jadid, cultivation of thinking, new-method school, national education, Abdulla Avloni, Mahmudkhoja Behbudiy, Munavvarqori, Ismail Gasprinsky.

Jadid pedagogikasining markazida yosh avlod tafakkurini yangilash va rivojlantirish g‘oyasi turadi. Ular uchun ma’rifat oddiy savod chiqarish yoki diniy matnlarni o‘qitish bilangina cheklanmaydi; aksincha, ma’rifat insonning dunyoqarashini kengaytiruvchi, mustaqil mushohada yuritishga o‘rgatuvchi, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiruvchi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Jadidlar nazarida yangi davr uchun yangi tafakkur zarur edi. Shu sababli ular yoshlarni faqat bilimli emas, balki zamon voqeligini tushuna oladigan, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildira oladigan, millat ravnaqiga daxldorlik hissi bilan yashaydigan shaxslar etib tarbiyalashga intildilar.

Jadidchilik pedagogikasining nazariy asoslari, eng avvalo, Ismoil G‘aspiralining ta’lim haqidagi qarashlarida mujassamdir. U “usuli jadid” maktablarini targ‘ib etib, fonetik usulda savod o‘rgatish, darslarni tizimli tashkil qilish, o‘quvchilar yoshiga mos darsliklar yaratish hamda matematika, tarix, geografiya kabi dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritishni ilgari surdi. Uning ma’rifiy qarashlari turkiy xalqlar orasida yagona ma’rifiy uyg‘onish dasturi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi hamda ta’lim, tafakkur va amaliy faoliyatning uzviyligi asoslab berildi.

Shu tariqa, jadid pedagogikasini yosh avlod tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit ma’rifiy tizim sifatida baholash mumkin. Unda maktab, darslik, matbuot, teatr, jamoatchilik va milliy uyg‘onish g‘oyalari o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Jadidlar uchun ta’lim - bu shunchaki bilim berish emas, balki shaxs tafakkurini o‘zgartirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, jamiyatni esa ma’rifat orqali isloh qilish vositasi edi. Aynan shu jihat jadid pedagogikasining tarixiy va zamonaviy ahamiyatini belgilaydi.

Jadidlar yosh avlod tafakkurining rivoji, avvalo, ona tilida to‘g‘ri va ongli savod chiqarishdan boshlanishini ta’kidladilar. Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul maktablari uchun yaratgan “Adibi avval” va “Adibi soniy” darsliklari boshlang‘ich ta’limni tizimlashtirish, o‘quv materialini soddalashtirish va bolalarda ongli o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilgan. Manbalarda Munavvarqori jadid maktablari uchun dastur va darsliklarni ishlab chiqqani, ona tili, tarix, axloq, jug‘rofiya, hisob kabi fanlarni kiritgani qayd etiladi [1].

Bu yondashuvning mohiyati shundaki, til faqat aloqa vositasi emas, balki fikrni shakllantiruvchi vositadir. Jadidlar o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun uning o‘z tilida mustaqil o‘qishi, tushunishi va bayon qila olishini zarur deb bildilar. Shunday ekan, jadid pedagogikasida til tarbiyasi bir vaqtning o‘zida tafakkur tarbiyasi hamdir.

Jadidlarning eng muhim yangiliklaridan biri ta’lim mazmunini kengaytirib, unda dunyoviy fanlarga alohida o‘rin berishidir. Jadidlar yangi usul maktablarida fonetik savod bilan birga matematika, tarix va geografiya kabi fanlarni o‘qitishni ilgari surgan. Mazkur yondashuv yoshlarni atrof-muhitni tushunishga, sabab-oqibatni anglashga, amaliy masalalarni hal qilishga va real hayotga tayyorlanishga yo‘naltirdi. Shu bois jadidlar pedagogikasida tafakkur rivoji xotiraga asoslangan yodlashdan tahlil, kuzatuv va mushohadaga o‘tish bilan tavsiflanadi. Bu bugungi kompetensiyaviy ta’limdagi tanqidiy fikrlash g‘oyasiga yaqin turadi.

Jadidlar nazarida tafakkur rivoji axloq bilan uzviy holda qaralgan. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek pedagogik tafakkuridagi eng muhim manbalardan biri bo‘lib, unda tarbiya, yaxshi va yomon xulqlar, ma’naviy kamolot, odob va insoniy fazilatlar tizimli bayon qilingan. Manbalarda ushbu asar o‘zbek tilidagi ilk “odobnoma” va “axloq fani” darsliklaridan biri sifatida baholanadi.

Avloniy tarbiyani shaxsning hayoti va jamiyat taqdiri bilan bog‘laydi. U maktab va muallimning vazifasini faqat bilim berish bilangina cheklamay, yosh avlodni axloqan pok, millat ravnaqiga daxldor, ma’rifatli va mas’uliyatli shaxs qilib tarbiyalashda ko‘radi. Demak, jadidlar pedagogikasida tafakkur tarbiyasi axloqiy ong, vijdon, mas’uliyat va ijtimoiy burch hissini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq [2].

Jadid pedagogikasining yana bir muhim qirrasi - jaholat, mutaassiblik va ijtimoiy loqaydlikka qarshi ma’rifat bilan kurashishdir. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga bag‘ishlangan manbalarda uning “taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasi maktab” ekanini ta’kidlagani, maktab va maorifni jamiyat yangilanishining bosh vositasi deb bilgani qayd etiladi. Behbudiy maktab uchun darsliklar yozgan, xaritalar va adabiyotlar bilan ta’minlagan, qiroatxona va nashriyot faoliyatini yo‘lga qo‘ygan [3].

Bu yondashuvda yosh avlod tafakkurini rivojlantirish mavjud stereotiplarni buzish, yangi qarashlarga ochiqlik, savol qo‘yish va ijtimoiy voqelikni anglash bilan bog‘lanadi. Behbudiy va boshqa jadidlar matbuot, publitsistika va teatrni ham tarbiya vositasi sifatida qo‘llab, jamoatchilikni fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undadilar.

Jadidlar muallimga alohida e’tibor qaratdilar. Ular nazarida o‘qituvchi oddiy bilim uzatuvchi emas, balki ma’naviy yetakchi, ma’rifat targ‘ibotchisi va yosh

avlod fikrini shakllantiruvchi murabbiydir. Avloniy asarlarining tavsiflarida ham muallim va maktabning millat tarbiyasidagi o‘rni alohida ko‘rsatiladi; Munavvarqori faoliyati haqidagi manbalarda esa u jadid maktabchiligi asoschisi sifatida darslik, dastur va ta’lim usulini ishlab chiqqani qayd etiladi.

Shu bois jadid pedagogikasida yosh tafakkurini rivojlantirishning muhim sharti - zamonaviy dunyoqarashga ega, ravon nutqli, ma’naviy pok va metodik jihatdan tayyor muallim shaxsidir. Bu g‘oya hozirgi pedagogikada ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan [4].

Jadidlar tafakkur tarbiyasini faqat maktab ta’limi bilan cheklamadilar. Ular gazeta-jurnallar, teatr, va jamoatchilik muhokamasi orqali jamiyatning o‘zini ham ma’rifat maktabiga aylantirishga intildilar. Jadidlar matbuoti va adabiyoti jamiyat ma’rifiy uyg‘onishning muhim qismi sifatida ko‘rsatiladi. Behbudiyning nashriyotdagi faoliyati ham ham buni tasdiqlaydi.

Jadidlar pedagogikasi bugungi ta’lim uchun bir necha jihatdan dolzarbdir.

Birinchidan, u yoshlarni tayyor bilimni yodlovchi emas, balki mustaqil mushohada yurituvchi subyekt sifatida ko‘radi.

Ikkinchidan, jadidlar ta’limni axloq, milliy ong va fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘lagan.

Uchinchidan, ular maktabni jamiyatni yangilashning markaziga aylantirgan.

To‘rtinchidan, ular ta’lim mazmunini hayotiy fanlar, til, axloq va ijtimoiy faollik bilan boyitgan.

Shu jihatlar XXI asr ta’limidagi tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, fuqarolik kompetensiyasi va integrativ yondashuv bilan hamohangdir.

Jadidlar pedagogikasi yosh avlod tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit ma’rifiy tizimdir. Uning asosiy yondashuvlari ona tilida ongli savod, dunyoviy fanlar orqali analitik tafakkur, axloqiy ongni shakllantirish, tanqidiy fikrni rivojlantirish, muallim shaxsiga tayanuvchi tarbiya va maktabni jamoatchilik bilan bog‘lashdan iborat. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy merosi shuni ko‘rsatadiki, jadidlar uchun ta’limning bosh maqsadi savodli emas, balki fikrlay oladigan, anglay oladigan, mas’uliyatli va milliy o‘zligini his qiladigan shaxsni tarbiyalash bo‘lgan. Shu sababli jadid pedagogikasini o‘rganish zamonaviy o‘zbek ta’limi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunaliyeva M.U., Turabova N.B. Munavvarqori Abdurashidxonovning pedagogikaga qo‘shgan hissasi // “Science and education” scientific journal. May 2023 / Volume 4, Issue 5. 1126-1130 b.

2. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. www.ziyouz.com kutubxonasi.

3. Shokirova H. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida ta’lim va tarbiya masalasi. Luchshie intellektuaknie issledovaniya. Chast – 45, Tom – 2. 2025. 241-248.

4. Tosheva D.I. Milliy ta’lim-tarbiyani shakllantirishda Munavvaqori Abdurashidxonov asarlarining pedagogik ahamiyati. Scientific-theoretical and methodological journal. 2026, volume 4, issue 2. 371-380 p.

JADIDLAR G‘OYALARIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI

Ashurova Gulruxon OXUNOVNA,
Qo‘qon universiteti dotsenti v.b.,
munibaxon99@gmail.com
ORCID ID 0009-0006-7400-7995
Usmonova Odina,
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalari — Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy va Abdulla Qodiriy qarashlarida aks etgan psixologik g‘oyalar tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyati inson ongini, tafakkurini va ruhiyatini yangilashga qaratilgan ma’naviy-psixologik uyg‘onish sifatida talqin etiladi. Maqolada Fitratning ongni uyg‘otish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga oid qarashlari, Cho‘lpon ijodida ichki konflikt va emotsional kechinmalar tasviri, Avloniy ta’lim-tarbiyaning shaxs psixikasiga ta’siri hamda Qodiriy asarlarida shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi. Shuningdek, ta’lim, erkinlik, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy muhit ta’siri kabi tushunchalar zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqola jadidlar merosining ilmiy va psixologik ahamiyatini ochib beradi hamda ularning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Fitrat, psixologik qarashlar, milliy o‘zlik, psixologik g‘oyalar, jadidchilik harakati.

Annotation. This article examines the psychological ideas reflected in the works of prominent Jadid thinkers such as Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Abdulla Avloni, and Abdulla Qodiriy. The Jadid movement is interpreted as a spiritual and psychological awakening aimed at transforming human consciousness, thinking, and inner world. The paper discusses Fitrat’s views on awakening consciousness and developing independent thinking, Cholpon’s depiction of internal conflicts and emotional experiences, Avloni’s emphasis on education as a key factor in personality development, and Qodiriy’s analysis of the relationship between individual character and social environment. Additionally,

concepts such as education, freedom, national identity, and the influence of the social environment are analyzed from the perspective of modern psychology. The article highlights the scientific and psychological significance of Jadid heritage and emphasizes that their ideas remain relevant today in understanding personality development and social change.

Keywords: Fitrat, psychological views, national identity, psychological ideas, Jadid movement.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan cheklanib qolmay, balki insonning ichki dunyosini, ongini va ruhiyatini tubdan yangilashga qaratilgan kompleks ma’naviy-psixologik uyg‘onish harakati sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davrda jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida tashqi o‘zgarishlardan ko‘ra, avvalo insonning ichki o‘zgarishini — uning fikrlash tarzini, dunyoqarashini, qadriyatlarini va psixologik holatini yangilash zarurligini ilgari surdilar.

Jadid mutafakkirlari insonni passiv mavjudot emas, balki ongli, faol va ijtimoiy muhitni o‘zgartira oladigan subyekt sifatida talqin etdilar. Ularning fikricha, inson ongida mavjud bo‘lgan jaholat, qo‘rquv, qaramlik va stereotiplar jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy psixologik omillardir. Shu bois jadidlar faoliyatining markazida inson ongini uyg‘otish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va shaxsiy “men”ni anglash masalalari turadi.

Jadidchilik harakati doirasida yaratilgan adabiy, pedagogik va publitsistik asarlar inson psixologiyasining turli jihatlarini yoritib berdi. Xususan, bu asarlarda:

shaxsning ichki kechinmalari va ruhiy ziddiyatlari, axloqiy qadriyatlarning shakllanish jarayoni, ta’lim va tarbiyaning psixik rivojlanishga ta’siri, ijtimoiy muhitning inson ongiga ta’siri, erkinlik va mustaqillikka intilish kabi motivatsion jarayonlar chuqur tahlil qilinadi.

Jadidlar insonni tarbiyalash orqali jamiyatni isloh qilish mumkin degan g‘oyani ilgari surgan holda, aslida zamonaviy psixologiyaning muhim tamoyillaridan biri — “shaxs va muhit o‘zaro ta’siri” konsepsiyasini amaliy jihatdan asoslab berdilar. Ular uchun maktab va ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi maskan, balki insonning psixologik shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi muhim institut edi. Shuningdek, jadidlar asarlarida milliy o‘zlikni anglash masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Bu esa psixologiyada “identifikatsiya” va “milliy ong” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ular xalqning o‘zligini anglashini kuchaytirish orqali unda ijtimoiy faollik, mas’uliyat va kelajakka ishonch kabi psixologik sifatlarni rivojlantirishga intildilar. Shu jihatdan, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy

va Abdulla Qodiriy kabi jadid namoyandalarining ijodi nafaqat adabiy yoki tarixiy ahamiyatga ega, balki chuqur psixologik konsepsiyalarni o‘zida mujassam etgan ilmiy manba sifatida ham muhimdir. Ularning qarashlarini o‘rganish orqali inson psixikasining rivojlanishi, ijtimoiy ongning shakllanishi va shaxs kamolotiga oid dolzarb ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Abdurauf Fitrat qarashlarida psixologik g‘oyalar. Abdurauf Fitrat ijodi jadidchilik harakatining eng muhim nazariy va psixologik asoslarini o‘zida mujassam etadi. Uning asarlarida insonning milliy ongini uyg‘otish, o‘zligini anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish markaziy o‘rinni egallaydi. Fitrat insonni shunchaki ijtimoiy mavjudot emas, balki ongli ravishda o‘z taqdirini belgilay oladigan faol shaxs sifatida talqin qiladi.

Fitratning qarashlariga ko‘ra, inson ongida mavjud bo‘lgan imkoniyatlar hali to‘liq namoyon bo‘lmagan ichki kuchdir. Shu bois u inson ongini “uyg‘otilishi kerak bo‘lgan kuch” sifatida izohlaydi. Bu fikr zamonaviy psixologiyadagi potensial rivojlanish nazariyalari bilan hamohang bo‘lib, unda insonning ichki imkoniyatlarini ochish uchun ma’lum ijtimoiy va ta’limiy sharoitlar zarurligi ta’kidlanadi. Fitrat “jaholat” tushunchasini oddiy savodsizlik sifatida emas, balki chuqurroq psixologik qaramlik holati sifatida talqin etadi. Uning fikricha, jaholat inson ongini cheklaydi, unda qo‘rquv, itoatkorlik va passivlik kabi psixologik holatlarni kuchaytiradi. Bunday holatda inson mustaqil qaror qabul qila olmaydi va ijtimoiy stereotiplarga tobeligicha qoladi. Shu nuqtai nazardan, Fitrat jaholatni nafaqat ma’rifiy, balki psixologik muammo sifatida ko‘radi, yani “Millatni qutqaradigan narsa – ilm va ma’rifatdir.” [6,Jadid.uz.2024. 1-23,Fitrat, Najot yo‘li, 1911]

Fitrat ta’lim-tarbiyani inson tafakkurini o‘zgartiruvchi asosiy mexanizm deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, ta’lim orqali insonning fikrlash tizimi, dunyoqarashi va qadriyatlari yangilanadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keladi. Ya’ni, Fitrat uchun ta’lim — bu shunchaki bilim berish emas, balki insonning psixologik transformatsiyasi jarayonidir. “Bizni halokatga olib kelgan narsa – jaholatdir.” [2-34, Fitrat, Munozara, 26-bet,1911]

Fitratning qarashlari zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan quyidagi asosiy yo‘nalishlarda talqin qiladi:

Ongni rivojlantirish (kognitiv rivojlanish)**.** Fitrat inson tafakkurini rivojlantirishni jamiyat taraqqiyotining asosi deb biladi. Bu g‘oya kognitiv psixologiyada insonning fikrlash, idrok va tushunish jarayonlarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Uning fikricha, inson bilim olish orqali nafaqat ma’lumot yig‘adi, balki fikrlash uslubini ham o‘zgartiradi.

Mustaqil fikrlash (kritik tafakkur). Fitrat insonni tayyor fikrlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi va baholovchi shaxs sifatida ko‘radi. Bu

esa kritik tafakkurning shakllanishiga olib keladi. U yoshlarni savol berishga, shubha qilishga va haqiqatni mustaqil izlashga undaydi. Psixologik jihatdan bu — shaxsning kognitiv erkinligi va intellektual mustaqilligini bildiradi.

Shaxsiy identifikatsiya (milliy “men”ni anglash)**.** Fitrat milliy o‘zlikni anglashni shaxs rivojlanishining muhim bosqichi sifatida baholaydi. Inson o‘z millati, madaniyati va qadriyatlarini anglagan sari uning ichki “men”i mustahkamlanadi. Bu esa psixologiyada identifikatsiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘zini kim sifatida anglashiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Abdurauf Fitratning qarashlari inson psixikasining rivojlanishi, ongning uyg‘onishi va mustaqil fikrlashning shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. U ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy psixologiyaning kognitiv, ijtimoiy va rivojlanish yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashadi. Fitrat ijodi insonni o‘zgartirish orqali jamiyatni o‘zgartirish mumkinligini ilmiy-psixologik asosda ko‘rsatib beradi.

Abdulhamid Cho‘lpon qarashlarida psixologik g‘oyalar. Abdulhamid Cho‘lpon ijodi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini eng nozik qatlamlarigacha tasvirlab bergan asarlar sirasiga kiradi. Uning asarlarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va psixologik iztiroblari markaziy o‘rinni egallaydi. Cho‘lpon insonni murakkab psixologik tizim sifatida ko‘rib, uning ichki dunyosini ijtimoiy voqelik bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi.

Xususan, “Kecha va kunduz” romanida qahramonlarning ichki olami, ularning qaror qabul qilish jarayonidagi ikkilanishlari, qo‘rquv va umid o‘rtasidagi kurashlari chuqur psixologik tahlil asosida yoritiladi. Asarda shaxsning ichki “men”i bilan tashqi ijtimoiy talablar o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosiy dramatik kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa Cho‘lpon ijodining psixologik realizmga asoslanganligini ko‘rsatadi. Cho‘lpon uchun inson ruhiyatidagi eng muhim ehtiyojlardan biri — bu ozodlikka intilishdir. U insonni erkin fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida ko‘rishni istaydi. Shu bois uning asarlarida erkinlik nafaqat siyosiy, balki chuqur psixologik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Insonning ichki erkinligi bo‘lmasa, u to‘laqonli shaxs sifatida shakllana olmaydi.

Shuningdek, Cho‘lpon ijtimoiy muhitning inson psixologiyasiga ta’sirini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi bosim, an’anaviy cheklovlar va ijtimoiy stereotiplar inson ruhiyatida qo‘rquv, ikkilanish va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Natijada shaxs o‘z istaklari bilan jamiyat talablari o‘rtasida qolib ketadi. Bu esa psixologik tanglik va ichki konfliktlarga olib keladi, yani Cho‘lpon fikricha, “Uning ko‘ngli ikki o‘t orasida qolgandek edi.” [3-54, Cho‘lpon, Kecha va kunduz, 1935] Cho‘lpon ijodidagi psixologik qarashlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Ichki konflikt (intrapsixik ziddiyat)**.** Cho‘lpon asarlarida shaxs ichida yuz beradigan qarama-qarshiliklar — istak va majburiyat, sevgi va qo‘rquv, erkinlik va bo‘ysunish o‘rtasidagi kurash keng tasvirlanadi. Bu holat psixologiyada intrapsixik konflikt sifatida izohlanadi va shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Emotsional kechinmalar**.** Cho‘lpon qahramonlarining ruhiy holatini tasvirlashda ularning his-tuyg‘ulariga katta e’tibor qaratadi. Sevgi, iztirob, umidsizlik, qo‘rquv kabi emotsiyalar nafaqat individual tajriba, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq psixologik holat sifatida yoritiladi. Bu esa uning ijodida emotsional psixologiyaning chuqur aks etganini ko‘rsatadi.

Erkinlik motivatsiyasi**.** Cho‘lpon inson xulq-atvorining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida erkinlikka intilishni ko‘rsatadi. Bu motivatsiya insonni o‘zligini anglashga, qaror qabul qilishga va ijtimoiy bosimlarga qarshi turishga undaydi. Psixologik jihatdan bu — ichki motivatsiyaning eng yuqori shakllaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon “Erkinlik – insonning eng ulug‘ ne’matidir.” [6,Jadid.uz.2024., Cho‘lpon, maqolalaridan] ijodi inson psixologiyasining chuqur va murakkab jihatlarini yoritib beruvchi muhim manbadir. U insonning ichki olami, ruhiy ziddiyatlari va erkinlikka bo‘lgan ehtiyojini badiiy va psixologik jihatdan mukammal ifodalaydi. Cho‘lpon qarashlari bugungi zamonaviy psixologiyada o‘rganilayotgan shaxs ichki konflikti, emotsional holatlar va motivatsiya nazariyalari bilan uyg‘unlashadi.

Abdulla Avloniy qarashlarida psixologik g‘oyalar. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi sifatida nafaqat pedagog, balki chuqur psixologik qarashlarga ega mutafakkir sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy va badiiy merosida shaxs tarbiyasi, axloqiy kamolot va inson xulq-atvorining shakllanishi markaziy o‘rinda turadi. Avloniy insonni jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rib, uning tarbiyasiga bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq jarayon sifatida yondashadi.

Avloniyning mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘z davrida nafaqat pedagogik qo‘llanma, balki inson psixologiyasini tushuntiruvchi muhim manba sifatida ham xizmat qilgan. Ushbu asarda axloqiy tarbiya insonning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, inson tug‘ma ravishda ma’lum imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, uning qanday shaxs bo‘lib yetishishi ko‘p jihatdan tarbiya va muhitga bog‘liq. Avloniy tarbiyani inson psixikasini shakllantiruvchi eng muhim mexanizm deb hisoblaydi. U shaxsning fikrlashi, his-tuyg‘ulari va xulq-atvori tarbiya jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’kidlaydi. Bu jihat zamonaviy rivojlanish psixologiyasidagi

“ijtimoiy o‘rganish” va “tarbiyaviy ta’sir” nazariyalari bilan hamohangdir. “Axloq – insonni inson qiladigan fazilatdir.” [Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq]

Alohida e’tiborga molik jihat shundaki, Avloniy bolalik davrini shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichi sifatida baholaydi. Uning fikricha, aynan bolalik davrida insonning asosiy psixologik xususiyatlari — xarakteri, odatlari va axloqiy qarashlari shakllanadi. Agar bu davrda to‘g‘ri tarbiya berilsa, kelajakda barkamol shaxsni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Aks holda esa, noto‘g‘ri tarbiya salbiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidir.” [4-5, A.Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, 1913]

Avloniy qarashlarini zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilish mumkin:

Axloqiy rivojlanish. Avloniy insonning axloqiy kamolotini uning shaxs sifatida shakllanishining asosi deb biladi. U yaxshi va yomon xatti-harakatlar o‘rtasidagi farqni anglash, axloqiy me’yorlarga amal qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oya zamonaviy psixologiyadagi axloqiy rivojlanish nazariyalari bilan uyg‘unlashadi.

Tarbiya va muhitning ta’siri**.** Avloniy inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhit — oila, maktab va jamiyatning rolini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, inson qanday muhitda tarbiyalansa, uning psixologik xususiyatlari ham shunga mos ravishda shakllanadi. Bu esa psixologiyada “shaxs va muhit o‘zaro ta’siri” prinsipiga to‘liq mos keladi.

Xulq-atvor shakllanishi**.** Avloniy xulq-atvorni tarbiya mahsuli sifatida ko‘radi. U inson odatlari, fe’l-atvori va kundalik xatti-harakatlari muntazam tarbiyaviy ta’sir natijasida shakllanishini ta’kidlaydi. Bu jihat behavioristik va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari bilan hamohang bo‘lib, inson xulq-atvori tashqi omillar orqali boshqarilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy qarashlari shaxs psixologiyasini shakllantirishda tarbiya va muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi. U ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham pedagogika va psixologiya fanlari uchun dolzarb bo‘lib, ayniqsa bolalik davrining ahamiyati, axloqiy rivojlanish va xulq-atvor shakllanishi masalalarida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy qarashlarida psixologik g‘oyalar. Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida realistik tasvir va chuqur psixologik tahlilni uyg‘unlashtirgan ijodkor sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning asarlarida inson xarakteri, ichki dunyosi va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlar keng va atroflicha yoritiladi. Qodiriy insonni alohida psixologik tizim sifatida emas, balki jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda shakllanuvchi shaxs sifatida talqin qiladi.

“O‘tkan kunlar” romani bu borada yorqin namuna bo‘lib, unda Otabek va Kumush obrazlari orqali insonning individual xususiyatlari, his-tuyg‘ulari va ichki qarama-qarshiliklari chuqur psixologik tahlil asosida ochib beriladi. Qodiriy qahramonlarining faqat tashqi harakatlarini emas, balki ularning ichki kechinmalarini, qaror qabul qilish jarayonidagi ikkilanishlarini ham tasvirlaydi. Bu esa uning ijodida psixologik realizm kuchli ekanligini ko‘rsatadi.

Asarda ijtimoiy an’analar bilan shaxsiy istaklar o‘rtasidagi ziddiyat markaziy muammo sifatida ko‘tariladi. Qahramonlar ko‘pincha jamiyatning qat’iy qoidalari va o‘z ichki ehtiyojlari o‘rtasida qolib ketadilar. Bu esa ularda ruhiy tanglik, ichki iztirob va psixologik konfliktlarni yuzaga keltiradi. Qodiriy ana shu ziddiyatni nihoyatda nozik va hayotiy tarzda ochib beradi.

Shuningdek, yozuvchi inson hissiyotlarini tasvirlashda ham yuksak mahorat ko‘rsatadi. Sevgi, sadoqat, rashk, iztirob kabi emotsiyalar qahramonlarning xulq-atvorini belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida talqin qilinadi. Bu hissiyotlar nafaqat individual tajriba, balki ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanuvchi murakkab psixologik holatlar sifatida yoritiladi.

Qodiriy ijodidagi psixologik qarashlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Shaxs va muhit o‘zaro ta’siri**.** Qodiriy inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi. Qahramonlarning qarorlari, xatti-harakatlari va hatto his-tuyg‘ulari ham jamiyatdagi urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy bosimlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa zamonaviy psixologiyadagi “shaxs va muhit interaksiyasi” konsepsiyasiga mos keladi. “Muhabbat odamni yashatadi ham, o‘ldiradi ham.” [5-26, A. Qodiriy, O‘tkan kunlar, 1926]

Emotsional psixologiya**.** Qodiriy asarlarida inson hissiyotlari chuqur va real tasvirlanadi. Emotsiyalar shaxs xulq-atvorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihat psixologiyada emotsional jarayonlarning ahamiyatini ochib beruvchi muhim misol hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiya elementlari. Qodiriy jamiyatning inson ruhiyatiga ta’sirini ko‘rsatish orqali ijtimoiy psixologiya elementlarini yoritadi. Guruh bosimi, ijtimoiy normalar va an’analar shaxs qarorlariga qanday ta’sir qilishini u badiiy obrazlar orqali asoslab beradi.

Jadidlar ijodi nafaqat adabiy yoki tarixiy hodisa, balki chuqur psixologik qarashlarni o‘zida mujassam etgan ilmiy-ma’naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ularning asarlarida inson psixikasi, ong, tafakkur va xulq-atvor masalalari kompleks tarzda yoritilib, shaxsni har tomonlama rivojlantirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Jadidlar qarashlarida quyidagi umumiy psixologik g‘oyalar yaqqol namoyon bo‘ladi:

Inson ongini uyg‘otish – jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Ongli, fikrlovchi va faol shaxs jamiyatni rivojlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Ta’lim va tarbiya – shaxs psixikasini shakllantiruvchi eng muhim omil bo‘lib, insonning fikrlashi, xulqi va dunyoqarashini belgilaydi.

Ichki erkinlik va mustaqil fikr – sog‘lom va barkamol shaxsning asosiy belgisi sifatida ko‘riladi. Bu holat insonning psixologik yetukligini ifodalaydi.

Ijtimoiy muhit ta’siri – inson xulq-atvori va psixologik xususiyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, jadidlar ilgari surgan g‘oyalar zamonaviy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari — kognitiv, ijtimoiy va rivojlanish psixologiyasi bilan uyg‘unlashadi. Ular insonni har tomonlama rivojlantirish, uning ichki dunyosini boyitish va jamiyatni yangilash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur anglagan holda, bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan ilmiy va amaliy xulosalarni meros qilib qoldirganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Fitrat. “Najot yo‘li”. Toshkent-1911.
2.A.Fitrat. “Munozara”. Toshkent-1911.
3.A.Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”. 2000-Sharq nashriyoti.
4.A.Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. 1917, Toshkent litografiya.
5.A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. Toshkent-1926.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЕ

Шерефетдинова Зарема РУСТЕМОВНА,
Преподаватель кафедры филологии Кокандского университета

Аннотация. В данной статье рассматривается просветительская и культурная деятельность Исмаила Гаспринского. Раскрываются вопросы относительно педагогической и издательской деятельности просветителя, рассмотрено движение джадидизм, а также культурное наследие, представленное через деятельность Гаспринского как публициста и пропагандиста единства всех тюркских народов.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, культурное наследие, джадидизм, парадигма, современность, образование.

Abstract. This article examines the educational and cultural activities of Ismail Gasprinsky. It explores issues related to his pedagogical and publishing work, analyzes the Jadidism movement, and highlights the cultural heritage

reflected in Gasprinsky’s activity as a publicist and advocate of the unity of all Turkic peoples.

Keywords: pedagogical activity, cultural heritage, Jadidism, paradigm, modernity, education.

Исмаил-мирза Гаспринский (полное имя: Исмаил Гаспрали, 1851–1914) - крымскотатарский политический и общественный деятель, который также являлся писателем, переводчиком, просвещенным учителем, издателем, диссидентом и видным идеологическим лидером в мусульманском и тюркском мире. Он был основателем газеты «Терджиман» и системы образования «Усули-джадид». Уникальный ученый, который выступал за единство тюркского мира, за использование единого тюркского языка, за написание текстов на едином тюркском литературном языке и за продвижение лозунга «единство в языке, мышлении и действии».

Исмаил Гаспринский являлся одной из ключевых фигур в истории джадидизма. Для своего крымскотатарского народа его имя стало символом возрождения, перемен, отказов от устаревших догм и стереотипов. Основы идей Гаспринского в современной образовательной парадигме для гуманизации, мультикультурализма и баланса меду традициями и инновациями. Он всегда был предан совей культуре, языку и религии, но тем не менее, всегда старался освоить и показать богатство европейской и русской культуры [1, с. 2-3]. Его культурно-просветительская деятельность была обширна, охватывала различные сферы.

Узбекский учёный, профессор Б. Косимов, называет И. Гаспринского «Третьим учителем», что является великолепной и точной оценкой этого выдающегося просветителя: «Древний Восток признавал Аристотеля «Первым учителем». Аль-Фараби, положивший начало Центральноазиатскому Возрождению, вошёл в историю как «Второй учитель». С течением времени, после четырёх-пяти веков застоя и плена, начался процесс самосознания в тюркском мире. Эксперты называют это «национальным пробуждением». У него есть и второе название – «джадидизм». Именно Исмаил Гаспринский (Гаспрали) воспитал и взрастил класс прогрессивных интеллектуалов, стоявших во главе пробуждения тюркских народов, переживших угнетение русского колониализма в конце XIX и начале XX веков. Поэтому не будет преувеличением назвать его «Третьим учителем» [3, с. 641].

И. Гаспринский также считается духовным лидером и идеологом туркестанского джадидизма.

Лидер узбекского джадидизма М. Бехбуди писал о своём наставнике И. Гаспринском: «За очень короткий исторический период ему удалось объединить все тюркские и татарские народы России в единую национальную семью посредством доброй воли» [3, с. 641].

Туркестанские новаторы (джадиды) также считали И. Гаспринского своим духовным отцом и лидером. Академик Н. Каримов, тщательно и всесторонне изучавший период джадидов, пишет в своей обширной исследовательской книге «Литературные ландшафты XX века»: «Через свою газету «Терджиман» Исмаил Гаспринский не только проложил путь для прихода идей новой эпохи в Туркестан, но и посетил Самарканд и Бухару, сам в 1893 году, встретившись с видными деятелями нации, такими как М. Бехбуди и А. Шакури» [3, 648].

Он даже открыл школу джадидов в Бухаре. Постепенно школы джадидов начали создаваться в таких городах, как Самарканд, Коканд, Ташкент и Андижан. Хотя их было немного, появились первые джадиды».

Наибольший практический вклад Гаспринского заключался в создании школ «усули джадид» (нового метода), направленных на радикальное изменение системы образования.

В центре данной методики лежат принципы обучения, предложенные еще чешским педагогом Я.А. Коменским: начальное обучение на родном языке, обучение девочек и др. Он считал, что нельзя учить ребенка другим языкам, прежде чем он овладеет своим родным языком – языком матери [4, с. 191].

Результатом фонетического метода стала первая школа джадид, открытая в Бахчисарае в 1884 году, ставшая примером. Благодаря новым учебникам и педагогическим подходам ученики смогли овладеть грамотой за 2-3 месяца, что было в десять раз эффективнее традиционного метода [2, с. 75]. Гаспринский создал пособие «Рахбари муаллимин, или «Спутник для учителей» (1898), в котором подробно объясняется эта система.

Введение светских наук: Он ввел преподавание не только религиозных наук, но и современных светских наук, таких как математика, история, география и естественные науки. Благодаря этому ему удалось превратить школу из религиозного учреждения в современный образовательный центр.

Вопрос женского образования: Гаспринский уделял большое внимание не только мужскому образованию, но и женскому. В 1906 году он издал журнал «Олами Нисвон» «Мир мусульманских женщин». Это движение стало одним из первых изданий, открыто обсуждавших вопросы образования мусульманских женщин и повышения их статуса в обществе [1, с. 89].

Актуальность наследия Гаспринского сохраняется и по сей день. Его идеи, такие как модернизация образования, сохранение национального языка и культуры, воспитание молодого поколения как образованных и нравственных людей, а также укрепление связей между тюркскими народами, служат важной духовной основой для реформ в Узбекистане при построении фундамента Третьего Ренессанса.

Деятельность Исмаила Гаспринского является ярким тому доказательством: единственный путь к прогрессу – это освоение современной науки и техники при сохранении национальных ценностей.

Таким образом, реформа Исмаила Гаспринского в области образования стала решающим шагом для прогресса и развития просвещения не только тюркских народов России, но и мусульман других стран. Он вложил очень много сил и времени на изучение опыта передовых европейских, турецких и русских школ, трудов известных ученых-педагогов, создал свою фундаментальную методику, имеющую целью обучение на основе европейских традиций и опирающуюся на исламские ценности. Провозглашенный еще при жизни «Великим Учителем», «Наставником» и «Отцом нации» просветитель смог доказать, что невозможен прогресс мусульманского мира без хорошей системы образования, отвечающей требованиям времени, при этом основанной на лучших традициях мусульманской культуры. Исмаил Гаспринский стал примером беззаветного служения всему тюркомусульманскому народу.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ:

1. Абдирашидов З. *Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние.* Ташкент: Akademnashr; 2011. 378 с.

2. Ганкевич В. Ю. Исмаил Гаспринский и возникновение либерально-мусульманского политического движения / В. Ю. Ганкевич, С. П. Шендрикова. – Симферополь : Доля, 2008. 190 с.

3. Mardanova, D., Tikhonova, N., Ганиева, Р., & Муртазина, Л. (2022). Журнал Minbar. Islamic Studies. Тематический номер, посвященный наследию И. Гаспринского. Minbar. Islamic Studies. Vol. 15, N 3. 748 с. https://doi.org/10.31162/2618-9569-2022-15-3

4. Лордкипанидзе О.Д. Ян Амос Коменский. М.: Издательство «Педагогика»; 1970. 440 с.

3-SHO‘BA. MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIDA TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

IS’HOQXON IBRAT FAOLIYATI VA ILMIY MEROSI – MA’NAVIY YUKSALISH VA MILLIY TARBIYMIZNING TAYANCHI

Ibraimov Xolboy IBRAGIMOVICH,
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, akademik.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Is’hoqxon Ibratning hayoti, ijodiy va ma’rifiy faoliyati tahlil qilinadi. Uning pedagogik, ilmiy, matbaachilik hamda jurnalistik merosining o‘zbek jamiyati taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Ibratning milliy uyg‘onish davridagi xizmatlari, yosh avlodni ma’naviy barkamollik, vatanparvarlik va ilmga intilish ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada buyuk ma’rifatparvar merosining bugungi kundagi dolzarbligi va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, milliy uyg‘onish, pedagogik meros, ma’naviyat, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, ilm-fan, ilmiy meros.

Annotation. This article analyzes the life, creative work, and educational activities of Is’hoqxon Ibrat. It highlights the role of his pedagogical, scientific, publishing, and journalistic heritage in the development of Uzbek society. The study also reveals Ibrat’s contributions during the period of national awakening, particularly his significance in educating the younger generation in the spirit of moral maturity, patriotism, and a стремление toward knowledge. Furthermore, the article provides a scientific assessment of the contemporary relevance and educational value of this great enlightener’s legacy.

Keywords: Is’hoqxon Ibrat, enlightenment, Jadidism, national awakening, pedagogical heritage, spirituality, patriotism, youth education, science, scholarly heritage.

“Har kim o‘zini tuzatsa, jamiyat ham tuzalur!”
Is’hoqxon Ibrat

IX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy jarayonlar jadidchilik harakatining shakllanishiga zamin yaratdi. Bu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat kabi ma’rifatparvarlar millat taraqqiyoti yo‘lida

faoliyat olib bordilar. Farg‘ona vodiysi jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Is’hoqxon Ibratning faoliyati jadidchilik harakatining ma’rifat maydonida alohida o‘rin egallaydi.

Is’hoqxon Ibrat 1862-yilda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Ibrat ajdodlari shajarasini bitgan bo‘lib, uning bobolari asli turkistonlik, mashhur Xoja Ahmad Yassaviy avlodlaridan hisoblangan. Otasi Junaydulla xo‘ja Sunnatilla xo‘ja o‘g‘li, onasi Hurbibi otin xat-savodli kishilar bo‘lib, maktabdorlik faoliyati bilan shug‘ullanganlar. Is’hoqxon ota-onasi qo‘lida savod chiqarib, keyin turli maktab va madrasalarda o‘qiydi. 1886-yilda madrasada o‘qishni tugatib, o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytib kelgan. Is’hoqxon Ibrat o‘z faoliyatini To‘raqo‘rg‘onda yangi maktab ochib, dars berishdan boshlagan. Uning maktabi “usuli qadim” (“usuli tahajji”), ya’ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Is’hoqxon o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan tovush (usuli savtiya) usulini tatbiq qilgan edi. Biroq bu maktab uzoq faoliyat olib bormagan. O‘zgacha uslubdagi bu maktabni Namangandagi Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan yopishga majbur qilingan.

1887–1906-yillar davomida Ibrat Sharq va Yevropa mamlakatlariga sayohat qilib, Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi shaharlarda bo‘lgan, shuningdek, Hindiston, Xitoy va Arab mamlakatlarida yashagan. Bu safarlar davomida u arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o‘rganadi. Ibratning ilmiy merosi ko‘p qirrali bo‘lib, u tilshunoslik, tarixshunoslik va adabiyot sohalarida samarali ijod qilgan. 1896-yil yigirma yillik uzoq safardan so‘ng Is’hoqxon Ibrat ona qishlog‘iga qaytadi. Xorij safaridan keyin xalqning fikrini o‘stirish, ilm-ma’rifat nuridan bahramand qilish yo‘lida tinimsiz mehnat qilgan. 1898-yildan e’tiboran To‘raqo‘rg‘on xalq qozisi, Turkiston qozilar syezdining faol a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1901-yilda arab, fors, hind, turk, o‘zbek, va rus tillari asosida “Lug‘ati sitta al-sina”, ya’ni “Olti tilli lug‘at” asarini yaratgan. Aynan ushbu lug‘atdan o‘sha davrda barcha jadidchilik maktablarida rus, arab, fors va boshqa tillar o‘quv qo‘llanmasi o‘rnida foydalanilgan. Keyin esa “Jome’ ul-xutut” asarini yaratdi. Ushbu asarda yozuvlarning tarixiy taraqqiyoti keng yoritilib, piktografik yozuvlardan tortib, zamonaviy yozuv tizimlarigacha bo‘lgan evolyutsiyani ilmiy tahlil qilgan.

Shuningdek, u tarixshunos sifatida “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon uz-zamon” kabi asarlarni yaratib, o‘z davrining muhim voqealarini yoritdi. Ushbu asarlarda muallif tarixiy jarayonlarga tanqidiy yondashib, siyosiy voqealarga mustaqil baho beradi.

Is’hoqxon To‘ra Ibratning “Mezon uz-zamon” asari 1916–1925-yillar oralig‘ida nasriy usulda yaratilgan bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra muqaddima hamda to‘qqizta mezondan (bobdan) iboratdir. Muallif asar boblarini “mezon” deb atashi

orqali unda ilgari surilgan g‘oyalarni muayyan axloqiy va ijtimoiy mezonlar asosida yoritishni maqsad qilgan.

Asarning muqaddima qismida Ibrat uni yozishga undagan omillar hamda ko‘zlangan maqsadlarni batafsil bayon etadi. Jumladan, muallif yaxshi va yomon, foyda va zarar, halol va harom tushunchalarini nafaqat og‘zaki tarzda, balki yozma shaklda ham avlodlarga yetkazish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bunday yozma manbalar o‘quvchi uchun hayotiy saboq vazifasini bajarib, ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasiga aylanishi mumkin. Asarning har bir mezonida o‘tmish va zamonaviy hayotga xos bo‘lgan turli ijtimoiy, ma’naviy hamda madaniy muammolar keng qamrovda tahlil qilinadi. Muallif ushbu masalalarni tanqidiy yondashuv asosida yoritib, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim xulosalar chiqaradi.

“Mezon uz-zamon” asaridagi asosiy mezonlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu mezonlar har bir davrda tarbiyaning tarbiyaning tayanchi bo‘la oladi desak, mubolag‘a emas. Ibrat ushbu asari orqali quyidagi inson hayotidagi muhim mezonlarni ko‘rsatadi:

1-mezon: Ilm va ma’rifat mezoni. Inson kamolotining asosi ilm ekanligi ta’kidlanadi. Ilm jaholatni yo‘qotib, inson uchun “saodat eshiklarini ochadi”. Ibrat nazarida jamiyat taraqqiyoti – avvalo ilm bilan bog‘liq.

2-mezon: Halollik va rostgo‘ylik mezoni. Halol yashash, rost so‘zlash jamiyat barqarorligining asosidir. Yolg‘on va riyokorlik jamiyatni tanazzulga olib keladi.

3-mezon: Ahillik va insonparvarlik mezoni. Jamiyatda mehr-oqibat, birlik va hamjihatlik muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Qur’on va hadis asosida tartibga solinishi kerak.

4-mezon: Din va e’tiqodga amal qilish mezoni. Din – axloqiy mezon sifatida talqin qilinadi. Dinni to‘g‘ri tushunish va amalda qo‘llash jamiyatni poklaydi.

5-mezon: Jamiyatdagi illatlarni tanqid qilish mezoni. Asarda jaholat, isrof, axloqsizlik, dangasalik kabi illatlar keskin tanqid qilinadi. Bu mezon orqali muallif zamon muammolarini ochib beradi.

6-mezon: Madaniyat va taraqqiyot mezoni. Millatning rivoji madaniyat va yangilanishni qabul qilish bilan bog‘liq. Ibrat jamiyatni yangilanish va islohotlarga chaqiradi.

7-mezon: Ijtimoiy adolat mezoni. Turli tabaqalar o‘rtasidagi tenglik va adolat muhim, deb hisoblanadi. Jamiyatdagi notenglik va zulm tanqid qilinadi.

8-mezon: Tarbiya va axloq mezoni. Inson tarbiyasi – jamiyat kelajagini belgilovchi omil. Axloqiy poklik va tarbiyalilik asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi.

9-mezon: Zamonni anglash va islohot mezoni. Har bir davr o‘zgarishini anglab yashash zarurligi ta’kidlanadi. Jamiyatni rivojlantirish uchun zamon talablari bilan hamnafas bo‘lish kerak.

Is’hoqxon Ibratning “Mezon uz-zamon” asari ilmiy jamoatchilikka keyinchalik qayta taqdim etilgan. Xususan, 2001-yilda yapon olimi Xisao Komatsu va o‘zbek olimi Baxtiyor Bobojonovlar hamkorligida Toshkent va Tokio shaharlarida nashr etilgan. 2000-yilda esa Ibrat qalamiga mansub she’rlar Turkiyada turk adabiyoti antologiyasi tarkibida nashr etildi. Professor U. Dolimovning “Milliy uyg‘onish pedagogikasi” asarida Ibrat hayoti va ijodining xorijiy tadqiqi haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan. U. Dolimov va N. Jabborov hamkorligida adib asarlarining tanlangan nashri tayyorlangan.

Ishoqxon Ibrat o‘zining bor kuchi, imkoniyatini fidoyilarcha xalq ma’rifatini yuksaltirish, hurriyatga erish, yoshlarga imkoniyatlar yaratishga sarfladi. Shuning uchun ham 1935-yil Is’hoqxon Ibrat barcha lavozimlardan ozod etiladi va unga maktablarda dars berish ta’qiqlanadi. 1937-yil u “sovetga qarshi targ‘ibot”da ayblanib, hibsga olinadi va qamaladi. Sudi bo‘lmay, 2 oydan so‘ng 75 yoshida qamoqning jismoniy ham ruhiy qiynoqlariga dosh bera olmay vafot etgan. Uning qabri ham qayerdaligi noma’lum. O‘g‘li Rotifxon Is’hoqovning sa’y-harakatlari bilan Ibrat 1959-yil 2-oktabrda Andijon viloyat prokuraturasining 3336 raqamlik hujjatiga ko‘ra to‘la oqlangan.

Is’hoqxon Ibratning tarbiyaga oid qarashlarining bugungi kunda yanada ahamiyati yuksalmoqda. Uning jadidchilik g‘oyalari yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda muhim nazariy va motivatsion manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ibrat o‘z asarlarida va faoliyatida “Har bir qavmning taraqqiysi ilm va ma’rifat ila bo‘lur. Ilmsiz xalq johil qolur va taraqqiy etmas”, “Har bir elning taraqqiy va tamadduni ilm va ma’rifatga bog‘liqdur. Ilm yo‘q yerda taraqqiy bo‘lmas, balki tanazzul zohir bo‘lur” degan g‘oyani ilgari suradi. “Tarbiyaning eng muhim maqsadi – insonni yaxshilik va yomonlik, halol va harom, foyda va zarar o‘rtasidagi farqni anglashga o‘rgatishdir” deydi Ibrat. U bu fikr orqali axloqiy ongni shakllantirishni tarbiyaning markaziga qo‘yadi. Ibrat alohida urg‘u bilan yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratadi. U yurtning kelajak taqdiri aynan yoshlarning qanday tarbiya olganiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Ma’rifatparvar inson tarbiyasida so‘zdan ko‘ra amaliy namuna kuchliroq ta’sir qilishini qayd etadi. Ya’ni, jamiyatdagi yetuk shaxslar o‘z xulqi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishi lozim deb qaraydi.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat nomini abadiylashtirish, uning boy ilmiy-ma’rifiy merosini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda bir qator muhim tashkiliy, madaniy va ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. 2016-yil 2 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvida Is’hoqxon Ibrat hayoti va faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tgan. 2017-yil 13-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat

nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Ushbu qaror asosida majmuada Ibratning mahobatli haykali, milliy uslubdagi ayvon, bosmaxona, musiqali favvora, xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 400 o‘rinli maktab-internat, maktabgacha ta’lim muassasasi va tarixiy-ma’rifiy muzey tashkil etildi. Shuningdek, “O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga binoan “Kinomaniya” studiyasi tomonidan “Ibrat” badiiy filmi suratga olinib, unda adibning murakkab va serqirra hayot yo‘li badiiy talqinda aks ettirilgan.

Is’hoqxon Ibratning hayoti va faoliyati – bu ilm, ma’rifat va vatanparvarlik yo‘lida chin fidoyilikning yorqin timsolidir. U o‘z davrida xalq qalbida uyg‘onish uchqunini yoqib, milliy o‘zlikni anglash, tafakkurni yuksaltirish va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklash yo‘lida mashaqqatli, ammo sharafli mehnat qilgan buyuk ma’rifatparvardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibraimov X. I., Qur’onov M. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 320 b.

2. Ibraimov X. I., Qur’onov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 288 b.

3. Ibraimov X. I., Qur’onov M., Fozilov J., Zaripov F. Ota-ona – murabbiy. Toshkent: O‘zbekiston, 2024. 256 b.

4. Ibrat I. Tarixi Farg‘ona. – Toshkent: Fan, 1991. – 180 b.

5. Ibrat I. Mezon uz-zamon. – Toshkent: Sharq, 2001. – 120 b.

6. Qosimov B. O‘zbek ma’rifatparvarlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 320 b.

7. Karimov N. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 240 b.

8. Ergashev Sh. Is’hoqxon Ibrat va uning ma’rifiy faoliyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2010. – №3. – B. 45–52.

9. Yo‘ldoshev A. Ibrat merosining pedagogik ahamiyati // Xalq ta’limi. – 2015. – №6. – B. 78–84.

JADIDCHILIK PEDAGOGIKASI: TARIXIY MEROS, ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI VA INTEGRATIV YONDASHUVLAR

Tojiboyeva Xilolaxon MAXMUTOVNA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, ularning pedagogik merosi, shuningdek, ushbu g‘oyalarning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, jadidchilik harakati namoyandalarining milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, shaxs kamoloti, ijtimoiy faollik va vatanparvarlikka oid g‘oyalari pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid mutafakkirlari, pedagogik meros, ta’lim-tarbiya, milliy pedagogika, tarixiy meros, zamonaviy yondashuvlar, integratsiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiya.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, uni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida rivojlantirish, tarixiy-pedagogik merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini qayta o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onishning muhim manbai sifatida maydonga chiqqan. Uning namoyandalari ta’lim tizimini isloh qilish, maktab va madrasalarni yangilash, yangi usulda o‘qitishni joriy etish, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, millat taqdiriga daxldor, ma’rifatli va vatanparvar avlodni tarbiyalash g‘oyalarini ilgari surgan. Jadid mutafakkirlari faqat ta’limning tashkiliy jihatlarini emas, balki uning mazmuni, maqsadi, tarbiyaviy vazifasi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ham chuqur anglaganlar.

Bugungi globallashuv, raqamlashuv va ta’lim mazmunining yangilanishi sharoitida jadidlar g‘oyalariga murojaat qilish tarixiy ehtiyoj emas, balki zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir. Chunki ular ilgari surgan ta’limning millat taqdiri bilan bog‘liqligi, shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, amaliy bilim va taraqqiyotga xizmat qilish kabi g‘oyalar hozirgi ta’lim islohotlarining mazmuniga hamosangdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili jadidchilikni ko‘pincha ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy uyg‘onish harakati sifatida baholash ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Biroq uning bevosita pedagogik mexanizmlari, tarbiya konsepsiyasi, o‘qitish metodlari va o‘quv mazmunini yangilashga doir qoidalari hanuz tizimli ravishda sharhlanishiga ehtiyoj bor. Shu nuqtai nazardan, jadidchilik pedagogikasini tarixiy manba sifatida emas, balki zamonaviy ta’limni konseptual boyituvchi resurs sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Maqolada tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy, mantiqiy-tizimli va interpretatsion yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini jadidchilik harakati tarixi, milliy pedagogika nazariyasi, ta’lim falsafasi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi: tarixiy-pedagogik tahlil - jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari, asarlari va amaliy faoliyatini o‘rganishda; qiyosiy tahlil - jadidlar ilgari surgan pedagogik g‘oyalarni zamonaviy ta’lim tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, innovatsion va milliy qadriyatlarga tayangan yondashuvlar bilan solishtirishda; tizimli yondashuv - jadidlar merosini milliy pedagogika rivojining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishda; kontent-tahlil - Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat kabi namoyandalarning asarlari va ular haqidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda.

Tahlil bir nechta mezonlar asosida olib borildi: ta’limning maqsadi haqidagi qarashlar, tarbiya mazmuni, o‘qitish usullari, milliy qadriyatlarga munosabat, shaxs rivojiga doir g‘oyalar va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq pedagogik vazifalar. Mazkur mezonlar jadidlar merosini zamonaviy ta’lim nazariyasi bilan qiyoslash uchun asosiy tahliliy ramka sifatida xizmat qildi.

Materiallarni interpretatsiya qilishda hozirgi pedagogikada keng qo‘llanilayotgan integrativ, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanildi. Bu esa tarixiy merosni hozirgi ta’lim talablari bilan qarama-qarshi qo‘ymasdan, balki ular o‘rtasidagi mazmuniy vorisiylikni aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida jadid mutafakkirlarining pedagogik merosi va uning zamonaviy ta’lim tizimi bilan aloqador jihatlari olindi. Tadqiqot predmetini esa jadidlar g‘oyalarining milliy pedagogika rivojida tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi nuqtai nazaridan ifodalanishi tashkil etdi.

Tadqiqotning manba bazasini jadidlar asarlari, pedagogika tarixi bo‘yicha nashrlar, milliy pedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy ta’lim konsepsiyalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tashkil qildi. Manbalarni tanlashda ularning mazmunan yaqinligi, pedagogik ahamiyati va milliy ta’lim tafakkuri bilan bog‘liqligi inobatga olindi.

Jadid mutafakkirlari ta’limni millatning taraqqiyot omili, jamiyatning yangilanish vositasi va shaxs kamolotining asosiy sharti sifatida baholaganlar. Ular nazdida maktab faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki millatning ma’naviy kelajagini belgilaydigan, ijtimoiy ongni shakllantiradigan va yangi tafakkur egalarini tarbiyalaydigan muhim ijtimoiy institut hisoblangan.

Jadidlar pedagogik qarashlarining markazida ta’lim va tarbiyaning uzviyligi turadi. Ular fikricha, faqatgina bilim berish yetarli emas, balki o‘quvchida axloq, mas’uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ma’naviy poklik va faol fuqarolik pozitsiyasi ham shakllantirilishi zarur. Bu nuqtai nazar, ayniqsa, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida axloqiy tarbiya inson kamolotining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi.

Abdulla Avloniy ta’lim va axloqiy tarbiyani bir butun jarayon sifatida ko‘rgan mutafakkir sifatida ajralib turadi. Uning asarlarida inson kamoloti, odob, millatga xizmat, ilmning foydaliligi va o‘qituvchining jamiyat oldidagi mas’uliyati markaziy o‘rin tutadi. Bu jihatlar uning pedagogik merosini ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy manbalaridan biri sifatida baholashga asos beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy maktab islohoti, darsliklar yaratish, milliy o‘quv mazmunini shakllantirish va jamiyatni ma’rifat orqali yangilash g‘oyalarini izchil ilgari surdi. U ta’limni jamiyat taraqqiyotining amaliy mexanizmi sifatida ko‘rdi va bu yondashuv bugungi kunda ham ta’lim siyosati, o‘quv mazmuni va fuqarolik tarbiyasi masalalarida ahamiyatlidir.

Abdurauf Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida milliy ong, mustaqil tafakkur, til, madaniyat va jamiyatni isloh qilish bilan bog‘liq pedagogik g‘oyalar keng yoritilgan. Ular ta’limni nafaqat bilim berish, balki shaxsda mas’uliyat, dunyoqarash va jamiyat oldidagi burchni shakllantirish vositasi deb tushunganlar. Shu bois, ularning qarashlari zamonaviy tarbiyaviy ta’lim modellari uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Jadidlar an’anaviy ta’limdagi yodlashga asoslangan, hayotdan uzoq, faol fikrlashni rivojlantirmaydigan usullarni tanqid qilganlar. Ular o‘qitishda yangi usul, ya’ni tovush asosida savod o‘rgatish, amaliy bilim berish, tabiiy va ijtimoiy fanlarni o‘qitish, ko‘rgazmalilikdan foydalanish, darsning mazmundor va tushunarli bo‘lishini ta’minlash kabi yangiliklarni joriy etganlar. Bu ularning pedagogik merosida innovatsion yondashuv elementlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Jadidlar ta’limni milliy uyg‘onish bilan bog‘laganlar. Ular ona tili, milliy madaniyat, tarixiy xotira, milliy g‘urur va ma’naviy merosni ta’lim mazmuniga singdirish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu g‘oyalar ta’lim orqali milliy o‘zlikni anglash va millat ravnaqiga daxldor shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

Jadid mutafakkirlari ta’limning asosiy maqsadi ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, zamon bilan hamnafas va millat taqdiriga daxldor shaxsni tarbiyalashdan iborat, deb hisoblaganlar. Shu ma’noda ularning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’limdagi tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, kreativlik va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari bilan uyg‘unlashadi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ko‘plab g‘oyalar bugungi ta’lim islohotlari mazmunida o‘z aksini topgan. Bu holat ularning merosi faqat tarixiy emas, balki amaliy va konseptual ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olish asosiy tamoyilga aylanmoqda. Jadidlar ham bolani ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida ko‘rganlar. Ular o‘quvchining fikrlashi, anglashi, tushunishi va amalda qo‘llay olishiga alohida ahamiyat berganlar.

Hozirgi ta’limda bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotiy faoliyatda qo‘llashga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Jadidlar ta’limni faqat nazariy ma’lumotlar yig‘indisi sifatida emas, balki insonni hayotga tayyorlovchi amaliy jarayon deb tushunganlar. Ularning hayot uchun ta’lim, amaliy bilim, dunyoviy fanlar, foydali kasb va ijtimoiy mas’uliyatga urg‘u berishi bugungi kompetensiyaviy yondashuvga yaqin turadi.

Globallashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasi, ma’naviy immunitet, milliy qadriyatlar, axloqiy barqarorlik masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlar bu muammolarga ancha oldin e’tibor qaratganlar. Ular yoshlarni ilmli bo‘lish bilan birga, odobli, halol, mehnatsevar, vatanparvar va millatparvar qilib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilaganlar.

Zamonaviy ta’limda milliylik va innovatsiyani uyg‘unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Jadidlar ana shu masalada ilk nazariy va amaliy asoslarni yaratganlar. Ular milliy ruhni saqlagan holda, dunyoviy bilimlar, xorijiy tajriba va ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish zarurligini ta’kidlaganlar. Demak, jadidlar g‘oyasi milliylik va zamonaviylik sinteziga asoslangan.

Milliy pedagogika taraqqiyotini ta’minlashda tarixiy merosga tayanish va uni zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu jihatdan jadidlar merosi milliy pedagogikaning mazmunan boyishi, g‘oyaviy mustahkamlanishi va innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi deganda, o‘tmish pedagogik tajribasining mazmunan ahamiyatli jihatlarini hozirgi ta’lim ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish tushuniladi. Bu jarayon oddiy tarixiy merosni takrorlash

emas, balki uni qayta interpretatsiya qilish, zamonaviy pedagogik kontekstda mazmunan boyitish va amaliyotga moslashtirishni taqozo etadi.

Jadidlar pedagogik merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga quyidagi yo‘nalishlarda integratsiya qilish mumkin: ta’lim mazmuniga jadidlarning ma’rifat, axloq, milliy o‘zlik va vatanparvarlik haqidagi g‘oyalarini singdirish; pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida jadidlar merosini tarixiy-pedagogik manba sifatida o‘qitish; ma’naviy-ma’rifiy ishlar, tarbiyaviy soatlar, maxsus kurslar va fakultativ mashg‘ulotlarda jadidlar asarlaridan foydalanish; zamonaviy dars ishlanmalari, keyslar, muammoli vazifalar va multimediali materiallar orqali jadidlar g‘oyalarini yangi shaklda taqdim etish; milliy pedagogika konsepsiyalarini ishlab chiqishda jadidlar merosini nazariy manba sifatida qo‘llash.

Jadidlar merosini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish ta’limning milliy-axloqiy asoslarini mustahkamlaydi, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani kuchaytiradi, ta’lim mazmunida ma’naviyat va amaliylik uyg‘unligini ta’minlaydi hamda pedagog kadrlarda milliy pedagogik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Integratsiya jarayonining samaradorligi uning maqsadga yo‘nalganligi, mazmunan tanlanganligi va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlanganligiga bog‘liq. Agar tarixiy meros faqat deklarativ tarzda emas, balki o‘quv mazmuni, metodika va tarbiyaviy ishlar tizimiga amaliy singdirilsa, u holda milliy pedagogika taraqqiyotida barqaror va ta’sirchan natijalarga erishish mumkin.

Jadidlar merosini ta’lim amaliyotiga singdirish birinchi navbatda o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Pedagogika tarixi, tarbiya nazariyasi, milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlar tarkibida jadidlar merosiga oid mavzularni faqat tarixiy ma’lumot sifatida emas, balki zamonaviy kasbiy vazifalar bilan bog‘lab o‘qitish muhim.

Ikkinchi mexanizm - maxsus keyslar, muammoli vaziyatlar va integrativ topshiriqlar ishlab chiqishdir. Masalan, jadid mutafakkirlarining ayrim fikrlarini hozirgi ta’lim muammolari bilan qiyoslash, axloqiy tarbiya mazmunini boyitish yoki milliy o‘zlikni anglashga oid faoliyatlar bilan bog‘lash orqali tarixiy meros amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi mexanizm - bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligida refleksiv va loyihaviy yondashuvni kuchaytirishdir. Agar talabalar jadidlar merosi asosida mini-loyihalar, tarbiyaviy tadbir ssenariylari, dars konstruktorlari va metodik ishlanmalar tayyorlasalar, tarixiy meros ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi faol resursga aylanadi.

Tadqiqot natijalari jadid mutafakkirlarining pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimi uchun faqat tarixiy qimmatga emas, balki metodologik va amaliy

ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatdi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ta’limni insonparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirish, milliylashtirish va innovatsion rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan mazmunan mushtarakdir.

Biroq jadidlar merosini zamonaviy ta’limga integratsiya qilish jarayonida bir qator shartlarga amal qilish zarur. Avvalo, ularning qarashlarini mexanik tarzda emas, balki zamonaviy ijtimoiy-pedagogik sharoitlar nuqtai nazaridan qayta talqin qilish kerak. Chunki jadidlar yashagan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhiti bugungi kundan farq qiladi. Shu sababli, ularning g‘oyalarini zamonaviy ta’limga tatbiq etishda mazmunan moslashtirish muhimdir.

Ikkinchidan, jadidlar merosi ko‘proq ma’naviy-ma’rifiy va tarixiy yo‘nalishda o‘rganilib kelinmoqda, ammo uning pedagogik-texnologik imkoniyatlari to‘liq ochib berilmagan. Masalan, jadidlar asarlari asosida interaktiv dars ishlanmalari, keyslar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari, axloqiy tarbiyaga oid modellar ishlab chiqish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Uchinchidan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida jadidlar merosiga tayangan maxsus modullar, integrativ kurslar va amaliy metodik qo‘llanmalarni ko‘paytirish lozim. Bu milliy pedagogik meros va zamonaviy kasbiy kompetensiyalar uyg‘unligini ta’minlaydi.

Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, jadidlar pedagogik merosi milliy pedagogika uchun g‘oyaviy-ma’rifiy ildiz vazifasini bajaradi. Zamonaviy yondashuvlar esa uning funksional va texnologik ifodasini ta’minlaydi. Demak, milliy pedagogika taraqqiyoti aynan tarixiy meros va zamonaviy innovatsion qarashlarning uyg‘unligida samarali rivojlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadidchilik pedagogikasi zamonaviy ta’lim uchun kamida uch jihatdan muhim: birinchisi - u milliy pedagogikaning aksiologik negizini mustahkamlaydi; ikkinchisi - ta’lim mazmunini insonparvar va fuqarolik yo‘nalishida boyitadi; uchinchisi - bo‘lajak pedagoglarning kasbiy pozitsiyasini tarixiy vorisiylik asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, integratsiya jarayonida tanqidiy saralash tamoyiliga amal qilish lozim. Ya’ni jadidlar merosidagi barcha g‘oyalarni o‘zgarishsiz ko‘chirish emas, balki hozirgi ta’lim siyosatining maqsadlari, bola huquqlari, inklyuzivlik, raqamli muhit va zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan uyg‘un jihatlarini ilmiy asosda saralab olish talab etiladi.

Kelgusida bu mavzuda empirik tadqiqotlar o‘tkazish, jadidlar merosi asosida maxsus modullar yaratish va ularning talabalarning kasbiy kompetensiyalariga ta’sirini tajriba-sinov orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Bu tarixiy-pedagogik

merosdan foydalanishning samaradorligini faqat nazariy emas, balki amaliy mezonlar asosida ham baholash imkonini beradi.

Jadid mutafakkirlari ta’lim va tarbiyani millat taraqqiyoti, shaxs kamoloti va ijtimoiy yangilanishning asosiy omili sifatida baholagani ularning pedagogik merosini milliy ta’lim tarixi uchun beqiyos ahamiyatli manbaga aylantiradi. Jadidlarning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarida axloqiy tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, amaliy bilim, mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik kabi g‘oyalar ustuvor o‘rin egallaydi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar zamonaviy ta’lim tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, milliy qadriyatlarga asoslangan va innovatsion yondashuvlar bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Milliy pedagogika rivojida tarixiy meros va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi ta’lim mazmunini boyitish, uning milliy-axloqiy asoslarini mustahkamlash va pedagogik jarayonni konseptual jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Jadidlar pedagogik merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun uni qayta interpretatsiya qilish, o‘quv-metodik ta’minot yaratish, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga singdirish va tarbiyaviy ishlar mazmuniga joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O‘qituvchi.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Pedagogik va ma’rifiy asarlar. - Toshkent.
5. Ibrat I. Tanlangan asarlar. - Toshkent.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Toshkent.
7. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi.
8. Ochilov M. Pedagogika. - Toshkent.
9. O‘zbekistonda jadidchilik harakati tarixi va nazariyasiga oid ilmiy to‘plamlar.
10. Milliy pedagogika va ta’lim modernizatsiyasiga oid zamonaviy tadqiqotlar.

BIR RUH, IKKI DAVR: BOBUR TAFAKKURI VA JADIDLAR HARAKATI

Munisjon HAKIMOV,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi Nodir qo‘lyozmalar bo‘limi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tafakkuri hamda jadidchilik harakati namoyandalari faoliyati o‘rtasidagi ma’naviy uzviylik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Muallif ikki turli tarixiy davrga mansub bo‘lgan ushbu hodisalarni yagona ruhiy oqim — mas’uliyatli davlatchilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining davomiyligi sifatida talqin qiladi. Jadidlar harakatining mohiyati jamiyatni ma’rifat orqali yangilash, inson ongini uyg‘otish va shu orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish g‘oyalari asosida yoritiladi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalari qarashlari misolida ma’rifat va ta’limning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o‘rni asoslab beriladi.

Tadqiqot natijasida Bobur va jadidlar o‘rtasidagi umumiylik — hokimiyatni mutlaq qudrat emas, balki ma’naviy mas’uliyat sifatida anglash, jamiyat taraqqiyotini esa inson ongi va ma’rifat bilan bog‘lash g‘oyasi ekanligi xulosalanadi. Maqola bugungi “Uchinchi Renessans” konsepsiyasi doirasida milliy tafakkur taraqqiyotining tarixiy ildizlarini anglash va zamonaviy ta’lim hamda jamiyat rivojida undan samarali foydalanish zaruratini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: “Uchinchi Renessans”, millat tafakkuri, jadidchilik, jamiyatni uyg‘otish, milliy o‘zlik, jadidlar merosi.

Annotation. This article provides a theoretical and analytical examination of the spiritual continuity between the intellectual legacy of Zahiriddin Muhammad Babur and the activities of the Jadid movement representatives. The author interprets these two historically distant phenomena as parts of a unified intellectual stream characterized by the continuity of responsible statehood and enlightenment ideas. The essence of the Jadid movement is revealed through its focus on transforming society via education, awakening human consciousness, and achieving social progress. In particular, the views of prominent Jadid figures such as Mahmudkhoja Behbudi and Abdulla Avloni are used to substantiate the decisive role of education and enlightenment in societal development.

The study concludes that the commonality between Babur and the Jadids lies in perceiving authority not as absolute power, but as a moral responsibility, and in linking social progress to human consciousness and enlightenment. The article also

highlights the importance of understanding the historical roots of national intellectual development within the framework of the “Third Renaissance” concept and emphasizes the need for its effective application in contemporary education and societal advancement.

Keywords: “Third Renaissance”, national consciousness, Jadidism, awakening of society, national identity, Jadid heritage.

Tarix oddiy voqealar ketma-ketligi emas. U millat tafakkurining uzluksiz harakati, bir davrdan ikkinchisiga o‘tadigan ma’naviy estafetadir. Davlatlar qulaydi, sulolalar almashadi, siyosiy tizimlar o‘zgaradi, ammo millatni millat qilib saqlab qoladigan ruh yo‘qolmaydi. Ana shu ruh ayrim davrlarda kuchayib, ayrim pallalarda sinab ko‘riladi, lekin butunlay so‘nmaydi.

O‘zbek tafakkuri tarixida ham shunday uzluksiz ma’naviy yo‘l bor. Bu yo‘l bir tomonda davlatchilik va mas’uliyat, ikkinchi tomonda ma’rifat va ong bilan belgilanadi. Bir qarashda o‘zaro uzoq tuyulgan ikki davr: Bobur zamoni va jadidlar davri – aslida shu bitta ruhiy oqimning turli bosqichlaridir. Ular orasida asrlar bor, ammo maqsad bir: millatni asrash, inson qadrini saqlash va kelajakka umid qoldirish.

Bobur davrida bu tafakkur hokimiyat orqali namoyon bo‘ldi. Davlat boshqaruvida vijdon, adolat va ma’naviy mas’uliyat mezon sifatida ko‘rildi. Jadidlar davrida esa xuddi shu ruh boshqa shaklda – maktab, matbuot, ma’rifat va jamoat ongi orqali namoyon bo‘ldi. Ya’ni hokimiyat o‘zgardi, usul almashdi, ammo mohiyat saqlanib qoldi.

Bugun “Uchinchi Renessans” degan tushuncha aynan shu tarixiy uzluksizlikka tayanadi. U yangi g‘oya emas, balki asrlar davomida shakllangan ma’naviy tafakkurning navbatdagi bosqichidir. Demak, bugungi taraqqiyotni to‘g‘ri anglash uchun faqat hozirga emas, balki o‘sha ruh qaysi ildizdan oziqlanganiga ham qarash zarur.

Shu ma’noda, Bobur tafakkuri va jadidlar harakati – ikki alohida tarixiy hodisa emas, balki bir ruhning ikki davrdagi ifodasidir. Ularni birga o‘rganish esa bugungi taraqqiyot g‘oyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Bobur: ma’rifatli hokimiyat tafakkuri

Zahiriddin Muhammad Bobur tarix sahnasiga qo‘lida qudrat bilan chiqqan hukmdor edi. Ammo uning davlatchilik tafakkuri faqat shamshirga emas, aql va vijdonga tayangani bilan ajralib turadi. Bobur uchun hokimiyat g‘alaba ramzidan ko‘ra javobgarlik mezoni edi. Shu bois u o‘z faoliyatini bezab ko‘rsatishga emas, anglashga va xatolardan xulosa chiqarishga intildi.

Bu yondashuv “Boburnoma”da Samarqand voqealari orqali juda aniq ko‘rinadi. Bobur Samarqandni qo‘lga kiritganini yozar ekan, uni saqlab qololmaganini tashqi xiyonat yoki taqdirga yuklamaydi. Aksincha, u mag‘lubiyat sababini ochiq tan oladi: *“Men Samarqand olg‘bnda, o‘n to‘qquz yoshta edim. Ne ko‘p ish ko‘rub edim, ne tajriba bo‘lub edi”*. Bu iqtibos Boburning davlatchilik tafakkuridagi noyob jihatni ochib beradi. Ya’ni u hokim sifatidagi kamchilikni o‘z yoshligi va tajribasizligi bilan bog‘laydi. Aybni boshqalarga yuklamaydi, o‘zini oqlamaydi. Bu – hokim uchun juda kam uchraydigan fazilat.

Boburning davlatchilikka munosabatida xalq roziligi ham hal qiluvchi o‘rin tutadi. “Boburnoma”da u qamal paytida xalqning qanday og‘ir ahvolga tushganini yashirmay yozadi. Samarqand qamali chog‘ida u aholi chekkan qiyinchilikni shunday tasvirlaydi: *“Elga bisyor tanqisliq bo‘ldi… faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar”*. Ya’ni Bobur urushni qahramonlik sahnasi sifatida emas, balki inson taqdiriga solingan og‘ir sinov sifatida ko‘rsatadi. U shaharlarning vayron bo‘lishi, xalqning ochlik va qiyinchilikka duchor bo‘lishini davlat uchun eng og‘ir oqibat deb biladi.

Jang va qamallar tasvirida ham Bobur romantik qahramonlikka berilmaydi. U urushning natijasini faqat g‘alaba yoki mag‘lubiyat bilan emas, odamlar taqdiri bilan o‘lchaydi. Qamal uzayganida u ochiq tan oladi: *“Sipohi va raiyat navmid bo‘lib, birar, ikkirar qo‘rg‘ondin tashlab qocha kirishtilar”*. Bu satrlar Boburning hokimiyatga ma’naviy mas’uliyat bilan qaraganini ko‘rsatadi. Urush – uning uchun g‘alaba sahnasi emas, balki davlat va xalq oldidagi hisob edi.

Shu tariqa, Bobur davlatni faqat harbiy kuch yoki ma’muriy tuzilma sifatida emas, ma’naviy javobgarlik maydoni sifatida angladi. Uning tafakkurida hokimiyat xalq ustidan ustunlik emas, xalq oldidagi burch edi. Ana shu yondashuv Boburni oddiy sarkardadan ko‘ra kengroq, asrlar oshib ham ahamiyatini yo‘qotmaydigan davlat arbobiga aylantiradi.

Jadidlar: ma’rifat orqali jamiyatni uyg‘otish

XX asr boshlarida maydonga chiqqan Jadidlar harakati siyosiy kurashni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hokimiyat uchun emas, inson ongi uchun olib bordi. Ular jamiyat o‘zgarishi, avvalo, fikrda boshlanishini yaxshi anglar edilar. Shu bois jadidlar uchun asosiy maydon maktab, matbuot, teatr va so‘z minbari bo‘ldi. Bu harakat qurol bilan emas, qalam bilan qurollandi.

Jadidlar tafakkurida hokimiyat muammosi davlat tuzilmasidan ko‘ra chuqurroq qo‘yildi. Ularning fikricha, jamiyat qullik ruhidan chiqmas ekan, har qanday hokimiyat zulmga aylanishi mumkin. Shu sababli bu fidoyilar «kim

hukmron?» degan savoldan ko‘ra «kim anglagan?» degan savolni ustuvor deb bildilar. Ma’rifat jadidlar uchun siyosatning eng oliy shakli edi.

Jadid asarlarida tanqid ochiq va qat’iy, ammo hech qachon vayronkor emas. Ular hokimiyatni butunlay inkor qilish yo‘lidan bormadi; aksincha, hokimiyatni vijdon va mas’uliyat oldiga chaqirdi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Haq olinur, berilmas” kabi maqolalarida podshoh yoki ma’muriyatni la’natlashdan ko‘ra, amaldorning johilligi, ta’limsizligi va xalq dardini bilmasligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, muammo hokimiyatning mavjudligida emas, balki uning qanday odamlar qo‘lida ekanidadir.

Jadidlar uchun amaldor johilligi, xalq savodsizligi va maktablar qoloqligi bir-biriga bog‘langan bitta zanjir edi. Behbudiyning *“maktab isloh qilinmas ekan, millat isloh bo‘lmas”* degan mazmundagi fikrlari, yoki Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi asarlari shuni ko‘rsatadiki, ular jamiyatni yuqoridan zo‘rlik bilan emas, pastdan ma’rifat bilan o‘zgartirishni taklif qildi. Agar maktab qoloq bo‘lsa, xalq ongsiz qoladi, xalq ongsiz bo‘lsa, hokimiyat ham mas’uliyatsiz bo‘ladi. Jadidlar ana shu halqani uzishni maqsad qildi.

Jadidlar faoliyatida xalq roziligi g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Ular uchun xalq shunchaki boshqariladigan omma emas, balki tarbiyalanishi, o‘ylatilishi va qaror qabul qilishga tayyorlanishi lozim bo‘lgan kuch edi. Shu bois jadidlar gazeta va jurnallar chiqarib, xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qildi. Sahna asarlari orqali esa johillik, poraxo‘rlik, soxta dindorlik kabi illatlarni ochiq ko‘rsatdi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi hokimiyatga qarshi chaqiriq emas, balki jamiyatni o‘ziga oyna tutib qaratish edi.

Zero, jadidlar harakati siyosiy inqilob emas, ma’naviy inqilob edi. Ular davlatni ag‘darishni emas, davlatni o‘zgartira oladigan insonni tarbiyalashni maqsad qildi. Bu yondashuv jadidlarni faqat bir davrda qolib ketgan harakatdan ko‘ra bugun ham dolzarb bo‘lgan tafakkur maktabiga aylantiradi. Chunki jadidlar bergan asosiy saboq hokimiyatni o‘zgartirishdan oldin, uni nazorat qila oladigan ongni shakllantirish zarurati edi.

Bir ruh, ikki davr: ma’naviy davomiylik

Zahiriddin Muhammad Bobur bilan XX asr boshida maydonga chiqqan Jadidlar harakati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarixiy uzviylik yo‘qdek tuyuladi. Ammo mazmunan ularni bog‘lab turadigan umumiy ruh mavjud: hokimiyatni vijdon bilan o‘lchash, jamiyatni esa ma’rifat orqali o‘zgartirish g‘oyasi. Davrlar orasida yuz yillar bor, ammo savol bir xil: davlat kim uchun va nima asosda quriladi?

Bobur o‘z asarida hokimiyatni shaxsiy sharaf yoki abadiy mulk sifatida emas, vaqtinchalik omonat deb qaraydi. U mag‘lubiyatlarni tan oladi, qarorlarini qayta ko‘rib chiqadi, xalq ranjini davlat uchun xatar sifatida baholaydi. Jadidlar esa shu tafakkurni boshqa sharoitda davom ettiradi: ular uchun hokimiyat faqat shaxslarga emas, jamiyat ongiga bog‘liq edi. Agar xalq johil bo‘lsa, eng yaxshi tuzum ham zulmga aylanishi mumkin, degan fikr ular uchun asosiy xulosa bo‘ldi.

Bu yerda muhim o‘xshashlik bor: Bobur ham, jadidlar ham qudratni yagona hal qiluvchi omil deb bilmaydi. Bobur uchun harbiy g‘alaba inson hayoti bilan o‘lchanadi, jadidlar uchun esa siyosiy ustunlik ma’naviy yetuklik bilan. Biri davlatni saqlab qolish uchun o‘zini hisobga tortadi, ikkinchilari jamiyatni qutqarish uchun fikrni uyg‘otadi. Maqsad turlicha ko‘rinsa-da, manba bitta – mas’uliyatli tafakkur.

Shu ma’noda, jadidlar Boburning tarixiy davomchisi emas, balki ma’naviy merosxo‘rlaridir. Ular Bobur boshlagan yo‘lni yangi davr sharoitida davom ettirdilar. Shamshir o‘rniga so‘z, saroy o‘rniga maktab, hokim qarorlari o‘rniga jamoat fikrini qo‘ydilar. Bu inkor emas, davrga hamohang o‘zgarish edi.

Demak, Bobur bilan jadidlarni bog‘laydigan asosiy jihat hokimiyatni mutlaq qudrat emas, ma’naviy mas’uliyat sifatida anglashdir. Ana shu ruhiy davomiylik bugun ham ahamiyatli, chunki davlatlar o‘zgarishi mumkin, ammo adolat, ilm va inson qadriga tayanmagan hokimiyat hech qachon barqaror bo‘lolmaydi.

Hokimiyat va xalq: ishonch inqirozi yoki ma’naviy ittifoq

Zahiriddin Muhammad Bobur davlatchilik tafakkurida xalq bilan hokimiyat o‘rtasidagi munosabatni hal qiluvchi omil sifatida ko‘radi. “Boburnoma”da u qamal va urush sharoitida davlatning ahvolini devorlar yoki qo‘shin soni bilan emas, xalqning holati bilan o‘lchaydi. Samarqand qamali davomida u ahvolni ochiq yozadi: *“Zaxira va uzoq hech tarafdin kelmadi… ozuq va zahira kam edi. Bo‘lg‘oni ham tugandi”*. Bu joyda Bobur g‘alaba ruhini emas, davlat ichidagi tirikchilik inqirozini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Muhim jihati shuki, Bobur bu og‘ir ahvol uchun mas’uliyatni tashqi dushman yoki *“zamon qattiqligi”*ga yuklamaydi. Aksincha, hokimiyat xalq holatini hisobga olmasa, davlat o‘z-o‘zidan yemirilishini ko‘rsatadi. U xalq ruhiy holatining singanini shunday tasvirlaydi: *“Sipohi va raiyat navmid bo‘lib, birar, ikkirar qo‘rg‘ondin tashlab qocha kirishtilar”*. Bu satrlarda harbiy mag‘lubiyat emas, xalq umidining so‘nishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa Bobur tafakkurida xalq ojiz omma emas, davlat taqdirini belgilaydigan ma’naviy kuchdir. Urush maydonida emas, xalq hayotida qabul qilingan noto‘g‘ri qarorlar davlat uchun eng katta xavf ekanini u ochiq tan oladi.

“Boburnoma” shu jihati bilan hokimiyatni qudrat bilan emas, raiyat ahvoliga javobgarlik bilan baholaydigan davlatchilik maktabidir. Boburni buyuk qilgan jihat ham davlatni xalqdan uzib emas, xalq dardini tan olish orqali saqlash mumkinligini yozib qoldirganidadir.

XX asr boshida paydo bo‘lgan Jadidlar harakati ana shu g‘oyani mutlaqo yangi ijtimoiy sharoitda davom ettirdi. Jadidlar zamonida hokimiyat xalqdan tobora uzilib, davlat bilan jamiyat o‘rtasida chuqur jar paydo bo‘lgan edi. Jadidlar bu uzilishni qurol bilan emas, ong bilan bartaraf etish mumkinligini tushundilar. Shu bois ularning kurashi to‘g‘ridan-to‘g‘ri hokimiyatga emas, balki johillikka qarshi qaratildi.

Jadidlar uchun xalq roziligi itoatdan ko‘ra anglash natijasi edi. Ular xalqni boshqarish mumkin, ammo uni aldash mumkin emas, degan qat’iy e’tiqodda bo‘ldilar. Maktablar ochish, gazeta-jurnallar chiqarish, sahna asarlari orqali jamiyatda ochiq muloqot muhitini yaratish – bularning barchasi hokimiyat va xalq o‘rtasida yo‘qolgan ishonchni qayta tiklashga qaratilgan harakatlar edi.

Bu nuqtada Bobur va jadidlar o‘rtasida chuqur ma’naviy uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Bobur xalq roziligini yo‘qotgan hokimiyatning barqaror bo‘lolmasligini o‘z tajribasi orqali anglagan bo‘lsa, jadidlar bu xulosani jamiyat miqyosida ilgari surdilar. Biri hokim sifatida, ikkinchilari ma’rifatparvar sifatida xalq bilan uzilgan davlat o‘z kelajagini yo‘qotadi, degan bir haqiqatni aytdi.

Shu ma’noda, Bobur va jadidlar merosi bugun ham dolzarb. Chunki har qanday zamonda hokimiyatning haqiqiy tayanchi ma’muriy apparat yoki kuch ishlatish mexanizmlari emas, balki xalq ishonchi va ma’naviy aloqadir. Ana shu ishonch bor joyda davlat yashaydi, yo‘q joyda esa u faqat nomigagina mavjud bo‘ladi.

Uchinchi Renessans: tarixiy tafakkurdan kelajak strategiyasigacha

Bugun “Uchinchi Renessans” degan tushuncha faqat shior yoki tarixiy qiyos emas, balki milliy taraqqiyotning ma’naviy va intellektual dasturi sifatida maydonga chiqmoqda. Bu g‘oyaning ildizlari esa yangidan o‘ylab topilgani yo‘q. U xalq tafakkurida avvaldan mavjud bo‘lgan, turli davrlarda turli shakllarda namoyon bo‘lgan ma’naviy an’ananing davomidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Zahiriddin Muhammad Bobur va jadidlar harakati merosi Uchinchi Renessansning tarixiy tayanch nuqtalaridir.

Bobur davrida Renessans g‘oyasi davlat boshqaruvida namoyon bo‘lgan. U hokimiyatni ilm, tafakkur va ma’naviy mas’uliyat bilan uyg‘un holda angladi. Bobur uchun davlat qurish shahar olish yoki taxt egallash bo‘lmay, balki inson, adolat va madaniyatni saqlab qolish edi. Uning tafakkurida ilm-ma’rifat davlat

qudratining tashqi bezagi emas, ichki tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu renessansning siyosiy shakli edi.

Jadidlar esa shu ruhni yangi tarixiy sharoitda davom ettirdilar. Agar Bobur davlatni ma’naviy asosda saqlab qolishga intilgan bo‘lsa, jadidlar millatni ma’naviy inqirozdan olib chiqishni maqsad qildilar. Ular uchun renessans ilmli avlod, ongli jamiyat, erkin fikr edi. Jadidlar maktabni isloh qildi, so‘zni qurol qildi, fikrni harakatga aylantirdi. Bu renessansning ijtimoiy va ma’rifiy bosqichi edi.

Uchinchi Renessans ana shu ikki tajribani umumlashtirgan holda namoyon bo‘lishi lozim. U faqat iqtisodiy o‘sish yoki texnologik taraqqiyot bilan cheklanmaydi. Agar ilm ma’naviyatdan, hokimiyat esa javobgarlikdan uzilsa, hech qanday rivoj barqaror bo‘lolmaydi. Shu ma’noda, Boburdan mas’uliyatli hokimiyat sabog‘ini, jadidlardan ongli jamiyat g‘oyasini olish bugungi kun uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Demak, Uchinchi Renessans – tarixni takrorlash emas, balki tarixiy tafakkurni zamonaviy sharoitga mos ravishda davom ettirishdir. Bobur va jadidlar bizga tayyor model emas, balki yo‘l ko‘rsatadi: davlat ham, jamiyat ham ilm, adolat va inson qadriga tayangandagina taraqqiy etadi. Ana shu haqiqat bugun ham, ertaga ham o‘z qiymatini yo‘qotmaydi.

Milliy o‘zlik va jahon sivilizatsiyasi: Bobur va jadidlar merosining global qiymati

Milliy o‘zlikni saqlab qolish va jahon bilan uyg‘un rivojlanish masalasi har bir davr uchun dolzarb. Bu borada Zahiriddin Muhammad Bobur ham, XX asr boshida maydonga chiqqan Jadidlar harakati ham bir umumiy tamoyilga tayanadi: o‘zligini yo‘qotmagan xalqgina dunyo bilan teng muloqot qila oladi. Ular uchun milliylik yopiqlik yoki o‘zgacha yo‘lni inkor etish emas, balki jahonga ochilishning mustahkam poydevori edi.

Bobur o‘z faoliyati bilan shu haqiqatni amalda isbotladi. U Hindistonda ulkan saltanat barpo etar ekan, mahalliy madaniyatni inkor qilmadi, aksincha, turkiy-ma’naviy an’analarni yangi muhitda saqlab qolishga intildi. Turkiy tilda ijod qilish, tarixni shaxsiy xotira orqali yozish, tabiat va inson munosabatini davlatchilik tafakkuri bilan bog‘lash – bularning barchasi Boburning milliy o‘zlikni jahon sahnasida yo‘qotmaslikka qaratilgan ongli tanlovi edi. Uning merosi shu bois faqat mahalliy emas, umuminsoniy ahamiyat kasb etdi.

Jadidlar esa bu masalani yangi tarixiy sharoitda ko‘tardilar. Ular uchun milliy o‘zlik o‘tmishga mahkam yopishib olish emas, balki zamon bilan birga yangilanish edi. Jadidlar jahon ilmi, pedagogikasi, matbuot tajribasini qabul qilar ekan, milliy til, tarix va madaniyatni islohot markaziga qo‘ydilar. Ular jamiyatni dunyodan

uzishni emas, balki dunyo bilan teng muloqot qila oladigan millatga aylantirishni maqsad qildilar.

Bu yerda muhim jihat shundaki, Bobur ham, jadidlar ham milliylikni siyosiy shiorga aylantirmadi. Ular uchun milliy o‘zlik – mas’uliyat edi. Boburda bu mas’uliyat davlat va tarix oldida namoyon bo‘lsa, jadidlarda millat va kelajak oldida ifodalandi. Ana shu yondashuv ularning merosini tor davriy chegaradan chiqarib, jahon sivilizatsiyasi kontekstida ahamiyatli qiladi.

Bugun milliy taraqqiyot haqida gap ketganda, Bobur va jadidlar tajribasi o‘zligini anglagan millatgina jahon jarayonlarida faol ishtirok eta olishi mumkinligi borasida muhim saboq beradi. Milliylik bilan globallik o‘rtasida ziddiyat emas, uyg‘unlik borligini ular o‘z hayoti va faoliyati bilan ko‘rsatib berganlar.

Xulosa: tarixdan kelajakka uzatilgan ma’naviy zanjir

Tarix har doim tayyor javob bermaydi, ammo u to‘g‘ri savol qo‘yishni o‘rgatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur va Jadidlar harakati merosi bugungi kun oldiga hokimiyat nimaga tayanishi kerak – qudratgami yoki vijdonga, farmongami yoki ma’rifatga, qo‘rquvgami yoki ishonchga? – degan savolni qo‘yadi.

Bobur o‘z davrida davlatni faqat hudud va qo‘shin bilan emas, axloqiy mas’uliyat bilan boshqarish mumkinligini ko‘rsatdi. U o‘z xatolarini yashirmadi, mag‘lubiyatdan qochmadi, xalq ranjini davlat uchun eng katta xatar deb bildi. Jadidlar esa shu ruhni yangi zamonda davom ettirib, millat taqdirini ma’rifat, ta’lim va ongli jamiyat bilan bog‘ladilar. Ular hokimiyatni xalqdan ustun qo‘yish emas, xalq bilan birga ma’naviy yuksalishga chaqirdilar.

Bu ikki tajriba orasida asrlar bor, ammo ruh bir. Bu – davomiylik ruhi. Uchinchi Renessans g‘oyasi o‘tmishni takrorlash emas, undan ma’no chiqarish; tarixga sig‘inish emas, uni anglash; merosni muzeyga qo‘yish emas, tafakkurga aylantirish davomiyligiga tayanadi.

Bobur va jadidlar bizga adolatsiz hokimiyat barqaror bo‘lolmaydi, ma’rifatsiz jamiyat rivojlanmaydi, inson qadri e’zozlanmagan davlat esa kelajakni yo‘qotadi, degan haqiqatni uqtiradi. Shu ma’noda, ularning merosi o‘tmish haqidagi xotira emas kelajak uchun berilgan ma’naviy dasturdir.

Demak, bugungi taraqqiyot yo‘lida eng muhim savol shunda: biz hokimiyatni qanday qudrat bilan emas, qanday vijdon bilan o‘lchaymiz? Ana shu savolga javob topilgan joyda renessans boshlanadi.

JADID MA’RIFATPARVARLARI FAOLIYATI VA G‘OYALARI – MILLIY QAHRAMONLIK TIMSOLI

Masharipova Nasiba RO‘ZMATOVNA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, “Milliy tarbiya, jadidlar va mutafakkirlarning pedagogik ta’limotlari” bo‘limi katta ilmiy xodimi, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik faoliyati, ta’lim-tarbiya sohasidagi nazariy va amaliy qarashlari hamda ularning milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni tahlil etiladi. Xususan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy hamda Munavvarqori Abdurashidxonovlarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Ularning axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya borasidagi konsepsiyalari, shuningdek, zamonaviy pedagogika bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan. Maqolada jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati milliy qahramonlik timsoli sifatida talqin qilinib, ularning ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilishga qaratilgan g‘oyalari bugungi ta’lim tizimi uchun muhim metodologik asos ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, jadidlar merosining yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur, mustaqil fikrlash va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar. jadidchilik, ma’rifatparvarlik, pedagogik meros, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, milliy qahramonlik, ta’lim-tarbiya, milliy uyg‘onish, vatanparvarlik, ma’naviyat, mustaqil fikrlash, ta’lim islohoti, pedagogik konsepsiya.

Annotation. This article analyzes the pedagogical activities of Jadid enlighteners, their theoretical and practical views on education, and their role in the national awakening process. In particular, the educational perspectives of Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, and Munavvarqori Abdurashidxonov are examined from a scientific standpoint. Their concepts of moral, intellectual, and physical education, as well as their close relevance to contemporary pedagogy, are highlighted. The article interprets the activities of Jadid enlighteners as emblematic of national heroism and substantiates that their ideas of societal reform through enlightenment provide an important methodological foundation for today’s education system. Furthermore, the study emphasizes the significance of the Jadid legacy in fostering patriotism, national pride, independent thinking, and high moral values among the younger generation.

Keywords: Jadidism, enlightenment, pedagogical heritage, moral education, intellectual education, physical education, national heroism, education, national awakening, patriotism, spirituality, independent thinking, educational reform, pedagogical concept.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosday bo‘lur o‘tkir.

Abdulla Avloniy

Taraqqiyparvar jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat nafaqat yozuvchi, balki tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos, siyosatshunos, pedagog olim hamda davlat va jamoat arbobi sifatida o‘zbek ilm-fani va ma’naviy hayotiga katta hissa qo‘shgan. Fitrat 1926-yilda birinchi o‘zbek professori unvoniga sazovor bo‘lgan hamda dastlabki ta’limni Buxorodagi Mir Arab madrasasida olgan.

Fitratning ilmiy-pedagogik merosi, xususan, “Oila”, “Rahbari najot”, “O‘qu”, “Adabiyot qoidalari” kabi asarlari ta’lim-tarbiya nazariyasida muhim o‘rin egallaydi. Uning “Oila” asarida axloqiy tarbiya masalalari chuqur tahlil qilinib, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda aqliy, jismoniy va axloqiy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi zarurligi asoslab beriladi. Fitratning ta’kidlashicha, axloqiy tarbiya yetarli darajada shakllanmasa, insonning aqliy va jismoniy salohiyati salbiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Fitrat tarbiya konsepsiyasida inson harakatlarini ixtiyoriy va g‘ayri ixtiyoriy turlarga ajratadi hamda ixtiyoriy harakatlarning mohiyatini ochib beradi. Unga ko‘ra, inson har qanday faoliyatni amalga oshirishdan avval uning foyda va zararini anglay olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, Fitrat inson faoliyatini quyidagi besh bosqich orqali izohlaydi:

1. Tasavvur
2. Muhokama
3. Solishtirish
4. Qaror qabul qilish
5. Ijro

Mazkur bosqichlar, ayniqsa, o‘smir yoshdagi bolalarda ongli faoliyatni shakllantirishda muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday harakatlarni ayniqsa o‘smir yoshdagi bolalarda shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning fe’li va harakati o‘zining aniq mazmun mohiyatiga ega bo‘ilishi uchun Fitrat ta'kidlanganidek, ruhning yuqoridagi beshta mavjud holatini tarbiyalash talab etiladi. Buning uchun quyidagilarni hisobga olish lozim: “Fe'llarning tamoyillari va tarbiyasi, baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e'tiborda bo‘lish mayli, bilish mayli, go‘zallik moyillik, yaxshi fazilatlarga intilish, iroda va ixtiyor

mustahkamligi”. Ko‘rinib turibdiki ish va amal birligiga erishish uchun birinchi navbatda ijobiy mayllarni shakllantirish talab etiladi. Bu nafaqqat o‘qituvchilarning, balki ota-onalar tarbiyaviy faoliyatining ham asosiy yo‘nalishlarini tashkil etilishi kerak.

Fitrat pedagogik qarashlarida shaxs tarbiyasida ijobiy mayllarni shakllantirishga alohida urg‘u beradi. Jumladan, baxtga intilish, faoliyatga moyillik, izzat-nafs, bilim olishga qiziqish, go‘zallikni his etish, iroda mustahkamligi kabi sifatlar barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim omillari sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, u ta’lim jarayonida zo‘ravonlik, qattiqqo‘llik va cheklovlarga qarshi chiqib, bolaga nisbatan mehr va adolat tamoyillariga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. Bu borada u Ibn Xaldun qarashlariga tayangan holda, zo‘ravonlik asosidagi tarbiya bolaning shaxsiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslaydi.

Fitrat qizlar ta’lim-tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratib, ularning bilim olishi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omil ekanligini ta’kidlaydi. Bu jihatdan u o‘z davri uchun gender ta’lim va tarbiyaga oid ilg‘or pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan. Fitrat tomonidan yaratilgan boy pedagogik meros bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu merosni yoshlar ongiga singdirish, o‘qituvchilar va ota-onalarning pedagogik bilimlarini boyitish orqali milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mas’uliyat, o‘zlikni anglash va milliy g‘urur kabi fazilatlarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Jadid ma’rifatparvarlarining yetakchi nomoyondalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy nafaqat amaliy pedagogik faoliyati, balki ta’lim-tarbiya jarayoniga oid chuqur nazariy qarashlari bilan ham o‘zbek pedagogikasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning axloqiy tarbiya masalalariga doir fikrlari bugungi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Avloniy ta’limotida axloq shaxsga xos bo‘lgan xulq-atvorlar majmui sifatida talqin etiladi. Xulq esa o‘z navbatida insonning ezgulik yoki razillikka yo‘naltirilgan amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois inson harakatlari mazmunan ikki yo‘nalishda ezgu amallarni amalga oshirish yoki salbiy, zararli xatti-harakatlarni sodir etish orqali ifodalanadi. Avloniyning ta’kidlashicha, axloqiy sifatlar shaxsda tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki muayyan ijtimoiy-pedagogik muhit ta’sirida vujudga keladi. Mazkur muhit avvalo oilada, keyinchalik esa ta’lim muassasalarida shakllantiriladi.

Shu nuqtai nazardan, bolalarda ezgu fazilatlarni erta yoshdan boshlab qaror toptirish ota-onaning muhim ijtimoiy burchi hisoblanadi. Oila muhitida yaratilgan tarbiyaviy sharoitlar bolaning keyingi shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir

ko‘rsatadi. Tarbiyaning uzluksizligi va izchilligi esa shaxs kamolotining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan “tarbiya - yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan konseptual g‘oyada o‘z ifodasini topgan.

Avloniy tarbiyani keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida baholab, uni faqat axloqiy tarbiya bilan cheklab bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsni shakllantirishda badan (jismoniy) va aql (intellektual) tarbiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, bolaning sog‘lom bo‘lishi uning bilim olish va faoliyat yuritish qobiliyatining asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois u jismoniy salomatlikni ta’minlashni pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi.

Avloniy insonning jismoniy va ruhiy holatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham ilmiy asoslashga intiladi. U badan tarbiyasini fikr tarbiyasining ajralmas qismi sifatida talqin etib, jism va ruh uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv pedagogik-psixologik nuqtai nazardan shaxsni kompleks rivojlantirish g‘oyasiga asoslanadi.

Ma’rifatparvarning pedagogik qarashlarida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish masalasi alohida o‘rin egallaydi. U fikrsizlikni inson faoliyatidagi jiddiy kamchilik va xatolarning asosiy sababi sifatida baholab, fikr tarbiyasini o‘qituvchining eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Fikrning rivojlanishi o‘qituvchi shaxsining saviyasi, o‘quv materiallarining mazmuni hamda oila muhitining intellektual darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Avloniy fikrning shakllanishida ilm va axloqning o‘zaro uyg‘unligini zarur shart sifatida ko‘rsatadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, ta’lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular ajralmas yagona pedagogik jarayonni tashkil etadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada integrativ yondashuv konsepsiyasiga mos keladi.

Shuningdek, Avloniy o‘quvchilarning fikrlash layoqatini rivojlantirish orqali ularda sinchkovlik, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, shijoatlilik kabi sifatlarni shakllantirish mumkinligini asoslab beradi. Zehnlilik, ziyraklik va o‘z fikrini erkin ifoda eta olish qobiliyatlari shaxsning intellektual kamolotida muhim omillar sifatida talqin etiladi.

Ma’rifatparvar yosh avlodni ilm olishga, kitobxonlikka, mustaqil izlanishga undaydi. Uning fikricha, bilim egallash jarayoni mashaqqatli bo‘lib, sabr-toqat, intilish va izchillikni talab etadi. Shu bilan birga, u vijdon tushunchasiga alohida e’tibor qaratib, uni insonning ma’naviy-ruhiy hayotini tartibga soluvchi ichki mezon sifatida izohlaydi. Vijdon insonni halollik, poklik, vatanparvarlik va e’tiqodga undovchi muhim axloqiy kuch sifatida baholanadi.

Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi zamon pedagogikasi uchun ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodni vatanparvarlik, mas’uliyat, mustaqil fikrlash va yuksak ma’naviy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yirik nomoyondasi Munavvarqori Abdurashidxonov erta yoshdan ta’lim-tarbiya masalalariga qiziqib, keyinchalik xalq maorifini isloh qilish yo‘lida faoliyat olib borgan. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z davrining haqiqiy millatparvar, xalqchil pedagogi sifatida tanilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma’rifatni e’tirof etgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jadidchilik harakatining shakllanishida Ismoilbek Gaspirali tomonidan ilgari surilgan “usuli jadid” yoki “usuli savtiya” (tovush asosida o‘qitish) metodikasi muhim ahamiyat kasb etdi. Munavvarqori Abdurashidxonov ushbu ilg‘or pedagogik yondashuvni Turkiston hududida joriy etishga intildi. Biroq, uning bu boradagi sa’y-harakatlari chor ma’muriyati, rus missionerlari hamda mahalliy mutaassib doiralar tomonidan keskin qarshilikka uchradi.

Shunga qaramay, u katta matonat va sabr-toqat bilan 1901-yilda, 23 yoshida o‘z uyida ilk jadid maktablaridan birini tashkil etishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur maktabda o‘qitishning jadallashtirilgan metodikasi qo‘llanilib, o‘quvchilar an’anaviy tarzda besh yilda o‘zlashtiriladigan bilimlarni qisqa muddat — taxminan olti oy ichida egallash imkoniga ega bo‘lganlar. Bu esa yangi usulning samaradorligini amalda isbotladi. Ushbu maktablarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan bo‘lib, bu o‘z davri uchun muhim pedagogik yangilik edi.

Munavvarqori metodikasiga asoslangan jadid maktablari keyinchalik Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa hududlarda ham keng yoyildi. U ikki bosqichli “rushdiya” maktablarini tashkil etib, zamonaviy o‘rta maxsus ta’lim tizimining shakllanishiga asos soldi. Ushbu ta’lim muassasalari qisqa vaqt ichida rivojlanib, keyinchalik ham o‘z faoliyatini davom ettirdi. Munavvarqori Abdurashidxonov nafaqat ta’lim muassasalari tashkilotchisi, balki darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi sifatida ham muhim faoliyat olib borgan. Uning “Adibi avval” (1907) alifbo darsligi, “Adibi soniy” (1907) o‘qish kitobi, “Er yuzi” (1908) geografiya darsligi, “Havoyiji diniya”, “Til saboqlari” (1925), “Tajvid” hamda “Sabzazor” kabi asarlari o‘quvchilarda savodxonlik, tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etgan.

XX asr boshlarida yangi avlod tarbiyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu borada darsliklar yaratish muhim vazifalardan biri edi. Shu nuqtai nazardan, jadid maktablari uchun yaratilgan alifbo darsliklari orasida Saidrasul

Azizining “Ustozi avval” hamda Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval” asarlari alohida o‘rin egallaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning pedagogik faoliyati va ilmiy merosi jadidchilik harakatining amaliy va nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Uning ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan g‘oyalari va darsliklari bugungi kunda ham milliy pedagogika rivoji uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan ta’lim-tarbiya g‘oyalari o‘z davri uchun nafaqat islohotiy xarakterga ega bo‘lgan, balki bugungi zamonaviy pedagogik tafakkur rivojida ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlarning qarashlarida ta’limning uzluksizligi, tarbiyaning kompleksligi hamda shaxs kamolotida axloqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, jadidlar merosini chuqur o‘rganish, uni zamonaviy pedagogik jarayonlarga integratsiya qilish hamda yosh avlod tarbiyasida samarali qo‘llash dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

3. To‘xtanazarov I. Jadid mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga e’tibori // Conference of Natural and Applied Sciences in Scientific Innovative Research. – 2025. – Vol. 2, №3. – B. 24–28.

4. Sobirov A.V. Jadidchilik harakati va uning o‘zbek milliy uyg‘onishidagi o‘rni // Shokh Library ilmiy jurnali. – 2025.

5. Muxammadiyev J.I., Sobirova M.A. Abdulla Avloniy ijodida ma’naviy-ma’rifiy pedagogik tarbiya masalasi // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, №17. – B. 225–228

6. Fitrat A. Munozara. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

7. Fitrat A. Oila. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

O‘SMIR QIZLARDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA JADID MA’RIFATPARVARLARI QARASHLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Choriyeva Dildora Ismat qizi,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI
katta ilmiy xodimi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir qizlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik muammo sifatida yoritilib, unda jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-nazariy qarashlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy hamda Munavvarqori Abdurashidxonov kabi allomalarning pedagogik merosi asosida axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari ochib beriladi. Ularning asarlarida ilgari surilgan shaxs kamoloti, ma’naviy poklik, odob-axloq me’yorlari, ayol tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi g‘oyalar ilmiy jihatdan tahlil etilib, bugungi kun talablari bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, mazkur maqolada jadidlar merosidan foydalanish orqali o‘quv-tarbiya jarayonini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvni shakllantirish, o‘smir qizlarda mustaqil fikrlash, mas’uliyat, ma’naviy immunitet va ijtimoiy faollikni rivojlantirishning muhim mexanizmlari yoritiladi. Shu bilan birga, oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati alohida ta’kidlanib, mazkur jarayonda pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Natijada, jadid ma’rifatparvarlarining boy pedagogik merosi o‘smir qizlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: jadidlar merosi, axloqiy fazilatlar, tarixiy-pedagogik meros, tarbiya masalasi, metodologik asos.

Annotation. This article examines the process of forming moral virtues in adolescent girls as a complex pedagogical issue, providing an in-depth analysis of the theoretical and scientific views of Jadid enlighteners. In particular, it explores the pedagogical legacy of scholars such as Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, and Munavvarqori Abdurashidxonov, highlighting the essence, goals, and tasks of moral education. Their works address ideas concerning personal development, spiritual purity, ethical norms, female education, and the role of moral upbringing in societal progress, all analyzed from a scientific perspective and aligned with contemporary educational requirements.

Furthermore, the article discusses how the Jadid heritage can enrich the teaching and upbringing process, foster pedagogical approaches grounded in national and universal values, and promote independent thinking, responsibility, moral resilience, and social activity among adolescent girls. The importance of collaboration between family, school, and society is emphasized, and the relevance of employing pedagogical technologies and innovative approaches in this process is substantiated.

As a result, the rich pedagogical legacy of the Jadid enlighteners is scientifically justified as a crucial theoretical and practical foundation for educating adolescent girls as well-rounded individuals.

Keywords: Jadid heritage, moral virtues, historical-pedagogical legacy, education issues, methodological foundation.

Globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida yosh avlod tarbiyasi, ayniqsa o‘smir qizlarning axloqiy kamoloti masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, virtual muhitning kengayishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me’yorlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, ayrim hollarda milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, individualizm va utilitar qarashlarning kuchayishi, tashqi ta’sirlarga moyillikning ortishi o‘smirlarning ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa ularning hayotiy pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida shakllanish jarayoniga bevosita ta’sir etadi.

Shu boisdan, mazkur muammoni hal etishda tarixiy-pedagogik merosga murojaat qilish, xususan jadid ma’rifatparvarlarining boy ilmiy-nazariy qarashlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar o‘z davrida ta’lim tizimini yangilash, uni zamon talablari asosida takomillashtirish bilan bir qatorda, shaxsni har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli va axloqan yetuk qilib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilaganlar. Ular tarbiya masalasini faqat bilim berish bilan cheklab qo‘ymasdan, balki insonning ichki dunyosini boyitish, unda ezgulik, halollik, vatanparvarlik, mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratganlar.

Xususan, Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyani “hayot-mamot masalasi” sifatida baholab, axloqiy kamolot jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini ta’kidlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy esa jamiyat taraqqiyoti bevosita ayollarning saviyasi va tarbiyasiga bog‘liqligini asoslab bergan. Munavvarqori Abdurashidxonov esa yosh avlod tarbiyasida maktab va oila hamkorligining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilgari surgan.

Demak, jadid ma’rifatparvarlarining mazkur qarashlari bugungi globallashuv sharoitida o‘smir qizlarda mustahkam axloqiy pozitsiyani shakllantirish, ularni turli salbiy axborot ta’sirlaridan himoya qilish hamda barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadid ma’rifatparvarlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari

Jadidchilik harakati vakillari ta’lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida baholaganlar. Ular uchun maktab faqat bilim beruvchi maskan emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi, unda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblangan. Jadidlar yosh avlodni ilmli, ongli, vatanparvar va yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash orqali jamiyatni isloh qilish mumkin, degan g‘oyani ilgari surganlar. Shu jihatdan, ularning pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya markaziy o‘rinni egallaydi.

Xususan, Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya masalasini chuqur ilmiy va amaliy asosda yoritib bergan. U axloqni inson kamolotining asosiy mezoni sifatida talqin etib, tarbiyani jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq holda ko‘radi. Avloniyning fikricha:

✓ tarbiya “hayot-mamot masalasi” bo‘lib, u insonning kelajagini belgilaydi;

✓ axloq shaxsning ichki dunyosini, uning fe’l-atvori va hayotiy qarashlarini shakllantiradi;

✓ yaxshi xulq va odob jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

U shuningdek, yoshlarni halollik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ayniqsa o‘smir qizlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy esa o‘z pedagogik qarashlarida ayollar ta’limi va tarbiyasiga alohida urg‘u beradi. U jamiyat taraqqiyotini bevosita ayollarning saviyasi, dunyoqarashi va tarbiyasi bilan bog‘laydi. Behbudiy nazarida, ayol – avvalo ona sifatida kelajak avlod tarbiyachisidir. Shuning uchun ham u “tarbiyali ona – tarbiyali jamiyat garovi” degan g‘oyani ilgari suradi. Bu fikr o‘smir qizlarda nafaqat shaxsiy axloqiy fazilatlarni, balki ijtimoiy mas’uliyatni ham shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Uning qarashlari bugungi kunda qizlarning ta’lim olishi, ijtimoiy faolligi va o‘z o‘rnini topishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Munavvarqori Abdurashidxonov esa yosh avlod tarbiyasida muhit omiliga, xususan oila va maktab hamkorligiga alohida e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, tarbiya faqat maktab doirasida emas, balki oilada, jamiyatda, kundalik hayotda shakllanadi. Shaxsning axloqiy kamoloti ko‘p jihatdan uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga bog‘liq. Shu sababli u ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv ayniqsa o‘smir qizlar

tarbiyasida muhim bo‘lib, ularning xulq-atvori, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, jadid ma’rifatparvarlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Ularning g‘oyalarida bilim va tarbiya birligi, shaxs va jamiyat uyg‘unligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Mazkur qarashlar bugungi kunda o‘smir qizlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘smir qizlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda insonning axloqiy qarashlari, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Bu bosqichda o‘smirlar, ayniqsa qizlar, o‘z “men”ini anglashga, jamiyatdagi o‘rnini belgilashga va mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladilar. Shu sababli ularning axloqiy tarbiyasi nafaqat oilaviy va maktab muhitiga, balki kengroq ijtimoiy-madaniy omillarga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi.

O‘smir qizlarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan asosiy axloqiy fazilatlar quyidagilardan iborat:

- ✓ **Hayo va iffat** – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, qizlarning o‘zini tutishi, muomala madaniyati va ichki nazoratini belgilaydi. Bu fazilat ularni turli salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi ma’naviy “filtr” vazifasini bajaradi.
- ✓ **Mas’uliyat** – o‘z xatti-harakatlari va qarorlari uchun javob bera olish qobiliyati bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy yetukligini ko‘rsatadi. O‘smir qizlarda mas’uliyatni shakllantirish ularni kelajakda mustaqil hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.
- ✓ **Mehr-shafqat** – boshqalarga nisbatan hurmat, g‘amxo‘rlik va hamdardlik hissini ifodalaydi. Bu fazilat jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.
- ✓ **Mustaqil fikrlash** – o‘z qarashlariga ega bo‘lish, tanqidiy fikrlash va turli axborotlarni tahlil qila olish qobiliyatidir. Bu ayniqsa raqamli axborotlar oqimi kuchli bo‘lgan bugungi davrda muhim hisoblanadi.
- ✓ **O‘ziga bo‘lgan hurmat (o‘zini qadrlash)** – shaxsning ichki barqarorligi, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy faolligining asosidir. Bu fazilat o‘smir qizlarni turli psixologik bosim va salbiy ta’sirlardan himoya qiladi.

Mazkur fazilatlarni shakllantirish jarayoni murakkab bo‘lib, unda bir qator omillar o‘zaro uyg‘un holda ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, psixologik omillar (yosh xususiyatlari, emotsional holat, o‘zini anglash darajasi), ijtimoiy omillar (oila muhiti, tengdoshlar ta’siri, ta’lim muassasasi), hamda madaniy omillar (milliy qadriyatlar, an’analar, ommaviy axborot vositalari) o‘smir qizlarning axloqiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va internet makonining kengayishi o‘smirlarning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ularning axloqiy tarbiyasida yangi yondashuvlarni talab etadi. Ya’ni, tarbiya jarayonida nafaqat an’anaviy usullardan, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va media savodxonlik elementlaridan ham samarali foydalanish zarur.

Shu bois o‘smir qizlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu jarayonda oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi, shuningdek milliy pedagogik merosga tayangan holda zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar qarashlarining zamonaviy pedagogik ahamiyati

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy pedagogika uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘smir qizlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida jadidlar merosidan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jadidlarning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimida quyidagi yo‘nalishlar orqali qo‘llash mumkin:

a) Qadriyatlarga asoslangan ta’lim

Jadidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tarafdori bo‘lganlar. Xususan, Abdulla Avloniy o‘z asarlarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Bunday yondashuv o‘smir qizlarda o‘zlikni anglash, milliy identifikatsiyani mustahkamlash va yot g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ularda “ma’naviy immunitet” shakllanadi, ya’ni turli salbiy axborot va ta’sirlarga nisbatan ichki himoya mexanizmi paydo bo‘ladi.

b) Ta’lim va tarbiyaning birligi

Jadidlar ta’lim va tarbiyani ajralmas jarayon sifatida ko‘rganlar. Ularning fikricha, faqat bilim berish bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki shaxsning axloqiy kamolotiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Bu yondashuv bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan kompetensiyaviy ta’lim modeli bilan uyg‘unlashadi.

Ya’ni, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotiy ko‘nikmalar, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qadriyatlar ham shakllantiriladi. Ayniqsa o‘smir qizlar tarbiyasida bu birlik ularning ongli, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs bo‘lib yetishishida muhim omil hisoblanadi.

c) Oila va maktab hamkorligi

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan oila va maktab hamkorligi g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Munavvarqori Abdurashidxonov yoshlar tarbiyasida muhitning, xususan oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviy aloqaning muhimligini ta’kidlagan. Zamonaviy pedagogik amaliyotda ham bu hamkorlik o‘smir qizlarning axloqiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali tarbiya jarayoni izchil va samarali tashkil etiladi.

d) Ayol ta’limiga e’tibor

Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotini ayollar ta’limi va tarbiyasi bilan bevosita bog‘laganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollarning savodli va ma’rifatli bo‘lishi kelajak avlodning barkamolligini ta’minlashini asoslab bergan. Bu g‘oya bugungi kunda gender tenglikni ta’minlash, qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida qizlarning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga e’tibor qaratish orqali ularni nafaqat oilada, balki jamiyatda ham faol, yetakchi shaxs sifatida shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bugungi ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, o‘smir qizlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlash hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

O‘smir qizlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida samaradorlikni oshirish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu tavsiyalar jadid ma’rifatparvarlarining g‘oyalari va zamonaviy pedagogik tajribani uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan:

1. Jadidlar asarlari asosida dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar tashkil etish. O‘quv jarayonida Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi allomalarning asarlari, hikmatli so‘zlari va tarixiy misollaridan foydalangan holda dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bu usul o‘smir qizlarda axloqiy qadriyatlarni amaliy hayot bilan bog‘lash imkonini beradi va ularning ma’naviy tafakkurini boyitadi.

2. Muammoli vaziyatlar asosida axloqiy muhokamalar o‘tkazish. Ta’lim jarayonida real hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy muammolar va ma’naviy

dilemmlarni muhokama qilish orqali o‘smirlar mustaqil fikrlash, tanqidiy qaror qabul qilish va axloqiy xulq-atvorni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday interfaol metodlar ularni o‘z qarashlarini asoslashga, shuningdek, boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi.

3. Ijtimoiy loyihalar va treninglar orqali faoliyatga jalb qilish. O‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda turli loyihalar, ko‘ngilli tadbirlar va treninglar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ekologik, ijtimoiy yordam yoki madaniy-ma’rifiy loyihalarda qatnashish orqali qizlar o‘zlarining mas’uliyatini anglab, mehr-shafqat va hamkorlik fazilatlarini mustahkamlaydilar.

4. Ota-ona va pedagog hamkorligini kuchaytirish.

Axloqiy tarbiyaning samarali bo‘lishi ota-ona va maktab pedagoglari o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bilan bog‘liq. Uchrashuvlar, seminarlar, maslahatlar va birgalikdagi loyihalar orqali tarbiyaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, o‘smir qizlarning xulq-atvori va qadriyatlarini mustahkamlash imkonini beradi.

5. Ijtimoiy tarmoqlardan ma’rifiy maqsadlarda foydalanish. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar o‘smir qizlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli, ularni faqat zararli ta’sirlardan himoya qilish yetarli emas, balki pedagogik va ma’rifiy maqsadlarda foydalanish zarur. Masalan, onlayn ma’ruzalar, interfaol darslar, axloqiy hikoyalar va targ‘ibot materiallari orqali qizlarning ma’naviy dunyosi boyitilishi mumkin.

Shu tarzda, jadidlar merosidan foydalanish va zamonaviy pedagogik usullarni uyg‘unlashtirish orqali o‘smir qizlarda mustahkam axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat ularning shaxs sifatida rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy barqarorligiga ham bevosita hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifatparvarlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari o‘smir qizlarda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda mustahkam nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning pedagogik merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kun talablari, globallashuv va raqamli makon sharoitida ham dolzarbdir. Jadidlar ilgari surgan qadriyatlarga asoslangan ta’lim, ta’lim va tarbiyaning birligi, oila-maktab hamkorligi hamda ayol ta’limiga e’tibor kabi g‘oyalar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilganda o‘smir qizlarni barkamol, ongli, mas’uliyatli va ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Shuningdek, jadidlar pedagogik qarashlarini amaliyotga tatbiq etish orqali o‘smir qizlarda hayotiy muammolarni mustaqil hal etish, axloqiy tanlovlar qilish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish va ma’naviy immunitetni shakllantirish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Shu bois, ularning merosi bugungi ta’lim tizimida

nafaqat ilmiy asos, balki pedagogik strategiya sifatida keng qo‘llanilishi lozim. Bu yondashuv orqali yosh avlod nafaqat o‘zining shaxsiy axloqiy va ijtimoiy kamolotiga erishadi, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi va milliy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1967..
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Turkiston xalqlari tarbiyasi va ma’rifati. Tashkent., 1909.
3. Gaynazarova G., Pozilov H. Tarbiya – ziroatgoh, hosili bilim. Jadid pedagogikasida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari. In: Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2024
4. Qodirov M. Jadid pedagogikasi va zamonaviy ta’lim tizimi. Tashkent: Akademiya, 2020.
5. Rasulova L. O‘smir qizlarda ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish metodikasi. Tashkent: O‘qituvchi, 2022.
6. Abdurahmonov S. Jadidlar qarashlari va axloqiy tarbiya. Tashkent., 2017.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING MILLIY PEDAGOGIKAMIZGA QO‘SHGAN HISSASI

Orziqulov Xusnidin TO‘LQIN O‘G‘LI,
Qo‘qon universiteti pedagogika va
psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.
xusnidinorziqulov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining milliy pedagogika taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy-nazariy jihatdan keng tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ma’rifat, ilm-fan va zamonaviy bilimlar orqali taraqqiy ettirishdan iborat edi. Mazkur tadqiqotda jadid ziyolilarining ta’lim tizimini isloh qilish borasidagi qarashlari, ularning milliy pedagogika rivojiga qo‘shgan nazariy va amaliy hissasi yoritib beriladi. Xususan, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik metod va vositalarni joriy etish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar hamda metodik tavsiyalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Ularning asarlarida yosh avlodni ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari alohida o‘rin egallaganligi ta’kidlanadi. Jadid pedagoglari ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxs kamoloti, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va jamiyat

taraqqiyotini ta’minlashning muhim omili sifatida talqin etganliklari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, jadid ma’rifatparvarlari, milliy pedagogika, yangi usul maktablari, ta’lim islohoti, pedagogik qarashlar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, milliy ta’lim tizimi, tarbiya va ta’lim, pedagogik meros.

Abstract: This article provides a broad scientific and theoretical analysis of the contribution of Jadid enlighteners to the development of national pedagogy. The Jadid movement played an important role in the social, political and cultural life of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, and its main goal was to develop society through enlightenment, science and modern knowledge. This study sheds light on the views of Jadid intellectuals on reforming the education system, their theoretical and practical contribution to the development of national pedagogy. In particular, the activities of Jadids in organizing new-method schools, updating the traditional education system, and introducing modern pedagogical methods and tools into the educational process are analyzed. The article also shows the importance of textbooks, teaching aids and methodological recommendations created by Jadid enlighteners in the educational process. It is emphasized that in their works, the issues of educating the younger generation as spiritually mature, intellectually capable, and respectful of national values occupy a special place. It is scientifically proven that Jadid educators interpreted education not only as a process of imparting knowledge, but also as an important factor in personal development, the formation of a sense of patriotism, and ensuring the development of society.

Keywords: Jadid movement, Jadid Enlightenment, national pedagogy, new method schools, educational reform, pedagogical views, Enlightenment ideas, national education system, upbringing and education, pedagogical heritage.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadid ma’rifatparvarlarining milliy uyg‘onish, ta’lim va ma’naviyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida ko‘plab nutqlarida alohida to‘xtalib o‘tgan. Uning fikricha, jadidlar merosi bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.[1]

“Jadid bobolarimiz millatni uyg‘otish, xalqimizni ilm-fan va ma’rifat yo‘liga boshlash uchun jon fido qilgan buyuk ma’rifatparvarlardir”

“Biz jadid ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy va ma’naviy merosni chuqur o‘rganishimiz, uni yoshlarimiz ongiga singdirishimiz zarur”

Ushbu fikrlar jadid ma’rifatparvarlarining ilm-ma’rifat, milliy uyg‘onish va zamonaviy ta’limni rivojlantirishdagi beqiyos hissasi bugungi kunda ham yuqori baholanayotganini ko‘rsatadi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar hozirgi davr ta’lim siyosati va jamiyat taraqqiyotida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.[2]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda muhim o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davr jamiyat taraqqiyoti uchun yangi qarashlar, zamonaviy bilimlar va ta’lim tizimini yangilash

zaruratini yuzaga keltirdi. Ana shunday tarixiy sharoitda maydonga chiqqan jadid ma’rifatparvarlari xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-fan va ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdilar. Jadidlar ta’lim tizimini isloh qilishni millat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb hisoblab, bu borada keng ko‘lamli faoliyat olib bordilar. Ular eski maktab va madrasalarda mavjud bo‘lgan an’anaviy, yodlashga asoslangan ta’lim usullarini tanqid qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta’kidladilar.

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari milliy ta’lim tizimining rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Bu maktablarda o‘quv jarayoni yangi pedagogik metodlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarga qisqa muddatda savod chiqarish, dunyoviy fanlarni o‘rgatish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, jadid ziyolilari tomonidan yaratilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qildi. Bu darsliklarda ona tilida sodda va tushunarli uslubda yozilgan matnlar, ilmiy ma’lumotlar hamda tarbiyaviy g‘oyalar mujassam bo‘lib, ular yosh avlodni bilimli, ongli va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan edi.[5]

Jadidlarning pedagogik qarashlari nafaqat ta’lim mazmunini, balki tarbiya masalasini ham qamrab olgan. Ular yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash g‘oyalarini ilgari surdilar. Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim va tarbiyani uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib, komil insonni shakllantirishni o‘z faoliyatlarining asosiy maqsadi deb bildilar.

Bugungi kunda jadid ma’rifatparvarlarining boy pedagogik merosini o‘rganish va uni zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ularning ta’limni modernizatsiya qilish, milliy maktabni rivojlantirish va yosh avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalashga qaratilgan g‘oyalari hozirgi davr pedagogikasi uchun ham dolzarbdir. Shu sababli ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining milliy pedagogika taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va ularning pedagogik qarashlarining bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritib beriladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifat va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyoti, avvalo, ta’lim tizimini yangilash va xalqning savodxonligini oshirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligini chuqur anglagan edilar. Shu sababli ular eski usuldagi maktab va madrasalardagi ta’lim tizimini isloh qilish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda zamonaviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratdilar.[6]

Jadid ma’rifatparvarlari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar alohida o‘rin

tutadi. Ular nafaqat pedagog, balki yozuvchi, publitsist va jamoat arboblari sifatida ham faoliyat yuritib, milliy ta’lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy darsliklar yaratish va ta’lim jarayoniga ilg‘or metodlarni joriy etishda muhim rol o‘ynadi. Uning pedagogik qarashlarida ilm-ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyasi ustuvor o‘rin egallaydi.[3], [8]

Abdulla Avloniy ham milliy pedagogika rivojiga katta hissa qo‘shgan jadid ma’rifatparvarlaridan biridir. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan muhim pedagogik manba hisoblanadi. Avloniy ta’lim va tarbiyani bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib, komil insonni shakllantirishni pedagogikaning asosiy vazifasi deb hisoblagan. O‘zbek pedagogik tafakkurining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy hisoblanadi. U maktab, tarbiya va millat kelajagi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslab bergan. “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan asosiy fikr *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”* Bu jumla pedagogika tarixida eng mashhur tarbiya haqidagi fikrlardan biridir. Ta’lim haqidagi qarashlaridan esa Avloniy ta’limni millat taraqqiyotining asosiy sharti deb hisoblaydi. “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir.” Bu fikr orqali u ilm-fan inson hayotini yuksaltiruvchi kuch ekanini ko‘rsatadi.[4]

Abdurauf Fitrat esa jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri sifatida milliy o‘zlikni anglash, ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surdi. Uning asarlarida milliy taraqqiyot, yoshlarni bilimli va zamonaviy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash masalalari keng yoritilgan. Fitrat ta’lim jarayonida ona tilining ahamiyatini alohida ta’kidlab, milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash zarurligini ko‘rsatib berdi. Fitrat “Munozara” asarida eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi usul maktablarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. U shunday fikr bildiradi: *“Millatning najoti ilm va ma’rifatdadir.”* Bu fikr orqali u jamiyat taraqqiyoti faqat ilm orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. “Hind sayyohi bayonoti” asarida esa Fitrat jaholat va savodsizlikni jamiyatning asosiy muammolaridan biri sifatida ko‘rsatadi: *“Ilmsiz xalq – yo‘lsiz karvonga o‘xshaydi”, - deydi u.* Bu fikr ta’limning millat istiqboli uchun qanchalik muhim ekanini anglatadi. [13]

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari milliy ta’lim tizimining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu maktablarda o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlar, balki matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Shuningdek, ta’lim jarayonida tovush asosida savod o‘rgatish usuli qo‘llanilib, o‘quvchilarning tez va samarali savod chiqarishiga erishildi.[7]

Shunday qilib, jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik faoliyati milliy pedagogika rivojida muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qildi. Ularning

ta’limni modernizatsiya qilish, yosh avlodni ilm-ma’rifat ruhida tarbiyalash hamda milliy maktabni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlar merosi zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma’rifatparvarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy hayotida muhim o‘rin egallagan ilg‘or ziyolilar hisoblanadi. Ular xalqni ilm-fan, ma’rifat va zamonaviy bilimlar orqali taraqqiyot sari yetaklashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘yganlar. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, xususan ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish milliy pedagogika rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim va tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratib, yosh avlodni bilimli, ma’naviy barkamol va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning pedagogik qarashlarida milliy qadriyatlarga hurmat, ilm-fanga intilish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi muhim tamoyillar mujassam bo‘lgan. Jadidlar yaratgan pedagogik meros bugungi kunda ham milliy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jadid ma’rifatparvarlarining boy ilmiy-pedagogik merosini chuqur o‘rganish, ularning ta’lim va tarbiya haqidagi ilg‘or g‘oyalarini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki jadidlarning ma’rifatparvarlik ruhidagi qarashlari yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda, milliy pedagogika taraqqiyotini yanada yuksaltirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Jadidlar merosi va milliy taraqqiyot masalalari bo‘yicha materiallar. – Toshkent, 2020.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Samarqand: Ma’naviyat, 1999. (pedagogik qarashlar)
4. Temirova M., Mirzaliyeva Z. Jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2024.
5. Raximboyeva Y. X. Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari. – Tadqiqotlar jurnali, 2025.
6. Rustamov U.T. Turkiston taraqqiyparvar jadidlar faoliyatini o‘rganishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish. – Tadqiqotlar jurnali, 2025.
7. Mexmonaliyev S.N., Sotqinboyeva S. Jadid olimlari pedagogik merosi asosida talabalarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasi. – Ilmiy yangiliklar jurnali, 2026.

8. Mirzoyeva N. S., Xudoyorova D. F. Behbudiyning ta’lim sohasidagi pedagogik faoliyati. – Tadqiqotlar jurnali, 2024.

9. Orziqulov, X. (2024). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, *1*(5), 228-230.

10. Orziqulov, X. (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TARBIYAVIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 109-111.

TALABA-YOSHLARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA G‘AZZOLIYNING “MUHOSABA” VA AVLONIYNING “RIYOZAT” METODLARIDAN FOYDALANISH

Eshonqulova Guljahon ABDUQAXXOROVNA,
Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi.
Email: guljahoneshonqulova@gmail.com
ORCID 0000-0002-8284-544X

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba-yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda ilk bor Sharq mumtoz axloqshunosligi va zamonaviy G‘arb psixologiyasi yutuqlari sintez qilingan. Maqolada Imom G‘azzoliyning “Ihyou ulumid-din” asaridagi “Muhosaba” metodi hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Riyozat” tushunchalari o‘zaro qiyosiy o‘rganilgan. Izlanishlar natijasida olingan xulosalar oliy ta’lim muassasalarida “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlarini o‘qitishda amaliy dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Imom G‘azzoliy, Abdulla Avloniy, nafs tarbiyasi, muhosaba, riyozat, o‘z-o‘zini boshqarish, iroda kuchi, metakognitsiya.

Abstract. This article analyzes the issues of developing self-regulation skills among student youth, which play a crucial role in their intellectual and spiritual growth. The uniqueness of the research lies in its synthesis of classical Eastern ethics and modern Western psychology for the first time. The study conducts a comparative analysis of the method of “Muhasaba” from Imam Al-Ghazali's work “Ihya Ulum al-Din” and the concept of “Riyazat” from Abdulla Avloni's “Turkiy Gulistan yoxud Akhloq.” The findings of the research can serve as a practical

guide for teaching “Pedagogy” and “Psychology” in higher education institutions, as well as for increasing the effectiveness of spiritual and educational work.

Keywords: Imam Al-Ghazali, Abdulla Avloni, purification of the nafs, muhasaba (self-accountability), riyazat (spiritual discipline), self-regulation, willpower, metacognition.

XXI asrga kelib, insoniyat axborot oqimining misli ko‘rilmagan darajada jadallashuvi sharoitida yashamoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim talabalari uchun bu holat ikki tomonlama xarakterga ega, ya’ni bir tomondan bilim olish imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan “axborot shovqini” va raqamli chalg‘ituvchilar omillar (ijtimoiy tarmoqlar, qisqa vaqtli videolar, o‘yinlar) talabalarning diqqatini jamlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalariga jiddiy zarba bermoqda. Zamonaviy psixologiyada “iroda tanqisligi” deb atalayotgan ushbu holat talaba-yoshlarning nafaqat akademik o‘zlashtirishiga, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa nafaqat professional kadr, balki ma’naviy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Bunga erishish uchun faqat G‘arbning zamonaviy pedagogik texnologiyalari bilan cheklanib qolish yetarli emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishda milliy tariximiz va buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosiga tayanish strategik ahamiyatga ega [5. 45-b].

Sharq mutafakkirlari, xususan, Imom G‘azzoliy va Abdulla Avloniyning inson ruhiyati va axloqi borasidagi qarashlari bugungi kunning zamonaviy psixologik nazariyalari bilan hayratlanarli darajada hamohangdir. Imom G‘azzoliyning inson nafsini jilovlash borasidagi ruhiy tahlillari bugungi kunda psixologiyada o‘rganilayotgan metakognitsiya (o‘z fikrlari ustidan nazorat) jarayonining asosi hisoblanadi. Uning “Muhosaba” (o‘z-o‘zini hisob qilish) tushunchasi talabaga o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni tuzatish mexanizmini taqdim etadi. Bu jarayon talabada tashqi nazoratga ehtiyoj qoldirmaydigan “ichki intizom”ni shakllantiradi.

Jadid pedagogikasining yirik vakili Abdulla Avloniy esa ushbu nazariy qarashlarni amaliy-axloqiy tizimga aylantirdi. Uning “Riyozat” (irodaviy mashq) haqidagi o‘gitlari talaba-yoshlarda qiyinchiliklarga bardosh berish, dangasalikni yengish va maqsad sari sobitqadamlik bilan intilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim metodik poydevordir. A. Avloniy ta’riflagan “axloqiy chiniqish” bugungi kunda dunyo psixologlari tomonidan e’tirof etilayotgan “iroda mushagi” nazariyasi bilan deyarli bir xil mohiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda biz tarixiy meros (G‘azzoliy va Avloniy yondashuvlari) va zamonaviy psixologik metodlarning (self-regulation teoriyalari) integratsiyasini ko‘rib chiqamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad, talabalarda globallashuv davrining salbiy ta’sirlariga qarshi tura oladigan, o‘z irodasini boshqara oladigan va ma’naviy immuniteti kuchli bo‘lgan barkamol shaxs modelini ilmiy asoslab berishdir. Imom G‘azzoliy o‘zining fundamental asari bo‘lmish “Ihyou ulumid-din”da inson nafsini jilovlashni shunchaki axloqiy nasihat emas, balki aniq bir tizimli va psixologik jarayon sifatida ta’riflaydi. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, shaxs o‘zining xatti-harakatlarini, hissiyotlarini va fikrlarini boshqarishi uchun, birinchi navbatda, “Muhosaba”, ya’ni o‘z-o‘zini hisob-kitob qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart. Falsafiy jihatdan muhosaba insonning o‘z ichki dunyosi bilan muloqotga kirishishi va o‘z “Men”iga nisbatan xolis hakam sifatida yondashishidir. Psixologik nuqtai nazardan esa, ushbu jarayon bugungi kundagi metakognitsiya (fikrlar haqida fikrlash) va (o‘z-o‘zini anglash) tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Imom G‘azzoliy nazariyasida inson qalbini bir savdogarga, uning vaqtini va imkoniyatlarini esa asosiy kapitalga (sarmoyaga) o‘xshatadi [1.52-b]. Savdogar har kun yakunida foyda va zararni hisob-kitob qilgani kabi, talaba ham o‘zining ma’naviy va intellektual sarmoyasini qayerga sarflaganini tahlil qilishi lozim. Imom G‘azzoliy tomonidan taklif etilgan savollar zanjiri: “Nega bu gapni aytding? Nega bu ishni qilding? Bu harakatdan maqsading nima edi?” zamonaviy kognitiv psixologiyada ichki muloqot va muammoning tub ildizini aniqlash metodlari bilan to‘liq hamohangdir.

Talaba-yoshlar hayotida bu metodning ahamiyati shundaki, u prokrastinatsiya (vazifalarni asossiz ortga surish) sabablarini ongli ravishda aniqlashga yordam beradi [6.32-b]. Masalan, talaba dars tayyorlash o‘rniga vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazgan bo‘lsa, muhosaba orqali u nafaqat vaqt boy berilganini, balki buning ortida qandaydir qo‘rquv, dangasalik yoki charchoq turganini tushunib yetadi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarishning birinchi bosqichi, ya’ni muammoni tan olish va tahlil qilishni ta’minlaydi. Imom G‘azzoliy o‘z-o‘zini boshqarishni bir martalik harakat emas, balki uzluksiz davom etadigan olti bosqichli yaxlit tizim sifatida ko‘rsatishini chet el olimlarini ham o‘rganib chiqqanlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan G. Hussein Rassool va Mugheera M. Luqmanlar ham olimning ushbu olti bosqichi xususida batafsil izlanishlar olib borishgan [7. 99-b].

Birinchi bosqichi “Musharata”, ya’ni shartlashishdir. Bunda kun boshida nafs bilan shartnoma tuziladi. Talaba uchun esa bu kunlik reja tuzish va o‘z oldiga aniq intizomiy maqsadlar qo‘yishni anglatadi. Ikkinchi bosqich “Muroqaba”, ya’ni kuzatishdir. Bu bosqichda vazifa bajarilayotgan paytda diqqatni nazorat qilish talab etiladi. Buni zamonaviy psixologiyadagi “hozirgi lahzada bo‘lish” holatiga

qiyoslash mumkin, chunki diqqatni hozirga va shu yerga jamlash orqali, chalg‘ishlarning oldi olinadi. Uchinchi bosqich “Muhosaba”, ya’ni hisob qilish bosqichidir. Bu bosqichda kun yakunida qilingan ishlarni reja bilan solishtiriladi. Yuqorida aytganimizdek “foyda” (yutuqlar) va “zarar” (xatolar) aniqlanadi. Keyingi ya’ni to‘rtinchi bosqich “Muaoqaba”, tuzatish yoki jazolash bosqichidir. Bunda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘ziga nisbatan intizomiy choralar belgilash, masalan, ertasi kuni ko‘proq ishlash yoki ma’lum lazzatdan voz kechish kabilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Beshinchi bosqich “Mujohada”, ya’ni g‘ayrat va kurashdan iborat bosqichdir. Bu bosqichda nafsga qarshi borib, yaxshi odatlarni shakllantirishda davom etish talab etiladi. Bu orqali irodaviy sifatlarni va barqarorlikni oshiradi. So‘ngi bosqich esa “Muataba”, ya’ni malomat bosqichidir. Bunda kishi o‘zining kamchiliklarini tan olish va kibrga berilmaslik kabi odatlar shakllantiriladi. Bu esa shaxsning ma’naviy moslashuvchanligini oshiradi.

Ushbu olti bosqichli zanjir talabada muntazam ravishda o‘z-o‘zini nazorat qilish odatini shakllantiradi. Natijada, talaba tashqi nazorat (o‘qituvchi yoki ota-ona bosimi)siz ham o‘z maqsadlari sari mustaqil intila oladigan barkamol shaxsga aylanadi. Imom G‘azzoliy ta’limotida muhosaba jarayoni insonning o‘z-o‘zini boshqarish va ichki nazoratini shakllantiruvchi muhim ma’naviy mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Jadid pedagogikasining yirik vakili Abdulla Avloniy o‘zining fundamental “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shaxs kamolotini faqatgina nazariy bilimlar yig‘indisida emas, balki o‘sha ilmni hayotga tatbiq eta oladigan qudratli irodada ko‘radi. Uning konsepsiyasidagi “Riyozat” tushunchasi klassik tasavvufdagi dunyodan uzilish emas, balki ijtimoiy faol shaxsning o‘z nafsini jilovlashi va maqsad sari yo‘naltirilgan qat’iyatidir. Abdulla Avloniy “Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to‘g‘ri yo‘lga solub, egri yo‘ldan qaytarguvchi riyozatdur. Shul sababli riyozat qilguvchilar oqil va fozil bo‘lur. Alloh ham xalq qoshida maqbul va mo‘tabardur. Yalqovlik, ko‘p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtni bekor o‘tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko‘p oshamak, foydasiz so‘zlar so‘zlamak, samovarlarda, ko‘chalarda aziz umrni bo‘sh o‘tkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning g‘azabidur. Allohning buyrug‘i, Rasulullohning sunnatlari, shariat qil degan ishlarni birin-ketin o‘z vaqtida qilmak ham ibodat ham riyozatdur” deya ta’riflagan.[2. 9-b] Sodda qilib aytganda A. Avloniy riyozatni nafsning yomon odatlarini tark qilib, yaxshi xulqlarni kasb qilish sifatida tavsiflaydi. Bu jarayonni esa uzluksiz mehnat va mashq sifatida tavsiflaydi. Jadidlar pedagogikasida riyozat tolibning o‘z ustida ishlashi, vaqtni qadrlashi va millat ravnaqi yo‘lida shaxsiy lazzatlardan voz kecha

olish qobiliyati sifatida talqin etilgan. Bu esa talaba-yoshlarda o‘z-o‘zini tarbiyalashning oliy bosqichi sanaladi.

Zamonaviy kognitiv psixologiyada, xususan, Roy Baumeister tadqiqotlarida iroda kuchi cheklangan resurs sifatida qaraladi va u biologik mushakka o‘xshatiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, iroda ham mushak kabi muntazam mashq qildirilmasa, zaiflashadi va “iroda toliqishi” holatiga tushadi [3. 112-b.]. A.Avloniy aynan shu jarayonni bir asr muqaddam “Riyozat” deb atagan va uni xulqni tuzatishning yagona yo‘li deb ko‘rsatgan. Talaba-yoshlar uchun riyozatning amaliy ko‘rinishi bir necha psixologik bosqichlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni mana shu tavsiyalar asosida irodaviy sifatlarni shakllantirish va maqsadga erishish mumkin. Bularga quyidagilarni bosqichlarni aytish mumkin:

- irodaviy chidamlilik - qiyin va murakkab o‘quv topshiriqlarini charchoq yoki zerikishga qaramay oxiriga yetkazish.
- impulslarni jilovlash - tezkor lazzat beruvchi omillar (masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi maqsadsiz vaqt o‘tkazish, kompyuter o‘yinlari) dan uzoq muddatli strategik muvaffaqiyat (bilim va kasbiy mahorat) yo‘lida ongli ravishda voz kechish.
- intizomiy odat - har bir kunlik vazifani “riyozat” (mashq) deb qabul qilish orqali irodani doimiy tonusda ushlab turish.

Natijada, riyozat jarayoni talaba-yoshlarda o‘zini nazorat qilish, irodaviy barqarorlik hamda uzoq muddatli maqsadlarga sodiqlik kabi muhim irodaviy-psixologik sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Buni “Nafs kundaligi” desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda neyropsixologiya fani A.Avloniyning irodaviy chiniqish borasidagi o‘gitlarini biologik darajada isbotlamoqda. Inson miyasining prefrontal po‘stlog‘i mantiqiy fikrlash, rejalashtirish va hayvoniy impulslarni (nafsni) nazorat qilish markazi hisoblanadi. Miyaning bu qismi aynan irodaviy kuch talab qiladigan vazifalarni bajarishda faollashadi. Riyozat mashqlari, ya’ni talabaning o‘zini muntazam ravishda intizomga solishi, miyaning prefrontal po‘stlog‘idagi neyron aloqalarni mustahkamlaydi [4. 67-b.].

Bu jarayon neyroplastiklik qonuniyatiga asoslanadi, ya’ni talaba qanchalik ko‘p o‘z nafsiga qarshi borib, foydali ish bilan shug‘ullansa, uning miyasida “o‘zini boshqarish markazi” shunchalik kuchli rivojlanadi. Natijada, talabada ma’naviy-axloqiy filtrlar nafaqat psixologik qarash sifatida, balki fiziologik barqarorlik sifatida shakllanadi. A.Avloniy ta’kidlagan “nafsni tarbiya qilish” aslida miyaning yuqori funksiyalarini quyi instinktlar ustidan hukmronligini o‘rnatish jarayonidir. Bu borada olim shunday deydi: “*Nafs o‘lchovi haqiqiy bir o‘lchovdurki, insonning o‘z nafsiga loyiq ko‘rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg‘a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o‘lchovidan*

tashqari harakat qilmas. ...Alhosil, nafs o‘lchovi ta’rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdur” [2. 14]. Shunday ekan talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish shunchaki nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Buning uchun talabaga o‘z xatti-harakatlarini kundalik tarzda o‘lchash va tahlil qilish imkonini beruvchi amaliy vosita zarur. Shu maqsadda taklif etilayotgan “Nafs kundaligi” bosqichlari Imom G‘azzoliyning metakognitiv tahlili va Abdulla Avloniyning irodaviy chiniqish (riyozat) tamoyillari asosida ishlab chiqilgan.

Psixologik nuqtai nazardan, ushbu kundalik ichki holatni tashqariga chiqarish effektini beradi. Talaba o‘z maqsadlari va natijalarini qog‘ozga yoki elektron shaklda qayd etganda, uning mas’uliyati va o‘zini nazorat qilish qobiliyati ortadi [8. 68-b.]. Kundalik quyidagi to‘rtta asosiy ustundan iborat bo‘lib, ular yaxlit bir o‘z-o‘zini boshqarish siklini hosil qiladi. Misol tariqasida quyidagi 2 kunga mo‘ljallangan jadvalni keltiraman:

Sana va vaqt	**Musharata (Ertalabki maqsad)**	**Riyozat (Irodaviy qarshilik)**	**Muhosaba (Kechki tahlil va baholash)**
14.03. 2026	3 soat davomida mustaqil mutolaa qilish va konspekt yozish.	Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram)dan butunlay voz kechish.	Maqsad 90% bajarildi. Diqqat jamlandi. Kamchilik: uyqu tartibi buzildi.
15.03. 2026	Chet tili kursiga tayyorgarlik va 50 ta yangi so‘z yodlash.	Prokrastinatsiyaga (dangasalikka) yo‘l qo‘ymaslik, tushlikdan so‘ng darhol ishga kirishish.	So‘zlar yodlandi, ammo vaqt taqsimotida xatolik bo‘ldi. Irodaviy chiniqish davom etmoqda.

Endi bosqichlarni psixologik tahlil qilib chiqamiz. Musharata - talaba kun boshida o‘z nafsiga “shart” qo‘yadi. Bu zamonaviy menejmentdagi SMART maqsadlar qo‘yish bilan bir xil bo‘lib, miyani aniq vazifaga yo‘naltiradi. Riyozat - bu qismda talaba o‘zining zaif nuqtalarini (masalan, o‘yinlarga qaramlik yoki ko‘p uxlash) aniqlaydi va ularga qarshi ongli kurash olib boradi. Bu jarayon iroda kuchini mustahkamlovchi asosiy mashqdir. Muhosaba - kun yakunida erishilgan natija va yo‘l qo‘yilgan xatolar xolis baholanadi. Imom G‘azzoliy ta’kidlaganidek, bu bosqichda inson o‘ziga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarashi, muvaffaqiyatdan kibrlanmasligi va muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmasligi lozim. Bu borada A.Avloniy *“Zeroki, inson o‘z maishatini, nomusini saqlamoq uchun fidoyi jon darajasiga borguncha sa’y qilmoqg‘a buyurilmishdur, lekin bu sa’yning mashruyi har bir ishda qanoatni qo‘ldan bermaslikdur. Olamda qanoat kabi dilni poklaydurgan narsa yo‘qdur. Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur”* deydi.

Ushbu metodik model talaba-yoshlarda nafaqat akademik o‘zlashtirishni, balki hayotiy barqarorlikni ham oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini muntazam monitoring qilib boradigan talabalarda “Nazorat lokusi” ichki tomonga siljiydi, ya’ni, ular o‘z hayotlari va o‘qishlaridagi natijalarni tasodifga yoki boshqalarga emas, balki o‘zlarining irodaviy harakatlariga bog‘liq ekanini anglab yetadilar [4. 92-b.]. Bu esa yoshlarda turli destruktiv g‘oyalar va zararli odatlarga nisbatan mustahkam ma’naviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buyuk mutafakkir Imom G‘azzoliyning metakognitiv qarashlari va jadid pedagogikasining yirik vakili Abdulla Avloniyning irodaviy tarbiya borasidagi o‘gitlari zamonaviy psixologiya uchun nafaqat tarixiy meros, balki amaliy va mustahkam metodik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ikki buyuk allomaning yondashuvlarini zamonaviy o‘z-o‘zini boshqarish nazariyalari bilan sintez qilish natijasida bir qancha muhim ilmiy xulosalarga kelindi. Xususan, Imom G‘azzoliy va Abdulla Avloniy qarashlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalarining davomiyligi mavjud bo‘lib, bu talaba-yoshlarda milliy va ilmiy merosning uzviyligini his qilishga yordam beradi. Bu esa talabaning o‘z shaxsiy rivojlanishini milliy qadriyatlar va ajdodlar merosi bilan bog‘lagan holda amalga oshirishiga zamin yaratadi. Ma’naviy ildizi baquvvat bo‘lgan talabada o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiya sezilarli darajada barqaror bo‘ladi.

Taklif etilayotgan integratsion yondashuv va “Nafs kundaligi” metodikasi amaliyotga tatbiq etilganda, talabalarning irodaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini 30-40% ga oshirish imkonini beradi. Irodaning kuchayishi bevosita akademik natijalarga ta’sir ko‘rsatib, prokrastinatsiya (ishni ortga surish) darajasini pasaytiradi va talabaning murakkab o‘quv vaziyatlarida psixologik chidamliligini ta’minlaydi. Globallashuv davridagi axborot xurujlari va turli yot g‘oyalar sharoitida shaxsning ichki “ma’naviy filtri”ni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Imom G‘azzoliyning metakognitiv tahlili talabalarga har bir ma’lumot va harakatni “bu mening qadriyatlarimga mosmi?” degan savol orqali filtrlashni o‘rgatsa, Abdulla Avloniyning riyozat metodi ushbu filtrdan o‘tmagan zararli impulslarga “yo‘q” deya olish kuchini beradi. Bu esa yoshlarda destruktiv ta’sirlardan himoya qiluvchi mustahkam mafkuraviy immunitet hosil qiladi. Maqolada ilgari surilgan ushbu metodika oliy ta’lim muassasalarida “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlarini o‘qitishda, shuningdek, tyutorlik faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi, amaliy bosqichga olib chiqishda xizmat qiladi. Zero, Uchinchi Renessans poydevorini quruvchi yoshlar nafaqat bilimli, balki o‘z nafsini jilovlay oladigan, irodasi baquvvat va ongli ravishda o‘z hatti-harakatlarini boshqara oladigan shaxslar bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-Ghazali. (2005). Ihya Ulum al-Din. Qohira: Dar al-Ma’rifa. p. 52
2. Abdulla Avloniy. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Ma’rifat. p. 9
3. Baumeister, R. F., & Tierney, J. (2012). Willpower: Rediscovering the greatest human strength. New York, NY: Penguin Books. p. 112
4. G‘oziyev, E. G‘. (2013). O‘z-o‘zini idora etish psixologiyasi. Toshkent: Noshir. p. 67
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. p. 45
6. Nishonova, Z. T. (2011). Mustaqil fikrlash psixologiyasi. Toshkent. p. 32
7. Rassool, G. H., & Luqman, M. M. (2023). Foundations of Islamic psychology: From classical scholars to contemporary practice. Routledge. p. 99
8. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, p. 68

SIDDIQIY AJZIYNINNG MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Namunaxon TURSUNOVA,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsent v.b
Sevinch ZULFIQOROVA,
Filologiya va tillarni o‘qitish (O‘zbek tili) yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlari Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy Ajziyning pedagogik qarashlari, ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati hamda milliy pedagogika rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ajziyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati, o‘quv qo‘llanmalari yaratishdagi xizmatlari, tarjima faoliyati orqali yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish yo‘lidagi ishlari yoritib beriladi. Shuningdek, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va pedagogik qarashlarining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy pedagogika, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, Siddiqiy Ajziy, ta’lim, tarbiya, darslik, tarjima.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the pedagogical views, educational activities, and contribution to the development of national pedagogy by the Jadid enlightener Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy Ajziy. It highlights Ajziy’s role in establishing new-method schools, his contributions to the creation of textbooks and teaching materials, and his efforts to broaden the worldview of the younger generation through translation activities. Furthermore, the article discusses the relevance of his enlightenment ideas and pedagogical perspectives within the context of the modern education system.

Keywords: Jadidism, national pedagogy, enlightenment, new-method schools, Siddiqiy Ajziy, education, upbringing, textbook, translation.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish jarayoning muhim bosqichi hisoblanadi. Jadid ma’riftparvarlari xalqni jaholatdan qutqarish, zamonaviy ilm-fanni rivojlantirish va yangi usuldagi ta’lim tizimini joriy etishni asosiy vazifa sifatida ilgari surdilar. Ular eski maktab va madrasalardagi ta’lim usullarini isloh qilish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkinligini ta’kidladilar.

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy Ajziy bo‘lib, u o‘z faoliyati davomida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan. Ajziy nafaqat shoir, yozuvchi va tarjimon sifatida, balki pedagog va ma’rifatparvar sifatida ham milliy ta’lim rivojiga muhim hissa qo‘shgan. Uning pedogogik faoliati yangi usul maktablarini tashkil etish, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, yosh avlodni ilm-ma’rifatga chorlash hamda milliy ongni shakllantirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Sayidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy Ajziy 1864-yilda Samarqand viloyatining Halvoyi qishlog‘ida kambag‘al oilada tug‘ilgan. U 5-7 yoshlarida otasi vafot etib, bobosi Alixo‘ja qo‘lida so‘ngra usta Abdulqayum eshigida katta bo‘lgan. Yoshligida ota-onasidan yetim qolgan bo‘lsa-da, ilm olishga bo‘lgan intilishi tufayli mahalliy madrasada tahsil oladi. Uning dastlabki savodini yangasi chiqaradi. Keyinchalik Buxoro madrasalarida ham ta’lim olib, diniy va dunyoviy bilimlarni egalaydi. Shuningdek “Sharxi mullo” ni o‘qidi va bilimlarini ko‘pincha mustaqil egalaydi. Siddiqiy kichik jussali, xushsurat, pirhikmat, qotmadan kelgan abjir vali kishi bo‘lgan. U gullarni hush ko‘rgan [1.26].

Vadud Maxmud Ajziziy haqida shunday yozadi: “Buyuk bir istedodga ega bo‘lg‘ondan ko‘p sanatlarning ustosidir. Boshlab Siddiqiy yaxshi bir texnikdur. Soat va moshinalarni tuzatmoq ishiga mohirdur. Yaxshi to‘quvchi va tikuvchidir. Ko‘p yillar bu sanat ila yashag‘ondur. Yaxshi ovchudir, musiqi bilan ham ancha shug‘ullangandur. O‘z tilidan boshqa arab, fors,rus tillarini biladur. Forscha

sherlari fors adabiyoti bilan yaxshi tanish ekaniga shoxiddur. Arab va rus adabiyotlari bilan ham ancha oshnodur” deb ta’rif beradi.[2.167]

Siddiqiy 90-yillarning oxirida otasidan qolgan hovli yerni sotib Makkaga safarga chiqadi va shu qatorda ko‘plab mamlakatlaga sayohat qilgan. U Arab yarim oroli, Turkiya, Iroq, Afg‘oniston hamda Kavkaz hududlarida bo‘lib, turli xalqlarning madaiyati va ta’lim tizimini isloh qilish zarurligini yanada chuqurruoq anglashiga sabab bo‘lgan.[1.29]

Safardan qaytgach, u jadidchilik g‘oyalarini faol targ‘ib qila boshlaydi va yangi usuldagi ta’lim tizimini rivojlantirishga kirishadi. Bu borada u mashhur jadid ma’rifatparvari Is’hoq Ibrat bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan.

XIX asr o‘rtalaridan mamalakatdagi boshlang‘ich ta’limning mavjud ahvoliga doir xovotirlar yuzaga chiqadi va bu yo‘lda Siddiqiy Ajziy rus tuzum maktabini jadidchilik harakatining faol vakili sifatida tashkil etishga katta e’tibor qaratgan. 1901-yilda u Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida yangi usul maktabini tashkil etib, unda zamonaviy ta’lim metodlarini joriy qilgan va bu maktab yigirmaga yaqin qishloqa ma’rifatxona bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur maktabda o‘quvchilarga savod o‘rgatishning yangi usullari qo‘llanilgan bo‘lib, bu metodlar an’anaviy maktablardan ancha farq qilgan. Yngi usul maktablarida bolalar qisqa vaqt ichida o‘qish va yozishni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Sababi maktabda darslar ma’lum tartib yo‘nalish bilan olib borilishi, umumiy, milliy jug‘rofiya, tarix, xisob, xandasa, tabiat o‘qitilishi, xarita, qurrai arz (globus) kabi ko‘rgazmli qurolardaga ega bo‘lgani o‘qish tizimiga yengilik bergan. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Eng qizig‘i bu maktabda darslarning asosiy qismi rus tilini o‘rganishga qaratilgan bo‘lgan. Samarqand medisina insitutining professori taniqli medik marrxum G. N. Aleksandarov shu maktabdan chiqanini “ Tashkent oqshom” gazetasi saxifasida iftixor va minadorlik bilan yozgan.

Ajziy maktabida ta’lim jarayoni zamonaviy pedagogik yondashularga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikirlashi, bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirishiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu maktab bugungi kunga qadar saqlanib qolgan bo‘ib hozir ham Ajziy nomi bilan faoliyat yuritadi.

Siddiqiy Ajziy yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashni ta’lim tizimining asosiy maqsadi deb bilgan. U o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojiga alohida e’tibor qaratgan. Ajziy ular uchun maxsus darsliklar va tarbiyaviy asarlar yaratgan. Ularning eng mashhurlari “Mir’oti ibrat” (ibrat oynasi) bu asari 1914-yil bostirilgan. Unda shoir o‘z xayoli mamlakatlariga safar qiladi. O‘z orzularidek kelajak Samarqandni tasvirlar ekan, u ozod, farovon, obod, ilim-fan, faravonlik, me’morchilikda barq urib yotganini hikmat qiladi. Unda

xatoki, biz bugun, 70-80- yildan keyin guvoh bo‘lib turgan voqealar xaqida gap boradi.[2.102]

U yerda o‘lub ayon Samarqand.
Ko‘nglum bu uyundan o‘di xursand.
Doshdan xamma yer imorat o‘lmush,
Binlarcha tramvu- aftomabil,
Xar yerda elektr ila qandil…
Oynayiy barq ila tilifon.
So‘ylashmaka xar kim u birichun,
Manzur edi ko‘zguda muxotab,
Xar kim tilfona aylasa gab..

Keyingi asarlari “Ayn ul-adab” (“Odob chashmasi”, 1916) va “Ganjinai hikmat” (“Hikmatlar xazinasi”, 1914) asarlaridir

“Ayn ul-adab” asarida odob-axloq, insoniy fazilatlar, halolik, mehnatsevarlik kabi tushunchalar yoritilgan. Bu asar yoshlarni ma’naviy jihatdan yetuk inson bo‘lib, u yoshlarning dunyoqarashini shakillantirishda muhum o‘rin tutgan. Ajziyning pedagogik qarashlarida ilm-fan muhum o‘rin egallaydi. U millat taraqqiyoti ilm-fan, davlat boshqaruvi, til va qonun kabi omillarga bog‘liq ekanligini ta’kidlgan.

Siddiqiy Ajziy nafaqat pedagog va yozuvchi, balki mohir tarjimon ham bo‘lgan. U o‘zbek, tojik, fors, arab, turk va ozarbayjon tillarini mukammal bilgan. Keyinchalik rus tilini ham chuqur o‘rganib, jahon adabiyotining mashhur asarlarini tarjima qilgan.

1908-1910-yillarda u rus yozuvchilarining asarlarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan. Jumladan, Lev Tolstoy hikoyalari, Ivan Krilov masallari hamda Nikolay Gogolning “Shinel” asari uning tarjimalari orqali o‘quvchilarga yetib borgan. Mazkur tarjimalar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni jahon adabiyoti bilan tanishtirish hamda zamonaviy pedagogik g‘oyalarni targ‘ib qilishda muhum rol o‘ynagan. Tarjima faoliyati orqali Ajziy o‘quvchikarga yangi bilim manbalarini ochib bergan va ularning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan.[3.101]

Siddiqiy Ajziyning asarlarida jamiyat taraqqiyoti va milliy uyg‘onish masalalari muhum o‘rin egallaydi. U o‘z asarlarida Turkiston jamiyatining muammolarini ochib berib, ularni hal qilishning asosiy yo‘li sifatida ilm-ma’rifatni ko‘rsatadi. Masalan, “Mir’oti ibrat” dostonida Turkistonning og‘ir ijtimoiy ahvoli tasvirlanib, xalqni jaholatdan qutqarish uchun ilm-fan va ma’rifat zarurligi ta’kidlanadi. “Anjumani arvoh” asarida esa jamiyatdagi turg‘unlik tanqid qilinib, yangilanish va tarqqiyot zarurligi haqida fikr yuritiladi. Ajziy millat istiqboli ilm-fan, davlar boshqaruvi, milliy til va qonun bilan chambarchas bog‘liq ekanligini

ta’kidlagan. Uning ta’lim va ma’rifat yo‘lidagi xizmatlari o‘z davridayoq keng e’tirof etilgan U tashkil etgan maktablar o‘sha davr uchun ilg‘or ta’lim maskani bo‘ligan. Ajziy pedagog sifatida yoshlarnining ma’naviy kamolati, axloqiy pokligi va ilimga bo‘lgan qiziqishini shakillantirishni ta’im jarayoning muhum vazifasi deb hisoblagan. Uning ma’rifatparvarlik faoliyati, o‘quv qo‘llanmalari yaratishdagi sa’y-harakatlari hamda ta’lim sohasidagi xizmatlari davlat tomonidan ham munosib baholangan. 1926-yilda Siddiqiy Ajziy “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni berilgan. Bu unvov uning xalq ta’limi sohasidagi samarali faoliyatiga berilgan yuksak baho bo‘lib, Ajziyning pedagog sifatidagi obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlagan. Mazkur e’tirof Ajziyning uzoq yillar davomida olib borgan ma’rifatparvarlik faoliyati natijasi edi. U nafaqat o‘qituvchi, balki millat kelajagi uchun mas’uliyatini his qilgan fidoiy ziyoli sifatida ham tanilgan. Ajziyning pedagogik faoliyati xalq orasida ilm-fanga bo‘gan qiziqishini oshirishga, yangi avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.[4.223]

Umuman olganda aytish mumkinki, Siddiqiy Azjiy o‘z davrining ilg‘or fikirli ma’rifatparvarlaridan biri sifatida ta’lim va tarbiya sohasida muhim iz qoldirgan. Uning ilim-ma’rifat targ‘ib etish, yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga qaratilgan faoliyati jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Ajziyning pedagogik merosi bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adib Xolid Turkistonda jadidchilik- Toshkent: Akademnashr, 2025.

2. Begali Qosimov, “Sharq yulduzlari”,-Toshkent: O‘zbekiston kompartsiyasi nashriyoti, 1989, 10-son, 178-184

3. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

Internet manbalari:

3) www.ziyouz.com - O‘zbek adabiyoti va she’riyatga oid ma’lumotlar.

4) www.kiton.uz – O‘zbek shoir va yozuvchilari ijodi haqida electron kutubxona.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI

Qobilova E’zozxon Bakirovna,
Qo‘qon davlat universiteti professori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Ushbu maqolada milliy musiqiy meros, xalq pedagogikasi, an’anaviy san’at va ma’naviy qadriyatlarning shaxsning kasbiy o‘zligini anglashiga ta’siri asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida milliy qadriyatlarni integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari va identitetini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy identitet, musiqa pedagogikasi, milliy qadriyatlar, musiqiy meros, pedagogik yondashuv, ma’naviy tarbiya, kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the role of national values in the process of formation and development of professional-pedagogical identity in future music teachers from theoretical and practical perspectives. The study substantiates the influence of national musical heritage, folk pedagogy, traditional art, and spiritual values on the development of an individual’s professional self-awareness. Furthermore, mechanisms for integrating national values into the educational process based on modern pedagogical approaches are proposed. The results of the research demonstrate the significant importance of national values in enhancing the professional competencies and identity of future music teachers.

Keywords: professional identity, music pedagogy, national values, musical heritage, pedagogical approach, spiritual education, competence.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa ta’limi tizimida bu masala alohida dolzarblik kasb etadi, zero musiqa san’ati xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy o‘zligini ifodalovchi eng ta’sirchan va barqaror madaniy fenomenlardan biri hisoblanadi. Musiqa o‘qituvchilarini yoshlarning qobiliyatlarini, his-tuyg‘ularini, qarashlarini hamda ularning qalb kechinmalarini anglash va ko‘ra olish mahorati bilan Yaratgan mukofotlagan. Milliy kuy-qo‘shiqlar, maqom san’ati, xalq og‘zaki

ijodi va an’anaviy ijrochilik maktablari orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan estetik va axloqiy qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashi va ruhiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish jarayonida aynan shu milliy qadriyatlar tayanch metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki musiqa o‘qituvchisi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni yetkazuvchi pedagog, balki milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi, o‘quvchilarda estetik did va ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi, jamiyatda madaniy meros davomiyligini ta’minlovchi ijtimoiy shaxsdir. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining kasbiy identiteti uning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ularni anglash darajasi va pedagogik faoliyatga integratsiya qila olish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda identitet tushunchasi ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida talqin etiladi. O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham shaxsning kasbiy va pedagogik identiteti uning ma’naviy qadriyatlari, milliy ong va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanishi ta’kidlanadi. Xususan, R. Safarova o‘z tadqiqotlarida shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonida milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va ma’naviy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi. Shuningdek, M. Mirqosimova pedagog shaxsining rivojlanishini uning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ongli munosabati, bilim va ko‘nikmalari hamda refleksiv fikrlash jarayonlari bilan bog‘liq holda izohlaydi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy identiteti izchil pedagogik tajriba va o‘z-o‘zini anglash asosida shakllanishini ko‘rsatadi.Bundan tashqari ustozim N. Muslimov tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda pedagogning kasbiy rivoji uzluksiz ta’lim jarayoni, innovatsion faoliyat va shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi. Olimlarimiz pedagog shaxsining shakllanishida uning ma’naviy-axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati hamda kasbiy faoliyatga mas’uliyatli yondashuvi muhim omil ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik identiteti faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki ularning milliy qadriyatlarni anglash, ularga sodiqlik va ularni pedagogik faoliyat jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur nazariy qarashlarni milliy qadriyatlar kontekstida tahlil qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik identiteti faqat kasbiy kompetensiyalar yig‘indisi emas, balki uning milliy musiqiy merosni anglash, qadrlash va uni pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash qobiliyati bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, milliy qadriyatlar nafaqat ta’lim mazmunining tarkibiy qismi, balki bo‘lajak pedagog shaxsining ichki dunyosi, kasbiy o‘zligi va pedagogik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Mazkur tadqiqot bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Har bir metod milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib izohlandi va amaliyot bilan uyg‘un holda qo‘llanildi. Misol uchun nazariy tahlil metodidan foydalanish orqali milliy qadriyatlar, xususan, o‘zbek xalqining musiqiy merosi - maqom san’ati, xalq qo‘shiqlari, an’anaviy ijrochilik maktablari hamda xalq pedagogikasi bilan bog‘liq ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlarning shaxs kamoloti, estetik tarbiya va kasbiy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Nazariy tahlil natijasida milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy identitetini shakllantiruvchi asosiy ma’naviy-me’yoriy tizim ekanligi aniqlashtirildi. Yoki pedagogik kuzatuv jarayonida musiqa ta’limi mashg‘ulotlarida talabalar faoliyati, ularning milliy musiqiy merosga bo‘lgan qiziqishi, estetik idroki va ijodiy yondashuvi muntazam ravishda tahlil qilindi. Xususan, milliy kuy va qo‘shiqlarni o‘rganish, ularni ijro etish hamda mazmunini tushunishga qaratilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar xulq-atvori va ishtiroki kuzatildi. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan darslar talabalar faolligini oshiradi, ularda milliy o‘zlikni anglash va kasbiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi. So‘rovnoma va suhbat usuli orqali talabalar va o‘qituvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ularning musiqiy merosni qabul qilish darajasi hamda pedagogik faoliyatda undan foydalanish imkoniyatlari aniqlashtirildi. So‘rovnomalar milliy musiqa, urf-odatlar va an’anaviy qadriyatlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni haqidagi savollar asosida tuzildi. Suhbatlar jarayonida esa respondentlarning shaxsiy fikrlari, tajribalari va qarashlari chuqur o‘rganildi. Natijada milliy qadriyatlar talabalarda nafaqat bilim, balki ma’naviy motivatsiya va kasbiy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari doirasida milliy qadriyatlarga asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, dars jarayoniga milliy kuy-qo‘shiqlarni integratsiya qilish, an’anaviy musiqa namunalarini tahlil qilish, sahna ko‘rinishlari va ijodiy loyihalarni tashkil etish kabi faoliyatlar amalga oshirildi. Ushbu metodlar orqali talabalar nafaqat musiqiy bilimlarini, balki milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatini, estetik tafakkurini va kasbiy identitetini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Tajriba natijalari milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishda kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, kasbiy o‘zlikni anglash darajasi oshadi: Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida

talabalar o‘zlarini nafaqat kelajakdagi mutaxassis, balki milliy madaniyatning davomchisi sifatida anglay boshlaydi. Bu jarayon, avvalo, milliy musiqiy meros - maqom, xalq qo‘shiqlari, an’anaviy ijrochilik maktablari bilan bevosita tanishish orqali yuzaga keladi.Talabalar milliy musiqa namunalari orqali o‘z xalqining tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini anglab yetadi. Natijada, ularda kasbga nisbatan mas’uliyatli yondashuv, milliy madaniyatni asrash va uni kelajak avlodga yetkazish zarurati haqida ongli tushuncha shakllanadi. Bu esa kasbiy identitetning ichki, ma’naviy komponentlarini mustahkamlaydi. Musiqiy-estetik tafakkur rivojlanadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan musiqa ta’limi talabalarda estetik did, badiiy idrok va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq kuy-qo‘shiqlari, maqom yo‘llari va an’anaviy musiqiy shakllar orqali talabalar musiqaning ichki mazmunini, uning emotsional va badiiy ifodasini chuqur his eta boshlaydi.Bu jarayonda talabalar nafaqat musiqani eshitadi, balki uni tahlil qiladi, obrazli fikrlaydi va estetik baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Milliy musiqa ularda nozik did, hissiy sezgirlik va san’atga ongli munosabatni shakllantiradi. Natijada, ular kelajakda o‘quvchilarda estetik tarbiyani samarali tashkil eta oladigan pedagog sifatida shakllanadi. Pedagogik faoliyatga motivatsiya kuchayadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy faoliyatga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Talabalar milliy musiqani o‘rganish va uni boshqalarga yetkazish jarayonida o‘z kasbining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini chuqur anglay boshlaydi.Ayniqsa, milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish mas’uliyati ularda pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqish va fidoyilikni oshiradi. Bu esa tashqi rag‘batdan ko‘ra ichki ehtiyojga asoslangan motivatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga sodiqlik, tashabbuskorlik va pedagogik faoliyatda faol ishtirok etishga intilish kuchayadi. Ijodiy yondashuv shakllanadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan musiqa ta’limi jarayonida talabalar ijodiy fikrlashga, yangilik yaratishga va mavjud bilimlarni kreativ tarzda qo‘llashga o‘rganadi. Bu jarayon bir necha muhim yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:milliy musiqani qayta talqin qilish -talabalar an’anaviy kuy-qo‘shiqlarni zamonaviy uslubda ifodalash, yangi aranjirovkalar yaratish orqali ijodiy yondashuvni rivojlantiradi,kreativ pedagogik metodlardan foydalanish - sahna ko‘rinishlari, musiqiy loyihalar, interaktiv darslar orqali o‘qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqadi, improvizatsiya va erkin ijro ko‘nikmalari – xalq musiqasi asosida erkin ijod qilish, yangi musiqiy g‘oyalarni shakllantirish qobiliyati rivojlanadi hamda milliy va zamonaviy musiqani uyg‘unlashtirish – talabalar milliy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali yangi pedagogik yechimlar yaratadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki milliy madaniyatni

zamonaviy shaklda rivojlantira oladigan ijodkor pedagog sifatida shakllanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa: xalq musiqa merosi (maqom, folklor, an’anaviy qo‘shiqlar); buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari (Abu Nasr Al Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy),milliy urf-odat va an’analar talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.Shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy musiqiy meros, xalq pedagogikasi, an’anaviy estetik qarashlar va ma’naviy qadriyatlar o‘qituvchi shaxsining kasbiy o‘zligini anglashida, uning pedagogik pozitsiyasini belgilashda hamda ta’lim jarayoniga ongli yondashuvni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikni anglash, musiqiy-estetik tafakkur, pedagogik motivatsiya va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi, estetik tarbiya beruvchi va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.Ayniqsa, milliy musiqa namunalarini interaktiv metodlar, raqamli vositalar va ijodiy loyihalar orqali o‘qitish pedagogik jarayonni mazmunan boyitadi va talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.Shu nuqtai nazardan, musiqa ta’limi tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish, ularni o‘quv dasturlari, metodik ta’minot va amaliy mashg‘ulotlar mazmuniga chuqur integratsiya qilish zarur. Bu esa kelajakda nafaqat raqobatbardosh, balki milliy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma’naviyatli va ijodkor musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov, N. A. (2015). *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
2. Safarova, R. (2018). *Pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish muammolari*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qodirov, R. (2020). *Musiqa ta’limi metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya.
4. Baxriyev, A. (2019). *Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Tafakkur.

5. Qobilova, E. B. (2021). Moral education as an important factor in the formation of a student as a person. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11*(10), 186–189.

6. Azizxonova, M., & Qobilova, E. (2022). Yoshlarni musiqiy madaniyati va ma’naviyatni shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati. *Oriental Art and Culture, 3*, 51–57.

7. Қобилова, Э. Б. (2022). Формировать духовное мировоззрение подрастающего поколения через фольклор жанра. *Oriental Art and Culture, 3*(1), 291–295.

8. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12*(9), 126–130.

JADIDLAR ADABIYOTIDA GENDER STEREOTIP VA GENDER ROLLAR TALQINI

Nargiza XOSHIMOVA,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender stereotipining Jadidlar adabiyotidagi o‘rni, hozirgi davr tilshunosligida gender stereotipi talqin etiladi. Zamonaviy jamiyatda gender stereotipi va gender rollar taqsimlanishi gender nutqiga ham ta’sir etishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: gender stereotipi, gender rollari, Jadidlar adabiyoti, gender nutqi, ijtimoiy rollar.

Annotation. This article examines the role of gender stereotypes in Jadid literature and interprets gender stereotypes in contemporary linguistics. It also explores how gender stereotypes and the distribution of gender roles in modern society influence gendered speech.

Key words: gender stereotip, gender rollar, Jadidlar adabiyoti, gender nutqi, ijtimoiy rollar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan Jadidchilik harakati ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy hayotda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy tilshunoslikda til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlar, xususan gender munosabatlarini ham aks ettiruvchi tizim sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan gender tilshunosligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoda XIX-XX asrlar chegarasida paydo bo‘lgan Jadidchilik harakati esa jamiyatni modernizatsiya qilish bilan birga gender munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, ayollar ta’limi va ularning jamiyatdagi o‘rni masalasi jadidlar diqqat markazida bo‘lgan. Jadidlarning ta’lim siyosati, til islohotlari va ayollar masalasiga bo‘lgan munosabati gender nazariyasi nuqtai nazaridan baholandi. Shuningdek, jadidlar adabiyotida gender nutq xususiyatlari, stereotiplar va ijtimoiy rollar masalasi ham o‘z o‘ringa ega bo‘lgan.

Jadidlar adabiyotida gender stereotiplari va gender rollari taqsimlanar ekan, buni biz hozirgi davr gender tilshunosligi bilan ham qiyoslashimiz mumkin. Masalan, bugungi kun tilshunosligida gender stereotipi tushunchasi keng ifodalanmoqda. Jadidlar adabiyotida ifoda etilgan gender rollari ham bugungi jamiyatda ko‘zga tashlanadi. Lekin gender tengligi gender stereotipi va gender rollar taqsimlanishini o‘zgartirib yubordi.

Har qaysi jamiyatda gender stereotip mavjud bo‘lib, u erkak va ayollar roli haqida umumlashtirilgan tushunchalar, tasavvurlarni ifodalaydi. Erkak va ayol o‘zlarining jinsi bilan farqlanadi. Shu bilan birga, aytish mumkinki, erkak va ayolni ta’riflaydigan sifatlar, jamiyatdagi roli, vazifasi ham ajralib turadi. Gender stereotipi tushunchasi hozirgi davrda shakllangan tushuncha emas. Gender stereotipi qadimiy antik davrlarda ham atroflicha talqin etilib, Aflotun va Arastu kabi faylasuflar erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni hamda vazifalaridan kelib chiqib gender stereotipini alohida kategoriyalarga ajratgan. Gender stereotipi tushunchasi falsafa, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalarida keng ta’riflangan. Falsafa fanida gender stereotipi farqi olam qonunlaridan, jamiyatdagi erkak va ayollar o‘rni va vazifalaridan kelib chiqib ta’riflansa, psixologiyada erkak va ayollarning fikrlashi, ichki psixologik dunyosidan, madaniyatshunoslikda esa turli millat va madaniyatlarda gender stereotipi farqlanishi muhokama etilgan. Shuningdek, tilshunoslikda gender stereotipi tushunchasi namoyon bo‘lib, til hamda til vositalarining erkak va ayollar tomonidan qo‘llanilishi e’tiborga olinadi. Arastu o‘zining falsafiy qarashlarida gender stereotipini quyidagicha ta’riflaydi: “Erkak va ayol tabiati mutlaqo farqlanadi; erkaklar tabiati moddiy dunyo bilan, ayollar tabiati ma’naviy dunyo bilan chambarchas bog‘liq”[1]. Bunga zamonaviy tadqiqotchilar o‘z fikrini berib, erkaklarning dunyosi produktiv, aktiv, dinamik; ayollar dunyosi esa retseptiv, passiv, statik tarzida izohlagan.

Hozirgi zamonaviy tadqiqotchilardan biri, genderologiya sohasining yetuk mutaxassisi A.V.Kirilina gender stereotipini ifodasida bir necha asrlar, yillar davomida shakllangan jamoaviy stereotipni, ya’ni har qaysi jamiyatda mavjud

[1] Аристотель. О возникновении животных. – М.-Л.:Академия наук. –1940.

bo‘lgan, ushbu jamiyatning qonun-qoidalari bilan bog‘langan erkak va ayol vazifasini ta’riflaydi[2].

Gender stereotipi har bir jamiyatda alohida shakllangan bo‘lib, ma’lum bir sxemaga asosan shakllanadi[3]. Demak, gender stereotipini biz umumiy va xususiy turlarini ajratishimiz mumkin. Umumiy gender stereotiplari erkak va ayolning farqlarini namoyon etadi. Ushbu farqlar jamoadan jamoaga farqlanmasdan, bitta yagona sxema asosida ifoda etiladi. Xususiy gender stereotiplari bitta ma’lum jamiyatga xos bo‘lib, aynan shu jamiyatning mentaliteti, urf-odatlari, dunyo qarashidan kelib chiqib, erkak va ayol xususiyatlariga asoslanib, sxema shakllantiradi. Sotsiologlar fikricha gender stereotip bo‘lishi uchun genderga xos xususiyatlarining shakllanishini jamoaning 75%i tan olishi kerak.

T.J.Toxtarova biz umumiy va xususiy deb nomlagan stereotiplarni an’naviy va baynalminal stereotip sifatida talqin etadi [4].

Gender stereotiplari dual tarzda ifodalanadi, chunki u jamiyatda faqat ikki guruh, ya’ni erkak va ayolning qarama-qarshi xususiyatlarini keltirib chiqaradi.

Gender stereotipi keng ma’noda qo‘llanadi. Gender stereotipi erkak va ayolning oilasida, ish joyida egallagan o‘rniga, kasbiga asosan farqlanadi[5].

Gender stereotipi shakllanganda, gender juftligi, ya’ni erkak va ayol, iyerarxiya shaklida gender assimetriyasini vujudga keltiradi. Erkakka xos xususiyatlar markazda joylashtirilib, ijobiy va dominantlik xususiyatlarini ifoda etadi, ayolga xos xususiyatlar periferiyada joylanib, salbiy va to‘liqsiz xususiyatlar sifatida keltiriladi.

Albatta, ushbu gender stereotiplar shakllanishida faylasuf, psixolog va tilchilar o‘z fikrlari bilan yondashgan. Shuning uchun jamiyatdami, tildami ifoda etilganda erkakka xos xususiyatlarni ijobiy, ayolga xos xususiyatlarni salbiy va to‘liqsiz deyilishini aksariyat tan olgan. Shu tariqa feminin lingvistika tarafdorlari vujudga kelib, nimaga ayol stereotipi to‘liqsiz, til birliklari aksariyat holatda erkak jinsini ifodalashiga qarshilik bildirganlar. Lekin, tan olish kerakki, gender stereotipi bir kunda bitta jamiyatda shakllanmaydi. Tilda aks etilgan gender stereotipi ilgari davrlardan jamiyatda shakllangan gender stereotiplaridan kelib chiqadi, erkak va ayolning tabiatini, ichki olamini inobatga olib vujudga keladi.

Rus genderologlarning tadqiqotlarida tilning milliy ong va tafakkuriga xos gender stereotip mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Demak, har qaysi millat tilida

[2] Кирилина А.В. Гендер и язык.– М.: Языки славянской культуры. – 2005.

[3] Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты [Текст] / А. В. Кирилина. – М.: Институт социологии РАН. – 1999.

[4] Токтарова Т.Ж. Проблема гендерного подхода в изучении межкультурной коммуникации // Успехи современного естествознания. – 2015. – №1-6. – С.1046-1048.

[5] Михальцова И.В. Гендерные исследования. Понятие “гендерного стереотипа”// Материалы международной молодёжной конференции. – Томск: Национальный исследовательский Томский государственный университет. – 2012. – С.88-93.

genderga xos xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Har qaysi millatda shakllangan gender stereotipi esa turli tillarda o‘zgacha ifodalanadi. Va, bu, albatta, milliy tilning o‘ziga xosligi gender aspektida ta’riflanadi.

O‘zbek madaniyatida esa gender stereotipi patriarxal tuzumga asoslangan, oilaviy rollarni qat’iy belgilagan. Gender stereotipi Jadidlar davrida shakllanib, gender rollar o‘zgarishining quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1-bosqichda – ayollar passiv, erkak hukmron;

2-bosqich – jadidlar islohoti: ayol ta’lim oladi, rollar qisman o‘zgaradi;

3-bosqich – modernizatsiya: ayol faol ishtirokchiga aylanadi.

Jadid adabiyotida ayollar nutqi “muloyim nutqiy strategiya”, erkalar nutqi “dominantlik modeli” bilan farqlanadi.

Ko‘rinadiki, jadidlar adabiyotida gender stereotipi va gender rollarni o‘rganish va hozirgi davr gender stereotipi va gender rollar bilan qiyoslash jamiyatda gender nutqini o‘zgarganligini kuzatish mumkin. Bu esa hozirgi kun tilshunoslida gender nutqini o‘rganish, o‘zbek madaniyatida gender nutqini boshqa millatlar gender nutqi bilan qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аристотель. О возникновении животных. – М.-Л.:Академия наук. – 1940.

2. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты [Текст] / А. В. Кирилина. – М.: Институт социологии РАН. – 1999.

3. Михальцова И.В. Гендерные исследования. Понятие “гендерного стереотипа”// Материалы международной молодёжной конференции. – Томск: Национальный исследовательский Томский государственный университет. – 2012. – С.88-93.

4. Токтарова Т.Ж. Проблема гендерного подхода в изучении межкультурной коммуникации // Успехи современного естествознания. – 2015. – №1-6. – С.1046-1048.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA TARIX, AN’ANA VA DAVOMIYLIK

Qobilova E’zozxon Bakirovna,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda tarix, an’ana va davomiylik omillarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda milliy musiqa merosi, tarixiy tajriba va pedagogik an’analarning uzviyligi asosida identitet shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, o‘zbek xalq musiqasi, maqom san’ati va ustoz-shogird an’analari orqali bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zligini anglash jarayoni yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-madaniy merosga asoslangan ta’lim modeli kasbiy identitetni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi orqali musiqa o‘qituvchisining professional kompetensiyalari rivojlanadi. Mazkur ishda tarixiylik, davomiylik va innovatsiya uyg‘unligi asosida samarali pedagogik mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy-pedagogik identitet, musiqa pedagogikasi, tarixiy meros, an’ana, davomiylik, maqom san’ati, ustoz-shogird tizimi, milliy musiqa, pedagogik kompetensiya, estetik tarbiya, musiqiy tafakkur, identifikatsiya, madaniy qadriyatlar, innovatsion yondashuv.

Annatation: This study explores the role of history, tradition, and continuity in the development of professional-pedagogical identity of future music teachers. The research focuses on the integration of national musical heritage and pedagogical traditions into modern educational practices. Special emphasis is placed on Uzbek folk music, maqom art, and the master-apprentice tradition. The findings reveal that historically grounded educational approaches significantly enhance professional identity formation. The study also highlights the importance of combining traditional values with innovative pedagogical strategies.

Keywords: Professional-pedagogical identity, music pedagogy, historical heritage, tradition, continuity, maqom art, master-apprentice system, national music, pedagogical competence, aesthetic education, musical thinking, identification, cultural values, innovative approach.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa ta’limi sohasi bu jarayonda alohida

o‘rin tutadi, chunki musiqa san’ati millatning ruhiy, estetik va ma’naviy dunyosini ifodalovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishda tarixiy meros, an’ana va davomiylik prinsiplariga tayanish zarurati yuzaga keladi.Kasbiy-pedagogik identitet o‘qituvchining o‘z kasbiga nisbatan ongli munosabati, pedagog sifatida o‘zini anglash darajasi hamda kasbiy qadriyatlar tizimini o‘zlashtirish jarayoni bilan belgilanadi. Musiqa o‘qituvchisi uchun bu tushuncha keng qamrovli bo‘lib, unda estetik tafakkur, badiiy did, ijodiy yondashuv va madaniy kompetensiyalar ham muhim o‘rin egallaydi.

Tarixiy meros pedagogik faoliyatning mazmuniy asoslaridan biri bo‘lib, u o‘zida asrlar davomida shakllangan musiqiy va didaktik tajribani mujassam etadi. O‘zbek musiqa madaniyatida shakllangan maqom san’ati, xalq qo‘shiqlari va ustoz-shogird tizimi nafaqat san’at namunasi, balki o‘ziga xos pedagogik maktab sifatida ham qadrlanadi. Ushbu meros bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy qarashlari va pedagogik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.An’ana esa tarixiy tajribaning uzluksiz davom etishini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Musiqa ta’limida an’analar orqali bilim, ko‘nikma va qadriyatlar avloddan avlodga o‘tadi hamda pedagogik tajriba uzviylik kasb etadi. Shu jihatdan an’anaviy yondashuvlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Davomiylik prinsipi esa pedagogik jarayonning uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi. U tarixiy tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Aynan davomiylik orqali pedagogik faoliyatda barqarorlik va izchillik ta’minlanadi.Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tarix, an’ana va davomiylik asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash hamda ularni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Musiqa pedagogikasi va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi masalalari o‘zbek pedagogika ilmida yetarlicha chuqur o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy merosga tayangan holda amalga oshirildi. Xususan, R. Qodirov tadqiqotlarida musiqa ta’limining milliy asoslari, uning estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilib, milliy musiqiy meros o‘quvchilarda nafaqat badiiy didni, balki kasbiy ong va pedagogik pozitsiyani shakllantirishda muhim vosita ekanligi ilmiy asoslanadi. Olim milliy musiqa orqali shaxsning ichki dunyosi boyishi, uning estetik qarashlari va kasbiy o‘zligini anglash darajasi ortishini alohida ta’kidlaydi.

N. Muslimovning ilmiy ishlari pedagogik jarayonni tizimli tashkil etish, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ta’lim mazmunini integratsiyalash masalalariga bag‘ishlangan. U o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchi

shaxsining shakllanishini ko‘p omilli va uzluksiz jarayon sifatida talqin etib, bunda metodik tayyorgarlik, refleksiya va pedagogik faoliyat tajribasining o‘zaro bog‘liqligini asoslab beradi. Ayniqsa, musiqa ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligi kasbiy identitetni rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

A. Baxriyev esa zamonaviy musiqa pedagogikasida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib berib, an’anaviy ta’lim elementlarini yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uning fikricha, aynan innovatsion metodlar orqali talabalarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va pedagogik tashabbuskorligi rivojlanadi. Shu bilan birga, u an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlash kasbiy-pedagogik identitetning barqaror shakllanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Mazkur ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik identiteti tarixiy meros, pedagogik an’ana va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida shakllanadi. Shu bois tadqiqot metodologiyasi kompleks va ko‘p bosqichli yondashuv asosida qurildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy metodologik prinsip sifatida tanlandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kasbiy-pedagogik identitet o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida qaraladi. Bu tizimga motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va refleksiv komponentlar kiradi. Tizimli yondashuv yordamida identitet shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar (tarixiy meros, an’ana, davomiylik) o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilindi va ularning integrativ ta’siri aniqlashtirildi.

Tarixiy-qiyosiy tahlil metodi orqali o‘zbek musiqa pedagogikasining rivojlanish bosqichlari, xususan, an’anaviy ustoz-shogird tizimi hamda zamonaviy ta’lim modellari o‘zaro solishtirildi. Bu metod yordamida tarixiy tajribaning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati aniqlanib, an’ana va davomiylikning kasbiy identitet shakllanishidagi roli asoslab berildi. Shuningdek, turli davrlardagi pedagogik qarashlar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari ochib berildi.

Pedagogik kuzatuv metodi tadqiqotning amaliy qismida muhim o‘rin tutdi. Mazkur metod orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi xulq-atvori, musiqa darslaridagi ishtiroki, ijodiy faolligi va pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati bevosita kuzatildi. Kuzatuv natijalari asosida ularning kasbiy identitet shakllanish darajasi haqida empirik ma’lumotlar to‘plandi.

Tajriba-sinov ishlari esa tadqiqotning asosiy amaliy bosqichini tashkil etdi. Ushbu jarayonda tarix, an’ana va davomiylik prinsiplariga asoslangan maxsus pedagogik sharoitlar yaratildi va ularning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tajriba davomida eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etilib, ularning natijalari o‘zaro taqqoslandi. Bu esa ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarning amaliy samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Anketa va diagnostik metodlar yordamida talabalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, ularning kasbiy qadriyatlari, musiqiy-estetik qarashlari va o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Diagnostik vositalar orqali esa identitetning shakllanish darajasi mezonlar asosida baholandi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ob’ektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodlar majmui bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish jarayonini har tomonlama, tizimli va ilmiy asosda o‘rganish imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda tarix, an’ana va davomiylikka asoslangan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirildi. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar ikki guruhga - nazorat va eksperimental guruhlarga ajratilib, ularda kasbiy identitet shakllanish darajasi maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi.

Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyatida kasbiy-pedagogik identitet yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, ayniqsa milliy musiqiy merosga ongli munosabat, pedagogik faoliyatga ichki motivatsiya va o‘z kasbini anglash darajasi o‘rtacha yoki past ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ldi. Bu holat an’anaviy o‘qitish jarayonida tarixiylik va davomiylik tamoyillarining yetarlicha tizimli qo‘llanilmayotganligini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari davomida eksperimental guruhda quyidagi pedagogik sharoitlar yaratildi:

- milliy musiqa merosiga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari;
- ustoz-shogird an’anasi elementlarini amaliyotga joriy etish;
- maqom va xalq musiqa namunalarini tahlil qilish asosida estetik tafakkurni rivojlantirish;
- refleksiv faoliyat (o‘z-o‘zini baholash, pedagogik o‘zlikni anglash);
- ijodiy topshiriqlar va sahnaviy faoliyatni kengaytirish.

Tajriba yakunida o‘tkazilgan qayta diagnostika natijalari sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi.Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tarixiy merosga asoslangan yondashuv talabalarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini chuqurlashtiradi. Ayniqsa, maqom san’ati va xalq qo‘shiqlari bilan ishlash orqali

ularda milliy madaniyatga nisbatan ongli munosabat shakllandi. Bu esa ularning pedagogik faoliyatiga estetik va ma’naviy mazmun kiritdi.

An’anaviy ustoz-shogird tizimi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirdi. Ular nafaqat bilim olish, balki tajriba o‘zlashtirish, kuzatish va taqlid qilish orqali o‘z kasbiy modelini shakllantira boshladi. Bu esa kasbiy identitetning amaliy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

Davomiylik prinsipiga asoslangan ta’lim esa bilimlarning izchilligi va uzluksizligini ta’minladi. Talabalar o‘z bilimlarini nazariy darajada emas, balki amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa ularning pedagogik tayyorgarligini yanada mustahkamladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi aniq xulosaviy natijalar olindi:

- talabalarda kasbiy motivatsiya darajasi sezilarli oshdi;
- musiqiy-estetik tafakkur rivojlandi;
- milliy qadriyatlarga sodiqlik kuchaydi;
- pedagogik faoliyatga ongli yondashuv shakllandi;
- ijodiy va refleksiv faoliyat faollashdi.

Mazkur natijalar ta’lim amaliyotida keng qo‘llanishi mumkin. Xususan:musiqa pedagogikasi fanlari dasturlariga milliy merosga asoslangan modullarni kiritish ustoz-shogird tizimini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash, musiqa darslarida ijodiy va refleksiv metodlarni keng joriy etish, talabalarning kasbiy identitetini baholash uchun diagnostik tizim ishlab chiqish. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin. Bu esa kelajakda yuqori malakali, milliy qadriyatlarga sodiq va zamonaviy pedagogik kompetensiyalarga ega bo‘lgan musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari tarix, an’ana va davomiylikka asoslangan yondashuv bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik identitetini rivojlantirishda samarali mexanizm ekanligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotladi.

Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda tarix, an’ana va davomiylik omillarining o‘rni kompleks tarzda o‘rganildi hamda ularning pedagogik jarayondagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kasbiy-pedagogik identitetning shakllanishi shaxsning kasbiy o‘zligini anglash, pedagogik

qadriyatlarni o‘zlashtirish va ularni amaliy faoliyatda namoyon etish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tarixiy merosning bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi. O‘zbek musiqa madaniyatiga xos maqom san’ati, xalq qo‘shiqlari hamda ustoz-shogird tizimi talabalarda estetik tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va pedagogik mas’uliyatni rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Tarixiy tajribaga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy ongini chuqurlashtirib, ularni o‘z kasbiga ongli va mas’uliyatli yondashishga yo‘naltiradi.

An’ana pedagogik faoliyatning uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin etilib, musiqa ta’limi jarayonida bilim va tajribaning avloddan avlodga uzatilishini ta’minlashi aniqlandi. An’anaviy pedagogik yondashuvlar orqali talabalarda kasbiy madaniyat, pedagogik muloqot ko‘nikmalari va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Shu bilan birga, an’analarning zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashuvi kasbiy identitetning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.Davomiylik prinsipi pedagogik jarayonning izchilligi va uzluksizligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlarning integratsiyasi orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari tizimli ravishda rivojlanadi, bu esa ularning pedagogik faoliyatida barqarorlik va samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu jarayon talabaning bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini bosqichma-bosqich chuqurlashtirish orqali amalga oshadi.Tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan pedagogik sharoitlar va metodik yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Milliy musiqa merosiga asoslangan mashg‘ulotlar, ustoz-shogird tizimi elementlarini joriy etish, refleksiv faoliyatni tashkil qilish hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarda kasbiy motivatsiya, musiqiy-estetik tafakkur va pedagogik ongni sezilarli darajada rivojlantirdi. Natijada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining o‘z kasbiga nisbatan ijobiy munosabati shakllanib, ularning kasbiy identiteti mustahkamlandi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirish samaradorligi tarixiylik, an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu omillarning integratsiyasi pedagogik jarayonni boyitadi, talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi hamda uni zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda shakllantiradi. Shu jihatdan, ishlab chiqilgan yondashuv bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida musiqa pedagoglarini tayyorlash jarayoniga joriy etilishi mumkin. Ular o‘quv dasturlarini boyitish, pedagogik metodlarni

takomillashtirish va talabalarning kasbiy identitetini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada yuqori malakali, milliy qadriyatlarga sodiq, ijodkor va zamonaviy pedagogik kompetensiyalarga ega bo‘lgan musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash imkoniyati kengayadi.Umuman olganda, tarix, an’ana va davomiylikka asoslangan pedagogik yondashuv bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik identitetini shakllantirishda muhim ilmiy asos va samarali amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov, N. A. (2015). *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
2. Safarova, R. (2018). *Pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish muammolari*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qodirov, R. (2020). *Musiqa ta’limi metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya.
4. Baxriyev, A. (2019). *Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Tafakkur.
5. Qobilova, E. (2020). *Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari*. Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti.
6. Qobilova, E. B. (2021). Moral education as an important factor in the formation of a student as a person. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11*(10), 186–189.
7. Azizxonova, M., & Qobilova, E. (2022). Yoshlarni musiqiy madaniyati va ma’naviyatni shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati. *Oriental Art and Culture, 3*, 51–57.
8. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). Hozirgi o‘zbek hikoyachiligining yetakchi tamoyillari. *University Research Base*, 46–49.

ASHURALI ZOHIRIYNING “ZAMON HAM BIZ” MAQOLASIDA PEDAGOGIK TAFAKKUR VA ZAMONAVIYLIK G‘OYASI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada Ashurali Zohiriyning “Zamon ham biz” nomli publitsistik asari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallif tomonidan ilgari surilgan zamon bilan hamnafas yashash, shaxsning ko‘p qirrali rivoji, ilm va hunarning ahamiyati, shuningdek, ta’limga nisbatan ijtimoiy ong va mas’uliyat masalalari yoritiladi. Maqolada jamiyatning o‘tmishga berilib ketishi,

kelajakni rejalashtirmaslik va tor kasbiy tafakkur kabi muammolar tanqidiy asosda ochib berilgan.

Tahlil jarayonida asardagi g‘oyalar zamonaviy pedagogikaning kompetensiyaga asoslangan ta’lim, uzluksiz o‘rganish va tanqidiy fikrlash kabi tamoyillari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur qarashlarning jadid pedagogikasi doirasidagi o‘rni va ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Ashurali Zohiriy, zamon va jamiyat, ta’lim, tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, uzluksiz ta’lim, ijtimoiy ong, kasb va hunar, moslashuvchanlik, jadid pedagogikasi.

Abstract. The article analyzes Ashurali Zohiriy’s journalistic work “Zamon ham biz” from a pedagogical perspective. The study highlights the author’s ideas on keeping pace with the times, the multidimensional development of the individual, the importance of knowledge and professional skills, as well as issues of social awareness and responsibility toward education. The article critically examines problems such as society’s excessive attachment to the past, lack of future planning, and narrow professional thinking.

In the process of analysis, the ideas presented in the work are comparatively studied in relation to the principles of modern pedagogy, including competency-based education, lifelong learning, and critical thinking. Furthermore, the role and significance of these views within the framework of jadid pedagogikasi are determined.

Keywords: Ashurali Zohiriy, time and society, education, upbringing, competency-based approach, critical thinking, lifelong learning, social awareness, profession and skills, adaptability, jadid pedagogy.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar ta’lim tizimi va pedagogik tafakkurning yangilanishini taqozo etdi. Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar millat taraqqiyoti, yosh avlod tarbiyasi va zamonaviy bilimlarni egallash zarurati bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, Ashurali Zohiriyning 1923-yil 23-aprelda “Farg‘ona” gazetasining 70-sonida [1, 1-b] e’lon qilingan “Zamon ham biz” maqolasi o‘z davrining dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolarini yoritib beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada Zohiriy jamiyatning ilmga, hunarga va zamon talablariga moslashishga bo‘lgan munosabatini tanqidiy ruhda tahlil qiladi. U kishilar ongida mavjud bo‘lgan befarqlik, o‘tmishga haddan tashqari berilib ketish va kelajak haqida yetarli darajada o‘ylamaslik kabi illatlarni ochib beradi. Bu esa o‘z navbatida shaxs tarbiyasi, ta’limning mazmuni va uning amaliy ahamiyati masalalarini pedagogik nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ham mazkur masalalar o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Zamonaviy pedagogika shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va uzluksiz o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2, 17]. Shu bois, Zohiriyning qarashlarini jadid pedagogikasi kontekstida o‘rganish, ularning bugungi ta’lim tizimi bilan uyg‘un jihatlarini aniqlash ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ashurali Zohiriyning “Zamon ham biz” maqolasida jamiyatning zamon bilan uyg‘un rivojlanmasligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatiladi. Muallif zamon o‘zgarishini keskin va muqarrar jarayon sifatida talqin etadi: *“Zamonlar o‘zgarib turmushingning osti ustiga kelar; sen shunga qarab hozirlan!”.* Ushbu fikr pedagogik jihatdan shaxsni o‘zgaruvchan muhitga tayyorlash zarurligini asoslaydi. Demak, ta’lim tizimi insonni barqaror bilim bilan emas, balki moslashuvchan kompetensiyalar bilan qurollantirishi kerak.

Maqolada o‘tmishga haddan tashqari berilib ketish holati keskin tanqid qilinadi. Muallif xalq ongidagi passivlikni quyidagi tarzda ifodalaydi: *“falon xonning zamoni undoq edi, u zamon bekning to‘yi mundoq edi… falon vaqt mundoq arzonchiliq ediki…”.* Bu yerda o‘tmishni idealizatsiya qilish mavjud bo‘lib, kelajak haqida o‘ylamaslik holati kuzatiladi. Zohiriy buni yana-da aniqroq qilib: “*Ammo kelasi to‘g‘risida hech vaqt o‘ylamaymiz*” deya ta’kidlaydi.

Ashurali Zohiriy jamiyat a’zolarining tor doirada fikrlashini misollar orqali ochib beradi: *“Mulla o‘ylamay dars beradi fatvo chiqaradi. Eshon o‘ylamay… ershod beradi. Kosib o‘ylamay bolg‘a uradi… Dehqon o‘ylamay omoch sudraydi. Savdogar o‘ylamay savdo qiladi”.* Ushbu iqtibos shuni ko‘rsatadiki, har bir kasb egasi faqat o‘z faoliyati bilan cheklanib qolgan. Bu gapni sodda qilib aytganda: har kim o‘z ishini o‘ylamasdan, chuqur anglamasdan, odat bo‘lib qolgan tarzda bajaradi. Ya’ni mulla dars beradi, eshon nasihat qiladi, kosib ishlaydi, dehqon yer haydaydi, savdogar savdo qiladi — lekin hech biri “nega?”, “qanday qilsam yanada yaxshiroq natija bo‘ladi?”, “zamon nimani talab qilyapti?” degan savollarni bermaydi.

Birinchidan, bu ongsizlik muammosidir. Inson o‘z faoliyatini anglab emas, balki odat va stereotip asosida bajaradi. Bu esa shaxsning haqiqiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, bu yerda formal faoliyat tanqid qilinadi. Ya’ni tashqi harakat bor, lekin ichki mazmun, tafakkur, yangilanish yo‘q. Inson ishlayotgandek ko‘rinadi, lekin aslida o‘sish sodir bo‘lmaydi.

Uchinchidan, bu fikr erkin tafakkur yetishmasligini ko‘rsatadi. Agar inson o‘ylamasa, u o‘z hayotining egasi bo‘lolmaydi, balki sharoitlar oqimida yashaydi.

To‘rtinchidan, bu holat zamon bilan nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Chunki o‘ylamasdan bajarilgan ish yangilikka moslashmaydi, natijada inson jamiyat taraqqiyotidan ortda qoladi.

Bu jumla insonni shunchaki “ishlovchi” emas, balki o‘ylovchi, anglovchi va o‘zini rivojlantiruvchi shaxs bo‘lishga chaqiradi**.**

Zohiriy zamon o‘zgarishiga tayyor bo‘lmagan jamiyatning oqibatlarini ham ko‘rsatadi. U shunday yozadi: *“zamonning to‘lqini aylantirib shundoq bir sohilga chiqarib qo‘ysaki… haligilar nima qilar ekanlar?”*. Bu metafora orqali muallif keskin ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida tayyorgarliksiz insonning ojizligini ifodalaydi. “Zamon to‘lqini” inson va jamiyat hayotini boshqarib borayotgan katta tarixiy o‘zgarishlar oqimi sifatida tasvirlanadi. Ya’ni, agar zamon birdan o‘zgarib ketsa, eski tartiblar yo‘q bo‘lib, hamma yangi sharoitga tushib qolsa, tayyorgarliksiz odamlar nima qiladi? Pedagogik jihatdan bu fikr moslashuvchanlik va adaptiv kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini isbotlaydi.

Maqolada hunar masalasi alohida urg‘u bilan beriladi. Muallif xalq donishmandligiga tayangan holda shunday xulosa chiqaradi: “*yigit kishiga yetmish ikki turli hunar ham oz” va “hunarli qo‘l o‘lmas*”. Bu insonning ko‘p qirrali rivojlanishi kerakligi haqidagi g‘oya. Inson bir yo‘nalishda qolib ketmasligi, balki turli vaziyatlarga moslasha oladigan darajada keng bilimli bo‘lishi kerak. Hunar — faqat kasb emas, balki insonni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustaqil qiladigan kuchdir. Hunarli inson boshqalarga qaram bo‘lmaydi. Shuningdek, bu g‘oya zamon bilan moslashuv falsafasiga ham yaqin. Bir hunar yo‘qolsa yoki qadrsizlansa, ikkinchisi insonni saqlab qoladi. Demak, ko‘p hunar — bu hayotiy “zaxira imkoniyatlar” tizimi. Ushbu iqtiboslar ko‘p hunar egallashning hayotiy zarurat ekanini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy pedagogikadagi uzluksiz ta’lim va ko‘p kompetensiyali shaxsni shakllantirish g‘oyalarini tasdiqlaydi.

Zohiriy ta’lim imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, ulardan foydalanilmayotganini tanqid qiladi: *“Otalar” dedim. Hamma hozirda o‘shandoq maktablarda o‘qimoqda bo‘lg‘on talabalarni qaysi ota yuboradi ekan? - yo‘q, hech bir ota men, o‘g‘limni yubordim deb ayta olmas.*

Holbuki to‘rt qo‘l bilan yopishib, to‘rt oyoq bilan yugurish lozim edi. Hozirgi vaqtda har yerda o‘qig‘on ishchilar yetishmaydi. Balki yo‘q, buning muqobilida ovqatin topa olmay yurganlar nihoyatda ko‘p.

Demak baxt va saodat tayyor lekin bizda unga hozirlik yo‘q..” Ya’ni, ta’lim olish imkoniyati bor, ish va baxt uchun sharoit ham tayyor, lekin odamlar undan foydalanishga tayyor emas. Ota-onalar farzandini o‘qishga yuborishga ham ikkilanadi, aslida esa, farzandini o‘qitish uchun ota-ona to‘rt qo‘l bilan yopishib, to‘rt oyoqlab yugurishi kerak. Natijada esa bilimli ishchilar yetishmayapti, shu bilan birga ishsiz, och-nahor yurganlar juda ham ko‘p. Hayotda imkoniyat

(maktablar, ta’lim, sharoit) mavjud, lekin insonning ichki qarori va intilishi bo‘lmasa, bu imkoniyatlar samara bermaydi. Demak, baxt tashqi tayyor holat emas, balki insonning ongli tanloviga bog‘liq ekanligini uqtiradi. Pedagogik jihatdan bu muammo ta’lim tizimi bilan bir qatorda ijtimoiy ongni ham rivojlantirish zarurligini bildiradi.

Maqolada tanqidiy ruh ustun bo‘lib, muallif jamiyatni o‘z kamchiliklarini anglashga undaydi. U og‘ir ijtimoiy holatlarni eslatib o‘tadi: *“Hammamizning ko‘z oldimizda turibdurki, kechagina: yangi iqtisodiy siyosat chiqmasdan ilgari (majburiy xizmat bo‘lg‘onda) haligi guruhlardan ko‘pisi qancha tentiradi. Qilib turgan qo‘lidagi kasbiga biror zarba yetishi bilan qanchasi ochliqqa uchraydi. Qolg‘on qanchasi uyini, tomini, qozon tovog‘ini yeb katta bo‘ldi.*

Mana shu kasofat, halokat, falokatlarga uchrashliklarning hamma sababi bosh omili zamonga, zamon to‘lqiniga hozirliksizlig‘imizdir. Zamon va zamon to‘lqiniga ozgina hozirligi bor qavmlar shu muhit, shu sharoit va shu doiraning ichida turib, haligidek halokat va falokatlardan yiroq, balki mas’ud va baxtiyor yashaganlari va yashamoqdalari ham ko‘z oldimizdadir.

Ularda hozirliq bor qilib turgan bir kasb va bir hunarning bozori tushsa, darhol ikkinchi bir hunari bilan ta’min maishat etadirlar. Ular ochliqdan o‘lmaydi. Xor va gado bo‘lmaydi”. Bu parcha hayotning doimiy o‘zgaruvchan tabiatini va insonning unga munosabatini ochib beradi. Unda asosiy g‘oya shundan iboratki, jamiyat va iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi natijasida tayyorgarligi yo‘q insonlar qiyin ahvolga tushib qoladi, chunki ular faqat bir kasb yoki bir tizimga suyanib yashashgan bo‘ladi. Natijada sharoit o‘zgarganda ular o‘z tirikchilik manbaidan ayrilib, moddiy va ma’naviy inqirozga yuz tutadi.

Bu holat hayotning beqarorligi va insonning moslashuvchanlik darajasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Hayot bir joyda to‘xtab turmaydi, u doim harakatda va yangilanishda bo‘ladi. Shunday ekan, faqat bir yo‘nalishga qattiq bog‘langan inson o‘zgarishlar oldida zaiflashadi. Aksincha, ko‘p qirrali bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan shaxs har qanday yangi sharoitga tez moslasha oladi va o‘z hayotini davom ettirish yo‘lini topadi.

Shu bilan birga, matnda qashshoqlik va falokatlarning sababi sifatida tashqi omillar emas, balki insonning ichki tayyorgarligi yetishmasligi ko‘rsatiladi. Ya’ni muammo sharoitning o‘zida emas, balki unga tayyor bo‘lmagan ong va amaliy ko‘nikmalarda yotadi. Tayyorligi bo‘lmagan inson uchun har bir o‘zgarish yo‘qotish bo‘lib ko‘rinsa, tayyor inson uchun esa bu yangi imkoniyatga aylanadi.

Shuningdek, matn ijtimoiy barqarorlikning asosini ham ochib beradi: kimki faqat bitta kasbga tayanib yashasa, u hayotiy xavfga yaqin bo‘ladi, chunki bir yo‘nalishdagi o‘zgarish uning butun hayotini izdan chiqarishi mumkin. Ammo turli hunar va bilimga ega bo‘lgan inson uchun bu o‘zgarishlar halokat emas, balki moslashuv va yangilanish imkoniyatidir. Ushbu iqtiboslar orqali Zohiriy ijtimoiy

beqarorlik sabablarini ochib beradi va bu holatni zamonga tayyorgarliksizlik bilan bog‘laydi. Bu yondashuv tanqidiy pedagogika tamoyillariga mos keladi.

Shuningdek, muallif kelajakni o‘ylash va unga tayyorlanish zarurligini qat’iy ta’kidlaydi: “*Kelasi zamonga muvofiq, har bir ehtimolga qarshi o‘qing, biling, o‘rganing, dunyoda rohat va saodat sizniki!*”. Bu fikr pedagogik jihatdan strategik fikrlash, prognozlash va uzluksiz o‘rganish kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Ashurali Zohiriyning “Zamon ham biz” maqolasi pedagogik jihatdan chuqur mazmunga ega bo‘lib, unda shaxs va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim, ong va zamonga moslashuv masalalari ilgari suriladi. Muallif tomonidan keltirilgan dalillar va tanqidiy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ortda qolishiga sabab — bu ilmga befarqlik, kelajakni rejalashtirmaslik va bir yoqlama kasbiy tafakkurdir.

Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar bugungi zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan hamohangdir. Xususan, shaxsda ko‘p qirrali kompetensiyalarni shakllantirish, uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yish, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish kabi masalalar muallif qarashlarining asosini tashkil etadi. Bu jihatlar Jadid pedagogikasining ham muhim tamoyillaridan biridir.

Shuningdek, ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yosh avlodni ilm va hunarga yo‘naltirish, ularni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Bu esa pedagogik jarayonda nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy ongni shakllantirish ham muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Zamon ham biz” maqolasi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Muallifning *“o‘qing, biling, o‘rganing”* degan chaqirig‘i hozirgi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlari bilan uyg‘unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondi. Farg‘ona gazetasi. “Zamon ham biz”. 1923-yil 23-aprel 70-son 1-bet.

2. PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA MAQOLALAR TO‘PLAMI – IV. Qurbonov H. “Turkiston ulamolarining jadidchilik harakati” Toshkent. 2022. 17-19 b.

3. Shoymardonov T.T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O‘quv-uslubiy majmua. –T.: 2016.

MUKARRAMA TURG‘UNBOYEVA IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR VA MADANIY IDENTITET MASALALARI

Saidaxon RASULOVA,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek raqs san’atining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Mukarrama Turg‘unboyeva ijodida milliy qadriyatlar va madaniy identitet masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda san’atkorning ijodiy faoliyati, uning milliy raqs maktabini rivojlantirishdagi o‘rni hamda madaniy merosni saqlashdagi hissasi kompleks yondashuv asosida o‘rganilgan. Maqolada milliy qadriyatlar tushunchasi va uning san’atdagi ifodasi, ayniqsa, raqs san’atida aks etishi keng yoritilgan. Mukarrama Turg‘unboyeva ijodida xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar va an’analarning badiiy talqini chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida madaniy identitetning shakllanish mexanizmlari, uning estetik va ijtimoiy funksiyalari ochib berilgan. Shuningdek, san’atkor ijodining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati alohida ko‘rib chiqilgan. Maqolada milliy raqs orqali madaniy o‘zlikni anglash va saqlash masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari milliy san’atni rivojlantirish va madaniy identitetni mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, madaniy identitet, raqs san’ati, Mukarrama Turg‘unboyeva, estetik tafakkur, xalq an’analari, madaniy meros, ijodiy faoliyat, san’at pedagogikasi, milliy o‘zlik, madaniy uzviylik, folklor, badiiy ifoda, estetik qadriyatlar, identitet shakllanishi.

Annotation. This article examines the issues of national values and cultural identity in the creative works of Mukarrama Turgunboyeva, one of the prominent representatives of Uzbek dance art. The study analyzes her artistic activity, her role in the development of the national dance school, and her contribution to preserving cultural heritage. The concept of national values and its artistic representation, especially in dance, is explored in detail. The article highlights how folklore, traditions, and customs are artistically interpreted in her works. The mechanisms of cultural identity formation, along with its aesthetic and social functions, are also discussed. The research emphasizes the importance of her творчество in educating the younger generation. It demonstrates how dance serves as a medium for expressing and preserving national identity. The findings show that her artistic legacy plays a significant role in strengthening cultural continuity and identity. The study contributes to the theoretical and practical understanding of national art development.

Keywords: national values, cultural identity, dance art, Mukarrama Turgunboyeva, aesthetics, traditions, cultural heritage, artistic creativity, pedagogy,

identity formation, folklore, artistic expression, cultural continuity, national consciousness, aesthetic values.

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va madaniy identitet masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy san’at turlari orqali madaniy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish muhim ilmiy muammo sifatida e’tirof etilmoqda. San’at insoniyat tarixida nafaqat estetik ehtiyojlarni qondirish, balki ijtimoiy va madaniy identitetni shakllantirish vositasi sifatida ham muhim rol o‘ynab kelgan. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, ayniqsa, raqs san’ati orqali o‘zining milliy qiyofasini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylanadi.Mukarrama Turg‘unboyeva o‘zbek raqs san’atining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan san’atkor sifatida tanilgan. Uning ijodi milliy qadriyatlar, an’analar va estetik qarashlarning o‘ziga xos uyg‘unligini aks ettiradi. San’atkor o‘z asarlarida xalqning ruhiyati, tarixiy xotirasi va madaniy identitetini badiiy ifoda etishga muvaffaq bo‘lgan. Bu esa uning ijodini nafaqat san’atshunoslik, balki pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim qiladi. Bugungi kunda yosh avlodda milliy o‘zlikni shakllantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda san’at, xususan, raqs san’ati muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi esa bu borada muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida aks etgan milliy qadriyatlar yosh avlod ongiga singdirilishi zarur. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim tizimida milliy identitetni shakllantirish masalasi keng muhokama qilinmoqda. Shu bois, milliy san’at orqali identitetni rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Milliy identitet va madaniy qadriyatlar masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Erik Erikson identitetni shaxs rivojining markaziy kategoriyasi sifatida talqin etadi. Beijaard esa o‘qituvchilar identitetini tajriba va refleksiya orqali shakllanishini asoslaydi. Shu bilan birga, madaniy identitet masalalari Clifford Geertz tomonidan madaniyatni ramziy tizim sifatida tushuntirish orqali yoritilgan. O‘zbek olimlaridan R. Qodirov, N. Muslimov va A. Baxriyevlar madaniy meros va pedagogik jarayon o‘rtasidagi uzviylikni ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida milliy qadriyatlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni asoslab berilgan.Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, tarixiy-tahliliy usul va komparativ tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, san’atshunoslik va pedagogik tahlil metodlari qo‘llanildi. Empirik ma’lumotlar sifatida san’atkor ijodi va sahna asarlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining milliy qadriyatlar va madaniy identitetni shakllantirishdagi beqiyos ahamiyatini yana bir bor ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, san’atkorning sahna asarlarida milliylik nafaqat tashqi shakl sifatida, balki mazmuniy va semantik qatlamda ham chuqur aks etgan.

Ayniqsa, uning raqs kompozitsiyalarida xalq urf-odatlari, milliy marosimlar va an’anaviy qadriyatlarning plastika orqali ifodalanishi yuqori badiiy darajada amalga oshirilgan. Bu holat milliy madaniyatning san’at orqali uzviy davomiyligini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholandi. Empirik tahlillar natijasida aniqlanishicha, Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi asosida tashkil etilgan pedagogik tajriba jarayonida talabalar ongida milliy identitetning shakllanishi sezilarli darajada jadallashgan. Xususan, eksperimental guruhda milliy identitet ko‘rsatkichlari 68% gacha oshgani kuzatildi, bu esa nazorat guruhiga nisbatan 34% yuqori natijani tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkichlar san’at vositalari orqali identitet shakllanishining samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.Tahlillar davomida talabalarning estetik tafakkuri va badiiy idroki rivojlanish darajasi ham o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, raqs san’ati bilan muntazam shug‘ullangan talabalarda estetik idrok darajasi 52% dan 79% gacha oshgani qayd etildi. Bu esa san’at orqali shaxsning nafaqat bilim darajasi, balki hissiy-intellektual qobiliyatlari ham rivojlanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, emotsional tajriba va badiiy kechinmalar identitet shakllanishida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ldi.Shuningdek, ijodiy faoliyat ko‘rsatkichlari ham alohida tahlil qilindi. Eksperimental guruhda talabalarning ijodiy faolligi 45% ga oshgani kuzatildi. Bu jarayonda talabalar mustaqil ravishda yangi raqs kompozitsiyalarini yaratish, milliy obrazlarni talqin qilish va sahna ifodasini boyitish kabi faoliyatlarga jalb etildi. Natijada, ularda ijodiy fikrlash, estetik baholash va madaniy merosga ongli munosabat shakllandi. Tadqiqot davomida madaniy identitetning shakllanish mexanizmlari ham aniqlashtirildi. Xususan, refleksiv mexanizm orqali talabalar o‘z milliy qadriyatlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirgan bo‘lsa, motivatsion-qadriyatli mexanizm ularning milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Ijodiy-estetik mexanizm esa badiiy faoliyat orqali identitetni chuqurlashtirishga xizmat qildi. Kommunikativ-faoliyat mexanizmi esa jamoaviy faoliyat jarayonida madaniy tajriba almashinuvi orqali identitetni mustahkamladi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy raqs san’ati orqali berilgan ta’lim shakllari talabalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular jamoada ishlash, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash va madaniy merosni qadrlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni egalladilar. Bu esa identitetning ijtimoiy komponenti rivojlanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, madaniy identitetni shakllantirish jarayonida multimodal yondashuvning samaradorligi ham aniqlandi. Ya’ni, musiqiy, vizual va kinestetik elementlarning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirdi. Bu yondashuv orqali talabalarda kompleks estetik tafakkur shakllandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi asosida ishlab chiqilgan pedagogik model milliy identitetni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu modelni ta’lim tizimiga joriy etish orqali milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining milliy qadriyatlar va madaniy identitetni shakllantirishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati har tomonlama asoslab berildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, san’atkor ijodi milliy madaniyatning estetik, ijtimoiy va pedagogik komponentlarini o‘zida mujassam etgan noyob fenomen hisoblanadi. Uning sahna asarlarida aks etgan milliy obrazlar, harakatlar va musiqiy elementlar yosh avlod ongida milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy raqs san’ati orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy-pedagogik identitetini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, estetik idrok, refleksiya va ijodiy faoliyat orqali identitet shakllanishi tezlashadi. Bu esa san’atning pedagogik imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi.Shuningdek, tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Milliy raqs san’ati orqali berilgan bilimlar talabalarda nafaqat estetik didni, balki milliy ongni ham shakllantiradi. Bu jarayon esa madaniy uzviylikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi. Birinchidan, madaniy identitet shaxsning ijtimoiy va estetik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, san’at, xususan, raqs san’ati identitetni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi.Amaliy jihatdan qaralganda, mazkur tadqiqot natijalari asosida ta’lim dasturlariga milliy raqs elementlarini kiritish tavsiya etiladi. Bu orqali yosh avlodda milliy g‘urur, madaniy ong va estetik tafakkur rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda ta’lim tizimi muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, milliy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Mukarrama Turg‘unboyeva ijodi milliy identitetni shakllantirish va rivojlantirishda beqiyos ilmiy va pedagogik resurs hisoblanadi. Uning ijodiy merosi asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi lozim. Bu esa milliy madaniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi va kelajak avlodning ma’naviy barkamolligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat, A. (1996). *Musiqa haqida maqolalar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Qodirov, R. (2010). *Pedagogik meros va zamonaviy ta’lim*. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Baxriyev, A. (2012). *Ta’lim nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Azizxonova, M., & Qobilova, E. (2022). Yoshlarni musiqiy madaniyati va ma’naviyatni shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati. *Oriental Art and Culture, 3*, 51–57.

5. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). Qadimiy musiqiy san’atning shakllanish jarayoni. *Science and Innovation, 2*(Special Issue 14), 560–565.

6. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). Hozirgi o‘zbek hikoyachiligining yetakchi tamoyillari. *University Research Base*, 46–49.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI

Homidaxon RASULOVA,
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Ushbu maqolada milliy musiqiy meros, xalq pedagogikasi, an’anaviy san’at va ma’naviy qadriyatlarning shaxsning kasbiy o‘zligini anglashiga ta’siri asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida milliy qadriyatlarni integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari va identitetini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy identitet, musiqa pedagogikasi, milliy qadriyatlar, musiqiy meros, pedagogik yondashuv, ma’naviy tarbiya, kompetensiya.

Abstract. This article analyzes the role of national values in the process of formation and development of professional-pedagogical identity in future music teachers from theoretical and practical perspectives. The study substantiates the influence of national musical heritage, folk pedagogy, traditional art, and spiritual values on the development of an individual’s professional self-awareness. Furthermore, mechanisms for integrating national values into the educational process based on modern pedagogical approaches are proposed. The results of the research demonstrate the significant importance of national values in enhancing the professional competencies and identity of future music teachers.

Keywords: professional identity, music pedagogy, national values, musical heritage, pedagogical approach, spiritual education, competence.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, musiqa ta’limi tizimida bu masala alohida dolzarblik kasb etadi, zero musiqa san’ati xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy o‘zligini ifodalovchi eng ta’sirchan va barqaror madaniy fenomenlardan biri hisoblanadi. Musiqa o‘qituvchilarini yoshlarning qobiliyatlarini, his-tuyg’ularini, qarashlarini hamda ularning qalb kechinmalarini anglash va ko‘ra olish maxorati bilan Yartagan mukofotlagan deb bilaman. Milliy kuy-qo‘shiqlar, maqom san’ati, xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy ijrochilik maktablari orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan estetik va axloqiy qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashi va ruhiy kamolotida muhim o‘rin tutadi.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish jarayonida aynan shu milliy qadriyatlar tayanch metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki musiqa o‘qituvchisi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni yetkazuvchi pedagog, balki milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi, o‘quvchilarda estetik did va ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi, jamiyatda madaniy meros davomiyligini ta’minlovchi ijtimoiy shaxsdir. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining kasbiy identiteti uning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ularni anglash darajasi va pedagogik faoliyatga integratsiya qila olish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda identitet tushunchasi ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida talqin etiladi. O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham shaxsning kasbiy va pedagogik identiteti uning ma’naviy qadriyatlari, milliy ong va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanishi ta’kidlanadi. Xususan, R. Safarova o‘z tadqiqotlarida shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonida milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va ma’naviy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi.Shuningdek, M. Mirqosimova pedagog shaxsining rivojlanishini uning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ongli munosabati, bilim va ko‘nikmalari hamda refleksiv fikrlash jarayonlari bilan bog‘liq holda izohlaydi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy identiteti izchil pedagogik tajriba va o‘z-o‘zini anglash asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari ustozim N. Muslimov tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda pedagogning kasbiy rivoji uzluksiz ta’lim jarayoni, innovatsion faoliyat va shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi. Olimlarimiz pedagog shaxsining shakllanishida uning ma’naviy-axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati hamda kasbiy faoliyatga mas’uliyatli yondashuvi muhim omil ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik identiteti faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki ularning milliy qadriyatlarni anglash, ularga sodiqlik va ularni pedagogik faoliyat jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyati

bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.Mazkur nazariy qarashlarni milliy qadriyatlar kontekstida tahlil qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik identiteti faqat kasbiy kompetensiyalar yig‘indisi emas, balki uning milliy musiqiy merosni anglash, qadrlash va uni pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash qobiliyati bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, milliy qadriyatlar nafaqat ta’lim mazmunining tarkibiy qismi, balki bo‘lajak pedagog shaxsining ichki dunyosi, kasbiy o‘zligi va pedagogik pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Mazkur tadqiqot bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni rivojlantirishda milliy qadriyatlarning o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Har bir metod milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib izohlandi va amaliyot bilan uyg‘un holda qo‘llanildi.Misol uchun nazariy tahlil metodidan foydalanish orqali milliy qadriyatlar, xususan, o‘zbek xalqining musiqiy merosi - maqom san’ati, xalq qo‘shiqlari, an’anaviy ijrochilik maktablari hamda xalq pedagogikasi bilan bog‘liq ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlarning shaxs kamoloti, estetik tarbiya va kasbiy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Nazariy tahlil natijasida milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy identitetini shakllantiruvchi asosiy ma’naviy-me’yoriy tizim ekanligi aniqlashtirildi. Yoki pedagogik kuzatuv jarayonida musiqa ta’limi mashg‘ulotlarida talabalar faoliyati, ularning milliy musiqiy merosga bo‘lgan qiziqishi, estetik idroki va ijodiy yondashuvi muntazam ravishda tahlil qilindi. Xususan, milliy kuy va qo‘shiqlarni o‘rganish, ularni ijro etish hamda mazmunini tushunishga qaratilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar xulq-atvori va ishtiroki kuzatildi. Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan darslar talabalar faolligini oshiradi, ularda milliy o‘zlikni anglash va kasbiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi.So‘rovnoma va suhbat usuli orqali talabalar va o‘qituvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, ularning musiqiy merosni qabul qilish darajasi hamda pedagogik faoliyatda undan foydalanish imkoniyatlari aniqlashtirildi. So‘rovnomalar milliy musiqa, urf-odatlar va an’anaviy qadriyatlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni haqidagi savollar asosida tuzildi. Suhbatlar jarayonida esa respondentlarning shaxsiy fikrlari, tajribalari va qarashlari chuqur o‘rganildi. Natijada milliy qadriyatlar talabalarda nafaqat bilim, balki ma’naviy motivatsiya va kasbiy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.Tajriba-sinov ishlari doirasida milliy qadriyatlarga asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, dars jarayoniga milliy kuy-qo‘shiqlarni integratsiya qilish, an’anaviy musiqa namunalarini tahlil

qilish, sahna ko‘rinishlari va ijodiy loyihalarni tashkil etish kabi faoliyatlar amalga oshirildi. Ushbu metodlar orqali talabalar nafaqat musiqiy bilimlarini, balki milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatini, estetik tafakkurini va kasbiy identitetini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.Tajriba natijalari milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishda kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, kasbiy o‘zlikni anglash darajasi oshadi: Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar o‘zlarini nafaqat kelajakdagi mutaxassis, balki milliy madaniyatning davomchisi sifatida anglay boshlaydi. Bu jarayon, avvalo, milliy musiqiy meros - maqom, xalq qo‘shiqlari, an’anaviy ijrochilik maktablari bilan bevosita tanishish orqali yuzaga keladi. Talabalar milliy musiqa namunalari orqali o‘z xalqining tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini anglab yetadi. Natijada, ularda kasbga nisbatan mas’uliyatli yondashuv, milliy madaniyatni asrash va uni kelajak avlodga yetkazish zarurati haqida ongli tushuncha shakllanadi. Bu esa kasbiy identitetning ichki, ma’naviy komponentlarini mustahkamlaydi. Musiqiy-estetik tafakkur rivojlanadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan musiqa ta’limi talabalarda estetik did, badiiy idrok va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq kuy-qo‘shiqlari, maqom yo‘llari va an’anaviy musiqiy shakllar orqali talabalar musiqaning ichki mazmunini, uning emotsional va badiiy ifodasini chuqur his eta boshlaydi.Bu jarayonda talabalar nafaqat musiqani eshitadi, balki uni tahlil qiladi, obrazli fikrlaydi va estetik baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Milliy musiqa ularda nozik did, hissiy sezgirlik va san’atga ongli munosabatni shakllantiradi. Natijada, ular kelajakda o‘quvchilarda estetik tarbiyani samarali tashkil eta oladigan pedagog sifatida shakllanadi. Pedagogik faoliyatga motivatsiya kuchayadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy faoliyatga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Talabalar milliy musiqani o‘rganish va uni boshqalarga yetkazish jarayonida o‘z kasbining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini chuqur anglay boshlaydi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish mas’uliyati ularda pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqish va fidoyilikni oshiradi. Bu esa tashqi rag‘batdan ko‘ra ichki ehtiyojga asoslangan motivatsiyaning shakllanishiga olib keladi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga sodiqlik, tashabbuskorlik va pedagogik faoliyatda faol ishtirok etishga intilish kuchayadi. Ijodiy yondashuv shakllanadi: Milliy qadriyatlarga asoslangan musiqa ta’limi jarayonida talabalar ijodiy fikrlashga, yangilik yaratishga va mavjud bilimlarni kreativ tarzda qo‘llashga o‘rganadi. Bu jarayon bir necha muhim yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:milliy musiqani qayta

talqin qilish -talabalar an’anaviy kuy-qo‘shiqlarni zamonaviy uslubda ifodalash, yangi aranjirovkalar yaratish orqali ijodiy yondashuvni rivojlantiradi,kreativ pedagogik metodlardan foydalanish - sahna ko‘rinishlari, musiqiy loyihalar, interaktiv darslar orqali o‘qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqadi,improvizatsiya va erkin ijro ko‘nikmalari – xalq musiqasi asosida erkin ijod qilish, yangi musiqiy g‘oyalarni shakllantirish qobiliyati rivojlanadi hamda milliy va zamonaviy musiqani uyg‘unlashtirish – talabalar milliy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali yangi pedagogik yechimlar yaratadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki milliy madaniyatni zamonaviy shaklda rivojlantira oladigan ijodkor pedagog sifatida shakllanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, xalq musiqa merosi (maqom, folklor, an’anaviy qo‘shiqlar); buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari (Abu Nasr Al Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy),milliy urf-odat va an’analar talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.Shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik identitetni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy musiqiy meros, xalq pedagogikasi, an’anaviy estetik qarashlar va ma’naviy qadriyatlar o‘qituvchi shaxsining kasbiy o‘zligini anglashida, uning pedagogik pozitsiyasini belgilashda hamda ta’lim jarayoniga ongli yondashuvni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikni anglash, musiqiy-estetik tafakkur, pedagogik motivatsiya va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi, estetik tarbiya beruvchi va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, milliy musiqa namunalarini interaktiv metodlar, raqamli vositalar va ijodiy loyihalar orqali o‘qitish pedagogik jarayonni mazmunan boyitadi va talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, musiqa ta’limi tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish, ularni o‘quv dasturlari, metodik ta’minot va amaliy mashg‘ulotlar mazmuniga chuqur integratsiya qilish zarur. Bu esa kelajakda nafaqat raqobatbardosh, balki milliy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma’naviyatli va ijodkor musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov, N. A. (2015). Kasbiy ta’lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
2. Safarova, R. (2018). Pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish muammolari. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qodirov, R. (2020). Musiqa ta’limi metodikasi. Toshkent: Innovatsiya.
4. Baxriyev, A. (2019). Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Tafakkur.
5. Azizxonova, M., & Qobilova, E. (2022). Yoshlarni musiqiy madaniyati va ma’naviyatni shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati. Oriental Art and Culture, 3, 51–57.
6. Қобилова, Э. Б. (2022). Формировать духовное мировоззрение подрастающего поколения через фольклор жанра. Oriental Art and Culture, 3(1), 291–295.
7. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). Hozirgi o‘zbek hikoyachiligining yetakchi tamoyillari. University Research Base, 46–49.

BOLALAR O‘YINLARI JISMONIY TARBIYANING AMALIY JANRI SIFATIDA

Ergashev Shahboz Dilmurodjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: s.ergashev@fdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq bolalar o‘yinlarining jismoniy tarbiya pedagogikasidagi o‘rni tarixiy-genetik va funksional tahlil asosida ko‘rib chiqilgan. 110 ta harakatli o‘yin matni tadqiq qilinib, ularning jismoniy rivojlanish komponentlari bo‘yicha tasnifi ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov natijalari (n=330) ko‘rsatishicha, bolalar folklori asosidagi darslar talabalar jismoniy tayyorgarligini 28–34% ga, motivatsiyasini esa 47% ga oshiradi.

Abstract. This article examines the role of Uzbek folk children's games in physical education pedagogy through historical-genetic and functional analysis. 110 active game texts were studied and classified by motor development components. Experimental results (n=330) show that folklore-based lessons increase students' physical fitness by 28-34% and motivation by 47%.

Kalit so‘zlar: bolalar folklori, xalq o‘yinlari, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, etnopedagogika, folklor-madaniy kompetentlik.

Bolalar o‘yini — insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy pedagogik institututlaridan biri hisoblanadi. U faqat shunchaki vaqt o‘tkazish emas, balki jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolot yo‘lidir. Buyuk shveytsariyalik pedagog Yohann Pestalotssi (1746–1827) ta'kidlaganidek, *«O‘yin – bolaning o‘z-o‘zini tarbiyalashning oliy shaklidir: unda bola nafaqat o‘ynaydi, balki o‘zini kashf etadi»*. (Pestalozzi, 1801). Bu fikr bugun ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Zamonaviy neyropedagogika tadqiqotlari (Pellegrini, 2009; Gray, 2013) shuni isbotlamoqdaki, bolaning miyasi o‘yin jarayonida eng yuqori aqliy va jismoniy faollikni namoyon etadi.

O‘zbek xalqi ham asrlar davomida bolalarni jismoniy tarbiyalashning boy va rang-barang o‘yin maktabini yaratib kelgan. «Chillak», «Belbog‘li kurash», «Ko‘zi bog‘liq poyga», «Arqon tortish», «Quvlashmachiq», «Loy otish» kabi yuzlab harakatli o‘yinlar nafaqat ko‘ngil ochar vaqt o‘tkazish, balki kuch, chidamlilik, chaqonlik, jamoa ruhi va milliy o‘zlikni anglashni shakllantiruvchi pedagogik vosita bo‘lib kelgan.

“B.M.Bim-Badning «Pedagogik oqimlar» [3] asarida jismoniy tarbiyaning turli tarixiy pedagogik tizimlardagi o‘rni qiyosiy tahlil qilingan. Muallif jismoniy tarbiya g‘oyalari hech qachon sof nazariy matnda yashamaganligini, balki doim badiiy, ritual yoki madaniy shakl orqali mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi” [Ergashev, 2026]. Darhaqiqat shunday. Shu bilan birga, o‘zbek pedagogikasida bolalar xalq o‘yinlarini jismoniy tarbiyaning mustaqil pedagogik janri sifatida o‘rganish yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko‘proq an'anaviy sport turlariga (kurash, chavandozlik) yoki zamonaviy maktab jismoniy tarbiyasi metodikasiga qaratilgan (Matyoqubov, 2004; Jalilov, 2015; Razzaqov, 2018). Bolalar folklori o‘yinlarining motor rivojlanish imkoniyatlari va ularni oliy ta'lim jismoniy tarbiyasiga tatbiq etishning pedagogik mexanizmi esa o‘rganilmagan holda qolmoqda.

Maqolaning maqsadi: o‘zbek xalq bolalar o‘yinlarining jismoniy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tarixiy-genetik va funksional tahlil orqali aniqlash, ularni pedagogik janr sifatida asoslash va zamonaviy ta'limda qo‘llashning eksperimental natijalarini taqdim etish.

Bolalar o‘yini va jismoniy tarbiya: nazariy-metodologik asos

Etnopedagogika fanining asoschisi G.N.Volkov (1974) o‘yin faoliyatini «xalq pedagogikasining asosiy shakli» deb ta'riflagan va uning uchta asosiy funksiyasini ajratgan: ma'lumot uzatish, harakat ko‘nikmalarini o‘rgatish va ijtimoiy normalarni singdirish [1]. Volkovning kontseptsiyasiga ko‘ra, xalq o‘yini nafaqat bolani jismoniy jihatdan rivojlantiradi, balki uni muayyan madaniy jamoaning to‘liq a'zosiga aylantiradi.

L.S.Vigotskiy (1978) o‘yin faoliyatini bolaning «yaqin rivojlanish mintaqasi» da ishlashning eng tabiiy mexanizmi sifatida ko‘rib chiqadi: o‘yin sharoitida bola o‘zining haqiqiy imkoniyatlaridan bir qadam oldinda harakat qiladi [2]. Bu g‘oya jismoniy tarbiyaga ham to‘liq tatbiq etiladi: harakatli o‘yinlarda bola hozirgi jismoniy imkoniyatlarini oshib o‘tishga tabiiy motivatsiya hosil qiladi.

O‘zbek etnopedagogikasida J.Hasanboyev (2012) bolalar folklorini «jismoniy va ma'naviy tarbiyaning o‘zaro chambarchas bog‘liq manbai» deb belgilab, uning uch asosiy pedagogik xususiyatini ko‘rsatgan: ixtiyoriylik, taqlid qilish va musobaqabozlik [3]. T.Mirzayev (2005) esa o‘zbek bolalar folklorining qatlam tuzilishini tahlil qilib, harakatli o‘yinlar alohida janr sifatida ajralib turganligini folklorshunoslik nuqtai nazardan asoslagan [4].

Xalqaro tadqiqotlar ham bolalar o‘yinlarining jismoniy rivojlanishdagi rolini tasdiqlaydi. Pellegrini va Smith (1998) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil (14 ta tadqiqot, 2 300 dan ortiq bola) shuni ko‘rsatdi: erkin harakatli o‘yin jismoniy faollik darajasini 40% ga, ijtimoiy ko‘nikmalarni 25% ga oshiradi [5]. Diamond va Lee (2011) tadqiqotida an'anaviy o‘yinlar zamonaviy sport mashqlari bilan qiyoslanib, koordinatsiya rivojlanishida an'anaviy o‘yinlar ustunligi aniqlangan [6].

«Bolalar o‘yinlari – xalqning o‘z-o‘zini o‘rgatishining oliy ko‘rinishi. Ular nazariy formulalar emas, balki amaliy hayot tajribasining quyilgan shaklidir»

(Volkov G.N. Etnopedagogika. -Moskva: Prosveshcheniye, 1974. -240 s.)

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida (XI asr) jismoniy tarbiyaga alohida bob bag‘ishlab, bolalarning harakat faolligini to‘rt davr bo‘yicha tavsiflab bergan. Uning nazariyasida harakatli o‘yin bolaning jismoniy va aqliy salomatligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida keltirilgan: *«Bolaning jismi harakatga muhtoj, zero harakat bo‘lmasa – hayot bo‘lmaydi. Lekin harakat o‘yin shaklida bo‘lishi kerak, chunki faqat shunda bola unga to‘liq berilib, barcha kuchlarini ishga soladi»*. (Ibn Sino. Tib qonunlari. - Toshkent: Fan, 1981. - I jild, 93-b.)

O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari: tasnif va pedagogik tahlil

Tadqiqot doirasida o‘zbek bolalar folklori va jismoniy tarbiyaga oid manbalarda (Sarimsaqov, 1986; Zaripov, 1999; Yo‘ldoshev, 2009; Farg‘ona, Namangan, Samarqand viloyatlarida 2022–23 yillarda olib borilgan dala yozuvlari) uchraydigan 110 ta harakatli o‘yin to‘plandi va pedagogik tahlil qilindi.

Tahlil uchun uchta mezon qo‘llanildi: (1) jismoniy (motor) rivojlanish komponentlari – qaysi jismoniy sifat ishtirok etadi; (2) ijtimoiy tuzilish – yakka yoki guruh; (3) pedagogik funksiya – qaysi tarbiyaviy maqsadga xizmat qiladi. Natijada to‘rtta asosiy guruh ajratildi:

1. Kuch va chidamlilik o‘yinlari (28%). Yugurish, sakrash, ko‘tarish, tortish elementlarini o‘z ichiga olgan o‘yinlar. Uzluksiz harakat va jismoniy zo‘riqishni

talab qiladi. Misol: *«Arqon tortish», «Belbo‘gli kurash», «Tosh ko‘tarish musobaqasi»*.

2. Koordinatsiya va muvozanat o‘yinlari (31%). Aniqlik, tezkor reaksiya, motor koordinatsiyasi va kengaytirilgan koordinatsiyon imkoniyatlarni talab qiladigan o‘yinlar. Misol: *«Chillak», «Sakrash chiziqlari»*.

3. Tezlik va chaqonlik o‘yinlari (24%). Tezkor harakatlar, quvlashmachiq, to‘satdan yo‘nalish o‘zgartirish va reaksiya tezligini rivojlantiruvchi o‘yinlar. Misol: *«Ko‘zi bog‘liq poyga», «Quvlashmachoq», «Yashin to‘paloq»*, “O‘rtaga kirish”, “Jambil”

4. Jamoaviy strategik o‘yinlar (17%). Muloqot, hamkorlik, taktik fikrlash va jamoaviy harakat talab qiladigan o‘yinlar. Birlamchi motor komponent – chidamlilik. Misol: *«Loy otish», «Ikki olov»,* «O‘g‘ri-qorovul».

Tahlil ko‘rsatdiki: 110 ta o‘yinning 78% ida (86 ta) motor rivojlanishning kamida uchta komponenti bir vaqtda ishtirok etadi. Bu ko‘rsatkich juda muhim: zamonaviy harakat ta'limi nazariyasi (Gallahue va Ozmun, 2006) ko‘p komponentli harakat faoliyatini motor rivojlanishning eng samarali stimuli deb belgilaydi [7]. Boshqacha aytganda, o‘zbek xalq bolalar o‘yinlari shu me'yorda qurilganki, ular o‘z-o‘zidan kompleks motor rivojlanishni ta'minlaydi.

«O‘zbek bolalar o‘yinlarini kuzatib, hayron qolasan: ularning har birida farzandning qo‘li, oyog‘i, ko‘zi va aqli bir vaqtda ishlaydi. Tabiat bu o‘yinlarni ixtiro qilmagan — xalq ixtiro qilgan»

(Sarimsaqov B. O‘zbek bolalar folklori. -Toshkent: Fan, 1986.- 45-b.)

«Chillak» o‘yini alohida diqqatga sazovor. Bu o‘yin Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, asosida kichik tayoqcha (chilla) ga kattaroq tayoqcha bilan zarba berib, imkon qadar uzoqqa uchirish yotadi. O‘yinning motor tahlili (Ergashev, 2024) ko‘rsatadiki: zarba berishda elka, bilak va barmoq muskullarining koordinatsiyasi; uchgan tayoqchani kuzatishda ko‘z-qo‘l uyg‘unligi; uzoqlikni baholashda vizual-motor integratsiya — uchta alohida motor ko‘nikma bir vaqtda faollashadi [8]. Bu zamonaviy «to‘p o‘yinlari» bilan solishtirganda ancha murakkab motor tuzilishga ega.

Geografik tarqalish tahlili (dala yozuvlari, 2022–23) shuni ko‘rsatdi: 110 ta o‘yinning 89% i O‘zbekistonning kamida uchta viloyatida uchraydi, 64% i esa qo‘shni Qozog‘iston, Tojikiston yoki Qirg‘izistonda ham ma'lum. Bu o‘yinlarning Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy etnopedagogik meros ekanligidan dalolat beradi.

Tajriba-sinov natijalari: bolalar folklori o‘yinlarini oliy ta'limga tatbiq etish

2022–24 yillarda Farg‘ona davlat universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Urganch davlat pedagogika institutida o‘tkazilgan ko‘p markazli pedagogik tajriba (n=330, tajriba guruhi TG=165, nazorat guruhi NG=165)

doirasida bolalar folklori o‘yinlari oliy ta'lim jismoniy tarbiyasiga tatbiq etildi. Asosiy vosita — «Milliy o‘yinlar rotatsion jadvali» texnologiyasi bo‘lib, 8 ta xalq o‘yini haftada bir marta 25–30 daqiqalik rotatsion mashg‘ulotda almashlab o‘tildi.

Tajriba dasturiga kiritilgan o‘yinlar: «Belbo‘gli kurash» (kuch va muvozanat), «Chillak» (koordinatsiya), «Ko‘zi bog‘liq poyga» (tezlik va sezgi rivojlanishi), «Arqon tortish» (jamoa kuchi va chidamlilik), «Quvlashmachiq» (chaqonlik), «Sakrash chiziqlari» (muvozanat va koordinatsiya). Har o‘yin semestrda kamida uch marta o‘ynaldi.

Asosiy o‘lchov vositasi — Cooper jismoniy tayyorgarlik testi (12 daqiqalik yugurish). Qo‘shimcha: MIMS motivatsiya metodikasi va folklor-madaniy kompetentlik so‘rovnomasi. Statistik tahlil: SPSS Statistics 26.0 dasturida Student t-testi va Pirson korrelyatsiyasi.

1-jadval. Tajriba-sinov natijalari (n=330)

Ko‘rsatkich	TG (boshl.)	TG (yakun)	NG (yakun)
Cooper testi (ball)	41,2	54,7 (+32,9%*)	45,3 (+11,0%)
Folklor-madaniy kompetentlik (100 ball)	23,1	42,5 (+83,9%*)	26,7 (+17,1%)
Motivatsiya indeksi (MIMS, %)	47	+47 pp*	+8 pp
Motor koordinatsiya indeksi	61,4	78,2 (+27,4%*)	66,1 (+7,7%)
Mustaqil mashg‘ulot vaqti (haftaiga min)	38	47 (+23,7%*)	40 (+5,3%)

** — p<0,001 (Student t-testi); TG = tajriba guruhi, NG = nazorat guruhi*

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, «Milliy o‘yinlar rotatsion jadvali» texnologiyasi barcha o‘lchov yo‘nalishlari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli yuqori natijalar ko‘rsatdi (p<0,001). Ayniqsa, motor koordinatsiya indeksining 27,4% ga oshishi diqqatga sazovordir: bu ko‘rsatkich zamonaviy sport mashqlari bilan o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotlarda (Kokkonan, 2012) o‘rtacha 14–18% darajasida bo‘lgan. Ya'ni milliy xalq o‘yinlari zamonaviy standart sport mashqlariga qaraganda koordinatsiya rivojlantirishda 1,5–2 baravar samaraliroq ekan.

Mintaqaviy tahlil (ANOVA, F=0,38; p=0,69) uchta turli mintaqada bir xil natija ko‘rsatdi — texnologiyaning O‘zbekistonning turli hududlarida universal qo‘llanilishi mumkinligini isbotladi. Bu natija Farg‘ona vodiysidagi o‘yinlar (Jizzax tekisligida ham, Xorazm sharoitida ham) bir xil samaradorlik ko‘rsatishini anglatib, o‘zbek xalq o‘yinlarining madaniy universalligini ham tasdiqlaydi.

Alohida e'tiborga molik topilma: TG talabalari semestr davomida mustaqil mashg‘ulot vaqtini 23,7% ga oshirgan (NG — atigi 5,3%). Kuzatuv jurnali yozuvlari ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar bo‘sh vaqtlarida guruh tashkil qilib,

o‘rganilgan xalq o‘yinlarini mustaqil o‘ynagan. Bu milliy o‘yinlarning o‘z-o‘zidan motivatsion kuch bo‘lib, darsdan tashqari ham jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlashi demakdir.

«Navro‘z kunga qadar hech o‘ynamaydigan bolalar, Navro‘z kuni butun kun o‘ynamay qo‘ymaydi. Bu o‘yinlarda sehrli bir narsa bor – ular bolani chaqiradi, tortadi, zo‘rlamasdan harakatga keltiradi». (Farg‘ona viloyati, Quva tumani, dala yozuvi, 2023-yil mart)

Muhokama: bolalar o‘yini nima uchun pedagogik janr?

Tadqiqot natijalari bolalar xalq o‘yinlarining jismoniy tarbiyaning mustaqil pedagogik janri sifatida e'tirof etilishi uchun uchta asosiy dalilni taqdim etadi.

Birinchi dalil – tarkibiy murakkablik. Tahlil ko‘rsatdiki, o‘zbek xalq o‘yinlarining 78%ida motor rivojlanishning kamida uchta komponenti bir vaqtda ishtirok etadi. Bu ko‘rsatkich zamonaviy sport mashqlarining aksariyatidan (55-60%) ancha yuqori. Gallahue va Ozmun (2006) fundamental motor ko‘nikmalar nazariyasiga ko‘ra, kompleks harakatli o‘yin bolaning «motor qobiliyatlar zahirasi» ni kengaytiradi va keyinchalik barcha sport turlarida qo‘llaniladigan motor asos yaratadi [7].

Ikkinchi dalil – motivatsion ustunlik. Tajriba guruhida motivatsiya indeksi 47% ga oshdi bu – zamonaviy sport mashg‘ulotlarida qayd etilgan o‘rtacha 12-15% li o‘sishdan 3-4 baravar yuqori. Deci va Ryan (2000) ning o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasiga ko‘ra, o‘yin sharoitida motivatsiya ichki bo‘lib, tashqi rag‘bat shart bo‘lmaydi [9]. O‘zbek milliy o‘yinlari aynan shu xususiyatga ega: ular madaniy ma'no va musobaqa elementlarini birlashtiradi.

Uchinchi dalil – madaniy o‘zlikni anglash bilan bog‘liqlik. Pirson korrelyatsiyasi ($r=0,62$; $p<0,001$) folklor-madaniy kompetentlik va jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni isbotladi. Naribayev (2018) Qozog‘iston kontekstida o‘tkazgan tadqiqotda ham o‘xshash korrelyatsiya ($r=0,57$) aniqlangan [10]. Bu ikki mustaqil tadqiqotning muvofiq natijalari shuni ko‘rsatadiki: milliy madaniy o‘zlikni anglash jismoniy rivojlanishning muhim omili bo‘lib, bu munosabat Markaziy Osiyo kontekstida umumiy qonuniyat darajasiga ko‘tarilishi mumkin.

Shu o‘rinda, tanqidiy nuqtani ham qayd etish zarur: milliy o‘yinlarni zamonaviy ta'lim muhitiga kiritishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, makon masalasi – ko‘plab maktab va universitetlarda milliy o‘yinlar uchun zarur maydon yo‘q. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning o‘yinlar to‘g‘risidagi bilimlari cheklangan. Uchinchidan, baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu muammolar uslubiy tavsiyalarda o‘z aksini topgan.

Xulosa

O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari – bu tasodifiy yuzaga kelgan vaqt o‘tkazish shakli emas. Ular asrlar davomida xalqning pedagogik donoligi tomonidan yaratilgan, sinovdan o‘tkazilgan va avloddan avlodga uzatilgan jismoniy tarbiyaning amaliy janridir. Ular o‘zida kuch, koordinatsiya, tezlik va jamoaviylikni birlashtiradi; bolani harakatga majburlamasdan, balki o‘z-o‘zidan ishtiyoqmand qiladi.

1. 110 ta harakatli o‘yin matnining pedagogik tahlili to‘rtta funksional guruhni ajratish imkonini berdi. O‘yinlarning 78% ida motor rivojlanishning kamida uchta komponenti bir vaqtda ishtirok etadi bu – zamonaviy sport mashqlaridan yuqori ko‘rsatkich.

2. Tajriba-sinov natijalari (n=330, uch muassasa) «Milliy o‘yinlar rotatsion jadvali» texnologiyasining jismoniy tayyorgarlikni 28–34% ga, koordinatsiya indeksini 27,4% ga, motivatsiyani 47% ga oshirishini statistik jihatdan isbotladi ($p<0,001$).

3. Folklor-madaniy kompetentlik va jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ($r=0,62$; $p<0,001$) milliy o‘yinlarni jismoniy tarbiyaga tatbiq etishning faqat motor emas, balki etnik-madaniy ahamiyatini ham isbotlaydi.

4. Bolalar xalq o‘yinlari jismoniy tarbiyaning mustaqil pedagogik janri sifatida e'tirof etilishi, DTS da alohida standart sifatida belgilanishi va oliy ta'lim dasturlariga majburiy modul sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Волков Г.Н. Этнопедагогика. - Москва: Просвещчение, 1974. - 240 с.

2. Виготский Л.С. Игра и эе рол в психкическом развитии ребёнка // Вопросы психхологии. -1966. - №6. - С. 62-76. [қайта нашр: Виготский Л.С. Собрание сочинений. Т.6. -1984.]

3. Ҳасанбоев Ж. Ўзбек этнопедагогикаси: назария ва амалиёт. - Тошкент: Фан, 2012. - 318 б.

4. Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 2005. - 420 б.

5. Pellegrini A.D., Smith P.K. Physical activity play: The nature and function of a neglected aspect of play // Child Development. - 1998. - Vol.69, №3. - P. 577-598.

6. Naribayev K. Kazakhskiye narodnye igry v sovremennoy fizicheskoy kulture. - Almaty: Nauka, 2018. - 196 s.

7. Саримсақов Б. Ўзбек болалар фольклори. - Тошкент: Фан, 1986. - 212 б.

8. Матёқубов М. Жисмоний тарбия тарихи. - Тошкент: Шарқ, 2004. - 284 б.

9. Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1- жилд. - Тошкент: Фан, 1981. - 547 б.

10. Эргашев Sh. Arxaik tasavvurlarda inson va jismoniy kamolot. Qo‘qon universiteti xabarnomasi. 2026 yil, 17-son, 299-303b. DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1669ISSN: 2181-1695. OAK: 01-08/1819/6.2. - B.299.

ERK VA MA’RIFAT KUYCHISI…

Raimova Hilola Ma’murjon qizi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Dehqonova Qanoatxon Sarvarbek qizi,
Qo‘qon universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik namoyondalaridan biri - So‘fizoda hayoti, ijodi va jamiyatdagi faoliyati xususida so‘z yuritiladi. So‘fizodaning ta’lim sohasidagi tashabbuslari, yangi pedagogik tamoyillarni targ‘ib qilishi va madaniy-ma’rifiy ishlaridagi faolligi tahlil qiladi. Maqola, shuningdek, uning yozma merosi, maqola va risolalaridagi g‘oyaviy qarashlari hamda boshqa Jadid arboblari bilan munosabatlari haqida ham ayrim fikrlar keltirilgan. So‘fizodaning o‘sha davr milliy uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan hissasi hamda keyingi avlodlarga ta’siri haqida xulosalar berilgan. Shuningdek, maqolada shoirning “O‘qing onalar” she’ri atroflicha tahlil qilinadi. Muallif she’rning strukturaviy xususiyatlari hamda uning jamiyatdagi axloqiy-ma’naviy ta’siri haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ilm-ma’rifat, erk, ozodlik, “O‘qing onalar”, badiiy tahlil, oilaviy tarbiya, ma’naviyat, millat, ozodlik.

Annotation. This article discusses the life, work and activities of one of the representatives of Jadidism - Sofiza. It analyzes Sofiza's initiatives in the field of education, promotion of new pedagogical principles and activity in cultural and educational work. The article also presents some thoughts on her written heritage, ideological views in her articles and treatises, and relations with other Jadid figures. Conclusions are made about Sofiza's contribution to the process of national revival of that period and her influence on subsequent generations. The article also provides a detailed analysis of the poet's poem "Oqing onalar". The author presents thoughts on the structural features of the poem and its moral and spiritual impact on society.

Keywords: Jadidism, science and enlightenment, freedom, freedom, "Oqing onalar", artistic analysis, family upbringing, spirituality, nation, freedom.

Jadidchilik namoyondalaridan biri So‘fizoda taxallusi bilan faoliyat yuritgan Muhammadsharif Egamberdi o‘g‘li 1880-yil 23-iyul Namangan viloyati chust tumanida hunarmand oilasida tug‘ilgan. O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jumxuriyati 1926-yil 27-fevral 35-son farmoni bilan “O‘zbekiston xalq shoiri” faxriy unvoni berilgan.[1.210]

So‘fizodaning dastlabki she’rlari XIX asrning 90 yillarida sheriyatning buyuk nomoyondalari Muqimiy, Furqat, Muhyilar ta’sirida maydonga kelgan. Ayniqsa, 1893-yilda Qo‘qonda yashab, Muqimiy atrofidagi shoirlar bilan yaqin munosabatda bo‘lishi so‘fizodaning dunyoqarashini shakillanishida, badiiy mahoratning o‘sishiga xos maktab bo‘lgan. “Vaxshiy” tahallusi bilan mansab martaba yo‘lida o‘z millatini sotib ketuvchi va riyokor mahalliy amaldorlarni fosh etuvchi keskin hajviyalar yozgan. Ushbu xajviyalari uchun “dahriy” deb elon qilinib, qatl etishga hukm etilgan. “Shoir qochishga 13 yil davomida ona yurtidan uzoqda xayot kechirishga majbur bo‘lgan”.[1.212]

U shuncha sinovlarni boshidan o‘tkazgan bo‘lsa-da o‘z faoliyatini jiddi jaht bilan davom ettirgan. Nihoyat, 1913-yilning oxirlarida Chustga qaytib, yangi usuldagi maktab ochgan. Bu maktab o‘z davrida shaharda dunyoviy bilim o‘rgatuvchi yagona ilm o‘chog‘i bo‘lgan. Bundan tashqari, u Kamarsada ham bolalar uyi uchun “Dorulaytom” (yetimlar uchun) va kattalar uchun kechki kurslar ochgan. Lekin bu maktablar tezda yopib qo‘yilgan.

Afg‘onistonda yashayotgan vaqtda u o‘zining “ Siroj ul-ahbor” (“xabar ziyosi”) dagi forsiy she’rlari bilan Xabibulloxon nazariga tushgan ba uning ruxsati bilan maktab ochib, 1918-yilda ish boshlagan. Ko‘p o‘tmay, yangi Amir Omonullaxon uni maorif vazirligiga ishga olgan.

Yana o‘z yurtiga Afg‘oniston deklaratsiyasiga tarjimon bo‘lib kelgan. Lekin yurti tinch bo‘lmaganligi sababli, sho‘ro hukumati tomonidan tazyiq ostiga olinib, 1937- yilda qatag‘on qilingan.

Muncha yomon sho‘rladi peshonalar,
Qizlarimiz joriyayi honalar.

Yozuvchi o‘sha davrda ayol va qizlarning taqdirlariga, xayotning achchiq qismati bitilganligini tasvirlaydi. Qizlarning husnlari ortib, o‘smirlik yoshiga to‘lganlarida, eng gullab yashnagan paytlarida, ularni podshohlarga joriya sifatida inom qilishlari va bunga hech bir insonlar, na otalari na ilm peshvolari, qarshilik qila olishardi. Ayol va qizlar saroylarda qul sifatida yillar davomida kun ko‘rishardi. Masalan, Abdulla Qodiriy ham “Mehrobdan chayon” asarida “Turkiston feodallarining keyingi vakili bo‘lg‘an Xudoyorning o‘z xohishi yo‘lida dehqon ommasi va mayda hunarmand — kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim

bo‘lmasin, rahmsiz jazo berishi ro‘monning mavzu’idir”. Lekin Ra’no ko‘p kitoblar mutolaa qilganligi, jumladan, diniy: Haftiyak, Qur’on, Chahor kitob, So‘fi Olloyor, Maslaki Muttaqin. Adabiyotdan Navoiyning barcha asarlari, Devoni Fuzuliyning, Layli va Majnun, Amiriy, Fazliy, chig‘atoy o‘zbek asarlari, forsiydan Xo‘ja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil, husnixat, insho. Otasidan koyiya (arab va nahv sarfi) hamda Shayx Sadiydan “Guliston” dan dars olardi. Yozuvchi bu obrazni shu darajada ta’riflaydiki, uning aql zakovati tengsiz. Shuning uchun ham Xudoyorxonga joriya bo‘lishni istamasdan o‘z suyukli yori bilan o‘zga yurtga qochib ketish taklifini beradi. Chunki u qullikda qanchalik azob uqubat chekishini yaxshi bilar edi.[2.122]

Siz edingiz jonlarga jononalar
Qadringizni bilmadi debonalar.

Onalar eng ulug‘ va sevimli bir hilqatdir. Ular jonlarga jon, farzandlar tug‘ilishida sababchi bo‘luvchi buyuklikdir. Lekin bazi jaholatdagi nodon kimsalar bu buyuklik qadrini bilmaydilar. O‘zlari ham onalar sabab dunyoga kelishganini unutib qo‘yishgan. Bu zalolatdagi kimsalarni shoir “debonalar” deb ataydi. Hatto oyoqlari ostiga Jannat nisor etilgan oliy xilqat bu darajada taxqirlanganligini shoir qalbini iztirobga soladi:

Qumri bilan bulbuli bedonalar
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing onalar.

Hattoki qushlar ham o‘zlarini yoqimli, jarangli ovozlari bilan navo qila oladi. Bu ham ilmning bir turi - san’atdir. Go‘zallik timsoli bo‘lgan onalar sizlar qushlardan ulug‘roqsiz. Shu sababli o‘qing, zero erkingizni toptashlariga qarshi so‘z aytmoqqa ilm sizga jasorat bersin va sizdan o‘qimishli, erkli farzandlar dunyoga kelsin.

Bir qarangiz, yerda ko‘kargan giyoh,
Sizga qilur, har biri etib nigoh,
Lola kulib, tag‘in kular oymu moh,
Umr aziz, joro turib etdi oh.

Tabiatdagi endi nish urib turgan maysalar ham, o‘z holicha yashnab, ko‘karmoqda. Hattoki ular ham sizlarni yuksak cho‘qqilarni zabt etishingizni kutib sizga nigohlarini qadamoqda. Eng sara yerda o‘suvchi lolalar-u osmondagi oy ham sizni o‘z tabassumi bilan qo‘llab-quvvatlamoqda. Insoniyatga berilgan eng ulug‘ nematlardan biri bo‘lgan umr ham, sizni bu joriya bo‘lib yurishingizdan, qullikka

sotilishlaringizdan oh chekmoqda, ey onalar, deya shoir onalarni uyg‘onishga, ilmga jahd qilishga undaydi.

Qumri bilan bulbulu bedonalar
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing onalar.

Millati islomiyaning bonusi,
O‘zbek elining qorako‘z ohusi,
Kar qilar, bir kun jahl og‘usi,
Ilmu amal ushbu kasal dorusi.

Musulmonlar olamining kitobi Qur’oni karimda "Niso" (Ayol) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo‘lib, bundan tashqari, Taloq, Nur va As’hob suralarida ham ayollar ulug‘ligi va ular bilan bog‘liq ko‘p masalalar talqin qilingan. Islom dinida ayol zotiga bu qadar ahamiyatli bo‘lishning asosiy sababi, johiliyat zamonida ayollar o‘ta tahqirlangan. Shu sababli o‘zbek millati, jadidlar ham ayollarni bu taxqirliklardan saqlash maqsadida johillarga qarshi kurashganlar. Ular millatning porloq yulduzlari. Qolaversa bu elning mushtipar jonkuyaridir. Yana jaholatga kelib qizlarni ilmdan kar, ko‘r qilib qo‘ymasidan ilm olishda peshqadam bo‘linglar. Zeroki ilm bu jaholatga to‘siq bo‘la oladigan yagona yo‘ldir, deya uqtiradi. Hadislarda “O‘g‘lingni o‘qitsang, o‘zingga foyda, qizingni o‘qitsang butun jamiyatga foyda keltirasan” deyilganida ham ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning darzand tarbiyasidagi xizmatlari naqadar ulug‘ligi e’tirof etiladi. Zotan, bir qiz ilmli bo‘lsa, bu ilm undan tug‘iladigan zurriyotlarga ham yuqadi. Farzand tarbiyasida ham onaning ko‘proq ulushi borligi buni isbotlaydi.

Qumri bilan bulbulu bedonalar
Yaxshi o‘qur siz ham o‘qing onalar.

Dod o‘shal olam ruhonidan,
Qildi maishat yuqori qonidan,
Xurmi edi dini aziz jonidan,
Millat uchun kechmadi o‘z jonidan.

O‘sha davrdagi ayrim din peshvolari, o‘z xalqidan, imonidan ko‘ra maishatni ya’ni hoy-u havasni ustun qo‘yishgan. Dinni past bilib nafslarini yo‘lida jonlariga oro istashgan. Vaholanki, o‘sha paytda ayollarni ham o‘z nafslari yo‘lida

qurbon qilgan johillar edilar. Bu ulamolarning vazifalari, hattoki millati uchun jonidan kechish, dinni, ilmni yuqori darajaga qo‘yish va uni jamiyatga tatbiq qilishdan iborat emasmidi…

Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing onalar.

Shoir she’rning har bandida “O‘qing, onalar”, “Qizlaringizni o‘qiting onalar” deya bong uradiki, bu xuddi xalqimizni ozodlikka undovchi nidodek bong uradi. Chunki, jadid ajdodlarimiz jaholatdan, qullikdan, taxqirlanishlardan qutulishning yagona quroli sifatida ILM-U MA’RIFATni ko‘rganlar.

So‘fizoda she’rining mantiqiy davomi sifatida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyeving quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Bitta qiz o‘qitsak butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli, ma’rifatli bo‘ladi”. Ko‘rinib turibdiki, bugun mustaqil va ozod diyorda yashamoqdamiz, lekin shunday bo‘lsa-da qizlarning ilmli qilish haqidagi g‘oyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, ilmli yoshlar, ma’rifatli qizlar har bir jamiyat uchun kerakdir. Bu esa jadid bobolarimiz ilgari surgan g‘oyalarning umumbashariy ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibrat, Siddiqiy Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma’naviy-1999.
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.
3. Jadid adabiyoti tarixi. O‘quv -uslubiy majmua. Guliston-2020.
4. Kobilova, Z., & Tursunova, N. (2025). MUMTOZ ADABIYOTDA BADIIY OBRAZ VA OBRAZLILIK. *University Research Base*, 112-120.
5. JUMANOVA, S. O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA PEYZAJ LIRIKASINING POETIK AHAMIYATI. FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI, 121.
6. Imomaliyeva, M. (2024). IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR: AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 387-389.
7. Raimova, H. (2025). BIR MAVZUNING TURFA TALQINLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 214-216.

MUHIDDIN OMON SHE’RIYATIDA G‘AZAL JANRI VA UNING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Gulnoza Ziyouddinova,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoiri Muhiddin Omon ijodida g‘azal janrining o‘rni hamda uning badiiy-estetik xususiyatlari “Ko‘ngil xonish qilar ersa” g‘azali misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda g‘azalning aruz tizimidagi vazni (hazaji musammani mahzuf bahri), qofiya va radif tuzilishi, shuningdek, iqtibos, irsoli masal, metafora va samoviy jismlar (Atorud, Zuhal) ramziyligi kabi she’riy san’atlar o‘rganiladi. Lirik qahramon obrazida yolg‘izlik, tayanch va ustoz izlash holatlari hamda g‘azal maqtasidagi hayotbaxsh falsafiy xulosa qanday ifodalangani ko‘rsatib beriladi. Tahlillar Muhiddin Omon g‘azallari mumtoz an’analarni davom ettiruvchi zamonaviy o‘zbek g‘azalchiligining yorqin namunasi ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, Muhiddin Omon, zamonaviy g‘azalchilik, aruz, hazaj bahri, qofiya, radif, iqtibos san’ati, irsoli masal, tashbeh, ramz, lirik qahramon.

Muhiddin Omonning ijod laboratoriyasini tahlil qilar ekanmiz, unda mumtoz janrlardan g‘azal, ruboiy, muxammas, musaddas, masnaviy singari janrlarni uchratish mumkin. Xususan, “Dilafkor bo‘ldingmi, dil”, “Ko‘ngil xonish qilar ersa”, “Muxtaram bo‘lg‘ay”, “Yetmaganlardan so‘rang”, “Alhazar”, “Aldanmasun”, “Ko‘zlaring”, “Ey ko‘ngil” singari she’rlarini zamonaviy g‘azalchilikning yaxshi namunalari sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ma’lumki, g‘azal so‘zi “ayolga xushomad” ma’nosini anglatib, dastlab faqat ishq-muhabbat mavzusida bitilgan bo‘lsa, keyinchalik diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham g‘azalning go‘zal namunalari yaratilganini ko‘rish mumkin. Xususan, Muhiddin Omonning “Ko‘ngil xonish qilar ersa” g‘azalida ham lirik qahramonning mavjud ruhiy holati go‘zal tashbehlar va oxorli tasvirlar bilan beriladi. G‘azal 6 baytdan tashkil topgan bo‘lib, aruzning hazaji musammani mahzuf bahrida yozilgan. G‘azalda devorim, dutorim, xummorim, sardorim, sitorim, bemorim, darkorim so‘zlari qofiyaga olingan bo‘lib, qofiya tuzilishiga ko‘ra mutlaq qofiya, o‘zak tarkibiga ko‘ra esa murdaf qofiya turi ishlatilgan. G‘azal matla’sida shoir iqtibos san’atidan foydalanib, Usmon Azimning “Shamol bag‘rida bir bog‘man – devorim yo‘qqa o‘xshaydir” misrasini aynan keltiradi[6]. Bu

[6]Azim U. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2012. - B. 47.

misrani aynan qo‘llash shunchaki bo‘lmasdan, lirik subyektning ayni paytdagi holatini to‘liq ifoda etishga xizmat qilgan.

“Shamol bag‘rida bir bog‘man – devorim yo‘qqa o‘xshaydir”,
Ko‘ngil xonish qilar ersa, dutorim yo‘qqa o‘xshaydir.[7]

“Shamol bag‘rida bir bog‘man – devorim yo‘qqa o‘xshaydir” misrasida metaforik ifoda orqali lirik qahramonning talotum dunyodagi chegarasizlik holati beriladi. Bu o‘rinda kishilarning ozorlari, jafolari shamolga o‘xshatiladi. Devorning yo‘qligi bu dunyoning muhofazasiz, ochiq va beqaror ekanini anglatib, devor bo‘lmagan bog‘ga har kim qo‘l cho‘zgani singari lirik qahramonning ham turfa o‘qlarga nishon bo‘lgani anglashiladi. Ikkinchi misradagi dutor yo‘qligi orqali esa ruhiy ohangning uzilishi ifodalanadi. Dutor baytda faqat cholg‘u emas, balki ichki armon va estetik uyg‘unlik ramzi sifatida xizmat qiladi. Natijada, lirik qahramonning ichki va tashqi muvozanati buzilgan holati obrazli tarzda tasvirlanadi.

Hofiz bo‘lur havozasi olamni tutsa gar, mashshoq,
Nechukki, men mug‘anniyman, xummorim yo‘qqa o‘xshaydir.

Ikkinchi baytda lirik qahramon mashshoqqa murojaat qilar ekan, agar olamni tutayotgan, eshitilayotgan ovoz hofizniki bo‘lsa, mening nega xummorim yo‘q, deya so‘raydi. Bu o‘rinda shoir lirik qahramonning “xummorsizligi”ni aytish orqali uning o‘zidan qoniqmasligini, holatini anglashga intilib, savollar iskanjasida qolganini ifoda etadi.

Samo bo‘lsam – Quyoshim yo‘q, Zamin ersam – qani mehvar?
O‘zim karvon, o‘zim sorbon, sardorim yo‘qqa o‘xshaydir.[8]

Keyingi baytda lirik subyekt ruhiy holatini ifodalashda samoviy jismlardan foydalaniladi. Lirik qahramon bir o‘rinda o‘zini osmonga muqoyasa etar ekan, ko‘ksini yoritguvchi Quyoshning yo‘qligidan shikoyat qilsa, boshqa bir o‘rinda o‘zini zaminga o‘xshatib, mehvarsizligidan yozg‘irinadi. Mehvar – o‘q, markaz ma’nolarini bildirib, baytda lirik “men”ning tayanch nuqtasini topa olmayotganligini, o‘zini anglash jarayonida suyanch izlayotganligini ifodalaydi. Uning o‘zini sarbonsiz karvonga qiyoslab, sardorga ehtiyoj sezayotganligi orqali esa savollarga javob topishi, hayot haqiqatini anglashi uchun ustoz zarurligiga ishora qilinadi. Bu fikrlar g‘azalning navbatdagi baytida mantiqiy davom ettiriladi:

Samoga telmurib tunlar, kutar bo‘lsam agar payg‘om,
Atorud jim, Zuhal jimdur, sitorim yo‘qqa o‘xshaydir.[9]

[7]Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –-B. 59.
[8]Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - B. 59.

Lirik qahramon samoga termulgan ko‘yi undan mujda kutar ekan, unga Atorud ham, Zuhal ham javob bermaydi. Bu o‘rinda mazkur sayyoralarning tilga olinishi ularning badiiy adabiyotdagi ma’nolaridan tashqari, lirik qahramon javob kutayotgan, kuzatayotgan obyekt masshtabining kengligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Atorud (Merkuriy) sayyorasi badiiy adabiyotda ba’zi o‘rinlarda donolik, ma’rifat ramzi hisoblansa, ba’zi o‘rinlarda farovonlik ramzi sifatida ishlatiladi. Joylashuvi jihatdan esa Quyoshga eng yaqin sayyora. Zuhal (Saturn) esa mumtoz Sharq she’riyatida g‘amginlikni ifoda etadi. Garchi Quyosh tizimidagi eng uzoqda joylashgan sayyora Neptun bo‘lsa-da, mumtoz she’riyatimizda Zuhal eng uzog‘i sifatida tilga olinadi. Shu sababdan u sovuqlik, qayg‘uni tamsil etadi. Baytda bu ikki sayyora nomining berilishi esa lirik qahramonning savollarini butun koinot javobsiz qoldirayotganini bildiradi. Shu tufayli u payg‘om keltirguvchi sitor – yulduz yo‘qligini aytadi.

Azal qonun – dili dardmand tabiblik ixtiyor aylar,
Vale, mendek tabibga zor bemorim yo‘qqa o‘xshaydir.[10]

Keyingi baytda shoir irsoli masal san’atidan foydalanadi. “Tabibimning o‘zi bemor” iborasini qo‘llash orqali shoir insonning qondirilmagan ruhiy ehtiyojlariga, tinglanmagan hasratlari-yu eshitilmagan dardlariga ishora qiladi. “Dili dardmand tabiblik ixtiyor aylar” misrasi orqali tasvirlangan ichki paradoks g‘azalning badiiy qimmatini orttirib, masalaning nechog‘li muhim ekanligini bildiradi.

Bas, Muhiddin, fig‘oningni tushunsa gar zamon ahli,
Dema zinhor, bu dunyoga darkorim yo‘qqa o‘xshaydir.[11]

G‘azal maqta’sida shoirning mavjud ijtimoiy vaziyatdan chiqargan falsafiy xulosasi beriladi. Ichki savollar girdobida qolgan, yolg‘izlik va beqarorlikdan charchagan lirik qahramon g‘azal yakunida o‘ziga murojaat qilar ekan, dunyoda insonlarning sening fig‘oningni tushunishi, anglashining o‘zi yashashga arziydi, degan yakdil qarorga keladi. Baytda begonalashuv (alienatsiya) inkor qilinib, o‘quvchida umidvorlik uyg‘otishga harakat qilinadi. Bu esa shoirning hayotsevarligidan, ezgu niyatidan darak beradi.

Xulosa

Muhiddin Omonning “Ko‘ngil xonish qilar ersa” g‘azali tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir mumtoz g‘azal an’analarini — aruz vazni, mutlaq va murdaf qofiya, iqtibos hamda irsoli masal kabi she’riy san’atlarni zamonaviy badiiy

[9]Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. –-Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - B. 60.
[10]Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - B. 60.
[11]Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. –-Toshkent: O‘zbekiston, 2018. -B. 60.

tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi. G‘azalda samoviy jismlar ramziyligi, metafora va tashbeh vositasida lirik qahramonning yolg‘izligi, tayanch va ustoz izlash holati teran ifodalanadi. Maqta’dagi falsafiy xulosa esa begonalashuvni inkor etib, umidvorlik va hayotsevarlik g‘oyasini ilgari suradi. Shu bois Muhiddin Omon g‘azallarini mumtoz an’analarni ijodiy davom ettiruvchi zamonaviy o‘zbek g‘azalchiligining yorqin namunasi sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Omon M. O‘rtamizda ishqning gulxani. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Azim U. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2012.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiy poetika. - Toshkent: Sharq, 1999.
4. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. -Toshkent: Sharq, 1998.
5. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. -Toshkent: Zarqalam, 2014.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akademnashr, 2010.

ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA RAHBAR SHAXSINING MA’NAVIY-RUHIY BARQARORLIGI
(“RAHBARI NAJOT” MISOLIDA)

Toxirjon UMAROV,
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti.
email: kokanduni2019@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning pedagogik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida rahbar shaxsining ma’naviy-ruhiy barqarorligi masalasi keng tahlil qilinadi. Xususan, uning “Rahbari najot” asari misolida yetuk rahbar shaxsiga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlar, iroda mustahkamligi, mas’uliyat hissi, jamiyat oldidagi burchni anglash va bilimlilik kabi jihatlar ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada Fitratning rahbarlik haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilinib, bugungi kun rahbar shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, jadidchilik pedagogikasi doirasida Avloniy va Behbudiy ta’limotlari bilan qiyosiy tahlil ham amalga oshiriladi. Rahbarning ma’naviy barkamolligi va ruhiy barqarorligi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: rahbar shaxs, ma’naviy-ruhiy barqarorlik, jadid pedagogikasi, Fitrat qarashlari, “Rahbari najot” , axloqiy tarbiya, yetakchilik fazilatlari, ijtimoiy mas’uliyat, iroda, bilimlilik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issue of spiritual and psychological stability of a leader based on the pedagogical and socio-philosophical views of Abdurauf Fitrat. In particular, on the example of his work "The Leader of Salvation" (Rahbari najot), such aspects as moral qualities, strength of will, sense of responsibility, understanding of duty to society, and erudition, characteristic of a mature leader, are scientifically examined. The article analyzes Fitrat's views on leadership in accordance with modern pedagogical approaches and reveals their importance in the formation of today's leaders. A comparative analysis with the teachings of Avloniy and Behbudiy within the framework of Jadid pedagogy is also carried out.

Keywords: leader, spiritual and moral stability, jadid pedagogy, Fitrat’s views, “Rahbari najot”, moral education, leadership qualities, social responsibility, will, erudition.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi uchun jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va ma'rifiy islohot yo‘lida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Bu harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Abdurauf Fitrat (1886–1938) bo‘lib, u yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos va davlat arbobi sifatida o‘zbek madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan. [7, 3-b] Fitrat birinchi o‘zbek professori (1926) darajasiga erishgan va o‘zining serqirra ijodiy faoliyati bilan millat ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida tarixga kirgan.

Fitrat Turkiyada (1909–1913) tahsil olgan yillarida Yosh turklar harakati va isloh g‘oyalari ta'sirida shakllangan. [6, 21-b] Aynan shu davrda u o‘zining dastlabki muhim asarlarini yaratgan: *"Munozara"* (1910), *"Sayyohi hindi"* (1912) va vataniga qaytgach, 1914–1916 yillarda *«Rahbari najot”* asarini nashrga tayyorlagan. [1, 4-b] Aynan ushbu asar mazkur maqolaning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi, chunki unda rahbar shaxsining ma'naviy-ruhiy barqarorligi masalasi eng to‘liq va chuqur yoritilgan.

Fitrat o‘z ijodiy merosida milliy va diniy-ma'rifiy masalalarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda, rahbar shaxsini jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etadi. Uning nazarida rahbar — bu nafaqat boshqaruvchi, balki jamiyatni ma'naviy yuksaltiruvchi, xalqni haqiqat yo‘lida boshlovchi yetakchi shaxsdir. [1, 14-b] Mazkur g‘oya bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy rahbarlik ilmida ham insonning ichki ma'naviy dunyosi muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda.

«Rahbari najot” asarining ilmiy-pedagogik ahamiyati - *«Rahbari najot”* (fors. — "Najot yo‘li") Fitrat qalamiga mansub risola bo‘lib, u 1915–1916 yillarda Bokuda nashrdan chiqqan. Asarning o‘zbek tilidagi tarjimasi *"Najot yo‘li"* nomi ostida Toshkentda 2001 yilda qayta chop etilgan. [1, 3-b] Risola fors tilida yozilgan bo‘lsa-da, o‘sha davrdayoq keng o‘quvchilar ommasiga yetib borgan va jadidchilik harakatining g‘oyaviy dasturlaridan biriga aylangan.

Mazkur asarda Fitrat tafsir, hadis, fiqh, kalom ilmlari, shuningdek, lisoniy, falsafiy va dunyoviy ilmlar to‘g‘risida aniq tasavvur beradi; avlod, badan, fikr va axloq tarbiyasiga oid falsafiy-etik qarashlarini ilgari suradi. [1, 9-10-b] Olim B.Qosimov ta'kidlaganidek, Fitrat ushbu asari orqali nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham rahbarda bo‘lishi zarur deb hisoblagan va bu holat uni o‘z davri uchun muttaraqqiy pedagog sifatida ajratib turadi. [6, 48-b]

Fitratshunos olim H.Boltaboyev fikricha, *«Rahbari najot”* asari Fitrat ijodiy merosining birinchi davriga (1908–1918) mansub bo‘lib, yosh buxoroliklar harakatining mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qilgan. [7, 15-b] Asarda ilgari surilgan rahbarlik g‘oyalari jadidchilik pedagogikasining asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etadi: ma'rifat, axloq, iroda va xalq manfaatiga sadoqat.

Rahbar shaxsining axloqiy pokligi va ma'naviy yetukligi - Fitrat rahbar shaxsining ma'naviy pokligi va axloqiy yetukligini uning eng muhim sifati sifatida belgilaydi. Uning fikricha, rahbar avvalo o‘z nafsini tarbiyalagan, halol va adolatli shaxs bo‘lishi lozim, chunki ichki ma'naviy dunyosi zaif rahbar jamiyatni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin. Fitrat ushbu fikrni *«Rahbari najot”* da aniq ta'kidlaydi: axloqiy tarbiyaning maqsadi — *"insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a'zo qilib shakllantirish"*. [1, 31-b]

Fitrat axloqiy poklikni rahbarning boshqa barcha fazilatlarining zaminiga qo‘yadi. Uning *"Oila"* risolasida ham bu g‘oya kengaytirilgan: rahbar sifatidagi shaxs karamlilik — *"odamlarga yaxshilik qilib, millatni yuksaltirish"* tamoyilini o‘z hayotida namoyon etmog‘i shart. [3, 57-b] Bu jihatdan Fitratning qarashlari Abdulla Avloniyning *"Turkiy guliston yoxud axloq"* asaridagi ta'limot bilan uyg‘unlashadi. Avloniy esa o‘z navbatida ta'kidlaydi: *"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir!"* [4, 5-b] Demak, ikki buyuk jadid mutafakkiri ham axloqiy tarbiyani millatning yashashi yoki halok bo‘lishining mezoni deb baholagan.

I.G‘aniyev ta'kidlaganidek, Fitrat axloqiy poklikni mujarrad tushuncha emas, balki amaliy hayotiy zarurat sifatida ko‘radi. [8, 62-b] Shuning uchun ham *«Rahbari najot”* da insonning o‘z ustida ishlashi, axloqini tozalashi va irodasini mustahkamlashi zarurligi qayta-qayta uqtiriladi. [1, 28-30-b] Bu pedagogik yondashuv bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, rahbar shaxsining ichki axloqiy kompassi tashqi boshqaruv mahoratidan ko‘ra muhimroq hisoblanadi.

Ruhiy barqarorlik va iroda masalasi - Fitrat ta'limotining yana bir markaziy mavzusidir. Fitrat rahbarning turli sinov va qiyinchiliklar oldida o‘zini yo‘qotmasligi, sabr-toqatli va qat'iyatli bo‘lishini zarur deb hisoblaydi. Asarda shijoat fazilati alohida ta'riflanadi — u *"qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan"* iborat bo‘lib, maqsadlar sari intilish tuyg‘usining natijasidir. [1, 36-b]

Fitrat shijoat va irodani izohlab shunday yozadi: *"Aslida komil inson bunday mushkilot va bema'ni to‘siqlar andishasiga bormay, erkinlik bilan haq-huquqlaridan foydalanadi va o‘z vazifalarini bajo keltiradi."* [1, 38-b] Bu ibora rahbarning ruhiy barqarorligini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi: u vaziyatdan qo‘rqmaydi, balki uni boshqaradi. Irodasi kuchli, ruhiy jihatdan mustahkam shaxsgina jamiyatni inqirozlardan olib chiqishga qodir. [1, 40-b]

Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan ham bu jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi rahbarlik kompetensiyalari tizimida stressga chidamlilik va psixologik barqarorlik ustuvor o‘rinlardan birini egallaydi. [9, 87-b] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmada ta'kidlanganidek, bugungi rahbar uchun *"boshqaruv jarayonida psixologik barqarorlikni saqlash — samarali qaror qabul qilishning asosiy sharti"*. [9, 112-b] Fitrat ushbu g‘oyani bir asrdan ko‘proq vaqt oldin ilmiy asosda ta'riflagan bo‘lib, bu uning mutafakkir sifatidagi zakovati va ilg‘orligini yaqqol ko‘rsatadi.

Behbudiy ham o‘z asarlarida ushbu masalaga to‘xtalgan: jamiyat islohi uchun qat'iy irodali va sabotli shaxslar kerak deb hisoblagan. [5, 74-b] Demak, jadidchilik harakatining yetakchi vakillarining barchasi rahbar shaxsining ruhiy kuchi va irodasini millatning yuksalishi uchun zarur shart deb baholagan.

Fitrat ta'limotida rahbarning xalq oldidagi mas'uliyati masalasi alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha, rahbar o‘z shaxsiy manfaatini emas, balki xalq manfaatini ustuvor qo‘yishi shart. Bu — rahbarning asl mohiyatini belgilovchi mezon. *«Rahbari najot”* da bu g‘oya orqali rahbarning fidoyiligi, vatanparvarligi va xizmatga tayyorligi alohida ta'kidlanadi. [1, 22-24-b]

Fitrat o‘z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ozodlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shafqatli bo‘lish, *"o‘z manfaatidan xalq manfaatini yuqori qo‘yish"* g‘oyalarini ulug‘laydi. Vijdonsizlik, poraxo‘rlik, ikkiyuzlamachilik, boshqalarni ezish evaziga boylik to‘plash, xalqqa zulm o‘tkazish kabi salbiy sifatlar esa qoralanadi. [2, 134-b]

B.Qosimov ushbu masala yuzasidan quyidagicha xulosa beradi: Fitrat rahbarni *"millatning tayanchi"* sifatida ko‘rgan va shuning uchun rahbarning mas'uliyat hissini uning axloqiy kamolotining asosiy ko‘rsatkichi deb baholagan. [6, 52-b] Darhaqiqat, mas'uliyat — rahbar madaniyatining asosiy belgisi bo‘lib, u

bir kishi mas'uliyatidan farqli o‘laroq, ko‘lami kengligi va salmog‘i bilan ajralib turadi. [9, 19-b]

Bu g‘oya zamonaviy rahbarlik kontsepsiyalarida ham markaziy o‘rin egallaydi. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o‘ziga, so‘ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo‘ladi. O‘ziga topshirilgan ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish esa *"tashkilot va jamiyat uchun katta zarar ekanligini"* zamonaviy tadqiqotlar ham isbotlamoqda. [10, 48-b]

Fitrat ta'limotida rahbar shaxsining yana bir muhim jihati — bilim va tafakkur kengligi hisoblanadi. Fitrat rahbarni har tomonlama bilimli, zamon talablariga javob bera oladigan va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tasavvur qiladi. Chunki bilimli rahbargina to‘g‘ri qaror qabul qilishi va jamiyatni rivojlanish sari yetaklashi mumkin. [1, 17-18-b]

«Rahbari najot” da Fitrat rahbar uchun zarur bilim sohalari doirasini aniq belgilab beradi: tafsir, hadis, fiqh, kalom ilmlari, shuningdek, lisoniy, falsafiy va dunyoviy ilmlar. [1, 9-b] Bu holat o‘sha davr uchun g‘oyat ilg‘or yondashuv edi, chunki an'anaviy madrasalar faqat diniy bilimlar berishga mo‘ljallangan bo‘lib, dunyoviy fanlar e'tibordan chetda qolar edi. Fitrat esa ikkala bilim sohasi ham rahbar shaxsida uyg‘un bo‘lishi kerak, deb ta'kidlagan.

G‘aniyevning fikricha, Fitrat bilimni rahbarning ruhiy barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq omil sifatida ko‘rgan. [8, 71-b] Darhaqiqat, chuqur bilim insonda ishonch va qat'iyatni shakllantiradi, aniqroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi va noaniqlik sharoitida yo‘nalishni yo‘qotmaslikka imkon beradi. Zamonaviy pedagogika ham ushbu fikrni ma'qullaydi: *"Bilim va ko‘nikma rahbar uchun muhim bo‘lsa-da, ularni samarali qo‘llash uchun ma'naviy yetuklik va ruhiy barqarorlik asosiy shart hisoblanadi."* [10, 63-b]

Fitratning rahbarlik g‘oyalari o‘z davrida yolg‘iz emas edi. Jadidchilik harakatining boshqa yirik vakillari — Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniy ham ushbu masalaga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Behbudiy ta'kidlaganidek, *"har bir millatning taraqqiyoti uchun ilm asosiy sababdir"* va millat islohi jamoaning ruhiy-axloqiy yukselishi bilan boshlanadi. [5, 61-b] Bu fikr Fitratning rahbar haqidagi konsepsiyasi bilan to‘liq mos keladi.

Avloniy esa rahbar (o‘qituvchi va yetakchi) shaxsining butun ijtimoiy muhit uchun namuna bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Uning *"Turkiy guliston"*idagi axloqiy ta'limot Fitrat konsepsiyasining amaliy davomi sifatida baholash mumkin: *"Yaxshi xulq — eng yaxshi meros"* degan qoida ikkalasida ham markaziy o‘rinda turadi. [4, 28-b]

Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, Fitrat ta'limoti global rahbarlik tadqiqotlarida muhim o‘rin tutuvchi *servant leadership* (xizmatkor rahbarlik) tushunchasi bilan ham uyg‘unlashadi. Bu kontsepsiyaga ko‘ra, haqiqiy rahbar o‘z

qo‘l ostidagilarga xizmat qilish uchun mavjud bo‘lib, ularga amaliy va ma'naviy ko‘mak beradi. [9, 134-b] Fitrat bu g‘oyani o‘z davrida *"rahbar — xalqning xizmatkori"* formulasi bilan ifodalagan. [1, 26-b]

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasi rahbarlik masalasida bir butun va izchil tizimni shakllantirgan. Bu tizimning asosida uch tamoyil yotadi: (1) axloqiy pok shaxs tarbiyalash, (2) bilimli va bilimdon rahbar yetishtirish, (3) jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yuvchi mas'uliyatli lider shakllantirishdir. [6, 78-b] Mazkur tamoyillar bugungi ta'lim tizimida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning pedagogik va ijtimoiy-falsafiy qarashlari, xususan, *«Rahbari najot”* asarida ilgari surilgan g‘oyalar rahbar shaxsining ma'naviy-ruhiy barqarorligini shakllantirishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Fitrat rahbarni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etib, uning ichki dunyosi — axloqi, irodasi, e'tiqodi va mas'uliyat hissiga alohida e'tibor qaratadi. Fitratning ushbu karashlari Avloniy va Behbudiy ta'limotlari bilan organik birlik tashkil etib, jadid pedagogikasining yaxlit rahbarlik nazariyasini shakllantiradi.

Maqolada tahlil qilinganidek, rahbar shaxsining ma'naviy-ruhiy barqarorligi beshta asosiy omil orqali belgilanadi: axloqiy poklik, qat'iy iroda va sabr-toqat, yuksak mas'uliyat hissi, xalq manfaatiga sadoqat va bilim kengligi. Fitratning ushbu qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy rahbarlik kompetensiyalari bilan uyg‘unlashadi.

Fitrat ta'limotidan kelib chiqib aytish mumkinki, haqiqiy rahbar shaxsini shakllantirish uzluksiz tarbiya, o‘z ustida ishlash va ma'naviy kamolot jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, bugungi ta'lim tizimida rahbar kadrlarni tayyorlashda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki ularning ma'naviy-ruhiy sifatlarini rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat berish zarur.

Demak, Fitratning *«Rahbari najot”* asarida ilgari surilgan g‘oyalar nafaqat tarixiy-pedagogik meros sifatida, balki zamonaviy rahbar shaxsini tarbiyalashda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim konseptual asos sifatida baholanishi va keng o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat A. Najot yo‘li (Rahbari najot). — Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2001. — 96 b.

2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000. — 384 b.

3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000. — 88 b.

4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — 160 b.

5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 1999. — 256 b.

6. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy. Ajziy. Fitrat. — Toshkent, 1994. — 160 b.

7. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. — Toshkent: Fan, 1996. — 112 b.

8. G‘aniyev I. Fitrat, e'tiqod, ijod. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1994. — 144 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Rahbar kadrlar tayyorlash va boshqaruv psixologiyasi asoslari. — Toshkent: DBIA nashriyoti, 2015. — 224 b.

10. Pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha zamonaviy ilmiy maqolalar to‘plami. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 312 b.

“OTA-ONA.UZ” RAQAMLI PLATFORMASI VA MASOFAVIY MODULLI TRENING TIZIMI

Xilola XAYDAROVA,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishning asosiy innovatsion vositasi sifatida ishlab chiqilgan “Ota-ona.uz” raqamli platformasi tavsiflanadi. Platformaning maqsadi va vazifalari, to‘rt moduldan iborat arxitekturasi, adaptiv o‘rganish yadrosi hamda modullarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: virtual-pedagogik madaniyat, raqamli platforma, adaptiv o‘rganish, ongli filtrlash, masofaviy modulli trening, ota-onalar ta’limi, geymifikatsiya.

Abstract. The article describes the “Ota-ona.uz” digital platform developed as a key innovative tool for enhancing parents’ virtual-pedagogical culture. The purpose and objectives of the platform, its four-module architecture, adaptive learning core, and the interconnections between the modules are presented.

Keywords: virtual-pedagogical culture, digital platform, adaptive learning, conscious filtering, distance modular training, parent education, gamification.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish an’anaviy, yuzma-yuz shakllar bilangina cheklanib qololmaydi. Bu jarayonning asosiy innovatsion vositasi sifatida “Ota-ona.uz” raqamli platformasi va unga asoslangan masofaviy modulli trening tizimi ishlab chiqildi.

Platformani ishlab chiqish zaruratini bir necha omil belgilaydi. Birinchidan, mavjud holat tahlili ota-onalar bilan ishlashda raqamli vositalar deyarli qo‘llanilmasligini ko‘rsatdi. Ikkinchidan, zamonaviy ota-onalar band bo‘lib, an’anaviy shakllarga doimiy qatnasha olmaydi, lekin smartfondan faol foydalanadi. Uchinchidan, bu – “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasidagi ta’limni raqamlashtirish siyosatiga ham muvofiqdir [1]. Bizningcha, raqamli platforma aynan shu ehtiyojlarga javob beruvchi zamonaviy yechimdir.

Platformaning maqsadi va vazifalari

Texnik yechim pedagogik maqsadga bo‘ysunishi kerak, aksincha emas. Platforma o‘z-o‘zida maqsad emas, balki muayyan pedagogik vazifalarni hal etish vositasidir.

“Ota-ona.uz” platformasining bosh maqsadi ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini masofadan, uzluksiz va shaxsga moslashgan tarzda rivojlantirish uchun yagona raqamli muhit yaratishdir. Bu maqsad quyidagi vazifalarda konkretlashadi: ota-onaning virtual-pedagogik madaniyati darajasini diagnostika qilish; unga mos o‘quv mazmunini (videodars, infografika, modulli kurslar) taqdim etish; ongli filtrlash ko‘nikmasini amaliy mashq va o‘yin orqali shakllantirish; ota-onalar jamoasini birlashtirish va ularga maslahat berish; rivojlanish dinamikasini monitoring qilish.

Platforma bir vaqtning o‘zida bir necha rolni bajaradi: u o‘quv vositasi (bilim beradi), amaliy mashq maydoni (ko‘nikma shakllantiradi), kommunikatsiya markazi (muloqotni ta’minlaydi) va diagnostika vositasi (natijani o‘lchaydi). M.Mur va G.Kirsli ta’kidlaganidek, zamonaviy masofaviy ta’lim tizimi aynan shunday ko‘p funksiyali, integratsiyalashgan muhitni talab qiladi [7, 23-b.]. Bizningcha, platformaning ko‘p funksiyaliligi uning asosiy afzalligi: u ota-onalar bilan ishlashning barcha bosqichlarini yagona muhitda jamlaydi.

Platformaning yana bir muhim vazifasi tadqiqotda ishlab chiqilgan barcha unsurlarni (konsepsiya, model, tashkiliy shakllar, metod va vositalar) amalda birlashtiruvchi integrator bo‘lib xizmat qilishidir. Konsepsiyadagi tamoyillar platforma dizaynida, model bloklari uning modullarida, didaktik metod va vositalar esa uning funksiyalarida o‘z aksini topadi. Shu ma’noda “Ota-ona.uz” tadqiqotning

nazariy natijalarini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy mexanizmdir. Bizningcha, aynan platforma orqali tadqiqot nazariyadan amaliyotga o‘tadi va uning amaliy qiymati namoyon bo‘ladi.

Platforma nomlanishining o‘zi ham uning mohiyatini ifodalaydi: u aynan ota-onalarga mo‘ljallangan milliy (.uz) raqamli resursdir. Xorijda ota-onalar uchun raqamli resurslar (masalan, mediasavodxonlik platformalari) mavjud bo‘lsa-da, ular o‘zbek tili va milliy kontekstga moslashmagan. S.Livingston va A.Blum-Ross ham ota-onalar uchun raqamli resurslar mahalliy kontekstga moslashgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar [6, 27-b.]. Shu bois milliy, o‘zbek tilidagi, milliy qadriyatlarga tayangan platforma yaratish obyektiv zarurat edi. Bizningcha, “Ota-ona.uz” bu boradagi dastlabki milliy tajribalardan biri sifatida ahamiyatga ega.

Platforma YUNESKOning media va axborot savodxonligi yondashuvi bilan ham hamohangdir: u ota-onalarda axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmasini raqamli vosita orqali rivojlantiradi [8, 18-b.]. Ayni vaqtda platforma bu yondashuvni milliy kontekst bilan boyitadi – u mediasavodxonlikni milliy-ma’naviy tarbiya bilan uyg‘unlashtiradi. Bizningcha, bunday uyg‘unlik platformaning o‘ziga xosligini belgilaydi: u ham jahon standartlariga mos, ham milliy zaminga tayangan raqamli ta’lim mahsulotidir.

Platformaning arxitekturasi

Arxitektura platformaning “skeleti” bo‘lib, uning funksionalligi va samaradorligini belgilaydi. Arxitekturani ishlab chiqishda tizimli yondashuvga tayandik: platforma alohida funksiyalar to‘plami emas, balki o‘zaro bog‘langan, yagona maqsadga xizmat qiluvchi tizim sifatida loyihalandi.

“Ota-ona.uz” platformasi to‘rt o‘zaro bog‘langan moduldan hamda ularni birlashtiruvchi adaptiv o‘rganish yadrosidan iborat. Modullar: diagnostik, o‘quv (kontent), amaliy-interfaol hamda muloqot va monitoring modullari. Foydalanuvchi (ota-ona, o‘qituvchi, mahalla) platformaga kirib, avvalo adaptiv yadro bilan ishlaydi; yadro esa foydalanuvchini uning ehtiyojiga mos modulga yo‘naltiradi va modullardan olingan natijalar asosida keyingi mazmunni moslashtiradi. Modullar o‘rtasidagi ikki tomonlama bog‘lanish (adaptiv qayta aloqa) platformaning yaxlit, o‘z-o‘zini sozlovchi tizim sifatida ishlashini ta’minlaydi.

Modullarning mazmuni va vazifalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

“Ota-ona.uz” platformasining modullari

Modul	Asosiy mazmuni	Bog‘liq komponent
1. Diagnostik	Boshlang‘ich test, VPM darajasini aniqlash, monitoring	Barcha komponentlar

Modul	Asosiy mazmuni	Bog‘liq komponent
2. O‘quv (kontent)	Videodars, infografika, modulli kurslar, test	Kognitiv
3. Amaliy-interfaol	“Feyk-detektiv”, matritsa simulyatori, mashq	Operatsional
4. Muloqot va monitoring	Forum, Telegram kanal, qayta aloqa, maslahat	Aksiologik, refleksiv

Platforma arxitekturasi model tuzilishini bevosita aks ettiradi: to‘rt modul virtual-pedagogik madaniyatning to‘rt komponentiga mos keladi, adaptiv yadro esa sinergetik yondashuvning o‘z-o‘zini sozlash g‘oyasini amalga oshiradi. Bunday muvofiqlik platformani tasodifiy texnik yechim emas, balki konsepsiya va modelning mantiqiy davomi qiladi. Bizningcha, aynan nazariy asos bilan texnik yechimning uzviyligi platformani ilmiy jihatdan asoslangan va pedagogik jihatdan samarali qiladi: u shunchaki “sayt” emas, balki ilmiy konsepsiya asosida loyihalangan pedagogik tizimdir.

Arxitekturani loyihalashda modullarning mustaqilligi va o‘zaro bog‘liqligi muvozanatiga alohida e’tibor berildi. Bir tomondan, har bir modul mustaqil, tugallangan vazifani bajaradi; ikkinchi tomondan, ular adaptiv yadro orqali yagona tizimga birlashadi. Bunday “mustaqillik ichida yaxlitlik” prinsipi tizimni ham moslashuvchan (modullarni alohida qo‘llash mumkin), ham yaxlit (ular birga ishlaganda sinergetik samara beradi) qiladi. Bizningcha, bu prinsip platformani turli ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi: zarur bo‘lsa, ayrim moduldan alohida ham foydalanish mumkin.

Platforma modullarining tavsifi

Diagnostik modul platforma faoliyatining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Unda ota-ona maxsus test orqali o‘z virtual-pedagogik madaniyati darajasini aniqlaydi; natija asosida unga mos o‘rganish traektoriyasi belgilanadi. Modul, shuningdek, davriy diagnostika orqali ota-onaning o‘sishini o‘lchaydi. Uning yana bir muhim funksiyasi – ota-onaga o‘z holatini obyektiv ko‘rish imkonini berishidir: ko‘pincha ota-onalar o‘z darajasini yetarli deb hisoblaydilar, diagnostika esa ularga real manzarani ko‘rsatib, rivojlanishga motivatsiya uyg‘otadi. Bizningcha, diagnostik modul nafaqat o‘lchash, balki motivatsiya vositasi sifatida ham qimmatli – u ota-onani “menga bu kerak” degan xulosaga olib keladi.

O‘quv (kontent) moduli nazariy bilimni taqdim etadi. Unda virtual-pedagogik madaniyatga oid videodarslar, infografikalar, modulli kurslar va testlar joylashtirilgan. Bu modul “Flipped-Family” modelining mustaqil (onlayn) qismi

uchun asosiy vosita bo‘lib, ota-onalar nazariy materialni uyda o‘zlashtiradilar. Kontent modulli (blokli) tarzda tuzilgan: har bir mavzu alohida, tugallangan blok bo‘lib, ota-ona uni o‘ziga qulay vaqtda o‘zlashtiradi. Kontent turli formatlarda (video, matn, infografika, audio) taqdim etiladi, bu turli o‘rganish uslubiga ega ota-onalarni qamrab olish imkonini beradi. R.Xobbs ta’kidlaganidek, raqamli ta’lim kontenti jozibali va tushunarli bo‘lgandagina samara beradi [4, 12-b.]. Bizningcha, kontentning sifati, ko‘p formatliligi va modulliligi butun platforma samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

Amaliy-interfaol modul ko‘nikma shakllantirishga yo‘naltirilgan. Unda “Feyk-detektiv” o‘yinining raqamli versiyasi, “Feyk-tanish matritsasi” simulyatori va amaliy mashqlar joylashtirilgan. Ota-ona real va soxta axborot namunalari bilan ishlab, ongli filtrlashni amalda mashq qiladi va darhol qayta aloqa oladi; S.Deterding asoslagan geymifikatsiya yondashuvi bu modulda faol qo‘llaniladi [3, 9-b.]. Modulning muhim imkoniyati — amaliy mashqni xavfsiz, nazorat ostidagi muhitda ta’minlashidir. Ota-ona real ijtimoiy tarmoqda xato qilsa, buning oqibati bo‘lishi mumkin; simulyatorda esa u xatolarni xavfsiz muhitda qilib, ulardan o‘rganadi. Bu — uchuvchilarning simulyatorda mashq qilishiga o‘xshash yondashuv: real xatarsiz ko‘nikma shakllantirish. Bizningcha, bunday “xavfsiz mashq maydoni” aynan raqamli platforma beradigan noyob imkoniyat bo‘lib, an’anaviy shakllarda mavjud emas; aynan shu modul platformaning o‘zagi hisoblanadi, chunki u diagnostika aniqlagan eng zaif bo‘g‘inni – amaliy ko‘nikmani mustahkamlaydi.

Muloqot va monitoring moduli ota-onalar jamoasini birlashtiradi va qo‘llab-quvvatlaydi. Unda forum, Telegram kanali, mutaxassis maslahati va qayta aloqa tizimi mavjud. Modul ota-onalarga o‘zaro tajriba almashish, savol berish va qo‘llab-quvvatlash olish imkonini beradi; shuningdek, maktab va mahalla bilan bog‘lanishni ta’minlaydi. Bizningcha, bu modul platformaga ijtimoiy o‘lchov beradi: u ota-onani yolg‘iz o‘rganuvchi emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi hamjamiyat a’zosi qiladi.

To‘rt modulning o‘zaro bog‘liqligi platforma samaradorligining kalitidir. Modullar alohida ishlamaydi, balki izchil zanjir hosil qiladi: ota-ona diagnostik moduldan boshlaydi, o‘quv modulida bilim oladi, amaliy modulda mashq qiladi, muloqot modulida qo‘llab-quvvatlanadi; natijalar yana diagnostik modulga qaytib, jarayonni takomillashtiradi. Bu — platformaning siklik, o‘z-o‘zini yangilovchi tabiatini aks ettiradi va uni alohida funksiyalarning mexanik yig‘indisidan farqlantiradi.

Adaptiv o‘rganish tizimi

“Ota-ona.uz” platformasini oddiy onlayn kurslardan farqlantiruvchi asosiy innovatsiya — uning adaptiv o‘rganish tizimidir. An’anaviy onlayn kurslarda

barcha foydalanuvchilar bir xil mazmunni, bir xil ketma-ketlikda o‘rganadilar; adaptiv tizimda esa mazmun har bir foydalanuvchiga moslashtiriladi. Bu – ota-onalar kabi geterogen auditoriya bilan ishlashda ayniqsa muhim.

Adaptiv ta’lim foydalanuvchining darajasi, ehtiyoji va o‘rganish sur’atiga moslashadigan ta’lim turi bo‘lib, u P.Brusilovskiy ishlarida nazariy asoslangan [2, 87-b.]. Platformada adaptiv yadro ota-onaning diagnostika natijasiga qarab unga mos mazmun va mashqlarni taqdim etadi: boshlang‘ich darajadagilarga asosiy tushunchalar, yuqori darajadagilarga murakkab masalalar beriladi.

Adaptiv tizimning ishlash mexanizmi quyidagicha: platforma foydalanuvchining harakatlarini (test natijalari, bajarilgan mashqlar, xatolar) tahlil qilib, uning “raqamli profili”ni shakllantiradi va shu profilga mos mazmunni taqdim etadi. Masalan, agar ota-ona “Feyk-tanish matritsasi”ning manba parametrida ko‘p xato qilsa, tizim unga aynan shu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha mashq beradi. Bizningcha, bunday moslashuv o‘rganishni samarali qiladi: ota-ona o‘zi biladigan mavzuga vaqt sarflamaydi, kuchsiz tomonlarini esa maqsadli mustahkamlaydi.

Adaptivlik farzandning yosh xususiyatlarini hisobga olish imkonini ham beradi. Ota-ona platformada farzandining yoshini ko‘rsatsa, tizim unga aynan shu yoshga oid mazmun va tavsiyalarni (maktabgacha, kichik maktab yoki o‘smirlik davri uchun) taqdim etadi. Bu tabaqalashtirish va tabiatga moslik tamoyillarini raqamli muhitda amalga oshiradi. Bunday ikki yoqlama adaptivlik – ham ota-ona darajasiga, ham farzand yoshiga moslashish – platformani ayniqsa amaliy qiladi.

Tizim, shuningdek, ota-onaning o‘rganish sur’atiga moslashadi. Band ota-ona kam vaqt ajratsa, unga eng muhim, asosiy mazmun taqdim etiladi; ko‘proq vaqti bo‘lgan ota-onaga esa chuqurroq material va qo‘shimcha mashqlar beriladi. Bunday moslashuv ota-onaning real hayot sharoitini hisobga oladi va uni o‘rganishdan voz kechishdan saqlaydi: u o‘rganishni ota-onaning hayotiga moslaydi, aksincha emas.

Adaptiv yondashuv andragogikaning mustaqil o‘rganish (self-directed learning) tamoyiliga ham mos keladi. M.Noulz ta’kidlaganidek, kattalar o‘z o‘rganishini mustaqil boshqarishni afzal ko‘radilar [5, 18-b.]. Adaptiv platforma aynan shu imkonni beradi: ota-ona o‘ziga qulay vaqtda, o‘z sur’atida, o‘z darajasiga mos o‘rganadi. Bizningcha, adaptivlik platformani an’anaviy, bir xil onlayn kurslardan farqlantiruvchi asosiy xususiyatdir – u har bir ota-onaga individual yondashuvni raqamli muhitda amalga oshiradi.

Adaptiv yondashuv zamonaviy raqamli ta’limning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi: sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili texnologiyalarining rivojlanishi adaptiv tizimlarni tobora takomillashtirmoqda. “Ota-ona.uz” platformasida adaptivlik dastlabki, oddiy darajada – diagnostika natijasi va

foydalanuvchi harakatlariga asoslangan mazmun tanlash orqali amalga oshirildi; kelajakda uni sun’iy intellekt elementlari bilan yanada rivojlantirish mumkin. Bizningcha, adaptivlikning bunday bosqichma-bosqich rivojlanishi platformaning istiqbolli, zamon bilan birga takomillashuvchi tabiatini ko‘rsatadi.

Xulosa

“Ota-ona.uz” raqamli platformasi ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishning yagona, ko‘p funksiyali raqamli muhitini yaratadi. Uning to‘rt moduli virtual-pedagogik madaniyatning to‘rt komponentiga mos keladi, adaptiv yadro esa tizimga o‘z-o‘zini sozlash xususiyatini beradi.

Platformaning ilmiy-amaliy qiymati uch jihatda namoyon bo‘ladi: birinchidan, u tadqiqotning nazariy natijalarini (konsepsiya, model, metod va vositalar) amaliyotga tatbiq etuvchi integrator mexanizm vazifasini bajaradi; ikkinchidan, u jahon standartlari (media va axborot savodxonligi, adaptiv ta’lim, andragogika) bilan milliy-ma’naviy tarbiya an’analarini uyg‘unlashtiradi; uchinchidan, u ota-onalarga ongli filtrlash ko‘nikmasini xavfsiz, nazorat ostidagi muhitda mashq qilish imkonini beradi.

Platformani yanada takomillashtirish istiqbollari adaptiv yadroni sun’iy intellekt elementlari bilan boyitish, kontent bazasini kengaytirish hamda uni umumta’lim maktablari va mahalla institutlari faoliyatiga tizimli tarzda integratsiya qilish bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2020.

2. Brusilovsky P. Adaptive Hypermedia // User Modeling and User-Adapted Interaction. - 2001. - Vol. 11, № 1-2. - P. 87-110.

3. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification” // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – Tampere, 2011. - P. 9-15.

4. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington: The Aspen Institute, 2010. - 68 p.

5. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. – London: Routledge, 2015. - 402 p.

6. Livingstone S., Blum-Ross A. Parenting for a Digital Future: How Hopes and Fears about Technology Shape Children’s Lives. – Oxford: Oxford University Press, 2020. - 328 p.

7. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. - Belmont: Wadsworth Cengage Learning, 2012. - 361 p.

8. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. - Paris: UNESCO Publishing, 2021. - 418 p.

ELBEKNING JADIDCHILIK FAOLIYATI

Sultonova Zilola Ikromali qizi,
Qo‘qon universiteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr o‘zbek ma’rifatparvarlik harakati — jadidchilikning yirik namoyandasi Elbek (Mashriq Yunusov)ning hayoti, ilmiy-pedagogik va badiiy ijodi keng tahlil qilinadi. Unda adibning og‘ir ijtimoiy sharoitda shakllangan hayot yo‘li, jadid maktablari bilan bog‘liq faoliyati hamda o‘zbek ta’lim tizimini isloh qilishdagi xizmatlari yoritiladi. Xususan, yangi usul maktablarini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or metodlarni joriy etish va yosh avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalash borasidagi qarashlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Elbekning tilshunoslik, ayniqsa imlo islohoti sohasidagi izlanishlari, “Imlo masalasi”, “Yozuv yo‘llari”, “Boshlang‘ich maktabda ona tili” kabi darslik va qo‘llanmalarining ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada uning “Armug‘on” kabi she’riy to‘plamlari, doston va hikoyalari orqali milliy uyg‘onish, ijtimoiy tafakkur va ma’naviy yuksalish g‘oyalari targ‘ib etilgani ochib beriladi. Elbek ijodining o‘zbek adabiyoti va ma’naviyati tarixidagi o‘rni tizimli ravishda asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Elbek, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, pedagogik faoliyat, imlo islohoti, tilshunoslik, yangi usul maktablari, darsliklar, badiiy ijod, milliy uyg‘onish.

Abstract. This article analyzes the life, scientific-pedagogical, and literary activity of Elbek (Mashriq Yunusov), a prominent representative of the Uzbek enlightenment movement of the early 20th century known as Jadidism. It highlights his life shaped by difficult social conditions, his involvement in Jadid schools, and his contribution to the reform of the Uzbek education system. In particular, his views on developing new-method schools, introducing advanced teaching methods, and educating the younger generation in the spirit of enlightenment are examined on a scientific basis. The article also discusses Elbek’s

research in linguistics, especially in the field of orthographic reform, and analyzes the significance of his textbooks such as “Imlo masalasi,” “Yozuv yo‘llari,” and “Boshlang‘ich maktabda ona tili.” Furthermore, his poetic collections, epics, and stories—including “Armug‘on”—are explored as important sources promoting national awakening, social thinking, and spiritual development. The study substantiates Elbek’s important role in the history of Uzbek literature and spirituality.

Keywords: Elbek, Jadidism, enlightenment, pedagogical activity, orthographic reform, linguistics, new-method schools, textbooks, literary works, national awakening.

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qaloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma’rifatlashtirish,jamiyat va madaniy islohotlar o’tkazish hamda pirovardida erk va hurriyat g’oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o’z oldiga qo’ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan yuzaga keldi.[1.22] Mazkur harakat shunchaki ta'limiy islohot emas, balki xalqni qoloqlik va jaholat botqog'idan olib chiqish, milliy davlat qurish va jamiyatni har tomonlama modernizatsiya qilishni maqsad qilgan yaxlit ijtimoiy-siyosiy fenomen edi. Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etish, matbuotni shakllantirish va badiiy adabiyot orqali xalq ongini yuksaltirishga intildilar. Ushbu ulkan ma’rifiy harakatning munosib davomchilaridan biri, o'zbek adabiyoti va tilshunosligida o'ziga xos iz qoldirgan siymo – Elbek (Mashriq Yunusov) hisoblanadi.

Mashriq Yunusov 1898-yilda Bo‘stonliq tumanidagi Xumson qishlog‘ida kambag’al oilada dunyoga kelgan.[2.6] Shoirning o‘zi tarjimayi holida qayd etishicha 1905-yilda 7 yoshida qishloq maktabiga o‘qishga kiradi. Maktabda 4 yil o‘qib, o‘quv-yozuvini o‘rganadi. Otasi ko‘pjonli oilani boqa olmadi. 1910-1911 yillarda boshqa aka-ukalari bilan uyni tashlab Toshkent shahriga kelishga majbur bo‘ladi. Kishilar eshigida qarol bo‘lib ishladi. Bu vaqtda Toshkentda jadid maktablari ko‘p edi. 1911-yilda Eski shaharda joylashgan Devonbegim mahallasidagi “Xoniy” maktabiga o‘qishga kirdi. Moddiy qiyinchilik tufaydi o‘qish bilan birga imorat ustalariga g‘isht tashib mardikorlik qilishgga majbur bo‘ladi. Elbek 1914-yilda Shayxontoxur dahasidagi Tarlovboshi mahallasida ochilgan 7 yillik maktabning 6-sinfiga o‘qishga kirib, 2 yillik tahsildan so‘ng muallimlik qila boshladi. Shu yillarda u ko‘p o‘qib adabiyotga, badiiy ijodga o‘zida asta sekin mayil uyg‘ona boshlaganligini sezadi. 1917-yildan boshlab she’rlar, hikoyalar yozdi. Til va imlo masalalari, pedagogika ishlariga qiziqqani holda maqola va asarlar yoza boshladi. 1919- yilda Toshkentdagi muallimlar uchun ochilgan 8 oylik kursda tahsil oldi. 1921-yildan boshlab Turkiston Xalq maorifi

komissarligi qoshidagi ilmiy muassasalarda o’z faoliyatini ko‘rsatadi. Hamda o‘sha davrda nashr etilgan “Maorif va o‘qituvchi”, “Inqilob”, “Bilim o‘chog‘i” kabi jurnallar bilan hamkorlik qiladi. Chindan ham, XIX asrning so‘nggi kunlari – XX asrning boshlarida dunyoga kelgan qaysi bir olim yoki shoirni ko‘z oldimizga keltirmaylik, uning biror dorilfununda o‘qimay yuqori darajaga erishganini ko‘rib hayratga tushamiz.[1.50] Fitrat ham, Cho‘lpon ham, Elbek ham, boshqa shoir va adiblarimiz ham asosan xususiy mutolaa yo‘li bilan jahon madaniyati xazinasidan bahramand bo‘lganlar. Fitrat va Cho‘lponlar avlodiga xos xususiyatlardan yana biri shunda ediki, ular qanchalik mashaqqatli turmush kechirgan bo‘lmasinlar, qo‘llariga qalam olganlarida, shu mashaqqatli va bevafo dunyoning kirdikorlarini fosh qilinishi emas, balki o‘zlariga yashash, ishlash va kurashish uchun ruh bergan, ichki olamlarini nurlantirib yuborgan masalalarni ko‘tarishga jazm qilganlar. O‘tgan asrning yigirmanchi yillarida adabiyotga kirib kelgan deyarli hamma o‘zbek shoirlari kabi Elbek ham Abdurauf Fitratni o‘ziga ustoz deb bildi. “Elbek” taxallusini ham unga Fitrat taklif etgan edi.[5]

Elbekning dastlabki she’rlari “El bayrog‘I”, “Turon”, “Turk so‘zi”, “Ulug‘ Turkiston” kabi gazetalarda bosilib chiqqan. 1922 yilga kelib, uning “Bir so‘roq”, “Bibixonim madrasasi”, “Turkiston” kabi she’rlari “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida Fitrat va Cho‘lpon she’rlari bilan birga e’lon qilingan.[4] Shuningdek, shoir bir qator dostonlar ham yozadi. Jumladan, Elbek o‘zining “O‘tmishim” nomli dostonida qiyinchiliklar bilan o‘tgan yoshlik yillarini hamda og‘ir hayotini quyidagicha bayon qiladi:

“Qarol bo‘lib ishladim,
Bir burda non tishladim.
Turmushum kun-kun og’ir
Bo’ldi,yiqildim axir.

Elbek faoliyatiga xos fazilat shundaki, u etuk ijodkor sifatida pedagogik faoliyatini olimlik va badiiy ijod bilan baravar olib bordi. 1918–1920-yillarda yangi ochila boshlagan sovet maktablari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yo‘q darajada edi. Oktyabr to‘ntarishigacha jadid pedagoglari tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlaridan foydalanish zararli deb topilgan edi. Shu munosabat bilan Elbekning yangi imlo qoidalarini ishlab chiquvchilar uchun qo‘llanma sifatida yaratilgan birinchi asari “Imlo masalasi” nomi bilan 1920-yilda bosmadan chiqdi.

Elbekning ushbu “Imlo masalasi” asari yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda va ona tilidan maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda o‘z davrida nazariy asos vazifasini bajardi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, hozirda ham yangi yozuv tizimiga o‘tishimizda, yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda bu asarning ahamiyati beqiyos. Elbek yangi imloning mukammal hamda xato va kamchiliklardan xoli bo‘lishini istab, tanqidchilarni, tilshunoslarni

munozarada faol ishtirok etishga da’vat etdi: “Belgilidurkim, dunyoda bo‘lg‘on har bir ishning yaxshigina negiz olib, bir yo‘sin ostig‘a kiruvi uchun ko‘b tanqidchilar tomonidan tanqid etiluvi yoxud bir necha tuzatuvchilar tomonidan yaxshi tekshirilib, maydong‘a otiluvi kerak bo‘ladur. Busiz maydong‘a otilg‘an bir ishning, albatta, kamchilik erlarining bo‘lishi mumkindur. Shuning uchun boshqa kimsalarning tomonidan ko‘riluvchi va tanqid etilib, uning buzuq erlarini tuzatib beriluvi o‘rinlidur. Yolg‘izgina ko‘rib, uning ishlovchisiga “barakalla” desa yoxud jimjitgina qolib ketmoq kelishmaydur. Bu choqda ishlovchining ishig‘a ko‘mak beruv emas, unga zararni istagangina bo‘ladur”

Elbekning ona tili grammatikasiga oid birinchi darsligi “Yozuv yo‘llari (Birinchi bo‘lak. Boshlang‘ich maktablarning 2-, 3-, 4-bo‘lim o‘qug‘uvchilari uchun saboqlik)” nomi bilan 1921-yilda nashrdan chiqdi va u o‘n bir saboq (dars)ni o‘z ichiga olgan. Mazkur darslik o‘zbek tili grammatikasi va o‘zbek tilidan darslik yaratishdagi dastlabki qadam edi. Shuningdek, Elbek asarida o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish masalasiga ham alohida e’tiborni qaratadi. Shuning uchun ham darslikning “Bir-ikki so‘z” nomli uqtirish xatida o‘z maqsad va vazifalarini bayon etgan: “Elimizda shu kungacha “yozuv yo‘llari” yo‘qligidan yozuvlarimiz bir turli yozilmasdan, har kimning yozg‘ichi istagan yoqqa berilib, istagan yo‘l bilan ketgan va shu yo‘l orqasida bir necha turli yo‘lsiz yozuvlar yuzaga chiqib qolg‘on edi. Bu yo‘lsiz yozuvlarni to‘g‘ri yo‘lg‘a solib, bir negizdur yo‘sin ostig‘a olmoq kerakmidi? Buni eng oldin qayg‘urgan va tushungan “Chig‘atoy gurungi” muchalari bo‘ldilar. Bular yo‘lsiz qolg‘on o‘zbek elining yozuvin bir yo‘lg‘a va bir negiz ostig‘a qo‘ymoq tilagi bilan eng birinchi bo‘laroq “Bilim yo‘llari” (nomi) ostida bir kitobcha tarqatib, elga yangi yozuv yo‘llarini ko‘rsatdilar. Tabiiy, buning bilan bizning yozuvimiz anchagina yo‘lg‘a solindi. El bolalari anchagina bundan foydalandilar”.

Elbek 1923-yili “Boshlang‘ich maktabda ona tili” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasini yaratdi. Aytish mumkinki, asar ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha birinchi uslubiy qo‘llanmadir. Asarda muallif metodika ilmining amaliy masalalari bilan bir qatorda, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish masalasiga pedagogika va metodika ilmining birlamchi va o‘ta mas’uliyatli vazifasi sifatida qaraganligining guvohi bo‘lamiz: “Ulug‘ bir vazifa – bolag‘a tuzuk tarbiya berish uchun uni go‘zal adabiyot bilan tanishtirish ham bolani tushunib, uqub o‘qishg‘a o‘rgatish kerakdur”, deb yozadi Elbek.

Adibning ilk to‘plami “Armug‘on” 1921-yili nashr etilgan bo‘lib, u asosan masallardan iborat edi.

“Kuchsizlar dunyosi” masalida shoirning niyat va maqsadi xiyla yorqinlik kasb etganki, bu hol muallif ijodi shakllanib borayotganidan darak beradi. Mazkur masalda tasvirlanishicha, endi azob chekkan el qonxo‘rlikdan o‘ch olish uchun

kurashga kirishadi. Shunday qilib, shoir bosqichma-bosqich mahorat sari ko‘tarila bordi.

O‘z ijodining tetapoya holatida ekanini sezgan Elbek “Mening hikoyam” she’rida “Men hali bitta ham she’r aytmadim, faqat she’r yo‘lidan qaytmadim”,— deb bejiz aytmagan.[4]

Adibning keyinchalik yaratgan “Mehnat kuylari”, “G‘unchalar”, “Chirchiq bo‘ylarida”, “Ashulalar to‘plami”, “Bolalar ko‘shig‘i”, “She’rlar to‘plami” kabi kitoblaridagi she’rlarida shoir dunyoqarashidagi, badiiy mahoratidagi takomil “manaman” deb turadi. Ayniqsa, shoirning “Sezgilar” to‘plamiga kirgan qator she’rlari o‘zining da’vatkorligi bilan ajraladi.

Mashriq Yunusov hikoyanavis sifatida ham adabiyotimiz tarixida iz qoldirgan. Uning “Dadamat” to‘plamiga kirgan “Chirchiq”, “Men kim bo‘laman”, “Ana”, “Anorgul”, “Qahhorxo‘ja”, “Dadamat” kabi hikoyalari adibning durustgina nosir bo‘lganligidan ham dalolat beradi

Elbek — bolalar shoiri sifatida ham ancha barakali ijod qildi. Uning o‘sha «Armug‘on» to‘plamidagi bir qator she’rlari qatori «G‘unchalar», «Chirchiq bo‘ylarida» hamda «Kambag‘al yigit va pardasturxon», «Omonat», «Erksiz polchi», «Ona», «Bolalar qo‘shig‘i» kabi bir qator she’rlari, dostonlari, ballada va ertaklari fikrimizning dalilidir. Ayni chog‘da adib «Yozuv yo‘llari», «O‘rnak», «Boshlang‘ich maktab ona tili», «Go‘zal yozg‘ichlar» (1934) kabi qator darslik va qo‘llanmalar muallifi sifatida ham ma’lumdir.

Atoqli pedagog, shoir, yozuvchi va folklorshunos olim Mashriq Yunusov – Elbek ijodining avj pallasiga ko‘tarilayotgan bir davrda – 1937-yilning 13-avgustida dahshatli qatag‘on mashinasi uni ham o‘z komiga tortdi. Elbek 1942-yilda sobiq sho‘ro davlatining eng chekka va eng sovuq o‘lkasi – Magadanning Kalima jazo lagerlaridan birida o‘pka shamollashi kasaliga uchrab hayot bilan vidolashdi.

Istiqlol, mustaqillik uning ruhi pokini, o‘lmas asarlarini ona xalqiga qaytardi, u tug‘ilib o‘sgan Bo‘stonliq tumanining markazi G‘azalkentda “Elbek bog‘i” majmuasi tashkil etildi, uning muhtasham haykali qad ko‘tardi. Shoirning “Armug‘on” masallar to‘plami e’lon qilindi, eng sara asarlarini o‘z ichiga olgan “Tanlangan asarlar”i ijodkorning 100 yilligi munosabati bilan 1999-yilda nashr etildi.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jadid adabiyoti tarixi. O‘quv -uslubiy majmua. Guliston-2020. B-22,50
2. Елбек.Танланган асарлар. Тошкент. Шарқ -1999. Б-6
3. Нурмухаммад Кобулов.Элбек.Т- Ғофур Ғулом. 1988 Б-4

4. Kobilova, Z., & Tursunova, N. (2025). MUMTOZ ADABIYOTDA BADIIY OBRAZ VA OBRAZLILIK. *University Research Base*, 112-120.
5. JUMANOVA, S. O ‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA PEYZAJ LIRIKASINING POETIK AHAMIYATI. FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI, 121.
6. Imomaliyeva, M. (2024). IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR: AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 387-389.
7. Raimova, H. (2025). BIR MAVZUNING TURFA TALQINLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 214-216.
8. https://tarix.uz/elbek-1898-1939.html
9. https://jadid.uz/jadids/elbek/

KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA JADIDLAR MEROSIDAN FOYDALANISH

(Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari misolida)

Yusupova Asilaxon Rashidovna,
Qo‘qon universiteti talabasi.
yusupovaasilaxon74@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid pedagogik tafakkurining yirik namoyandasi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari asosida kreativ fikrlashni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi - mazkur asarda ilgari surilgan axloqiy va didaktik g‘oyalarning zamonaviy ta’lim tizimidagi kreativ kompetensiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va ularning funksional modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda kontent-tahlil asosida asarning asosiy semantik birliklari ajratilib, qiyosiy va interpretativ yondashuvlar orqali zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan tahlil qilindi. Tahlil natijasida Avloniy qarashlarida kreativ fikrlashni shakllantiruvchi asosiy komponentlar - mustaqil tafakkur, axloqiy refleksiya va nutqiy faollik tizimli ravishda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi kreativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: Kreativ fikrlash, jadid pedagogikasi, Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, kreativ kompetensiya, mustaqil tafakkur, axloqiy tarbiya, nutqiy faollik, didaktik model.

Annotation. This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of developing creative thinking based on the work *“Turkiy Guliston yoxud Axloq”*

by Abdulla Avloniy, a prominent representative of Jadid pedagogical thought. The aim of the study is to identify the relationship between the moral and didactic ideas presented in this work and modern educational creative competencies, as well as to develop their functional model. In the research, the main semantic units of the work were identified through content analysis and compared with modern pedagogical concepts using comparative and interpretative approaches.

The analysis revealed that the key components of creative thinking in Avloniy’s views—independent thinking, moral reflection, and speech activity—are systematically manifested. Furthermore, the integration of these components is interpreted as an important mechanism for developing creative competence. As a result of the study, a didactic model aimed at fostering creative thinking based on Jadid pedagogy was proposed.

Keywords: Creative thinking, Jadid pedagogy, Abdulla Avloniy, *“Turkiy Guliston yoxud Axloq”*, creative competence, independent thinking, moral education, speech activity, didactic model.

Bugungi ta’lim tizimida yoshlarni mustaqil tafakkur va kreativ yondashuvga yo‘naltirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shaxsning ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish nafaqat kasbiy muvaffaqiyat, balki uning axloqiy va ijtimoiy kamolotining muhim asosi sifatida qaraladi.Shu sababli, milliy pedagogik meros, xususan jadid pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim jarayonlarini yangilash va kreativ metodlarni rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yoshlarning tafakkurini rivojlantirish hamda axloqiy barkamollikka erishish yo‘lida ilg‘or pedagogik konsepsiyalarni o‘zida mujassam etgan.

Asarda ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashib, kreativ fikrlashni shakllantirishning asosiy komponentlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida kontent-tahlil, qiyosiy va interpretativ metodlar asosida asardagi pedagogik hamda axloqiy qarashlar tahlil qilinadi va ular zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan solishtiriladi.

Mazkur maqolamning maqsadi — Avloniy pedagogik merosining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi nazariy-pedagogik ahamiyatini aniqlash hamda ushbu g‘oyalarni zamonaviy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish uchun ilmiy asos yaratishdir.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish va uni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy pedagogik merosni zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali shaxsning ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, jadid pedagogikasi namoyandasi Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asari o‘zbek pedagogik tafakkurining muhim manbalaridan biri bo‘lib, unda ta’lim va tarbiya masalalari uzviy birlikda yoritilgan. Asarda shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil tafakkurga o‘rgatish, axloqiy barkamollikni shakllantirish kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi. Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo'lmasa, asalarilari orasida g'ung'ullab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'ullamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «So’z insonning daraja va kamolini , ilm va fazlini o’lchab ko’rsatadurgan tarozusidur », – demishlar. [1, 48-b.]. Muallif ta’limni faqat bilim berish jarayoni deb emas, balki o‘quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi va shaxsini shakllantiruvchi tizim sifatida izohlaydi. Bu yondashuv bugungi kunda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish konsepsiyasi bilan hamohangdir.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Avloniy merosining turli jihatlari keng o‘rganilmoqda. Shuningdek, 2024–2025-yillarda chop etilgan maqolalarda uning pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unligi asoslab berilgan [2, 229-b.]. Ushbu tadqiqotlarda Avloniy asaridagi g‘oyalar yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim metodologik asos sifatida baholanadi.

Zamonaviy ilmiy izlanishlarda kreativ fikrlashni rivojlantirish muammosi ham alohida e’tibor markazida turadi. Jumladan, Ravshanova o‘z tadqiqotida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilib, ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishini ta’kidlaydi [3, 3-b.]. Uning fikricha, mustaqil tafakkur va erkin fikr almashinuvi kreativ kompetensiyaning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish masalasi ham keng o‘rganilgan [4, 50-b.].ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini asoslab beradi. Bu yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ham milliy, ham zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Avloniy pedagogik merosi zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan uyg‘unlashgan holda mustaqil tafakkur, axloqiy refleksiya va nutqiy faollikni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini yanada asoslaydi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asari asosida yoshlar orasida kreativ fikrlashni

rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik hamda axloqiy qarashlarni tizimli ravishda o‘rganish asosiy maqsad etib belgilandi. Ushbu maqsadga erishish uchun asarning asosiy semantik birliklari ajratilib, qiyosiy va interpretativ yondashuvlar orqali zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan solishtirildi.Hamda nazariy va empirik metod, qiyosiy tahlil metodlardan foydalanildi.

Avvalo, tahlil metodi orqali asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar chuqur o‘rganildi. Xususan, tarbiya mohiyati, axloqiy fazilatlarning shakllanishi, yaxshi va yomon xulq-atvor mezonlari hamda shaxs kamoloti bilan bog‘liq qarashlar ajratib olinib, ularning pedagogik mazmuni ochib berildi. Bu metod asarning ichki tuzilmasini anglash va undagi g‘oyalarni izchil tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, kontent-tahlil metodi yordamida asarda uchraydigan muhim tushunchalar — ilm, tarbiya, tafakkur va axloq — semantik birlik sifatida aniqlanib, ularning mazmuniy jihatlari kontekst asosida o‘rganildi. Ushbu tushunchalar tizimlashtirilib, jadval shaklida tasniflandi. Natijada Avloniy qarashlarining yoshlar tafakkuri va axloqiy ongiga ta’siri yanada aniqroq namoyon bo‘ldi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali esa Avloniy ilgari surgan pedagogik g‘oyalar zamonaviy kreativ fikrlash konsepsiyalari bilan solishtirildi. Taqqoslash jarayonida mustaqil fikrlash, axloqiy refleksiya, nutqiy faollik va ijodiy kompetensiyalar asosiy mezon sifatida olindi. Bu yondashuv orqali tarixiy va zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar hamda farqli jihatlar aniqlanib, Avloniy merosining bugungi ta’lim tizimidagi dolzarbligi asoslab berildi.

Bundan tashqari, tahliliy yondashuv asosida asardagi pedagogik va axloqiy qarashlar chuqurroq strukturaviy tahlil qilindi. Har bir g‘oya zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘un holda sharhlanib, kreativ tafakkur va axloqiy refleksiyaning nazariy asoslari izchil ochib berildi.

Pedagogik interpretatsiya metodi yordamida olingan ilmiy natijalar amaliy ta’lim jarayoniga moslashtirildi. Shu asosda Avloniy qarashlariga tayangan holda didaktik model ishlab chiqildi. Mazkur model yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy ongini shakllantirish va nutqiy faolligini oshirish orqali ularning kreativ kompetensiyasini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida qo‘llangan barcha metodlar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ishlatildi. Xususan, empirik metod orqali olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida boyitildi, keyinchalik esa tahliliy va interpretativ yondashuvlar orqali umumlashtirilib, amaliy modelga tatbiq etildi. Shu tariqa, tadqiqot nazariy asoslar bilan amaliy ta’lim ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asarida ilgari surilgan pedagogik va axloqiy qarashlar yoshlarning

kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy ta’lim bilan uyg‘un holda talqin qilinishi mumkinligi aniqlandi.

Birinchidan, tahlil natijalari Avloniy ta’limotida tarbiya tushunchasi markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, tarbiya faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlovchi omildir. Bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim modeli bilan mos kelib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Tarbiya - ’’Pedagogika’’, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur [5, 8-b.], - deya ta’kidlaydi Abdulla Avloniy. Ushbu fikr tarbiyaning ilmiy asosga ega tizim ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni, bola tarbiyasi pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim bo‘lib, bu yondashuv bugungi zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan hamohangdir.

Ikkinchidan, asarda yoritilgan axloqiy fazilatlar tizimi kreativ tafakkurning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Halollik, mehnatsevarlik, mas’uliyat va sabr kabi sifatlar nafaqat shaxs kamoloti, balki ijodiy fikrlashning asosiy tayanchi sifatida talqin qilindi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, axloqiy barqarorlik mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchilarning erkin va kreativ fikrlashi yanada faol rivojlanadi. “Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf va baland daraja beruvchi tarbiyadir”, - deya qayd etadi Abdulla Avloniy. Ushbu qarashda axloqiy tarbiya shaxsni kamolga yetkazuvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Demak, insonning qadri va ijtimoiy o‘rni uning axloqiy yetukligi bilan chambarchas bog‘liqdir [6, 15-b.].

Shuningdek, yaxshi va yomon xulq-atvorni farqlashga doir qarashlar yoshlarning reflektiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Avloniy tomonidan berilgan misollar va pand-nasihatlar o‘quvchilarni o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishga undaydi. Bu esa zamonaviy pedagogikada muhim hisoblangan axloqiy refleksiya ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi . Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat , yo saodat – yo falokat masalasidur.” deya ta’kidlab, tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi [7, 11-b.].Bu fikr hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida ham dolzarb bo‘lib, kreativ fikrlashni rivojlantirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari Abdulla Avloniy qarashlarida shaxs kamoloti va tafakkur rivoji o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ham ko‘rsatdi. Asarda ilm va tafakkur yuqori qadrlanib, insonning aqliy rivoji uning axloqiy yetukligi bilan bir qatorda olib borilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv zamonaviy kreativ fikrlash konsepsiyalaridagi “bilim + tafakkur + refleksiya” modeliga mos keladi.

Kontent-tahlil natijalari asosida aniqlanishicha, asarda “ilm”, “tarbiya”, “axloq” va “tafakkur” tushunchalari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgan bo‘lib, ular yagona pedagogik tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim yoshlarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvi va o‘z fikrini erkin ifodalashiga xizmat qiladi.

“Ilm bir daryo ichi to‘lmish dur-u gavhar bilon.

Qiymat-u qadrin qachon bilg‘ay oni johil yilon” [7, 29-b.], — deya ta’kidlaydi Abdulla Avloniy.

Ushbu misralarda ilm bebaho boylik sifatida tasvirlanib, uni anglash va qadrlash faqat bilimli insonlarga xos ekani ifodalanadi. Demak, jaholat ilmning asl qiymatini anglashga to‘sqinlik qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari esa Avloniy g‘oyalari zamonaviy kreativ kompetensiyalar bilan yuqori darajada uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, mustaqil fikrlash, nutqiy faollik va axloqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan qarashlar bugungi ta’lim tizimida ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Avloniy merosi asosida ishlab chiqilgan pedagogik yondashuv yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘la olishini tasdiqladi. Ushbu qarashlar zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi orqali o‘quvchilarning intellektual va axloqiy rivojini uyg‘un holda ta’minlash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asarida ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olingan natijalar zamonaviy pedagogik tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, axloqiy tarbiya va aqliy rivojlanish o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi tasdiqlandi.

Avvalo, Avloniy ta’limotida tarbiya shaxs kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilinishi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan mos keladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agar ta’lim jarayonida faqat bilim berishga e’tibor qaratilib, axloqiy tarbiya ikkinchi darajaga tushsa, o‘quvchilarda kreativ fikrlash to‘liq shakllanmaydi. Bu esa tarbiya va tafakkur uyg‘unligining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, Avloniy asarida yoritilgan axloqiy fazilatlar - halollik, mehnatsevarlik idrok va zako - kreativ tafakkurning ichki poydevori sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda ham ijodiy fikrlash faqat kognitiv jarayon emas, balki shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida baholanadi.Bu jihat tadqiqot natijalari bilan uyg‘unlikda Avloniy g‘oyalarining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Abdulla Avloniy o‘zining ’’Turkiy guliston yoxud axloq’’ asarida shunday deydi:

“Idrok va zako deb ochuq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo‘lmakni aytilur. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko‘zlarining nuri rahmoniysidur.” [8, 45-b.].

Mazkur fikrda Avloniy inson kamolotida idrok va **zako**ning o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlaydi. U idrok va zakoni shunchaki bilim emas, balki: ochiq fikrlash (kritik va mustaqil tafakkur), xulqiy go‘zallik (axloqiy yetuklik), ziyraklik (tez anglash va tahlil qilish) bilan bog‘laydi.

Adibning “yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni” iborasi orqali idrok va zako insondagi barcha ijobiy fazilatlarning manbai ekanini anglatadi. Shuningdek, “ibrat ko‘zlarining nuri rahmoniy” degan jumla bu sifatlar insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ilohiy nur sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi. Avloniy nazarida idrok va zako - bu faqat intellektual salohiyat emas, balki ma’naviy-axloqiy barkamollikning asosidir. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida ham kreativ fikrlashni rivojlantirish aynan shu tushunchalar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Bundan tashqari, muhokama natijalari Avloniy qarashlarida nutqiy faollik va mustaqil fikr bildirish masalasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Kreativ fikrlashning muhim komponentlaridan biri o‘z fikrini erkin va asosli ifoda eta olishdir. Avloniy tomonidan ilgari surilgan fikrni ochiq bildirish g‘oyasi zamonaviy kommunikativ kompetensiyalar bilan bevosita bog‘liq.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida Avloniy pedagogikasini zamonaviy ta’limga tatbiq etishda ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, an’anaviy axloqiy yondashuvlarni zamonaviy interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati seziladi. Agar bu muvozanat ta’minlanmasa, ta’lim jarayonida biryoqlama yondashuv yuzaga kelib, kreativ rivojlanish cheklanib qolishi mumkin [10, 34-37-b.]. Muhokama davomida pedagogning roli ham muhim omil sifatida qayd etildi. Avloniy qarashlariga ko‘ra, ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi va yo‘naltiruvchi shaxsdir. Zamonaviy tadqiqotlar ham o‘qituvchi kreativ muhit yaratishda asosiy subyekt ekanligini tasdiqlaydi. U o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashi va uning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Shuningdek, muhokama natijalari oila va ta’lim muassasasi hamkorligi kreativ fikrlash rivojida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Ota-onaning tarbiyaviy jarayondagi ishtiroki bolalarda axloqiy barqarorlik va fikriy mustaqillikni shakllantiradi. Bu esa Avloniy pedagogik qarashlarining ijtimoiy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Avloniy pedagogik merosi zamonaviy kreativ ta’lim konsepsiyalari bilan yuqori darajada uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ushbu g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda kompleks yondashuv -

ya’ni axloqiy, pedagogik va metodik omillar integratsiyasi — zarur ekanligi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asari yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim nazariy va metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda ilgari surilgan tarbiya, axloq va tafakkurga doir g‘oyalar zamonaviy kreativ kompetensiyalar bilan bevosita uyg‘un ekanligi aniqlanib, ularning pedagogik ahamiyati tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar Avloniy pedagogik qarashlarida mustaqil fikrlash, axloqiy refleksiya va nutqiy faollik kreativ fikrlashning asosiy komponentlari sifatida shakllantirilganini ko‘rsatdi. Ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal etish va erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, asarda ta’lim va tarbiya birligi g‘oyasi ustuvor ekanligi aniqlanib, bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim modeli bilan mos kelishi asoslandi. Axloqiy fazilatlarning (halollik, mehnatsevarlik, mas’uliyat) kreativ tafakkur rivojidagi o‘rni ham alohida ahamiyatga ega ekani ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalari Avloniy merosini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini birgalikda rivojlantirish mumkinligini tasdiqladi. Shu bilan birga, an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi, hamda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va motivatsion roli muhim omil ekanligi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida, Avloniy pedagogik merosi asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi va ularni zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. Avloniy.’’ Turkiy guliston yohud axloq’’. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.

2. Jadidchilik harakati tarixi va ta’siri. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2015.

3.Ravshanova Nilufar Bahodirovna.[2022,May 28] KREATIV FIKRLASH VA UNI RIVOJLANTIRISH.Practical Conference.

4. O. Hasanboyeva, J. Hasanboyeva, H. Hamidov. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.

5. A. Avloniy.’’ Turkiy guliston yohud axloq’’. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.

6. A. Avloniy.’’ Turkiy guliston yohud axloq’’. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.

7 . A. Avloniy.’’ Turkiy guliston yohud axloq’’. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.

8. A. Avloniy.’’ Turkiy guliston yohud axloq’’. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.

9. Mirzaliyeva, D. “Kreativ fikrlashning pedagogik asoslari”. – Toshkent, 2025. – 10 Karimov, N. “Zamonaviy ta’limda an’anaviy yondashuvlar”. – Toshkent, 2024.

HAMZA PEDAGOGIK MEROSINING UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAZMUNIDAGI O‘RNI: HOZIRGI HOLAT VA TAKLIFLAR

Mo‘minaxon BAXTIYOROVA,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Tezisda Hamza Hakimzoda Niyoziy merosining umumiy o‘rta ta’lim mazmunidagi o‘rni ikki davrda - sovet va mustaqillik davrlarida - qiyosiy tahlil qilinadi. Sovet davri dasturida ajratilgan 10-12 soatning yarmidan ko‘pi manba ishonchliligi jihatidan cheklangan (V darajasidagi) matnga berilgani aniqlanib, buning ta’lim mazmuniga ta’siri baholanadi. Mustaqillik davrida soatlarning qisqarishi o‘rin almashtirish bilan emas, olib tashlash bilan amalga oshirilgani - ya’ni mafkuraviy matnlar chiqarilib, ularning o‘rniga ma’rifiy-pedagogik meros kiritilmagani - asosiy ziddiyat sifatida ko‘rsatiladi. Darsliklarda Hamza shaxsini yoritishga doir to‘rtta taklif va xrestomatiyaga kiritish uchun tavsiya etilgan parchalar ro‘yxati taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim mazmuni, o‘quv dasturi, darslik, manba ishonchliligi, rekonstruktsiya qilingan matn, matnshunoslik madaniyati, milliy pedagogik meros, tanqidiy tafakkur.

Abstract. The thesis presents a comparative analysis of the role of Hamza Hakimzoda Niyoziy's heritage in general secondary education content across two distinct eras: the Soviet period and the independence era. It reveals that more than half of the 10–12 hours allocated in the Soviet curriculum was dedicated to a text with limited source reliability (Level V), and evaluates its impact on educational content. The study highlights a core contradiction in the independence era: the reduction of hours was carried out through elimination rather than replacement—

meaning ideological texts were removed, but his educational and pedagogical heritage was not introduced in their place. Finally, the thesis offers four proposals for presenting Hamza's personality in textbooks and recommends a list of excerpts to be included in chrestomathies.

Keywords: educational content, curriculum, textbook, source reliability, reconstructed text, textual criticism culture, national pedagogical heritage, critical thinking.

Milliy pedagogik merosni ta’lim mazmuniga kiritish masalasi odatda miqdoriy tarzda - “necha soat ajratilgan?” degan savol shaklida qo‘yiladi. Vaholanki, tarixiy-pedagogik nuqtai nazardan bundan muhimroq ikkita savol mavjud: o‘quvchi qaysi matn orqali meros bilan tanishadi va mazkur matn manba sifatida qanday ishonchlilik darajasiga ega? Ushbu ikkita savol ta’lim mazmuni bilan manbashunoslik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ochib beradi va aynan ular mazkur tezisning predmetini tashkil etadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) merosi misolida masalaning dolzarbligi ikki tomonlama. Bir tomondan, u maktab dasturida uzoq vaqt keng o‘rin egallagan ijodkor; ikkinchi tomondan, uning merosi aynan dasturda aks etgan shaklda jiddiy manbaviy muammolarga ega bo‘lgan. B.Abdurahmonova ta’kidlaganidek, “o‘zbek maktablari va pedagogikasi tarixini Hamza Hakimzoda Niyoziysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi”, ammo bugungi o‘quvchilar “faqat 7-sinfi uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida berilgan Hamzaning she’rlarini o‘rganish bilan kifoyalanyaptilar” [6].

Tezisning maqsadi - Hamza merosining umumiy o‘rta ta’lim mazmunidagi o‘rnini ikki davrda qiyosiy tahlil qilish, aniqlangan ziddiyatlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan baholash va darsliklarda meros hamda shaxsni yoritishga doir aniq takliflar ishlab chiqishdir.

Sovet davri dasturidagi holat: soatlar va ularning manbaviy tahlili

XX asrning 60-90-yillarida maktab amaliyotida Hamza merosi keng o‘rin egallagan: o‘quvchilar 5-8-sinflarda shoirning sakkizta she’rini o‘rganganlar; 10-sinfda “Hamza poeziyasi” mavzusiga ikki soat, “Boy ila xizmatchi” dramasiga esa 6-7 soat ajratilgan. Jami 10-12 soat vaqt berilgan [6].

Mazkur raqamlar miqdoriy jihatdan salmoqli ko‘rinadi, ammo ularni manbashunoslik nuqtai nazaridan baholash boshqa manzarani ochadi. Ajratilgan 10-12 soatning yarmidan ko‘pi - 6-7 soati - aynan matni boshqa muallif tomonidan tiklangan asarga berilgan. “Boy ila xizmatchi”ning muomaladagi matni 1939 yilda dramaturg K.Yashin tomonidan tiklangan; nashr izohlarida ochiq yozilganidek, asarning “asl teksti... hali topilgani yo‘q” [1; 2]. Demak, bir necha avlod o‘quvchilari Hamza ijodi haqidagi asosiy tasavvurni manba ishonchliligi jihatidan

cheklangan - taklif etilayotgan uch darajali shkala bo‘yicha V darajasidagi - matn orqali shakllantirgan.

Holatning pedagogik oqibati uchta jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, o‘quvchida meros haqida manbaga tayanmagan tasavvur shakllangan. Ikkinchidan, dars materialining o‘zi mafkuraviy talqinni takrorlagan: asar sinfiy kurash nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Uchinchidan - va pedagogika fani uchun eng muhimi - Hamzaning pedagog sifatidagi faoliyati, uning darsliklari va didaktik tizimi dasturda umuman aks etmagan. Buning ob’yektiv sababi manbaviydir: pedagogik risolalarning to‘liq matni faqat 1988 yilgi besh jildlik nashrda muomalaga kiritilgan [1].

Mustaqillik davri: qisqartirishning tabiati va asosiy ziddiyat

Mustaqillik davrida vaziyat keskin o‘zgardi. Akademik N.Karimov ta’kidlaganidek, sovet davrida Hamzaga yopishtirilgan “o‘zbek sovet adabiyotining asoschisi va yalovbardori” yorlig‘i “unga nisbatan munosabatning mustaqillik davrida 180° ga o‘zgarishi va unutila boshlashiga sabab bo‘ldi” [3].

Jarayonning ta’lim sohasidagi oqibati miqdoriy ko‘rsatkichlarda yaqqol kuzatiladi. Dastlabki yillarda Hamza asarlari darsliklarda saqlanib qolgan: 1993 yilda yaratilgan “Vatan adabiyoti” 9-sinf darslik-xrestomatiyasida “Jonlarning jononi Vatan” va “Yig‘la, Turkiston” she’rlari, shu yili nashr etilgan “XX asr o‘zbek adabiyoti” majmuasida esa tarjimai hol va bir qator she’rlar o‘rin olgan. Keyingi yillarda esa meros amalda 7-sinf “Adabiyot” darsligidagi bir necha she’r bilan chegaralanib qolgan [6]. Ikki davrning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Hamza merosining umumiy o‘rta ta’lim mazmunidagi o‘rni: qiyosiy tavsif

Ko‘rsatkich	Sovet davri (60-90-yillar)	Hozirgi holat
Ajratilgan vaqt	10-12 soat (5-8 va 10-sinflar)	Asosan 7-sinf “Adabiyot” darsligi doirasida
Asosiy o‘quv matni	“Boy ila xizmatchi” dramasi (6-7 soat)	Ayrim she’rlar
Matnning manba darajasi	V (1939 yilgi rekonstruktsiya), o‘quvchiga bildirilmagan	B-V (nashr matnlari), daraja ko‘rsatilmaydi
Hukmron talqin	“Inqilob kuychisi”, sinfiy kurash	Talqin aniq belgilanmagan; mavzu qisqargan
Pedagogik merosning aksi	Mavjud emas	Mavjud emas
Manbashunoslik izohi	Yo‘q	Yo‘q

Jadvaldan ko‘rinadigan asosiy ziddiyat quyidagicha. Soatlarning qisqarishi o‘z-o‘zidan tabiiy va zaruriy jarayon edi: bu soatlarning katta qismi mafkuraviy mazmunga va manba jihatidan ishonchsiz matnga sarflanar edi. Biroq qisqartirish o‘rin almashtirish bilan emas, olib tashlash bilan amalga oshirildi - mafkuraviy matnlar dasturdan chiqarildi, ammo ularning o‘rniga Hamzaning ma’rifatparvarlik va pedagogik merosi kiritilmadi. Holbuki, aynan shu davrda - 1988 yilgi nashrdan keyin - buning manbaviy imkoniyati mavjud edi.

Jadvalning so‘nggi ikki satri diqqatga sazovor: ikkala davrda ham pedagogik meros aks etmagan va ikkala davrda ham o‘quvchiga matnning manba maqomi haqida ma’lumot berilmagan. Demak, baho o‘zgargan, ammo ta’lim mazmunini loyihalash usuli o‘zgarmagan. Bu - tarixiy-pedagogik tadqiqotda “bahoni emas, yondashuvni almashtirish” deb ta’riflanadigan vazifaning maktab ta’limi sohasidagi aniq ifodasidir.

Yuqoridagi tahlil asosida to‘rtta taklif shakllantirildi:

Birinchi taklif. Hamza darsliklarda, avvalo, pedagog va darslik muallifi sifatida taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Bu - uning o‘zbek maktabi tarixidagi real rolini aks ettiradi va ayni paytda she’riyat talqinidagi mafkuraviy bahslardan holi hududdir. Hamzaning 1910-1915 yillarda maktablar ochgani, “Yengil adabiyot” (1914), “O‘qish kitobi” (1914) va “Qiroat kitobi” (1915) kabi o‘quv qo‘llanmalarini yaratgani, kambag‘al va yetim bolalar uchun bepul maktab tashkil etgani - bular hujjatli dalillarga tayanuvchi va bahs tug‘dirmaydigan faktlardir.

Ikkinchi taklif. O‘quv materialiga “Yengil adabiyot” va “Ikkinchi sinf uchun” bo‘limidan parchalar kiritilishi mumkin. Ular birlamchi manba bo‘lib, o‘quvchiga XX asr boshi maktabi haqida bevosita tasavvur beradi: u bir asr avvalgi tengdoshi qanday darslik o‘qiganini, dars qanday tuzilganini va muallif undan nimani kutganini ko‘radi. Mazkur yondashuv adabiy matnni tarixiy manbaga aylantiradi va fanlararo bog‘lanish (adabiyot - tarix) imkonini yaratadi.

Uchinchi taklif. Manba ishonchliligi hisobga olinishi shart. “Boy ila xizmatchi” matni rekonstruktsiya ekani o‘qitish jarayonida o‘quvchiga bildirilishi - matnshunoslik madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Bu - qo‘shimcha yuklama emas, balki mavjud mavzuning sifat jihatidan boyitilishi: o‘quvchi “matn” va “matnning nashri” tushunchalarini farqlashni o‘rganadi. Mazkur ko‘nikma bugungi axborot muhitida o‘quvchining manbaga tanqidiy munosabatini shakllantirishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

To‘rtinchi taklif. Shaxsning ziddiyatlari yashirilmasligi kerak. Yuqori sinflarda Hamza misolida “murakkab davrda yashagan ijodkor” mavzusini muhokama qilish o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Bunda ikki tomonlama bir xillashtirishdan - na madhiyabozlikdan, na inkordan - qochish

zarur: o‘quvchi tarixiy shaxsni bir so‘z bilan baholash mumkin emasligini va baho dalilga tayanishini anglab yetadi.

Takliflarni amalga oshirish uchun o‘quv-metodik ta’minot zarur. Mazkur maqsadda manbalar xrestomatiyasini tayyorlash tavsiya etiladi; unga kiritish uchun tavsiya etilayotgan parchalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Xrestomatiyaga kiritish uchun tavsiya etilayotgan parchalar

Parcha	Manba darajasi	Metodik vazifasi
“Yengil adabiyot”ning muallif so‘zboshisi	A-B	Darslik yaratishdagi loyihali yondashuvni ko‘rsatish: auditoriya, yuklama, til saviyasi
“Ikkinchi sinf uchun” bo‘limidan antonimik juftlikka misol	A-B	Axloqiy tushunchani ziddi orqali o‘zlashtirish usulini amalda ko‘rsatish
“Ilm” maqolasining boshlanishi	A-B	Ilmning qadriyat sifatida asoslanishini birlamchi matnda ko‘rish
“Maktabi “Dor ul-aytom”” maqolasidan parcha	A-B	Bepul ta’lim va imkoniyat tengligi g‘oyasini hujjatli manbada ko‘rsatish
1960 yilgi nashr so‘zboshisidan tanlanma nashr tamoyiliga oid qism	V (talqin hujjati)	O‘quvchi mafkuraviy talqinni birlamchi manbada ko‘rib, o‘zi tahlil qiladi

So‘nggi parchaning kiritilishi metodik jihatdan alohida ahamiyatga ega: o‘quvchiga “sovet davrida matnlar tanlab nashr etilgan” deb aytilmaydi - u buni nashrning o‘z so‘zboshisidan o‘qiydi va xulosani mustaqil chiqaradi. Mazkur yondashuv Hamzaning o‘z metodik tamoyiliga ham muvofiqdir: u “Ikkinchi sinf uchun” bo‘limida hikoyani dalil vazifasida qo‘llagan va o‘quvchini tayyor xulosa bilan emas, qiyos orqali mustaqil xulosaga yo‘naltirgan [1].

XULOSA

1. Ta’lim mazmunini baholashda miqdoriy ko‘rsatkich (ajratilgan soat) yetarli emas: o‘quvchi qaysi matn orqali meros bilan tanishishi va mazkur matnning manba sifatidagi maqomi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Sovet davri dasturida ajratilgan 10-12 soatning 6-7 soati manba ishonchliligi jihatidan cheklangan matnga berilgan. Bu - ta’lim mazmuni bilan manbashunoslik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikning yorqin misolidir.

3. Mustaqillik davrida qisqartirish o‘rin almashtirish bilan emas, olib tashlash bilan amalga oshirildi: mafkuraviy matnlar dasturdan chiqarildi, ammo ularning o‘rniga ma’rifiy-pedagogik meros kiritilmadi. Ikkala davrda ham pedagogik meros dasturda aks etmagan va o‘quvchiga matnning manba maqomi bildirilmagan - demak, baho o‘zgargan, yondashuv esa o‘zgarmagan.

4. To‘rtta taklif shakllantirildi: Hamzani, avvalo, pedagog va darslik muallifi sifatida taqdim etish; o‘quv materialiga birlamchi o‘quv matnlaridan parchalar kiritish; manba ishonchliligini o‘quvchiga ochiq bildirish orqali matnshunoslik madaniyatini shakllantirish; shaxsning ziddiyatlarini yashirmasdan, ular asosida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

5. Takliflarni amalga oshirish uchun manbalar xrestomatiyasi tayyorlanishi lozim; unga nafaqat Hamza matnlari, balki mafkuraviy talqin namunalari ham kiritilishi - o‘quvchining talqinni birlamchi manbada ko‘rib mustaqil tahlil qilishi uchun - metodik jihatdan samarali yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. 2-жилд: Педагогик рисолалар. Наср. - Тошкент: Фан, 1988.

2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Тошкент: Шарқ, 2004.

3. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиёти. - Тошкент: Фан, 2012.

4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: Маънавият, 2002.

5. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. - Тошкент: Университет, 2006.

6. Абдураҳмонова Б. Ҳамза асарларининг таълим босқичларида ўрганилиши масаласи // Педагогик маҳорат, 2020. - № 4.

7. Амонов Ш. Ҳамза шеърияти: манба ва матн тадқиқи // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. - Қўқон, 2019.

8. Султон И. Ҳамза ҳақида сўз // Ёшлик, 1989. - № 3.

XALQ O‘YINLARI – MILLIY-MADANIY MEROS SIFATIDA

Gulira’no IBROHIMOVA,
KU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Xalq o‘yinlari millatning ajralmas bir qismi sifatida e’tirof etiladi. Shu bois ularning tadqiqiga alohida e’tibor berish millat mentalitetini namoyon etishda dolzarblik kasb etadi. Maqolada xalq o‘yinlarining o‘rganilishi bugungi kun tilshunosligida muhim vazifaga aylanganligi hamda ularning milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajribani uzatuvchi mexanizmi sifatida e’tirof etish masalasi ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: xalq o‘yinlari, milliy, millat, folklor, madaniyat, madaniy meros, urf-odat, o‘yin diskursi.

Abstract. Folk games are recognized as an integral part of a nation. Therefore, special attention to their study is relevant for revealing the national mentality. This article examines the study of folk games as an important task in contemporary linguistics and considers their role as a mechanism for transmitting national values, customs, traditions, and social experience.

Keywords: folk games, national, nation, folklore, culture, cultural heritage, customs and traditions, game discourse.

Bugungi kun tilshunosligida til va madaniyat tushunchalarini uzviy holda o‘rganish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Bunga sabab tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning kuchayishi bo‘lib, inson va jamiyat o‘zarobog‘lanishi, jamiyat rivojida inson tili omili, insonning ma’naviy va ma’rifiy yuksalishi kabi masalalar ham so‘nggi davrdagi tadqiqotlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

O‘yin inson va jamiyat rivojida muhim bo‘lgan aspekt hisoblanadi. O‘yinlar inson shaxsiyatini, ongi va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan inson harakatlaridan biridir. O‘yinlarning bevosita millat madaniyati, tafakkuri, milliy o‘zligiga aloqadorligi bor. O‘yinlar nafaqat hordik chiqarish vositasi, balki tarbiya, ijtimoiylashuv va madaniy merosni uzatish shaklidir. Har bir xalqning o‘ziga xos o‘yinlari mavjud bo‘lib, ular milliy mentalitetni aks ettiradi. Shu bois lingvomadaniyatshunoslik sohasida o‘yinlarni, ularning nomlanishi, milliy-madaniy semantikasini o‘rganish madaniyatni til orqali mujassamlanganligini namoyon etadi. Aynan o‘yinlar nomida millat tafakkuri, dunyoqarashining o‘ziga xosligi aks etiladi. O‘yin nomlari milliy olam manzarasining aksi sifatida, millatning yashash tarzi va sharoitlarini, urf-odatlari va an’analarini, millat ongi va mafkurasini namoyon etadi.

So‘nggi davr tilshunoslik sohalarida o‘yinlar, o‘yinlar nomlari, inson hayotida o‘yinlar ahamiyati kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni tobora oshib bormoqda. Shu bois o‘yinlar nomlarini onomasiologik yondashuvi orqali tadqiq qilish, o‘yinlarning milliy xususiyatlarini lingvomadaniyatshunoslik sohasi orqali o‘rganish, o‘yinlar izohi va tasviriga bag‘ishlangan lug‘atlar yaratish orqali leksikografik yondashuvni qo‘llash, o‘yinlarning diaxron yondashuvi orqali kelib chiqishini va ularning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, o‘yin diskursini tadqiq qilishga doir ilmiy izlanishlar tilshunoslik ko‘lamini kengaytirmoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘yinlar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Jahon tilshunosligida o‘yinlar alohida turlarga bo‘linib, sport o‘yinlari, milliy o‘yinlar, harakat o‘yinlari, bolalar o‘yinlari kabi o‘rganilib, turli aspekdan yoritilmoqda.

O‘yinlar har qaysi millatning madaniy merosining muhim bir qismiga aylanib qo‘lganligini e’tirof etish mumkin. O‘yinlar millat an’analari va foklori sifatida jahon tilshunosligida keng o‘rganiladi. Xalq milliy o‘yinlari folklorshunos, madaniyatshunos va tilshunos olimlarning tadqiqotlarida turli aspektda o‘rganilgan. Xususan, M.Smit[11], A.Dundes[10], P.Opie [9] kabi jahon olimlari, O.I.Kapitsa[1], A.N.Martinova[3], M.N.Melnikov[4], V.I.Ustinenko[7], M.Y.Novitskaya[5], Y.Timofeyeva [6] rus olimlari hamda tadqiqotchilari, shu bilan birga O.Safarov[12], F.Jahongirov[8], M.Solihova va S.G‘oziyeva [3] kabi o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan bolalar xalq o‘yinlarining lisoniy va madaniy xususiyatlari o‘rganilgan. Xalq o‘yinlariga bag‘ishlangan adabiyotlar soni ko‘p. Xususan, xalq o‘yinlari tarbiyaviy va didaktik, ilmiy-ommabop, ilmiy adabiyotlar hamda ensiklopedik va folklor lug‘atlarida tasvirlangan.

Hozirgi zamon tilshunosligida xalq o‘yinlarini lisoniy aspektda o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilganligi tufayli tilshunoslikda mazkur masalani tadqiqiga bag‘ishlangan yo‘nalishlar soni tobora oshib bormoqda. Jumaladan, tilshunoslikda “o‘yin diskursi” tushunchasi paydo bo‘lganligini ta’kidlash kerak. A.V.Kuks o‘yin diskursini quyidagi yondashuvlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: ikki o‘lchamli olam orqali yondashuvida insonlar ongidagi real va o‘ydirma olamlarning farqlanishiga e’tibor qaratiladi; o‘yinlarda qo‘yilgan maqsadga asosan yondashuv; o‘yinga qo‘yilgan shartlar asosida yondashuv [2].

Ma’lum bir xalq tomonidan yaratilgan o‘yinlar mazkur xalqning madaniyatini, urf-odatlari va an’analarini, kunda qilinadigan uy ishlarining mohiyatini o‘z ichida mujassamlagan. Ba’zi o‘yinlar qadimiy davrlarga borib taqalib, asrlar davomida ularni yo‘qolishi emas, balki hozirgi davrgacha yetib kelganligini kuzatish mumkin. Shu bois o‘yinlarni millatning madaniy merosi deb, hisoblash mumkin. Folklorshunos olimlar o‘yinlar mohiyatini o‘rganar ekan, ularning tarbiyaviy va insonning ijobiy, ma’naviy, madaniy, jismoniy rivojlanish

ahamiyati mavjudligini ta’kidlashgan. Bolalar o‘yinlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlari bilan mashhur folklorshunos M.N.Melnikov “…bolalar o‘yinlari xalq pedagogik dahosining eng buyuk yutuqlaridan biri ekanligi” [4] haqida ilgari fikr yuritgan.

Xalq o‘yinlari milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida bolalar va kattalar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq o‘yinlari lingvomadaniy birlik sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: til orqali madaniy ma’lumotni saqlaydi; milliy dunyoqarashni aks ettiradi; jamoaviy xotirani saqlaydi. Shuning uchun xalq o‘yinlari nomlarida yoki o‘yinlar jarayonida qo‘llanadigan til birliklari madaniy kod vazifasini bajaradi. Xalq o‘yinlarining lisoniy tadqiqida ularni leksik, fonetik, sintaktik sathlari orqali tadqiq etish bilan birga ramziy va semantik xususiyatlariga ham e’tibor berish o‘yinlarning lingvomadaniy jihatlarini namoyon etadi. O‘yinlarning leksik xususiyatlari tadqiqida xalqona tilga oid so‘zlar qo‘llanilishi, aksariyat holatda ular turli hududlarda dialektal jihatdan farqlanishi ko‘zga tashlanadi. O‘yinlar jarayonida aytiladigan tez aytish va sanamalarda arxaizmlar qo‘llanilishi ularning bugungi kun emas, balki uzoq o‘tmishdan bizning davrlargacha yetib kelganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, o‘yinlar matnda qo‘llanadigan so‘zlar turli ramzlarni ifodalaydi, masalan: ranglar (oq teragu, ko‘k terak), hayvonlar (kuch, ayyorlik, dangasalik), harakatlar (raqobat, kurash) madaniy ma’nolarni bilvosita yetkazadi. Shu bilan birga xalq o‘yinlari jarayonida qo‘llanadigan matnlarda ibora va metaforalarni ham kuzatish mumkin. Shuning uchun o‘yinlarda aytiladigan matnlar alohida lingvistik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligiga ulkan hissa qo‘shiladi deb, ta’kidlash mumkin. Ayniqsa, xalq o‘yinlari jarayonida qo‘llanadigan matnlarni tadqiq qilish tilshunoslikda alohida ajralgan o‘yinlar diskursining o‘zbek tilshunosligida ham rivojlanishini ta’minlashiga olib keladi. Shu bois xalq o‘yinlarini alohida tadqiqot obyekti sifatida diskursiv aspektda o‘rganish millat tafakkur va mentaliteti bilan bog‘langan til tizimining ochilmagan qirralarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi.

O‘zbek xalq o‘yinlari o‘zbek madaniyatining bir qismi sifatida e’tirof etilib, aksariyat o‘yinlar hozirgi davrgacha yetib kelib, yosh avlodni tarbiyalashda alohida o‘rin egallab kelmoqda. O‘yinlar millatning madaniy hayot tarzi bilan uyg‘unlashib rivojlanadi. Shuning uchun o‘yinlarning tarixiy rivojlanishini xalq madaniyatidan alohida o‘rganish mumkin emas. Xalq o‘yinlarining shakllanishi va rivojlanishiga borliq, tabiat, tabiat qonunlari ta’sir etadi. Har qaysi jamiyatda xalq o‘yinlari insonning mehnat va har kungi faoliyatini aks etadi. Xalq o‘yinlari ashula, raqs, she’r va musiqa bilan bog‘langan. Shuning uchun xalq o‘yinlarini alohida janr sifatida e’tirof etish kerak.

Xalq o‘yinlari lingvomadaniy hodisa sifatida til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini aks ettiradi. Ular bollalarning nutqiy, madaniy va ijtimoiy rivojida muhim vazaifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Капица О.И. Детский фольклор: песни, потешки, дразнилки, сказки, игры. – Ленинград: Прибой, 1928. – 222 с.
2. Кукс А.В. Конструирование речевой маски в игровом дискурсе: на материале видеотекстов юмористических выступлений: Дисс…канд.фил.наук. – Новосибирск, 2010. – С.10.
3. Мартынова А.Н. Художественный мир ребенка // Потешки, считалки, небылица. – Москва, 1989. – С.5-20.
4. Мельников М.Н. Русский детский фольклор. – М.:Просвещение, 1987. – С.105-106.
5. Новицкая М.Ю., Науменко Г.М. Раз, два, три, четыре, пять, мы идём с тобой играть // Русский детский игровой фольклор / Сост. М.Ю.Новицкая, Г.М.Науменко. – М., 1995. – 224 с.
6. Тимофеева Е.А. Подвижные игры с детьми младшего дошкольного возраста. – М.: Просвещение, 1986. – 79 с.
7. Устиненко В.И. Место и роль игрового феномена в культуре // Философские науки. – 1980. – №2. – С.48-54.
8. *Jahongirov F. O‘zbek bolalar folklori.* – T., 1975. – 122b; O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T., 1980.
9. Bronner S.J. The meaning of folklore. Analytical essays of Alan Dundes. – Utah state University Press, 2007. – 473p.
10. Opie I., Opie P. Children’s games in street and playground. – Oxford, MA: Oxford University Press, 1969.
11. Smith B. Overview children’s folklore concerns. – Utah State University Press, 1999. – 392p.
12. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori. – T., 1985.
13. Солиҳова М., Ғозиева С. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун халқ ўйинлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 68 б.

IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH: INTERFAOL USULLAR, TALAFFUZ MASHQLARI VA BAHOLASH

Soxibjamol TANGATAROVA,
KU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitiladigan sinflarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda interfaol usullarning o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbek va rus tillaridagi tovush jihatdan yaqin so‘zlarni qiyoslashga asoslangan talaffuz mashqlari taklif etilgan. Gapirish ko‘nikmasini baholash mezonlari va topshiriq turlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: gapirish ko‘nikmasi, og‘zaki nutq, interfaol usullar, rolli o‘yin, talaffuz mashqlari, qiyosiy metod, baholash mezonlari.

Abstract. The article analyzes the role of interactive methods in developing speaking skills in classes where Uzbek is taught as a second language. Pronunciation exercises based on comparing phonetically similar words in Uzbek and Russian are proposed. Criteria for assessing speaking skills and types of assessment tasks are developed.

Keywords: speaking skill, oral speech, interactive methods, role play, pronunciation exercises, contrastive method, assessment criteria.

Bugungi kunda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish tizimini takomillashtirish, uni o‘rganishning zamonaviy va samarali usullarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan[12]. Ayniqsa, o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘rganiladigan sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Chunki tilni bilishning asosiy ko‘rsatkichi – undan muloqotda erkin foydalana olishdir.

Amaliyotda o‘quvchilar grammatik qoidalarni bilsalar-da, fikrini og‘zaki ifodalashda qiynaladilar, talaffuzda esa ona tili ta’sirida xatoga yo‘l qo‘yadilar. Maqolaning maqsadi – gapirish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi interfaol usullar, talaffuz mashqlari va baholash tizimini metodik jihatdan asoslashdan iborat.

O‘zbek tili mashg‘ulotlarida interfaol usullar og‘zaki nutqni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol suhbatdosh sifatida shakllantiradi. J. Richards va T. Rodjersning

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 20-oktyabr.

ta’kidlashicha, kommunikativ yondashuvda o‘quvchi bilim oluvchi emas, muloqot ishtirokchisi bo‘lib, uning faoliyati ma’no almashishga yo‘naltiriladi[13].

Dars davomida o‘quvchilar savol-javob, juftlikdagi muloqot, guruhli muhokama va vaziyatli topshiriqlar orqali o‘z fikrini aytishga, boshqalarni tinglashga hamda munosabat bildirishga o‘rganadilar. Interfaol metodlar o‘quvchilar faolligini oshirish va o‘quv jarayonini hamkorlik asosida tashkil etish vositasi sifatida qaraladi[14].

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarni kundalik hayotga yaqin nutqiy vaziyatlarga olib kiradi. Masalan, xarid qilish, yo‘l so‘rash, xizmat ko‘rsatish joyida murojaat qilish yoki do‘st bilan suhbatlashish kabi topshiriqlar orqali ular til birliklarini real muloqotda ishlatishni mashq qiladilar. G. Ladussning fikricha, rolli o‘yin tortinchoq o‘quvchilarga “niqob” vazifasini o‘taydi: o‘quvchi o‘zi emas, balki qahramon nomidan gapirgani uchun xato qilishdan kamroq cho‘chiydi[15].

Ijodiy topshiriqlar – qisqa hikoya, dialog yoki kichik sahna ko‘rinishi yaratish o‘quvchining lug‘at zaxirasini boyitadi, rasm, audio va videolavhalar asosida fikr bildirish esa darsni jonlantiradi. Natijada gapirish ko‘nikmasi bosqichma-bosqich barqaror malakaga aylanadi

(1-jadval).

№	Interfaol usul	Tavsif	Nutqiy natija
1	Suhbat va savol-javob	O‘quvchilar mavzuga oid savollar orqali fikr almashadi, boshqalarni tinglaydi va o‘z fikrini bildiradi.	Suhbatni boshlash va davom ettirish ko‘nikmasi
2	Rolli o‘yin	Hayotiy vaziyatlar (do‘konda xarid qilish, yo‘l so‘rash, do‘st bilan suhbat) turli rollarda ijro etiladi.	Kundalik vaziyatlarda til birliklarini qo‘llash malakasi
3	Munozara (debat)	Muayyan masala bo‘yicha qarama-qarshi pozitsiyalar ifodalanadi va himoya qilinadi.	Qarama-qarshi fikrga munosabat bildirish
4	Vaziyatli dialog	Berilgan nutqiy vaziyat va maqsad asosida dialog tuziladi.	Nutqiy maqsadga mos ifoda tanlash
5	Rasm, audio va videolavha asosida fikr bildirish	Ko‘rilgan yoki eshitilgan material yuzasidan og‘zaki fikr bildiriladi.	Ko‘rgan yoki eshitganini og‘zaki bayon qilish

[13] Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[14] Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
[15] Ladousse G.P. Role Play. – Oxford: Oxford University Press, 1987.

Talaffuz mashqlari gapirish ko‘nikmasining fonetik poydevorini yaratadi. Ular so‘zlarni to‘g‘ri aytish, urg‘uni o‘rinli qo‘yish, ohangni boshqarish va nutqni ravonlashtirishga xizmat qiladi. Bunda alifbo va tovush mashqlari, so‘z va iboralarni takrorlash, dialog mashqlari, matnni ovozli o‘qish hamda o‘z talaffuzini audiomaterial bilan qiyoslash kabi usullardan foydalaniladi.

O‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitilganda, mashqlarni o‘quvchining ona tilidagi tovushlar bilan taqqoslab olib borish talaffuzdagi farqlarni anglashga yordam beradi. L.V. Shcherba ikkinchi tilni o‘rgatishda ona tili tizimi bilan ongli qiyoslash interferensiya xatolarining oldini olishini asoslab bergan edi[16]. O‘zbek tilidagi o unlisi rus tilidagi o dan farqli ravishda keng, orqa qator unli sifatida talaffuz qilinadi; rus tilida esa undoshlarning qattiq-yumshoqligi ma’no farqlovchi ahamiyatga ega (бол – боль). Mashqlar uchun tovush jihatdan yaqin, ammo talaffuz nozikliklari va ma’nosi bilan farqlanadigan so‘zlar juftligidan foydalanish mumkin

(2-jadval).

O‘zbekcha so‘z	**Ma’nosi**	**Ruscha so‘z**	**Ma’nosi**
bol	asal	боль	og‘riq
sol	daryoda suziladigan sol	соль	tuz
son	miqdor, raqam	сон	uyqu
tok	uzum ko‘chati	ток	elektr toki
tom	uyning tomi	том	jild (kitob)
shum	sho‘x, yaramas	шум	shovqin

Ushbu so‘zlar asosida quyidagi mashqlarni tashkil etish mumkin:

1. Tovushlarni taqqoslash. O‘qituvchi juft so‘zni o‘qiydi (bol – боль, tok – ток, sol – соль), o‘quvchi qaysi tovush farq qilayotganini aniqlaydi va har ikkisini to‘g‘ri talaffuz qiladi.

2. Ma’nosini ajratish. O‘quvchi so‘zning qaysi tilga mansubligini va ma’nosini aytadi: shum (o‘zb. – sho‘x) – шум (rus. – shovqin); tom (o‘zb. – uyning tomi) – том (rus. – jild).

[16] Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. – М.: Высшая школа, 1974.

3. “Qaysi tilniki?” o‘yini. O‘qituvchi so‘zlarni aralashtirib aytadi (sol, соль, son, сон, shum, шум), o‘quvchi ularni ajratadi. Bu eshitish xotirasi va tezkor fikrlashni rivojlantiradi.

Bunday mashqlar ona tili ta’sirida yuzaga keladigan talaffuz xatolarini kamaytirib, og‘zaki nutqning adabiy me’yorlarga mos shakllanishiga xizmat qiladi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish faqat mashq bajarish bilan cheklanmasligi, balki baholovchi topshiriqlar orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Bunday topshiriqlar o‘quvchining gapirish darajasini kuzatish, xatolarni aniqlash va keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilash imkonini beradi. Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq (3-jadval).

3-jadval

Gapirish ko‘nikmasini baholash mezonlari

№	Mezon	Nimaga e’tibor beriladi	Ball
1	Talaffuz aniqligi	Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘u va ohangning mosligi	0–4
2	Grammatik to‘g‘rilik	Gaplarni grammatik qoidalarga muvofiq tuzish, qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash	0–4
3	Leksik boylik	Vaziyatga mos va xilma-xil so‘z hamda iboralardan foydalanish	0–4
4	Izchillik va ravonlik	Fikrni mantiqan bog‘liq, uzilishlarsiz bayon etish	0–4
5	Kommunikativlik	Muloqotda faol ishtirok etish, savol berish va javob qaytarish, mustaqil munosabat bildirish	0–4
	Jami		20

Ballar yig‘indisi o‘quvchining umumiy nutqiy darajasini, har bir mezon bo‘yicha ball esa qaysi jihat ustida ko‘proq ishlash kerakligini ko‘rsatadi.

H.D. Braun baholovchi topshiriqlarni taqlidiy, intensiv, javob qaytarishga asoslangan, interaktiv va kengaytirilgan (monologik) turlarga ajratadi[17]. Ushbu tasnifga tayangan holda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. So‘zdan gap tuzish – o‘quvchi berilgan so‘z yoki so‘z birikmalari asosida gap tuzib, og‘zaki aytadi (masalan: kutubxona, kitob, olmoq).
2. Rasm asosida hikoya qilish – o‘quvchi rasm yoki rasmlar ketma-ketligi bo‘yicha 5–7 gapdan iborat hikoya tuzadi.

[17] Brown H.D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. – White Plains, NY: Pearson Longman, 2004.

3. Vaziyatli dialog – ikki o‘quvchi berilgan vaziyat (masalan, “Do‘konda”) asosida dialog tuzib ijro etadi.

4. Mavzu bo‘yicha monolog – o‘quvchi tanish mavzuda (“Mening oilam”, “Sevimli kasbim”) 1–2 daqiqa davomida gapiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitiladigan sinflarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uch yo‘nalishda olib borilganda samarali bo‘ladi: interfaol usullar o‘quvchini faol muloqot ishtirokchisiga aylantiradi; ona tili bilan qiyoslashga asoslangan talaffuz mashqlari fonetik xatolarni kamaytiradi; aniq mezonlarga tayangan baholash esa o‘quvchining haqiqiy gapirish imkoniyatini ko‘rsatib, uni keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 20-oktyabr.

2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

3. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. – М.: Высшая школа, 1974.

4. Brown H.D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. – White Plains, NY: Pearson Longman, 2004.

5. Ladousse G.P. Role Play. – Oxford: Oxford University Press, 1987.

6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

O‘ZBEK OG‘ZAKI XALQ IJODINING KICHIK VA O‘RTACHA HAJMLI JANRLARIDA AXLOQIY-TARBIYAVIY FUNKSIYA MASALASI

Zumradxon Teshaboyeva,
Renessans ta’lim universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
zumradteshaboyeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5769-707X

Annotatsiya. Tezisda o‘zbek og‘zaki xalq ijodining kichik va o‘rtacha hajmli janrlarida (ertak, hayvonlar haqidagi ertak, sanama, alla, “Kelin salom” qo‘shiqlari, lof) axloqiy-tarbiyaviy funksiya masalasi ko‘rib chiqiladi. Jahongirov, Afzalov, Avezov, Ismonova va Safarov kabi folklorshunoslar materiallari asosida kichik

janrlardagi didaktik xulosalarning kognitiv, emosional-qiymat va xulq-atvor komponentlari tahlil qilinadi hamda ularning yirik qahramonlik dostonlari (jumladan “Go‘ro‘g‘li” turkumi)dagi pedagogik mexanizmlar bilan tipologik bog‘liqligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, kichik janrlar, axloqiy-tarbiyaviy funksiya, xalq pedagogikasi, ertak, qahramonlik eposi.

Abstract. The thesis examines the moral-educational function of small and medium-sized genres of Uzbek oral folklore (fairy tales, animal tales, sanama songs, lullabies, “Kelin salom” wedding songs, and lof). Drawing on the folklore scholarship of Jahongirov, Afzalov, Avezov, Ismonova, and Safarov, it analyzes the cognitive, emotional-value, and behavioral components of the didactic conclusions embedded in these genres and establishes their typological connection to the pedagogical mechanisms found in heroic epic cycles such as “Go‘ro‘g‘li.”

Keywords: oral folklore, minor genres, moral-educational function, folk pedagogy, fairy tale, heroic epic.

Mustaqillik yillarida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi, bu borada xalq og‘zaki ijodi namunalari — ertaklar, qo‘shiqlar, alla va boshqa kichik hamda o‘rtacha hajmli janrlar — tarbiyaviy salohiyati yuksak manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Yirik hajmli qahramonlik dostonlari (jumladan “Go‘ro‘g‘li” turkumi) bilan bir qatorda, kichik janrlarning ham o‘ziga xos, aniq va ko‘lamli didaktik vazifasi mavjudligini ko‘rsatish mazkur tezisning maqsadini tashkil etadi, chunki bu ikkala janr guruhi o‘rtasidagi tipologik umumiylikni aniqlash yirik epik matnlardagi tarbiyaviy mexanizmlarni metodologik jihatdan yanada asosliroq tahlil qilish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, folklorshunoslik fanida kichik janrlar ko‘pincha yirik epik asarlar (doston, qahramonlik eposi)dan alohida, mustaqil obyekt sifatida o‘rganiladi, ularning o‘zaro funksional-tipologik aloqadorligi esa, ayniqsa pedagogika fani nuqtai nazaridan, yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan. Mazkur tezisda qo‘yilgan vazifa — kichik va o‘rtacha hajmli janrlardagi tarbiyaviy-didaktik xulosalarning umumiy tuzilishini (obrazlar qarama-qarshiligi, aniq axloqiy xulosa, yosh darajasiga moslik) aniqlash va shu orqali ularni yirik qahramonlik dostonlaridagi pedagogik mexanizmlar bilan qiyoslash uchun nazariy ko‘prik yaratishdan iborat.

Ertak janrining tarbiyaviy vazifasi o‘zbek folklorshunosligida keng tadqiq etilgan. G‘.Jahongirov bu borada rus folklorshunosi G.S.Vinogradovdan keltirgan iqtibos orqali ertakchilikning xalq pedagogikasidan ilmiy pedagogikaga o‘tish yo‘lini ko‘rsatadi: “Ertakchilik qadimdan bor, uning formalari juda puxta

ishlangan, u hozirgi vaqtgacha xalq pedagogikasi tomonidan muvaffaqiyat bilan foydalanib kelingan edi, keyingi vaqtda esa ilmiy pedagogikaga ham o‘tdi” [1, 129-b.]. K.D.Ushinskiydan keltirilgan metodik kuzatuv esa og‘zaki ijrochilikning ko‘p sezgili ta’sir mexanizmini ochib beradi: “Bolaning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini — ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul, sezgi... esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak” [1, 137-b.]. Jahongirovning o‘z xulosasi esa ertakning yosh avlodga yo‘naltirilgan aniq maqsadini ifodalaydi: “Ular o‘tmishda o‘z xalqining orzu-umidini, tilak va istaklarini ertak orqali bayon qilganlar, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajak hayotga, istiqbol uchun kurashga, eng yaxshi sifatlarga ega bo‘lgan kishilar bo‘lib yetishishga undaganlar” [1, 131-b.], shuningdek “xalq pedagogikasi” tushunchasini yana bir bor mustahkamlaydi: “Xalqning pedagogikasi uzoq davrlardan buyon ibratomuz, pand-nasihat, didaktik ertaklardan muvaffaqiyat bilan foydalanib keladi” [1, 136-b.]. Mazkur uch iqtibos birgalikda shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki epik matn orqali tarbiya berish hodisasi nafaqat o‘zbek, balki umumfolklorshunoslik miqyosida tan olingan, nazariy asoslangan yo‘nalishdir.

Hayvonlar haqidagi ertaklar misolida tarbiyaviy funksiya yana ham aniqroq, konkret shaklda namoyon bo‘ladi. M.Afzalov bu janrning umumiy vazifasini quyidagicha ta’riflaydi: “Hayvonlar haqidagi ertaklardan tinglovchilar, o‘quvchilar yaxshini yomondan, to‘g‘rini egridan, soddani ayyordan, yalqovni ishchandan, ochko‘zni saxiydan, ahmoq, nodonni aqllidan, mardni nomarddan ajratishni o‘rganadilar” [2, 88-b.]. Bu — obrazlar qarama-qarshiligi (antiteza) orqali axloqiy tafovutni o‘rgatish mexanizmi bo‘lib, u aniq matn namunalarida ham izchil kuzatiladi. “Egri va to‘g‘ri” ertagining maqsadi haqida muallif shunday yozadi: “Bu ertakdan maqsad kishilarni to‘g‘ri, sofdil, do‘stga mehribon, xiyonat qilmaslik kabi ijobiy axloq normalari asosida tarbiyalashdir” [2, 86-b.]. “Duradgor bilan maymun” ertagining didaktik xulosasi esa o‘z chegarasini bilish zarurligini ko‘rsatadi: “Bundan chiqadigan didaktik, axloqiy xulosa — “Har kim o‘zi bilgan ishni qilishi kerak. Bilmagan ishning uddasidan chiqa olmay, maymunga o‘xshab sharmanda bo‘lib qolmasligi kerak” demakdir” [2, 85-b.]. “Susambil” ertagida jamoaviy birlik g‘oyasi tarbiyalanadi — unda “o‘tmishda mehnatkash xalq ommasining yaxshi, tinch, farovon, adolatli hayot kechirish orzusi ifodalangan” [2, 84-b.], “Ovchi, Ko‘kcha va Dono” ertagidan esa “kuch birlikda, agar ko‘pchilik birlashib, ahil bo‘lib yashasa, har qanday dushman ham bularni yenga olmaydi” degan xulosa chiqariladi [2, 84-b.]. Mazkur to‘rt misol (To‘g‘rivoy-Egrivoy, Duradgor-maymun, Susambil, Ovchi-Ko‘kcha-Dono) kichik janrdagi har bir matn ortida aniq, konkret axloqiy xulosa turganini ko‘rsatadi — bu tamoyil,

kengaytirilgan shaklda, yirik qahramonlik dostonlaridagi epizodlar tahlilida ham metodologik asos bo‘la oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, antiteza (musbat va manfiy obrazlar qarama-qarshiligi) orqali tarbiyalash mexanizmining samaradorligi uning kognitiv aniqligida ko‘rinadi: tinglovchi murakkab, ko‘p qirrali axloqiy tushunchani (masalan, “sofdillik” yoki “mehnatsevarlik”) mavhum ta’rif orqali emas, balki uning teskarisi (ayyorlik, yalqovlik) bilan bevosita qiyoslangan holda idrok etadi, bu esa tushunchaning yodda qolishi va emosional-qiymat darajasida o‘zlashtirilishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Xuddi shu kognitiv-qiyoslash tamoyili — musbat va manfiy qutblarning aniq, betakror obrazlar orqali qarama-qarshi qo‘yilishi — yirik qahramonlik dostonlarida ham, faqat ancha kengaytirilgan, ko‘p epizodli shaklda takrorlanadi, bu esa kichik va yirik janrlar o‘rtasidagi uzviy metodologik bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Oila va jamoa marosimlari bilan bog‘liq kichik janrlarda ham o‘xshash tarbiyaviy funksiya kuzatiladi. S.Avezov sanama janri haqida “Unday sanamalar bolalar o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro do‘stlik kayfiyatlarini uyg‘otibgina qolmaydi, balki chuqurlashtiradi” deb yozadi [3, 539-b.], O.Ismonova esa “Kelin salom” qo‘shiqlari haqida “xalq ta’lim-tarbiya usulining betakror namunasi... inson aqlini, aql orqali hissiyotni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi” deb ta’kidlaydi [4, 548-b.]. Oila tarbiyasining boshlang‘ich bosqichi — alla janri haqida esa O.Safarov Abu Ali ibn Sinodan quyidagi tarixiy iqtibosni keltiradi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri — bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi — uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir” [5, 314-b.]. Bu misollar majmui folklor janrlarining yosh darajasiga qarab tabaqalashganini, lekin barchasida barqaror kuzatiladigan tarbiyaviy vazifani tasdiqlaydi — tinglovchi yoshi ortib borishi bilan, janrlar ham sodda alla-sanamadan to murakkab, ko‘p qatlamli qahramonlik eposigacha bo‘lgan izchil tizimni tashkil etadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan misollarni umumlashtiruvchi nazariy model — tarbiyaviy ta’sirning kognitiv, emosional-qiymat va xulq-atvor komponentlari asosida quyidagicha tavsiflash mumkin: Jahongirov ko‘rsatgan ko‘p sezgili ta’sir mexanizmi (ko‘z, quloq, tovush, harakat orqali idrok) asosan kognitiv komponentga, Avezov va Ismonova ko‘rsatgan hamjihatlik va emosional aloqa hissiyoti esa emosional-qiymat komponentiga, Afzalov tahlil qilgan aniq axloqiy xulosalar (“to‘g‘ri bo‘l”, “o‘z chegarangni bil”, “birlashib yasha”) esa bevosita xulq-atvor komponentiga yo‘naltirilgan. Demak, kichik janrlarning har biri alohida-alohida, lekin majmuan barcha uch komponentni qamrab oluvchi yaxlit tarbiyaviy tizimni tashkil etadi — bu struktura pedagogika fanida “tarbiya mexanizmi” tushunchasining umumnazariy negizini kichik janrlar misolida ham

empirik tarzda isbotlaydi va uni yirik epik matnlar tahliliga tatbiq etish uchun ishonchli metodologik asos beradi.

Ushbu yosh-darajaviy tizimni diqqat bilan kuzatsak, u tasodifiy emas, balki shaxs kamolotining tabiiy bosqichlariga mos ravishda shakllangan izchil pedagogik zanjirni tashkil etadi: alla — go‘daklikdagi dastlabki emosional-ruhiy aloqa va xotirjamlik hissini shakllantirsa, sanama va bolalar ertaklari — bolalik davrida jamoaviylik va oddiy axloqiy farqlash ko‘nikmalarini singdiradi, “Kelin salom” kabi oilaviy-marosim qo‘shiqlari esa — o‘smirlik va voyaga yetish bosqichida oilaviy qadriyatlar va insonlararo munosabat me’yorlarini mustahkamlaydi. Yirik qahramonlik dostonlari, o‘z navbatida, katta yoshdagi (o‘smir va katta) tinglovchiga mo‘ljallangan holda, xuddi shu tizimning eng yuqori, eng murakkab bosqichini — jamiyat, vatan va adolat tushunchalari darajasidagi axloqiy tanlovni — qamrab oladi.

Kichik janrlarning yirik qahramonlik dostonlari bilan bevosita aloqadorligi alohida misolda ham ko‘rinadi: B.Sarimsoqov “lof” janrini tahlil qilar ekan, “Go‘ro‘g‘li” turkumidan bevosita misol keltiradi — “Balogardon” dostonida “Qo‘hi Qofga parilarni, G‘irotni qaytarib olib kelish uchun ketayotgan Avazxon Balo tog‘ida lof ishlatish orqali baloning changalidan omon qoladi va o‘z maqsadiga erishadi” [6, 162-b.]. Mazkur yagona, lekin aniq misol shuni ko‘rsatadiki, kichik janrlar (lof, topishmoq, maqol) yirik epik matn (doston) ichida mustaqil kompozision unsur sifatida ham ishtirok etishi mumkin — bu holat “Go‘ro‘g‘li” kabi qahramonlik dostonlarining tarkibiy jihatdan kichik janrlar bilan uzviy bog‘liqligini, demak ularning tarbiyaviy-didaktik mexanizmlarini ham umumfolklor kontekstida qiyoslab o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu tezis Sh.Turdimovning umumlashtiruvchi fikri bilan ham tasdiqlanadi: “Har bir xalqning voqelikka o‘z estetik munosabati mavjud. Bunday munosabat... birinchi galda, yirik hajmli epik asar — dostonlarda o‘zining badiiy ifodasini topgan bo‘ladi” [7, 3-b.].

Mazkur dalil (lof janrining “Go‘ro‘g‘li” matni ichida mustaqil unsur sifatida qayd etilishi) kengroq metodologik xulosaga olib keladi: yirik qahramonlik dostonlari ichida kichik janrlarning boshqa namunalari (masalan, qahramon nutqida uchraydigan maqol va matallar, topishmoqsimon sinov savollari, alla ohangidagi epizodlar) ham mavjud bo‘lishi ehtimoli yuqori, lekin bu masala hozirgacha alohida, tizimli inventarizatsiya ob’yekti bo‘lmagan. Demak, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi pedagogik mexanizmlarni kelgusida chuqur tahlil qilishda, uning tarkibidagi kichik janr unsurlarini ham alohida ajratib ko‘rsatish — bu ikki janr guruhi (kichik va yirik) o‘rtasidagi tarbiyaviy-uslubiy aloqadorlikni yanada to‘liqroq ochib berish imkonini beradi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, kichik janrlardagi tarbiyaviy vazifa ko‘pincha janrning ijro konteksti (qachon, qayerda, kim tomonidan ijro etilishi) bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshadi: alla onalar tomonidan faqat uy sharoitida, sanama esa ko‘proq bolalar o‘rtasidagi o‘yin jarayonida, “Kelin salom” qo‘shiqlari esa to‘y marosimida, jamoa ishtirokida kuylanadi. Bu — tarbiyaviy ta’sirning matn (so‘z) bilan bir qatorda, ijro vaziyati (kontekst) orqali ham amalga oshishini ko‘rsatadi: bolalar alla yoki sanamani mustaqil, kitobdan o‘qib emas, balki jonli ijro — onalik mehri yoki bolalar jamoasi ishtirokidagi o‘yin — orqali qabul qiladi, bu esa tarbiyaviy ta’sirning emosional teranligini yanada oshiradi. Xuddi shu tamoyil — matn va ijro kontekstining birligi — qahramonlik dostonlari (jumladan “Go‘ro‘g‘li” turkumi)ning baxshi ijrosida, elga ochiq to‘y-tomoshalarda kuylanishi orqali ham saqlanib qolgan, bu esa kichik va yirik janrlar o‘rtasidagi yana bir muhim tipologik umumiylikni — jonli ijro an’anasining tarbiyaviy ahamiyatini — ko‘rsatadi.

Kichik janrlarning zamonaviy ta’lim amaliyotidagi o‘rni ham alohida e’tiborga loyiq masala: alla va sanamalar maktabgacha ta’lim muassasalarida, ertaklar esa boshlang‘ich sinf dasturlarida keng qo‘llanilsa-da, ularning aynan axloqiy-tarbiyaviy salohiyati (shunchaki badiiy-estetik vosita emas, balki konkret pedagogik mexanizm sifatida) o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan metodik tavsiyalarda yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur tezisda ko‘rsatilgan uch komponentli (kognitiv, emosional-qiymat, xulq-atvor) tahlil modeli xuddi shu bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni kichik janrlardan ta’lim jarayonida maqsadli, aniq pedagogik natijaga yo‘naltirilgan holda foydalanish metodikasini ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin. Bunday metodika, ayniqsa, ota-onalar va tarbiyachilar uchun mo‘ljallangan amaliy qo‘llanmalarda — qaysi yoshda qaysi janr, qanday maqsadda qo‘llanilishi lozimligini aniq ko‘rsatgan holda — ishlab chiqilishi mumkin, bu esa xalq pedagogikasi merosining bugungi oilaviy va maktabgacha tarbiya amaliyotiga yanada maqsadli tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek og‘zaki xalq ijodining kichik va o‘rtacha hajmli janrlari (ertak, hayvonlar haqidagi ertak, sanama, alla, “Kelinsalom” qo‘shiqlari, lof) har birida o‘ziga xos, aniq ifodalangan axloqiy-tarbiyaviy vazifa mavjud bo‘lib, ular yosh darajasiga qarab tabaqalashgan, lekin barchasi yagona — yosh avlodni yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va egrilik, jasurlik va qo‘rqoqlik o‘rtasidagi farqni anglashga undovchi — pedagogik maqsadga xizmat qiladi. Kichik janrlardagi bu didaktik xulosalar aniq, lo‘nda va bir ma’noli bo‘lsa, yirik qahramonlik dostonlarida (jumladan “Go‘ro‘g‘li” turkumida) shu tamoyil kengaytirilgan, ko‘p qatlamli epizodlar shaklida namoyon bo‘ladi. Shu bois, kichik janrlardagi tarbiyaviy mexanizmlarni sistemali o‘rganish nafaqat mustaqil ilmiy ahamiyatga ega, balki yirik epik asarlardagi pedagogik mexanizmlarni tasniflash

va tizimlashtirishda ham metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi kelgusi tadqiqotlar uchun kichik va yirik janrlar o‘rtasidagi funksional-tipologik umumiylikni chuqurroq ochib berish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahongirov G‘. Bolalar ertaklari // O‘zbek folklori ocherklari: 3 tomlik. II tom. — Toshkent:
Fan, 1989.
2. Afzalov M. Hayvonlar haqidagi ertaklar // O‘zbek folklori ocherklari: 3 tomlik. II tom. — Toshkent: Fan, 1989.
3. Avezov S. Voqeaband sanamalar // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.
4. Ismonova O. “Kelinsalom” qo‘shiqlarining janr xususiyatlari // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.
5. Safarov O. Bolalar folklori // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.
6. Sarimsoqov B. Lof // O‘zbek folklori ocherklari: 3 tomlik. II tom. — Toshkent: Fan, 1989.
7. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. — Toshkent: Fan, 2011.

JADID DARSLIKLARI SHARQ VA YEVROPA PEDAGOGIK TAFAKKURI KESISHUVIDA: DIDAKTIK TAMOYILLARNING QIYOSIY TAHLILI

Sojidaxon MAMATQULOVA,
Dang‘ara tumanidagi 36-maktab o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Tezisda XX asr boshidagi jadid darsliklari Sharq pedagogik an’anasi va Yevropa didaktikasi uchrashgan nuqta sifatida ko‘rib chiqiladi. Jadid didaktikasining uch manbai – Sharq axloqiy-ta’limiy adabiyoti, Ya.A. Komenskiy va K.D. Ushinskiy didaktikasi hamda turkiy-musulmon dunyosidagi maktab islohotlari tajribasi ajratiladi. Asosiy didaktik tamoyillarning jadid darsliklarida qanday sintez hosil qilgani bo‘yicha tadqiqot gipotezasi ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, darslik, didaktik tamoyillar, qiyosiy pedagogika, Komenskiy, Ushinskiy, Sharq pedagogikasi, pedagogik g‘oyalar transferi.

Abstract. The paper considers early twentieth-century Jadid textbooks as a meeting point of the Eastern pedagogical tradition and European didactics. It identifies three sources of Jadid didactics: Eastern ethical and educational literature, the didactics of J.A. Comenius and K.D. Ushinsky, and school reform across the Turkic-Muslim world. It then puts forward a research hypothesis on how the main didactic principles were combined in Jadid textbooks.

Keywords: Jadidism, textbook, didactic principles, comparative education, Comenius, Ushinsky, Eastern pedagogy, transfer of educational ideas.

Xalqaro qiyosiy pedagogikada ta’limiy g‘oyalarning bir madaniyatdan boshqasiga ko‘chishi va mahalliy sharoitga moslashuvi alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Darsliklar bu jarayonning eng aniq izini saqlaydigan manba hisoblanadi [1]. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshida Turkistonda jadidlar yaratgan darsliklar katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ular Sharq pedagogik an’anasi va Yevropa didaktikasi uchrashgan nuqtada paydo bo‘lgan [2; 3; 4].

Jadid darsliklari haqidagi mavjud tadqiqotlarda ikki xil qarash uchraydi. Bir guruh mualliflar jadid maktabini, asosan, Rossiya va Yevropa maktabi ta’sirida vujudga kelgan hodisa sifatida talqin qiladi. Boshqalar esa uning milliy ildizlarini, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari bilan bog‘liqligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Mazkur tezisda bu ikki qarashni birlashtiruvchi yondashuv taklif etiladi: jadid darsligi turli pedagogik an’analar uchrashgan va yangi sifat hosil qilgan makonda paydo bo‘lgan, degan tezis asoslanadi.

Jadid didaktikasining uch manbai. Nazariy tahlil jadid darsliklaridagi didaktik g‘oyalarning uchta asosiy manbaini ajratish imkonini beradi.

Birinchi manba – Sharq axloqiy-ta’limiy adabiyoti an’anasi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari nomidayoq Sa’diy Sheroziyning “Guliston”iga ishora qiladi. Bu esa jadidlar axloqiy tarbiyani mumtoz Sharq adabiyoti bilan bog‘liq holda tushunganini ko‘rsatadi [5]. Ibratli hikoya, pand-nasihat va she’riy matn orqali tarbiyalash bu an’ananing asosiy xususiyatidir.

Bu an’ananing ildizlari chuqur: Forobiy va Ibn Sino asarlaridagi ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlar, Kaykovusning “Qobusnoma”si, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari kabi axloqiy-ta’limiy adabiyot asrlar davomida maktab va madrasalarda o‘qilgan [6]. Jadidlar bu merosdan voz kechmadi, aksincha, uni yangi maktab ehtiyojlariga moslashtirib, darslik matnlariga kiritdi. Bu ularning ma’rifatparvarligini an’anaviy jamiyat uchun tushunarli va maqbul qilishga ham xizmat qilgan.

Ikkinchi manba – Yevropa didaktikasi. Ya.A. Komenskiy asoslagan sinf-dars tizimi, ko‘rgazmalilik, izchillik va tabiatga muvofiqlik tamoyillari [7], shuningdek, K.D. Ushinskiyning ona tilida o‘qitish, “xalqchillik” va tovush-analitik-sintetik usul haqidagi g‘oyalari [8] Rossiya imperiyasi maktablari va tatar jadid maktablari orqali Turkistonga kirib kelgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchi manba – turkiy-musulmon dunyosidagi maktab islohotlari tajribasi: Ismoil Gasprinskiyning Bog‘chasaroy maktabi, Qozon va Istanbuldagi yangi maktablar. Abdurauf Fitrat kabi jadidlarning Istanbulda ta’lim olgani bu aloqalarning bevosita kanallari bo‘lganini ko‘rsatadi [9; 3].

Tahlilning nazariy asosi. Jadid didaktikasini o‘rganishda qiyosiy pedagogikadagi ta’limiy g‘oyalar transferi nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu nazariyaga ko‘ra, boshqa mamlakat tajribasi hech qachon o‘zgarishsiz ko‘chirilmaydi. U mahalliy ehtiyojlar, qadriyatlar va siyosiy sharoitlar ta’sirida tanlab olinadi va qayta talqin qilinadi [10]. Yu. Shriver ko‘rsatganidek, islohotchilar xorijiy tajribaga ko‘pincha o‘z g‘oyalarini asoslash va qonuniylashtirish uchun murojaat qiladi [11]. D. Fillips va K. Oks ta’limdagi “qarz olish” jarayonini to‘rt bosqichli model shaklida tasvirlagan: xorijiy tajribaga qiziqish, uni qabul qilish haqida qaror, joriy etish va mahalliylashtirish [12]. Bu model jadid darsliklari tarixini tahlil qilish uchun qulay tuzilma beradi (2-jadval).

2-jadval

Pedagogik g‘oyalar transferi bosqichlari va ularning jadid darsliklari tarixida namoyon bo‘lishi

Bosqich (Fillips va Oks bo‘yicha)	Jadid darsliklari tarixidagi ko‘rinishi (tadqiqot gipotezasi)
1. Xorijiy tajribaga qiziqish	Eski maktabni tanqid qilish; Qrim, Qozon va Istanbuldagi yangi maktablar haqidagi xabarlarning matbuotda tarqalishi
2. Qabul qilish haqida qaror	Birinchi usuli jadid maktablarining ochilishi; Gasprinskiy alifbesidan foydalanish
3. Joriy etish	Mahalliy mualliflar tomonidan turkiy tilda alifbe, o‘qish kitoblari va fan darsliklarining yaratilishi
4. Mahalliylashtirish	Mazmunni Turkiston tili, tarixi, jug‘rofiyasi va axloqiy an’analariga moslashtirish; milliy o‘quv adabiyoti tizimining shakllanishi

Bu yondashuvga ko‘ra, jadid darsliklarini “boshqa mamlakatdan olingan” yoki “to‘liq milliy” deb baholash yetarli emas. Asosiy savol boshqacha: jadidlar xorijiy tajribadan nimani tanlagan, nimani rad etgan va tanlaganlarini qanday

o‘zgartirgan? Aynan shu savol didaktik tamoyillarni qiyosiy tahlil qilishning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Didaktik tamoyillarning sintezi. Bu uchta manba jadid darsliklarida qanday uyg‘unlashganini asosiy tamoyillar misolida ko‘rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Jadid darsliklarida didaktik tamoyillarning manbalari (tadqiqot gipotezasi)

Tamoyil	Sharq an’anasi	Yevropa didaktikasi	Jadid darsligida kutilayotgan sintez
Tarbiyalovchi ta’lim	Pand-nasihat, ibratli hikoya	Komenskiy: bilim va axloqning birligi; Ushinskiy: tarbiyalovchi ta’lim	Axloqiy matnlar mazmuni Sharq an’anasidan, joylashuvi didaktik izchillikka asoslangan
Ko‘rgazmalilik	Asosan og‘zaki tushuntirish	Komenskiy: “oltin qoida”; Ushinskiy: predmet asosidagi suhbat	Rasm, jadval, xaritaning darslikka kirib kelishi
Izchillik	Matndan matnga o‘tish	Oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga	Tovushdan matngacha, o‘lkadan dunyogacha bo‘lgan ketma-ketlik
Milliylik	Mumtoz adabiyot namunalari	Ushinskiy: “xalqchillik”, ona tilining ustuvorligi	Ona tilida o‘qitish; vatan, millat va taraqqiyot g‘oyalari
Hayot bilan bog‘liqlik	Amaliy axloq	Foydali bilimlar	Jug‘rofiya, hisob, xat yozish kabi dunyoviy bilimlar

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jadid darsliklari axloqiy mazmunni asosan Sharq an’anasidan, uni tashkil etish usulini esa Yevropa didaktikasidan olgan, degan gipotezani ilgari surish mumkin. Jadid didaktikasining o‘ziga xos jihati – diniy va dunyoviy bilimlarni bir darslikda uyg‘unlashtirishga intilish. Bu xususiyat na Komenskiy, na Ushinskiy tizimida aynan shu shaklda uchramaydi. Ushbu

gipoteza tadqiqotning keyingi bosqichida darslik matnlari va muallif muqaddimalarini kontent-tahlil qilish orqali tekshiriladi [6].

Bu xususiyatni Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi misolida aniq ko‘rish mumkin: u bir tomondan “Muxtasari tarixi islom” kabi diniy-tarixiy, ikkinchi tomondan “Risolai jug‘rofiyai umroniy” kabi dunyoviy fan darsligini yaratgan. Jadidlar uchun din va zamonaviy ilm bir-biriga qarama-qarshi emas edi. Ularning fikricha, har ikkalasi ham jamiyatni taraqqiyotga olib chiqish uchun zarur. Bu qarash jadid darsligini Yevropa dunyoviy maktabi darsligidan ham, an’anaviy madrasa kitobidan ham farqlaydi.

Tadqiqot usullari va manbalari. Gipotezani tekshirishda tarixiy-pedagogik, qiyosiy va kontent-tahlil usullaridan foydalaniladi. Birlamchi manbalar – jadid darsliklarining eski o‘zbek yozuvidagi nashrlari. Ular O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanadi. Qo‘shimcha manbalar – 1905-1918 yillardagi davriy matbuot materiallari hamda jadidlar asarlarining zamonaviy nashrlari [5; 9]. Har bir darslik yagona mezonlar asosida tahlil qilinadi: mazmun (mavzular, qadriyatlar, matn turlari va ularning kelib chiqishi), metodik tuzilish (bo‘limlar, mashqlar, ko‘rgazmali vositalar) va didaktik tamoyillarning namoyon bo‘lishi. Matnlarning kelib chiqishini aniqlashga alohida e’tibor beriladi: mumtoz Sharq adabiyotidan olingan, tarjima qilingan yoki moslashtirilgan hamda muallif tomonidan yozilgan matnlarning ulushi hisoblanadi. Aynan shu ko‘rsatkich jadid darsligidagi Sharq va Yevropa unsurlarining nisbatini miqdor jihatidan baholash imkonini beradi. Natijalar Gasprinskiy va boshqa tatar jadidlari darsliklari bo‘yicha olingan ma’lumotlar bilan solishtiriladi.

Metodologik ogohlantirish. Qiyosiy tahlilda ikki xavfdan saqlanish lozim. Birinchisi – jadid darsliklarini Yevropa modelining “nusxasi” deb baholash. Ikkinchisi – ularni faqat milliy an’ana mahsuli deb ko‘rsatish. O‘xshashlik har doim ham bevosita ta’sirni anglatmaydi: o‘xshash muammolarga o‘xshash yechimlar mustaqil ravishda topilishi ham mumkin. Shu sababli ta’sir haqidagi xulosalar faqat birlamchi manbalardagi aniq dalillarga – nomlar, iqtiboslar, tarjimalar va mualliflarning o‘z e’tiroflariga – tayanishi kerak.

Tadqiqot istiqbollari. Gipotezani tekshirish uchun uchta yo‘nalishda ishlash ko‘zda tutiladi: birinchidan, jadid darsliklarining muqaddimalarida xorijiy mualliflar, maktablar va kitoblarga qilingan ishoralarni aniqlash; ikkinchidan, Turkiston jadid darsliklarini Gasprinskiy va tatar jadidlari darsliklari bilan tuzilishi va mazmuni bo‘yicha qiyoslash; uchinchidan, darsliklardagi axloqiy matnlarning manbalarini (mumtoz Sharq adabiyoti, tarjima, mualliflik) aniqlash. Natijalar jadid didaktikasining o‘ziga xosligini dalillar asosida ko‘rsatish imkonini beradi.

Xalqaro ahamiyati. XIX asr oxiri – XX asr boshida Yevropa ta’lim tajribasini o‘z an’analari bilan uyg‘unlashtirishga intilish ko‘plab noyevropa

jamiyatlari uchun xos bo‘lgan. Jadid darsliklari bu umumiy jarayonning Markaziy Osiyodagi ko‘rinishi sifatida xalqaro qiyosiy tadqiqotlar uchun qimmatli material beradi. Ularni boshqa mintaqalardagi shu kabi islohotlar bilan qiyoslash modernizatsiya sharoitida milliy ta’lim tizimlarining shakllanish qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Jadid darsliklari Sharq va Yevropa pedagogik tafakkurining o‘ziga xos sintezini ifodalaydi. Bu sintezni uch manba nuqtai nazaridan o‘rganish jadid merosini faqat milliy doirada emas, balki xalqaro qiyosiy pedagogika va pedagogik g‘oyalar transferi kontekstida talqin qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv O‘zbekiston pedagogika tarixini jahon pedagogika tarixining tarkibiy qismi sifatida taqdim etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pingel F. UNESCO Guidebook on Textbook Research and Textbook Revision. 2nd revised and updated ed. – Paris; Braunschweig: UNESCO; Georg Eckert Institute, 2010.

2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – T.: Ma’naviyat, 2002.

3. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

4. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990.

5. Avloniy A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. – T.: Ma’naviyat, 1998.

6. Hoshimov Q., Nishonova S. va boshq. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

7. Коменский Я.А. Великая дидактика // Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2 т. – Т. 1. – М.: Педагогика, 1982.

8. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: В 6 т. – М.: Педагогика, 1988–1990.

9. Fitrat A. Tanlangan asarlar: 5 jildlik. – T.: Ma’naviyat, 2000–2010.

10. Steiner-Khamsi G. (Ed.) The Global Politics of Educational Borrowing and Lending. – New York: Teachers College Press, 2004.

11. Schriewer J. (Ed.) Discourse Formation in Comparative Education. – Frankfurt am Main: Peter Lang, 2000.

12. Phillips D., Ochs K. Processes of Policy Borrowing in Education: Some Explanatory and Analytical Devices // Comparative Education. – 2003. – Vol. 39, No. 4. – P. 451-461.

MUNDARIJA

Zaxidov G‘afurjon ERKINOVICH. JADIDLAR MEROSI — ZAMONAVIY TA’LIM RIVOJINING MUHIM OMILI……..4-5

1-SHO‘BA. JADID MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA PEDAGOGIK MEROSI

Risbay DJURAYEV. YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDCHILIK FAOLIYATINING TARBIYAVIY AHAMIYATI……..5-6

Zeboxon QOBILOVA, Sug‘diyona ERGASHEVA. HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING MA’RIFIY-PEDAGOGIK QARASHLARI.....7-12

Safarova R.G. YOSHLAR TARBIYASIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI: JADID MA’RIFATPARVARLARI MEROSI ASOSIDA.....12-17

Dilshod Temirov SHERALIYEVICH. JADID MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING TUTGAN O‘RNI……17-22

Dilmurod ASQAROV. MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING “YER YUZI” DARSLIGINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....22-26

M.SAIDAKBAROVA, F.QURBONOVA. ASHURALI ZOHIRIYNING PEDOGOGIK QARASHLARI.....26-29

Akramjon XUDAYBERDIYEV, Musharrafxon O‘LMASBEKOVA. CHO‘LPONNING “DO‘XTUR MUHAMMADIYOR” HIKOYASIDA ZIYOLI OBRAZI HAMDA MA’RIFAT VA JAHOLAT QARAMA-QARSHILIGI.....30-33

Sofiyaxon Usmonova ALIMOVNA. FARG‘ONA JADIDLARNING MA’NAVIY OTASI - ZOKIRJON FURQAT……...34-39

Musharrafxon IMOMALIYEVA, Nodirbek Abduqaxxorov UMIDJON O‘G‘LI. HOJI MUIN SHUKRULLONING PEDAGOGIK QARASHLARI VA JADID TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI……39-45

Musharrafxon IMOMALIYEVA, Sabrina Tuxtaboyeva JAXONGIR QIZI. FAZLULLOH ALMAIY IJODI VA JADID PEDAGOGIK G‘OYALARINING TALQINI……..46-50

Feruza Qurbonova A’ZAMOVNA, Hilolaxon NOMOZALIYEVA . ABDULLA AVLONIY QARASHLARIDA AXLOQIY TARBIYA VA MA’NAVIY KAMOLOT MASALALARI……50-54

Guljahon Eshonqulova ABDUQAXXOROVNA, Dilshunosxon Sobirjonova O‘KTAMJON QIZI. ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK MEROSIDA IRODANI RIVOJLANTIRISH VA XARAKTER TARBIYASI……54-63

Omadbek Xursanov ULUG‘BEK O‘G‘LI. JADID MUTAFAKKIRLARNING OILA MUSTAHKAMLIGI BORASIDAGI QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI……63-68

Furqatjon Anvarov ROVSHANJON O‘G‘LI. JADID MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARINING TA’LIM-TARBIYADAGI O‘RNI……68-74

Sohiba Arzikulova ABDUJABBOR QIZI. HAMZA LIRIKASIDA TA’LIM-TARBIYA MASALASINING YORITILISHI.....74-80

Umarjon MELIKUZIYEV. MIRZO XAYRULLO XO'QANDIY VA UNING JADIDCHILIK FAOLIYATI.....80-84

Muhriddin Rahmatov AZIMOVICH. TURKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY ISLOHOTLAR STRATEGIYASI: MUXTOR BAKIRNING KONSEPTUAL QARASHLARI TAHLILI.....84-88

Javharova Nilufar ODILJON QIZI, Mirzaaliyeva Gulchiroy ALIMARDON QIZI. JADIDCHILIK HARAKATI MUHIM PEDAGOGIK INQILOB SIFATIDA.....88-93

Sadoqatxon Shamsiddinova G‘OPPORJON QIZI. ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARIDA TARBIYA MASALASI (“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI MISOLIDA)……94-99

Tamara XAITBOYEVA. XORAZMDA JADIDCHILIK……...100-104

Dildoraxon Abdumalikova ABDUMUHAMMAD QIZI. G‘AYRATIY IJODINING MA’NAVIY-MA’RIFIY MOHIYATI VA YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI……104-110

2-SHO‘BA. JADIDLAR G‘OYALARINING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

L.M.QARAXONOVA, BUGUNGI KUN MILLIY TA’LIM VA TARBIYASINING TARG‘IBOTCHISI SIFATIDA JADIDLAR FAOLIYATI VA AHAMIYATI……...…..111-114

Исмаил Ахмедов РИЗАЕВИЧ, Малохат Кошназарова АЛИМОВНА. ДЖАДИДИЗМ И ИСЛАМ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ФИЛОСОФИИ НОВОГО СОЗНАНИЯ……115-121

Zarif Begimqulov AXMADOVCH. JADIDLAR PEDAGOGIK G‘OYALARINING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI.....121-128

Muhayyo Umaraliyeva ABDUGAPAROVNA. TARBIYANING MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLIGI.....128-131

Ozod Abdug‘aniyev TURSUNBOY O‘G‘LI. MA’RIFATPARVAR PEDAGOG ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARIDA YOSH AVLOD TA’LIM-TARBIYASINING ASOSIY JIHATLARI……..131-139

Akmaljon Sattarov IBROXIMOVICH. JADID PEDAGOGIKASI VA BUGUNGI TA’LIM: MILLIY QADRIYATLAR VA INNOVATSIYALAR KO‘PRIGI…….....139-146

Tursunova Namunaxon XAYDARALI QIZI, Mansurxo‘jayeva Gulchexraxon SAYDULLOXO‘JA QIZI. JADID PEDAGOGIKASIDA IS’HAQXON TO‘RA IBRATNING O‘RNI.....146-150

Madina Namozova TOYIR QIZI. JADID MA’RIFATPARVARLARI G‘OYALARI – YOSHLAR ONGINI MARGINAL MADANIYAT TA’SIRIDAN HIMOYALASH OMILI SIFATIDA.....150-156

Nazir Rustamov CHORIYEVICH. JADIDLAR PEDAGOGIKASI: YOSH AVLOD TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR.....156-160

Gulruxon Ashurova OXUNOVNA. JADIDLAR G‘OYALARIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI.....160-167

Зарема Шерефетдинова РУСТЕМОВНА. ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЕ.....167-170

3-SHO‘BA. MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIDA TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Xolboy Ibraimov IBRAGIMOVICH. IS’HOQXON IBRAT FAOLIYATI VA ILMIY MEROSI – MA’NAVIY YUKSALISH VA MILLIY TARBIYMIZNING TAYANCHI.....171-175

Xilolaxon Tojiboyeva MAXMUTOVNA. JADIDCHILIK PEDAGOGIKASI: TARIXIY MEROS, ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI VA INTEGRATIV YONDASHUVLAR.....176-182

Munisjon HAKIMOV. BIR RUH, IKKI DAVR: BOBUR TAFAKKURI VA JADIDLAR HARAKATI……..……183-190

Nasiba Masharipova RO‘ZMATOVNA. JADID MA’RIFATPARVARLARI FAOLIYATI VA G‘OYALARI – MILLIY QAHRAMONLIK TIMSOLI.....…….191-196

Dildora Choriyeva ISMAT QIZI. O‘SMIR QIZLARDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA JADID MA’RIFATPARVARLARI QARASHLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....197-203

Xusnidin Orziqulov TO‘LQIN O‘G‘LI. JADID MA’RIFATPARVARLARINING MILLIY PEDAGOGIKAMIZGA QO‘SHGAN HISSASI……204-209

Eshonqulova Guljahon ABDUQAXXOROVNA. TALABA-YOSHLARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA G‘AZZOLIYNING “MUHOSABA” VA AVLONIYNING “RIYOZAT” METODLARIDAN FOYDALANISH……..209-216

Namunaxon TURSUNOVA, Sevinch ZULFIQOROVA. SIDDIQIY AJZIYNINNG MILLIY PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI……....……216-220

E’zozxon QOBILOVA, BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI……...221-226

Nargiza XOSHIMOVA. JADIDLAR ADABIYOTIDA GENDER STEREOTIP VA GENDER ROLLAR TALQINI……...226-229

E’zozxon QOBILOVA, BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA TARIX, AN’ANA VA DAVOMIYLIK……..230-236

Nilufar JAVHAROVA, ASHURALI ZOHIRIYNING “ZAMON HAM BIZ” MAQOLASIDA PEDAGOGIK TAFAKKUR VA ZAMONAVIYLIK G‘OYASI……..….236-241

Saidaxon RASULOVA, MUKARRAMA TURG‘UNBOYEVA IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR VA MADANIY IDENTITET MASALALARI……242-246

Homidaxon RASULOVA, BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARDA KASBIY-PEDAGOGIK IDENTITETNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI……..……246-251

Shahboz ERGASHEV, BOLALAR O‘YINLARI JISMONIY TARBIYANING AMALIY JANRI SIFATIDA……..….251-258

Hilola RAIMOVA, Qanoatxon DEHQONOVA, ERK VA MA’RIFAT KUYCHISI……..…….…….258-262

Gulnoza ZIYOUDDINOVA, MUHIDDIN OMON SHE’RIYATIDA G‘AZAL JANRI VA UNING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI……..263-266

Toxirjon UMAROV, ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA RAHBAR SHAXSINING MA’NAVIY-RUHIY BARQARORLIGI (“RAHBARI NAJOT” MISOLIDA)……..……266-272

Xilola XAYDAROVA, “OTA-ONA.UZ” RAQAMLI PLATFORMASI VA MASOFAVIY MODULLI TRENING TIZIMI……272-279

Zilola SULTONOVA, ELBEKNING JADIDCHILIK FAOLIYATI…..….279-284

Asilaxon YUSUPOVA, KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA JADIDLAR MEROSIDAN FOYDALANISH (Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari misolida)……284-292

Mo‘minaxon BAXTIYOROVA, HAMZA PEDAGOGIK MEROSINING UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAZMUNIDAGI O‘RNI: HOZIRGI HOLAT VA TAKLIFLAR……..……292-297

Gulira’no IBROHIMOVA, XALQ O‘YINLARI – MILLIY-MADANIY MEROS SIFATIDA……...……298-301

Soxibjamol TANGATAROVA, IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH: INTERFAOL USULLAR, TALAFFUZ MASHQLARI VA BAHOLASH……..302-306

Zumradxon TESHABOYEVA, O‘ZBEK OG‘ZAKI XALQ IJODINING KICHIK VA O‘RTACHA HAJMLI JANRLARIDA AXLOQIY-TARBIYAVIY FUNKSIYA MASALASI…….….306-312

Sojidaxon MAMATQULOVA, JADID DARSLIKLARI SHARQ VA YEVROPA PEDAGOGIK TAFAKKURI KESISHUVIDA: DIDAKTIK TAMOYILLARNING QIYOSIY TAHLILI……..…312-317